O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha ham ahamiyatli farqlar kuzatilib (U=1891,000, p<0,01), monozigotali egizaklarda agressiv xulq-atvorga moyillik digizotali egizaklarga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Tadqiqotlardan olingan

natijalarni tahlil qilish chog‘ida ham o‘smir yoshdagi egizaklarda bir-biridan uzoqlashish kuzatilib, mazkur hodisa ulardagi ichki agressivlik darajasini ortishiga olib keluvchi faktorlar biri bo‘lib rol o‘ynar ekan. Biz tarafdan olingan tadqiqot natijalari tahlilida esa, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik o‘smir egizaklarda ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga keluvchi “men” komponenetidagi “tan olish va tan oldirish” ehtiyojining ehtiyojlar ierarxiyasida ustuvorlik kasb etganligi bilan ham izohlanadi.

Shuningdek, olingan psixodiagnostik metodikmizning deyarli 70% shkala ko‘rsatkichlari bo‘yicha ahamiyatli va ishonch darajasidagi farqlar aniqlanib, xususan, ruhiy siqilish (U=1819,500, p<0,001), serjahllik (U=1705,000, p<0,001), muloqotchanlik (U=1540,500, p<0,001), og‘irlik, vazminlik (U=1969,500, p<0,001), ochiqlik-oshkoralik (U=1986,000, p<0,01), ekstraversiya-intraversiya (U=2043,500, p<0,01), ta’sirchanlik-o‘zgaruvchanlik (U=1765,000, p<0,001) shular jumlasidandir.

Ruhiy siqilish shkalasi bo‘yicha monozigotali egizaklarda o‘rtacha ko‘rsatkich 86,34 ni , dizigotali egizaklarda 60,93 ni tashkil etib, bir xil tashqi ko‘rinish, bir xil jinsga mansub egizaklarda ruhiy siqilish, hodisalarni tez o‘ziga qabul qilish ko‘rsatkichi yuqoriroq bo‘lishi ma’lum bo‘ladi. Mazkur farqni egizaklardagi himoya mexanizmlarining bir-birga o‘ta bog‘langanligi ta’sirida o‘zaro yuqish effekti ko‘pligidan bir xil ko‘rinish, bitta urug‘dondan hosil bo‘lgan egizak o‘smirlarda tashqi ta’sirlarga tez beriluvchanlik oqibatida ruhiy tushkunlikka tushish ehtimolining ko‘pligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Ulardagi bir-biriga doimiy bog‘liqlik, hayotiy strategiyalarni ham birga qurish tamoyili bitta egizak hafa bo‘lsa, ikkinchiga ham hafa bo‘lishi kerakligini ta’kidlovchi mexanizm sifatida refleksiv xarakter kasb etishi natijasida sodir bo‘ladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash yuqorida o’tkazilgan metodikadagi natijalarga muofiq egizaklarning shakllanishida yuzaga keladigan psixologik o’zgarishlarning ta’siri muammosi hamda ularning o’zaro farqlanuvchi psixologik determinanatlari biologik, ijtimoiy -madaniy rivojlanish mexanizmlari bilan chambarchas bog’liq. Egizaklarning Monozigota va dizigotalik farqlanishiga ko’ra psixologik determinantlar sifatida monozigotali egizaklarda tortinchoqlik, ochiqlik, ta’sirchanlik, mardlik, nazokatlilik, muloqotchanlik, asabiylashganlik, dizigotali egizaklarda jizzakilik, vazminlik, serjahllik, emotsional barqarorlik ko‘lami kabi psixologik jarayonlar kuzatilgan. Ushbu o’tkazilgan tadqiqot egizaklarning shakllanishi bilan bog’liq psixologik determinanatlaridagi o’zgarishlar ijtimoiy aspeklarning namoyon bo’lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarimiz - hayotimiz guli, ularning kelajagi porloq, ertangi kuni bundan ham go‘zal va farovon bo‘lishiga katta ishonch bor.Shu o‘rinda egizak bolalar tug‘ilgan oila esa bizning mamlakatimizda baxtlilarning baxtlisidir.Egizak farzandi bor xonadonga ularni ijtimoiy muhitdagi rolini to‘g‘ri anglashiga yordam berish uchun ikki barobar ma’suliyat yuklatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Морозова, Т. Б. Формирование направленности личности близнеца-подростка как социально-педагогическая проблема в системе дополнительного образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Т. Б. Морозова. – Москва, 2011. – 26 с.
2. Зырянова, Н. М. Близнецы / Н. М. Зырянова. – Москва : Солитон, 2006. – 180 с.
3. Сергиенко, Е. А. Развитие близнецов и особенности их воспитания / Е. А. Сергиенко, Т. Б. Рязанова, Г. А. Виленская, А. В. Дозорцева. – Москва : Институт психологии РАН, 2000. – 40 с.
4. Izatovna, T. S. Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation / T. S. Izatovna // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2022. – Vol. 3, No. 2. – P. 51–57.
5. Izatovna, T. S. The Influence of Psychogenetic Factors on the Upbringing of Twins in Uzbek Families / T. S. Izatovna // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Vol. 2, No. 05. – P. 297–303.
6. Twin and Triplet Psychology: A professional guide to working with multiples / Edited by Audrey C. Sandbank. – London ; New York : Routledge, 1999. – 240 p.

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna
O'zbekiston Milliy Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrasi mudiri, Psixologiya fanlari doktori,professor
E-mail: sdilbar@yandex.ru,
Zuxurova Dilrabo Abdulaziz qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrasi kata o'qituvchisi, Psixologiya fanlari doktori(PhD)
E-mail: zdilrabo4493@gmail.com

SHAXSDA 'MEN' TASAVVURI VA O'Z-O'ZINI BAHOLASHNING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Men konsepsiyasi - bu insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga o'zining jismoniy, intelektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish, o'z-o'ziga baho berish va shaxsiyatga tasir o'tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etish kiradi. Men konsepsiyasi shaxsning o'zini tanlash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini aktualizatsiya qilishga yordam beradi, shu sababli biz ushbu maqolamizda "men" obrazi va o'zini-o'zi baholashning eng muhim bosqichlari haqida yoritib bermoqdamiz.*

Kalit so'zlar: *"men" obrazi, o'zini-o'zi baholash, identifikatsiya, jinsiy tipazatsiya nazaryasi, avtokategorizatsiya nazaryasi.*

ОБРАЗ "Я" У ЛИЧНОСТИ И ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ САМООЦЕНКИ

Аннотация. *Я-концепция – это развивающаяся система представлений человека о себе, включающая в себя восприятие его физических, интеллектуальных, характерологических, социальных и других характеристик, самооценку и субъективные внешние факторы, влияющие на личность. Я-концепция помогает человеку выбрать себя, саморазвитие и самореализацию, поэтому в этой статье мы обсудим наиболее важные этапы формирования Я-образа и самооценки, о которых мы рассказываем.*

Ключевые слова: *образ «Я», самооценка, идентификация, теория половой типизации, теория автокатегоризации.*

THE SELF-CONCEPT IN PERSONALITY AND THE MAIN STAGES OF SELF-ESTEEM DEVELOPMENT

Abstract. *Self-concept is a developing system of a person's ideas about himself, which includes the perception of his physical, intellectual, characterological, social and other characteristics, self-evaluation and subjective external factors influencing personality. includes perception. Self-concept helps an individual to choose himself, self-development and self-actualization, so in this article we will discuss the most important stages of self-image and self-evaluation. we are covering about.*

Key words: *"I" image, self-evaluation, identification, sexual typification theory, auto-categorization theory.*

Kirish. Zamonaviy psixologiyada shaxsning o'zini anglash muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsning "Men" konsepsiyasi uning o'zini qanday qabul qilishi, o'z imkoniyatlari va xulq-atvorini baholashi hamda jamiyatdagi o'rnini anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. "Men" obrazi insonning ichki dunyosini, uning o'ziga bo'lgan munosabatini va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Shaxsda "Men" tasavvurining shakllanishi va rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, u yosh, tajriba, ijtimoiy muhit hamda referent guruh ta'sirida takomillashib boradi. Ayniqsa, o'z-o'zini baholash darajasi shaxsning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va hayotiy muvaffaqiyatlariga

bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur maqolada shaxsda "Men" konsepsiyasining shakllanishi, uning tarkibiy qismlari hamda o'z-o'zini baholash jarayonining asosiy rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi.

Jadval-1.

R.MakKrae va P.Kostning "Katta beshlik" so'rovnomasi bo'yicha Ekstraversiya-Introversiya shkalalari va «Men kimman?» metodikasi ko'rsatgichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar (Spirman mezoni)

Shkalalar	Faollik-passivlik	Ustunlik qilish-bo'ysunish	Muloqotmandlik-odamovilik	Taassurotlar izlash-qochish	Diqqatni jalb etish-qochish	Ekstraversiya-Introversiya
Ijtimoiy Men	-0,067**	0,000	0,030	-0,024	-0,009	-0,028
Kommunikativ Men	0,037	-0,007	0,109**	0,027	0,068**	0,077**
Moddiy Men	0,099**	0,283**	0,222**	0,117**	0,128**	0,243**
Jismoniy Men	-0,010	0,051*	0,012	0,006	-0,008	0,019
Faol Men	0,032	0,041	-0,045	0,020	0,071**	0,029
Istiqboldagi Men	0,062**	0,000	-0,086**	0,056*	0,016	-0,004
Refleksiv Men	-0,051*	-0,219**	-0,140**	-0,008	-0,052*	-0,155**

R.MakKrae va P.Kostning "Katta beshlik" so'rovnomasi bo'yicha Ekstraversiya-Introversiya shkalalari va «Men kimman?» metodikasi ko'rsatgichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar o'rganilganda Ijtimoiy men va Faollik –passivlik (r= -0,067; p<0,01). shkalasi o'rtasida manfiy korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi, bunga sabab Ijtimoiy «Men»shaxsning o'zini jamoat oldida qanday his qilishini ifodalaydi. Manfiy bog'liqlik introvertlarning jamoat bilan kamroq aloqada bo'lishga moyilligini ko'rsatadi. Bu shaxslarning ijtimoiy faollikka ehtiyoji pastroq bo'lishi bilan izohlanadi. Ya'ni ulardagi passivlikni anglatadi. Kommunikativ men va Muloqotmandlik-odamovilik (r= 0,109; p<0,01). shkalasi o'rtasida musbat korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi. Kommunikativ Men shaxsning o'zini ijtimoiy va muloqotli deb his qilishiga asoslangan. Ekstravertlar muloqot qilishdan zavq oladi va boshqalar bilan aloqada bo'lishga moyil. Bu o'z navbatida, kommunikativ xulq-atvor bilan bog'liq. Kommunikativ men va diqqatni jalb etish- qochish (r= 0,068; p<0,01). shkalasi o'rtasida ham o'zaro musbat bog'liqlik kuzatildi ya'ni bu yerda kommunikativ insonlarda diqqatni jalb etish yuqori bo'ladi, ular kommunikatsiyaga kirishishda avvalam bor diqqatni jalb qillib aloqaga kirishshadi. Kommunikativ men va ekstraversiya-introversiya shkalasi o'rtasida musbat aloqadorlik kuzatildi(r= 0,077; p<0,01). Ya'ni shaxsning muloqot qilishga va boshqalar bilan aloqada bo'lishga bo'lgan moyilligini ifodalaydi. Musbat bog'liqlik ekstravert shaxslarning muloqotga intiluvchanligini tasdiqlaydi. Ekstravertlar odatda suhbatni boshlashga va davom ettirishga moyil. Moddiy men va faollik –passivlik (r= 0,099; p<0,01) o'rtasida o'zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Bunga sabab taiiyki moddiy men yuqori insonlarda faollik ham o'z ozidan ortadi. Chunki ular o'z hayotlarida kelgan har qanday voqea hodisalarni pul bilan bog'lab, jamiyatda yanada faolroq bo'lishga intilishadi. Moddiy men va Ustunlik qilish-bo'ysunish (r= 0,283; p<0,01) o'rtasida o'zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Bu musbat korrelyatsiya shuni anglatadi, o'zini «moddiy jihatdan muvaffaqiyatli» deb his qiladigan odamlar ustunlik qilishga moyilroq. Sababi, moddiy muvaffaqiyat ko'pincha ijtimoiy mavqe bilan bog'liq bo'lib, bu odamda o'zini yetakchi yoki kuchliroq his qilishni rag'batlantiradi. Moddiy men va Muloqotmandlik-odamovilik (r= 0,222; p<0,01) o'rtasida o'zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Ya'ni moddiy muvaffaqiyatga intiluvchi shaxslar odatda ijtimoiy aloqalar orqali imkoniyatlarni kengaytirishga harakat qiladi. Ular yaxshi imkoniyatlar, o'zlarining moddiy holatini yaxshilash uchun boshqa odamlar bilan muloqot qilishni muhim deb biladilar. Shu sababdan ham shunday bo'g'liqlik kuzatilgan bo'lishi mumkin. Moddiy men va Taassurotlar izlash-qochish (r= 0,117; p<0,01) o'rtasida o'zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Bunda moddiy qadriyatlar

o‘z-o‘zidan ko‘pincha ijtimoiy ko‘rinish, yangi tajribalar yoki taassurotlar bilan boyitiladi. Masalan, moddiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lish ko‘pincha sayohat qilish, qimmatbaho o‘yin-kulgilar, moda va boshqa taassurotlar izlash bilan bog’liq bo‘lishi mumkin. shu sababdan shunday natija bergan. Moddiy men va Diqqatni jalb etish-qochish (r= 0,128; p<0,01) o‘rtasida o‘zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Bu natija shuni anglatadiki, moddiy qadriyatlarga katta ahamiyat beradigan shaxslar boshqalarning e’tiborini o‘ziga jalb qilishga moyildir. Bunday shaxslar uchun diqqat markazida bo‘lish ularning muvaffaqiyatlarini tan olinishiga xizmat qiladigan vosita sifatida ahamiyatlidir. Moddiy men va Ekstraversiya-Introversiya (r= 0,243; p<0,01) o‘rtasida o‘zaro musbat aloqadorlik kuzatildi. Ya’ni natija shuni anglatadiki, Moddiy Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar odatda ekstravert bo‘lib, ijtimoiy muloqotga ochiq va diqqat markazida bo‘lishga intiladi. Bu ular uchun moddiy yutuqlarni namoyish qilish va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan omil hisoblanadi. Jismoniy men va Ustunlik qilish-bo‘ysunish shkalasiga ko‘ra musbat bog’liqlik ko‘rdik (r= 0,051; p<0,05). Natijamiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zini jismoniy jihatdan yuqori baholaydigan shaxslar biroz ustunlik qilishga moyil bo‘lishadi. Bu o‘zlarining jismoniy kuchini yoki salohiyatini boshqalarga ko‘rsatish istagi bilan bog’liq. Ammo bog’liqlik nisbatan past bo‘lgani sababli, bu har doim ham kuchli ustunlikka olib kelmasligi mumkin. Faol Men va Diqqatni jalb etish-qochish shkalasiga ko‘ra musbat bog’liqlik ko‘rdik (r= 0,071; p<0,01). Ya’ni musbat korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, Faol Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar, diqqatni o‘zlariga jalb qilishga ozgina moyildir. Bu ularning faoliyatlari va tashabbuskorliklari orqali boshqalarning e’tiborini qozonish ehtiyoji bilan bog’liq. Biroq bog’liqlikning past darajadaligi shuni anglatadiki, bu xulq-atvor barcha faol shaxslar uchun universal xususiyat emas. Istiqboldagi Men va Faollik-passivlik (r= 0,062; p<0,01) shkalasi o‘rtasida musbat bog’liqlik kuzatshimiz mumkin. Bunga sabab istiqboldagi men shaxsning kelajakdagi o‘z ideal obrazini qanday tasavvur qilishi va bunga qanday erishishni rejalashtirishini ifodalaydi. Bunday shaxs o‘z hayotining oldinga siljishi va rivojlanishi haqida aniq maqsad va rejalar bilan yashaydi. Natija shuni ko‘rsatadiki, istiqbolni o‘z oldiga aniq maqsad sifatida qo‘ygan shaxslar faolroq bo‘lishga moyildir. Ammo bog’liqlik nisbatan past darajada ekanligi sababli, bu munosabat kuchli emas va faollik darajasi boshqa omillarga ham bog’liq bo‘lishi mumkin. Istiqboldagi Men va Muloqotmandlik-odamovilik (r= -0,086; p<0,01) shkalasi o‘rtasida manfiy bog’liqlik kuzatshimiz mumkin. Natijamiz shuni ko‘rsatadiki, kelajakka qaratilgan shaxslar odatda odamoviroq bo‘lishga moyildirlar. Bu shaxslar ichki maqsad va rejalar bilan band bo‘lib, ijtimoiy aloqalarga kamroq vaqt ajratishi mumkin. Salbiy bog’liqlik nisbatan past darajada bo‘lgani sababli, bu tendensiya kuchli emas, ammo baribir sezilarli. Istiqboldagi Men va Taassurotlar izlash-qochish (r= 0,056; p<0,05) shkalasi o‘rtasida musbat bog’liqlik kuzatshimiz mumkin. Musbat korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, kelajakka aniq maqsadlar bilan qaragan shaxslar taassurotlarni izlashga biroz moyil. Bu shaxslar yangi tajribalarni izlab, o‘zlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni kutishi mumkin. Refleksiv Men va Faollik-passivlik (r= -0,051; p<0,05) shkalasi o‘rtasida manfiy bog’liqlik kuzatshimiz mumkin. Natijaga ko‘ra, Refleksiv Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar passivroq bo‘lishga moyil. Bunday shaxslar ichki refleksiya va o‘zini tahlil qilishga ko‘proq vaqt ajratib, tashqi faoliyatlarga va tashabbuslarga kamroq e’tibor qaratishlari mumkin. Biroq, bu bog’liqlik nisbatan past darajaga ega, shuning uchun barcha refleksiv shaxslar passiv bo‘lmasligi mumkin. Refleksiv Men va Ustunlik qilish-bo‘ysunish (r= -0,219; p<0,01) shkalasi o‘rtasida manfiy bog’liqlik ko‘rishimiz mumkin. salbiy korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, Refleksiv Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar ustunlik qilish yuqori bo‘lib ammo Refleksiv meni past bo‘lganlarda bo‘ysunish xususiyatlarini ko‘proq namoyon qilishadi. Bu shaxslar ko‘proq o‘zlariga, ichki rivojlanishga va o‘zgarishga e’tibor qaratib, tashqi ijtimoiy aloqalarda yoki ierarxiyalarda ustunlik qilishga yoki bo‘ysunishga moyil bo‘lmaydilar. Salbiy bog’liqlikning o‘rtacha darajasi, lekin kuchli emasligi, bu xulq-atvorlarning shaxsiy tafovutlarga, holatlarga qarab o‘zgarishi mumkinligini anglatadi. Refleksiv Men va Muloqotmandlik-odamovilik (r= -0,140; p<0,01). Salbiy korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, Refleksiv Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar muloqotga nisbatan odamovilikka ko‘proq moyil bo‘lishadi. Bu shaxslar ko‘proq ichki tahlilga va o‘z-o‘zini anglashga e’tibor berishadi, tashqi muloqotlarga yoki ijtimoiy aloqalarga esa kamroq vaqt ajratishadi. Salbiy bog’liqlik nisbatan o‘rtacha darajada bo‘lgani sababli, bu xulq-atvorlarning shaxsiy farqlarga va holatlarga qarab o‘zgarishi mumkin. Refleksiv Men va Diqqatni jalb etish-qochish (r= -0,052; p<0,05). Natijaga ko‘ra salbiy

korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, Refleksiv Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar diqqatni o‘zlariga jalb etishdan ko‘ra, ichki tahlil va o‘z-o‘zini anglashga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Ular tashqi diqqatga qiziqish bildirishdan ko‘ra, o‘zlarini anglash va ichki rivojlanishga qaratilgan faoliyatlarga ko‘proq vaqt ajratadilar. Salbiy bog’liqlik past darajali bo‘lgani sababli, bu xulq-atvor barcha refleksiv shaxslar uchun umumiy emas, lekin umumiy tendensiya sifatida mavjud. Refleksiv Men va Ekstraversiya-Introversiya (r= -0,155; p<0,01). salbiy korrelyatsiyamiz shuni ko‘rsatadiki, Refleksiv Men ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar ko‘proq introvert xususiyatlarga ega bo‘lishadi. Bunday shaxslar ko‘proq ichki dunyo va o‘zini anglashga e’tibor qaratadilar, tashqi aloqalar va ijtimoiy faoliyatlarga nisbatan kamroq qiziqish bildirishadi. Salbiy bog’liqlikning kuchi o‘rtacha bo‘lishi, bu xulq-atvorlarning har bir shaxsda farqlanishi mumkinligini, ammo umumiy tendensiya sifatida mavjudligini anglatadi.

O’z-o’ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi,shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog’liq xolda turlicha bo’lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. O’z-o’ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to’g’ri bo’lishi,balki u o’ta past yoki yuqori ham bo’lishi mumkin. Bunday o’smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o’zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo’lishi bilan ajralib turadi va bora- bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suisidal harakatlar, ya’ni o’z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday sharoitda paydo bo’ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag’lubiyatga uchraganda yoki o’zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o’zgalarda deb biladi va shunga o’zini ishontiradi ham masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo’lmaganida» kabi bahonalar ko’payadi. Ya’ni nimaiki bo’lmasin, aybdor o’zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog’i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog’dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o’z-o’ziga baho realistik, adekvat, to’g’ri bo’lishi kerak. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi referent guruhning roli katta bo’ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo’lishi (masalan, ota-ona, o’qituvchi, ustoz, yaqin do’stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo’lishi.

O’z-o’ziga baho o’tayuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sirko’rsatmaydi.Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarningboshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo’rttirilishi, noo’rin maqtovlar, turliqiyinchiliklarni chetlab o’tishga intilish tufayli shakllanadi.

O’z-o’ziga bahoning past bo’lishi ko’pincha atrofdagilarning shaxsganisbatan qo’yayotgan talablarining o’ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o’qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo’lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki taz’yiq ko’rsatish kerak bo’lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’ladi. Shunday qilib, o’z-o’ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo’lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o’rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog’liq bo’ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o’ynashi oqibatida shakllanadigan o’z-o’ziga baho o’z-o’zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o’zliginianglash, o’zi mansub bo’lgan xalq va millat ma’naviyatini qadrlashhislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o’sha yuksak o’z-o’zini anglashningpoydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o’z-o’zinibaholash o’z-o’zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O’z-o’zinitarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

Realistik baho shaxsni o’rab turganlar ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo’ni-qo’shni va yaqinlarning o’rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo’lib,

shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi.

O'z-o'ziga baho o'z-o'zi bilan muloqot o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etishva o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatidao'z-o'zini ishontirish o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonishorqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish.

O'z-o'ziga buyruq berish tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lgaolish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati.

O'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya ijtimoiy normalardan kelibchiqqan xolda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish.

Ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologiknuqtai nazardan o'z- o'zi bilan amalga oshiriladigan ichki dialog alohida o'rin tutadi.

O'z-o'zi bilan dialog- oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir.Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalgaoshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichkidialog muhim regulyativ rol o'ynaydi.Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, shaxs o'zini nazorat qila oladi. Hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan hatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi» Ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlar quyidagilar.

O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari.

O'z-o'zi bilan muloqot.

O'z-o'zini ishontirish.

O'z-o'ziga buyruq berish.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Mazkur o'zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsda "Men" konsepsiyasi va o'z-o'zini baholash o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab psixologik tizimni tashkil etadi. "Men" obrazi shaxsning o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini baholash va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini belgilashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o'z-o'zini baholashning adekvat shakllanishi ijtimoiy muhit, referent guruh va tarbiyaviy ta'sirlar bilan belgilanadi. Noadekvat (past yoki yuqori) o'z-o'zini baholash esa shaxsda salbiy psixologik holatlar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va ichki ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, shaxsda sog'lom "Men" konsepsiyasini shakllantirish, adekvat o'z-o'zini baholashni rivojlantirish hamda o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish psixologik tadqiqotlar va amaliy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бёрнс, Р. Развитие Я-концепции и воспитание / пер. с англ. М.Б. Гнедовского, М.А. Ковальчука. - М.: Прогресс, 1986. с. 422.

2. Бёрнс, Р. Что такое Я-концепция. Психология самосознания. Хрестоматия. / под. ред. Д. Я. Райгородского. - Самара: БАХРАХ-М, 2003. – с. 333 - 339

3. Райс, Ф. Психология подросткового и юношеского возраста. 12 – изд. / Ф. Райс. – Спб.: Питер, 2010. – 816 с.

4. Мерлин, В. С. Взаимоотношения в социальной группе и свойства личности. Социальная психология личности / В. С. Мерлин. - М.: 1979. – 314 с.

5. https://otherreferats.allbest.ru/psychology/00095591_0.html

Odilova Naira Gulyamovna
O‘zbekiston milliy universiteti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ZAMONAVIY O‘SMIRLAR AXLOQIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHINING TARKIBIY-PSIXOLOGIK MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘smirlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglash jarayonining psixologik xususiyatlari, uning tarkibiy tuzilmasi hamda shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida axloqiy o‘zini o‘zi anglashning kommunikativ-bilish, qadriyatli-motivatsion, emotsional-hissiy va irodaviy-boshqaruv komponentlaridan iborat tarkibiy-psixodiagnostik modeli asoslab berilgan. Ekspert so‘rovi natijalari asosida o‘smirlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, axloqiy ong, refleksiya, empatiya, axloqiy o‘zini o‘zi baholash hamda irodaviy o‘zini boshqarish kabi omillarning shaxs rivojidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘smirlarning axloqiy rivojlanishini takomillashtirish, ularning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘smir, axloqiy o‘zini o‘zi anglash, axloqiy ong, shaxs rivojlanishi, refleksiya, empatiya, axloqiy me’yor, axloqiy o‘zini o‘zi baholash, irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish, qadriyatlar tizimi, motivatsiya, ma’naviy-axloqiy mas’uliyat, psixologik model, ijtimoiy moslashuv.*

СТРУКТУРНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ НРАВСТВЕННОГО САМОСОЗНАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности нравственного самосознания современных подростков, его структура и механизмы формирования. В рамках исследования обоснована структурно-психодиагностическая модель нравственного самосознания подростков, включающая коммуникативно-когнитивный, ценностно-мотивационный, эмоционально-чувственный и волевой-регулятивный компоненты. На основе результатов экспертного опроса выявлены наиболее значимые компоненты нравственного самосознания подростков и раскрыты их функциональные особенности. Также в работе освещается роль нравственного сознания, рефлексии, эмпатии, нравственной самооценки и волевой саморегуляции в развитии личности. Полученные результаты способствуют совершенствованию нравственного развития подростков, обеспечению их успешной социальной адаптации и личностного становления.*

Ключевые слова: *современные подростки, нравственное самосознание, нравственное сознание, развитие личности, рефлексия, эмпатия, нравственные нормы, нравственная самооценка, волевая саморегуляция, система ценностей, мотивация, нравственная ответственность, психологическая модель, социальная адаптация.*

STRUCTURAL-PSYCHOLOGICAL MODEL OF MORAL SELF-AWARENESS OF MODERN ADOLESCENTS

Abstract. *This article analyzes the psychological characteristics of moral self-awareness in modern adolescents, its structural components, and formation mechanisms. Within the framework of the study, a structural-psychodiagnostic model of adolescents’ moral self-awareness is substantiated, including communicative-cognitive, value-motivational, emotional-affective, and volitional-regulatory components. Based on the results of an expert survey, the most relevant components of moral self-awareness in adolescents were identified, and their functional features were revealed. The study also highlights the role of moral consciousness, reflection, empathy, moral self-assessment, and volitional self-regulation in personality development. The findings contribute to improving adolescents’*

moral development, ensuring their successful social adaptation, and fostering their spiritual and personal growth.

Key words: *modern adolescents, moral self-awareness, moral consciousness, personality development, reflection, empathy, moral norms, moral self-assessment, volitional self-regulation, value system, motivation, moral responsibility, psychological model, social adaptation.*

Kirish. Jahonda inson hayotining axloqiy masalalari, kengroq ma'noda shaxs axloqiy sohasi mexanizmlari va axloqiy o'zini o'zi anglash jarayonining shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, ijtimoiy o'zaro ta'sir hamda o'zini to'liq namoyon qilish uchun qulay sharoit yaratish, jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish jarayonlari, shaxsning o'zini "ijtimoiy qabul qilishi" muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. "Madaniy rivojlanish jarayonida axloqiy qadriyatlar, xususan, insonparvarlik, adolat, g'urur, vijdon, iroda, ezgulikka bo'lgan ishonch va o'zi, oilasi, Vatani oldida axloqiy burchni bajarishga bo'lgan intilish" muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu borada axloqiy ong, axloqiy o'zini o'zi anglash, shaxs qadriyatlari tizimida axloqiy tushunchalarni barqarorlashtirishni ta'minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirishni taqozo etmoqda va uning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlar davlat va jamiyat diqqat markazida bo'lganligi sababli mustahkam huquqiy asosga ega ijtimoiy faol yoshlar siyosati olib borilmoqda. Bu borada Yangi O'zbekiston yoshlarini "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi" tamoyili asosida bunyodkorlik, ilm-fan, ta'lim va tarbiyaning konseptual g'oyalari asosida zarur me'yoriy-huquqiy baza yaratildi, "yoshlarni vatanparvarlik ruhida, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, zararli ta'sir va oqimlarga qarshi turish qobiliyati, hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlarga ega bo'lish" ustuvor vazifasi belgilandi. Shu munosabat bilan shaxsning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga, axloqiy xulq-atvorning oqilona shakllanishiga ta'sir qiladigan psixologik omillarning differensial jihatlarini aniqlashga qaratilgan yangi nazariy yechimlarni ilmiy asoslash yo'nalishidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida e'tiborga egadir.

Respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, N.S.Safayev, D.G.Muxamedova, O'.B.Shamsiyev, G.A.Bogdalova, N.G.Kamilova, G.M.Shakirova, N.B.Atabayeva, G.V.Xrulnova, R.A.Ubaydullayeva va boshqalarning tadqiqotlarida qadriyat-motivatsion sohani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yoshlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalari, moslashuvchanlik, axloqiy normativlik, axloq, axloqiy e'tiqodning shakllanishi, axloqiy rivojlanish, milliy o'zlikni anglash, o'zini o'zi boshqarish, axloqiy e'tiqodni shakllantirish yo'llari hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari jihatlari ham o'rganilgan. M.R.Alijanova, J.Asamatdinova, F.R.Jumayeva, L.A.Teshabayeva va boshqalar tomonidan yosh avlodni axloqiy-estetik tarbiyalash masalalari, ular rivojlanishining psixologik-pedagogik shartlari tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.S.Belousova, I.G.Bonk, V.I.Bobrova, O.G.Lyashenko, M.V.Pronin, N.V.Svetlova, N.G.Serkovnikova va boshqalar o'smirlar axloqiy o'zini o'zi anglashining psixologik jihatlari, uning tuzilishi, shuningdek, shakllanish, profilaktika va rivojlanish texnologiyalari tadqiq etilgan.


Xorij olimlaridan H.Eysenk, J.Kekes, L.Kohlberg, J.Piaget, Ln.Tiger va boshqalarning tadqiqotlarida axloqiy tamoyillar, axloqni kundalik hayotda qo'llash, axloqiy fikrlar, bola yo'nalishini rivojlantirish, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlod xulq-atvorining madaniy me'yorlari evolyutsiyasi o'rganilgan.

Zamonaviy olimlarning umumlashtirilgan g'oyalariga asoslanib, axloqiy o'zini o'zi anglash, qoida tariqasida, tegishli mazmuniy-funksional xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin, ular ko'p sonli olimlarning fikriga ko'ra, axloqiy vijdon, axloqiy pozitsiya, yaxshilik (foyda) istagan boshqa kishining ijobiy qiyofasini qamrab oladi. Shu bilan birga, axloqiy o'zini o'zi anglashning eng muhim funksiyalaridan biri bu asosda axloqiy ahamiyatga ega maqsadga erishish uchun shaxs tuzilishidagi umuminsoniy axloqiy imperativlarning individual maksimallar bilan o'zaro munosabatlarining sinergiyasini ta'minlash funksiyasidir. Ulg'ayish davrida insonning xatti-harakatlarida qayta-qayta amalga oshiriladigan axloqiy yangiliklar Men-axloqiy shaxsning yanada barqaror shakllanishiga aylanadi. Ammo o'zlashtirish va amalga oshirish jarayonlari o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi, balki

o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi boshqarish, axloqiy identifikatsiya, empatiya va intuitsiya kabi me’yoriy-qadriyatli o‘zini o‘zi anglash mexanizmi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, o‘smirlik davrida egotsentrizm bilan bir qatorda axloqiy detsentratsiyaning paydo bo‘lishi shaxsning axloqiy mulohazalari, kechinmalari va yo‘nalganligidagi boshlang‘ich nuqtaning o‘zgarishi, harakatning tashqi me’yoriy to‘g‘riligidan muayyan shaxs xatti-harakatining ichki ahamiyati (axloqiy aniqliq)ga o‘tish bilan bog‘liq. Men-axloqiy sohasini bunday qayta tuzish bu me’yorning haqiqiy qiymatini anglash imkoniyati, ya’ni ushbu me’yordan tashqariga chiqishdir.

Metodlar. Zamonaviy o‘smirga tegishli axloqiy o‘zini o‘zi anglash tarkibiy qismlarining tanlangan ro‘yxatini aniqlashtirish maqsadida biz oldindan tayyorlangan ekspert so‘rovnomasi asosida ekspert bahosini tashkil qildik va o‘tkazdik. Ushbu vositaning asosini axloqiy o‘zini o‘zi anglashning tanlangan tarkibiy qismlarining ro‘yxati tashkil qiladi.

Ekspert so‘rovida zamonaviy o‘smirlar bilan ishlashda tajribaga ega bo‘lgan umumta’lim maktablarining malakali o‘qituvchilari (59,5 % / 141 kishi), psixologlari (26,2 % / 62 kishi), ma’muriyat mutaxassislari (14,3 % / 34 kishi) jami 237 nafar ekspert ishtirok etdi.



1-rasm. Kasbiy faoliyat tajribasi bo‘yicha zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining tarkibiy qismlarini baholash bo‘yicha ekspert so‘rovida ishtirok etgan mutaxassislarning miqdoriy xususiyatlari (n =237).

Ekspert bahosining olingan natijalari jadval shaklida umumlashtirildi, bu esa tegishli ekspert ballarini yig‘ish orqali zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining eng muhim tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon berdi. Bunda, ekspert baholash so‘rovnomasining ko‘rsatmalarida ko‘rsatilganidek, 7 dan 10 ballgacha (muvofiqlikning o‘rtadan yuqori darajasi va muvofiqlikning yuqori darajasi) olgan tarkibiy qismlar zamonaviy o‘smirlarga nisbatan dolzarb hisoblanadi. Shunga asoslanib, ekspertlar sonini (n=237) hisobga olgan holda, biz ekspert ballari yig‘indisining muhim diapazonini hisoblab chiqdik (1659 balldan 2370 ballgacha), natijada, zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari aniqlandi.

Shunga ko‘ra, 1659 ball va undan yuqori oraliqdagi ekspert ballari yig‘indisini olgan o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining tarkibiy qismlari aniqlandi hamda zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashiga nisbatan dolzarb (ahamiyatli) deb topildi.

Natijalar. Shunday qilib, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning nazariy jihatdan tanlangan tarkibiy qismlari ro‘yxatidan biz zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining quyidagi tegishli tarkibiy qismlarini aniqladik:


jadval-1.

O‘smirlar axloqiy o‘zini o‘zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari

T/r	Axloqiy o‘zini o‘zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari	Yig‘indi - ∑	O‘r.q. - M	Moda - Md
1.	Ma’naviy-axloqiy mas’uliyat	2209	9,32	10
2.	Axloqiy me’yor	2109	8,90	9
3.	Xulq-atvorning axloqiy me’yorlariga munosabat	2095	8,84	9
4.	Axloqiy o‘zini o‘zi baholash	2040	8,61	9

T/r	Axloqiy o‘zini o‘zi anglashining dolzarb tarkibiy qismlari	Yig‘indi - ∑	O‘r.q. - M	Moda - Md
5.	Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish	1947	8,22	9
6.	Axloqiy bilimlar	1936	8,17	9
7.	Empatik qobiliyatlar	1813	7,65	8
8.	Refleksivlik	1769	7,46	8

Tanlangan tuzilmani optimallashtirish uchun, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning tanlangan tegishli tarkibiy qismlarining funksional xususiyatlarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, yuqorida aytib o‘tilgan tegishli komponentlar o‘rganilayotgan hodisaning tegishli tarkibiy qismlariga birlashtirildi. Ushbu harakatlar zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashning tarkibiy-psixodiagnostik modelining birinchi shartli qismini tasavvur qilishga imkon berdi, bu o‘rganilayotgan hodisaning belgilangan tarkibiy qismlarini ta’minlaydi (2-rasm).



2-rasm. O‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining tarkibiy komponentlari.

Shunday qilib, zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining birinchi tarkibiy qismi biz tomonidan kommunikativ-bilish deb nomlandi. U quyidagi ikkita tarkibiy qismni qamrab oldi:

axloqiy bilimlar;

refleksivlik.

Ushbu komponent odatda o‘smirning nafaqat axloqiy bilimlarni (tushunchalar, me’yorlar, ideallar, hukmlar, xulosalar), balki shaxsiy axloqiy fazilatlar, qadriyatlar, huquqlar va majburiyatlar, kelajak uchun hayot rejalari va boshqalarni anglash nuqtai nazaridan Men obrazini refleksiya qilish qobiliyatini aks ettiradi. Zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashining ushbu komponenti axloqiy tushunchalarni tushunish va refleksiya faoliyati bilan ham bog‘liq.

Axloqiy bilim tasavvur va tushunchalar tizimi sifatida mantiqiy shakllangan fikr bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra haqiqiy munosabatlar belgilarini, ya’ni axloqiy talablar, tegishli baholar, shuningdek, axloqiy me’yorlarni buzish oqibatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettiradi. Ushbu bilim, odatda, o‘smirlar tomonidan axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida muhim boshlang‘ich element bo‘lib, ularda mo‘ljal olish va tegishli xulq-atvor yo‘nalishini tanlashda zarur shartdir. Axloqiy bilimlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos shakli bu axloqiy me’yorlarni tushunish, o‘smir tomonidan ularning ma’nosini va shu orqali erishilgan natijani anglash qobiliyatidir. Axloqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida shaxsning axloqiy o‘zini o‘zi anglash tarkibiy qismlarining o‘zaro

ta'siri amalga oshiriladi. Axloqning mohiyatini tushungan holda, zamonaviy o'smir, odatda, axloqiy harakatni amalga oshirishi va uning natijasi uchun javobgar bo'lishi mumkin. Zamonaviy o'smirlar muammosi, odatda, axloqiy tasavvurlar va tushunchalarga umumlashtirilgan, differensiallashgan, noaniq ta'riflar berishida namoyon bo'ladi. O'smirlar ularni taqqoslay olish, hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatiga ega emaslar. Harakatlar va munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar, agar ilgari ularning ongida tegishli axloqiy bilimlar bo'lmasa, o'smirlik davrida insonlar tomonidan ko'pincha e'tiborga olinmaydi. Zamonaviy o'smir tomonidan axloqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, odatda, axloqiy tushunchalar haqidagi elementar ma'lumotlardan boshlab, olingan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyati, o'z Meni bilan bog'lash bosqichlaridan o'tadi. Axloqiy bilimlarning axloqiy e'tiqodlarga o'tish jarayoniga axloqiy bilimlarning sifat xususiyatlarining rivojlanish darajasi, ya'ni ularning hajmi, tezkorligi, anglanganligi va boshqalar ta'sir qiladi [8].

Refleksivlik (harakatlar va reaksiyalarni baholash, o'z harakatlarining boshqa odamlar uchun ham, o'zi uchun ham oqibatlarini oldindan bilish qobiliyati sifatida) o'smirlik davrida jadal rivojlanadi. Ko'pgina olimlar ushbu tushunchani o'smirning shaxsi tomonidan o'zaro ta'sirlarni (faoliyat, o'zaro munosabatlar, muloqot) tanqidiy baholash pozitsiyasidan tushunish va qayta talqin qilish sifatida tushunishni taklif qilmoqdalar, bu esa uni ijtimoiy makonni tushunishning yangi darajasiga ko'taradi.

Shu bilan birga, o'zini o'zi anglash va Men-boshqa munosabatlarni anglash jarayonlarining birligi sifatida refleksiya xulq-atvorda o'zini o'zi boshqarishning yetakchi mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Refleksiya tufayli zamonaviy o'smir shaxsiy o'zaro munosabatlar holatini baholash, uning holatini va sherigining holatini baholash imkoniyatiga ega. Rivojlangan refleksiya zamonaviy o'smirning mayllari sohasini uyg'unlashtiradi, psixologik zo'riqishni boshdan kechirmasdan altruistik xulq-atvorni amalga oshirishga imkon beradi. Refleksiya tegishli faoliyat jarayonida shakllangan e'tiqodlar asosida shakllanadi va o'z navbatida ularning yanada yagona tizimga aylanishiga yordam beradi. Refleksiya o'zi bilan ichki muloqotni keltirib chiqaradi, uning mazmuni esa axloqiy masalalar – Men-axloqiy hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy o'smirlar hayotiy vaziyatlarning axloqiy jihatlarini tahlil qilishdan ko'ra, o'z ichki dunyosini o'rganishga ko'proq qiziqishadi. Avvalo, bu qadriyat tasavvurlarini ko'rib chiqish va erkinlashtirish bo'lib, ular asosida quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

boshqalar kabi o'ziga ham bir xil baholash mezonlarini qo'llash;

o'zini va boshqalarni baholash uchun asos sifatida axloqiy xulq-atvorning umumiy tamoyillarini qo'llash;

o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va his-tuyg'ularini hisobga olish qobiliyati [3].

Zamonaviy o'smirning axloqiy o'zini o'zi anglashining ikkinchi ajratilgan komponenti biz tomonidan qadriyatli-motivatsion deb nomlangan. U quyidagi ikkita tarkibiy qismni qamrab oldi:

xulq-atvorning axloqiy me'yorlariga munosabat;

axloqiy o'zini o'zi baholash.

Zamonaviy o'smir axloqiy o'zini o'zi anglashining qadriyatli-motivatsion komponenti umuman axloqiy xulq-atvor normalari va axloqiy o'zini o'zi baholash bilan bog'liq bo'lib, bu o'zlashtirilgan axloqiy imperativlarga munosabat mazmunini ochib beradi, buning asosida zamonaviy o'smir refleksiv kutuvlarni referent atrofdagilarga nisbatan shaxsiy normativ Men-axloqiy bilan bog'laydi (mening harakatlarim ma'qullanishi, meni hurmat qilishlari, vijdonim toza bo'lishi uchun qanday bo'lishim kerak va h.k.).

Xulq-atvorning axloqiy me'yorlariga munosabat zamonaviy o'smirning nuqtai nazarini, uning jamiyatda qabul qilingan axloqiy talablarga, muloqot me'yorlariga, umuman inson faolligiga nisbatan pozitsiyasini aks ettiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, o'smirning axloqiy me'yorlarga munosabati - bu shaxsiy-axloqiy pozitsiyani shakllantirishning ko'p jihatli jarayoni bo'lib, u asosan insonlarning axloqiy qadriyatlarni anglaganlarida muloqot qilish jarayonida rivojlanadi. Yoshlarning axloqiy me'yorlarga ularning shaxsiy ma'nosi nuqtai nazaridan, tegishli xulq-atvor shakllarini tanlashga ijobiy munosabati, odatda, xulq-atvor normalariga rioya qilishga ichki axloqiy tayyorgarlikning chuqur munosabatlarida va ushbu normalarni har bir aniq hayotiy vaziyatda faol ravishda amalga oshirishda namoyon bo'ladi [2].

Axloqiy o‘zini o‘zi baholash atrof-muhit sharoitlarining o‘zgarishidan qat’i nazar, o‘z axloqiy identikligining axloqiy jihatlarini anglashga asoslanadi. Axloqiy o‘zini o‘zi baholashni zamonaviy o‘smirning axloqiy- ma’naviy fazilatlari, axloqiy bilimlari, ko‘nikmalari va turli xil sharoitlardan qat’i nazar, o‘zini ijobiy (yoki salbiy) axloqiy-baholovchi etalonlari sifatida o‘zi haqidagi umumiy axloqiy tasavvurlar jihatida ko‘rib chiqish lozim. Axloqiy o‘zini o‘zi baholash zamonaviy o‘smirning o‘ziga bo‘lgan munosabatiga vositachilik qiladi, uning faoliyati tajribasini, boshqa odamlar bilan muloqotni va o‘z faoliyatini me’yoriy va axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan nazorat qilishni birlashtiradi, uning yaxlit xulq-atvorini axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga muvofiq qurishga imkon beradi. Axloqiy o‘zini o‘zi baholash vaziyatli axloqiy o‘zini o‘zi baholashning integratsiyasi natijasida paydo bo‘ladi. Bu zamonaviy o‘smirning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, axloqiy xulq-atvor, faoliyat va muloqotda muhim qo‘llanma bo‘ladi. Axloqiy o‘zini o‘zi baholashning muhim xususiyatlari – rivojlanishning adekvatligi, yuqoriligi, barqarorligidir. Adekvat axloqiy o‘zini o‘zi baholash zamonaviy o‘smirning ma’naviy-axloqiy tamoyillar va me’yorlar prizmasi orqali o‘ziga obyektiv munosabati sifatida axloqiy rivojlanishning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri, ichki uyg‘unlik va takomillashishni oldindan belgilab beradigan, shu bilan birga butun jamiyatni insonparvarlashtirish va uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Bundan tashqari, axloqiy o‘zini o‘zi baholash nuqtai nazaridan, zamonaviy o‘smirning xulq-atvori uning o‘zi va u qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq (Men-real, Men-orzu va Men-ideal). Shu munosabat bilan, shuning uchun ko‘pincha, xususan, ontogenezning o‘smirlik bosqichida, u o‘zini o‘zi tasdiqlash tizimining elementi sifatida noadekvat (asosan yuqori) axloqiy o‘zini o‘zi baholashni shakllantirishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi xususiyatlarni taqdim etish istagida o‘z Menini namoyon qilishi mumkin. Zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi baholashi ko‘pincha axloqiy o‘zini o‘zi anglashning qarama-qarshiliklarini tasdiqlovchi ambivalent belgilar bilan tavsiflanadi. Bunday belgilar bilan bir qatorda atrof-muhit ta’sirining oqibatlari, birinchi navbatda ota-onalar, tengdoshlar, o‘qituvchilar va boshqalar munosabatlarining axloq darajasi, shuningdek, OAV, birinchi navbatda televideniye va internetning ta’siri sifatida dominant psixologik holatlar va axloqiy tajribalarning o‘zgarishiga sezgirlikda namoyon bo‘ladigan latent xususiyatlar mavjud. Axloqiy o‘zini o‘zi baholash zamonaviy o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan xulq-atvorning lokus nazoratini doimiy o‘zgarishi sifatida yuzaga keladi. U o‘zini o‘zi qabul qilish va o‘zini anglashning global ehtiyojiga, ya’ni o‘zini axloqiy shaxs, axloqiy faoliyat subyekti sifatida tasdiqlashga bo‘ysunadi [5].

Zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining navbatdagi, uchinchi ta’kidlangan komponenti biz tomondan emotsional-hissiy komponent deb nomlandi. Ushbu komponent quyidagi ikkita tarkibiy qismni qamrab oldi:

ma’naviy-axloqiy mas’uliyat;

empatik qobiliyatlar.

Ma’naviy-axloqiy mas’uliyatni o‘sib borayotgan shaxsning axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan mas’uliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqish tavsiya etiladi, bu umuman ijobiy harakatlarga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ma’naviy-estetik mas’uliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra zamonaviy o‘smir ongida turli xil ijobiy fazilatlarni birlashtirish natijasida rivojlanadigan birlashgan xususiyatdir. Yoshlar rivojlanishining turli bosqichlarida bu hodisa oddiy differensiatsiyalashgan shakllardan murakkabroq, umumlashtirilgan shakllarga aylanadi. Bundan tashqari, uning xususiyatlari zamonaviy o‘smirning boshqalarga emotsional-qadriyatli munosabatiga bog‘liq. Shuning uchun ma’naviy-axloqiy mas’uliyat zamonaviy o‘smirning nafaqat tushunish, balki axloqiy burchni anglashning o‘ziga xos qobiliyatidir, bu insonning ijobiy harakatlarini belgilashi mumkin [4].

Empatik qobiliyatlar zamonaviy o‘smirga boshqalarning ichki dunyosiga intuitiv ravishda kirib borish, kayfiyat, fikrlar, motivlar va boshqalarni tushunishga imkon beradi. Empatik qobiliyatlar tufayli o‘sib borayotgan shaxs o‘z reaksiyalari va xulq-atvorini boshqalarning his-tuyg‘ulari, fikrlari va holatlariga mos ravishda korreksiyalashi mumkin. O‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘smirlardagi empatiya muloqot jarayonida paydo bo‘ladigan qadriyatli munosabatlariga, atrof-muhit bilan hissiy yaqinlikka bog‘liq. U o‘zini ikkita asosiy shaklda namoyon qiladi:

passiv tafakkur shaklida (hamdardlik);

faol harakat (empatiya) shaklida.

Empatiyaning ushbu ikki asosiy shakli o‘rtasidagi o‘tish davri - bu qiyinchiliklarni, ikkinchisining muammolarini tegishli vaziyatga hissiy munosabat sifatida faol o‘ylash va uni hal qilishda aniq yordam ko‘rsatish zarurligini anglash bilan birga keladi. Muayyan sharoitlarda empatiya va hamdardlik yagona empatik jarayonning bo‘g‘inlari va empatiyaning mutlaqo mustaqil shakllari sifatida qaraladi. Empatiyaning namoyon bo‘lishi shaxsning kuchli irodaviy sifatlariga bog‘liq bo‘lib, buning natijasida zamonaviy o‘smirlar ma’naviy-axloqiy e’tiqod va ideallarga tayanib, tegishli vaziyatlarda o‘z harakatlarini ongli ravishda mazmunli va muhim maqsadlarga bo‘ysundiradilar. Atrofdagi voqelikning turli holatlarida yuzaga keladigan empatik reaksiyalar oiladagi muloqot uslubi, temperament tipi, jinsi va boshqa omillarga bog‘liq. Shu munosabat bilan, axloqiy qadriyatlar tarkibida empatiyani kelgusi rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun o‘smirlik davri senzitiv davr bo‘lib hisoblanadi [7].

Zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining yakuniy, to‘rtinchi komponenti biz tomondan irodaviy-boshqaruv deb nomlandi. Ushbu komponent quyidagi ikkita tarkibiy qismni qamrab oldi:

irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish;

axloqiy me’yor.

Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish zamonaviy o‘smirning shaxsi tomonidan tegishli qiyinchiliklar, to‘siqlarni ongli ravishda yengib o‘tishni hisobga olgan holda mazmunli maqsadlarga erishishga qaratilgan xulq-atvoridagi o‘z faoliyatini rejalashtirish va korreksiyalash jarayoni sifatida kiradi. Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish, birinchi navbatda, o‘smirning o‘z tamoyillariga zid bo‘lgan spontan impulslar va harakatlarni blokirovka qilish uchun ixtiyoriy harakatlar orqali qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanish darajasi shaxsiy hissiy holatlarni boshqarishga, g‘azab, xafagarchilik va boshqalarni jilovlashga imkon beradigan ko‘nikmalarning mavjudligini belgilaydi. Shu bilan birga, zarur choraga ega bo‘lish muhimdir, undan tashqari tashqi nazoratning yetarli emasligi yoki haddan tashqari ko‘pligi zamonaviy o‘smirning nazoratsizligi va mas’uliyatsizligini keltirib chiqaradi. Moslashuvchan ijtimoiy nazorat bilan oqilona irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish inson shaxsining axloqiy barqarorligi va ishonchliligiga yordam beradi [1].

Axloqiy me’yor - bu zamonaviy o‘smirning, avvalambor, tegishli jamiyatda o‘rnatilgan kundalik xulq-atvor normalari va qoidalarini tushunish, anglash va qabul qilish qobiliyatidir. Axloqiy me’yor o‘z mohiyatiga ko‘ra zamonaviy o‘smir ongining ishini, axloqiy tanlovni va uni ixtiyoriy ravishda amalga oshirishni aks ettiradi. Axloqiy me’yor axloqiy xulq-atvor orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat ijtimoiy boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish usuli, balki madaniy va shaxsiy o‘zini o‘zi boshqarish usulidir. Bu zamonaviy o‘smirning xulq-atvor normalariga rioya qilishga ichki axloqiy tayyorgarlikning chuqur munosabatlarida va har bir aniq hayotiy vaziyatda ushbu me’yorlarni faol ravishda amalga oshirishda namoyon bo‘ladigan tegishli xulq-atvor shakllarini tanlashga bo‘lgan munosabatidir [6].

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslanib, nazariy tahlil natijalari, shuningdek ekspert bahosi (n=237) o‘rganilayotgan hodisaning to‘rtta o‘zaro bog‘liq: kommunikativ-bilish, qadriyatli-motivatsion, emotsional-hissiy va irodaviy-boshqaruv komponentlariga asoslangan zamonaviy o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining tarkibiy-psixodiagnostik modelini tayyorlashga imkon berdi degan xulosaga kelish o‘rinli deb hisoblanadi. Kommunikativ-bilish komponentiga mantiqiy shakllangan fikr sifatida tasavvurlar, tushunchalar, o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy bilimlar, shuningdek refleksiya, harakatlar va reaksiyalarni baholash qobiliyati, boshqalar uchun ham, o‘zi uchun ham o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan bilish qobiliyati sifatida real munosabatlar belgilarini aks ettiruvchi tizim kiradi. Qadriyatli-motivatsion komponent zamonaviy o‘smirning jamiyatda qabul qilingan axloqiy talablarga, muloqot normalariga, umuman inson faoliyatiga, shuningdek, o‘zi haqida umumiy axloqiy tasavvurga asoslangan axloqiy o‘zini o‘zi baholashga nisbatan pozitsiyasini aks ettiradigan axloqiy xulq-atvor normalariga munosabatni qamrab oladi, shuningdek, zamonaviy o‘smir tomonidan uning axloqiy-ma’naviy fazilatlari, axloqiy bilimlari, ko‘nikmalari va o‘zini tegishli obraz, etalon bilan identifikatsiyalash aniqlanadi. Emotsional-hissiy komponent ma’naviy-axloqiy mas’uliyat bilan o‘sib borayotgan shaxsning axloqiy-muhim majburiyatni amalga oshirish qobiliyati, shuningdek, zamonaviy o‘smirga boshqalarning ichki dunyosiga intuitiv ravishda kirib borish, kayfiyat, fikrlar, motivlarni va boshqalarni tushunishga imkon beradigan empatik qobiliyatlar bilan

bog‘liq. Irodaviy-boshqaruv komponent zamonaviy o‘smir shaxsi tomonidan rejalashtirish va korreksiyalash jarayoni shaklida, tegishli qiyinchiliklarni, to‘siqlarni, shuningdek axloqiy normativlikni ongli ravishda yengib o‘tishni hisobga olgan holda, mazmunli maqsadlarga erishishga qaratilgan xulq-atvorda zamonaviy o‘smirning, birinchi navbatda, kundalik xulq-atvorining me’yorlari va qoidalarini tushunish, anglash va qabul qilish qobiliyatini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Жихарев Д.Ю. Волевая саморегуляция психических состояний человека в процессе деятельности. // Сборник научных трудов «Актуальные проблемы социогуманитарного знания» Выпуск XV Часть III - М «Век книги-3», 2006 – С. 73-76.

2. Кочкаев Е.А. Психология отношений к нравственности. // Инженерные технологии и системы. - №2. – 2011. - С. 206-212.

3. Лощакова А.Б. К вопросу о содержании термина «Коммуникативная рефлексия». // Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. - № 6-1. - 2009. - С. 128-133.

4. Новосельцев В.И. Воспитание моральной ответственности у старших школьников. // Создание педагогических условий для подготовки молодёжи к труду. сб тезисов науч-практ конф, г. Белгород, II часть - Белгород, 2001 - С. 77-79.

5. Пронин М.В. Духовность как главный фактор в стабилизации здоровья подростков и взрослых в современных условиях. // Психология и здоровье. - Воронеж: ВЭПИ, 2002. - №1 - С. 67-75.

6. Резазадех З. Влияние моральной нормативности на психические состояния. // Психология: вчера, сегодня, завтра: Материалы международной научной конференции, 25–29 октября 2016 г. - СПб.: Айсинг, 2016. - С. 171-172.

7. Щербакова Н.А. Развитие эмпатических способностей студентов-психологов как профессионально значимого качества. // Ежегодная научная сессия. - 2001. - Воронеж: ВЭПИ. - 2001. - С. 42-43.

8. Яблонских Ю.П. Духовно-нравственное воспитание школьников. // Образовательная политика в свете новейшей революции в естествознании: материал I межрегиональной науч.-практ. конф. - МГАТ, 2003. - С. 26-30.

Otamuratov Rustam Uskanovich
Gulistan State University, basic doctoral student
E-mail: rustamota1989@gmail.com

THEORETICAL ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PEOPLE EXPOSED TO THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS

Abstract. *Over the past few decades, social media has become an integral part of the lives of billions of people worldwide. They have created a new space for communication, information, and self-expression. They have opened up enormous opportunities in people's lives, and their activity on this network is growing daily. However, alongside the positive aspects of this network, serious negative problems are increasingly becoming apparent. One of the most alarming is its serious impact on human psychology and, consequently, on the components of the human mind.*

Keywords: *virtual, subculture, character, consciousness, psyche, computerization, social network, coefficient, cyberdependency, jargon.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛЮДЕЙ, ПОДВЕРЖЕННЫХ ВОЗДЕЙСТВИЮ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация. *За последние несколько десятилетий социальные сети стали неотъемлемой частью жизни миллиардов людей по всему миру. Они создали новое пространство для общения, информации и самовыражения. Они открыли огромные возможности в жизни людей, и активность людей в этой сети растет с каждым днем. Однако наряду с позитивными аспектами этой сети все более заметны серьезные негативные проблемы. Одна из самых тревожных заключается в том, что она серьезно влияет на психологию людей и, как следствие, на компоненты человеческого разума.*

Ключевые слова: *виртуальный, субкультура, характер, сознание, психика, информатизация, социальная сеть, коэффициент, киберзависимость, жаргон.*

IJTIMOIY TARMOQQA TOBE SHAXSLAR PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida ijtimoiy tarmoq butun dunyo bo‘ylab milliardlab insonlar turmush hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. U muloqot, axborot va shaxsiy ifoda uchun yangi maydonni tashkil qildi. Kishilar hayotida katta imkoniyatlar eshigini ochdi, ushbu tarmoqdagi kishilar faoliyati kun sayin ortib bormoqda. Ammo ushbu tarmoqning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda jiddiy salbiy muammolari ham borligi sezilib bormoqda. Eng xavotirlilaridan biri kishilarning psixologiyasiga jiddiy zarba berishligi va oqibatda kishi ongining tarkibiy qismlariga ta’siri sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *virtual, submadaniyat, xarakter, ong, psixika, axborotlashtirish, sotsial tarmoq, koeffisent, kiberaddiksiya, jargon.*

Introduction. The impact of the Internet on the human psyche is a complex and multifaceted phenomenon, which has become the subject of numerous studies and discussions in recent decades. On the one hand, the Internet has opened up new worlds of communication, information and self-expression, but on the other hand, it can become a source of serious psychological problems, including depression, anxiety and even suicidal tendencies. Our country is carrying out a number of positive works to prevent and eliminate the impact of these aspects. Therefore, in order to protect young people, especially children, from harmful information, and to regulate relations in this area, the Law of the Republic of Uzbekistan “On the Protection of Children from Information Harmful to Their Health” was adopted. Supporting the activities of citizens' self-government bodies, non-governmental non-profit organizations, other civil society institutions, individuals and legal entities in the field of protecting children from information that is harmful to their health is also considered a component

of this law. These platforms, where people share their lives, can create a distorted perception of reality.

LITERATURE REVIEW. Social media users usually try to present themselves in the most favorable way, which can lead to feelings of inferiority and envy in others who observe them. Constantly comparing one's life with idealized images of others in the virtual environment can lead to a decrease in the self-confidence of observers.

Researchers O.B. Köse and A. Dogan found a moderate negative correlation between self-esteem and addiction to social media [17]. The results of a study by N. S. Hawi and M. Samaha showed that excessive use of social media negatively affects self-esteem, which in turn negatively affects life satisfaction. Further analysis showed that self-esteem mediates the effect of social media addiction on life satisfaction [13]. A study by K. Kircaburun with 1130 students aged 12 to 18 years showed that daily use of the Internet is directly related to low self-esteem and depression [16]. In a simpler way, it is explained in Figure 1.




Figure 1. Mechanism of influence of social networks on the individual

The population of Uzbekistan had 14.1 million active social network user IDs in October 2025, of which 12.8 million users aged 18 and older used social networks, which is 53.7% of the total population aged 18 and older. This is a figure equal to 37.9% of the population of our country. 33.2% of social network users in Uzbekistan were women, and 66.8% were men.




Figure 2. Proportion of social media users in Uzbekistan

One of the most important mechanisms affecting adolescents' self-esteem is the process of social comparison. The intensity of social media use is an important factor affecting adolescents' self-esteem. M. Kambulova [27], E. E. Borisova [7], A. V. Shikhantsova [30] and D. A. Usik [29] have expressed their opinions on this in their works.

C. Sahin found a moderate negative correlation between life satisfaction and social media addiction [20]. Facebook addiction was found to be negatively correlated with subjective well-being and life satisfaction [22]. A. Guven noted that the relationship between life satisfaction and social media use was statistically insignificant [12]. In a study by I.H. Acar et al., high levels of social media addiction were associated with low self-esteem among participants. Furthermore, social media addiction mediated the relationship between emotional problems and self-esteem, suggesting that adolescents with high levels of emotional problems tended to report high levels of social media addiction, and this tendency was associated with low self-esteem [3]. Social media addiction symptoms may be associated with decreased well-being. However, the underlying mechanisms of this relationship are not fully understood, despite their importance for effective treatment of individuals with social media addiction symptoms. O. Turel, N. Poppa, and O. Gil-Or support the hypothesized negative association between perceived well-being (as well as low mood/mild depression) and the following points:

1) this association is mediated by neuroticism;

2) this increase is greater in women than in men [23].

F. Bânyai et al.'s work showed that those with the highest levels of smartphone addiction had the lowest self-esteem and the highest levels of depressive symptoms (Bânyai et al., 2017). A number of published articles (Oberst et al., 2017; Buglass et al., 2017) reported that high Facebook activity was associated with poorer mood, psychological well-being, and life satisfaction. J. Cabral showed that social media addiction is a sign of a lack of an active social life and low self-esteem [9]. In a study by S. Yu et al., almost all participants (99%) used social networking sites and low optimism as a factor of self-esteem was found to be an indirect factor of social media addiction [24]. In a study by M. Iskender, which included 328 high school students, participants' social media addiction was associated with low self-esteem, social isolation, and emotional loneliness in the family [14]. Social media addiction is considered an alternative to face-to-face communication and self-confidence [4]. A study by V. Boursier, F. Gioia, and M.D. Griffiths showed that boys' concerns about their appearance and expectations that selfies would increase their self-esteem predicted their problems with social media use. In contrast, girls who reported higher levels of appearance anxiety did not report higher levels of social media use [8]. In a study of the relationship between social media use and self-esteem, Costanzo et al. concluded that self-esteem development can be facilitated by reducing excessive social media use [10].

Romek (2008) has identified three types of self-esteem [28]. The three components of self-esteem are illustrated in Figure 3 below.




Figure 3. The three components of self-confidence

Thus, the identified negative correlation between social media addiction and self-confidence is fully consistent with a similar fact previously identified in foreign studies (Almenayes, 2014; Boursier, Gioia, Griffiths, 2020; Cabral, 2008; Costanzo et al., 2021; İskender, 2018; Kircaburun K., 2020; Yu et al., 2016).

People use space not according to circumstances, but according to necessity, but choose it as a place for living and development [18; 31]. Internet users have almost unlimited opportunities to create their own image in virtual space. The main limitations may be the level of creativity, the cultural development of the individual, and the technical conditions of the platform on which the virtual image is based [11]. Virtual space has a number of features that significantly affect the formation of a self-image and the realization of self-awareness. Such features include: anonymity (Mamedov, Korkiya,

2017) (Luchinkina, 2018; Pikulyova, 2014), non-physicality (Isaeva, 2021), symbolic nature of existence, transcendence (going beyond one's own boundaries), simulated nature of interaction (Emelin, 2016), reversibility, nonlinearity of time (Pravdyuk, 2002; Luchinkina, 2018), absence of spatial boundaries (external and internal), illusion of control, illusion of care, illusion of absence of loneliness (Tshie, 2011), multidimensionality, variability, superficiality of contacts, lack of possibility of full-fledged affective manifestation, and non-verbal components of interaction (Luchinkina, 2018; Pikulyova, 2014).

Users have the opportunity to create their own copies in the form of various images or to customize their own image, changing it in accordance with the situation or need (satisfaction of needs) [6]. At the same time, users strive to create a positive perspective. Self-talk, filling their profiles with positive, idealized and “mainstream” (popular, generally accepted) content (Georgieva, 2017). However, the virtual identity embodied in the user’s image is not a copy of the real identity. The virtual self-image is something that is creatively processed, independently reinterpreted and specifically presented in the virtual space [5].

In K. Ryff's concept of psychological well-being, the following indicators are distinguished: a person's self-acceptance, his positive relations with society, personal competence as the ability to manage his environment, the presence of life goals, personal growth and autonomy as independence and independence [19]. The concept of psychological well-being (PWB) is associated with ideas about the conditions and criteria for the full functioning of a person. Researchers working within this paradigm, mainly C. Ryff (1996) and M. Seligman (2011), emphasize that experiencing happiness is not only positive emotions, but also a sense of self-awareness, self-expression [19; 21]. S.A. Vodyakha proposes the following criteria for psychological well-being: positive emotions, close relationships, participation in life, meaningfulness in life and positive self-motivation [25; 32]. According to O.A. Idobaeva, each age is characterized by the characteristics of psychological well-being, which are determined by the social status of development, leading activity, the level of development of age-related psychological neoplasms and the individual psychological characteristics of the individual [26].

Discussion. The results of numerous studies show that addiction to social networks is a clear situation that causes many problems for its participants: there are several negative factors of this addiction, as well as positive ones. It is possible that there are some negative correlations with positive factors. Researchers around the world agree that one of the main reasons for addiction to social networks is the need for communication, while some groups of authors deny this. Taking into account gender aspects is also an important element here. Women are usually more active in social networks than men, and younger users are more active than older users. The most important predictors of addiction to social networks may be depression and loneliness. The numerous negative consequences of social media addiction, as described in the article, indicate the appropriateness and timeliness of explaining the dangers of social media addiction (especially to young people).

Conclusion. It can be said that there are positive correlations between social media addiction and depression, anxiety, stress, emotional problems, low self-esteem, physical health problems, mental illness, loneliness, procrastination, smartphone and Internet addiction, and relationship infidelity. It can be argued that there are negative correlations between social media addiction and life satisfaction, poverty and self-esteem, self-awareness, and their social adaptation.

References.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2022 yildagi SQ-545-IV-sonli qarori., https://lex.uz/docs/-6063181

2. O‘zbekiston Respublikasining 08.09.2017 yildagi O‘RQ-444-sonli Qonuni., https://lex.uz/docs/-3333797

3. Acar I.H., Avcilar G., Yazici G. et al. The roles of adolescents' emotional problems and social media addiction on their self-esteem // Current Psychology. 2020. https://doi.org/10.1007/s12144-020-01174-5

4. Almenayes J.J. Religiosity and the perceived consequences of social media usage in a Muslim country // Journal of Arts and Humanities. 2014. Vol. 3 No. 5. DOI: 10.18533/journal.v3i5.439

5. Bauer, G.V. Virtual self-presentation in the social network "VKontakte" // Cifrovizaciya, 2022. 3 (1). 24-40. https://doi.org/10.37993/2712-8733-2022-3-1-24-40

6. Belinskaya, E.P. Coping with difficulties in the age of new information technologies: opportunities and limitations // Psihologicheskie issledovaniya, 2014. 7 (38). 2-8. https://doi.org/10.54359/ps.v7i38.577

7. Борисова Е. Е. Влияние социальных сетей на самооценку подростков: психологический анализ // Научный Лидер. - 2025. - №41 (242). - С. 56-61. - URL: scilead.ru/article/10075-vliyanie-sotsialnikh-setej-na-samootsenku-po

8. Boursier V., Gioia F., Griffiths M.D. Do selfie-expectancies and social appearance anxiety predict adolescents' problematic social media use? // Computers in Human Behavior. 2020. Volume 110. September 2020. 106395. DOI: 10.1016/j.chb.2020.106395

9. Cabral J. Is generation Y addicted to social media // The Elon Journal of Undergraduate Research in Communications. 2011. Volume 2. Issue 1. pp. 5-14.

10. Costanzo A., Santoro G., Russo S. et al. Attached to virtual dreams: The mediating role of maladaptive daydreaming in the relationship between attachment styles and problematic social media use // The Journal of Nervous and Mental Disease: September 2021. Volume 209. Issue 9. pp. 656−664. DOI: 10.1097/NMD.0000000000001356

11. Egorova, V.I. Virtual space - a platform for implementation of virtual images // Russian linguistic bulletin, 2020. 2 (22). 111-114.

12. Guven A. Relationship between social media use, self-esteem and satisfaction with life: Thesis of MA Dissertation. Alabama: University of Alabama Libraries, 2019.

13. Hawi, N.S., & Samaha, M. The relations among social media addiction, self-esteem, and life satisfaction in university students. Social Science Computer Review, 2017. 35(5), 576-586. https://doi.org/10.1177/0894439316660340

14. İskender M. Investigation of the Effects of Social Self-Confidence, Social Loneliness and Family Emotional Loneliness Variables on Internet Addiction // Malaysian Online Journal of Educational Technology. 2018. V.6 N.3. pp. 1−10. DOI: 10.17220/mojet.2018.03.01

15. Kircaburun, K. Self-esteem, daily internet use and social media addiction as predictors of depression among Turkish adolescents. Journal of Education and Practice, 2016. 7(24), 64-72.

16. Kircaburun K., Griffiths M.D., Şahin F. et al. The Mediating Role of Self/Everyday Creativity and Depression on the Relationship Between Creative Personality Traits and Problematic Social Media Use Among Emerging Adults // Int. J. Ment. Health Addiction. 2020. 18. pp. 77–88. DOI: 10.1007/s11469-018-9938-0

17. Kose O.B., Dogan A. The relationship between social media addiction and self-esteem among Turkish university students // Addicta: The Turkish Journal on Addictions. 2019. Vol. 6. No. 1. Pp. 175-190. https://doi.org/10.15805/addicta.2019.6.1.0036

18. Naslund J.A., Bondre A., Torous J. Social media and mental health: benefits, risks, and opportunities for research and practice // J Technol Behav Sci, 2020. Vol. 5, P. 245-257. https://doi.org/10.1007/s41347-020-00134-x

19. Ryff C. Psychological Well-Being // Encyclopedia of Gerontology. 1996. Vol. 2. P. 365–369

20. Sahin, C. The Predictive level of social media addiction for life satisfaction: A study on university students // Turkish Online Journal of Educational Technology, 2017. 16(4), 120-125.

Raxmatullayev Farxod Baxtiyor o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0005-7722-5878

TALABALARNING UNIVERSITET MUHITIGA MOSLASHUVIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning universitet muhitiga moslashuv jarayonida kommunikativ kompetentlikning gender xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda 542 nafar respondent (359 ayol va 183 erkak) ishtirok etdi. Metodologik asos sifatida R.Shamionov, I.Martyanova hamda T.Dubovitskaya va A.Krilovlarning metodikalari qo‘llanildi. Mann-Uitni statistik tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayol talabalar akademik va ijtimoiy moslashuv, shuningdek, kommunikativ kompetentlikning deyarli barcha komponentlari bo‘yicha erkaklarga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega. Shu bilan birga, erkak talabalarda akademik yuklamalarga nisbatan psixofiziologik bardoshlilik yuqori ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetentlik, akademik moslashuv, gender xususiyatlari, talabalar, universitet muhiti, Mann-Uitni mezoni, psixofiziologik bardoshlilik.*

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К УНИВЕРСИТЕТСКОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В данной статье исследуются гендерные особенности коммуникативной компетентности в процессе адаптации студентов к университетской среде. В исследовании приняли участие 542 респондента (359 женщин и 183 мужчины). В качестве методологической основы использовались методики Р. Шамионова, И. Мартьяновой, а также Т. Дубовицкой и А. Крылова. Результаты статистического анализа Манна-Уитни показали, что студентки имеют более высокие показатели по академической и социальной адаптации, а также по всем компонентам коммуникативной компетентности по сравнению с мужчинами. При этом у студентов-мужчин выявлена более высокая психофизиологическая устойчивость к академическим нагрузкам.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, академическая адаптация, гендерные особенности, студенты, университетская среда, критерий Манна-Уитни, психофизиологическая устойчивость.*

GENDER CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS’ ADAPTATION TO THE UNIVERSITY ENVIRONMENT

Abstract. *This article explores the gender characteristics of communicative competence in the process of students' adaptation to the university environment. The study involved 542 respondents (359 females and 183 males). Methodologies by R. Shamionov, I. Martyanova, and T. Dubovitskaya & A. Krylov were used as the methodological basis. Results of the Mann-Whitney statistical analysis demonstrated that female students score higher in academic and social adaptation, as well as in almost all components of communicative competence compared to males. At the same time, it was found that male students possess higher psychophysiological resilience to academic workloads*

Key words: *communicative competence, academic adaptation, gender characteristics, students, university environment, Mann-Whitney test, psychophysiological resilience.*


Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimidagi islohotlar sharoitida talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonlarini samarali tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’limning dastlabki bosqichlarida talabalarning yangi ijtimoiy muhitga, o‘quv faoliyati xususiyatlariga va muloqot tizimiga moslashuvi ularning kelajakdagi kasbiy shakllanishini belgilab beruvchi fundamental omildir.

Ushbu moslashuv jarayonida kommunikativ kompetentlik markaziy o‘rin tutadi. Kommunikativ kompetentlik nafaqat ma’lumot almashish mahorati, balki shaxslararo muloqotni konstruktiv tashkil etish, nizolarni boshqarish va ijtimoiy muhitda o‘zaro tushunishga erishish qobiliyatidir. Biroq, psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlikning namoyon bo‘lishi va uning moslashuvga ta’sir darajasi talabalarning gender xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

Bugungi kunda talaba yigit va qizlarning kommunikativ strategiyalari, emotsional intellekti va ijtimoiy persepsiya darajalaridagi tafovutlar ularning universitet muhitiga moslashuv tezligi va sifatiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, ayol jinsi vakillarida emotsional qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj va empatiya yuqoriligi ijtimoiy moslashuvni yengillashtirsa, erkak jinsi vakillarida statusga yo‘naltirilgan muloqot va yetakchilikka intilish moslashuvning boshqa mexanizmlarini ishga tushiradi. Ushbu gender xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi talabalarning universitet muhitiga moslashuv jarayonidagi gender xususiyatlarini tizimli va kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, jami 542 nafar respondentni qamrab olgan empirik bazaga tayanadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikalar majmuasi moslashuvning uchta asosiy jihatini - akademik, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik sferalarini qamrab olish maqsadida tanlab olindi. Jumladan, R.Shamionov, M.Grigoreva, E.Grinina va A.Sozonniklarning “Akademik moslashuv” metodikasi talabalarning bevosita o‘quv faoliyatiga ko‘nikishi, dars jarayonidagi motivatsiyasi va akademik qiyinchiliklarni yengish strategiyalarini jinsiy farqlar prizmasida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metodika talaba yigit va qizlarning ta’lim talablariga nisbatan turlicha yondashuvlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ sohadagi gender tafovutlarini o‘rganish uchun I.A.Martyanovaning “Ko‘p madaniyatli jamiyat sharoitida OTM talabalarining kommunikativ kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash” metodikasi qo‘llanildi. Mazkur tanlov muloqotni moslashuvning asosiy instrumenti deb qarashga asoslangan bo‘lib, u respondentlarning empatiya darajasi, shaxslararo muloqotga kirishuvchanligi va turli madaniy muhitlarda o‘zini tutish xususiyatlarini baholashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik muhitga integratsiyalashuv darajasini aniqlash maqsadida esa T.D.Dubovitskaya va A.V.Krilovlarning “Universitetda talabalarning moslashuvini o‘rganish” metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika talabaning nafaqat o‘qishga, balki talabalar guruhi va jamoasiga qanchalik “singib” ketganini, ya’ni uning ijtimoiy komfort darajasini o‘lchashga yordam beradi. Tadqiqotning matematik-statistik tahlili jarayonida olingan ma’lumotlarning taqsimoti normal qonuniyatga mos kelmaganligi hamda erkak va ayol jinsi vakillari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligini tekshirish zarurati tufayli Mann-Uitni (U-mezon) statistik ko‘rsatkichidan foydalanildi. 542 nafar respondentdan olingan natijalarning ushbu mezon asosida tahlil qilinishi, har bir metodika shkalalari bo‘yicha jinslararo farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini va bu farqlar tasodifiy bo‘lmay, balki gender omiliga bog‘liq psixologik qonuniyat ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Natijalar va Munozara.Bizning tadqiqot ishimizda jami 542 nafar sinaluvchi ishtirok etib ulardan 66,2% (359 ta) ayollar, 33,8 %(183 ta) ni erkaklar tashkil etdi va ularning o‘rtacha yoshi 20,3 ni tashkil qildi.



Jadval-1.

Shamionov R, Grigorieva M, Grinina E, va A.Sozonniklarning "Akademik moslashuv" metodikasi shkalalarining Mann-Uitni mezoni bo'yicha tahlili (Man Uitni mezoni asosida n=542)

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtachaRank	Rank summasi	U	p
Shaxsiy komponent	Erkak	183	248,76	45523,50	28688	0,016*
	Ayol	359	283,09	101629,50		
Emotsional baholash komponenti	Erkak	183	245,72	44967,00	28131	0,006**
	Ayol	359	284,64	102186,00		
Kognitiv komponent	Erkak	183	249,41	45642,50	28807	0,019*
	Ayol	359	282,76	101510,50		
Motivatsion komponent	Erkak	183	250,79	45895,00	29059	0,027*
	Ayol	359	282,06	101258,00		
Psixofiziologik komponent	Erkak	183	294,53	53898,50	28635	0,014*
	Ayol	359	259,76	93254,50		
Kommunikativ komponent	Erkak	183	250,70	45877,50	29042	0,027*
	Ayol	359	282,10	101275,50		
Akademik moslashuvning yaxlit bahosi	Erkak	183	250,55	45851,00	29015	0,026*
	Ayol	359	282,18	101302,00		

P<0,05* 0,011 dan 0,050 gacha 95%
P<0,01** 0,000dan 0,010 gacha 99%

R.Shamionov, M.Grigorieva, E.Grinina va A.Sozonniklarning "Akademik moslashuv metodikasi" bo'yicha olingan natijalar erkak va ayol talabalar o'rtasida statistik jihatdan muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Jami 542 nafar (183 erkak va 359 ayol) sinaluvchilar o'rtasida o'tkazilgan Mann-Uitney U testi natijalari quyidagilarni aniqlash imkonini berdi: "Shaxsiy komponent" (U=28688; p<0,05), "Emotsional baholash komponenti" (U=28131; p>0,01), "Kognitiv komponent" (U=28807; p<0,05), "Motivatsion komponent" (U=29059; p<0,05), "Kommunikativ komponent" (U=29042; p<0,05), "Akademik moslashuvning yaxlit bahosi" (U=29015; p<0,05), shkalalarida sinaluvchilarning jins bo'yicha natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi. Unga ko'ra yuqoridagi shkalalar bo'yicha ayollarda erkaklarga nisbatan balandroq ko'rsatgich chiqdi. Eng yuqori statistik farq emotsional baholash komponenti bo'yicha kuzatildi. Ayol talabalarning o'rtacha rangi erkaklarnikidan sezilarli darajada yuqori. Bu ayollarda o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy hissiy munosabat, o'z holatidan qoniqish va emotsional barqarorlik yuqori ekanligini anglatadi. Shuningdek, motivatsion va shaxsiy komponentlar bo'yicha ham ayollar yetakchilik qilmoqda, bu ularning o'qishga bo'lgan ichki intilishi va mas'uliyatliligi bilan bog'liq. Ayol talabalar o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish (kognitiv) va guruhdoshlar hamda o'qituvchilar bilan muloqot o'rnatish (kommunikativ) borasida ham erkaklardan ustun ekanliklari aniqlandi. Bu ayollarning ijtimoiy moslashuvchanligi va akademik muhitga tezroq kirishib ketish qobiliyatini tasdiqlaydi.

"Psixofiziologik komponent" (U=28635; p<0,05) shkalasida sinaluvchilarning jins bo'yicha ishonchli farqlar kuzatildi. Unga ko'ra yuqoridagi shkalalar bo'yicha erkaklarda ayollarga nisbatan balandroq ko'rsatgich chiqdi. Jadvalning eng qiziqarli jihati psixofiziologik komponentda namoyon bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, erkak talabalar akademik yuklamalarni jismoniy jihatdan yengilroq o'tkazishadi, ularda charchoq va stressning fiziologik asoratlari (uyqusizlik, bosh og'rig'i va h.k.) ayollarga qaraganda kamroq kuzatiladi.

Akademik moslashuvning yaxlit bahosi shuni ko'rsatadiki, ayol talabalar oliy ta'lim tizimiga umumiy jihatdan yaxshiroq moslashadilar. Biroq, ularning yuqori akademik ko'rsatkichlari ko'pincha yuqori psixofiziologik "narx" (stress va charchoq) evaziga amalga oshadi. Erkaklarda esa aksincha: umumiy moslashuv ko'rsatkichlari pastroq bo'lsa-da, ularning organizmi akademik muhitga nisbatan fiziologik bardoshliroqdir.

Jadval-2.

T.D.Dubovitskaya va A.V.Krilovlarning "Universitetda talablarning moslashuvini o'rganish" metodikasi shkalalarining Mann-Uitni mezoni bo'yicha tahlili (Man Uitni mezoni asosida n=542)

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtachaRank	Rank summasi	U	p
O'quv guruhiga moslashuvchanlik	Erkak	183	244,72	44784,50	27949	0,004**
	Ayol	359	285,15	102368,50		
O'quv faoliyatiga moslashuvchanlik	Erkak	183	231,58	42379,00	25543	0,000**
	Ayol	359	291,85	104774,00		

P<0,01** 0,000dan 0,010 gacha 99%

T.D.Dubovitskaya va A.V.Krilovlarning "Universitetda talablarning moslashuvini o'rganish metodikasi" ning "O'quv guruhiga moslashuvchanlik" (U=27949; p<0,01), "O'quv faoliyatiga moslashuvchanlik" (U=25543; p<0,01) shkalalarida sinaluvchilarning jins bo'yicha natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi.

Bu holat ayol talabalarning yangi ijtimoiy muhitga kirishishda, kursdoshlar bilan muloqot o'rnatishda va akademik talablarni qabul qilishda ancha egiluvchan va mas'uliyatli ekanliklaridan dalolat beradi. Xususan, ayollarda kommunikativ kompetentlikning yuqoriligi ularga guruh ichidagi norasmiy munosabatlarni tezroq tushunish va o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarni samarali yengib o'tish imkonini beradi. Erkak talabalarda esa moslashuv ko'rsatkichlarining pastligi ularning universitetning ijtimoiy-akademik muhitiga moslashishida qo'shimcha psixologik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji borligini ko'rsatadi.

Jadval -3.

I.A.Martyanovaning "Ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida OTM talabalarining kommunikativ kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash" metodikasi shkalalarining Mann-Uitni mezoni bo'yicha tahlili (Man Uitni mezoni asosida n=542)

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtachaRank	Rank summasi	U	p
Kognitiv reja	Erkak	183	251,08	45947,00	29111	0,029*
	Ayol	359	281,91	101206,00		
Kommunikativ kompetentlikning hissiy parametrlar	Erkak	183	228,92	41892,50	25057	0,000**
	Ayol	359	293,20	105260,50		
Kommunikativ kompetentlikning xulq atvor tarkibiy qismi	Erkak	183	236,27	43237,50	26402	0,000**
	Ayol	359	289,46	103915,50		
Kommunikativ tolerantlik	Erkak	183	247,35	45265,00	28429	0,01**
	Ayol	359	283,81	101888,00		
Umumiy natija	Erkak	183	231,15	42300,50	25465	0,000**
	Ayol	359	292,07	104852,50		

P<0,05* 0,011 dan 0,050 gacha 95%
P<0,01** 0,000dan 0,010 gacha 99%

I.A.Martyanovaning "Ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida OTM talabalarining kommunikativ kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasi" ning "Kognitiv reja" (U=29111; p<0,05), "Kommunikativ kompetentlikning hissiy parametrlari" (U=25057; p<0,01), "Kommunikativ kompetentlikning xulq atvor tarkibiy qismi" (U=26402; p<0,01), "Kommunikativ tolerantlik" (U=28429; p<0,01), "Umumiy natija" (U=25465; p<0,01) shkalalarida sinaluvchilarning jins bo'yicha natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi.

Jumladan, ayol talabalarda kommunikativ kompetentlikning kognitiv komponenti ya'ni muloqotni tushunish, vaziyatni anglash hamda kommunikativ bilimlar, Kommunikativ kompetentlikning hissiy parametrlari: emotsional sezgirlik, empatiya va hissiy reaksiyalarni boshqarish, Kommunikativ kompetentlikning xulq atvor tarkibiy qismi: muloqot jarayonida samarali xulq-atvor strategiyalarini qo'llash, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish darajasi, Kommunikativ tolerantlik: boshqa fikr va qarashlarga nisbatan bag'rikenglik hamda kommunikativ tolerantlik darajasi erkak talabalarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar ayol talabalarda kommunikativ jarayonlar, ijtimoiy o'zaro ta'sir va interpersonal munosabatlarni tashkil etish ko'nikmalari nisbatan rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu esa ularning universitet ta'lim muhitiga moslashuv jarayonida kommunikativ kompetentlik muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari talabalarning universitet muhitiga moslashuvi jinsiy mansublikka bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Ayol talabalarda muloqot madaniyati, empatiya va ijtimoiy egiluvchanlikning yuqoriligi ularning jamoaga tezroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Biroq, ularning yuqori akademik ko'rsatkichlari kuchli stress va charchoq evaziga amalga oshadi. Erkak talabalarda esa umumiy moslashuv ko'rsatkichlari pastroq bo'lsa-da, ularning organizmi akademik yuklamalarga fiziologik jihatdan chidamliroqdir. Olingan natijalar OTMlarda talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini gender omilini hisobga olgan holda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T-2003. 16 b
2. Lassuel G. The structure and function of communication in society. // The Communication of Ideas. N.Y.: Harper and Brothers,. - 1948.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.- 119 b.
4. Бодалев А.А. О коммуникативном ядре личности // Сов. педагогика. 1990. - № 5. - С. 77-81.
5. Ғозиев.Э.Ғ. Муомала психологияси. - Тошкент: Университет, 2001. - 140 б.
6. Рыжов В.В. Психологические основы коммуникативной подготовки педагога. Нижний Новгород: ННГУ, 1994.

Xudayarova Nargizaxon Baxromjon qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistri

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI MULOQOTDAGI MUAMMOLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning ko‘payib ketishi o‘smirlarda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. O‘smirlik davridagi muloqot jarayonidagi muammolar kattalik davriga va shaxslararo munosabatlarga ta’sir qilishini kuzatishimiz mumkin. Maqolada muloqot ko‘rinishlari va olimlarning muloqot haqidagi tahlillar keltirib o‘tilgan. Maqola o‘smirlik davridagi muloqot jarayoni va munosabatlarning tahlil qilinishiga qaratilgan bo‘lib, olimlarning qarashlari va fikrlari bilan boyitilgan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot, munosabat, yosh davrlari, o‘smirlik, sotsiofobiya, emotsional xulq atvor, kognitiv.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМ ОБЩЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В настоящее время распространение социальных сетей вызывает ряд проблем у подростков. Мы можем наблюдать, что проблемы в процессе общения в подростковом возрасте влияют на период взросления и межличностные отношения. В статье представлены виды общения и анализ ученых об общении. Статья посвящена анализу процесса общения и отношений в подростковом возрасте и обогащена взглядами и мнениями ученых.*

Ключевые слова: *общение, отношения, возрастные периоды, подростковый возраст, социофобия, эмоциональное поведение, когнитивный.*

SPECIFIC FEATURES OF COMMUNICATION PROBLEMS IN ADOLESCENCE

Abstract. *Currently, the proliferation of social networks is causing a number of problems for adolescents. It can be observed that communication issues during adolescence affect adulthood and interpersonal relationships. The article presents various forms of communication and the analyses of communication by scholars. The article is dedicated to the analysis of the communication process and relationships during adolescence and is enriched with the views and opinions of scientists.*

Key words: *communication, relationships, age periods, adolescence, sociophobia, emotional behavior, cognitive.*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi va kommunikativ kompetensiyasining shakllanishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davri inson ontogenezining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni egallash, qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda atrofdagilar bilan samarali muloqot o‘rnatish jarayonlari faol kechadi. Shu sababli o‘smirlarning muloqot faoliyati va undagi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o‘rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davrida muloqot nafaqat axborot almashish vositasi, balki shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyat turiga aylanadi va aynan shu jarayonda shaxsning o‘zini baholashi, ijtimoiy maqomi, emotsional tajribalari hamda xulq-atvori shakllanadi. Biroq, zamonaviy o‘smirlar muloqot jarayonida turli psixologik qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Jumladan, kommunikativ ko‘nikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, empatiya va ijtimoiy sezgirlikning pastligi, agressiv yoki passiv muloqot uslublarining ustunligi, konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal eta olmaslik kabi muammolar keng tarqalgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Munosabat” kategoriyasi orqali insondagi sub’ektivlik tabiatini aniqlaydi, xarakter va sotsiopatiyalarning kelib chiqishini tushuntiradi. U munosabatlarning bir nechta turini tafovutlaydi. Psixik munosabatlar sezgi organlariga xush va noxush ta’sir etuvchi ob’ektning o‘ziga tortish darajasini aniqlab beradi. Mazkur munosabatlar aks ettirayotgan ob’ekt xossalariga reaksiyasining ixtiyorsizligi bilan ajralib turadi. Psixologik munosabatlar shaxsning ob’ektiv borliqni turli tomonlari bilan individual, tanlangan, ongli aloqalaridan iborat butun tizimni qamrab oladi, ya’ni psixologik munosabatlar psixik munosabatlarda farqli o‘laroq anglanganlik xususiyatiga ham ega hamda ular ixtiyoriyligiga ko‘ra inson individualligini bildiradi. Psixologik munosabatlar shaxsdagi ehtiyojlar, hissiyotlar, qiziqishlar, e’tiqodlar, baholash, shuningdek iroda, diqqat, motiv kabi muhim tashkil etuvchilarning butun shaklidir. Ehtiyojlarga bu tuzilmada “asosiy munosabatlar” roli beriladi. V.N.Myasishev “baholovchi munosabatlar”ga alohida e’tibor qaratadi, uning fikricha, mazkur munosabatlar odamlar xulq-atvori, qilayotgan ishlari, hayot faoliyatlarining etik, estetik, huquqiy va boshqa ijtimoiy mezonlari asosida shakllanadi. Baholash – bu munosabat namoyon bo‘lishi shakli, uning ongli ob’ektivizatsiyasidir. V.N.Myasishev fikricha o‘zini va boshqa odamlarni baholashda avvalambor o‘zini va boshqalarni hurmatlash namoyon bo‘ladi, ular o‘zaro munosabatlarda avtoritetlik yoki avtoritarlik, rahbarlik yoki bo‘ysunuvchilik, ziyraklik yoki e’tiborsizlikka aylanadi. V.N.Kunitsina va V.N. Panferov fikricha baholovchi munosabatlar bu jarayonda psixologik munosabatlarning ijtimoiy-psixologik munosabatlarga o‘zgartirish funksiyasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi O‘smirlarda sotsiofobiya holatini o‘rgangan olimlarning bir guruhi bu holatni uning sotsiometrik mavqei bilan tushuntirishga harakat qilganlar (U. Bronfenbrenner, N. Ye. Gronland, Ya. L. Kolominskiy, S. A. Kotik, X. Liymets, R. Mann, V. S. Merlin, Dj. Moreno, N. N. Obozov, L. S. Slavina). Ularning tadqiqotlari asosan sotsiofobiyaning kelib chiqishini tushuntirishda introvertlik-ekstrovertlik kabi individual-tipologik xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rnatishga (G. V. Akopov), tashqi ko‘rinish, maktabdagi ko‘rsatkichlar, muloqotmandlik darajasi, do‘stiga yordam berishga tayyorlik (N. Ye. Gronland), temperament (S. A. Kotik), emotsional ekspansivlik (N. N. Obozov), samaradorlik (L. S. Slavina) va x.k.larga yo‘naltirilgan. Sotsifobiya shakllanishiga o‘smir mansub bo‘lgan guruh rivojlanishi darajasi, shaxslararo munosabatlar tuzilmasi ta’siri isbotlangan (Ya. L. Kolominskiy, V. S. Merlin va boshqalar).

Tahlil va natijalar. L.I.Ansiferova, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, K.A.Abulxanova-Slavskaya va boshqalarning ta’kidlashlaricha o‘zini o‘zi baholash va refleksiv jarayonlar ijtimoiy xulq determinatsiyasida bosh rollardan birini egallaydi.

R.I.Sunnatova (1999) ishlarida o‘zini o‘zi baholashda konstruktivlik va destruktivlik komponentlarini kiritish asoslab berilgan. Mazkur xarakteristikalar o‘ziga emotsional-qadriyatli munosabat, o‘zini qabul qilish va qabul qilmaslik bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zini o‘zi baholash tuzilmasida mos kelishlik darajasi bilan belgilanadi.

jadval-1

Kommunikativ rivojlanish bosqichlari (o‘smirlikka oid)

Bosqich	Yosh oralig‘i	Tavsifi
Ilk o‘smirlik	10–13 yosh	Verbal muloqot kuchayadi, o‘z fikrini ifodalashga urinadi.
O‘rta o‘smirlik	14–16 yosh	Do‘stlik va tengdoshlar bilan muloqot ustuvor bo‘ladi.
Kech o‘smirlik	17–18 yosh	Identitet izlanadi, mustaqil fikrlar faol ifodalanadi.

Olimlar ta’kidlashicha, o‘smirlik davridagi eng dolzarb muammolardan biri ota-ona va farzand o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlardir – oila o‘smir hayotida hal qiluvchi ijtimoiy omil bo‘lib, aynan shu davrda u bilan bo‘ladigan munosabatlar o‘smirning shaxsiy va kommunikativ rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3]. Odatda, o‘smirlar tengdoshlarining ta’siri oshib, ota-onalarining avtoriteti ma’lum darajada pasayishi kuzatiladi. Natijada, o‘smirlar o‘z mustaqilligini talab qila boshlaydi, bu esa kattalar bilan muloqotda ba’zan tushunmovchilik va nizolarga olib keladi [7]. Shu bilan birga, ota-onalarning o‘smir ulg‘ayib borayotganini e’tibordan qochirishi yoki unga haligacha kichkina bola sifatida muomala qilishi ham muloqot muammolarini chuqurlashtirishi mumkin [4]. Xulosa qilib aytganda,

o‘smir va kattalar o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar o‘smirlik davrining murakkab va muhim jihati bo‘lib, bu munosabatlarni muvofiqlashtirish o‘smir shaxsining barkamol rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval-2

O‘smir muloqotidagi qiyinchiliklarning simptomlari va tashqi ko‘rinishlari

Qiyinchilik turi	Belgilari (simptomlar)	Tashqi ifoda (kuzatiladigan xulq)	Baholash indikatorlari
Emotsional	Yuqori xavotir, tez xafa bo‘lish.	Muloqotdan qochish, yig‘lash, o‘zini yakkalash.	Xavotir darajasi, suhbatsizlik ko‘rsatkichi.
Kognitiv	Fikrni ifoda etishda qiyinchilik, chalkashlik.	So‘z topa olmaslik, noto‘g‘ri javoblar.	Nutq aniqligi, javoblarning dolzarbligi.
Xulqiy	Agressivlik, ziddiyatli munosabat.	Jahl, tanqidni qabul qilmaslik, o‘zini tutmaslik.	Konflikt chastotasi, bahsga kirishish tezligi.

Tengdoshlar bilan muloqot o‘smirlar hayotida alohida o‘rin tutadi. O‘smirlik davrida do‘stlar va tengdoshlar bilan yaqin muloqotga ehtiyoj ortadi, chunki bu davrda o‘smir o‘zini oiladan tashqarida mustaqil shaxs sifatida sinab ko‘radi va yangi ijtimoiy rollarga kirishadi [7]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar ko‘pincha o‘z muammolari yoki kechinmalarini tengqurlari bilan osonroq baham ko‘rishadi; masalan, qiz bolalar ko‘proq do‘stlariga ichki his-tuyg‘ularini aytib berishga moyil bo‘lsa, o‘g‘il bolalar ayrim hollarda o‘z hislarini ochiq muloqotda bildirishdan ko‘ra, turli mashg‘ulotlar (sport, musiqaga qiziqish va hokazo) orqali bilvosita ifoda etishga intiladi [1]. Bu farqlar jinsga xos emotsional rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi. Muhimi, tengdoshlar jamoasi o‘smirga o‘zini anglash va sinab ko‘rish uchun muhit yaratadi – do‘stlar orasida u turli xatti-harakatlarni sinab ko‘radi, xatolar qiladi va to‘g‘ri xulosalar chiqara boradi (1-jadval) [2]. Agar o‘smirning ijtimoiy atrofi sog‘lom bo‘lsa, bu uning kommunikativ va ijtimoiy malakalarini boyitadi; aks holda, noqulay yoki nosog‘lom muhit esa kommunikativ rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, hatto deviant xulq va tajovuzkorlik kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin [7].

O‘smirlarning psixologik holatlari ham ularning muloqot sifatiga bevosita ta’sir qiladi [2]. Masalan, ijtimoiy tashvishlanish (sotsial xavotir) yuqori bo‘lgan o‘smirlar odatda odamlar bilan muloqot qilishdan qochishga moyil bo‘ladilar, bu esa ularning kommunikativ malakalari rivojini sekinlashtiradi [8]. Xitoylik o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan bir tadqiqotda ijtimoiy xavotir yuqori bo‘lgan o‘smirlar muloqotga kamroq kirishishi va kommunikativ ko‘nikmalarni kamroq qo‘llashi aniqlangan [2]. Biroq, shu bilan birga, hissiy intellekt (Emotsional Intellekt-EI) yuqori bo‘lgan o‘smirlar kuchliroq kommunikativ qobiliyatlarni namoyon etib, muloqotdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodir ekanliklari qayd etilgan [7]. Guo va hammualliflar (2024) o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, hissiy intellekti yuksak o‘smirlar boshqalarning hissiyotlarini yaxshiroq tushunish va o‘z hissiyotlarini boshqarish layoqati tufayli samaraliroq muloqot qila oladilar; hatto ijtimoiy tashvish belgilari mavjud bo‘lsa-da, bunday o‘smirlar hissiy o‘zini boshqarish orqali muloqotdagi salbiy hissiyotlarni kamaytira olishadi [3]. Demak, o‘smirlarning psixologik xususiyatlari – o‘zini anglash darajasi, his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy xavotir darajasi va boshqalar – ularning kommunikativ rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [4]. Bu omillarni inobatga olgan holda, psixologlar o‘smirlar bilan kommunikativ treninglar va psixokorreksion dasturlar orqali ularning muloqotdagi ishonchi va malakalarini oshirishga harakat qilmoqdalar.

XXI asr – raqamli texnologiyalar asri – o‘smirlarning kommunikativ rivojlanishiga yangi omillarni qo‘shmoqda. Zamonaviy o‘smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlar va internet bosh muloqot vositalaridan biriga aylangan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, virtual muloqotning o‘sishi o‘smirlar kommunikativ malakalariga ikki xil ta’sir ko‘rsatishi mumkin: ijobiy va salbiy [3]. Masalan, N. Sangirova (2025) ta’kidlaganidek, agar o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va nazoratli tarzda foydalansa, bu ularning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga ko‘maklashadi; aksincha, haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish shaxsiy rivojlanish hamda muloqot ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori [4]. Shuning uchun, virtual olamdan foydalanishda muvozanatni saqlash o‘smirlar uchun muhim vazifa sifatida qaraladi.

Raqamli davrda ulg‘ayayotgan avlodning xususiyatlarini hisobga olgan holda, olimlar o‘smirlar bilan kommunikativ tarbiya va ta’limni yangi shakl va usullar orqali boyitishni taklif etishmoqda. Masalan, A.D. Tsyvunina (2021) o‘tkazgan tadqiqotda raqamli avlodning o‘ziga xos xususiyatlarini va axborotlashtirilgan ta’lim muhiti sharoitlarini inobatga oluvchi kommunikativ madaniyatni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi [5]. Ushbu model struktur-funksional yondashuvga asoslanib, maqsadli, konseptual, diagnostik-tahliliy, mazmuniy-texnologik va natijaviy bloklarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, raqamli davrda o‘smirlarning kommunikativ rivojlanishini ta’minlash uchun maxsus metodik tizim zarur bo‘lib, u raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirgan yoshlarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda tuzilgan bo‘lishi lozim. Tsyvunina (2021) ta’kidiga ko‘ra, bunday yondashuv o‘smirlarning yangi raqamli muhitda samarali muloqot qilishiga ko‘maklashadi va ularda kommunikativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi [7].

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘smirlar kommunikativ rivojlanishining psixologik-metodologik asoslarini chuqurroq yoritib bermoqda. O‘smirlik davrida muloqot shaxs taraqqiyotining ajralmas qismi ekanligi, ushbu jarayon o‘ziga xos psixologik omillar (o‘tish davri xususiyatlari, ijtimoiy tashvish, hissiy intellekt va boshqalar) bilan bog‘liqligi va zamonaviy raqamli muhit kontekstida yangi qirralar kasb etayotgani ilmiy adabiyotlarda keng tasdiqlanmoqda. Shu bilan birga, kommunikativ rivojlanishdagi muammolarni aniqlash va hal etishga doir samarali metodlar – psixologik treninglar, guruhiy ijodiy faoliyat, ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar taklif qilinmoqda. Kelgusida o‘smirlar kommunikativ rivojlanishini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali ularning sog‘lom va muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari kengayaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для вузов. - Аспект Пресс, 2008. - 363 с.

2. Андреева, И.Н. Эмоциональный интеллект: непонимание, приводящее к «исчезновению»? // Психологический журнал. - Минск. 2006. - №1. - С. 28-32.

3. Берн, Э. Люди, которые играют в игры / Э. Берн М.: Изд-во Эксмо, 2002. - 576 с.

4. Вацлавик П., Бивин Д., Джексон Д. Психология межличностных коммуникаций. СПб.: Речь, 2000.

5. Вацлавик П., Бивин Д., Джексон Д. Прагматика человеческих коммуникаций: Изучение паттернов, патологий и парадоксов взаимодействия. М.: Апрель-Пресс, Эксмо-Пресс, 2000.

6. Грушевицкая Т.Г., Попков В.Д., Садохин А.П. Основы межкультурной коммуникации: Учебник для вузов. Под ред. А.П. Садохина. М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2002. - 352с.

7. Казьмина О.Ю. «Структурно-динамические особенности систем межличностных взаимодействий у больных юношеской малопрогредиентной шизофренией» : Дис. канд. психол. наук : 19.00.04 Москва, 1997 180 с. РГБ ОД, 61:98-19/16-5

Dinobod Xudoyqulova Baxtiyor qizi
Guliston davlat universiteti doktoranti
https://orcid.org/ 0009-0007-6217-5382

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LINGVISTIK QOBILIYAT VA KOGNITIV JARAYONLAR SHAKLLANISH QONUNIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatlar va kognitiv jarayonlarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida til qobiliyati insonning bilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi, so‘z boyligining kengayishi hamda til birliklarini ongli ravishda qo‘llash qobiliyati kognitiv jarayonlar - xotira, diqqat, idrok va tafakkur bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.*

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar hamda kognitiv jarayonlarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish jarayonida mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni qayta ishlash, eslab qolish va nutqiy faoliyatni tashkil etish kabi kognitiv mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida psixologik-pedagogik tahlil, kuzatish, taqqoslash hamda diagnostik metodlardan foydalaniladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf davri lingvistik qobiliyatlarning faol shakllanish bosqichi bo‘lib, bu jarayonda kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasi muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni qo‘llash lingvistik qobiliyatlarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirish hamda o‘quvchilarning nutqiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, lingvistik qobiliyat, kognitiv jarayonlar, tafakkur, xotira, diqqat, idrok, tilni o‘zlashtirish, kognitiv rivojlanish.*

ЗАКОНОМЕРНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ И КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению закономерностей формирования лингвистических способностей и когнитивных процессов у учащихся начальных классов. В современной психологии и педагогике языковая способность рассматривается как процесс, тесно связанный с познавательной деятельностью человека. Особенно на этапе начального образования речевое развитие учащихся, расширение словарного запаса и способность осознанно использовать языковые единицы формируются в тесной взаимосвязи с когнитивными процессами - памятью, вниманием, восприятием и мышлением.*

В статье анализируются психологические факторы, влияющие на развитие лингвистических способностей у младших школьников, а также роль когнитивных процессов в данном процессе. Кроме того, научно обосновывается значимость таких когнитивных механизмов, как логическое мышление, переработка информации, запоминание и организация речевой деятельности в процессе усвоения языка учащимися. В ходе исследования использованы психолого-педагогический анализ, методы наблюдения, сравнения и диагностические методики.

Результаты показывают, что период начальной школы является важным этапом активного формирования лингвистических способностей, при котором уровень развития когнитивных процессов выступает в качестве значимого детерминанта. Поэтому применение в образовательном процессе методов и технологий, направленных на развитие когнитивной активности учащихся, способствует эффективному формированию их лингвистических способностей. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования методики начального образования и поддержки речевого и интеллектуального развития учащихся.

Ключевые слова: *начальное образование, лингвистические способности, когнитивные процессы, мышление, память, внимание, восприятие, усвоение языка, когнитивное развитие.*

REGULARITIES IN THE FORMATION OF LINGUISTIC ABILITIES AND COGNITIVE PROCESSES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article is devoted to the study of the patterns of formation of linguistic abilities and cognitive processes in primary school students. In modern psychology and pedagogy, language ability is interpreted as a process closely related to human cognitive activity. Especially at the stage of primary education, students' speech development, vocabulary expansion, and the ability to consciously use language units are formed in close connection with cognitive processes such as memory, attention, perception, and thinking.*

The article analyzes psychological factors influencing the development of linguistic abilities in primary school students and examines the role of cognitive processes in this development. In addition, the importance of cognitive mechanisms such as logical thinking, information processing, memorization, and the organization of speech activity in the process of language acquisition is scientifically substantiated. The research employs psychological and pedagogical analysis, observation, comparison, and diagnostic methods.

The results show that the period of primary schooling is a crucial stage for the active development of linguistic abilities, where the level of cognitive process development acts as a significant determinant. Therefore, the use of educational methods and technologies aimed at developing students' cognitive activity contributes to the effective formation of their linguistic abilities. The findings of the study are important for improving primary education methodology and supporting the speech and intellectual development of students.

Key words: *primary education, linguistic abilities, cognitive processes, thinking, memory, attention, perception, language acquisition, cognitive development.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik qobiliyatini rivojlantirish muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki aynan 6–10 yosh davrida bolaning nutqiy va kognitiv rivoji jadallashib, keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor yaratiladi. Bu davrning asosli tomoni shundan iborat o`quvchining bog`cha yosh davrida to`plagan shaxsiy tajribasi til boyligi bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, bola ham intellektual , ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlana boshlaydi. Ayni shu davrda kognitiv jarayonlar va lingvistik qobilyatning rivojlanish jarayoni ham boshlanadi. Psixologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, lingvistik qobiliyat alohida holda emas, balki diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq kabi kognitiv jarayonlar bilan o'zaro bog`liqlikda shakllanadi. Shu bois biz 1–4-sinf o'quvchilarida lingvistik qobiliyat va kognitiv jarayonlar rivojlanishining qonuniyatlarini aniqlash asosiy maqsad qilib oldik. Lingvistik qobiliyat insonning tilni o'zlashtirish, nutqni tushunish va yaratish jarayonlarini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi psixologik xususiyatlar majmuasini anglatadi. Bu qobiliyatlar fonetik, leksik, grammatik va semantik bilimlarni egallash, nutqiy faoliyatni tashkil etish hamda kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan to'g'ri foydalanish orqali namoyon bo'ladi.

Til qobiliyatlari muammosi differensial va umumiy psixologiya doirasida ko'p qirrali ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu masalaga tizimli yondashuvni ishlab chiqqan olimlardan biri - M. Kabardov hisoblanadi. Uning "Kommunikativ va kognitiv tarkibiy qismlari: individual-tipologik yondashuv" nomli doktorlik dissertatsiyasi til qobiliyatlari strukturasini kompleks psixologik tahlil qilishga bag'ishlangan. Kabardov konsepsiyasining markazida til qobiliyatlarining ikki asosiy komponenti ajratiladi:

Kommunikativ komponent Ushbu komponent nutq faoliyati, muloqotga kirishish, tezkor javob berish, pragmatik vaziyatni anglash kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ yo'nalishdagi shaxslar tilni avvalo aloqa vositasi sifatida egallaydilar.

Kognitiv komponent Mazkur komponent til tizimini anglash, grammatik strukturalarni tahlil qilish, semantik bog'lanishlarni aniqlash, xotira va tafakkur jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Bu yo'nalishdagi individlar tilni analitik asosda o'zlashtiradilar.

Olim til qobiliyatlarini faqat nutq tezligi yoki lug‘at boyligi bilan emas, balki bilish jarayonlari bilan integratsiyalashgan murakkab psixologik tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Kabardov individual-tipologik yondashuvni asoslab, til qobiliyatlari bir xil mexanizm asosida shakllanmasligini ko‘rsatadi. U uch tipni ajratadi:

Kommunikativ-nutqiy tip – muloqotga yo‘naltirilganlik ustun.

Kognitiv-lingvistik tip – analitik va tizimli tafakkur ustun.

Aralash tip – ikki komponent nisbatan muvozanatlashgan.

Mazkur tipologiya til o‘rganish jarayonidagi individual farqlarni tushuntirishga imkon beradi. Xususan, kommunikativ metodlar birinchi tip vakillarida samaraliroq natija bersa, grammatik-tahliliy metodlar ikkinchi tip uchun qulayroq hisoblanadi.

Kabardov tadqiqotlarida til qobiliyatlari quyidagi kognitiv jarayonlar bilan bevosita bog‘lanadi:

verbal va operativ xotira, analitik tafakkur, tezkor axborot qayta ishlash, semantik kodlash mexanizmlari. Bu jihat lingvistik qobiliyatlarning kognitiv komponentlari bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashadi. Chunki Kabardov modeli lingvistik qobiliyatni kognitiv jarayonlardan ajratib bo‘lmasligini eksperimental ravishda asoslaydi. Kabardov konsepsiyasi bir necha ilmiy yo‘nalishlarni integratsiya qiladi: differensial psixologiya, psixofiziologiya, kognitiv psixologiya, chet tilini o‘qitish metodikasi. Ushbu model til qobiliyatlarini strukturaviy-funksional tizim sifatida talqin qiladi va shaxsning individual xususiyatlarini markaziy omil sifatida belgilaydi. M.K. Kabardov tomonidan ishlab chiqilgan individual-tipologik model til qobiliyatlarini ikki asosiy komponent - kommunikativ va kognitiv - asosida tushuntiradi. Ushbu yondashuv lingvistik qobiliyatlarning kognitiv mexanizmlarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

L.A.Goloveyning “Практикум по возрастной психологии” kitobida keltirilishicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (1–4-sinf) kognitiv rivojlanishning quyidagi xususiyatlariga ega: Xotira – Obrazli va mexanik xotira yetakchi bo‘ladi; so‘z va nutq birliklarini eslab qolish faoliyati rivojlanadi. Diqqat – Diqqatning hajmi va barqarorligi asta-sekin oshadi, murakkab topshiriqlarni bajarishga qodir bo‘ladi. Idrok – Nutqiy va matnli materialni tushunish qobiliyati rivojlanadi; til birliklarini farqlash va bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Tafakkur – Bolalar sodda mantiqiy tahlil qila boshlaydi, oddiy muammolarni hal qilish, asosiy grammatik va leksik qoidalarni tushunish qobiliyati rivojlanadi. Til va nutq qobiliyatlari kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning so‘z boyligi va nutqiy faoliyati xotira, diqqat va idrokning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Kitobda kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun pedagogik mashg‘ulotlarda muloqot, o‘yin va interaktiv texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

psixologik-pedagogik tahlil

kuzatish metodi

taqqoslash metodi

ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish

Mazkur metodlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatlarning rivojlanishi va kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar fikrlashning yangi darajasiga o‘tadi. Ular tasvir va konkret vaziyatlarga asoslangan muammolarni yechishga qodir bo‘lishadi, oddiy matematik qayta ishlashni tushunadi, shuningdek, sabab-natija munosabatlarni bilishni boshlaydi. Bu jarayon bolada dunyoni tushunish qobiliyatining chuqurlashishi hisoblanadi. Bu yoshda xotira samaradorligi sezilarli darajada oshadi: yangi so‘zlar, ma’lumotlar va qoidalarni yaxshiroq eslab qolish qobiliyati paydo bo‘ladi, ma’lumotni saqlash va uni eslab qolish darajasi yaxshilanadi. Shuningdek, bolalar sodda qisqa muddatli xotiradan murakkab idrok jarayonlariga o‘tadi ,ya’ni ma’lumotni tushunib, qayta ishlaydi.

Diqqatni ushlab turish qobiliyati asta-sekin oshadi. Dastlab diqqat momentli bo‘lsa, o‘sib borgach, o‘quv jarayonida mustaqil diqqatni yo‘naltira boshlaydi. Bu o‘qish va yangi bilishni mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Bu yosh bolalar til qobiliyatini chuqurlashtiradi: so‘z boyligi kengayadi, gap tuzish murakkablashadi va nutq orqali fikrni strukturaviy ifodalash boshlanadi. Til orqali ular o‘ylash jarayonlarini ham yaxshiroq ifodalay oladi. 1–4-sinf o‘quvchilari oddiy muammolarni tan olib, ularni yechishda tartib va ketma-ketlik fikrini qo‘llaydi. Bu jarayonlar, o‘quv faoliyati bilan

birga, yanada murakkab mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Sinflar kesimida barcha kognitiv jarayonlar va lingvistik qobiliyat ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich ortib boradi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1–2-sinflarda lingvistik qobiliyat asosan idrok va xotira bilan bog‘liq holda shakllanadi.

3–4-sinflarda esa tafakkur va mantiqiy fikrlashning rivojlanishi til birliklarini ongli qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Diqqat barqarorligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda so‘z boyligi va og‘zaki nutqning rivojlanish darajasi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Kognitiv jarayonlar kompleks rivojlangan hollarda lingvistik qobiliyat ham tez va barqaror shakllanadi.

1-diagramma: Lingvistik qobiliyatlarning shakllanish modeli

KOGNITIV JARAYONLAR
| Idrok |Diqqat |Xotira| |Tafakkur|
↓
TILNI O‘ZLASHTIRISH JARAYONI
↓
LINGVISTIK QOBILIYATLAR (so‘z boyligi, grammatik nutq, kommunikativ kompetensiya)
↓
O‘QUVCHINING NUTQIY FAOLLIGI

Boshlang‘ich sinf davrida lingvistik qobiliyatlarning shakllanishi bir qator kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Avvalo, idrok jarayoni orqali o‘quvchilar til birliklarini qabul qiladi va ularning ma’nosini anglaydi. Idrok nutq tovushlari, so‘zlar va gaplarning mazmunini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Diqqat jarayoni esa o‘quvchilarning nutqiy faoliyatga e’tibor qaratishi, til birliklarini farqlashi hamda o‘rganilayotgan materialni samarali o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Diqqatning barqarorligi va hajmi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, til materiallarini o‘zlashtirish jarayoni ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Xotira lingvistik qobiliyatlarning shakllanishida eng muhim kognitiv omillardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni va nutqiy konstruksiyalarni aynan xotira yordamida eslab qoladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli va mexanik xotira yetakchi bo‘lsa-da, asta-sekin mantiqiy xotira ham rivojlana boshlaydi.

Tafakkur jarayoni tilni ongli ravishda o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tafakkur orqali o‘quvchilar til hodisalarini tahlil qiladi, umumlashtiradi va ularning o‘zaro bog‘liqligini anglaydi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini yanada takomillashtiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida lingvistik qobiliyatlarning shakllanishi o‘qitish metodlari, didaktik vositalar hamda ta’lim muhitiga ham bog‘liqdir. Interaktiv metodlar, muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar, o‘yin texnologiyalari va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularning kognitiv rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Jadval-2.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv jarayonlar va lingvistik qobiliyatlar

Kognitiv jarayon	Faoliyat misollari	Lingvistik qobiliyatga ta’siri
Idrok	Nutq tovushlarini tushunish	So‘z va gap ma’nosini anglash
Diqqat	Matnga e’tibor berish	Til birliklarini to‘g‘ri farqlash

Xotira	Yangi so‘z va qoidalarni eslab qolish	Grammatik va leksik qobiliyatlarni rivojlantirish
Tafakkur	Til qoidalarini tahlil qilish	Nutqni ongli ravishda tuzish

Izoh: Jadval va diagrammalar ushbu olimlarning psixologik va kognitiv tadqiqotlari asosida umumlashtirildi, ya’ni Vigotsky, Piajje, Luriya, Solso, Pinker tahlillari bilan ilmiy asoslangan.

Lev Vigotskiy nazariyalarida nutq va til o‘rganish jarayoni bolalarning idroki bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Vigotskiy nutqni bilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblagan. Jean Piajje qarashlarida diqqat va idrok darajasi bolaning til qobiliyatlarini shakllantirishga ta’sir qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatning barqarorligi nutqiy faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aleksandr Luriya xotiraning nutq va til faoliyatidagi asosiy determinant ekanligini ko‘rsatgan. Yangi so‘zlar va grammatik qoidalar xotira orqali o‘zlashtiriladi. Robert Solso mantiqiy tafakkur tilni ongli ravishda o‘zlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Tafakkur nutqiy va grammatika qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir.

Steven Pinker esa obrazli tasavvur nutq mazmunini anglash va ijodiy nutqni shakllantirishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Muhokama. Maktab yoshidagi bolalarda kognitiv jarayonlar - xotira, diqqat, tafakkur, til va lingvistik qobiliyatlar, tasavvur va vizual idrok - muhim darajada rivojlanadi. Ushbu davrda psixologik diagnostika bolalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va ular uchun individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Xotira jarayonida bolalar vizual va og‘zaki xotirani bir-biriga moslashtira boshlaydi. Bolalar vizual va og‘zaki xotirani mustahkamlashadi. Informatsiyani qisqa muddatda qayta ishlash va eslab qolish qobiliyati ortadi. Vizual xotira testi – bolaga bir qator rasmlar yoki belgilar ko‘rsatiladi, keyin ular eslab qolishi va qayta tasvirlashi so‘raladi. Bolaga 5–10 ta rasm ketma-ket ko‘rsatiladi.

Belgilangan vaqt tugagach, ularni eslab qolib, qayta tasvirlash so‘raladi Verbal xotira testlari – so‘zlar, qisqa hikoyalar yoki raqamlar ketma-ketligini eslab qolish. Rasm va so‘zlarni kombinatsiyalash orqali eslab qolish mashqlari va oddiy raqam va so‘z ketma-ketliklarini oshirib borish. Diqqat jarayoni bolalar diqqatni ma’lum vazifaga yo‘naltirish va chalg‘ituvchi omillardan xabardor bo‘lishni o‘rganadi. Diqqatni davomiyligi va intensivligi ortadi. Diqqatni konsentratsiyalash testlari, masalan, ko‘p rangli belgilar orasida faqat kerakli ranglarni ajratib ko‘rsatish. Chalg‘ituvchi vazifalar shovqin, qo‘shni predmetlar orqali diqqatni sinash. Diqqatni o‘yinlar orqali rivojlantirish (puzzle, xotira o‘yinlari). Qisqa mashqlardan boshlab, diqqatni asta-sekin uzoq muddatga cho‘zish. Tafakkur jarayoni bolalarda analogiyalar, muammolar va klassifikatsiyalar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar sabab-natija munosabatlarini tushunishni o‘rganadi. Verbal analogiyalar testi Masalan: “Qalam – daftar: bo‘yoq -?”Klassifikatsiya metodi shakllarni, ranglarni yoki predmetlarni turkumlash. Mantiqiy muammolar qisqa hikoyalar va topshiriqlar orqali yechim topish. Buning natijasida Analogiyalar va mantiqiy muammolarni murakkablashtirib borish. Bola o‘z yechimini izohlashga o‘rgatiladi. Guruh ishlari orqali muammolarni hal qilishni rag‘batlantirish. Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun mashqlarni doimiy va bosqichma-bosqich olib borish. O‘quvchining qiziqishi va imkoniyatiga mos mashqlar tanlash. Natijalarni faqat ball bilan emas, balki o‘quvchining individual rivojlanishini hisobga olgan holda baholash. Olingan empirik natijalar zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar bilan mantiqiy uyg‘unlikda ekanini ko‘rsatadi. Noam Xomskiy tomonidan ilgari surilgan universal grammatika nazariyasiga ko‘ra, inson miyasida tilni o‘zlashtirish uchun tug‘ma biologik mexanizm mavjud. Asosiy mexanizmlar:

Til o‘rganish tez va tabiiy jarayon – inson tilni maxsus o‘qitishsiz, tabiiy muhitda qisqa vaqt ichida egallaydi. Ayniqsa, bolalik davrida til o‘zlashtirish biologik va kognitiv tayyorgarlik bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Bola atrof-muhitdagi nutq namunalarini eshitish orqali til tizimini intuitiv ravishda o‘zlashtiradi, bu jarayon ong ostida kechadi va ongli sa’y-harakatni talab etmaydi.

Bolalar grammatik qoidalarni mustaqil kashf etadi – bola tilni tayyor qoidalar majmui sifatida emas, balki nutqiy tajriba asosida faol ravishda shakllantiradi. U eshitgan nutq namunalari orqali umumiyliklarni aniqlaydi, gipotezalar hosil qiladi va ularni nutqda sinab ko‘radi. Xatolar (masalan,

ortiqcha qo‘shimcha qo‘llash) bolaning grammatik tizimni faol ravishda kashf etayotganini ko‘rsatadi va bu jarayon til qoidalarining ichki model sifatida shakllanishiga olib keladi.

Sintaktik struktura chuqur va yuzaki qatlamlardan iborat – til tuzilmasi faqat tashqi ifoda bilan cheklanmaydi, balki ichki, abstrakt darajaga ham ega. Chuqur struktura gapning semantik-mantiqiy asosini aks ettirsa, yuzaki struktura esa uning real nutqdagi ifodasini ifodalaydi. Ushbu ikki qatlam o‘rtasidagi munosabat transformatsion jarayonlar orqali yuzaga chiqadi va bu tilning ijodkorlik xususiyatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, nutq va tafakkur o‘zaro ta’sirda shakllanadi. Tadqiqot natijalari ham lingvistik qobiliyatning rivoji kognitiv jarayonlar yetukligiga bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Jenevalik J. Piajje konsepsiyasida qayd etilganidek, bolaning kognitiv rivoji bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. 6-7 yoshli bolaning aqliy salohiyatida Keskin buril;ishlar ro`y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo`lib ma’lum tizimga tushadi, endi ko`proq o`zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo`ladi. 3–4-sinflarda mantiqiy tafakkurning faollashuvi til birliklarini ongli va maqsadga muvofiq qo‘llash imkonini kengaytiradi. Bu holat empirik jadval va korrelyatsiya natijalarida ham yaqqol aks etdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik qobiliyatni rivojlantirish jarayonida faqat til materiallari bilan cheklanib qolmasdan, diqqatni jamlash, xotirani faollashtirish va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Shveytsariyalik psixolog va bolalar tafakkuri bo‘yicha mutaxassis. U bolalar kognitiv rivojlanishi nazariyasi bilan mashhur. Piajjening kognitiv rivojlanish bosqichlari:

Sensor-motor bosqich (0–2 yosh): bola dunyoni sezgi va harakat orqali tushunadi.

Old-mantik bosqich / preoperatsion (2–7 yosh): bola tasvir va so‘zlar yordamida fikrlay boshlaydi, lekin mantiqiy tahlil cheklangan.

Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh): bolaning mantiqiy fikrlashi rivojlanadi, sodda matematik va real vaziyatlarni tahlil qila oladi.

Formal operatsiyalar bosqichi (11+ yosh): abstrakt fikrlash, muammolarni taxmin qilish va ilmiy tafakkur rivojlanadi.

Piajjega ko‘ra, til qobiliyati bolaning kognitiv rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liq. Nutq va fikrlash jarayonlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning mantiqiy va tasviriy tafakkurini rivojlantirish til qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Darslarda ko‘rgazmali materiallar, o‘yin va interaktiv mashg‘ulotlar tavsiya qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan statistik tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, lingvistik qobiliyatning shakllanishi individual kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Xususan, 1-sinf o‘quvchilarida til birliklarini idrok etish ko‘proq ko‘rgazmalilik va takrorlash orqali yuzaga chiqadi. Bu bosqichda diqqatning barqaror emasligi sababli qisqa, mazmunan sodda topshiriqlar samaraliroq hisoblanadi. 2-sinfga kelib o‘quvchilarning xotira hajmi va diqqatning taqsimlanish imkoniyatlari kengayadi. Natijada lug‘at boyligi ortib, gap tuzishdagi grammatik xatolar kamayadi. 3–4-sinflarda esa tafakkurning mantiqiy shakllari rivojlanib, o‘quvchilar matn mazmunini tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va mustaqil fikr bildirish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydi. Lingvistik qobiliyatning rivojlanishida ijtimoiy muhit, xususan, oiladagi nutqiy muloqot sifati va maktabdagi ta’lim uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, muloqotga boy, savol-javob va muhokamaga asoslangan darslar o‘quvchilarning nafaqat nutqiy, balki umumiy kognitiv faolligini ham oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatlarning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Idrok, diqqat, xotira va tafakkur kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish hamda ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

1–4-sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatning shakllanishi kognitiv jarayonlar rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvni qo‘llash, ya’ni tilni o‘qitishda diqqat, xotira va tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlardan kompleks foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ushbu natijalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ta’lim metodistlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Olingan natijalarga asoslanib, boshlang‘ich ta’lim jarayonida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Lingvistik mashqlarni diqqat va xotirani rivojlantiruvchi topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish.

Har bir sinf bosqichida yoshga mos kognitiv yuklama berish.

Matn bilan ishlashda qayta hikoyalash, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish.

O‘qituvchilarning nutqiy madaniyatini oshirish va namunali nutq muhitini yaratish.

Ushbu tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik qobiliyatni barqaror va tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Головей Л. А. Практикум по возрастной психологии. - СПб.: Питер, 2005. - 240 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 2000. - 352 с.
3. Пиаже Ж. Психология интеллекта ребенка. - Ташкент: Ўқитувчи, 2004. - 256 с.
4. Леонтьев А. А. Теория речевой деятельности. - М.: Смысл, 1999. - 287 с.
5. Кабардаев М. К. Коммуникативные и когнитивные составляющие языковых способностей: индивидуально-типологический подход: дис. … д-ра психол. наук. - М., 2001. - 350 с.
6. Кабардаев М. К. Индивидуально-типологические особенности в структуре языковых способностей // Психологический журнал. - 1999. - Т. 20, № 4. - С. 45–56.
7. Солсо Р. Когнитивная психология. - СПб.: Питер, 2006. - 589 с.
8. Гаврилова Е. Лингвистические способности и их когнитивные детерминанты: современные перспективы исследований // Современная зарубежная психология. - 2015. - Т. 4, № 4. - С. 30–38.
9. Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Namangan, 2025. - 392 b.

Туракулова Азиза
Доцента кафедры психологии факультета социальных наук
Национального университета Узбекистана

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПТИМИЗАЦИИ ЭТНИЧЕСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В СТУДЕНЧЕСКОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *Статья посвящена теоретическому анализу проблемы оптимизации этнической идентичности в студенческом возрасте. Рассматриваются основные подходы к пониманию этнической идентичности, её структурные компоненты, этапы формирования и психологические механизмы оптимизации. Особое внимание уделяется студенческому возрасту как сензитивному периоду для становления этнической идентичности и разработке психолого-педагогических условий её гармоничного развития.*

Ключевые слова: *этническая идентичность, студенческий возраст, оптимизация, этническое самосознание, социальная идентичность, энкультурация, позитивная идентичность.*

TALABALIK YOSHIDA ETNIK IDENTIFIKATSIYANI OPTIMALLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqola talabalik davrida etnik o‘ziga xoslikni optimallashtirish muammosining nazariy tahliliga bag‘ishlangan. Etnik o‘ziga xoslikni tushunishga oid asosiy yondashuvlar, uning tarkibiy qismlari, shakllanish bosqichlari va optimallashtirishning psixologik mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Talabalik yoshiga etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning sezgir davri sifatida alohida e’tibor qaratilib, uni uyg‘un rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *etnik o‘ziga xoslik, talabalik davri, optimallashtirish, etnik o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy o‘ziga xoslik, madaniyatga singdirish, ijobiy o‘ziga xoslik.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF OPTIMIZING ETHNIC IDENTITY IN STUDENT AGE

Abstract. *The article presents a theoretical analysis of the problem of optimizing ethnic identity in student age. The main approaches to understanding ethnic identity, its structural components, stages of formation and psychological mechanisms of optimization are examined. Particular attention is paid to the student age as a sensitive period for ethnic identity formation and the development of psychological and pedagogical conditions for its harmonious development.*

Key words: *ethnic identity, student age, optimization, ethnic self-consciousness, social identity, enculturation, positive identity.*

1. Введение. В условиях глобализации и усиления межкультурного взаимодействия вопрос формирования позитивной этнической идентичности приобретает особую актуальность. Студенческий возраст - период интенсивного личностного самоопределения, когда происходит активное осмысление своей принадлежности к этнической группе, критическое переосмысление усвоенных в детстве этнокультурных образцов и выработка осознанной позиции в отношении собственной этничности.

Проблема этнической идентичности активно разрабатывается в мировой психологической науке с 1990-х годов, что связано с процессами этнического возрождения на постсоветском пространстве, ростом национализма и этнополитических конфликтов. В российской психологии значительный вклад в разработку данной проблематики внесли Т. Г. Стефаненко, создавшая концепцию социальной психологии этнической идентичности [Стефаненко, 2014], Н. М. Лебедева, исследовавшая связь этнической идентичности с толерантностью и межэтническими отношениями [Лебедева, 1999], Е. П. Белинская, изучавшая этническую социализацию подростков [Белинская, Стефаненко, 2000], и другие исследователи.

Вместе с тем в научной литературе недостаточно разработан вопрос о специфических психологических механизмах и технологиях целенаправленной оптимизации этнической идентичности именно в студенческом возрасте - периоде, когда молодой человек обладает и интеллектуальными ресурсами для рефлексии собственной этничности, и определённой открытостью к новому опыту, и мотивацией к самоопределению.

2. Цель и исследовательские задачи. Цель настоящей работы состоит в теоретическом обосновании психологических условий и механизмов оптимизации этнической идентичности в студенческом возрасте.

Для достижения поставленной цели сформулированы следующие задачи: (1) проанализировать основные теоретические подходы к пониманию этнической идентичности; (2) описать структурные компоненты и этапы формирования этнической идентичности в онтогенезе; (3) раскрыть психологические особенности студенческого возраста, определяющие возможности оптимизации этнической идентичности; (4) обосновать психолого-педагогические условия и технологии гармонизации этнической идентичности студентов.

3. Методология исследования. Методологической основой исследования выступает социально-конструктивистский подход к этнической идентичности, разработанный в трудах Т. Г. Стефаненко [Стефаненко, 2014], теория социальной идентичности Г. Тэджфела и Дж. Тёрнера [Тэджфел, Тёрнер, 2001], концепция психосоциальной идентичности Э. Эриксона [Эриксон, 1996], а также модель стадиального развития этнической идентичности Дж. Финни [Phinney, 1989]. Исследование носит теоретико-аналитический характер и основано на анализе современных отечественных и зарубежных работ по этнопсихологии, психологии развития и возрастной психологии.

4. Результаты. В современной науке сосуществуют три основных подхода к пониманию природы этнической идентичности: примордиализм, инструментализм и конструктивизм [Стефаненко, 2014; Солдатова, 1998].

Представители примордиализма рассматривают этничность как врождённую характеристику, лежащую в основе группового этнического сознания и поведения. Согласно данному подходу, этническая идентичность имеет биологические корни и передаётся из поколения в поколение; личность может вытеснять или не осознавать важность своей этнической идентичности, но никогда не сможет от неё отказаться - она всегда присутствует в самосознании как более или менее смутное ощущение тяги к элементам своей культуры.

Сторонники инструментализма, напротив, полагают, что этничность ситуативна, изменчива и зависит от структуры общества. Этническая идентичность рассматривается как инструмент, позволяющий личности адаптироваться в социуме и достигать определённых целей. В рамках данного подхода этничность - социально конструируемая характеристика, формирующаяся в процессе социализации.

Конструктивистская парадигма, доминирующая в современной психологии, представляет этническую идентичность как результат когнитивно-эмоционального процесса самоопределения индивида в конкретном социальном контексте относительно многих этносов. Этническая идентичность формируется под влиянием социального опыта и представляет собой скорее процесс - идентификацию, чем устойчивое явление [Стефаненко, 2014]. Именно конструктивистский подход открывает возможности для осмысленной психолого-педагогической работы по оптимизации этнической идентичности, поскольку признаёт её гибкость и подверженность внешним влияниям.

В структуре этнической идентичности принято выделять три основных компонента: когнитивный, аффективный и поведенческий [Стефаненко, 2014; Солдатова, 1998].

Когнитивный компонент включает знания и представления об особенностях собственной этнической группы, осознание себя её членом на основе этнодифференцирующих признаков (язык, религия, историческая память, представления о родной земле, миф об общих предках). В различных исследовательских моделях для обозначения составных частей когнитивного компонента используются термины: этнические ориентации, групповые концепции, самоидентификация, этническая осведомлённость.

Аффективный компонент представляет собой чувство принадлежности к этнической группе, оценку её качеств, отношение к членству в ней. Этот компонент проявляется в этнических аттитюдах - установках и чувствах по отношению к собственной и другим этническим группам. Важнейшим измерением аффективного компонента является его валентность - позитивная, негативная или амбивалентная окраска этнической идентичности.

Поведенческий компонент фиксирует реальный механизм не только осознания, но и проявления себя членом определённой группы, «построения системы отношений и действий в различных этноконтактных ситуациях» [Солдатова, 1998]. Он включает владение языком, соблюдение традиций, обычаев, норм и правил поведения своей этнической группы.

Формирование этнической идентичности представляет собой длительный и поэтапный процесс. Наиболее разработанными являются модели, базирующиеся на когнитивно-генетической теории Ж. Пиаже и теории психосоциальной идентичности Э. Эриксона.

Согласно исследованиям Дж. Пиаже и его последователей, осознание этнических различий происходит поэтапно в соответствии с общими закономерностями когнитивного развития ребёнка. На первом этапе (6–7 лет) дети приобретают первые фрагментарные и несистематичные знания о своей этнической принадлежности. На втором этапе (8–9 лет) этническая идентичность формируется в полном объёме: дети отчётливо идентифицируют себя со своей этнической группой, характеризуют её на основе этнических признаков, правильно соотносят себя с ней. На третьем этапе (младший подростковый возраст 10–11 лет) этническая идентичность приобретает устойчивость - этническая константность, то есть осознание необратимости своей этнической принадлежности и неизменности этнических характеристик во времени и пространстве.

Юношеский и студенческий возраст знаменует качественно новый этап в развитии этнической идентичности. Согласно модели Дж. Финни, основанной на теории Э. Эриксона, в этот период происходит переход от некритически усвоенной этнической идентичности (часто навязанной семьёй и ближайшим окружением) к этнической идентичности, достигнутой в результате целенаправленного исследования значения и содержания этничности для собственной жизни [Phinney, 1989]. Именно в студенческом возрасте молодой человек способен к рефлексии собственной этничности, критическому осмыслению этнических стереотипов и осознанному выбору стратегии этнической самоидентификации.

Студенческий возраст характеризуется рядом психологических особенностей, создающих благоприятные условия для целенаправленной работы по оптимизации этнической идентичности. Во-первых, это период активного формирования мировоззрения и системы ценностей. Студент впервые осознанно формулирует ответы на «вечные» вопросы: кто я? каковы смысл и цель моей жизни? к какой группе я принадлежу и что это значит для меня? Вопрос об этнической принадлежности органично вписывается в этот круг экзистенциальных поисков.

Во-вторых, студенческий возраст отличается достаточно высоким уровнем развития познавательных процессов и рефлексивных способностей. Студент способен критически анализировать информацию об этнических группах, вычленять стереотипы, понимать социальные механизмы их формирования.

В-третьих, это период максимальной интенсивности общения и расширения социальных связей. Студент часто впервые оказывается в ситуации интенсивного межэтнического взаимодействия: в студенческой группе представлены различные этносы, вузы активно участвуют в программах академической мобильности. Эти межкультурные контакты создают условия для пересмотра и обогащения этнических представлений.

В-четвёртых, студенческий возраст характеризуется определённой открытостью новому опыту и готовностью к изменениям при сохранении потребности в стабильной идентичности. Это сочетание создаёт оптимальные условия для гармонизации этнической идентичности без её разрушения.

Под оптимизацией этнической идентичности мы понимаем целенаправленный психолого-педагогический процесс, направленный на формирование позитивной, определённой и

гибкой этнической идентичности, обеспечивающей психологическое благополучие личности и эффективное межэтническое взаимодействие.

Позитивная этническая идентичность характеризуется принятием собственной этнической принадлежности, позитивным отношением к своей этнической группе при сохранении уважения к другим этносам. Негативная этническая идентичность - отвержение, стыд или амбивалентность в отношении собственной этничности - связана с низкой самооценкой, тревожностью и трудностями в межличностных отношениях.

Определённость этнической идентичности означает ясность и непротиворечивость представлений о себе как члене этнической группы. Неопределённая идентичность характеризуется размытостью, противоречивостью этнических представлений и чувств, что порождает внутриличностный конфликт.

Гибкость этнической идентичности предполагает способность сочетать приверженность собственной этнической группе с открытостью к другим культурам, готовность к диалогу и взаимному обогащению. Ригидная идентичность, напротив, связана с этноцентризмом, нетерпимостью к иным культурным образцам и может становиться почвой для межэтнических конфликтов.

На основе анализа научной литературы можно выделить следующие условия оптимизации этнической идентичности в студенческом возрасте:

1. Включение в образовательный процесс дисциплин этнопсихологического и этнокультурного цикла, обеспечивающих формирование научно обоснованных знаний о психологии межэтнических отношений, механизмах этнической идентификации, культурном многообразии человечества.

2. Создание условий для личностной рефлексии собственной этничности. Использование биографических методов, автобиографических нарративов, дневниковых техник позволяет студенту осмыслить роль этнического фактора в собственной жизни, проследить этапы формирования этнической идентичности, выявить противоречия и «белые пятна» в системе этнических представлений.

3. Организация межкультурного диалога и межэтнического взаимодействия в безопасной и поддерживающей среде. Использование таких форм работы, как социально-психологические тренинги межкультурной компетентности, культурные ассимиляторы, дискуссионные площадки, совместные межэтнические проекты, обеспечивает позитивный опыт межэтнических контактов и преодоление стереотипов.

4. Актуализация позитивной этнической идентичности через приобщение к культурному наследию собственного народа. Участие в этнокультурных мероприятиях, изучение истории, литературы, искусства своего народа формирует чувство гордости за этническую принадлежность.

5. Развитие этнической толерантности и формирование установки на культурный релятивизм - понимание того, что каждая культура обладает собственной ценностью и внутренней логикой, а культурное разнообразие является благом для человечества.

6. Психологическое сопровождение студентов, переживающих кризис этнической идентичности. Индивидуальная и групповая психотерапевтическая работа может быть направлена на разрешение внутриличностных конфликтов, связанных с этничностью, гармонизацию Я-концепции, формирование адекватных копинг-стратегий.

5. Дискуссия

Теоретический анализ проблемы оптимизации этнической идентичности в студенческом возрасте выявляет ряд дискуссионных вопросов, требующих дальнейшей разработки.

Во-первых, остаётся открытым вопрос о критериях и методах диагностики оптимальной этнической идентичности. Хотя исследователи сходятся в том, что оптимальной является позитивная, определённая и гибкая идентичность, конкретные эмпирические индикаторы этих характеристик нуждаются в уточнении.

Во-вторых, дискуссионным является вопрос о соотношении целенаправленной психолого-педагогической работы и естественного процесса этнической социализации. Некоторые

исследователи предостерегают от чрезмерного вмешательства в процесс формирования идентичности, подчёркивая опасность манипулирования сознанием.

В-третьих, требует осмысления проблема культурной специфики оптимизации этнической идентичности. Большинство существующих моделей и технологий разработаны в западном культурном контексте (преимущественно в США) и могут требовать адаптации для применения в иных социокультурных условиях, в частности - в странах постсоветского пространства.

В-четвёртых, актуальным направлением исследований является изучение связи этнической идентичности с другими видами социальной идентичности (гражданской, профессиональной, гендерной). В современном мире человек обладает множественной идентичностью, и её различные компоненты могут вступать в противоречие друг с другом, порождая внутренние конфликты.

6. Выводы

Проведённый теоретический анализ позволяет сформулировать следующие выводы:

1. Этническая идентичность представляет собой результат когнитивно-эмоционального процесса самоопределения индивида относительно этнических групп и включает когнитивный, аффективный и поведенческий компоненты. В современной психологии доминирует конструктивистский подход, рассматривающий этническую идентичность как социальный конструкт, формирующийся в процессе социализации и подверженный трансформациям.

2. Студенческий возраст является сензитивным периодом для оптимизации этнической идентичности в силу таких психологических особенностей, как активное формирование мировоззрения, высокий уровень рефлексивных способностей, интенсивность межэтнических контактов, открытость новому опыту при сохранении потребности в стабильной идентичности.

3. Оптимизация этнической идентичности предполагает формирование позитивной, определённой и гибкой идентичности, обеспечивающей психологическое благополучие личности и эффективное межэтническое взаимодействие.

4. Психолого-педагогическими условиями оптимизации этнической идентичности студентов выступают: включение в образовательный процесс дисциплин этнопсихологического цикла; создание условий для рефлексии собственной этничности; организация межкультурного диалога в безопасной среде; актуализация позитивной этнической идентичности через приобщение к культурному наследию; развитие этнической толерантности; психологическое сопровождение студентов, переживающих кризис идентичности.

5. Дальнейшие исследования должны быть направлены на эмпирическую проверку эффективности выделенных условий, разработку конкретных психолого-педагогических технологий оптимизации этнической идентичности с учётом культурной специфики, изучение взаимосвязи этнической идентичности с другими видами социальной идентичности.

Библиографический список.

1. Белинская Е.П., Стефаненко Т.Г. Этническая социализация подростка. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: МОДЭК, 2000. - 208 с.

2. Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию. - М.: Ключ-С, 1999. - 224 с.

3. Солдатова Г.У. Психология межэтнической напряженности. - М.: Смысл, 1998. - 389 с.

4. Стефаненко Т.Г. Этническая идентичность: от этнологии к социальной психологии // Вестник Московского университета. Серия 14: Психология. - 2009. - № 2. - С. 3–17.

5. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: Учебник. 5-е изд. - М.: Аспект Пресс, 2014. - 352 с.

6. Тэджфел Г., Тёрнер Дж. Социальная идентичность и межгрупповые отношения // Социальная психология в современном мире. - М., 2001. - С. 229–249.

7. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. - М.: Прогресс, 1996. - 344 с.

8. Phinney J.S. Stages of ethnic identity development in minority group adolescents // Journal of Early Adolescence. - 1989. - Vol. 9. - P. 34–49.

Abdullayev Bobur Asqarjonovich
O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

DAVLAT XIZMATLARI TIZIMIDA RAHBAR KADRLARNI PSIXOLOGIK SARALASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqola davlat xizmatlari tizimida rahbar kadrlarni psixologik saralashning ilmiy-metodik jihatlari mavzusiga bag’ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida kadrlarni psixologik saralshaning ilmiy-tarixiy asoslanishi, psixologik saralash masalasiga doir ilk xorijiy tadqiqotlar, kasbiy saralashga doir ilk psixodiagnostik testlar, kasbiy saralash tushunchasini asoslashga doir ilmiy yondoshuvlar, rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyatiga xos muhim funksiyalar, professional boshqaruv, rahbar kadrlarni saralashning psixodiagnostik usullari kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Rahbar, kadr, psixologiya, boshqaruv, davlat xizmati, personal, saralash, psixodiagnostika, tanlov, boshqaruv uslubi, samarali boshqaruv, shaxslilik sifatlar, ijtimoiy munosabatlar, innovatsiya.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОТБОРА УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ

Аннотация. *Статья посвящена научно-методологическим аспектам психологического отбора управленческого персонала в системе государственной службы. В статье также рассматриваются научно-исторические основы психологического отбора персонала, первые зарубежные исследования по вопросу психологического отбора, первые психодиагностические тесты профессионального отбора, научные подходы к обоснованию концепции профессионального отбора, важные функции управленческого персонала в управленческой деятельности, профессиональное управление, психодиагностические методы отбора управленческого персонала.*

Ключевые слова: *менеджер, персонал, психология, управление, государственная служба, персонал, отбор, психодиагностика, отбор, стиль управления, эффективное управление, личностные качества, социальные отношения, инновации.*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL SELECTION OF MANAGEMENT STAFF IN THE CIVIL SERVICE SYSTEM

Annotation. *This article examines the scientific and methodological aspects of psychological selection of management personnel in the civil service system. It also examines the scientific and historical foundations of psychological selection of personnel, the first foreign studies on psychological selection, the first psychodiagnostic tests for professional selection, scientific approaches to substantiating the concept of professional selection, the important functions of management personnel in management activities, professional management, and psychodiagnostic methods for selecting management personnel.*

Key words: *manager, personnel, psychology, management, civil service, personnel, selection, psychodiagnostics, selection, management style, effective management, personal qualities, social relations, innovation.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jadallashib borayotgan sharoitda, davlat xizmatlari tizimining samaradorligi, ko‘p jihatdan unda faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarning kasbiy va shaxsiy sifatlariga bog‘liqdir. Zamonaviy boshqaruv jarayonlari nafaqat yuqori malaka va bilimni, balki rivojlangan psixologik kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlari tizimida rahbar kadrlarni saralash va joylashtirish jarayonida psixologik saralash mexanizmlarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy rahbar - bu nafaqat

boshqaruv vazifalarini bajaruvchi shaxs, balki jamoani ilhomlantira oladigan, strategik fikrlaydigan va o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan ko‘p qirrali shaxsdir. Zamonaviy rahbarning mazmun-mohiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, u yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni sohani chuqur bilish, qaror qabul qilishda tahlil va prognoz qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, zamonaviy rahbar psixologik jihatdan yetuk bo‘lishi lozim. Bu uning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi, o‘zini boshqara olishi va boshqalarni tushuna olishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan u liderlik qobiliyatiga ega bo‘lib, jamoani birlashtira oladi, xodimlarni rag‘batlantiradi va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratadi.

To‘rtinchidan, zamonaviy rahbarda kommunikativlik va ochiqlik muhim o‘rin tutadi. U samarali muloqot qila oladi, fikrlarni aniq va ravshan ifodalaydi hamda jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Beshinchidan, u innovatsion fikrlovchi bo‘lishi, yangi g‘oyalar va yondashuvlarga ochiq bo‘lishi zarur. Bugungi tez o‘zgaruvchan dunyoda eski usullar bilan samarali boshqaruvni ta’minlab bo‘lmaydi.

Oltinchidan, zamonaviy rahbar ijtimoiy mas’uliyatni his etuvchi shaxsdir. U qabul qilayotgan qarorlarning nafaqat tashkilot, balki jamiyat uchun ahamiyatini ham hisobga oladi.

Bir so‘z bilan aytganda zamonaviy rahbar - bu bilim, tajriba va psixologik sifatlarni uyg‘unlashtirgan, inson omilini to‘g‘ri boshqara oladigan va strategik rivojlanishni ta’minlaydigan shaxsdir.

Davlat boshqaruvi tizimida yuzaga kelayotgan murakkab vazifalar, tezkor qaror qabul qilish zarurati, inson omilining ortib borayotgan roli rahbar shaxsining psixologik barqarorligi, liderlik qobiliyati, stressga chidamliligi, kommunikativlik darajasi kabi sifatlarni chuqur o‘rganishni taqozo etadi. An’anaviy tanlov usullari ko‘pincha nomzodlarning faqat tashqi ko‘rsatkichlari va rasmiy malakalarini baholash bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa, amaliyotda ayrim holatlarda rahbar lavozimlariga psixologik jihatdan tayyor bo‘lmagan kadrlarning tayinlanishiga olib kelishi mumkin. Mazkur muammoning dolzarbligi shundan iboratki, davlat xizmatlari tizimida samarali boshqaruvni ta’minlash uchun rahbar kadrlarning nafaqat kasbiy bilimlari, balki ularning individual-psixologik xususiyatlarini ham kompleks baholash zarur.

Psixologik saralash esa shaxsning ichki imkoniyatlarini aniqlash, uning boshqaruv faoliyatiga mosligini baholash hamda kelgusidagi professional rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish imkonini beradi. Shuningdek, bugungi kunda inson resurslarini boshqarish konsepsiyasining rivojlanishi, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning keng qo‘llanilishi rahbar kadrlarni saralashda ilmiy asoslangan psixodiagnostik metodlardan foydalanishni talab etmoqda. Xususan, shaxsning motivatsion sohasi, emotsional intellekti, qaror qabul qilish uslubi va ijtimoiy moslashuvchanligi kabi jihatlarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodikalar ya’ni, V.Pugacheva tomonidan ishlab chiqilgan “Rahbar xodimning shaxsiy sifatlarini baholash” metodikasi, D.Lyusinaning “Emotsional intellektni aniqlash” so‘rovnomasi, V.Fedoroshinaning “Rahbar shaxsdagi yetakchilik, kommunikatsion va tashkilotchilik sifatlarini aniqlash” metodikasi kabi usullardan foydalanilgan. Bular o‘rtasida parametrik va noparametrik mezonlar, faktorli va diskriminant tahlil va korrelyatsion bog‘liqlik jihatlari ham aniqlangan.

Metodologiya. Xronologik jihatdan qaralganda, kadrlarni izlash va saralashning ishlari, uzoq va murakkab tarixga ega jarayon sanalib, uning dastlabki bosqichlari antik davr sivilizatsiyalari bilan uzviy bog‘liq sanaladi [1,90]]. Misol uchun, qadimgi Misr, Shumer, Arkada kabi davlatlarda mazkur masalaga oid ilk amalga oshirilgan ishlar buning yaqqol ifodasidir. Tadqiqotchi V.A.Tolochekning yozishicha, kadrlarni saralash va ishga qabul qilish bilan bog‘liq, ilk ilmiy harakatlarni uch davrga ajratish mumkin[2,118]:

1. Ilmiygacha bo‘lgan davr;
2. Klassik davr;
3. Zamonaviy davr.

Mazkur yondoshuvga muvofiq, ilmiydan oldingi davr – bu bundan 4-5 ming yil avval qadimgi sharqda quldorlik tuzumining tashkil topishi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Misol uchun, Misrda

davlat xizmatchilarining elita kastasini tayyorlaydigan amaldorlar maktabi mavjud edi. Bundan tashqari, eramizning boshlariga kelib, qadimgi Xitoyda ham juda kuchli amaldorlar maktabi shakllangan edi. Konfutsiy va uning shogirtlari amaldorlar va zodagon tabaqa vakillarini saralashning butun bir falsafiy mezonlarini yaratdilar. Konfutsiyga ko‘ra, mansabdor shaxsni saralashda asosiy tanlov mezoni uning boy va e’tiborli oilaga mansubligi emas, balki uning shaxsiy fazilatlari, aql-zakovati kabilar muhim sanalgan[3,65]. Shuningdek, kasbiy tanlov masalasining ilmiygacha bo‘lgan davri qadimgi Gretsiyada amalga oshirilgan ishlar bilan ham o‘zviy bohliq hisoblanadi. O‘sha paytda, Gretsiyada hunarmandlar, dengizchilar, jangchilar ham kasbiy mahoratiga ko‘ra, ishga va lavozimga qabul qilingan. 19-asr oxiri -20-asr boshlarida yirik korxonalar o‘z tarkibida maxsus kadrlar xiz-matlariga ega edi. Birinchi xodimlar farovonlik kotiblari deb nomlangan. XX asr boshlarida nemis psixologi G.Myunsterberg birinchi bo‘lib, kasbiy tanlov sohasida keng ko‘lamli tadqiqotlarni boshlab berdi. Ya’ni olim shaxsning kasbiy qobiliyatini baholash uchun psixologik testlar ishlab chiqdi va uni ilk bor amaliyotga qo‘lladi [3,80]. Kasbiy saralash muammosini amerikalik olim T.Parsonsning ham izlanishlarida ko‘rish mumkin. Muallif kasbiy saralashda xususiyatlardan onglilik, manfaatlilik, qadriyatlilik va ratsionallik kabilarga alohida e’tibor qaratdi[4,20].

Natija va muhokamalar. Rahbar kadrlardagi yetakchilik va tashkilotchilik sifatlarini aniqlash hamda ularni psixologik saralash bo’yicha natijalari “Styudentning-t mezoni bo‘yicha. Quyida amalga oshirilgan empirik tadqiqotimizda qo‘lga kiritilgan natijalardan namuna sifatida 1 - jadval ko‘rsatgichlarini taqdim eamiz.

Jadval-1.

Shaxsdagi yetakchilik va tashkilotchilik sifatlarini aniqlash hamda emotsional intellekt so‘rovnomalari natijalari (Styudentning-t mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Guruhlar	M	Standart og‘ish	t-qiymat
Etakchilik	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	28,00	3,259	3,846**
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	32,00	4,146	
O‘z his-tuyg‘ularini anglash	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	25,28	3,846	5,549*
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	29,15	4,652	
O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	14,70	3,256	4,648*
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	18,38	4,357	
Boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	22,90	4,216	3,498**
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	27,56	5,947	
Boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	22,53	4,549	9,110***
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	25,37	5,713	
Emotsional intellekt (ichki shaxsiy jihat)	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	36,25	7,463	4,725*
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	40,54	8,498	
Emotsional intellekt (shaxslararo jihat)	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	38,21	8,548	5,498*
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	42,26	9,714	

Emotsional intellekt (integral ko‘rsatkich)	Toshkent viloyati rahbar xodimlari	76,68	8,479	3,758**
	Toshkent shahar rahbar xodimlari	81,32	9,598	

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Emotsional intellekt jihatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so‘rovnomalarga bergan natijalari quyidagi shkalalarda ya’ni yetakchilik bo‘yicha M (28-32), sigma esa, (3,25-4,14) farqlar bilan o‘zaro qiyoslangan. Keyingi shkala o‘z his-tuyg‘ularini anglash bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich M (25,28-29,15), sigma esa, (3,84-4,65) natijani tashkil etgan. Navbatdagi shkala o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish M (14,70-18,38), sigma esa, (3,25-4,35) kabi natijalar bilan tafovutlangan.

Boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash shkalasi bo‘yicha har ikki guruh sinaluvchilarining natijalari M (22,90-27,56), sigma esa, (4,21-5,94) darajalar bilan ahamiyatli farqlarni tashkil etgan. Keyingi shkala Boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish bo‘yicha sinaluvchilarning ko‘rsatkichlari M (22,53-25,37), sigma esa, (4,54-5,71) farqlar bilan o‘rtacha darajani namoyon etgan. Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati shkalasiga ko‘ra, sinaluvchilarning natijalari M (36,25-40,54), sigma esa, (7,46-8,49) farqlarni namoyon qilgan. Navbatdagi shkala emotsional intellektning munosabatlar jihati bo‘yicha natijalar o‘rtacha M (38,21-42,26), sigma esa, (8,54-9,71) ahamiyatli birliklarni tashkil etgan. Oxirgi shkala emotsional intellektning integral ko‘rsatkichi shkalasi M (76,68-81,32), sigma esa, (8,47-9,59) kabi natijalar bilan o‘zaro farqlangan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan rahbarlar o‘z faoliyatida ijtimoiy-psixologik muhitni samarali boshqarish, jamoa a’zolari bilan konstruktiv munosabat o‘rnatish hamda murakkab vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bunday rahbarlar o‘z emotsiyalarini nazorat qilish, boshqalarning hissiy holatini anglash va empatik yondashuvni namoyon etishda yuqori natijalarga ega bo‘lishi bilan davlat xizmatlari tizimida barqaror boshqaruvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, V. Fedoroshina metodikasi orqali aniqlangan natijalar rahbar shaxsida yetakchilik, kommunikativlik va tashkilotchilik sifatlarining rivojlanganlik darajasi uning boshqaruv samaradorligiga bevosita ta’sir etishini tasdiqladi. Ayniqsa, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya va tashkilotchilik qobiliyatlari jamoani birlashtirish, vazifalarni optimal taqsimlash hamda strategik maqsadlarga erishishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, mazkur metodikalar asosida olib borilgan psixologik saralash rahbar kadrlarning nafaqat kasbiy bilim va malakalarini, balki ularning shaxsiy-psixologik resurslarini ham chuqur baholash imkonini beradi. Bunday ilmiy yondashuv va psixologik saralash davlat xizmatlari tizimida samarali, mas’uliyatli va yuqori ijtimoiy kompetensiyaga ega rahbarlarni tanlashda ilmiy asoslangan yondashuvni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Управление персоналом : учебник для вузов / под ред. Т. Ю. Базарова, Б. Л. Еремина. – Москва : ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – С. 90.

2. Волкогонова, О. Д. Управленческая психология : учебник / О. Д. Волкогонова, А. Т. Зуб. – Москва : ИНФРА-М, 2005. – С. 56.

3. Толочек, В. А. Профессиональный отбор: история и перспективы постановки задач / В. А. Толочек // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Акмеология образования. Психология развития. – 2018. – № 2. – С. 118.

4. Конфуций. Суждения и беседы / Конфуций ; [пер. с кит.]. – Москва : Азбука-Аттикус, 2015. – 224 с.

5. Парсонс, Т. Система современных обществ / Т. Парсонс ; пер. с англ. Л. А. Седова, А. Д. Ковалева. – Москва : Аспект Пресс, 1997. – С. 20.

Абдумаджидова Дилдора Рахматуллаевна
Национальный университет Узбекистана
Преподаватель кафедра Психология, (DSc)

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НЕЙРОПЛАСТИЧНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье мы разберём, в чём суть когнитивных процессов и нейропластичности у детей, какие факторы влияют на этот процесс и современная наука рассматривает адаптацию к новым условиям. Нейропластичность, обеспечивает невероятные возможности для обучения и развития.*

Ключевые слова: *когнитивные процессы, новые навыки, нейропластичность, адаптация, новые условия, эффективность.*

RESEARCH OF NEUROPLASTICITY INDICATORS IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *In this article, we will explore the essence of cognitive processes and neuroplasticity in children, as well as the factors that influence this process and how modern science views adaptation to new conditions. Neuroplasticity provides incredible opportunities for learning and development.*

Key words: *cognitive processes, new skills, neuroplasticity, adaptation, new conditions, and efficiency.*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NEYROPLASTIKLIK KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalardagi kognitiv jarayonlar va neyroplastiklikning mohiyati, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillar hamda zamonaviy fan tomonidan yangi sharoitlarga moslashuv masalalari tahlil qilinadi. Neyroplastiklik o‘qish va rivojlanish uchun g‘ayrioddiy imkoniyatlarni ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv jarayonlar, yangi ko‘nikmalar, neyroplastiklik, moslashuv, yangi sharoitlar, samaradorlik.*

Знание процессов нейропластичности дает нам не только возможность теоретически понять функционирование мозга, но и практические инструменты для более эффективного обучения, восстановления после травм, улучшения когнитивных функций на протяжении всей жизни и решения психических проблем. Определив механизм нейропластичности, мы можем стратегически использовать его для формирования желаемых компетенций и изменения устоявшихся моделей поведения.

Нейропластичность – это способность головного мозга изменять свою структуру и функции в ответ на различные внешние и внутренние стимулы. Речь идёт о формировании новых нейронных связей и «переподключении» уже существующих сетей. У детей этот процесс выражен значительно ярче, чем у взрослых, поскольку детский мозг развивается стремительными темпами, а его структуры ещё не достигли окончательной специализации. В раннем возрасте у ребёнка наиболее высока интенсивность процесса образования синапсов между нейронами. Именно поэтому формирующийся мозг способен особенно активно реагировать на окружающую среду, быстрее приспосабливаться к новым условиям.

Нейропластичность у детей – это фундаментальное свойство, позволяющее не только формировать новые навыки и знания, но и восстанавливаться при различных нарушениях. В раннем возрасте нейропластические процессы достигают своего пика, что открывает широкие возможности для эффективной реабилитации и коррекции развития.

В процессе обучения мозг переносит количественные изменения. Чтобы лучше понять этот феномен, нам необходимо рассмотреть аспекты, свидетельствующие в пользу пластичности мозга, и изучить практические способы, с помощью которых мы можем оптимально использовать эту экстраординарную способность. Понимание того, что мозг по своей природе пластичен, позволяет осознать, что человек всегда может учиться и развиваться до самого конца своей жизни и не бояться старомодного представления о мозге взрослого человека как о жестком и инертном.

Виды пластичности мозга. Пластичность мозга - это не изолированный феномен, а гетерогенный набор процессов, которые позволяют мозгу изменяться и адаптироваться. Современные нейробиологические исследования выявляют несколько важных типов пластичности, которые в совокупности определяют феноменальную способность мозга к трансформации [1].

Способность сосредотачиваться и сохранять концентрацию также имеет решающее значение. Одной из самых сильных сторон нейропластичности является сосредоточенное внимание. Работа когнитивной нейронауки доказывает, что внимание можно рассматривать как нейронный центр внимания, который усиливает активность в областях мозга, имеющих отношение к выполнению задач, и способствует развитию новых связей именно в тех областях, которые необходимы в когнтивных процессах [2]. Сосредоточившись на определенной задаче, нейроны, которые занимаются обработкой соответствующей задачи, демонстрируют синхронность. Такая синхронизация обеспечивает идеальную среду для синаптической пластичности и обучения.

Внимание также помогает улучшить четкость сигнала, поскольку оно максимизирует активность нейронов, кодирующих важную информацию, подавляет активность нейронов, кодирующих информацию, не относящуюся к делу. Этот контраст улучшает соотношение сигналами, что облегчает формирование новых связей в мозге. Все дело в том, чтобы набирать номер на радиоприемнике до тех пор, пока не будет найдена нужная частота: как только выбрана нужная частота, сигнал становится четким, а фоновый шум исчезает.

Нейропластические процессы, способствующие обучению и адаптации, могут также способствовать нежелательному поведению, мышлению и эмоциональным реакциям. Знание этих процессов поможет объяснить формирование негативных привычек и зависимостей и понять, как их можно изменить. Среди этих механизмов важную роль играет усиление выработки дофамина за счет немедленного вознаграждения [3].

Другим важным процессом является выработка автоматических реакций на стресс. В случае, когда стрессовые ситуации повторяются, мозг формирует более быстрые и менее осознанные способы реагирования. Если принятый механизм совладания является неадаптивным, например, переедание в ответ на стресс, то это может превратиться в привычную реакцию на стресс. Эта тенденция формируется таким же образом, как и классическая обусловленность, когда стресс сочетается с временным облегчением, которое сопровождается деструктивным поведением. Такая ассоциация усиливается и становится все более неосознанной. Именно благодаря её слаженной работе мы способны анализировать сложные ситуации, предвидеть последствия своих поступков и адаптироваться к меняющимся условиям окружающей среды. Её активность пронизывает все аспекты нашей умственной деятельности - от мгновенного распознавания знакомого лица до глубоких философских размышлений.

Сенсорная интеграция, внимание и эффективность обучения также как и мультисенсорный метод обучения является важным способом улучшения запоминания информации. Исследования показали, что материал, подвергшийся более чем одному способу сенсорной обработки, лучше усваивается и сохраняется в течение длительного времени. Существуют экспериментальные доказательства того, что память может быть улучшена на 50-75% по сравнению с одномодальным обучением за счет активации других сенсорных систем [4].

Этот эффект обусловлен тем, что каждый канал восприятия имеет свои собственные нейронные связи, которые обогащают нейронную сеть памяти. В то же время информация поступает в мозг более чем по одному пути, создается более интегрированное и детализированное представление этой информации, что позволяет более глубоко понять и обобщить кон-

цепцию. Показательно, что изучение анатомии человека было бы значительно более эффективным, если бы учащиеся сочетали чтение и визуальное изучение с практическим использованием трехмерных моделей.

Роль когнитивных процессов и нейропластичность повышает креативности и умения решать проблемы. Когда ум гибок, он может находить нестандартные решения задач, которые казались сложными или неразрешимыми. Таким образом, когда ум гибок, он может находить нестандартные решения задач, которые казались сложными или неразрешимыми. Эта гибкость проявляется не только в способности видеть проблему под разными углами, но и в готовности экспериментировать, отходить от привычных шаблонов и даже принимать риск неудачи ради открытия нового.

Нейропластичность как движущая сила когнитивных процессов – это способность мозга создавать новые нейронные связи. Исследования в науке показывают, что стимуляция нейропластичности может замедлить прогрессирование нейродегенеративных заболеваний и частично восстановить утраченные функции. В то же время, способность мозга меняться и развиваться на протяжении всей жизни. Она особенно важна для когнитивных функций как наиболее сложных функций головного мозга, с помощью которых осуществляется процесс рационального познания мира и обеспечивается целенаправленное взаимодействие с ним. Эта область мозга, будучи центральным узлом обработки информации, отвечает за формирование абстрактных представлений, планирование действий, принятие решений и самоконтроль.

Понимание нейропластических механизмов расширяет теоретические перспективы с точки зрения функционирования мозга и предлагает реальные подходы к максимизации эффективности обучения, реабилитации после травм, поддержанию когнитивных способностей на протяжении всей жизни и решению психологических проблем. Понимание механизма нейропластичности позволяет нам осознавать способность сознательно контролировать такие процессы, чтобы приобретать необходимые навыки и изменять поведенческие паттерны.

Такой подход позволяет не просто преодолевать препятствия, но и трансформировать их в возможности для роста и инноваций. Вместо того чтобы застревать в тупике, гибкий ум ищет обходные пути, комбинирует разрозненные идеи и создает уникальные комбинации. Такая способность к адаптации и поиску альтернатив становится бесценным активом в постоянно меняющемся мире, где вчерашние решения сегодня могут оказаться устаревшими. Исследования в области нейропластичности продолжают открывать новые горизонты в понимании работы мозга и его потенциала.

Список использованной литературы.

1. Костанди, М. Нейропластичность / М. Костанди ; [пер. с англ.]. – Москва : Точка, 2017. – С. 176.

2. Павлов, К. И. Физиологические механизмы нейропластичности как основа психических процессов и социально-профессиональной адаптации (часть 1) / К. И. Павлов, В. Н. Мухин // Психология. Психофизиология. – 2021. – Т. 14, № 3. – С. 119–136.

3. Живолупов, С. А. Современная концепция нейропластичности (теоретические аспекты и практическая значимость) / С. А. Живолупов, И. Н. Самарцев, Ф. А. Сыроежкин // Журнал неврологии и психиатрии им. С. С. Корсакова. – 2013. – № 10. – С. 103–108.

4. Дойдж, Н. Пластичность мозга: Потрясающие факты о том, как мысли способны менять структуру и функции нашего мозга / Н. Дойдж ; [пер. с англ.]. – Москва : Эксмо, 2018. – 544 с.

Abduraxmanova Zuxra Erkinovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

TURLI MILLATLI OILA FARZANDLARIDA ETNIK IDENTIKLIK SHAKLLANISINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Millatlararo nikohlar asosida vujudga keluvchi oilalardagi bolalarning umumiy turmush sharoitiga ham e’tibor qaratilmoqda. Turli millatli oilalarda etnik-ijtimoiy va etnodemografik jarayonlar boshqa miqyosda sodir bo‘ladi va psixologik omilning sezilarli ta’siri bilan amalga oshiriladi, chunki etnik guruhlarning vakillari haqiqiy odamlar - tashuvchilar kabi nikohga kirishmaydi. Turli millatli oilalarda etnik-madaniy o‘ziga xoslik namoyon bo‘lishining ko‘plab mumkin bo‘lgan kombinatsiyalari mavjud, ular qaysi etnik guruhlar nikohda birlashganligiga, mahalliy etnik o‘zaro munosabatlarning tabiatiga, oilaning yashash joyidagi umumiy etnik vaziyatga bog‘liq. Maqola ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, internatsional oila, o‘smirlar, etnik identiklik, etnodemografik jarayonlar, madaniy differensiatsiya, etnonigilizm, etnoegoizm, etnik indefferentlik.*

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТНИЧЕСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ДЕТЕЙ В МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *Внимание также уделяется общим условиям жизни детей, растущих в семьях, сформированных на основе межнациональных браков. В таких семьях этносоциальные и этнодемографические процессы протекают на ином уровне и реализуются с заметным влиянием психологического фактора, поскольку в брак вступают не просто представители этнических групп, а реальные люди - носители этих культур. В межнациональных семьях существует множество возможных комбинаций проявления этнокультурной специфики, которые зависят от того, какие этнические группы объединены в браке, от характера местных межэтнических отношений и от общей этнической ситуации в месте проживания семьи. В статье анализируются результаты эмпирических исследований, проведённых по данной проблеме.*

Ключевые слова: *интеграция, интернациональная семья, подростки, этническая идентичность, этнодемографические процессы, культурная дифференциация, этнонигилизм, этноэгоизм, этническая индифферентность.*

ETHNOPSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF ETHNIC IDENTITY IN CHILDREN FROM MULTINATIONAL FAMILIES

Abstract. *Attention is also given to the general living conditions of children growing up in families formed through interethnic marriages. In such families, ethnosocial and ethnodemographic processes occur at a different level and are carried out under the significant influence of psychological factors, since it is not merely representatives of ethnic groups who enter into marriage, but real individuals as carriers of these cultures. In multinational families, there are many possible combinations of the manifestation of ethnocultural specificity, which depend on which ethnic groups are united in marriage, the nature of local interethnic relations, and the overall ethnic situation in the place where the family resides. The article analyzes the results of empirical studies conducted on this issue.*

Key words: *integration, international family, adolescents, ethnic identity, ethnodemographic processes, cultural differentiation, ethnonihilism, ethnoegoism, ethnic indifference.*

Kirish. Hozirgi vaqtda aholining ko‘pchiligi uchun milliy mansubligidan tashqari, etnik o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Etnik urf-odatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini,

millatlararo nikohlardagi dinlararo o‘zaro ta’sir ssenariylarini o‘rganish aralash nikohdan bo‘lgan shaxslarning etnik shakllanishi mexanizmlarini tushunish uchun alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatni demokratlashtirish va integratsiyalashuvining rivojlanishi bilan etnik munosabatlar va o‘zaro hamkorlik aloqalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, ular millatlararo keskinlik ko‘rinishidagi murosasizlikni keltirib chiqarishi mumkin, ikkinchi tomondan, xalqlar va etnik guruhlarning dinamik mobilligi sharoitida ular ko‘p millatli davlatlarning integratsiyasiga hissa qo‘shishi mumkin, bu esa birinchi navbatda hammasi, milliy munosabatlar sohasida jamiyatda bag‘rikenglik muhitini yaratishni davlatlar oldiga ustuvor vazifa sifatida qo‘yadi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, inqilobgacha turli din, millat vakillari o‘rtasidagi nikohlar ma’qullanmagan, bunday nikohlar diniy muassasalar tomonidan taqiqlangan deb taxmin qilingan. Nikohlar bir xil dinga e’tiqod qiluvchi etnik guruhlar vakillari o‘rtasida tuzilgan. Agar turli dindagi odamlar turmush qurishgan bo‘lsa, unda turmush o‘rtoqlardan birining boshqa dinga oldindan o‘tishi sodir bo‘lgan. Oila va nikoh yer yuzidagi barcha odamlar ishtirok etadigan ijtimoiy institutlardir. Har bir inson u yoki bu tarzda ularga kiritilgan yoki hech bo‘lmaganda ular bilan o‘z munosabatiga ega. Eng qadimiy insoniy ijtimoiy shakllanishlardan biri bo‘lib, zamonaviy insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi bo‘lgan nikoh va oila insoniyat tarixi davomida mutafakkirlar, olimlar va tadqiqotchilarni qiziqtirgan. Bu qiziqish oilaning jamiyatdagi o‘rni va rolini, oilaning davlat bilan aloqasini va ularning o‘zaro ta’sirini tushunish istagi bilan bog‘liq. Shuningdek, oilaning inson zotini ko‘paytirish, shaxsning eng dolzarb ehtiyojlarini qondirishdek hayotiy va global funksiyasini bajarish zarurati bilan bog‘liq [1;47].

Etnik identiklikni shakllantirish muammosi zamonaviy etnopsixologiyaning nazariyasi va amaliyotida eng dolzarb muammolardan biridir. Xalqlarning ko‘p millatliligi, tarixan shakllangan millatlararo munosabatlarning noaniqligi, zamonaviy yoshlar ongida nafaqat moddiy, balki ma’naviy globallashuvga bo‘lgan munosabatning faol rivojlanishi shaxsning etnik o‘ziga xosligini shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor berishga imkon beradi. Etnik identiklik ijtimoiy o‘ziga xoslikning bir qismi va shakli bo‘lib, shuning uchun shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir qiladi. Etnik identiklik mexanizmini har tomonlama o‘rganish shaxsni ijtimoiylashtirishning yanada muvaffaqiyatli yo‘nalishiga, uni uyg‘unlashtirish va rivojlantirish yo‘lidagi muammolar va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Umuman olganda, etnik ongni etnos hayotining real hayotdagi etnodifferensiatsiyalovchi va etnointegratsion belgilarining ongli g‘oyalari va baholarining nisbatan barqaror tizimi sifatida tavsiflash mumkin. Bu tizimning shakllanishi natijasida inson o‘zini ma’lum bir etnik jamoaning vakili sifatida anglaydi. V.S.Merlin tomonidan taklif qilingan shaxsning o‘z-o‘zini ongini o‘rganishga tizimli yondashuv tamoyiliga asoslanib, etnik o‘zini o‘zi anglashning quyidagi ko‘rinishlari ajratiladi [3;312].

1) etnik jamoaning umumiy etnik madaniyatidan xabardorlik;
2) etnik jamoaning psixologik xususiyatlarini bilish;
3) o‘zining etnopsixologik xususiyatlarini bilish;
4) etnik jamoa bilan o‘zlikni anglash;
5) o‘zini etnik jamoa subyekti sifatida anglash;
6) etnik mansublikning ijtimoiy va axloqiy o‘zini-o‘zi baholashi.

Etnik identiklik shaxsning ijtimoiy o‘ziga xosligining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ma’lum bir etnik jamoaga mansubligini anglashini bildiruvchi psixologik kategoriyadir. Shu bilan birga, birinchidan, etnik o‘ziga xoslik va etniklik tushunchalarini bir qator obyektiv belgilarga ko‘ra etnik ta’rif bilan bog‘liq bo‘lgan sotsiologik kategoriyadan ajratish kerak: ota-onaning etnik kelib chiqishi, tug‘ilgan joyi, tili, madaniyati va boshqalar. Haqiqiy hayotda etnik o‘ziga xoslik har doim ham rasmiy etnik kelib chiqishiga to‘g‘ri kelmaydi. Ikkinchidan, shuni esda tutish kerakki, etnik o‘ziga xoslik o‘z nomida namoyon bo‘ladigan e’lon qilingan o‘ziga xoslik (o‘zini etnik jamoaga topshirish) bilan cheklanmaydi va unga mos kelmasligi mumkin.

Etnik identiklik bolaning aqliy rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha bosqichlardan o‘tadi. J.Piaje (1896 - 1980) birinchilardan bo‘lib bolaning milliy guruhga mansubligini anglashning rivojlanish konsepsiyasini taklif qildi. 1951-yilgi tadqiqotida u “Vatan” tushunchasining shakllanishini, “boshqa mamlakatlar” va “chet elliklar” obrazlarini bir jarayonning ikki tomoni sifatida tahlil qilgan. Shveysariyalik olim etnik o‘ziga xoslikning rivojlanishini “Vatan” tushunchasi bilan

bog‘liq bo‘lgan kognitiv modellarning yaratilishi deb hisoblaydi va etnik tuyg‘ular, uning fikricha, axloqiy hodisalar haqidagi bilimlarga o‘ziga xos javobdir. J.Piaje etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning uch bosqichini belgilaydi:

1) olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bola o‘z millati to‘g‘risida birinchi - parchalangan va tizimsiz - bilimga ega bo‘ladi. Bu yoshda u uchun mamlakat va etnik guruh emas, balki oila va yaqin ijtimoiy muhit eng muhim hisoblanadi;

2) sakkiz yoshdan to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan bola allaqachon o‘z millatiga mansubligini aniq ko‘rsatsa, identifikatsiya qilish uchun asoslar - ota-onasining millati, yashash joyi, ona tilini ko‘rsatadi; milliy tuyg‘ularni uyg‘otish shu davrda boshlanadi;

3) erta o‘smirlik davrida (10-11 yosh) etnik o‘ziga xoslik to‘liq shakllanadi, chunki turli xalqlarning xususiyatlari, bola tarixning o‘ziga xosligini, an'anaviy kundalik madaniyatning o‘ziga xosligini qayd etadi [4;357].

Bugungi kunga qadar butun dunyoda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularda etnik o‘ziga xoslik rivojlanish bosqichlarining yosh chegaralari aniqlangan. Etnik guruh bilan diffuz identifikatsiya qilishning birinchi «ko‘rinishi» ko‘pchilik mualliflar tomonidan uch yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchraydi, hatto uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tomonidan ajoyib tashqi farqlarni - terining rangi, sochlarini birlamchi idrok etishi haqida dalillar mavjud. Ammo amalda barcha psixologlar J.Piajening fikriga qo‘shiladilarki, bola o‘z-o‘zini aks ettirish inson uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan erta o‘smirlik davrida «reallashtirilgan» etnik o‘ziga xoslikka erishadi. Etnik o‘ziga xoslik rivojlanishining ketma-ket bosqichlarida ham etnik ong shakllanadi, bu o‘z va boshqa guruhlar haqidagi bilimlarni, shuningdek, etnik o‘z nomini o‘z ichiga oladi. Etnik xabardorlik tajriba, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bilan ortadi.

Guruhlardagi tafovutlarni etnik ongning o‘sishi muqarrar ravishda o‘zining etnik guruhlardan birining a’zolari bilan o‘xshashligini va boshqa guruhlardan farqini idrok etish, doimiy ravishda o‘ziga to‘g‘ri etnik nom berish qobiliyati bilan bog‘liq. Xuddi shu tadqiqotda O.L.Romanova besh - olti yoshli bolalar va hatto undan kattaroq bolalar ham o‘z millatini, ota-onalarining millatini har doim ham to‘g‘ri nomlay olmadilar, ota-onalarining millati, yashash mamlakati, tili kabi faktlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatolmadilar. Faqat etnik hodisalar haqidagi g‘oyalar tizimini shakllantirgan o‘smirlar etnik farqlovchi xususiyatlarning muhim majmui asosida o‘zlarini etnik jamoa bilan aniq belgiladilar [5;176].

Etnik identiklik nafaqat etnosning moddiy madaniyati va uning ijtimoiy mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Etnik o‘z-o‘zini anglashning muhim tarkibiy qismi bu guruhning o‘zining axloqiy va psixologik birligini anglashidir [2;279].

Etnik guruhning psixologik hamjamiyatini shakllantirish manbai ma’naviy madaniyatning boshqa elementlari bilan bir qatorda urf-odatlar va marosimlar bo‘lishi mumkin. Urf-odatlarga ommaviy xulq-atvorning tarixan shakllangan, stereotipik shakllari kiradi, ular uzoq tarixiy vaqt davomida o‘zgarmagan holda takrorlangan standart harakatlardir. Urf-odatlarning namoyon bo‘lish shakli marosim bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda “harakatni amalga oshirish usuli to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadga muvofiq emas va faqat ma’lum bir ijtimoiy munosabatlarning belgisi (ramzlari) sifatida (mavjud ijtimoiy tartib, har qanday qadriyatlar yoki hokimiyatni tan olish va hokazo) xizmat qiladi” [6;840].

Oila omili asosan etnik identiklikning shakllanishiga ta’sir qiladi. Muayyan ota-onaning obro‘si bolaning etnik guruhga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi - ya’ni oilada ota hokimiyat bo‘lsa, bola uning izidan boradi, agar ona, demak, uning izidan boradi. Ikkinchi omil - bu til. Uning bilimi fikrlash jarayonini boshqaradi. Uchinchi omil tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq - bu bizga ma’lum bir millat bilan munosabatda bo‘lish imkonini beradi, ammo bu yerda istisnolar mavjud: masalan, bola bir millat vakiliga o‘xshab ko‘rinishi mumkin, lekin boshqasiga yaqin bo‘lishi mumkin. Uning shakllanishi jarayonida S.A.Kadikovaning ta’kidlashicha, etnik o‘ziga xoslik bolaning aqliy rivojlanishi bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi, bu jarayonning natijasi o‘smirlik davrida o‘zining etnik guruhga mansubligini hissiy va baholashdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Internatsional oila farzandlaridagi etnik identiklik shakllanishining psixologik jihatlarini tahlil qilish bir necha bor empirik tadqiqot mavzusiga

aylangan. Biz tomonimizdan turli millatdagi nikohlar asosida tug‘ilgan bolalarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining psixologik jihatlarini o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotimiz uch bosqichda o‘tkazildi:

1. Aniqlash bosqichi (o‘smirlarning etnik identiklikni o‘rganish);
2. Shakllantiruvchi bosqich (o‘smirlardagi etnik o‘ziga xosligini tadqiq etish uchun metodik vositalarni tanlash);
3. Nazorat bosqichi (eksperimental ish natijalarini taqqoslash).

Jadval-1.

Dj.Finnining “Etnik identiklikni o‘rganish” metodikasining tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Assimetriya	Ekzess
Kognitiv komponent	1,00	20,00	10,09	5,68	,214	-1,170
Affektiv komponent	1,00	28,00	12,06	7,51	,644	-,521
Integral ko‘rsatkich	15,00	48,00	30,67	9,77	,069	-1,087

Metodika bo‘yicha olingan natjalardan ma’lum bo‘ladiki, kognitiv komponent bo‘yicha o‘rtacha qiymat 10,09, standart og‘ish 5,68 ni tashkil etib, chap tarafga manfiy ekzess ko‘rsatkichda ekan. Bundan sinaluvchilar savollarga to‘liq va tushungan holda javob bergan deyish mumkin. Ushbu metodikaning affektiv komponenti bo‘yicha minimal qiymat ballni, maksimal qiymat 28 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 12.09 ni, standart og‘ish 7.51 ballni, eksess -0,521 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Integral ko‘rsatkich shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 15 ballni, maksimal qiymat 48 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 30.67 ni, standart og‘ish 9.77 ballni, eksess -1,087 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Mazkur yuqorida keltirilgan natijalardan ma’lum bo‘ladiki, barcha etnik guruhga tegishli o‘smirlarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining integral, ya’ni umumiy ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu ularning o‘z millatiga daxldorlik hissi yaxshi rivojlanganidan, deya xulosaga kelishga imkon beradi.

Jadval-2.

G.Soldatovaning “Etnik identiklikni namoyon bo‘lishi” metodikasining tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Assimetriya	Ekzess
Etnonigilizm	1,00	20,00	8,71	5,32	,512	-,775
Etnik indefferentlik	1,00	20,00	8,22	4,55	,427	-,604
Pozitiv etnik identiklik	1,00	20,00	9,22	5,67	,315	-1,132
Etnoegoizm	1,00	20,00	9,54	6,52	1,169	5,431
Etnoizolyatsionizm	1,00	20,00	9,23	4,54	,204	-,774
Milliy fanatizm	1,00	20,00	9,23	5,45	,263	-1,073

Etnonigilizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 8.74 ni, standart og‘ish 5.32 ballni, etnik indefferentlik shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 8.22 ni, standart og‘ish 4.55 ballni, pozitiv etnik identiklik shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.22 ni, standart og‘ish 5.67 ballni, etnoegoizm bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.54 ni, standart og‘ish 6.52 ballni tashkil etdi. Etnoizolyatsionizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.23 ni, standart og‘ish 4.54 ballni, milliy fanatizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni, o‘rtacha qiymat 9.23 ni, standart og‘ish 5.45 ballni tashkil etib, assimetriya va eksess bo‘yicha normal holat mavjudligi kuzatildi.


Jadval-3.

O.L.Romanovaning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Assimetriya	Ekzess
O‘z millatiga mansublik hissi	1,00	10,00	5,30	4,93	0,182	4,829
Millatning ahamiyati	2,00	14,00	7,81	2,78	,026	-,657
Etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasida munosabat	1,00	13,00	7,17	3,40	-,154	-,996
U yoki bu tildan foydalanish	-2,00	4,00	1,63	1,18	-,630	,535

O.L.Romanovaning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili quyidagicha tus oldi: o‘z millatiga mansublik hissi shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 10 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 5.30 ni, standart og‘ish 4.93 ballni, millatning ahamiyati shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 2 ballni, maksimal qiymat 14 ballni, o‘rtacha qiymat 7.81 ni, standart og‘ish 2.78 ballni tashkil etib, assimetriya va eksess bo‘yicha normal holat mavjudligi kuzatildi. Etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasida munosabat shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 13 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 7.17 ni, standart og‘ish 3.40 ballni, u yoki bu tildan foydalanish shkalasi bo‘yicha minimal qiymat -2 ballni, maksimal qiymat 4 ballni, o‘rtacha qiymat 1.63 ni, standart og‘ish 1.18 ballni tashkil etgan. Ma’lum bo‘ldiki, o‘smirlarda o‘z millatiga mansublik hissini tuyish etnik identiklikning bosha ko‘rinishlariga qaraganda yuqori ahamiyat kasb etar ekan. Ularning nazdida o‘zi yoki yashayotgan millatining tilidan foydalanish etnik identikligining rivojlanishiga to‘siq bo‘lmas ekan.

Etnik identiklikning kognitiv komponentining - shaxs va guruhning etnik xususiyatlari to‘g‘risidagi bilim va g‘oyalar, etnik guruhga mansublikni anglash, etnik avto- va geterostereotiplarning mavjudligini anglatib, mazkur shkala bo‘yicha ahamiyatli ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi (F=4,416, p<0,613). Ushbu ko‘rsatkichlarni barcha o‘smirlarda o‘z etnik guruhining barcha jihatlarini to‘liq bilish, udumlarini o‘zlashtirish, guruhidagi g‘oyalar, an’analar kabilar haqida tasavvurlar, bilimlar mavjudligini katta farqlarga ega emasligi, shuningdek, ularda etnik o‘ziga xoslik teng darajada shakllanganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon yaratadi. O‘zbek-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlarida mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha farqlarning qolgan o‘smirlarga qaraganda yuqori ko‘rinish olganini an’analarga, urf-odatlarga, ajdodlar ruhiga sodiqlik tamoyilining oilaviy an’analar asosi ekanligidan deya xulosalarga kelishimiz mumkin.



1-rasm. “Etnik identiklikni o‘rganish” metodikasining o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichlari.

Etnik identiklikning affektiv komponenti, o‘zida etnik jamoalarga bo‘lgan munosabatni, etnik guruhga mansublikni baholashni, etnik stereotiplarning yo‘nalishini va etnik imtiyozlarni ifodalaydi. Qiziqarli jihati mazkur daraja bo‘yicha ham turli oilaga mansub o‘smirlarda ham ishonch darajasidagi ahamiyatga molik farqlarning mavjud bo‘lmaganligida ko‘rinib (F=0,613, p<0,608), o‘zbek-qirg‘iz oilasi vakillarida affektiv komponentning boshqa millat vakili bo‘lgan o‘smirlarga nisbatan yuqori bo‘lishi ulardagi ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan umrboqiy qadriyatlarning oila maskanida

mustahkam shakllanishi va targ‘ibotning kuchli ifodalanishi bilan ham tavsiflashimiz mumkin. Etnik identiklikning integral ko‘rsatkichi - shaxsning ma’lum bir etnik guruhga mansublik tajribasi, uning vakillariga xos fazilatlar mavjudligini bilish, ta’lim va faoliyat sohasidagi etnik jihatdan aniqlangan imtiyozlarni baholash kabilarda namoyon bo‘ladi, mazkur komponent bo‘yicha ham sinaluvchilarimizning natijalari o‘rtasida ishonch ko‘rinishiga ega bo‘lgan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi (F=1,643, p<0,183). Ushbu umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha nisbatan yuqori natijalar o‘zbek-tatar millatiga mansub oilalarda ulg‘ayayotgan o‘smirlarga tegishli bo‘lib, bu jihatni oila vakillarining etnik xususiyatlari xalqning tarixiy taraqqiyotida shakllanganligi, ko‘chmanchi turmush tarzi tatarlarning etnik xususiyatlarining shakllanishida asosiy shart va omil bo‘lganligi, ko‘chmanchi turmush tarzining ba’zi an’analari saqlanib qolinganligi va umuman tatarlar hayotiga, xususan, yosh avlodning ijtimoiylashuviga urug‘-aymoqchilik an’analarining ta’siri yuqoriligi kabilar bilan ham xarakterlash fikrimizcha joiz.

O‘zaro munosabatlar yaqin oila rishtalariga asoslanadi: to‘y, dafn va boshqa marosimlarda qarindoshlarga yordam berish va qarindoshlardan yordam kutish, yetim va yolg‘izlarga yordam berish, kambag‘allarga yordam berish kabilar. Oilaviy munosabatlar insonlarning juda yaqin ijtimoiy munosabatlari bo‘lib, o‘zbeklar hayotida turli funksiyalarni bajaradi. Qarindoshlik munosabatlarining vazifalaridan biri yosh avlodni ijtimoiylashtirishdir. Shuning uchun ularning oilaviy munosabatlarini an'analar, ijtimoiylashuv vositasi va omili deb hisoblash mumkin.

Jadval-4.

O.L.Romanovaning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” metodikasining tahlili

Shkalalar	Millat	O‘rtacha rang	Statistik qiymat	
			H	p
Etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasida munosabat	o‘zbek-qirg‘iz	79,85	16,080	0,001**
	o‘zbek-tojik	59,65		
	qirg‘iz-tojik	44,28		
	o‘zbek-tatar	58,22		
U yoki bu tildan foydalanish	o‘zbek-qirg‘iz	58,03	11,900	0,008**
	o‘zbek-tojik	65,58		
	qirg‘iz-tojik	73,50		
	o‘zbek-tatar	44,88		

Izoh: **- p<0,01

O.L.Romanovaning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” metodikasining Kruskall-Uoliss mezoni bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahlili quyidagicha ko‘rinish oldi: o‘z millatiga mansublik shkalasi bo‘yicha o‘smirlarning natijalari orasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (H=1,014, p<0,798). Bundan barcha o‘smirlarda xoh u qaysi millatli oila vakili bo‘lmasin, doim o‘z milatiga mansublik hissini tuyib yashar ekan. Olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, o‘zbek-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlarida ko‘proq etnik identikligi o‘z mansub bo‘lgan millatga bog‘lab namoyon qilish istagi kuchli bo‘lar ekan. Ko‘rsatkich sifatida ota yoki onasining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvoridagi jihatlar ham rol o‘ynashi mumkin. Millatning ahamiyati shkalasida ham ishonch darajasidagi farqlar mavjud bo‘lmaganini ko‘rish mumkin (H=5,533, p<0,137). Shu bilan birga, bir qator masalalarda o‘quvchilar millatchilik kayfiyatiga tushib qolishadi. Shunday qilib, har to‘rttala guruh o‘quvchilarining aksariyati millatlararo har qanday nizolarda inson o‘z millati manfaatlarini himoya qilishi kerak, deb hisoblaydi, mahalliy millat vakillari boshqa millat vakillari o‘z davlatida yashash yoki yashamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega ularning nazdida. Qirg‘iz-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlaridan iborat respondentlar “Menimcha, faqat o‘z milliy madaniyatini uzviy rivojlantirish va saqlab qolish mumkin” degan fikrda muqimligi bilan ham ahamiyatimizni tortdi.

Metodikadan o‘rin olgan navbatdagi etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasidagi munosabat shkalasida ishonch ko‘rinishidagi ahamiyatli farqlr mavjudligi aniqlanib (H=16,080, p<0,01), “Menimcha, mahalliy millat vakillari o‘z hududida yashaganliklari uchun ham ular ma’lum afzalliklarga ega

bo‘lishi kerak” kabi savollarga uchta guruh vakillarining ko‘pi rozilik bilan javob berishdi, bu ularning huquqlarning buzilishi holatlari muammosiga kamroq e’tibor qaratishlarini ko‘rsatishi mumkin. O‘zbek-qirg‘iz millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smirlari bunday savollarga ko‘pincha rad javobini berishgan, ehtimol bu guruh vakillari ko‘proq millat vakillari tomonidan ularga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishlari mumkinli sababli ham yuqoridagi kabi ko‘rinish olgan. Bu esa, ularda intolerant kayfiyat va xulq-atvorga moyillik mavjud degan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Oxirgi u yoki bu tildan foydalanish shkalasida ham ishonchli farqlar aniqlandi (H=11,900, p<0,01). Qirg‘iz-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlarida xoh qirg‘iz, xoh tojik tilidan foydalanish ularda diskomfort tuyg‘usini keltirib chiqarmasligini anglatsa, ikkinchi tarafdan esa, integratsiyalashuvga kirishishda bitta mamlakat hududida bir nechta tillarda muloqot kechishiga qarshi bo‘lmasliklarini namoyon qilishadi kabi mulohazalarga mazkur natijalar tahlili olib keladi.

Xulosa. Etnik “men” ning chuqurligi, ayniqsa, ijtimoiy identifikatsiyalash tizimlari, shu jumladan shaxslarning o‘z ijtimoiy guruhlari (sinf, kasbiy, hududiy-joylashuv va boshqalar) haqida xabardorligi intensiv ravishda eroziyasi bo‘lgan tanqidiy, inqirozli davrlarda faol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bugungi kunni o‘tmish bilan bog‘lash jarayonining uzluksizligini ifodalovchi etnik o‘ziga xoslik saqlanib qoladi. O‘smirlarda o‘z millatiga mansublik hissini tuyish etnik identiklikning boshqa ko‘rinishlariga qaraganda yuqori ahamiyat kasb etib, ularning nazdida o‘zi yoki yashayotgan millatining tilidan foydalanish etnik identikligining rivojlanishiga to‘siq bo‘lmaydi. O‘zbek-qirg‘iz millatiga mansub shaxslar o‘rtasidagi nikohdan tug‘ilgan shaxslarda etnoegoizmning past darajada bo‘lishi ularning hududida azaldan ko‘p millatli etnoslar mavjudligi va millatlararo, konfessiyalar doirasida muloqotning takrorlanish chastotasi davriyligi yuqoriligi bilan izohlansa, ahamiyatli farqlar mavjud emasligini esa, barcha yetuklikka intilayotgan o‘smirlarda “mening xalqim”, “mening vatanim” kabi hislarning rivojlanish dinamikasi bir xil shaklda deb ham baholashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Abduraxmanova Z.E.Baynalminal oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarda etnik identiklik shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila Xalqaro ilmiy jurnal. 2023/4 (9)

2.Калмырзаева А.С. Нация и человек. – Алма-Ата. 1992. – 279 с.

3.Мерлин В.С. Структура личности: характер, способности, самосознание. – Пермь, 1990. – 312 с.

4.Налчаджян А.Н. Национальная идеология и этнопсихология. – СПб.: Питер, 1999. – 357 с.

5.Почебут Л.Г. Психология социальных общностей (толпа, социум, этнос). – СПб.: СпбГУ, 2002. – 176 с.

6.Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция: Л.Ф. Ильичев, П.Н. Федосеев, С.М. Ковалев. – М.: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.

Абдурахманова Регина Исамутдиновна
Преподаватель кафедры психологии факультета социальных наук Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
E-mail: regina3189@mail.ru

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *В статье представлена статистическая оценка развития психологической устойчивости военнослужащих в процессе профессиональной подготовки. Эмпирическое исследование проведено с использованием комплекса психодиагностических методик, а обработка результатов осуществлялась с применением критерия Вилкоксона. Полученные данные свидетельствуют о статистически значимых положительных изменениях психологических показателей в экспериментальной группе и подтверждают эффективность программы развития психологической устойчивости военнослужащих.*

Ключевые слова: *психологическая устойчивость, военнослужащие, профессиональная подготовка, жизнестойкость, стрессоустойчивость, нервно-психическая адаптация, волевые качества личности, коммуникативные способности, статистический анализ, критерий Вилкоксона.*

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL RESILIENCE OF MILITARY PERSONNEL IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING

Abstract*. The article presents a statistical assessment of the development of psychological resilience of military personnel in the process of professional training. The empirical study was conducted using a комплекс of psychodiagnostic methods, and the data were processed using the Wilcoxon criterion. The obtained results indicate statistically significant positive changes in psychological indicators in the experimental group and confirm the effectiveness of the program for developing psychological resilience of military personnel.*

Key words: *psychological resilience, military personnel, professional training, hardiness, behavioral self-regulation, stress resistance, volitional personality traits, communicative abilities, statistical analysis, Wilcoxon test.*

HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIGI RIVOJLANISHINING STATISTIK BAHOSI

Annotatsiya. *Maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida psixologik barqarorligining rivojlanishini statistik baholash natijalari taqdim etilgan. Empirik tadqiqot bir qator psixodiagnostik metodikalar yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, natijalar Vilkokson mezoni asosida statistik tahlil qilingan. Olingan natijalar eksperimental guruhda psixologik ko‘rsatkichlarning statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o‘zgarishlarini ko‘rsatadi hamda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini rivojlantirish dasturining samaradorligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *psixologik barqarorlik, harbiy xizmatchilar, kasbiy tayyorgarlik, hayotiy barqarorlik, xulq-atvorni o‘zini o‘zi boshqarish, stressga chidamlilik, irodaviy shaxs sifatlari, kommunikativ qobiliyatlar, statistik tahlil, Vilkokson mezoni.*

В психологической науке проблема формирования профессионально значимых качеств военнослужащих приобретает особую значимость, поскольку эффективность военной деятельности напрямую зависит от уровня развития их социально-психологических характеристик. Становление военнослужащего как субъекта военной службы невозможно без сформи-

рованной психологической устойчивости, развитой волевой саморегуляции, адекватной рефлексивности, эмоциональной стабильности и способности к конструктивному межличностному взаимодействию в условиях жёсткой регламентации и повышенной ответственности. [1]

Научные исследования, посвящённые формированию профессионально значимых и социально-психологических качеств военнослужащих, активно проводятся в ведущих зарубежных научных центрах и военных образовательных учреждениях.

Так, в (U.S. Army Research Institute for the Behavioral and Social Science, США) особое внимание уделяется программам развития психологической устойчивости и ментальной готовности военнослужащих. В рамках программы (Comprehensive Soldier and Family Fitness, CSF) обоснована эффективность целенаправленного формирования устойчивости, оптимизма, саморегуляции и стресс-менеджмента как факторов повышения боевой эффективности. [5]

В (Uniformed Services University of the Health Sciences, США) исследуются механизмы стрессоустойчивости, посттравматического роста и адаптации военнослужащих к экстремальным условиям службы. [4]

В (King's College London, Великобритания), в Институте психиатрии, психологии и нейронаук, проводятся масштабные исследования психического здоровья военнослужащих, факторов устойчивости и профилактики профессионального выгорания в военном контингенте. [3]

В (Canadian Forces Health Services / Defence Research and Development Canada, Канада) разработаны модели психологической подготовки личного состава к оперативной деятельности, акцентирующие роль командной сплочённости, адаптивности и моральной устойчивости. [6]

В (Bundeswehr University Munich, Германия) исследования направлены на изучение лидерства, морально-психологической надёжности и профессиональной социализации военнослужащих в условиях современных гибридных угроз. [2]

На основе анализа зарубежной и отечественной литературы была составлена программа по развитию психологической устойчивости военнослужащих. Мы делимся нашими результатами исследования психологической устойчивости военнослужащих.

Таблица № 1

Статистическая оценка изменений психологических показателей в экспериментальной группе по критерию Вилкоксона

	Тест жизнестойкости С.Мадди в адаптации Д.Леонтьева (первое обследование) / Тест жизнестойкости С.Мадди в адаптации Д.Леонтьева адаптации Д.Леонтьева (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала гибкости) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала гибкости) (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала результатов) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала результатов) (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала саморегуляции) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала саморегуляции) (второе обследование)	Тест нервно-психической адаптации И.Н.Гурвича (первое обследование) / Тест нервно-психической адаптации И.Н.Гурвича (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала выдержка) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала выдержка) (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала целеустремленность) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала целеустремленность) (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала самостоятельность) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала самостоятельность) (второе обследование)	Тест-опросник стрессоустойчивости С.Коухена и Г.Виллиансона (первое обследование) / Тест-опросник стрессоустойчивости С.Коухена и Г.Виллиансона (второе обследование)	Опросник способности к саморазвитию И.В.Зверевой (первое обследование) / Опросник способности к саморазвитию И.В.Зверевой (второе обследование)	Тест оценки коммуникативных и организаторских способностей личности В.Синявского и Б.А.Федоришина (шкала коммуникативность) (первое обследование) / Тест оценки коммуникативных и организаторских способностей личности В.Синявского и Б.А.Федоришина (шкала коммуникативность) (второе обследование)
Z	-5,972b	-6,252b	-5,768b	-5,180b	-6,011c	-5,902b	-6,082b	-6,372b	-6,340c	-4,024b	-6,247b
Асимптотическая значимость (2-сторонняя)	,000	,000	,000	,000	,000	,000	,000	,000	,000	,000	,000

Результаты статистического анализа показали, что по всем исследуемым показателям выявлены статистически значимые различия между значениями первого и второго обследований. Так, по тесту жизнестойкости С. Мадди в адаптации Д. А. Леонтьева установлены достоверные различия (Z = −5,972; p <0,001), что свидетельствует о выраженной внутригрупповой динамике данного показателя. Аналогичные статистически значимые различия зафиксированы по шкале гибкость опросника стиля саморегуляции поведения В. И. Моросановой (Z = −6,252; p <0,001), шкале результативность (Z = −5,768; p <0,001) и шкале общей саморегуляции (Z = −5,180; p <0,001).

По тесту нервно-психической адаптации И. Н. Гурвича также выявлены достоверные различия между этапами обследования (Z = −6,011; p <0,001), что указывает на статистически значимые изменения адаптационных возможностей личности. Анализ результатов по опроснику волевых особенностей личности М. В. Чумакова показал наличие значимых различий по шкале выдержка (Z = −5,902; p <0,001), шкале целеустремлённость (Z = −6,082; p <0,001) и шкале самостоятельность (Z = −6,372; p <0,001).

Статистически значимые различия также установлены по тесту-опроснику стрессоустойчивости С. Коухена и Г. Виллиансона (Z = −6,340; p <0,001), по опроснику способности к саморазвитию И. В. Зверевой (Z = −4,024; p <0,001) и по шкале коммуникативность теста оценки коммуникативных и организаторских способностей личности В. Синявского и Б. А. Федоришина (Z = −6,247; p <0,001).

Во всех случаях уровень асимптотической значимости критерия Вилкоксона составляет (p <0,001), что свидетельствует о высокой степени достоверности выявленных различий. Полученные результаты указывают на наличие статистически значимой внутригрупповой динамики по всем исследуемым психологическим показателям в экспериментальной группе между первым и вторым психодиагностическими обследованиями и подтверждают обоснованность использования непараметрических методов статистического анализа в рамках данного исследования.

Таблица № 2

Статистическая оценка изменений психологических показателей в контрольной группе по критерию Вилкоксона (n=66)

	Тест жизнестойкости С.Мадди в адаптации Д.Леонтьева (первое обследование) / Тест жизнестойкости С.Мадди в адаптации Д.Леонтьева адаптации Д.Леонтьева (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала гибкости) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала гибкости) (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала результатов) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала результатов) (второе обследование)	Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала саморегуляции) (первое обследование) / Опросник стиля саморегуляции поведения В.И.Моросановой (шкала саморегуляции) (второе обследование)	Тест нервно-психической адаптации И.Н.Гурвича (первое обследование) / Тест нервно-психической адаптации И.Н.Гурвича (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала выдержка) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала выдержка) (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала целеустремленность) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала целеустремленность) (второе обследование)	Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала самостоятельность) (первое обследование) / Опросник волевых особенностей личности М.В.Чумакова (шкала самостоятельность) (второе обследование)	Тест-опросник стрессоустойчивости С.Коухена и Г Виллиансона (первое обследование) / Тест-опросник стрессоустойчивости С.Коухена и Г Виллиансона (второе обследование)	Опросник способности к саморазвитию И.В.Зверевой (первое обследование) / Опросник способности к саморазвитию И.В.Зверевой (второе обследование)	Тест оценки коммуникативных и организаторских способностей личности В.Синявского и Б.А.Федоришина (шкала коммуникативность) (первое обследование) / Тест оценки коммуникативных и организаторских способностей личности В.Синявского и Б.А.Федоришина (шкала коммуникативность) (второе обследование)
Z	-1,880b	-1,473b	-1,069c	-,921c	-1,611b	-1,982b	-,835b	-1,462b	-6,267c	-1,190b	-1,559b
Асимптотическая значимость (2-сторонняя)	,060	,141	,285	,357	,135	,114	,404	,143	,000	,234	,119

Результаты статистического анализа показали, что по большинству исследуемых показателей статистически значимых различий между первым и вторым обследованиями не выявлено (p> 0,05). Так, по тесту жизнестойкости С. Мадди в адаптации Д. А. Леонтьева различия между этапами обследования не достигают уровня статистической значимости (Z = −1,880; p = 0,060). Аналогично, по шкале «гибкость» опросника стиля саморегуляции поведения В. И. Моросановой (Z = −1,473; p = 0,141), по шкале «результативность» (Z = −1,069; p = 0,285) и по шкале общей саморегуляции (Z = −0,921; p = 0,357) достоверных изменений не установлено.

Отсутствие статистически значимых различий также зафиксировано по тесту нервно-психической адаптации И. Н. Гурвича (Z = −1,611; p = 0,135), а также по шкалам опросника волевых особенностей личности М. В. Чумакова: выдержка (Z = −1,982; p = 0,114), целеустремлённость (Z = −0,835; p = 0,404) и «самостоятельность» (Z = −1,462; p = 0,143). Аналогичная картина наблюдается по опроснику способности к саморазвитию И. В. Зверевой (Z = −1,190; p = 0,234) и по шкале коммуникативность теста В. Синявского и Б. А. Федоришина (Z = −1,559; p = 0,119).

Исключение составляет показатель стрессоустойчивости, измеренный с помощью теста-опросника С. Коухена и Г. Виллиансона, по которому выявлены статистически значимые различия между результатами первого и второго обследований (Z = −6,267; p <0,001). Данный результат указывает на наличие выраженной внутригрупповой динамики по данному показателю в контрольной группе, что может быть связано с естественными адаптационными процессами в ходе учебно-образовательной и профессиональной деятельности.

Таким образом, результаты применения критерия Вилкоксона свидетельствуют о том, а выявленное значимое изменение носит единичный характер. Это подтверждает относительную стабильность исследуемых психологических характеристик при отсутствии целенаправленного формирующего воздействия и обеспечивает корректность сравнительного анализа с экспериментальной группой.

На основе анализа отечественных и зарубежных научных источников обоснована структурная модель психологической устойчивости, включающая жизнестойкость, психологическую гибкость, саморегуляцию произвольной активности, адекватность самооценки, нервно-психическую адаптированность, выдержку, целеустремлённость, самостоятельность, стрессоустойчивость, способность к саморазвитию и коммуникативность. Данная модель получила эмпирическое подтверждение в результате экспертной оценки и психодиагностического исследования.

Результаты констатирующего этапа показали наличие у части военнослужащих недостаточной выраженности отдельных компонентов психологической устойчивости, что обусловило необходимость разработки целенаправленной программы психологического сопровождения. В рамках формирующего этапа была реализована трёхмесячная тренинговая программа, включающая 21 занятие, направленное на развитие ключевых личностных ресурсов, навыков саморегуляции и стрессоустойчивости.

Анализ полученных данных продемонстрировал положительную динамику по большинству исследуемых показателей. Участники программы отметили повышение уровня осознанности, улучшение эмоциональной регуляции, развитие навыков планирования и адаптации к изменяющимся условиям профессиональной деятельности. Это свидетельствует об эффективности комплексного подхода, сочетающего развитие личностных качеств и оптимизацию профессиональной среды.

Практическая значимость исследования заключается в возможности внедрения разработанной программы в систему профессиональной подготовки военнослужащих, а также в использовании полученных результатов в деятельности военных психологов и командного состава. Реализация предложенных рекомендаций способствует укреплению психического здоровья личного состава, повышению профессиональной надёжности и общей эффективности служебной деятельности.

Таким образом, цель исследования достигнута, поставленные задачи решены. Перспективы дальнейших исследований связаны с расширением выборки, углублённым анализом динамики отдельных компонентов психологической устойчивости и разработкой долгосрочных программ сопровождения военнослужащих на различных этапах их профессионального становления.

Список литературы.

1. Грицаенко С.В. Формирование эмоциональной устойчивости военнослужащих, проходящих службу в экстремальных условиях // Психологические науки. - 2025. - № 6. - С. 216–222.; McLarnon M.J.W., Rothstein M.G. Resiliency to adversity in military personnel: The role of self-regulation // Military Psychology. - 2021. - Vol. 33, No.2. - P. 104-114.
2. Bartone P. T. Resilience under military operational stress: can leaders influence hardiness? // Military Psychology. - 2015. - Vol. 27, № 4. -P. 235–243.
3. Greenberg N., Wessely S., Jones N. Mental health of UK military personnel: resilience and prevention // Occupational Medicine. - 2015. - Vol. 65, № 1. - P. 14–20.
4. Meredith L. S., Sherbourne C. D., Gaillot S. J., et al. Promoting psychological resilience in the U.S. military // RAND Health Quarterly. -2015. -Vol. 5, № 1.- P. 1–15.
5. Seligman M. E. P., Matthews M. D., McBride S., et al. Comprehensive Soldier Fitness and the future of psychology // American Psychologist. - 2011. - Vol. 66, № 1. - P. 1–12.
6. Thompson M. M., McCreary D. R. Enhancing mental readiness in the Canadian Armed Forces // Journal of Military, Veteran and Family Health. -2016. -Vol. 2, № 1. -P. 44–52.

Bozorova Dilfuza Saydali qizi
O'zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:bozorovadilfuza385@gmail.com

MAS'ULIYATLILIK: PEDAGOG KASBIY KAMOLOTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagog kasbiy faoliyatida mas'uliyatlilikning ijtimoiy-psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda kasbiy samaradorlikka ta'siri empirik tadqiqot asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda O.V. Muxlininaning "Javobgarlikning ko'p o'lchovli funksional diagnostikasi" so'rovnomasi hamda Dj. Rotterning "Sub'ektiv lokus nazorati" shkalasining modifikatsiyalashtirilgan varianti qo'llanildi. Olingan natijalar pedagoglarda mas'uliyatlilikning dinamik, motivatsion, kognitiv va regulyativ komponentlari kasbiy samaradorlik bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Jins va ta'lim muassasasi turiga ko'ra ayrim statistik ahamiyatli farqlar aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *mas'uliyatlilik, kasbiy kamolot, ijtimoiy-psixologik omil, pedagog shaxsi, sub'ektiv nazorat, kasbiy samaradorlik.*

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА

Аннотация. *В статье рассматривается социально-психологическая сущность ответственности в профессиональной деятельности педагога и её структурные компоненты как фактор профессиональной эффективности. В исследовании использованы методика О.В. Мухлиной «Многоуровневая функциональная диагностика ответственности» и модифицированная шкала локуса контроля Дж. Роттера. Результаты показали взаимосвязь динамического, мотивационного, когнитивного и регулятивного компонентов ответственности с профессиональной эффективностью. Выявлены статистически значимые различия по полу и типу образовательного учреждения.*

Ключевые слова: *ответственность, профессиональное развитие, социально-психологический фактор, личность педагога, локус контроля, профессиональная эффективность.*

RESPONSIBILITY: A SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTOR IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER

Annotation. *This article analyzes the socio-psychological nature of responsibility in teachers' professional activity and its structural components as a factor of professional effectiveness. The study employed O.V. Mukhlina's Multidimensional Functional Diagnostics of Responsibility questionnaire and a modified version of J. Rotter's Locus of Control Scale. The findings indicate that dynamic, motivational, cognitive, and regulatory components of responsibility are significantly related to professional effectiveness. Statistically significant differences were identified based on gender and type of educational institution.*

Key words: *responsibility, professional development, socio-psychological factor, teacher personality, locus of control, professional effectiveness.*

Kirish: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar inson kapitali rivojini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berdi. Jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy va iqtisodiy barqarorligi fuqarolarning intellektual salohiyati, ma'naviy yetukligi hamda ijtimoiy mas'uliyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak kasbiy va axloqiy fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining strategik vazifasi hisoblanadi. Bu jarayonda pedagog shaxsining kasbiy kamoloti, uning ijtimoiy-psixologik sifatlari, xususan, mas'uliyatlilik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yoshlarga oid davlat siyosati izchil va qat'iy ravishda amalga oshirilib, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan[1]. Mazkur vazifalar Harakatlar strategiyasi[3], Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida Qonun[4] hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan, pedagogning kasbiy kamoloti tarkibida mas'uliyatlilikni ijtimoiy-psixologik omil sifatida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Zero, zamonaviy ta'lim sharoitida mas'uliyatli pedagoggina yosh avlodning intellektual, ma'naviy va fuqarolik salohiyatini samarali shakllantirishga qodirdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Critical Literature Review). Mas'uliyat fenomeni shaxs psixologiyasi va kasbiy rivojlanish muammolarida markaziy kategoriyalardan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqotning normativ-g'oyaviy asoslari Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalarida ilgari surilgan yoshlar siyosati, ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish g'oyalariga tayanadi[2]. Ushbu manbalarda mas'uliyat shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilati va fuqarolik pozitsiyasi sifatida asoslanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mas'uliyat muammosi asosan "professional responsibility" va "accountability" konseptlari doirasida tahlil qilingan. Karseth B. (2006), Bates L.J. (2007), Macfarlance B. (2014), Fenvik T. va Edvards R. (2016), Solbrekke T.D. tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida kasbiy javobgarlik chegaralari, institutsional nazorat, avtonomiya va hisobdorlik munosabatlari yoritilgan[5,6]. Mazkur yondashuvlar mas'uliyatni tizimli-institutsional mexanizm sifatida tahlil qilib, uning tashkiliy va huquqiy asoslarini ochib beradi. Biroq ushbu tadqiqotlarda mas'uliyatning shaxsiy-psixologik tabiati, uning motivatsion, kognitiv va refleksiv komponentlari yetarlicha chuqurlashtirilmagan. Natijada, pedagogning ichki kasbiy pozitsiyasi va ijtimoiy rolini uyg'unlashtiruvchi omil sifatida mas'uliyat muammosi kompleks ko'rinishda tadqiq etilmagan.

Rossiya psixologiyasida mas'uliyat muammosi shaxs faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi integrativ xususiyat sifatida o'rganilgan. S.V.Bikov, S.A.Gavrulushkin, S.F.Anisimov, T.N.Sidorova, R.I.Kosolapov, V.S.Markov, J.E.Zavadskiy, A.Plaxotniy, L.V.Shevchenko, K.Muzdibaev, M.S.Stogovich, L.I.Dementiy, O.V.Muxlinina, O.N.Bolshakovlar ishlarida mas'uliyat ichki va tashqi lokus nazorati, axloqiy me'yorlar, intizom, majburiyat hissi hamda kognitiv-emotsional-xulqiy komponentlar birligi sifatida tahlil etilgan[7,8]. Bu yondashuv mas'uliyatning psixologik strukturasini tavsiflashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ko'p hollarda u umumiy shaxsiy sifat sifatida qaralib, aniq kasbiy kontekstda, xususan pedagogik faoliyat tizimida uning determinantlari va rivojlanish dinamikasi yetarli darajada yoritilmagan.

Yosh davrlari psixologiyasi doirasida O.Tenyaeva (2011) deviant xulqli o'smirlarda mas'uliyat shakllanish xususiyatlarini tahlil qilgan, O.A.Kazanseva esa shaxsiy mas'uliyatning inson hayotiy faoliyati va shaxs kamoloti jarayonidagi ahamiyatini asoslab bergan[9]. Ushbu ishlar mas'uliyatning ontogenetik rivojlanishini tushunishda muhim nazariy asos yaratadi. Biroq ularda kasbiy ijtimoiylashuv bosqichida, ayniqsa pedagogik faoliyat sharoitida mas'uliyatning transformatsiyasi va kasbiy identifikatsiya bilan bog'liq jihatlari maxsus tadqiq ob'ekti sifatida ajratilmagan.

Milliy ilmiy maktab vakillari tomonidan ham mas'uliyat turli yo'nalishlarda o'rganilgan. D.G.Muxamedova ta'lim menejmentida boshqaruv faoliyatini optimallashtirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qilgan, U.B.Sultonov kasbiy motivlar va xizmatga tayyorlikning psixologik determinantlarini asoslagan, A.A.Saidov rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muammolarini yoritgan[5]. N.S.Safaev mas'uliyat kategoriyasining faol (pozitiv) va retrospektiv (negativ) jihatlarini psixologik-falsafiy nuqtai nazardan differensiatsiya qilgan, N.S.Sagindikova esa talabalarda mas'uliyatning gender tafovutlarini tadqiq etgan[10,11].


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotlar mas'uliyat muammosining alohida qirralarini ochib bersa-da, pedagog shaxsining kasbiy kamoloti tizimida mas'uliyatni ijtimoiy-psixologik integrativ omil sifatida modellashtirish masalasi yetarli darajada konseptuallashtirilmagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holada tadqioqtlarni o'rganish muhim.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mas'uliyat fenomeni turli fanlar kesimida keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning pedagog kasbiy kamoloti tizimida ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo'lish mexanizmlari yetarlicha empirik asoslanmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning mazkur bosqichi mas'uliyat tushunchasining mazmuniy va struktura xususiyatlarini


aniqlash hamda pedagoglar kasbiy faoliyatida uning psixologik namoyon bo‘lishini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratildi.

Etimologik jihatdan “mas’uliyat” atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, “javob bermoq”, “javobgar bo‘lmoq” ma’nolarini anglatadi. Psixologiyada mazkur tushuncha shaxsning faoliyat sub’ekt sifatidagi pozitsiyasi, qaror qabul qilishdagi ongli tanlovi, axloqiy me’yorlarga rioya etishi va o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini anglashi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Mas’uliyat kognitiv (anglash va baholash), emotsional (burch, vijdon, g‘urur, xavotir hislari) hamda xulqiy (me’yoriy faoliyat, intizom, o‘zini boshqarish) komponentlar birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan u nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, huquqshunoslik va falsafa sohalarida ham tadqiq ob’ekti hisoblanadi. Ta’lim tizimida faoliyat samaradorligi va sifat ko‘rsatkichlari bevosita pedagoglarning kasbiy javobgarligi darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqotning ob’ekti, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagoglar kasbiy faoliyatida mas’uliyatning psixologik jihatlarini o‘rganish maqsadida empirik tadqiqot tashkil etildi. Mazkur tadqiqotda mas’uliyat darajasi va uning struktura komponentlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar tanlandi va amaliyotga joriy etildi. Tadqiqotda jami 100 nafar pedagog ishtirok etdi. Jins taqsimotiga ko‘ra, 89,2 % (90 nafar) ayol pedagog va 10,8 % (11 nafar) erkak pedagog sinaluvchi sifatida qatnashdi. Olingan natijalar qo‘llanilgan metodikalar shkalalari bo‘yicha statistik va sifat jihatdan tahlil qilindi.Tahlil jarayonida pedagoglarda mas’uliyatning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi kuzatildi. Ayniqsa, kasbiy burchni anglash va faoliyat natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni qabul qilish darajasi yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Bu holat pedagog kasbiy kamoloti tizimida mas’uliyatning regulyativ va motivatsion funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim sinaluvchilarda mas’uliyatning emotsional komponenti (tashvish, xavotir, yuqori burch hissi) yuqori darajada namoyon bo‘lishi professional zo‘riqish xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi.



Tadqiqot jarayonida sinaluvchilarni turli jihatlar bo‘yicha kompleks tahlil qilish maqsadida ko‘p shkalali psixodiagnostik metodikalar qo‘llanildi. Pedagoglar kasbiy faoliyatida mas’uliyat darajalarini yosh bo‘yicha taqsimotini aniqlash uchun tadqiqotga ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi 100 nafar pedagog jalb qilindi.



Olingan natijalarga ko‘ra, yosh kategoriyalari bo‘yicha sinaluvchilar taqsimoti quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi:

20–30 yosh oralig‘ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 44 nafar (43,7%),

30–40 yosh oralig‘ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 37 nafar (36,8%),

40–50 yosh oralig‘ida faoliyat olib boruvchi pedagoglar – 19 nafar (18,8%).

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, eng katta ulush 20-40 yosh oralig‘idagi pedagoglar hissasiga to‘g‘ri keladi, bu pedagogik jamoalarda yoshlar va o‘rta yoshdagi mutaxassislar faoliyatining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mas’uliyat darajasining yosh bilan bog‘liq dinamikasi kasbiy tajriba, shaxsiy motivatsiya va emotsional resurslar bilan uyg‘unlikda tahlil qilinishini talab qiladi.

Tadqiqotda sinaluvchi sifatida turli yoshdagi pedagoglar qatnashdi, bu esa natijalarda ob’ektning turli yo‘nalishlari va individual xususiyatlarini aks ettirish imkonini berdi. Yosh davrlari va kasbiy staj kabi sifatlar tadqiqot natijalarini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular mas’uliyatning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sinaluvchilar 20–30, 30–40 va 40–50 yoshdagi pedagoglardan iborat bo‘lib, shuningdek, 50 yoshdan yuqori pedagoglar ham tadqiqotda ishtirok etishdi. Eng katta diqqat yangi faoliyat boshlagan pedagoglarga qaratildi, chunki ularning ish tajribasi va kasbiy malaka ko‘nikmalari hanuz yetarlicha rivojlanmaganligi ta’lim samaradorligiga ta’sir etishi mumkin. Shu bilan birga, bir necha yildan buyon kasbiy faoliyat olib borayotgan pedagoglarda fan predmetlarini tushunish va amaliyotda qo‘llash qobiliyati yuqori bo‘lib, bu natijalarning samaradorlik va yuqori mas’uliyat darajasida namoyon bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

Individual psixologik holatlar, kasbga munosabat, shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlar va boshqa subektiv omillar ham tadqiqot natijalarining variativligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan, yosh va kasbiy tajribani hisobga olgan holda pedagoglarda mas’uliyatning turlicha namoyon bo‘lishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tadqiqot natijalarini interpretatsiya qilishda yosh va staj faktorlarini integrativ ravishda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Psixologik nazariyada mas’uliyat shaxsning o‘z harakatlari natijalarini belgilangan maqsadlarga, jamiyatda yoki jamoada qabul qilingan me’yorlarga muvofiq baholash qobiliyati sifatida ta’riflanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagoglarda mas’uliyatning barcha tarkibiy komponentlari – dinamik, motivatsion, kognitiv, samarali, hissiy va tartibga soluvchi – kasbiy faoliyatning samaradorligi va ta’lim sifatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Yosh va kasbiy staj faktorlari mas’uliyatning har bir komponentida namoyon bo‘lish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yangi faoliyat boshlagan pedagoglarda kognitiv va samarali komponentlar nisbatan pastroq bo‘lib, ta’lim jarayonida qaror qabul qilish va vazifani samarali bajarishda qiyinchiliklar keltirishi mumkin. Bunga qarshi, tajribali pedagoglarda mas’uliyatning barcha komponentlari yuqori darajada namoyon bo‘lib, bu pedagogik jarayonlarda samaradorlik va ustuvor natijalarga erishishga imkon beradi.

Individual psixologik xususiyatlar, shaxsiy qiziqishlar va kasbiy motivatsiya ham natijalardagi variativlikni aniqlaydi. Shuningdek, pedagoglarning mas’uliyatining yuqori darajada bo‘lishi nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi, faollik va ijtimoiy-ehtiyojlarini qondirishga ham yordam beradi. Bu jihat pedagoglarning professional kamoloti, jamoaviy samaradorlik va ta’lim muassasalarida barqaror pedagogik muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Takliflar sifatida; birinchidan, pedagoglarning kasbiy malakasi va mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish orqali yangi faoliyat boshlagan pedagoglar uchun kognitiv va samarali komponentlarni shakllantirish bo‘yicha treninglar va amaliyotlar tashkil etilsa, shuningdek, tajribali pedagoglar uchun esa emotsional va vijdonlilik komponentlarini mustahkamlashga qaratilgan seminarlar, kouching va malakani yangilash kurslari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq,

ikkinchidan; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ichki motivatsiyani kuchaytirish orqali pedagoglarning ish jarayonida samarali fikrlash va mas’uliyatni oshirish uchun rahbariyat tomonidan individual qo‘llab-quvvatlash tizimlari yanada kuchaytirish,

uchinchidan; mas’uliyat darajasi va kasbiy samaradorlikni baholashda yosh, staj va individual psixologik xususiyatlar asosiy mezon sifatida qo‘llash hamda pedagoglar uchun o‘z faoliyatini tahlil qilish va muntazam refleksiya qilish imkoniyatini beruvchi amaliyot dasturlari joriy etilib, ularning professional o‘sishini ta’minlash imkoniyatini yaratish,

to‘rtinchidan; hamkorlik va tajriba almashinuvi sohasida yangi va tajribali pedagoglarning bilim va tajribasini integratsiya qilish uchun turli amaliyot markazlari va seminarlarda hamkorlik tizimlari yaratish orqali pedagoglar orasida kasbiy hamkorlikni mustahkamlash natijasida mas’uliyatning barcha komponentlarini rivojlantirishga ko‘maklashash va ta’lim jarayonida samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi..

Mazkur takliflar pedagogik jarayonda mas’uliyatni rivojlantirish va ta’lim sifatini yuqori darajada ta’minlashga qaratilgan real va amaliy chora-tadbirlar sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Mirziyoev Sh.M. Yoshlarga oid davlat siyosatiga bag‘ishlangan ma’ruzalar va chiqishlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanlangan asarlar va ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi O‘RQ–406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Solbrekke N.D., Karseth B. Professional responsibility-an issue for higher education.-Higher Education , -№52 (1), 2006-p.95;Bates, M Bates L.J. Preparing students for the profession workplace : Who has responsibility for what .-Asia pacific Journal of Cjjperetive Education ,2007-№8(2).-p.121-129.Cebtral Professionl Responsibility.-New Horizons of praxis ,2004.-P.72

6. Fenwick T.,-Edwards R.Exploring the impact of digital technologies on professional responsibilities and education -European Education Reserch Journal,2006-№ 15(1).-P.117-131.

7.Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Том 2. – Санкт-Петербург – Москва, 2000. – С. 480.

Ismoilova Sevara Ravshanovna
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail:kshoxsanam18@gmail.com

YOSH OILALARDA OILAVIY MUNOSABATNING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh oilalarda oilaviy munosabatlarning shakllanish jarayoni va uning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nikohning dastlabki bosqichida yuzaga keladigan moslashuv jarayoni, emotsional yaqinlikning rivojlanishi, rol va majburiyatlarning taqsimlanishi, muloqot madaniyati hamda konfliktlarni boshqarish masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq psixologik o‘zgarishlar va ularning er-xotin munosabatlariga ta’siri ochib beriladi.*

Kalit so’zlar: *yosh oila, oilaviy munosabat, psixologik moslashuv, emotsional yaqinlik, muloqot, konflikt.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс формирования семейных отношений в молодых семьях и его психологические особенности. Научно освещены адаптационный процесс, происходящий на ранних этапах брака, развитие эмоциональной близости, распределение ролей и обязанностей, культура общения и разрешения конфликтов. Также раскрыты психологические изменения, связанные с рождением ребенка, и их влияние на супружеские отношения.*

Ключевые слова: *молодая семья, семейные отношения, психологическая адаптация, эмоциональная близость, общение, конфликт.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF FAMILY RELATIONSHIPS IN YOUNG FAMILIES

Abstract. *This article analyzes the process of developing family relationships in young families and its psychological characteristics. It provides a scientific overview of the adaptation process that occurs in the early stages of marriage, the development of emotional intimacy, the distribution of roles and responsibilities, and the culture of communication and conflict resolution. It also explores the psychological changes associated with the birth of a child and their impact on marital relationships.*

Key words: *young family, family relationships, psychological adaptation, emotional intimacy, communication, conflict.*

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti hisoblanadi. Uning barqarorligi ko‘p jihatdan yosh oilalarda shakllanayotgan munosabatlarning sifatiga bog‘liq. Nikohning dastlabki yillari o‘ziga xos psixologik sinov davri bo‘lib, aynan shu bosqichda o‘zaro tushunish, ishonch va hurmat kabi qadriyatlar mustahkamlanadi yoki zaiflashadi. Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o‘zbek xalqining qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnag‘ini ta’minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o‘zaro munosabatlari majmui bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa yosh oilalarda ota-onalik ma’suliyatini o’z zimmasiga olib o’zaro munosabatlar tizimini to’g’ri shakllantirish jarayonlarida kuzatiladi.

Psixologik moslashuv jarayoni Nikohdan so‘ng er-xotin yangi ijtimoiy rolga kiradi. Bu jarayonda ular bir-birining xarakteri, qadriyatlari, odatlari va hayot tarziga moslashadi. Moslashuv davrida quyidagi holatlar kuzatiladi:

Individual xususiyatlarni qabul qilish
Shaxsiy “Men” va “Biz” tushunchalari o‘rtasida muvozanat topish
Qarorlarni birgalikda qabul qilishga o‘rganish
Moslashuv muvaffaqiyatli kechsa, oila ichida psixologik barqarorlik yuzaga keladi.

Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya’ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to’g’riroq bo’lib, qachon turmush qurganligidan qat’iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma’noda katta mehnat stajiga ega bo’lmaydi, va ko’p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo’lib, uy bekasi bo’lib o’tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo’yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko’ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o’rtacha ko’rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag’batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo’yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo’lishi ham mumkin.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:
• juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
• yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
• o’rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
• katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko‘plab olimlarning ta’kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o’zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo’lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo’lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg’un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko’rgan-kechirganlarini uchun o’z oilasida qo’llay bilish mahoratiga bevosita bog’liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog’liq tarzda namoyon bo’ladi:

• oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta’minlash, ishlash, o’qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;
• vaqtni yaxshi o’tkazish, ko’ngilxushliklarning cheklanganligi;
• yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;
•iqtisodiy qiyinchiliklar.

Yosh oilalarda munosabat tizimi asosiy rol o’ynaydi bunda ikki yoshning bir - birini tushunishi evaziga oiladagi tashqi ta’sirlarning yuzaga kelishining oldini olinadi. Psixologik nuqtai nazardan biologik,psixologik hamda ijtimoiy qovushish turlarining o’zaro almashib turishi yosh oilalardagi o’zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko‘rsatadi. 40 yillik faoliyati davomida doktor Bouen yangi nazariyani hamda uning nazariyasiga asoslangan yangi psixoterapiya usulini ishlab chiqdi. Bouen nazariyasining uni an’anaviy psixoterapiya nazariyasidan ajratib turadigan asosiy asosi: oila - bu hissiy birlik va oila emotsional birlikning bir a’zosining hissiy faoliyatidagi har qanday o‘zgarish taxminiy va avtomatik ravishda hissiy faoliyatdagi o‘zgarishlar bilan qoplanadi. Bouen uchun avvalgi an’anaviy psixologiya o‘ylaganidek shaxs emas, balki hissiy faoliyatning asosiy birligi bo‘lgan. Ushbu tamoyil ikkita muhim ahamiyatga ega: 1) har bir oila a’zosining hissiy faoliyati, bitta oila a’zosida tibbiy, psixiatrik yoki ijtimoiy kasallik paydo bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi va 2) davolash simptomatik odamga qaratilishi shart emas. Semptomatik odamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri davolanishga majbur bo‘lmaslik, og‘ir klinik holatlarga yangi moslashuvchanlikni keltirib chiqardi - masalan, simptomatik odam terapiyadan voz kechgan yoki faqat oila bosimi ostida terapiyaga borgan. Binobarin, agar oilaning bir a’zosi o‘zining hissiy faoliyatini o‘zgartirishi mumkin bo‘lsa, agar u o‘zi mavjud bo‘lsa va u oilada hisobga olinadigan bo‘lsa, butun oila o‘sha odamning o‘zgarishi qobiliyatiga javoban o‘z faoliyatini yaxshilaydi. Bu sinaluvchilarga «oilaviy terapiya», albatta, butun oila a’zolari bilan maslahatlashuvlarni anglatishini tushunishiga yordam berishi kerak.

Aksincha, «oilaviy terapiya» bu oila a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatni kontseptsiyalashtiradigan fikrlash uslubiga asoslangan maslahatdir.

Ushbu asosda Bouen o'zining nazariyasini aks ettiruvchi sakkizta prinsipni ishlab chiqdi: 1) o'zlikni farqlash, 2) uchburchak, 3) yadroviy oilaviy hissiy jarayon, 4) oilani proektsiyalash jarayoni, 5) ko'p avlodlarni uzatish jarayoni, 6) birodarlarning pozitsiyasi, 7) hissiy uzilish va 8) jamiyatdagi hissiy jarayonlar. An'anaviy nazariy til ushbu kuzatuvlarni yetarli darajada tavsiflamaganligi sababli, Bouen oilaviy diagrammalarni chizgan. Ushbu diagrammalar yoki «oilaviy daraxtlar» bebaho bo'lib chiqdi, chunki ular 1) o'yinchilarni to'g'ri ushlab turishga yordam berishdi, 2) muhim oilaviy faktlarni tuzishdi, 3) murakkab oilaviy naqshlarni aniq geshtaltini taqdim etishdi 4) terapevt va mijozga qanday qilib faraz qilishda yordam berishdi klinik muammo oilaviy kontekst bilan bog'liq edi va muammo va kontekst vaqt o'tishi bilan qanday rivojlandi va 5) terapevt va bemor uchun tizimlarning fikrlashini osonlashtirdi. Oilaviy diagrammalarni chizish amaliyoti Monika Makgoldrik tomonidan «Genograms in Family Assessment» nomli nashrida yagona terapevtik vosita sifatida ishlab chiqilgan. Keyinchalik, genogramma oilaviy tizimlar nazariyasining ramziga aylandi2 . Yuqoridagi ilmiy nazariyalarning amaliy ahamiyati sifatida yosh oilalarda munosabatlar tizimini tashkillashtirish asosida quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega sifatida izohlanadi.

1. Ikki yoshning bir-birini hurmat qilishi
2. Er-xotin rolidagi o'zaro bog'liqlik holati
3. Bir-birini tushunish va qo'llab quvvatlash asosida oila tizimini shakllantirish
4. Ota-onalik hamda kelin-kiyov ma'suliyatini to'g'ri anglash orqali munosabatlarni shakllantirib boorish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Психология семъя: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. – Т.:, 2007. – 316 с.
2. Bowen, Murray (1966), "Klinik amaliyotda oila nazariyasidan foydalanish", Klinik amaliyotda oilaviy terapiya (qayta nashr etilgan), Lanham, MD: Rowman and Littlefield (nashriyot 2004), 147-181 betlar,
3. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования ред. Е. Г. Силяева М.: Издательский центр «Академия», 2002.
4. Тойирова Л. И. ПСИХОДИАГНОТИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ДВОЙНЫХ ПАР БЛИЗНЕЦОВ //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 1113-1115.
5. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.
6. Ш.Тойирова, Бухоро давлат университети Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар Научнометодический журнал «Искусство и культура Востока» - (2) I / 2020 ISSN 2181- 063X http://oac.dsmi-qf.uz
7. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВ-БЛИЗНЕЦОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ //негізі» атты халықаралық білім беру онлайн-конференциясының материалдары.–. – 2019. – С. 113.
8. Тойирова Л. И., Абдуганиева Д. А. ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ: С УЧЕТОМ ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ //Перспективные этапы развития научных исследований: теория и практика. – 2019. – С. 21-23.
9. Тойирова Л. Эгизаклар ривожланиш босқичларидаги ўзига хос психологик хусусиятлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). 10. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF THE WORLD Toyirova Laylo Izatovna, Nazarov Azamat Sattorivich

Кадиркулова Жадыра Ерлан кызы
Исследователь Национального университета Узбекистана

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ПРОКРАСТИНАЦИИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В этой работе мы обратили внимание на довузовскую подготовку учащихся к профессии учителя. Одной из важных проблем, связанных с подготовкой высококвалифицированных учителей является правильная и своевременная ориентация учащихся общеобразовательной школы на педагогические профессии.*

Ключевые слова: *Профессия, профориентация, педагогическая деятельность, обучения, воспитания.*

BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARNI NAZARIY VA AMALIY TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK BILIMLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu ishda o‘quvchilarni o‘quvchilik maktab yillarida o‘qituvchilik kasbini tanlashga yo‘naltirish ishlarini tahlil kildik. Yuqori malakali o‘kituvchilarni tayerlash bilan boglik muxim muammolardan biri udumtalim maktablari o‘kuvchilarini pedagog kasblarga tog‘ri va o‘z vaktida yo‘naltirishdir.*

Kalit so‘zlar: *Kasb, kasbga yo‘naltirish, pedagogik faoliyat, o‘qitish, ta’lim.*

Введение. Современный специалист любой отрасли сможет успешно выполнять свои функции, если он получит глубокую теоретическую и практическую подготовку, которая даст ему возможность не только успешно решать конкретные практические задачи, но и непрерывно повышать профессиональное мастерство, обновлять и пополнять свои знания.

Важную роль здесь играет единство всех трех этапов его подготовки: до вузовского, вузовского и послевузовского, хотя каждый из них имеет свои особые задачи. Практическая подготовка учителя и развитие его мотивационно-ценностной сферы - единая основа, обеспечивающая преемственность всех трех этапов.

Одной из форм, реализующих задачу ориентации учащихся на педагогические профессии, служит педагогические классы. Анализ работы этих классов показал, что основной контингент подклассов (77,7%) составляют учащиеся с устойчивым интересом к профессии учителя. Ведущими мотивами такого выбора являются, как писали сами ученики, чувство любви (27,7%), потребность в общении с ними (21,7%), осознание общественной значимости педагогической деятельности (11,7%). Большую роль в выборе учительской профессии играл и личный пример родителей (2,6%) учащихся, я также деятельность учителей школы (4,3%).

Методология и методика исследования. Исследования построено на базе социальной методологии психологической науки. Теоритической и методологической основы исследования явились работы В.Крутецкого, М.Давлетшина, Э.Газиева, Г.Шоумарова, В.Каримовой, Д.Мухамедовой, Н.Мажидова и др.

Для изучения психологических характеристик деятельности учащихся и её зависимости от социально – психологических факторов был разработан комплекс методик: интервью, беседа, анкетирование, наблюдение, аналаиз документов.

Результаты исследования. Опыт работы с учащимися педагогических классов показал, что решающую роль в профессиональном самоопределении имеет специальная двухгодичная педагогическая подготовка. В процессе этой подготовки происходило, во-первых, ознакомление учащихся с психолого-педагогическими знаниями, во-вторых, углубление знаний по предметам, развитие самостоятельности, формирование организаторских умений.

О развитии и формировании педагогических интересов и склонностей, и в целом теоретической подготовке учащихся педагогических классов к профессии учителя, можно сулить по анализу действующей учебно-методической документации. На теоретические и практические занятия по курсу отводятся четыре часа в неделю.

Теоретические занятия по педагогике и психологии отличаются от вузовских содержанием, как это видно из учебного плана, формами преподнесения материала. Так, например, для подготовки занятий по психологии мы использовали "Занимательную психологию" К.К.Платонова, книгу Я.П.Коломинского "Человек: психология", книгу В.А.Крутонского "Основы педагогической психологии", и передача знаний происходила с помощью проблемного изложения, что способствовало формированию не только педагогической, но и познавательной направленности. Этому также способствовали практические занятия по педагогике и психологии, на которых школьники учились проводить психологические исследования, решали педагогические и психологические задачи, разыгрывали сюжеты из повседневной педагогической деятельности, проводили ролевые игры.

В системе теоретической и практической подготовки учителя первым психолого-педагогическим курсом, с которым знакомились будущие учителя, являлись "Введение в учительскую специальность". Согласно объяснительной записке и программе, задачи этого курса:

раскрыть роль учительского труда, показать его значимость;

дать учащимся представление о специфике труда учителя, о требованиях, предъявляемых к людям этой профессии;

ознакомить учащихся с различными видами профессионально педагогического труда;

выявить и изучить школьников, обладающих объективными данными для успешной педагогической деятельности, воспитать у них интерес к педагогическому труду и конкретным педагогическим профессиям;

создать условия для формирования устойчивого и глубокого интереса к избранной профессии;

воспитать у учащихся, проявивших склонность к педагогическому труду, необходимые для успешной педагогической деятельности черты характера, свойства личности, элементарные педагогические умения, развить педагогические способности;

подготовить школьников, обладающих устойчивым и глубоким интересом к педагогической профессии, активно и успешно участвующих в деятельности с элементами педагогического труда, к поступлению в педагогические учебные заведения, пробудить желание приобрести уже в школьные годы начальные психолого-педагогические знания и некоторые умения и навыки.

Мы проводили уроки-лекции по этому плану: На первой лекции "Введение в учительскую специальность" на тему: "Педагогическая профессия и ее роль в обществе, говоря об учительской профессии, требованиях, предъявляемых к учителю, ученикам сообщается о том, что учитель должен постоянно заниматься самообразованием, что только с помощью можно совершенствовать педагогическое мастерство, обогащаясь новыми методами воспитания и обучения подрастающего поколения и расширять общекультурный кругозор.

Приводимые высказывания великих мыслителей о значении самообразования и самовоспитания и примеры из практической жизни убеждают учеников в том, что, уже обучаясь в педагогическом классе, надо сочетать учебную работу с самообразовательной и с ее помощью, расширять и пополнять знания. Сбритая внимание учеников на то, что им, будущим педагогам, предстоит на практике решать задачи подготовки подрастающего поколения к жизни,

выбору профессии, воспитания у учащихся интерес к знаниям и потребности в них, необходимо формировать рациональные приемы самообразовательной работы.

В теме "Характеристика профессиональной деятельности учителя школы" при характеристике профессионально-педагогической деятельности учителя рассматриваются функции, выполняемые учителем. В вопросе о психолого-педагогической подготовке учителя кратко раскрываются общие и специальные педагогические способности.

Курсы "Введение в специальность", "Методика воспитательной работы" знакомят учеников е важнейшими теоретическими и практическими проблемами воспитания, возрастные роли школы и учителя в обществе.

Углубление знаний основных вопросов способствуют семинарским и практически занятия по педагогике и методике воспитательной работы. В план семинарского занятия по педагогике мы включали вопрос о руководстве педагогической деятельности школьников в свободное время.

На занятиях по курсу методики воспитательной работы продолжается углубление знаний учеников, совершенствование практических.

В вооружении учеников педагогического класса, педагогическим навыкам, большую роль играет коллективный обзор трудов классиков педагогики и психологии.

Жизнь и деятельность выдающихся ученых, связавших свою судьбу с педагогической практикой, представляет особо ценный материал для убеждения школьников в том, что педагогическое дело - самое важное, благородное, творческое.

"Мы изучали биографию многих педагогов. Но больше всего меня потрясла биография А.Авлоний. Я хочу стать учителем, но мне далеко до такого характера. По-моему, после рассказа о А.Авлоний я стала даже немного усидчивее" (Умида И.).

При изучении раздела "Основы психологопедагогических знаний" учащиеся получили сведения из области психологии по следующим темам: "Психологическая характеристика личности", "Общая характеристика деятельности личности", "Психологические особенности детей различного возраста", "Межличностные отношения в коллективе" и т.д

Сам исследователь выступал в роли куратора педагогических классов и преподавателя специальных психолого-педагогических дисциплин: "Основы обшей психологии", "Психология самовоспитания" и "Возрастная психология".

Не занятиях, ученики учились понимать сложную и противоречивую личность ребенка, устанавливать с ним правильные взаимоотношения, знакомились с методами и приемами работы с родителями.

Так, в процессе изучения основ педагогики и психологии у учащихся наблюдается развитие межличностного взаимодействия, рост интереса к проблемам формирования личности, становление их мировоззренческой позиции и одновременно творческого отношения к решению педагогических задач.

Анализ эффективности самостоятельных работ в аспекте исследуемой проблемы приводит к выводу о том, что задания, включенные в самостоятельную работу по психолого-педагогической проблематике, лают большую возможность ученикам активно познавать сущность педагогической деятельности учителя, знакомиться с основами педагогического мастерства. Все вопросы теоретического курса тесно связывались с практической деятельностью школьников по оказанию помощи педагогическому коллективу школы в учебно-воспитательной работе. При изучении первой теоретической части школьники узнали о конкретных путях и формах непосредственного участия в практической деятельности школы. При изучении многих тем, связанных с психолого-педагогическими знаниями, содержанием и деятельностью учителя, ученикам педагогического класса давались самостоятельные индивидуальные и коллективные педагогические задания: определить причины низкой успеваемости конкретного ученика, выявить проблемы и типичные ошибки в его знаниях по тому или иному предмету. Практиковалось прикрепление членов класса к слабым учащимся с определенным педагогическим заданием, например, вести наблюдение за учеником с целью выяснения причин его плохой успеваемости, отставания; составить психолого-педагогическую характеристику отстающего (или передового) ученика, анализируя его интерес к учебе и к тем предметам, по

которым у него положение благополучно, устойчивость внимания на уроках, состояние памяти, наличие умений и навыков самостоятельного выполнения заданий учителя в классе и дома; определить возможные пути преодоления отставания в учебе. У учащихся такой подход к раскрытию педагогических проблем вызвал особый интерес. Учащиеся десятого педагогического класса выступали в роли учителей. Они выступали на уроках с докладами, с демонстрацией изготовленных приборов, пособий или собранных коллекций; комментировали устные ответы своих товарищей; проверяли письменные работы; выборочно проверяли отдельные виды письменных работ, проводили пробные уроки. И мы пришли к выводу, что, если не придать всем этим видам труда педагогическую направленность, процесс формирования интереса к педагогической профессии не произойдет.

Основным условием формирования у старшеклассников отношения к педагогическому труду как делу творческому являлась организация их самостоятельной поисковой работы с детьми. Поисковые задания помогали старшеклассникам наиболее полно и глубоко почувствовать творческий характер педагогической деятельности.

Работе, имеющей характер поиска, сопровождалась не только интеллектуальным, но и значительным волевым и эмоциональным напряжением. Повышающиеся в связи с этим активность и самостоятельность учащихся способствовали формированию и проявлению их педагогических способностей. Учащиеся вернее и глубже понимали своеобразие трудностей в работе учителя.

Создание в процессе пробы сил проблемных ситуаций, придание работе старшеклассников поискового характера - этим значительно эффективнее можно убелить учащихся в том, что работа учителя - работа творческая.

Деятельность учителя в какой бы форме она ни протекала, - это сложный по-своему психологическому содержанию труд, требующий от человека высокой идейности, четко выраженной профессиональной направленности, прочных знаний и устойчивых интересов, знаний законов детсада, теории и практики обучения и воспитания.

Но, деятельность учащихся педагогических классов отличается от профессиональной деятельности и является своеобразной по своим целям, задачам, содержанию и способам осуществления. Деятельность учащихся профессионально направлена, она является формой его социальной и познавательной активности, выражения стремлений к жизненному самоопределению и самоутверждению.

Во время "пассивной" педагогической практики ученики не принимали участия непосредственно в учебном процессе, а занимались в основном внеклассной работой в качестве помощников классных руководителей, воспитателей групп продленного дня старост. Подобная форма, не ограниченная рамками учебного плана и структурой классного урока, позволяла расширить важности приобщения учеников к воспитательной работе. Кроме того, пассивная практика учеников педагогического класса решила ряд задач формирования общественной активности будущих учителей, расширения сферы их политического и педагогического общения с людьми, обогащения психолого-педагогическими знаниями, вооружения умениями и навыками воспитательной работы с детьми, воспитания устойчивого интереса и любви к избранной профессии, потребности в самообразовании. Через систематические упражнения в различных видах деятельности ведущий учитель постоянно переходил к деятельности самостоятельной, обогащенной осознанием своей роли как педагога.

Включение учеников в реальную педагогическую работу с детьми позволял решить конкретные задачи профессиональной подготовки учащихся подготовить их психологически и практически к педагогической деятельности; сформировать конкретное представление о современной школе, педагогическом процессе и функциях учителя в нем.

Участие в данных видах работ, во-первых, развивает у учащихся организаторские способности, заключающиеся в выработке навыков и умений по организации детского коллектива и проведения воспитательной работы; во-вторых, вырабатывается умение устанавливать правильные взаимоотношения с коллективом с отдельными учащимися, умение психологического изучения детей; в-третьих, вступая в качестве, воспитателей во взаимоотношения с кол-

лективом, отдельными учащимися и воспитывая других, эти ученики учатся на их недостатках; в-четвертых, повышают общественную сознательность, критичность, творчество, развивают чувство коллективизма, товарищества.

Следующим видом практической проверки себя на учительской работе является шефство нал школьниками младших классов, работа с отстающими учащимися.

При выполнении этих работ вырабатываются навыки и умения в преподавательской деятельности, в частности, умение преподнести объяснимый материал.

"Я, наверно, и не пришел бы к выбранному решению, если бы не имел своего рода практики, не был в роли учителя. Но такая возможность была. Во-первых, у меня есть брат, сейчас он учится в 6 классе. И для меня всегда было большим удовольствием объяснять ему что-либо, суметь найти доходчивые образы, выражения, ответить на его вопросы. Во-вторых, вступив в союз молодёжи, я выбрал себе общественную работу с неуспевающими, был ответственным за них" (Бекзод.М).

Практика работы показывает, что все эти виды работ дисциплинирует учащихся, повышают успеваемость и укрепляют профессиональный интерес.

Развитие и формирование профессиональных умений и учеников, процесс непрерывный.

Заключение. Анализ результатов проведенного исследования позволяют сделать следующие выводы: На теоретическую и практическую подготовку будущего учителя, оказывает определенное влияние изучение цикла общественно- политических, психолого-педагогических и специальных дисциплин. В процессе усвоения фактического материала ученики учатся правильно объяснять научные факты и явления с позицией диалектического материализма, творчески подходить к изучению различных вопросов. Изучение специальных дисциплин формирует научное мировоззрение, развивает мыслительные способности учеников.

В теоретической подготовке будущих учителей важную роль занимает психология. Слушая этот курс, будущие учителя знакомятся научными основами работы, с детьми, которые необходимы для, организации учебно-воспитательной работы в школе с учетом возрастных и индивидуальных особенностей детей.

На теоретическую и практическую подготовку будущих учителей оказывают влияние на включение учеников в различные виды работы с элементами педагогического труда.

Список использованных литератур.

1. Н.Мажидов. Факторы, влияющие на креативный выбор профессии учителя./ Педагогическое образование и наука. Научно-методический журнал № 6, 2021. Ст. 103-107

2. Н.Мажидов. Самостоятельные изучения профессии учащихся.

Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в xxi веке». Выпуск №20 (том 2) (ноябрь, 2021). Дата выхода в свет: 30.11.2021. Ст. 877-882

3.Н.Мажидов. Роль профессиографической беседы в выборе профессии.

“O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali «best publication» ilm-ma’rifat markazi © materiallari to‘plami 10-oktyabr, 2021-yil 2-son, 2-qism. ст. 165-168

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MADANIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARI KONTEKSTIDA INKULTURATSIYA JARAYONINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida inkulturatsiya va ijtimoiylashuv jarayonlarining etnopsixologik mohiyati tahlil qilinadi. Unda madaniyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o'rni, inkulturatsiya va ijtimoiylashuv tushunchalarining nazariy talqinlari yoritilgan. Madaniy antropologiya va etnopsixologiya vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida bolalik davridan boshlab shaxsning madaniyatga kirish mexanizmlari, madaniyatlararo ta'sir, marginal shaxs muammosi, agressivlik va tinchliksevarlikning madaniy determinatsiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, migratsiya, ta'lim va madaniyatlararo muloqot sharoitida inkulturatsiya jarayonining kechish xususiyatlari ochib beriladi. Maqola ko'pmadaniyatli jamiyatda etnik aynanlikni saqlash va rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *inkulturatsiya, ijtimoiylashuv, etnopsixologiya, madaniyat, shaxs rivojlanishi, madaniyatlararo munosabat, etnik aynanlik, globallashuv.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ИНКУЛЬТУРАЦИИ В КОНТЕКСТЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ КУЛЬТУРЫ И ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируются этнопсихологические особенности процессов инкультурации и социализации личности в условиях глобализации. Рассматривается взаимосвязь культуры и личности, роль национальных и общечеловеческих ценностей в формировании социального опыта индивида. На основе работ представителей культурной антропологии и этнопсихологии раскрываются механизмы вхождения личности в культуру, особенности социализации в детском возрасте, феномен маргинальной личности, а также культурная детерминация агрессивного и миролюбивого поведения. Особое внимание уделяется проблемам межкультурного взаимодействия, миграции и сохранения этнической идентичности в поликультурном обществе.*

Ключевые слова: *инкультурация, социализация, этнопсихология, культура, развитие личности, межкультурное взаимодействие, этническая идентичность, глобализация.*

THEORETICAL ANALYSIS OF THE ENCULTURATION PROCESS IN THE CONTEXT OF CULTURE–PERSONALITY RELATIONS

Abstract. *The article examines the ethnopsychological characteristics of enculturation and socialization processes in the context of globalization. It analyzes the relationship between culture and personality, highlighting the role of national and universal values in individual development. Based on studies in cultural anthropology and ethnopsychology, the paper explores mechanisms of cultural acquisition from early childhood, intercultural interaction, the phenomenon of marginal personality, and cultural determinants of aggressive and peaceful behavior. Special attention is paid to enculturation processes under conditions of migration, education abroad, and increasing intercultural communication. The study emphasizes the relevance of researching enculturation processes for preserving ethnic identity in multicultural societies.*

Key words: *enculturation, socialization, ethnopsychology, culture, personality development, intercultural*

Jahonda bugungi globallashuv davrida har qaysi mustaqil davlat, har bir xalq o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlari va an'analarini asrab

avaylash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. YUNESKOning madaniyatlar xilma-xilligi haqidagi umumiy deklaratsiyasida madaniyat dunyodagi jamiyat yoki ijtimoiy guruhlarga taalluqli ma'naviy-moddiy, intellektual-hissiy belgilar yig'indisi sifatida qaralishi, insonlar hayot tarzi, ularning birgalikda yashash malakasi, qadriyatlar tizimi, an'analari va e'tiqodlarini o'z ichiga olishi zarurligi, har bir madaniyatni hurmat qilish, bag'rikenglik va birdamlik xalqaro tinchlik hamda xavfsizlik garovi ekanligi ta'kidlangan. Shu bois shaxsda milliy va umummilliy qadriyatlar, inkulturatsiya jarayonlarini etnopsixologik xususiyatlarini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bir qator mualliflar fikriga ko'ra inkulturatsiya jarayoni insonning tug'ilishi birinchi ko'nikmalarida va nutqni o'zlashtirishidan boshlanib, inson vafot etgunga qadar davom etadi [1]. Xerskovits shuni ta'kidlaydiki, ijtimoiylashuv jarayoni hamda inkulturatsiya bir vaqtning o'zida kechadi va inson madaniyatga kirmay turib, jamiyat a'zosi bo'la olmaydi.

T.Stefanenkoning fikricha, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida individ xulq-atvorini urf-odatlar va an'analar yordamida qattiq boshqarib turish va bu bilan ularning madaniyatga integratsiyasiga erishish kuzatiladi. Ko'proq bu narsa odamning tabiiy sharoitlarga bog'liqligi bilan tushuntiriladi, ya'ni inson faqatgina o'z qabiladoshlari bilan umumiy an'analar doirasida birlashgandagina yashab keta olgan. Bizning davrimizda madaniyatlarda insoniy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini tanlashda ko'proq erkinlik beriladi. Lekin zamonaviy madaniyatlar ham shunday tuzilganki, ularning a'zolari keladilar va ketadilar, ular esa u yoki bu darajada muqim bo'lib qolaveradilar [2]. Shuni nazarda tutish kerakki, etnos va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda turlicha qarashlar mavjud. Ko'p tadqiqotchilar fikriga ko'ra, madaniyat va etnos chegaralari aynan emas. Bir tomondan turli xalqlarda madaniyatning bir xil elementlarini kuzatish mumkin. Ikkinchi tomondan, etnos o'z ichiga madaniyatning bir-biriga o'xshash bo'lmagan elementlarini ham olishi mumkin. Masalan, ruslar Arxangelskda ham, Voronejda ham yashaydilar, biroq ularning turar joyi, kiyimlari, qo'shiq va raqslari juda farq qiladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, madaniyat bu to'plam emas, balki ma'lum tarzda o'zaro aloqador elementlar tizimidir [3].

Qo'yilgan vazifani amalga oshirishdagi uchta asosiy muammolarni ajratish mumkin: Birinchi muammo "inkulturatsiya" va "ijtimoiylashish" tushunchalarini chegaralash bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, G'arb madaniy antropologiyasida M.Xerskovits va M.Middan boshlab, ijtimoiylashuv kishilik jamiyatiga kirib borishni ifodalovchi umumiy tushuncha bo'lsa, inkulturatsiya bola tomonidan ma'lum bir madaniyatga oid dunyoni tushunish va xulq-atvorni o'rganishdir [4]. M.S.Kagan mazkur tushunchalar mutanosibligining butunlay qarama-qarshi tushuntirishini beradi. Uning fikricha, ijtimoiylashish insonni jamiyat qurilishi konkret tipining ehtiyojlariga javob beradigan ma'lum ijtimoiy rollarni bajaruvchisiga aylantiradi, inkulturatsiya esa inidvidga barcha xalqlar tomonidan vujudga keltirilgan qadriyatlar bilan tanishtiradi [5]. Uchinchi muammo A.Y.Fliyer ishlarida keltirilgan bo'lib, u mazkur tushunchalarni ko'lamiga qarab emas, mazmuniga qarab ajratishni taklif etadi. Uning fikricha ijtimoiylashish ham, inkulturatsiya ham konkret jamiyat rivojlanishining konkret bosqichiga tegishli. Ijtimoiylashish insonni nisbatan utilitar, pragmatik vazifalar bilan belgilanadigan mazkur davr uchun dolzarb bo'lgan sharoitlarga yo'naltiradi. Inkulturatsiya esa insonni mazkur ijtimoiy muhit uchun xarakteri bo'lgan emotsional-qadriyatli ustanovkalar, tarixiy an'analar, mental xususiyatlar bilan bog'liq sharoitga olib kiradi. Ana shu yondashuvlarga asoslanib, ko'pchilik olimlar inkulturatsiyani madaniyat mohiyati va mazmunini o'zlashtirish, ijtimoiylashuvni esa xulq-atvor shaklini baholashdagi va tanlashdagi kompetentlik sifatida talqin qiladilar. Bunda ko'lamiga ko'ra ushbu tushunchalar amalda deyarli bir xil va nafaqat hozirgi payt, balki o'tmishdagi an'analar va normalarni ham dolzarblashtiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, inson haqidagi fanlarni o'rganuvchi mutaxassislar etnopsixologiyaning erishgan yutuqlarini ijtimoiylashish muammosini o'rganish bilan bog'liq ekanligini tan oladilar. Hattoki ayrim olimlar bolalik etnografiyasini o'z tadqiqot metodi va nazariyalari bo'lgan alohida fan sifatida ajratadilar. Bolalar ijtimoiylashuvining zamonaviy, qiyosiy-madaniy tadqiqotlari shartli ravishda to'rt guruh bo'lishi mumkin bo'lgan keng maydonni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiylashish jarayoni uning metodlari va bolalarning o'z xalqi madaniyatini o'zlashtirishining maxsus usullari.

Bolalar tarbiyasi jamiyat hayotiy faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish. Bunda asosiy e’tibor tarbiyaning maqsadi va choralarini belgilovchi, uning natijalarini boshqaruvchi ijtimoiy institutlarga ajratiladi.

Ijtimoiylashishning madaniyat bilan asoslangan bevosita natijalarini taqqoslash. Bu holatda tadqiqotchilarni ko‘proq har xil ijtimoiy madaniyat sharoitida o‘sgan bolalarning bir-biridan farqi ularning qanday qadriyatga ega ekanligi, ideallari xulq-atvorining stereotiplari qiziqtiradi.

Ijtimoiylashuvning alohida natijalarini o‘rganish. Bola tarbiyasining metodlari va katta yoshdagi inson xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ma’lumki, bu narsa madaniyat va shaxs nazariyasining chiqish muammosi hisoblanadi. Lekin qanday muammolar o‘rganilmasin bularning barchasi bolaning o‘z xalqi madaniyatiga kirishi, ya’ni inkulturatsiya bilan bog‘liqdir.

Shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida ko‘pincha qadrdon madaniyatni emas, balki inkulturatsiya mahsulini ham o‘zlashtirish yuz beradi. Bu termin shaxsning boshqa madaniyatga kirish jarayonini ham aks ettiradi va marginal shaxs tuzilmasi hamda tabiatini tushunish uchun zarur. Marginal shaxs deganda, bu yerda ikki yoki undan ortiq madaniyat to‘qnashuvida shakllangan va bu madaniyatlardan biri unga qadrdon bo‘lgan shaxs nazarda tutiladi. Umuman olganda, bola madaniyatlarning o‘zaro ta’siri sharoitida ham shakllanishi mumkin, bunda “donor” va “retsipiyent” madaniyatlar mavjud bo‘ladi. Tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq ravishda bunday kontakt “akseptatsiya” (o‘zaro kirib borish yo‘li orqali o‘zaro moslashuv) va “reaksiya” (donor madaniyat elementlarining muhit orqali inkor etilishi) ko‘rinishida yuz berishi ham mumkin. Bunday sharoitda shakllanadigan shaxs tabiiyki, o‘ziga turli madaniyatlar elementlarini oladi; bu jarayon ayniqsa ommaviy axborot vositalari, shaxslararo va guruhlararo xarakterdagi madaniyatlararo aloqalar vositasida tezlashadi. Muallifning fikricha, madaniyatlar to‘qnashuvida o‘sgan odamlar dunyoni ko‘ra olishda ratsional fikrlashlari, o‘zlarining va begona madaniyatning qoloq va rivojlangan tomonlarini baholay olishlari bilan ajralib turadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, juda ko‘p davlat arboblari, fan, san’at va madaniyat namoyandalari, harbiylar, turli madaniyatlar (millatlar) yoki madaniyatlar to‘qnashuvi xukm surgan muhitda shakllanganlar.

Garchi individ hayotining dastlabki yillaridagi inkulturatsiya madaniyat bir maromliligi va uzluksizligining asosiy mexanizmi bo‘lsa ham, u o‘tgan avlod-ajdodlarning to‘la takrorlanishiga olib kela olmaydi. Inkulturatsiya jarayoni natijasi kontinuumning har qanday nuqtasida yangi avlod tomonidan madaniyatni aniq va shartsiz o‘zlashtirilishi o‘rtasida joylashishi mumkin. M.Midning madaniyatlar klassifikatsiyasini yodga olsak, inkulturatsiyaning birinchi bosqichi postfigurativ madaniyatlarga, ikkinchi bosqichi esa prefigurativ madaniyatlarga xosdir [6].

An’anaviy jamiyatlarda qadriyatlar tuzilmasining o‘zgarishi uning vakillarining ijtimoiy(etnik) aynanligining transformatsiyasi bilan bog‘liqdir. Jumladan, ijtimoiy madaniy tizimdagi modernizatsion o‘zgarishlar ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, etnik aynanlikning “yuvilib ketishi”, uning noaniqligi va marginalligi bilan birga kechadi.

Madaniy antropologiyada shaxs rivojlanishi jarayonini maqsadga yo‘nalgan tarzda birinchilardan bo‘lib o‘rganganlar “Shaxs va madaniyat” konsepsiyasining asoschilari hisoblanadi. Ularni insonning ilk tajribalari: uzluksiz ovqatlantirish, yo‘rgaklash usullari, cho‘miltirish, gigiyenaga o‘rgatish qattiq qiziqtirib kelgan. Ba’zi tadqiqotchilar uchun bolaga g‘amxo‘rlik qilishning yuqorida ko‘rsatilgan elementlaridan biriga keng miqyosda yondashish tendensiyasi xarakterli bo‘lgan. Masalan, E.Erikson fikricha, yo‘qolib borayotgan bolani yo‘rgaklash usuli xususiyatlari ularning fikrlaricha, “bola tarbiyasi muammolari to‘liq madaniyat dunyosi ko‘rinishiga bog‘liq bo‘lgan bo‘limga kiritilishi lozimdir” [7].

“Madaniyat va shaxs” maktabining birinchi nazariyotchilaridan biri A.Kardiner edi. U inson hayotining ilk davrini uning shaxsining asoslari shakllanuvchi davr, deb hisoblagan. Bolaning ilk tajribalari va madaniyat uchun xarakterli bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi sababiy aloqalarning mavjudligini “dala”da ish olib borgan madaniy antropologlarning tadqiqotlaridan misollar ko‘rsatish yordamida isbotlagan. Masalan, Alor orolida ayollar dexqonchilik bilan shug‘ullanadilar, shuning uchun ham bolalariga kam vaqt ajratadilar: ularni kamdan-kam ovqatlantiradilar, yurish va so‘zlashga o‘rgatmaydilar. Buning natijasida bolalarda onasiga nisbatan qarama-qarshi munosabat, onaning g‘amxo‘rligini sog‘inish va shu vaqtning o‘zida ishonchsizlik va dushmanlik shakllanadi. Bunga mos

ravishda tashqi dunyoga nisbatan dushmanlik bilan xarakterlanuvchi shubxalanuvchi, ishonmaydigan shaxs shakllanadi.

M.Mid madaniy antropologlar ichida birinchilardan bo‘lib bolalar dunyosini empirik o‘rganishga o‘z hayotini bag‘ishlagan. Uning Samoa, Yangi Gvineya va Tinch okeani havzasining boshqa orollarida olib borgan jins tadqiqotlari asosida yozilgan kitoblari nafaqat mutaxassislar, balki kitobxonlar uchun ham Yevropa va AQShda odatiy bo‘lgan usullardan butkul farqlanuvchi tarbiya usullarini ochib berdi. M.Mid turli sohalarda yetakchi bo‘lgan va “jins tadqiqoti etaloni”ni yaratgan. U birinchilardan bo‘lib madaniy antropologiyada psixologik testlarni, jumladan, Rorshax testini, qo‘llagan, bolalar rasmlari va o‘yinlarini tahlil qilgan foto va kino kameralardan foydalangan. U o‘z e’tiborini tarbiyalash xususiyatlari va qizlarning xulq-atvoriga qartib, madaniy antropologiyaga xos bo‘lgan androtsentrizmni yengishga urinadi.

M.Midning fikricha, “aynan madaniyat bolalarni jamiyatda o‘ylash, his qilish va harakat qilishga o‘rgatuvchi asosiy omildir” [6]. Kardiner kabi u ham xarakterning u yoki bu sifatlarining namoyon bo‘lishini sotsializatsiyaning o‘ziga xosligi bilan bog‘lab ko‘rsatadi. 1931 yilda Yangi Gvineyadagi Papuass qavmlarini o‘rganishda M.Mid “madaniyatlardagi ayollar va erkaklardan kutiladigan xulq-atvor normalari belgilashga yordam beruvchi turli usullarni tahlil qilishni” o‘zining asosiy vazifasi deb bilgan edi. Mundugumorlar qavmini tavsiflab turib, M.Mid ularning madaniyati doimiy zo‘ravonliklar va ekspluatatsiyalar bilan xarakterlanishini ta’kidlaydi. Bu agressiv kaniballar bolalariga o‘ta qattiqo‘l bo‘lib, ularni mehr va iliqlikdan mahrum etganlar. U mundugumorlar bolalarni yaxshi ko‘rmasliklarini ta’kidlab, shuning uchun ham ularda agressiv va dushmanlik kabi xarakter sifatlari namoyon bo‘lganligini tushuntiradi. Arapesh qavmidagilar esa M.Midning kuzatishicha, nafaqat ayollarda, balki erkaklarda ham onalarcha g‘amxo‘rlik, bolani erkalatish va qo‘llab-quvvatlashga intilish, ularni xavsizlikni uzluksiz his qilishga o‘rgatish, agressiya va mushtlashuvlardan himoya qilish norma hisoblanadi. M.Midning fikricha, aynan ijobiy muhitning yaratilganligi kichik arapeshning agressiyasining boshqa odamlarga qaratilmasligiga va bolalikdanoq mehribon idrok etuvchan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, M.Mid agressivlik muhabbat va g‘amxo‘rlik yetishmasligidan yuzaga kelishini e’tibor va mayinlik esa samimiylik va patsifizmga olib keladi, degan xulosaga keladi. Albatta kattalar shaxsining shakllanishiga berilgan bunday to‘liq bo‘lmagan tushuntirishlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Chunki ular arapeshlar bilan bog‘liq holatdagina yetarlicha yaxshi saqlangan madaniyatni o‘rganishga asoslangan. Mundugomorlar madaniyatining xususiyatlari to‘g‘risida esa xalqning o‘zi yo‘qolib ketgan deb hisoblagan madaniyat haqida ma’lumotlar to‘planishi kerak bo‘lganligi sababli olimada aniq tasavvurlarning yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin emas edi. Urug‘ qabila davrigacha ham mundugomorlar yovuzlik namunasi bo‘lgan bo‘lsalar ham, bu holat ota-onalarning bolalariga dushmanlarcha munosabatlarining natijasi emas. Etnologlar avvaldan ta’kidlaganlaridek, ko‘pgina urishqoq xalqlarning bolalari muhabbat va e’tibor muhitida tarbiyalanib, ularda agressiv moyilliklar kuchli rivojlangan bo‘ladi. Bunga asosiy e’tiborni avstriyalik madaniy antropolog I.Eybl-Eybesfeld qaratgan bo‘lib, o‘tgan asrning 60-70 yillarida u Afrika, Janubiy Amerika va Yangi Gvineyadagi ibtidoiy madaniyatlarning etnografik analoglari bo‘lmish shaxslararo munosabatlar haqida ma’lumotlar to‘plash bilan shug‘ullanib, jumladan, tinchliksevar va urishqoq xalqlardagi bolalarga bo‘lgan munosabatni solishtirgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Afrika qavmlaridan biri bo‘lgan kosan odamlari bushmenlar nomi bilan tanish bo‘lib, ular urishqoq va agressiv emas, balki ongli tinchliksevar qavmdirlar.

Albatta qavm ichida urush xattoki qotillik holatlari ham kuzatiladi, lekin agressivlik bushmenlar tomonidan qoralanib, nizolarni esa ular muzokaralar orqali hal etishga intiladilar. Bushmenlarda bola hayotining birinchi kunlaridanoq iliqlik va e’tiborni his qiladi. “Erkaklar, ayollar va bolalar uni quchoqlaydilar o‘padilar, erkalovchi so‘zlar bilan murojaat etadilar” (Eybl-Eybesfeld, 2002). Jismoniy jazo ularda kamdan-kam holatlarda qo‘llanilib, bolalarga nisbatan bu jazoni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bolalarni kattalarning irodasiga bo‘ysunishlariga hayotlarida faqatgina bir bora initsiatsiya marosimidan o‘tish davomida majbur bo‘ladilar. Lekin Orinoko tepaliklarida yashovchi o‘zlarining urishqoqliklari bilan nom chiqargan yanoma qavmi ham bolalarini sevuvchi ota-onalar hisoblanadilar. Bu yerda ham bolalar ota-onalari va guruhning boshqa a’zolari bilan yaqin kon-

taktlarda bo‘ladilar, ularni tez-tez bag‘rilariga bosadilar. Shunday ekan, ularda agressivlik mehr yetishmasligidan emas, balki uning mavjudligi tufayli yuzaga keladi. Avstriyalik olimning ta’kidlashicha, xoh urishqoq, xoh tinchliksevar xalq bo‘lmasin, bolaning atrofida mehr va e’tibor muhitining yaratilishi har qanday jamiyatning to‘laqonli a’zosi shakllanishi uchun zarur sharoit hisoblanadi.

Bu holatda yanoma va bushmenlarda ijtimoiylashuv jarayoni bir xilda kechadi. Lekin nima uchun ulardan biri agressiv boshqasi esa passifist bo‘lib ulg‘ayadi? Eybl-Eybesfeldning fikricha, bunga sabab agressivlikka nisbatan madaniyatlardagi turlicha munosabatdir. Bushmenlar agressiyaning namoyon bo‘lishini hattoki o‘yin davomida ham cheklashga urinadilar. Agar bola boshqa bir bolani ursa, unga tanbeh beradilar va qo‘lidagi tayoqni olib qo‘yadilar. Ona bolasini tinchlantiradi, lekin qasos olishga undamaydi. Xuddi shu holatda yanomalar esa agressivlikni har tomonlama qo‘llab - quvvatlaydilar. O‘yin davomida onalar o‘z o‘g‘illarini sochlaridan tortib jahlini chiqaradilar. Hafa bo‘lgan bola onasidan yordam so‘rasa, onasi unga tayoq berib o‘zi uchun o‘ch olishini taklif qiladi. Eybl-Eybesfeld ba’zi bir boshqa urishqoq va tinchliksevar qavmlardagi sotsializatsiya metodlariga e’tibor qaratib ham biron-bir yangilikni aniqlamaydi. Hamma joyda u shuni aniqlaydiki:

“Bola muhabbat tufayli jamiyatning a’zosi bo‘lishga o‘rganadi, o‘zini o‘z guruxi a’zolari bilan aynanlashtiradi va shu orqali o‘z jamiyatining xulq-atvor qoidalari va qonunlarini qabul qilishga tayyorlanadi. Sotsializatsiyaning alohida ko‘rinishlari uning agressivligini mukofotlash yoki chegaralashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda qaxramonlik yoki itoatkorlikni tarbiyalaydilar, lekin bularning barchasini asosida muhabbat yotadi” [2].

Amerikalik tadqiqotchilar javob izlagan keyingi savol “jamoa nima uchun tarbiyaning u yoki bu amaliyotini tanlaydi?” degan mazmunda edi [8]. Ularning taxminiga ko‘ra, guruhlar, eng avvalo, bolalarda katta bo‘lganlarida jamiyatga xos bo‘lgan xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishda zarur bo‘ladigan sifatlarni tarbiyalashga e’tiborlarini qaratadilar. Ularning gipotezasi shundan iborat ediki, yil davomida hamkorlikda moddiy resurslar ishlab chiqariluvchi va yig‘iluvchi chorvachilik va dexqonchilik jamoalari a’zolari uchun vijdonlilik, mas’uliyat va konservatizm kabilar xosdir. Moddiy resurslar g‘amlanishi past bo‘lgan terimchilar va ovchilar jamoalari esa o‘zlariga ishongan bo‘lishlari va tavakkalchilikka borishni bilishlari lozimdir.

104 ta jamiyatlarni arxivli o‘rganishda ilmiy faraz tasdiqlandi: terimchilar va ovchilar bolalarda mustaqillik va erkinlikni tarbiyalashga yo‘nalgan bo‘lsalar, dexqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilar esa bolalarida mas’uliyat va bo‘ysunishni tarbiyalashga harakat qilganlar. Bu bog‘liqlik sotsializatsiya – o‘z-o‘zini tasdiqlash/bo‘ysunishni global o‘lchashni taxlil qilish davomida qo‘llashda ham saqlanib qolindi. Amerikalik madaniy antropologlarning natijalarini tasdiqlovchi natijalarning ko‘pgina madaniyatlarning etnografik tavsiflarida ko‘rish mumkin. Kuzatuvchilar ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanuvchi avstraliyalik aborigenlar uchun o‘z-o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan intilish xarakterli bo‘lishini ko‘p marotaba ta’kidlab kelganlar. Bunda nafaqat muvafaqqiyatga erishish, jamoada alohida o‘ringa ega bo‘lish istagi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqalarning ko‘z o‘ngida o‘z-o‘zini tasdiqlash, balki o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘z imkoniyatlarni qadrlay bilish hissida namoyon bo‘luvchi o‘zi oldida o‘z-o‘zini tasdiqlash nazarda tutilgan edi.

Amerikalik olimlarning farazini rad etuvchi bir qator misollarni ham keltirib o‘tish mumkin. Buning sababi esa faqatgina Barri va uning hamkasblarining tadqiqotlari statistik bo‘lganligi va konkret madaniyatda uchramasligi ham mumkin bo‘lgan umumiy tendensiyalarni aniqlashga yo‘nalganligidagina emas edi. Bundan muhimi tahlil etilgan konsepsiyaning arxivli tadqiqotlar uchun hozirgi kunda ham ahamiyatliligi shubha ostiga olinmagan bo‘lsada, ulardan ko‘pi ortiqcha soddalashtirilgan deb tan olingan.

Birinchidan, Barri tomonidan taklif etilgan o‘z-o‘zini tasdiqlash va quloq solish shuningdek, tarbiyaning boshqa o‘lchovlarini bir-biridan ajratish shart emas. Birinchi qarashda yapon madaniyatini tarbiyani asosiy o‘lchash bo‘yicha bo‘ysunish qutbiga joylashtirish mumkin. An’anaviy yaponlar tarbiyasi haqiqatdan ham intizomlilik va bo‘ysunuvchanlikni shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Lekin shu vaqtning o‘zida ko‘pgina tadqiqotlarda yaponlar uchun muvafaqqiyatga intilish ham xarakterliligi aniqlangan. Faqatgina, masalan, amerikalikdan farqli ravishda yapon sotsializatsiya jarayonida hayotida muvafaqqiyatga erishish uchun erkinlikdan ko‘ra, bo‘ysunish, quloq solish foydaliroq ekanligini o‘zlashtirib boradi: u bo‘ysunish orqali o‘z-o‘zini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, I.S.Kon ta'kidlaganidek, tarbiya uslubi xo'jalik faoliyatidan tashqari boshqa omillar – jamiyatning ijtimoiy strukturasi, oila strukturasi bilan ham kam bo'lmagan darajada bog'liqdir [9]. Bu omillar 1954 yilda o'tkazilgan klassik taqqosiy tadqiqotlarda - "Olti madaniyat bolalar" jins tadqiqotida inobatga olingan edi. Bu tadqiqot amerikalik madaniy antropolog va psixologlar tomonidan er–xotin B. va Dj. Uaytinglar boshchiligida oltita aholi yashash joylari: Yaponiyaning qishloqlarida, Filippinda, Hindistonda, Keniyada, Meksikada, shuningdek, AQShning katta bo'lmagan shaharlaridan birida o'tkazilgan. Loyiha ishtirokchilarining asosiy vazifalari turli madaniyatlardagi bolalarning hayoti haqida sistematik ma'lumotlarni to'plashdan iborat edi. Birinchi bosqichda oltita aholi yashash punktlari va ulardagi bolalarni tarbiyalash xususiyatlarning etnografik tavsifnomasi tuzib chiqildi, shuningdek, tanlamalar (ikki yosh davri – 3-6 va 7-11 yoshlardagi oltidan o'g'il bola va qiz bolalar) aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda "Olti madaniyat onalari" loyihasini amalga oshirish davomida xuddi o'sha aholi yashash punktlarida onalarning tarbiyalash maromi o'rganildi. Ayollarga taklif etilgan savollar intervyu tarzida berilib, ularning bolalari bilan bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq edi: a) reaksiyalar – jismoniy jazolashdan to bolaning yordam so'rashi, qaysarliklari va boshqa bolalar bilan urishgandagi faol g'amxo'rligigacha; b) bolaga nisbatan bo'lgan munosabatda namoyon bo'luvchi g'amxo'rlik yoki dushmanlik va toqatsizlik, maqtash hamda jismoniy jazolash. Bundan tashqari, intervyuda bolalarning ijtimoiy xulq- atvoridagi kamchiliklar, necha yoshda ular o'zlari kiyinishni boshlashlari, uydan tashqarida o'ynashlari, xo'jalik yumushlarini bajarishlari aniqlanadi.

Uchinchi asosiy bosqichda tadqiqot predmeti bolalarning boshqa odamlar – bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar edi. Asosiy metod sifatida esa tabiiy sharoitlarda: uyda, bog'da, maktabda, mehnat faoliyati davomida, o'qish yoki o'yinda bolaning xulq-atvorini tuzilmaviy kuzatish qo'llanildi.

Har bir bolada 150 ga yaqin interaksiyalar aniqlangan bo'lib, ularda u yoki bu darajada g'amxo'rlik, dominantlik, agressivlik, mustaqillik va boshqalar namoyon bo'lgan edi. Shundan so'ng kontent analiz yordamida barcha interaksiyalar harakatlarning 12 ta asosiy tiplariga o'tkazildi: yordam izlaydi, e'tibor izlaydi, hukmronlikka erishadi, mas'uliyatli maslahat beradi, qo'llab-quvvatlashni taklif etadi, yordam taklif etadi, do'stlik, muloqotmandlikni namoyon etadi, ogohlantiradi, do'stlarcha tashlanadi (qo'pol hazil), haqoratlaydi. Bu xatti-harakatlar barcha o'rganilgan madaniyatlarda aniqlandi va mualliflarning fikriga ko'ra, madaniyatlarning nisbatan kengroq tanlamalarida ham uchratilishi mumkindir. Agar madaniyat bolalarning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmaganda edi, uning o'n ikkita tipi barcha madaniyatlarda bir xil bo'lgan bo'lardi. Shu aniqlandiki, ularning tarqalganligi madaniyatdan madaniyatga o'tish davomida variatsiyalashib boradi. Do'stlikning namoyon bo'lishi hamma yerda uchratilsada, boshqa harakatlar iyerarxiyada turli ranglarni egallagan edi. Ikkinchi o'rinni amerikalik bolalarda e'tiborni izlash, meksikalik bolalarda yordam taklif etish egallagan bo'lsa, hindlar hukmronlikka intilganlar. Olingan ma'lumotlar mualliflarga olti madaniyatning bolalari o'zlarining ijtimoiy xulq-atvorlarida mutlaq bir xil emasliklarini, lekin bir-birlaridan butunlay farq ham qilmasliklari haqidagi xulosani chiqarishga sabab bo'ldi. Madaniyatlararo farqlarning sabablarini ular bolalarning ijtimoiy xulq-atvorini "oldindan aytib beruvchi" sifatida topishga urinadilar va bu bir-biridan mustaqil bo'lgan madaniyatning xususiyatlari: ijtimoiy-iqtisodiy tizim murakkabligi darajasi(ijtimoiy stratifikatsiya, kasbiy ixtisoslashuv, siyosiy va huquqiy markaziylashuv va boshqalar) va ota-ona hamda boladan tashkil topgan nuklear va bir necha avlodlardan tashkil topgan katta oila bo'lishi mumkin bo'lgan oilalarning egallovchan tuzilmasi bilan bog'liq tarzda aniqlanishini ta'kidlaydilar.

Shunday qilib, inkulturatsiya jarayonini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlilini amalga oshirishda biz shunga ishonch hosil qildikki inson hayotidagi mazkur muhim ijtimoiy-psixologik jarayon turli ijtimoiy fanlar vakillari tomonidan o'rganishga harakat qilingan. Biroq psixologiya, xususan etnopsixologiya sohasida mazkur jarayonga bag'ishlangan tadqiqotlar kam va ular fragmentar xarakterga ega. So'nggi yillar tadqiqotlarida ushbu jarayon madaniy antropologiya, sotsiologiya va etnopsixologiya nuqtai nazaridan qarab chiqilgan. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyada inkulturatsiya jarayoni ko'proq migratsiya jarayonining kuchayishi, talabalarning o'zga mamlakatlarda ta'lim olishi, chet tillarini o'rganishning ommaviylashuvi bilan bog'lab o'rganilgan. Biz-

ning yuzdan ortiq millat vakillari yashaydigan yurtimizda ushbu jarayonning kechishidagi etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganish, akkulturatsiya jarayoni qay tarzda kechishi va u qanday oqibatlarga olib kelishini nazorat qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. К.В. Корякина «Социальные и культурные аспекты адаптации мигрантов-армян в Краснодарском крае (1988-2006 гг.)», Москва, 2007
2. Стефаненко Т .Г . Этническая идентичность и некоторые проблемы ее изучения // Этнос . Идентичность . Образование . Труды по социологии образования .Т . IV . Вып . VI . М ., 1998 .С . 84–104 .
3. Чубрик Е.О. Русский детский фольклор как средство ранней инкультурации. Автореф. канд. культурологии. Владивосток 2007. 18 б.
4. Лебедева Н.М., Татарко А.Н. Этническая идентичность, статус группы и тип расселения как факторы межгрупповой интолерантности // Психологический журнал, 2005, Т. 26, № 3, с. 61-74.
5. М. С.Каган. Философия культуры / М.С. Каган. - СПб., 1996
6. Мид М. Культура и мир детства. М., 1988. С. 214 – 226; С.322 – 361.
7. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.,. 1996
8. Майерс Д. Социальная психология. 7-е изд. СПб.: Питер, 2011.
9. Кон И. С. Ребёнок и общество. М., 2003

Rasulov Abdimumin Ibragimovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

TAYANCH HARAKAT A’ZOLARI BUZILGAN ILK O‘SPIRINLARNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola tanyach harakat a’zolarida buzilish bo‘lgan ilk o‘spirinlarning tipologik xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada muallif tayanch harakat a’zolari buzilgan o‘spirinlarning tipologiyasining rasmiy-dinamik xususiyatlari orqali o‘rganishga harakat qilgan. Natijada “Oyoq assimetriyasi”, “qo‘l assimetriyasi” va “umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi”ga ko‘ra psixik xususiyatlarini tiplashtirishga erishgan. Tanyach harakat a’zolarida buzilishi bo‘lgan ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlariga xos bir qator xususiyatlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tayanch harakat a’zolari buzilishi, ilk o‘spirinlar, individual-tipologik xususiyatlar, temperament tuzilmasi, emotsionallik , ijtimoiy moslashuv, psixomotor rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash, kommunikativ faollik, psixologik reabilitatsiya*

ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДРОСТКОВ С НАРУШЕНИЯМИ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению типологических особенностей подростков с нарушениями опорно-двигательного аппарата. В работе предпринята попытка анализа типологии указанных подростков через их формально-динамические характеристики. В результате проведённого исследования была осуществлена типологизатsiя психических особенностей по таким признакам, как «асимметрия ног», «асимметрия рук» и «деформатsiя позвоночника». Освещён ряд индивидуально-типологических характеристик, присущих подросткам с нарушениями опорно-двигательного аппарата.*

Ключевые слова: *нарушения опорно-двигательного аппарата, подростки, индивидуально-типологические особенности , структура темперамента, эмоциональность, социальная адаптатsiя , психомоторное развитие, самооценка личности , коммуникативная активность , психологическая реабилитатsiя*

TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS WITH MUSCULOSKELETAL DISORDERS

Abstract. *This article is devoted to the study of typological characteristics of adolescents with musculoskeletal disorders. The author attempts to analyze the typology of these adolescents through their formal-dynamic characteristics. As a result of the study, the psychological features were classified according to such criteria as “leg asymmetry,” “arm asymmetry,” and “spinal deformity.” A number of individual-typological characteristics specific to adolescents with musculoskeletal disorders are highlighted.*

Key words: *musculoskeletal disorders ,adolescents, individual typological characteristics , structure of temperament , emotionality, social adaptation, psychomotor development , self-esteem, communicative activity , psychological rehabilitation*

I. Kirish. Shaxs murakkab xilqat ekanligi psixologiyadagi shaxsga oid nazariyalarda ko‘p bora takrorlanadi. Ulardan biri A.Adlerning “Individual psixologiyasi”da inson yagona va o‘zini o‘zi izchil organizm ekanligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Adler psixologiyasining asosiy asosidir (Adler, 1927a). Adler o‘z nazariyasiga "individual psixologiya" nomini berdi, chunki lotincha "individuum" "bo‘linmas"degan ma’noni anglatadi - ya’ni bo‘linmaydigan shaxs degani. Adler hayotiy faoliyatning hech qanday namoyon bo‘lishini izolyatsiya qilish mumkin emas, faqat umuman shaxsga nisbatan. Shaxs miya va tana o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan ham, aqliy hayotga nisbatan ham

bo‘linmas bir butundir. Adler ko‘ra, individual psixologiya uchun asosiy talab har bir shaxs bu birligini isbotlash uchun: uning fikrlash, his-tuyg‘ular, harakatlar, deb atalmish ong va ongsiz, shaxsning har bir namoyon. Adler o‘z-o‘zini izchil va yagona shaxsning tuzilishini turmush tarzi sifatida aniqladi. Ushbu Konsepsiyada, boshqa har qanday narsadan ko‘ra, uning urinishi ifodalanadi

II.the tadqiqot maqsadi. Tadqiqot maqsadi sifatida so‘rovnomalarning javoblar varaqasi va natijalarini qayta ishlash tizimini unifikatsiyalash jarayonini tadqiq etishdan iborat,.Bunda psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining so‘rovnomalarni javoblar varaqasini takomillashtirishga yo‘naltirildi.

III.Methodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi shaxsni bir butun, integrativ tizim sifatida talqin qiluvchi klassik va zamonaviy psixologiya konsepsiyalariga tayanadi. Xususan, A.Adlerning individual psixologiyasida ilgari surilgan shaxsning yaxlitligi, ijtimoiylik va kompensatsiya mexanizmlari haqidagi g‘oyalar tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, shaxs rivojlanishining hayotiy strategiyalari (Abulxanova-Slavskaya), “Men-konsepsiya”si va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari (Berns), hamda tashqi ko‘rinish va muloqot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi yondashuvlar (Lukyanova) tadqiqotning nazariy-metodologik yo‘nalishini belgilab berdi. Tayanch harakat a’zolaridagi nuqsonlar ta’sirida shakllanuvchi psixologik holatlarni tushuntirishda reabilitatsiya psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv va stress-adaptatsiya nazariyalari (Maogutova, Richardson va boshqalar)dan keng foydalanildi. Empirik bosqichda ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash uchun V.M.Rusalovning «Temperament tuzilmasi» so‘rovnomasi qo‘llanilib, u orqali ergichlik, plastiklik, sur’at, emotsionallik va ijtimoiy parametrlar tizimli ravishda baholandi. Olingan natijalarning ishonchliligi va farqlar ahamiyati Styudent t-mezoni asosida statistik jihatdan tekshirildi. Shuningdek, shaxs rivojlanishi va psixologik etuklik omillarini yorituvchi zamonaviy tadqiqotlar (Avlaev, Butaeva, Burkhanov va boshqalar) ham metodologik jihatdan integratsiya qilindi. Natijada tadqiqotda shaxsning biologik (somatik nuqsonlar), psixologik (individual-tipologik xususiyatlar) va ijtimoiy (muloqot va adaptatsiya) omillari o‘zaro bog‘liq holda kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi (1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15).

IV.Metodlar. Tadqiqot metodi sifatida tanyach harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlarini o‘rganishda V.M.Rusalovning «Temperament tuzilmasi» so‘rovnomasidan foydalanildi. Tadqiqotdan olingan empirik ko‘rsatkichlarni statistik ishonchlilik darajasini tekshirish uchun Styudent t-mezonidan foydalanildi.

V. Ishtirokchilar. Tadqiqot dasturida muammoning o‘rganilishi va uning tadqiqot metodlari hamda metodikalari tafsiloti mujassamlashtirilgan. Tanyach harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlarini o‘rganish uchun Toshkent shahar 100-maxsus maktab-internatning 56 nafar yuqori sinf o‘quvchilari jalb etildi.

VI. Ma’lumotlar tahlili. Psixologiya fanida shaxsga ijtimoiy munosabatlar jarayonida kamol topadigan ongli mavjudot sifatida qaraladi. Shaxsning shakllanishi va kamol topishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ahamiyatiga binoan, xususiyatlari va tabiatiga tavsif beriladi. Biz yuqoridagi paragrafda tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning motivatsiya sohasini yoritishga harakat qildik. Tayanch harakat a’zolari buzilgan o‘quvchilarning shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotga aniqlik kiritishda ularning psixologik xususiyatlari, emotsional holati va irodaviy sifatlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Shu bois, tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning individlik va shaxslilik xususiyatlarini o‘rganish uchun V.M.Rusalovning «Temperament tuzilmasi» metodikasidan foydalandik.Ushbu metodikani tanlashimizdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad uning tarkibidagi shkalalar odamning individlik va shaxslilik xususiyatlariga xos jihatlarini yoritishi hamda tadqiqot natijalariga sinaluvchilarning ob’ektiv yondashganliklarini belgilovchi nazorat shkalasiga egaligidir. Bu metodikada 9 ta: erglik; ijtimoiy erigichlik; plastiklik; ijtimoiy plastiklik; sur’at; ijtimoiy sur’at; emotsionallik; ijtimoiy emotsionallik; nazorat shkalalari mavjud. Quyida tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlari ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi (1-jadval).

Jadval-1.

Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning individual-tipologik xususiyatlari ko‘rsatkichlari

№		Umumiy	Eksperiment	Nazorat

	sh k a l a	Eksperiment	Nazorat	o‘g‘il	qiz	o‘g‘il	qiz
1	Erigichlik	6,85±0,76	6,8±0,62	6,3	7,4	6,4	7,2
2	Ijtimoiy erigichlik	5,8±0,51	7,0±0,83	5,8	5,8	6,6	7,4
3	Plastiklik	6,0±0,60	7,25±0,75	6,0	6,0	6,3	8,2
4	Ijtimoiy plastiklik	4,2±0,12	4,8±0,25*	4,4	4,0	4,1	5,5
5	Sur’at	7,25±0,64	7,45±0,82	7,3	6,2	7,4	7,5
6	Ijtimoiy sur’at	5,6±0,48	5,2±0,43	5,3	5,9	4,9	5,5
7	Emotsionallik	9,05±0,32**	7,45±0,26	8,3	9,8	7,3	7,6
8	Ijtimoiy emotsionallik	6,85±0,38	7,0±0,43	6,2	7,5	7,2	6,8
9	Nazorat	5,1±0,35	4,65±0,24	5,2	5,0	4,8	4,5

*P<0,05; **P<0,01.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlash jarayonida sinaluvchilarning bir qator ko‘rsatkichlari: umumiy, jinsi, yoshi, oilada nechanchi farzandligiga ko‘ra tahlil qilishni nazarda tutdik va shunga asoslandik. Birinchi shkaladagi erigichlik ko‘rsatkichlari shaxsning jismoniy va aqliy mehnatga intilishi, predmetlar dunyosini o‘zlashtirish ehtiyoji haqida ma’lumot beradi. Bu ko‘rsatkichlar eksperiment guruhi (umumiy 6,85±0,76 ball, o‘g‘il bolalar 6,3 ball, qizlar 7,4 ball) bilan va nazorat guruhi a’zolari (umumiy 6,8±0,62 ball, o‘g‘il bolalar 6,4 ball va qizlar 7,2 ball) bilan cheklanganliklari guvohi bo‘lamiz. Guruhlar natijalarining umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lsa-da, ammo jins bo‘yicha sezilarli farqlar bo‘lib, har ikkala guruhdagi qizlar o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori miqdorga erishganlar. Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar ilk o‘spirinlarning yuqori natijalaridan past ekanligiga guvohlik berishi sinaluvchilarda umumiy holatda o‘rtacha ekanligi, ularning aqliy mehnat va jismoniy mehnatga moyilliklarini, biroq qat’iy shijoat sezilmasligi, ulardagi balog‘at yoshida organizmdagi anatomik–fiziologik etilish davom etayotganligi, asab tizimida tez zo‘riqish hosil bo‘lishi, shuningdek, ko‘proq konfortga moyillik kuzatiladi.

Tayanch harakat a’zolari buzilganlarda jismoniy harakat, mehnatga moyillik ko‘proq qo‘l manipulyatsiyasiga tayanishga asoslanidi va shu asnoda bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat uchun ham qo‘l psixomotorikasiga bog‘liq kasb - hunar sohalarini tanlash yoki aqliy mehnat qilishni talab etadigan kasb-korliklarga yo‘naltirish ma’qul. Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning ba’zan sog‘lom tengdoshlari orasida, ya’ni norasmiy muhitda jismoniy mehnat qilishi jarayoni ularda, go‘yoki o‘z shaxsi kamsitilayotgan deb his qilish va shu ma’nodagi stereotiplar shakllanishiga olib keladi.

Ilk o‘spirin qizlarning predmetli erigichlik bo‘yicha ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi, jinsiy faollik nuqtai nazaridan yosh davrlarining dastlabki bosqichlarida o‘g‘il bolalarga qaraganda, qizlarda faollik, tashabbuskorlik anchagina yuqoriroq ekanligi kundalik turmushda ham tasdiqlangan. Voyaga etish, ya’ni shaxs shakllanishi davridagi ijtimoiy munosabatlarda o‘g‘il bolalar, xususan erkak jinsiga mansub shaxslarning imkoniyatlari kengroq ruyobga chiqib boradi.

Shuningdek, ilk o‘spirin qizlarni onalari har kunlik uy yumushlariga jalb qilishlari ham bu boradagi mehnatga nisbatan yuqori darajada malakalar shakllanishiga olib keladi. Ammo, tayanch harakat a’zolari buzilgan qizlar esa, ko‘proq maxsus o‘quv muassasalariga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya hamda shaxs yo‘nalganlik tamoyiliga asoslangan holda o‘zlarini voqelikda identifikatsiyalash hamda refleksiya ta’sirida yuqori natijalarni qo‘lga kiritadilar. Faqat erkin harakatlanishlari cheklanganligi tufayli shaxs sifatida o‘zlariga nisbatan salbiy-tanqidiy munosabat shakllanmasligi uchun shaxsiy istiqbol rejaga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Shaxs ijtimoiy muhit sharoitida shakllanadi va shu jarayonda uning xususiyatlari o‘z tabiatini namoyon qiladi. Shaxs ijtimoiy sub’ekt sifatida shaxslararo munosabatga va muloqotga ehtiyoj sezadi. Navbatdagi shkala ilk o‘spirinlarning ijtimoiy erigichlik bo‘yicha ko‘rsatkichlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ijtimoiy erigichlik-shaxsning ijtimoiy munosabatlar va muloqotga bo‘lgan kommunikativ ehtiyojlarini belgilaydi. Shkala bo‘yicha eksperiment va nazorat guruhi a’zolari ikki

xil natijalarni namoyon qildilar. Eksperiment guruhi natijalari o‘rtachadan past bo‘lib, bu ular muloqotga va kommunikatsiyaga ehtiyoj sezsalar ham, unga kirishishga jur’at qilolmasliklari, tortinish va o‘zlarini introvertlashtirishga moyilliklari ortib borishini ko‘rsatadi. Ularning maishiy ehtiyojlar bilan bog‘liq muammolarini hal qilish imkoniyatlari ko‘proq ijtimoiy munosabatlar jarayonida cheklanayotganligidan dalolat beradi. Bunday holat ularning depressiya holatiga va frustratsiyaga moyilliklarini orttirmaydi, deb bo‘lmaydi. Chunki, ularning so‘rovnoma bo‘yicha ko‘rsatkichlari 5,8 ±0,51 ballni tashkil qilgani buning qisman tasdig‘idir. Eksperiment guruhidagi tengdoshlaridan farqli o‘laroq, nazorat guruhidagilar voyaga etgan shaxs sifatida o‘zlarining «Men»-konsepsiyasiga ancha yuqori baho bera boshlaydilar. O‘z ideallarini hayotdan izlash, kimlargadir taqlid qilish, simpatiya uyg‘otishga intilish, kattalar bilan ishchanlik munosabatlarini o‘rnatishga harakat, kelajak rejalarini tuzish ularni shaxslararo munosabatga da’vat qilayapti, degan fikrni ilgari suramiz (7,0 ±0,83 ball). Ammo, bu va boshqa ko‘rsatkichlar ularning tasavvuridagi ko‘pgina rejalari reallikdan ancha uzoq ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotimiz natijalarining o‘ziga xos tomoni, eksperiment guruhidagi o‘g‘il va qizlarning ko‘rsatkichlari bir xilda, ya’ni 5,8 ballni tashkil qilganligidir. Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirin yigit-qizlarning bir-birlariga bog‘liq bo‘lmagan holda so‘rovnomaga bergan javoblari, ularning atrofdagilar bilan munosabatda qiyinchilikka duch kelishlari, muloqot maromlarida hali tuzatishlar zarurligi, ijtimoiy aloqaga kirishishga etarlicha tayyor emasliklari, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlashuv shakllarini tanlashga qiyinchilik sezishlaridan dalolat bermoqda. Bunga ularning hali shaxs to‘g‘risidagi psixologik bilimlardan bexabar ekanliklari, kelajakda yanada murakkabroq vaziyatlarga duch kelishlarini his qilmaganliklari sabab bo‘lib qolmoqda.

Nazorat guruhidagi o‘g‘il (6,6 ball) va qizlar (7,4 ball) natijalari eksperiment guruhidagi tengdoshlarinikidan qisman farq qilishi ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlari yuqoriroqligi, ijtimoiy aloqaga to‘siq qo‘ymasliklari, muloqotga tezroq kirisha olishlari, muloqot mavzusini o‘zgartirishga tayyorliklaridan dalolat beradi. Ammo, ular ijtimoiy aloqaga tabiiy holda qo‘shilib ketadilar, deya olmaymiz. Shunday darajada munosabatga kirishishdagi yutuqlarini ular psixik imkoniyatlarining ijtimoiy korrelyantlar (oila, do‘stlar davrasi, transportdagi yo‘lovchilar, ta’lim muassasi, ommaviy axborot vositalari, madaniyat maskanlari va boshqalar) bilan bog‘liqligi ta’minlaydi. Bu jihatdan ularning imkoniyatlarini tengdoshlariga qaraganda yuqori baholash mumkin. Lekin, ilk o‘spirinlarning bunday yutuqqa erishganligi ular ijtimoiy aloqaga to‘la tayyor, degan xulosaga imkon bermaydi. Ular ijtimoiy munsabatga kirishish ko‘lamining ko‘pligi va vaziyatlarni tez o‘zgartirish imkoniga egaliklari bilan eksperiment guruhidagi tengdoshlaridan farq qiladi, deyishimiz mumkin.

Faoliyatning psixomotor jihatdan ahamiyati shaxsning manipulyativ va amaliy xatti-harakatlarni bajara olish imkoniyatiga ega bo‘lishidan iboratdir. Shuning uchun tayanch harakat a’zolari nuqsonli yoki buzilgan ilk o‘spirinlar harakat tizimida o‘zgarishlar bo‘lsa ham, ularda manipulyativ harakatlarga moyillik yuqori bo‘ladi. Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarda plastiklik, asab tizimining faoliyat yo‘nalishiga moslashishi hamda faoliyat predmetini o‘zgartirishga xohish yuqori bo‘lib, lekin, shularning amaliy tomoni me’yorga nisbatan nomutanosibligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Plastiklik deganda bir turdagi predmetli faoliyatdan boshqasiga o‘ta olishni tushuniladi. Plastiklik ko‘rsatkichlari uning tez va oson kechishi asosida belgilanadi. Plastiklik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar eksperiment guruhida umumiy 6,0±0,60 ball, o‘g‘il bolalar 6,0 ball, qizlar 6,0 ball, nazorat guruhida esa umumiy 7,2±0,75 ball, o‘g‘il bolalar 6,3 ball va qizlar 8,2 ballga teng. Ko‘rsatkichlarning bunday tus olishi, ular faoliyat jarayonida ko‘proq amaliy xatti–harakatlardan ko‘ra, ruhiy kechinmalar ta’siri ostida bo‘lishlarini qayd etishi mumkin. Ularning asab tizimiga moslashuvchanlik va elastiklik xos bo‘lsa-da, ammo ayrim hollarda o‘zlarining ba’zi ehtiyojlarini qondirishda imkoniyatlari cheklanishiga duch keladilar. Bunday hollarga duch kelish natijasida, ularda asabiy zo‘riqish, uyalish, tortinish va depressiyaga moyillik ortadi. Shuningdek, plastiklik shkalasi ijtimoiy munosabatlarda shaxslilik ahamiyatini kasb etadi. Shu bois, plastiklik shaxslararo munosabatlar borasida mutanosiblik, muvofiqlikni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Eksperiment va nazorat guruhlarida ijtimoiy plastiklik shkalasi ko‘rsatkichlari predmetli plastiklik shkalasiga qaraganda birmuncha quyi ekanligi kuzatiladi.

Eksperiment guruhida umumiy 4,2±0,36 ball, o‘g‘il bolalarda 4,4 ball, qizlarda 4,0 ballni va nazorat guruhida esa umumiy 4,8 ±0,45 ball, o‘g‘il bolalarda 4,1 ball va qizlarda 5,5 ballni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar har ikkala guruh a’zolarining hali ijtimoiy munosabatlarga, xilma-xil shaxslararo muloqot jarayoniga tayyor emasliklari, ularga hali shaxslilik mohiyatiga ega munosabat zarur ekanligidan dalolat beradi.

Individlik shaxsning tabiiy zamiri sifatida xizmat qilishini e’tirof etiladi. Chunki shaxs xususiyatlarining har bir jabhasi qandaydir darajada individlik tabiatiga borib taqaladi.

Bizning navbatdagi vazifamiz ilk o‘spirinlarning individlik xususiyatlarini o‘zida qamrab olgan shkala-sur’at yoki tezlikni tahlil qilishdan iborat. Sur’at yoki tezlik shkalasi predmetli faoliyatni bajarishning motor-harakat aktlari haqidagi jihatlarini baholaydi.

Bizga ma’lumki, psixik xususiyatlar, jarayonlar va holatlarning muhim sifatlari tarzida ular asab tizimining sur’atiga bog‘liqligini inobatga olamiz. Hatto, psixika xossalarini bayon etishga bag‘ishlangan yondashuvlarda ham asab tizimining sur’atiga alohida e’tibor beriladi (I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, N.D.Nebilitsin, V.S. Merlin va boshqalar).

Eksperiment va nazorat guruhidagi ilk o‘spirinlar sur’at shkalasi bo‘yicha o‘rtacha qiymatni namoyon qildilar. Bu shkala bo‘yicha natijalar tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarda 7,25±0,64 ball, nazorat guruhida esa 7,45 ± 0,82 ballni tashkil qildi. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz lozimki, motor–harakatli faoliyatlarni bajarishda har ikkala guruh a’zolarida keskin farq kuzatilmaydi. Bunda ilk o‘spirinlar faoliyat jarayonida psixikalari tabiatiga xos tezkorlik, jadallik va elastiklikni namoyon qiladilar. Bu jarayonda ular ushbu xislatlar orasidagi o‘zaro muvozanatni uyg‘unlashtiradilar. Sinaluvchilar ko‘rsatkichlaridan ma’lum bo‘ladiki, ular biron–bir faoliyatni amalga oshirishda tezkor, yuqori psixik tezlikka moyil bo‘lsalar-da, ammo bu ko‘rsatkichlar doim bir xilda va muttasil namoyon bo‘lmaydi. Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning psixik sur’ati o‘rtacha darajadaligi tufayli, ular vazifa (topshiriq)larni bajarishda sustlikka yo‘l qo‘yadilar hamda ko‘proq vazminlik va barqarorlikka ega bo‘ladilar. Shu shkala ko‘rsatkichlarida jinslar bo‘yicha farq mavjud bo‘lib, eksperiment guruhidagi o‘g‘il bolalar 7,3 ball, qizlar esa 6,2 ball bilan o‘g‘il bolalarga nisbatan kichik miqdorda bo‘lsa ham ortda qolmoqdalar. Bu qizlardagi 6,2 ball shu eksperiment guruhidagi umumiy o‘rtacha ko‘rsatkich (6,75 ±0,64)ga nisbatan ham kam miqdorni tashkil qiladi. Eksperiment va nazorat guruhlaridagi o‘g‘il bolalarning ko‘rsatkichlari deyarlik bir xildir.

Emotsionallik har qanday individ, shuningdek, shaxsning xulq-atvorini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanligi psixologik nazariyalarda ta’kidlangan (P.M. Yakobson, K.E.Izard, Klapared, I.P.Simonov, Z. Freyd, V.Vundt, D.Keppon, U.Djems, Xebb, S.Shexter, Festinger va boshqalar). Emotsionallik shkalasi-shaxsning faollik darajasi, muvozanatlashuvi, psixik quvvatini ruyobga chiqarishi bilan bog‘liq jihatlarini aniqlaydi. Shu boisdan ham emotsionallik shkalasi shaxsning o‘zini o‘rab turgan muhitga va voqelikka munosabatini belgilaydi. Emotsionallik holatlarining yuksak insoniy tuyg‘ular darajasiga o‘sib o‘tishi ham ularning shaxs kamolotidagi ahamiyatini belgilab beradi.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar boshqa shkalalarga nisbatan anchagina yuqori natijaga ega bo‘lib, eksperiment guruhida 9,05±0,32 ballga va nazorat guruhida esa 7,45±0,26 ballga tengdir. Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning ushbu shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlari sog‘lom tengdoshlaridan qisman farq qilib, ularga nisbatan emotsionalliklari yuqoriroq, buning sababini har xil nuqsonlar va shikastlanishlar natijasida nogiron bo‘lib qolganliklari ularning asab tizimini chet ta’sirlarga tez beriluvchanlikka olib kelganligi oqibati deb baholash mumkin. Ularda ruhiy tushkunlik, asabiy taranglik, jur’atsizlik, ilojsizlik va introvertlashishga tushib qolish ehtimoli mavjud.

Ikkinchi tomondan, ularning ijtimoiy emotsionalligi shaxslararo munosabatlarga faol kirishishlarini ta’minlashi lozim edi. Ammo, ularda emotsionallik asab tizimining tabiiy emotsionalligiga xos bo‘lsa ham, ijtimoiy emotsionallik o‘rtachadan past ko‘rsatkichga ega ekanligi taajjubga soladi.

Agar nogiron ilk o‘spirinlar o‘zlarida ijtimoiy emotsionallikni namoyon qilmas ekanlar, ular jamiyatdan, xususan odamlardan ajralib qolishlari shubhasiz. Ularda ijtimoiy aloqa, muloqot, refleksiya va ijtimoiy identifikatsiyalashuv me’yorida bo‘lmaydi. Aksincha, ijtimoiy emotsionallikning shakllanganligi, ilk o‘spirinning shaxslararo munosabatdagi muvaffaqiyatsizliklarga yuqori sezgirligi, kommunikativ sohada emotsionallikka moyilligini anglatadi.

Natijalar eksperiment guruhida 6,85 ± 0,38 ball va nazorat guruhida esa 7,0 ± 0,43 ballga tengdir. Bu o‘rtacha qiymat bo‘lib, har ikkala guruhdagi ilk o‘spirinlarda ijtimoiy emotsionallik o‘rtacha darajadadir. Bu holatlar ilk o‘spirinlarda mustaqil hayot kechirish uchun zarur munosabatlarga etarlicha tayyor emaslik, kelajak rejalari oldindaligi, orzu-havas ko‘pligi, mustaqil qaror qabul qilishlari qiyin kechishidan ham kelib chiqadi.

Ilk o‘spirinlar shaxslararo munosabatda atrofdagilarning ularga nisbatan bahosiga e’tibor berishlari sababli kelib chiqadigan tortinchoqlikdan xoli bo‘lishga, o‘ziga ishonchni shakllantirishga, muloqot vaziyatlarini tahlil qilishga o‘rganishlari lozim. Bu masalada ularga tahsil olayotgan o‘quv muassasasidagi psixologik xizmat mutaxassisi muayyan yordam berishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalarining ob’ektivligi «Nazorat shkalasi»dagi ko‘rsatkichlar bilan asoslanadi. Chunki, mazkur metodikaning xususiyatiga ko‘ra, ushbu shkala bo‘yicha natijalar 7 va undan yuqori ball bo‘lgan hollarda so‘rovnoma savollariga noto‘g‘ri yoki tushunmagan holda javoblar berilgan va ko‘rsatkichlar ob’ektiv emas hisoblanadi. Shu sababli psixologik tahlilga hojat qolmaydi. Tadqiqot natijalari eksperiment guruhida umumiy 5,1 ± 0,35 ballni, nazorat guruhida esa 4,65 ± 0,24 ballni tashkil etdi. Bu esa ularning shu metodika bo‘yicha ob’ektivlikni belgilovchi me’¸rga mos kelganligini ko‘rsatmoqda. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar uchun qabul qilingan tanlanma reprezentativlikka egadir.

Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish davomida ularning jismoniy ojizliklariga (tayanch harakat a’zolarining tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlari tufayli kelib chiqqan) ko‘ra bir-biridan tafovutlanishi hamda ularning psixikasida qanday xususiyatlar etakchilik qilishini yoritishga harakat qildik.

Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning «Qo‘l asimmetriyasi», «Oyoq asimmetriyasi», «Umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi» tavsifiga to‘xtalib o‘tamiz. Biz bu ilk o‘spirinlarning psixologik xususiyatlarini ushbu uchta toifa bo‘yicha tiplashtirdik.

Natijalarni tahlil etishdan oldin ilk o‘spirinlarning kasallik tarixidan ushbu jismoniy belgilarning kelib chiqishi tug‘ma yoki orttirilgan ekanligini hamda asab tizimi sog‘lomlik darajasini inobatga oldik.

Malumki, tayanch harakat a’zolari buzilishi tug‘ma yoki orttirilgan (turli xil kasallik yoki jarohatlanish natijasida) bo‘lishi mumkin. Tayanch harakat a’zolari buzilgan holatlarda tibbiy yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor beriladi. Lekin, shu bilan birga, inson ruhiyati bilan bog‘liq holatlarni inobatga olish va kerakli psixologik yordam ko‘rsatish ham talab qilinadi.

Bola harakatlari juda xilma-xil va turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, u o‘sib-ulg‘aygan sari bu harakatlar rivojlanib, tobora murakkablashib boradi. Aynan shu jarayonda biror harakat a’zolari tug‘ma izdan chiqqanligi yoki shikastlanishi me’yoriy faoliyatni hamda muloqot doirasini toraytiradi va shaxs shakllanishida salbiy holatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Inson tayanch harakat a’zolaridagi turli xil shikastlanish, nuqsonlar (qo‘l va oyoq asimmetriyasi, umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi) faqat qad-qomat o‘zgarib, qolishiga sabab bo‘lib qolmasdan, balki amaliy (psixomotor) hatti-harakatlar bo‘yicha me’yoriy faoliyatning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, «Umurtqa pog‘onasi deformatsiya»si holati insonning amaliy faoliyatiga ta’sir etish bilan birga ichki organlar rivojlanishi va ular faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa fiziologik jarayonlarning me’yorida amalga oshishi qiyin kechishiga va shaxs shakllanishi jarayonida stress, depressiyaning ortishiga hamda konfortga ehtiyoj kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan holi emas. Biz tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning «qo‘l asimmetriyasi», «oyoq asimmetriyasi» va «umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi» tiplari bo‘yicha individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun V.M.Rusalovning «Temperament tuzilmasi» so‘rovnomasini qo‘llab, olingan natijalarga asoslanib tahlil etdik.

Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning yuqorida aytilgan uchta asosiy tiplariga doir xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalarni quyidagi 2-jadvalda keltirib o‘tamiz.

Jadval-2.

Ilk o‘spirinlar tayanch harakat a’zolari nuqsonlarining asosiy tiplari bo‘yicha individual-psixologik xususiyatlari ko‘rsatkichlari

№	Shkala	Qo‘l asimmetriyasi N=76		Oyoq Asimmetriyasi N=88		Umurtqa pog‘onasi defor-matsiyasi N=65	
		Tug‘ma	Orttirilgan	Tug‘ma	Orttirilgan	Tug‘ma	Orttirilgan
		M±m	M±m	M±m	M±m	M±m	M±m
1	Erglik	6,9±0,56	7,0±0,52	7,0±0,61	6,9±0,56	6,9±0,66	6,7±0,68
2	Ijtimoiy erglik	5,7±0,58	6,0±0,63	5,8±0,55	5,8±0,61	5,3±0,70	5,0±0,62
3	Plastiklik	6,3±0,71	6,4±0,77	5,5±0,76	5,9±0,72	5,8±0,75	5,9±0,78
4	Ijtimoiy plastiklik	4,5±0,56	4,7±0,61	4,0±0,56	4,3±0,66	3,3±0,58	3,5±0,50
5	Sur’at	6,7±0,68	6,9±0,70	6,0±0,66	6,6±0,73	6,0±0,74	6,7±0,72
6	Ijtimoiy sur’at	5,5±0,63	5,6±0,56	5,7±0,70	5,8±0,78	5,0±0,64	4,9±59
7	Emotsionallik	8,5±1,04	8,43±0,96	8,3±1,02	8,5±1,08	9,5±1,02	10,1±1,09
8	Ijtimoiy Emotsionallik	6,8±0,54	6,9±0,65	6,7±0,56	6,9±0,64	6,9±0,68	6,85±0,67
9	Nazorat	5,0±0,42	4,8±0,45	4,9±0,51	4,7±0,43	4,0±0,48	4,2±0,49

Bu natijalardan ko‘rinadiki, tayanch harakt a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlardagi «ergichlik» ularning faoliyatga munosabati va ehitiyojini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichlar 6,8 ballga tengligi faoliyatga, jismoniy harakatlarni amalga oshirishga xohish-istak mavjudligini bildiradi, shu bilan birga, ushbu natijalarni xususiy holatlar, ya’ni «qo‘l asimmetriyasi», «oyoq asimmetriyasi», «umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi» bo‘yicha ham tahlil etish maqsadga muvofiq.

Xususiy hollar: «qo‘l asimmetriyasi»- tug‘ma (6,9 ball) va orttirilgan (7,0 ball); «oyoq asimmetriyasi»-tug‘ma (7,0 ball)va orttirilgan (5,6 ball); «umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi»-tug‘ma (6,9 ball) va orttirilgan (6,7 ball) bo‘yicha natijalar o‘rtasida ham tafovut ko‘p emas.

Ijtiomoiy ergichlik bo‘yicha natijalar orasida bir muncha farq mavjud. Xususiy hollarda: «qo‘l asimmetriyasi»dagilar uchun qo‘l motorikasi bilan bog‘liq noqulayliklar ularning qo‘l orqali me’yoriy harakatlarni amalga oshirishiga to‘sqinlik etishi, gavda tuzilishi jihatdan simpatiyaning yo‘qolishiga olib kelganligi; «oyoq asimmetriyasi»dagilar uchun shaxs gavdasining me’yorda harakatlanishidagi noqulaylik, oyoq harakatlarida proporsionallik yo‘qligi va tez harakat qilishga imkoniyat bermasligi va «qo‘shimcha oyoq» (hassaga tayanish) ularning tashqi simpatiyasiga hamda faoliyat ko‘lamining cheklanishiga olib kelganligi tufayli, ruhiy zo‘riqish, asabiylashish, mayllarning so‘nib borishini keltirib chiqaradi. «Umurtqa pog‘onasi deformatsiya»langanlarda ham «ijtimoiy erglik» qolgan ikki toifa tengdoshlari singari quyi qiymatlar olganligi (5, 3 ball va 5,0 ball) ular qo‘l va oyoq harakatlari, psixomotor harakatlarni etarlicha amalga oshirishga erishsalar ham, biroq gavdadagi notekislik, bejirimlikning yo‘qligi ularning «og‘riq nuqtasi» hisoblanar ekan. Shu tufayli ijtimoiy munosabatlar, har xil harakatli va faol o‘yinlarga ishtirok etish, atrofdagilarni o‘ziga jalb etishda tashqi simpatiya etishmasligi o‘zini o‘zi quyi baholashiga sabab bo‘lib qolmoqda.

Tayanch harakt a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning har uchala toifasi o‘rtasida «plastiklik», «ijtimoiy plastiklik». «temp» va «ijtimoiy temp» ko‘rsatkichlarida ham umumiylik, ya’ni o‘rtacha va o‘rtachadan past qiymatlar etakchilik qilgan. Umumiy holatda «qo‘l asimmetriyasi», «oyoq asimmetriyasi» va «umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi» ilk o‘spirinning shaxs sifatida shakllanishini cheklab qo‘ymoqda.

Shuningdek, «emotsionallik» va «ijtimoiy emotsionallik» ko‘rsatkichlari esa yuqorida ta’kidlangan holatlarga qaraganda ancha yuqori: «qo‘l asimmetriyasi» tug‘ma bo‘lganlada 8,5 ball va orttirilgan 8,43 ball; «oyoq asimmetriyasi»- tug‘ma 8,3 ball va orttirilgan 8,5 ball; «umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi»-tug‘ma 9,5 ball va orttirilgan 10,1 ball ekanligi kuzatildi.

Uch toifa shaxslarning xususiyatlarini tipologik tahlil etildi. Ushbu tipologiya konstitutsional xarakterga ega bo‘lib, butun gavda tuzilishi bo‘yicha emas, balki tayanch harakat a’zolaridagi tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar tufayli jismoniy cheklanish oqibatida psixomotorikadagi nomutanosibliklar natijasida ruhiyatdagi ayrim holatlar o‘zgarishini belgilaydi.

Ushbu tipologiyada quyidagi mezonlar tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi: tanasining individual-anatomik o‘zgarishlari (tana proporsiyasi-tana qismlarining mosligi va o‘lchamlarining individual-matematik ifodasi); tana tuzilishi shakli (tana tashqi tuzilishining genetik determinantlashganligi); tuzilish (somatik) tipi (tug‘ma va orttirilgan holatlar)ning ijtimoiy xulq-atvorga ta’siri va ularning vaziyatlarga moslashuvchanligi hisobga olindi. Ushbu mezonlarga asoslanib, har uchala toifadagi ilk o‘spirinlarga tavsif berildi.

«Qo‘l asimmetriyasi»-insondagi bir yoki ikkala qo‘lning shakli, katta-kichikligi, kemtikligi va boshqa belgilari bo‘yicha bir-biriga o‘xshamaslik holatlarini ifodalaydi. Qo‘l asosan ishchi organ bo‘lib, faoliyatni amalga oshirishda turli xil qulayliklar yaratadi. Barcha faoliyat vositalari sog‘lom qo‘l uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bunday holat (qo‘l asimmetriyasi)da turli xil noqulayliklar keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida insonning faoliyat jarayonida frusturatsiyali holatlarni boshdan kechirishiga sabab bo‘ladi.

Psixik holat: jismoniy faoliyatga ehtiyoj, ijtimoiy munosabatga va muloqotga moyillik, vaziyatlarni tahlil etish, mustaqil qaror qabul qilish va emotsionallik yuqori, bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tish me’yorida, ammo ijtimoiy hatti-harakat ko‘lami cheklangan.

Psixomotor sohasi va tana proporsiyasi: tana tuzilishi psixomotorika bilan uyg‘unlashgan, reaksiya sur’ati ularda etarlicha namoyon baladi. Chap yoki o‘ng qo‘ldagi simmetriyaning yo‘qolganligi harakatlanishga noqulaylik tug‘diradi. Bitta qo‘l sog‘lom bo‘lgan holatlarda psixomotor soha sog‘lom qo‘l orqali boshqarilib, nuqsonli qo‘l funksiyasini muvofiqlashtirib turadi.

Tana tuzilishi va ijtimoiy munosabat: barcha turdagi gavda tuzilishiga ega insonlarda uchraydi. Tananing bir yoki ikkala tomonida qo‘lning me’yoriy faoliyati buzilgan. Qo‘llar proporsiyasidagi buzilish ijtimoiy muhitdagi statusni, tana estetikasini o‘zgartirishga olib keladi.

Shart-sharoitlarga moslashuvchanlik: (MI)

MItug‘ma= (ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)-(EmP-SEP)=(6,9+5,7+6,3+4,5+
+6,7+5,5)-(8,5-–6,8)=35,6-1,7=33,9

MIorttirilgan=(ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)-(EmP-SEP)=(7,0+6,0+6,4+4,7 + 6,9 + +5,6)-(8,43-6,9)=36,6-1,53=35,07

Vaziyatlarga moslashishda orttirilgan «qo‘l asimmetriya»si tug‘maga qaraganda ko‘proq qiyinchilik tug‘dirar ekan.

«Oyoq asimmetriyasi»-insondagi bir yoki ikkala oyoqning shakli, katta-kichikligi, kemtikligi va boshqa belgilari bo‘yicha bir-biriga o‘xshamaslik holatlari. Oyoq asosiy harakatlanish organi bo‘lib, har xil ishlarni amalga oshirishda o‘rni beqiyosdir.

Bu organ me’yorda ishlamasa, turli xil noqulayliklarni, inson boshqalar orasida o‘zini noqulay his etishini keltirib chiqaradi, mehnat faoliyati va muloqot qilish imkoniyatini toraytiradi.

Psixik holat: kayfiyatda taranglik, imkoniyatlari cheklangandek his etish, harakatlanish sustlashgani, ichki zo‘riqish, sabr-toqatlilik namoyon bo‘lishi. Emotsionallik ancha yuqori, muloqot va amaliy faoliyatda mustaqillik me’yorda emas.

Psixomotor sohasi va tana proporsiyasi: oyoq bilan harakatlanishda estetiklik va barqarorlik pasayadi, mustaqillik cheklanadi, notekislik ortadi. Bular qo‘l harakatlari ancha izchil va kuchli bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tana tuzilishi va ijtimoiy munosabat: hamma turdagi tana tuzilishiga ega bo‘lgan insonlarda uchraydi, oyoqlarda quvvat ancha past, gavda tuzilishi nomutanosib. Bunday holat ijtimoiy munosabatlarni, odamlar orasida bo‘lishni cheklaydi.

Shart-sharoitlarga moslashuvchanlik: (MI)

MItug‘ma=(ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)–(EmP–SEP)=(7,0+5,8+5,5+4,0+6,0+
+5,7)– (8,3–6,7) =34–1,6=32,4

MIorttirilgan=(ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)–(EmP–SEP)=(6,9+5,8+5,9+4,3+6,6+ +5,8) – (8,5-6,9)=35,3–1,6=33,7

Vaziyatlarga moslashishda orttirilgan «Oyoq asimmetriya»si tug‘maga qaraganda ko‘proq qiyinchilik tug‘dirar ekan.

«Umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi»-inson umurtqa pog‘onasining tarkibiy qismlari hamda umumiy fazoviy shaklining har turli o‘zgarishlaridan iborat: lordoz, skolioz, kifoz va shu kabilar.

Psixik holat: ijtimoiy va tabiiy faoliyatda vazmin, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, harakatlari notekis va sustlashgan, o‘ziga baho berish va ijtimoiy munosabat cheklangan.

Psixomotor sohasi va tana proporsiyasi: qo‘l va oyoq harakatlari o‘rtacha, har-xil yo‘nalishdagi jismoniy va aqliy mehnatni bajarish imkoniyatiga ega.

Tana tuzilishi va ijtimoiy munosabat: tana tuzilishi Krechmerning «atletik» tipiga mutlaqo teskari, tana estetikasi buzilgan, nimjon va past bo‘yli, ijtimoiy munosabatlarda tortinish hissi mavjud, aqliy mulohaza yuritishi yuqori.

Shart-sharoitlarga moslashuvchanlik: (MI)

MItug‘ma=(ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)-(EmP-SEP)=(6,9+5,3+5,8+3,3+6,0+5,0) –
–(9,5–6,9)=32,3–2,6=29,7;

MIorttirilgan=(ERP+PP+TP+ErS+SpP+STP)–(EmP–SEP)=(6,7+5,0+5,9+3,5+
+6,7+4,9)– (10,1–6,85)=32,7–3,25=29,45

«Umurtqa pog‘onasi deformatsiya»si tipidagi ilk o‘spirinlarning vaziyatlarga moslashuvchanligi boshqa tengdoshlariga nisbatan ancha murakkab kechishini qayd etib o‘tish o‘rinli.

Ushbu har uchala toifadagi ilk o‘spirinlar yuqorida aytilgan alohida tipologik belgi va xususiyatlar bilan birga quyidagi umumiy xususiyatlarga ham ega ekanligini inobatga olish lozim.

Psixik holat: depressiyaning o‘sishi, tayanch harakat a’zolari nuqsonlariga bog‘liq holda ijtimoiy aloqaning cheklanishi, hayot muammolari oldida frustratsiyaga moyillik, sog‘lom tengdoshlari bilan o‘zlarini identifikatsiyalay olmaslik, yosh ulg‘ayishiga qarab vaziyatlarga moslashuvchanlik ortadi hamda tolerantlik shakllanadi.

Tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlarning yuqorida bayon qilingan tipologik xususiyatlari tadqiqotimiz natijasidan kelib chiqqan nisbiy xulosalar hisoblanadi.

Biz ilk o‘spirinlarning shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi (qo‘l, oyoq va umurtqa pog‘onasidagi turli xil nuqsonlar natijasida hosil bo‘lgan) xususiyatlariga muvofiq ravishda ularni korreksiyalashga yo‘naltirilgan psixotrening mashg‘ulotlari dasturini ishlab chiqdik va amalga oshirdik .

VII. Xulosa. Tipologik xususiyatlarni tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, qo‘l, oyoq nuqsonlariga qaraganda umurtqa pog‘onasi deformatsiyasi tayanch harakat a’zolari buzilgan ilk o‘spirinlar shaxsi shakllanishiga va ijtimoiy moslashishiga nisbatan salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan.

VIII. Minnatdorchilik. Mualliflar ushbu tadqiqotni amalga oshtirishga ko‘maklashganliklari uchun Toshkent shahri 100-maxsus maktab-internatiga tanyach harakat a’zolarida nuqsoni bor ilk o‘spirinlarning individual-tpologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotni amalga oshirishga yordamlari uchun minnatdochiligini va kelgusida tadqiqotlarni davom ettirish bo‘yicha hamkorlikni davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абульханова –Славская К. А. Стратегия жизни. – М.: 1991.С. 66-67.
2. Адлер А. Индивидуальная психология // История зарубежной психологии: тексты / под ред. П.Я. Гальперина, А. Н. Ждан. М.: 1986. С. 131-141.
3. Бернс Р. Развитие Я-концепции и воспитание. М.: 1986.- 420с.
4. Болтаев Э.К., Курбанова Д.У., Бекбоева Ш.К. Медико – психологические проблемў реабилитатsiи детей, страдаюҳих церебральнўми параличами // Тезис. Совершеннўе аспектў физической и востоновленой терапии в условия Узбекистана. –Ташкент – 1988. С. 20-23.
5. Гусева А.Г. Психологические механизмў развертки. Предестовлений юношей и девушек о своей внешности и понимания личности // Вопросў психологии межличностного познания и обҳения.- Краснодар, 1985.- С. 40- 47.
6. Давлетшин М.Г. Шахсни ўрганиш истиқболлари // Халқ таълими журнали 2-сон, 2001. 60- бет.
7. Лукьянова З.Н. Влияние самооценки внешности учаҳегося на его обҳение с другими людьми. // Вопросў психологии.-1989. № 3.- С.71-75
8. Маогутова С.К. Психологическая реабилитатsiя детей переживших железнодорожную катастрофу. // Вопросў психологии.-1990. № 1. –С. 86-92.
9. Richardson S. A., Hastorf A. H., Dornbusch S. M. Effects of physical disability on a child’s description of himself.- Child. Dev., 1964, 35, p. 893.
10. Vaillant G. E. Theoretical hierarchy of adaptive ego mechanisms // Archives of General Psychiatry. 1971. 24. P. 107-118.
11. Avlaev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal "Psychology". 2021. № Pages 1, 34-41.
12. Avlaev O., Butaeva U. Psychological determinant of personality development. Scientific-methodical journal of public education. 2021. № Pages 6, 87-92.
13. Lukyanova, Zoya Nikolaevna. The influence of personality self-esteem on the nature of communication between schoolchildren and students: monograph - Barnaul: AGIK, 2020. - 163 p.

Кудратуллаева Рухсора Бахтияровна
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доцент кафедры психологии

НОВОЕВРОПЕЙСКАЯ ФИЛОСОФИЯ РЕФЛЕКСИИ: ОТ ЛОККА К КАНТУ И ГЕГЕЛЮ

Аннотация. *В статье рассматривается развитие понятия рефлексии в новоевропейской философии на примере Джон Локк, Иммануил Кант и Георг Вильгельм Фридрих Гегель. Показано, что рефлексия эволюционирует от внутреннего опыта у Локка к трансцендентальному принципу у Канта и диалектическому механизму мышления у Гегеля. Делается вывод о её ключевой роли в формировании самосознания и познавательной деятельности.*

Ключевые слова: *рефлексия, самосознание, познание, субъект, внутренний опыт, эмпиризм, трансцендентальная философия, диалектика, мышление, сознание, философия Нового времени, развитие мышления, рефлексивные процессы, философская антропология.*

YANGI YEVROPA FALSAFASIDA REFLEKSIYA: LOKKDAN KANT VA GEGEL-GACHA

Annotatsiya. *Maqolada yangi Yevropa falsafasida refleksiya tushunchasining rivojlanishi John Locke, Immanuel Kant va Georg Wilhelm Friedrich Hegel ta'limotlari misolida ko'rib chiqiladi. Ko'rsatilishicha, refleksiya Lokkda ichki tajriba sifatida, Kantda transcendental tamoyil sifatida, Gegelda esa tafakkurning dialektik mexanizmi sifatida shakllanadi. Refleksiyaning o'zini anglash va bilish faoliyatini shakllantirishdagi muhim o'rni haqida xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar: *refleksiya, o'zini anglash, bilish, subyekt, ichki tajriba, empirizm, transcendental falsafa, dialektika, tafakkur, ong, yangi Yevropa falsafasi, tafakkur rivoji, refleksiv jarayonlar, falsafiy antropologiya.*

MODERN EUROPEAN PHILOSOPHY OF REFLECTION: FROM LOCKE TO KANT AND HEGEL

Abstract. *The article examines the development of the concept of reflection in modern European philosophy through the works of John Locke, Immanuel Kant, and Georg Wilhelm Friedrich Hegel. It is shown that reflection evolves from an inner experience in Locke's philosophy to a transcendental principle in Kant's system, and further to a dialectical mechanism of thinking in Hegel's philosophy. The study concludes that reflection plays a key role in the formation of self-consciousness and cognitive activity.*

Key words: *reflection, self-consciousness, cognition, subject, inner experience, empiricism, transcendental philosophy, dialectics, thinking, consciousness, modern European philosophy, development of thinking, reflexive processes, philosophical anthropology.*

Рефлексия в философии Дж. Локка: «внутреннее чувство» и источник знания. Переход к новоевропейской философии связан с радикальным смещением исследовательского фокуса: если античность и Средневековье связывали самопознание с онтологическими и этическими основаниями бытия, то мыслители XVII–XVIII вв. начинают рассматривать сознание как автономную область анализа. В этом контексте Джон Локк вводит понятие рефлексии как специфического источника идей наряду с чувственным опытом.

В «Опыте о человеческом разумении» Локк различает два источника всех идей: ощущение (sensation), направленное на внешний мир, и рефлексию (reflection), направленную на внутренние операции ума [1]. Под рефлексией он понимает способность ума воспринимать собственные акты мышления, сомнения, желания, верования и решения. Таким образом, рефлексия выступает как «внутреннее чувство», позволяющее сознанию получить доступ к собственной деятельности.

Это определение имеет принципиальное значение для всей последующей философии и психологии: рефлексия перестаёт быть исключительно философским самоуглублением и приобретает статус когнитивного механизма. Локк фактически утверждает, что знание о себе имеет такую же эмпирическую основу, как и знание о внешнем мире, однако его объектом являются внутренние операции субъекта.

В современных философских интерпретациях подчёркивается, что Локковская рефлексия не сводится к простому наблюдению: она предполагает различение между актом мышления и его содержанием, что уже содержит элемент метапозиции [2]. Однако именно здесь возникает и методологическая проблема: если рефлексия является разновидностью “чувства”, то может ли она обеспечить критическое отношение к собственным основаниям, или она лишь фиксирует их наличие?

Для будущих психологических теорий этот вопрос станет принципиальным, поскольку от него зависит, понимается ли рефлексия как пассивное самонаблюдение или как активный процесс саморегуляции и перестройки сознания.

Кант: рефлексия как условие единства сознания и опыта. Иммануил Кант радикально переосмысливает проблему рефлексии, переводя её из эмпирической в трансцендентальную плоскость. Для него вопрос состоит не в том, как мы наблюдаем свои мысли, а в том, каким образом сознание вообще возможно, как единство. В «Критике чистого разума» Кант вводит понятие трансцендентальной апперцепции - способности «Я мыслю» сопровождать все представления субъекта [3].

В этом контексте рефлексия выступает как операция, посредством которой сознание соотносит данные чувственности и рассудка, устанавливая их принадлежность одному и тому же субъекту. Кант различает логическую рефлексию (сравнение представлений между собой) и трансцендентальную рефлексию (установление их места в системе способностей познания) [4].

Таким образом, рефлексия становится не просто актом самонаблюдения, а принципом организации опыта.

Для теории профессионального развития это имеет фундаментальное значение. Если в Локковской модели рефлексия фиксирует внутренние процессы, то у Канта она обеспечивает целостность субъекта как носителя опыта. В современной интерпретации это означает, что без рефлексии невозможно устойчивое чувство профессиональной идентичности: именно рефлексивные операции связывают отдельные переживания и действия в единую структуру “я как профессионала”.

Исследователи кантовской традиции подчёркивают, что рефлексия здесь приобретает нормативное измерение: она позволяет не только осознавать, но и оценивать основания собственного знания и действия [5]. Это приближает кантовское понимание к тем моделям рефлексивной культуры, которые будут развиты в психологии и педагогике.

Гегель: рефлексия как движение сущности и пределы формального самосознания. В философии Гегеля рефлексия получает диалектическое развитие. В отличие от Канта, который рассматривал рефлексию как функцию субъекта, Гегель интерпретирует её как внутреннее движение самой мысли и бытия. В «Науке логики» рефлексия описывается как процесс, посредством которого сущность “возвращается к себе”, проходя через различие и отрицание [6].

Гегель различает несколько форм рефлексии - полагающую, внешнюю и определяющую. Полагающая рефлексия создаёт различия, внешняя соотносит одно с другим, а определяющая устанавливает их в единстве. Это важно для анализа сознания: рефлексия здесь не только разъединяет, но и синтезирует, формируя более высокие уровни осмысленности.

С точки зрения теории профессионализации это означает, что рефлексия не может быть сведена к критике или сомнению. Она должна включать в себя момент интеграции, то есть соединение личностных, когнитивных и практических аспектов опыта в целостную профессиональную позицию. Иначе рефлексия вырождается в “пустое саморазмышление”, лишённое продуктивной силы.

Таблица 1.

Развитие понятия рефлексии в новоевропейской философии

(Локк – Кант – Гегель)

Философ	Понимание рефлексии	Основная идея	Характеристика	Значение для психологии и профессионального развития
Джон Локк	Рефлексия как «внутреннее чувство» (inner sense), направленное на наблюдение за деятельностью ума	Два источника знания: ощущение (внешний опыт) и рефлексия (внутренний опыт)	Рефлексия – форма внутреннего опыта, фиксирующая психические процессы	Основа самопознания, формирование первичного самонаблюдения
Иммануил Кант	Рефлексия как трансцендентальный механизм, обеспечивающий единство сознания	«Я мыслю» сопровождает все представления субъекта	Рефлексия – принцип организации опыта и познания	Формирует целостность субъекта и профессиональную идентичность
Г.В.Ф. Гегель	Рефлексия как диалектическое движение мышления и бытия	Рефлексия как процесс различения и интеграции	Рефлексия – механизм развития и синтеза	Обеспечивает интеграцию опыта и развитие профессиональной позиции

Современные философские обзоры подчёркивают, что Гегелевская модель рефлексии предвосхищает системные и интегративные подходы в психологии личности и деятельности [7]. Это делает её особенно значимой для построения теории рефлексивной культуры как системного ресурса профессионального развития.

Значение новоевропейской философии для современной теории рефлексии, а именно линия от Локка через Канта к Гегелю показывает постепенное усложнение понимания рефлексии:

от «внутреннего чувства» - к
трансцендентальному принципу единства сознания - и далее к
диалектическому процессу интеграции различий.

Для психологии и педагогики это означает, что рефлексия должна рассматриваться не только как индивидуальная способность к самоанализу, но и как механизм, обеспечивающий целостность и развитие субъекта в сложных системах деятельности.

В контексте подготовки психологов-консультантов данная философская эволюция позволяет обосновать идею о том, что рефлексивная культура не является частной техникой или навыком. Она представляет собой мета-уровень профессионального сознания, который объединяет опыт, знания, ценности и действия в устойчивую структуру профессиональной идентичности.

Исходя из выше сказанного в философии Локка рефлексия осмысляется как внутренний источник знания о собственных операциях сознания, Кант придал рефлексии трансцендентальный статус, связав её с единством субъекта и возможностью опыта, Гегель в свою очередь расширил понятие рефлексии до диалектического процесса интеграции различий, что методологически важно для понимания развития личности и профессионала. Новоевропейская философия создаёт теоретическую основу для современных психологических концепций рефлексии как механизма саморегуляции, идентичности и профессионального роста.

Список использованной литературы.

1. Локк Дж. Опыт о человеческом разумении. – Лондон: Thomas Basset, 1690. – 1240 с.

2. Reflection and Inner Sense // Stanford Encyclopedia of Philosophy [Электронный ресурс]. – URL: https://plato.stanford.edu (дата обращения: 24.03.2026).

3. Кант И. Критика чистого разума. – Кембридж: Cambridge University Press, 1998. – 785 с.

4. Кант И. Пролегомены ко всякой будущей метафизике. – Кембридж: Cambridge University Press, 2004. – 180 с.

5. Guyer P. Kant and the Claims of Knowledge. – Кембридж: Cambridge University Press, 1987. – 512 с.

6. Гегель Г.В.Ф. Наука логики. – Лондон: George Allen & Unwin, 1969. – 840 с.

7. Houlgate S. The Opening of Hegel's Logic: From Being to Infinity. – West Lafayette: Purdue University Press, 2006. – 320 p.

Soibjonov Jasurbek Botirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail:jasurbeksoibjonoov@gmail.com

EMOTSIONAL INTELLEKT KASBIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada emotsional intellektning shaxsning kasbiy o‘zini-o‘zi anglash jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, affektiv va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, emotsional intellekt tushunchasining shakllanishi hamda uning nazariy asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Emotsional intellekt, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash, affektiv jarayonlar, kognitiv jarayonlar, intrapersonal intellekt, interpersonal intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish, empatiya, kasbga yo‘naltirish, shaxs rivoji, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv.*

EMOTIONAL INTELLIGENCE AS AN IMPORTANT FACTOR OF PROFESSIONAL SELF-AWARENESS

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the role and significance of emotional intelligence in the process of an individual's professional self-realization. It also explores the interconnection between affective and cognitive processes, the formation of the concept of emotional intelligence, and its theoretical foundations.*

Key words: *Emotional intelligence, professional self-realization, affective processes, cognitive processes, intrapersonal intelligence, interpersonal intelligence, self-management, empathy, career guidance, personal development, motivation, social adaptation.*

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ

Аннотация. *В данной статье с научной точки зрения анализируются роль и значение эмоционального интеллекта в процессе профессионального самоопределения личности. Также освещаются взаимосвязь между аффективными и когнитивными процессами, становление понятия "эмоциональный интеллект" и его теоретические основы.*

Ключевые слова: *Эмоциональный интеллект, профессиональное самоопределение, аффективные процессы, когнитивные процессы, внутриличностный интеллект, межличностный интеллект, саморегуляция, эмпатия, профориентация, развитие личности, мотивация, социальная адаптация.*

Psixologiya rivojlanishining butun tarixi davomida affektiv va kognitiv sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi dolzarb bo‘lib kelgan. Insonning hayotdagi turli vaziyatlarga va o‘ziga bo‘lgan munosabati uning hissiyotlarida aks etadi, ushbu munosabatlarni anglash va ulardan abstrakt xulosalar chiqarish esa intellekt bilan bog‘liq. Shu boisdan, intellektual jarayonlarning obyekti inson hissiyotlari bo‘lib, aynan ular shaxsning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Emotsional intellekt (EI) – bu insonning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va samarali muloqot qilish qobiliyatlari majmuasi hisoblanadi. Ushbu tushuncha insonning shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyati va ijtimoiy munosabatlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida ko‘riladi.

“Emotsional intellekt”ning burilish nuqtasi Govard Gardner nomi bilan bog‘liqdir. 1983-yilda Gardner o‘zining “Aql turlari” (“Frames of Mind”) kitobida ko‘p qirrali intellektlar nazariyasi haqida so‘z yuritdi. Gardner yetti turdagi intellektlar orasidan ikkita “shaxsiy intellekt”ni muhokama qildi va ularning qamrovi “hissiy va ijtimoiy intellekt”ga hayratlanarli darajada o‘xshash ekani ma’lumdir. Bu ikki shaxsiy intellekt quyidagilardan iborat edi:

Intrapersonal (ichki shaxsiy) intellekt – o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ulardan foydalana olish qobiliyati;

hamda Interpersonal (shaxslararo) intellekt – boshqa odamlarning kayfiyati, motivatsiyasi va niyatlarini payqash hamda farqlay olish qobiliyatidir.

Talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish. Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun talabalarda mustaqil ta'lim olish, o‘z faoliyatini rejalashtirish, o‘z vaqtini boshqarish, o‘zini o‘zi baholash, refleksiya qilish, o‘z ustida ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish lozim. Portfolio yuritish, shaxsiy rivojlanish rejalarini tuzish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kundalik yuritish kabi usullar bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ular ustida ishlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash usullarini o‘rgatish kerak.

Gender yondashuvni integratsiyalash va talabalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirishning amaliy mexanizmlari. Tadqiqotlarimiz asosida quyidagi amaliy mexanizmlarni taklif etamiz:

O‘quv jarayonida gender yondashuvni integratsiyalash mexanizmlari:
o‘quv dasturlari va rejalariga gender komponentini kiritish;
darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining gender tahlilini o‘tkazish;
o‘qitish metodlari va texnologiyalarini gender sezgirlik asosida takomillashtirish;
talabalar bilimini baholashda gender yondashuvni qo‘llash.
Talabalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirish mexanizmlari:
talabalarning o‘zini o‘zi boshqarishini rivojlantirish;
talabalarning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini tashkil etish;
talabalarni volontyorlik faoliyatiga jalb etish;
talabalar tashkilotlari va klublari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish.

Gender tenglik masalalariga bag'ishlangan klublar, to‘garaklar tashkil etish, "Gender tenglik haftaligi", "Ayollar yetakchiligi forumi", "Erkaklar va gender tenglik" kabi tadbirlar o‘tkazish, muvaffaqiyatli ayollar va erkaklar bilan uchrashuvlar tashkil etish, gender zo‘ravonligiga qarshi aksiyalar, flesh-moblar, ko‘rgazmalar, tanlovlar o‘tkazish kabilar shu jumlasidandir.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari:
onlayn platformalar va resurslarni yaratish;
masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish;
ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish;
sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

"Gender va yoshlar" onlayn platformasini yaratish, Telegram, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda maxsus guruhlar va kanallar tashkil etish, gender tenglikka oid mobil ilovalar ishlab chiqish, onlayn treninglar va vebinarlar tashkil etish kabilar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarni gender tenglik tamoyillari asosida ijtimoiy faollikka yo‘naltirish samaradorligini baholash. Tadqiqotlarimiz davomida talabalarning ijtimoiy faolligini baholashning quyidagi mezonlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi:

Kognitiv mezon – talabalarning gender tenglik, ijtimoiy faollik, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari kabi masalalarga oid bilimlari, tushunchalari va xabardorlik darajasini baholaydi. Ko‘rsatkichlar: gender tenglik tushunchasining mohiyatini bilish; ijtimoiy faollik shakllari va usullari haqida ma'lumotga ega bo‘lish; fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati haqida xabardorlik; o‘z huquq va

majburiyatlarini bilish; gender tenglikka oid qonunlar va xalqaro hujjatlar haqida ma'lumotga ega bo‘lish.

Motivatsion-qadriyatli mezon – talabalarning gender tenglik va ijtimoiy faollikka nisbatan munosabati, qadriyatlari, motivlari va e'tiqodlarini baholaydi. Ko‘rsatkichlar: gender tenglikni muhim ijtimoiy qadriyat sifatida tan olish; ijtimoiy faollikka nisbatan ijobiy munosabat; ijtimoiy masalalarga nisbatan shaxsiy mas'uliyatni his qilish; o‘z huquqlarini himoya qilishga tayyorlik; boshqalarning huquqlarini hurmat qilish.

Faoliyatli mezon – talabalarning gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy faollik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari, malakalari va faolligini baholaydi. Ko‘rsatkichlar: gender stereotiplariga qarshi tura olish; gender diskriminatsiyasi holatlarida o‘z huquqini himoya qila olish; talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etish; ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish; volontyorlik faoliyatida qatnashish; boshqalar bilan hamkorlik qilish.

Refleksiv mezon – talabalarning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari, munosabatlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini baholaydi. Ko‘rsatkichlar: o‘zidagi gender stereotiplarini anglash; o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholay olish; o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish; o‘zini rivojlantirish ehtiyojini his qilish; o‘z nuqtai nazarini asoslay olish va qayta ko‘rib chiqish.

Ijtimoiy faollik mezoni – talabalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi ishtiroki, fuqarolik mas'uliyatini baholaydi. Ko‘rsatkichlar: talabalar tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish; ijtimoiy tadbirlarda qatnashish; volontyorlik faoliyatida ishtirok etish; ijtimoiy tashabbuslar ko‘rsatish; fuqarolik pozitsiyasining namoyon bo‘lishi; boshqalar bilan hamkorlik qilish.

Xulosa va tavsiyalar: Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni gender tenglik tamoyillari asosida ijtimoiy faollikka yo‘naltirish murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab qiladigan pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishi tashkiliy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik, moddiy-texnik va shaxsiy rivojlanish shart-sharoitlarini kompleks tarzda yaratish, gender yondashuvni integratsiyalash va talabalarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirishning amaliy mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, samaradorlikni muntazam ravishda baholab borish orqali ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oliy ta'lim muassasalarida gender tenglik bo‘yicha maslahatchi lavozimini joriy etish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlarida gender tenglikni ta'minlash, qizlar va o‘g'il bolalarning teng ishtirokiga erishish.

Gender tenglik masalalariga bag'ishlangan klublar, to‘garaklar, seksiyalar tashkil etish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Talabalarni ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatiga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

O‘quv dasturlari va rejalariga gender komponentini kiritish, maxsus kurslar va treninglar tashkil etish.

Professor-o‘qituvchilarning gender kompetentligini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish.

Gender tenglikka oid axborot-resurs markazlarini tashkil etish, ularni zarur adabiyotlar va texnik vositalar bilan ta'minlash.

Xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalarni o‘rganish va joriy etish.

Talabalarning ijtimoiy faolligini muntazam monitoring qilish va baholab borish, natijalarga ko‘ra tegishli choralar ko‘rish.

Gender tenglik va ijtimoiy faollik masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida: Qonun [Elektron resurs]. – Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2019. – 32 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida : Farmon [Elektron resurs]. – Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, 2022. – 24 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida : Farmon [Elektron resurs]. – Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, 2022. – 88 b.

4. Quronova, M.Oliy ta’limda gender yondashuvning pedagogik asoslari : monografiya. – Toshkent : Fan, 2022. – 264 b.

5. To‘rayev, Sh.Talaba-yoshlarda gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik tizimi : monografiya. – Toshkent : TDPU nashriyoti, 2023. – 248 b.

6. Connell, R.Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. – Stanford : Stanford University Press, 1987. – 352 p.

7. Bem, S.The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – New Haven : Yale University Press, 1993. – 256 p.

8. Butler, J.Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York : Routledge, 1990. – 236 p.

9. Maxkamova, D.Pedagogika yo‘nalishi talabalarini o‘quvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi faoliyatiga tayyorlashning metodik ta’minoti // Ilm-fan va innovatsiya. – 2025. – № 3(4). – B. 93–97.

10. Joldasova, Sh.Davlat boshqaruvida gender tengligini oshirish uchun raqamli boshqaruvning innovatsion modellari // Yosh olimlar axborotnomasi. – 2024. – № 2. – B. 112–118.

11. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi.Gender va yoshlar onlayn platformasi materiallari [Elektron resurs]. – Toshkent, 2023. – URL: https://youth.uz (murojaat sanasi: 14.04.2026).

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.O‘zbekistonda gender tenglik : statistik to‘plam. – Toshkent : Davstatqo‘m nashriyoti, 2023. – 168 b.

Ozotov Akbarjon Odiljon o‘g‘li
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi
E-mail: ozodovakbar1@gmail.com,
Ilmiy rahbar: **G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: nargizagulomova099@gmail

“CHO‘QINTIRGAN OTA” HAMDA “SHAYTANAT” ROMANLARIDA OTA DISKURSINING DINIY VA KULTURALOGIK QARASHLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” va Tohir Malikning “Shaytanat” romanlarida ota diskursining diniy qarashlari qiyosiy-diskursiv metod asosida tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida ota obrazining nutq strategiyasi, qadriyatlar tizimi, farzandlar bilan munosabati, gunoh, tavba, taqdir va adolat kabi diniy konseptlarga munosabati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Mario Pyuzo romanida ota diskursi ekzistensial-falsafiy xarakterga ega bo‘lib, ichki ruhiy ziddiyat va shubha orqali diniy haqiqatni anglashga yo‘naltirilgan, Tohir Malik romanida esa ota diskursi normativ-axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot ota diskursining diniy tomondan funksiyasini qiyosiy jihatdan ochib berib, adabiyotshunoslikda madaniyatlararo va konfessional kontekstni hisobga olgan holda badiiy matn tahlilini boyitadi.*

Kalit so‘zlar: *ota diskursi, diniy qarashlar, qiyosiy tahlil, badiiy matn, axloqiy qadriyatlar.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЛИГИОЗНЫХ ВЗГЛЯДОВ НА ОТЦОВСКИЕ РАССУЖДЕНИЯ В РОМАНАХ «КРЁСТНЫЙ ОТЕЦ» И «ШАЙТАНАТ»

Аннотация. *В статье проводится сравнительно-дискурсивный анализ религиозных взглядов в дискурсе отца в романах Марио Пьюзого «Поднятый отец» и Т.Малика «Шайтанат». В ходе исследования изучаются речевые стратегии образа отца, система ценностей, взаимоотношения с детьми, а также отношение к концептам греха, покаяния, судьбы и справедливости. Результаты показывают, что в романе Марио Пьюзого дискурс отца имеет экзистенциально-философский характер и направлен на осмысление религиозной истины через внутренние конфликты и сомнения, тогда как в романе Tohir Малика дискурс отца выступает как средство нормативной этики и социальной стабильности. Исследование выявляет религиозно-ценностную функцию дискурса отца и обогащает литературоведческий анализ художественного текста с учётом межкультурного и конфессионального контекста.*

Ключевые слова: *дискурс отца, религиозные взгляды, сравнительный анализ, художественный текст, нравственные ценности.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE RELIGIOUS VIEWS OF THE FATHER'S DISCOURSE IN THE NOVELS “THE GODFATHER” AND “SHAYTANAT”

Abstract. *This article presents a comparative-discursive analysis of the religious views in the father discourse in Mario Pyuzo’s “The Grandfather” and Tohir Malik’s “Shaytanat”. The study examines the father figure’s speech strategies, value system, relationships with children, as well as attitudes toward sin, repentance, destiny, and justice. The results reveal that in Mario Pyuzo’s novel, the father discourse has an existential-philosophical character, emphasizing the understanding of religious truth through inner conflict and doubt, while in Malik’s novel, the father discourse functions as a normative-ethical and socially stabilizing tool. The study highlights the religious-value function of the father discourse and enriches literary analysis by considering intercultural and confessional contexts.*

Key words: *father discourse, religious views, comparative analysis, literary text, moral values.*

Kirish. Badiiy adabiyot jamiyat ma'naviy-madaniy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida inson tafakkuri, axloqiy mezonlari, diniy e'tiqodi hamda ijtimoiy munosabatlarini murakkab estetik tizimda aks ettiradi. Adabiy matn nafaqat voqelikning badiiy in'ikosi, balki muayyan davrning mafkuraviy, diniy va falsafiy qarashlarini ifodalovchi semantik maydon hamdir[1: 185]. Shu bois adabiyotshunoslikda obrazlar tizimini diskursiv tahlil qilish, ayniqsa, muayyan konseptlar atrofida shakllangan timsollarni o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sharqona tafakkurda "ota" obrazi alohida ramziy-ma'naviy mazmunga ega. U nafaqat oilaning boshlig'i yoki biologik jihatdan ota maqomiga ega shaxs, balki axloqiy me'yorlar posboni, diniy qadriyatlar targ'ibotchisi, ma'naviy yetakchi va ijtimoiy tartibning timsoli sifatida talqin qilinadi. Ota timsoli orqali avlodlar davomiyligi, e'tiqodiy meros, qadriyatlar uzviyligi va ma'naviy mas'uliyat kabi tushunchalar ifodalanadi. Shu jihatdan, zamonaviy o'zbek va jahon adabiyotida ota obrazining diniy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanishi alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" romanida (unda ota timsoli va diniy-axloqiy ziddiyatlar markaziy o'rinda turadi) hamda Tohir Malikning "Shaytanat" asarida ota diskursi g'oyaviy-badiiy qatlamning asosiy komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur asarlar turli tarixiy-madaniy makon – rus pravoslav tafakkuri va islomiy-ma'naviy muhitda yaratilgan bo'lsa-da, ularda ota timsoli diniy-axloqiy konseptlarni ifodalovchi markaziy asos vazifasini bajaradi. Mario Pyuzo romanida ota obrazi nasroniylik falsafasi, xususan, gunoh va tavba, iymon va shubha, erkin iroda va ilohiy adolat masalalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Ota timsoli orqali inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, e'tiqodiy inqiroz va najot izlanishi badiiy-falsafiy teranlikda yoritiladi. Asarda ota nafaqat oilaviy nizolarning sababchisi, balki ma'naviy tanazzul va e'tiqodiy sinov ramzi sifatida ham gavdalanadi. Shu tariqa ota diskursi nasroniy antropologiyasi va ekzistensial izlanishlar bilan kesishadi.

Tohir Malikning "Shaytanat" romanida esa ota timsoli islomiy qadriyatlar, taqdir (qadar), halol va harom mezonlari, gunoh va jazo tushunchalari bilan bog'liq holda ochib beriladi. Asarda ota obrazi ko'pincha ma'naviy mezon, axloqiy hukm chiqaruvchi yoki aksincha, diniy me'yorlardan og'ish oqibatida yuzaga kelgan inqiroz timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, ota diskursi jamiyatdagi ma'naviy muhit, diniy ong darajasi va axloqiy tanlov masalalarini yoritishda muhim badiiy vositaga aylanadi [10: 9]. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi globallashuv va madaniyatlararo integratsiya sharoitida milliy-diniy identifikatsiya masalalarining keskinlashuvi bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni kechayotgan bir paytda badiiy matnda ota obrazi orqali ifodalangan diniy qarashlarni qiyosiy o'rganish madaniyatlararo tafovut va mushtaraklikni aniqlashga [3: 1], shuningdek, ma'naviy inqiroz va e'tiqodiy mustahkamlik omillarini ochib berishga xizmat qiladi. Qolaversa, ota diskursini qiyosiy-diskursiv yondashuv asosida tadqiq etish adabiyotshunoslikda interdisiplinar metodologiyani rivojlantirish imkonini beradi [7: 15].

Tadqiqot metodologiyasi. Ota obrazi va uning diniy-axloqiy talqini masalasi jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligida turli nazariy paradigmalar doirasida o'rganilgan. Xususan, obrazshunoslik, mifopoetik tahlil, strukturalizm, psixoanalitik yondashuv, germenevtika va diskurs tahlili kabi metodologik yo'nalishlar "ota" timsolini ko'p qatlamli semantik tuzilma sifatida talqin etishga imkon beradi. Ushbu tadqiqotlarda ota obrazi nafaqat oilaviy institut vakili, balki hokimiyat, qonun, e'tiqod, axloqiy me'yor va ma'naviy meros ramzi sifatida sharhlanadi.

Jahon adabiyotshunosligida ota fenomeni ko'pincha psixoanalitik paradigma asosida izohlanadi. Z.Freyd nazariyasida ota obrazi "superego" shakllanishida hal qiluvchi asos sifatida talqin qilinib, u ijtimoiy taqiqlar va axloqiy me'yorlarning umumlashtirilgan timsoli hisoblanadi [5: 30]. J.Lakan esa "Otani nomlash" ("Nom-du-Père") konsepsiyasi orqali ota obrazini "Qonun" va "Ramziy tartib"ning markaziy elementi sifatida izohlaydi [9: 68]. Mazkur qarashlar badiiy matn tahliliga tatbiq etilganda, ota obrazi shaxs ongining shakllanishi, identifikatsiya jarayoni va ijtimoiy-diniy normalarning legitimlashuvi bilan bog'liq holda sharhlanadi. Struktural va mifopoetik yondashuv doirasida (K.Levi-Stross, N.Frye va boshqalar) ota timsoli arxetipik xarakter kasb etib, u "ajdod", "asoschi", "hukmdor" yoki "jazolovchi" obrazlari bilan semantik aloqadorlikda ko'riladi [6: 14]. K.G.Yungning arxetip nazariyasiga ko'ra, ota obrazi kollektiv ongsizlikdagi universal timsollardan biri bo'lib, u tartib, hokimiyat va ruhiy yetakchilik ramzi sifatida namoyon bo'ladi [8: 87]. Bu yondashuv diniy matnlar va badiiy asarlardagi ota figurasi o'rtasidagi semantik mushtaraklikni

aniqlash imkonini beradi. Diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan esa (M.Fuko, T.Van Deyk, N.Feyrklaf va boshqalar) ota obrazi hokimiyat va nutq o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimida tahlil qilinadi. Fuko konsepsiyasida diskurs ijtimoiy haqiqatni shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi mexanizm sifatida talqin etiladi [4: 60]. Shu ma’noda, ota nutqi va uning pozitsiyasi ma’naviy-ideologik nazorat vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Van Deyk va Feyrklafning tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi esa badiiy matnda ifodalangan diniy qarashlar va hokimiyat munosabatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu metodologiya ota diskursini diniy qadriyatlarning legitimlashuvi yoki dekonstruksiyasi jarayoni sifatida o‘rganishga imkon beradi. Mario Pyuzo ijodi, ayniqsa, uning diniy-falsafiy konsepsiyasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Adabiyotshunoslar yozuvchi asarlarida nasroniylik antropologiyasi, gunoh va tavba, erkin iroda, iymon va shubha, ilohiy adolat masalalarini markaziy g‘oyaviy o‘q sifatida ko‘rsatadilar. “Cho‘qintirgan ota” romanida ota va farzand o‘rtasidagi ziddiyat ko‘pincha diniy-falsafiy konflikt sifatida talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda Corleone obrazi axloqiy tanazzul va ma’naviy inqiroz timsoli sifatida baholansa, Michael Corleone yoki Sonny Corleone obrazlari orqali “ruhiy otalik” konsepti ilgari suriladi. Biroq mavjud ilmiy ishlarda ota diskursining aynan diniy qarashlar tizimi sifatida kompleks va qiyosiy tahlili yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

O‘zbek adabiyotshunosligida Tohir Malikning “Shaytanat” romani ko‘proq ijtimoiy-siyosiy, kriminal va ma’naviy-axloqiy jihatdan tadqiq etilgan. Asar mustaqillik davri jamiyatidagi ma’naviy inqiroz, qadriyatlar transformatsiyasi, jinoyatchilik ildizlari va e’tiqod masalalarini yorituvchi yirik epik asar sifatida baholanadi. Ilmiy ishlarda romandagi ota obrazlari milliy mentalitet, islomiy qadriyatlar, sharqona tarbiya va oila instituti bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Ayrim tadqiqotchilar ota timsolini halollik, mas’uliyat, sabr-toqat va taqdirga iymon kabi tushunchalar bilan bog‘lashgan. Shunga qaramay, ota diskursining diniy konseptlar tizimi sifatida maxsus va qiyosiy o‘rganilishi hozircha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shuningdek, diniy konseptlarning badiiy matndagi ifodasi masalasi germenevtik va intertekstual yondashuvlar asosida ham o‘rganilgan. P.Riker va X.G.Gadamer kabi olimlar matn talqinida diniy ma’nolarning ko‘p qatlamli xususiyatini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv ota obrazini diniy matnlar va an’anaviy e’tiqod tizimlari bilan semantik aloqadorlikda tahlil qilish imkonini beradi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mario Pyuzo va Tohir Malik asarlari alohida-alohida keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularda ota diskursining diniy qarashlarini qiyosiy-diskursiv asosda o‘rganish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, nasroniylik va islomiy tafakkur kontekstida ota timsolining g‘oyaviy-badiiy funksiyasini tizimli ravishda qiyoslash ilmiy yangilik kasb etadi. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, ota diskursining diniy asoslarini ikki turli madaniy-adabiy makon – rus pravoslav an’anasi va o‘zbek islomiy-ma’naviy muhit doirasida qiyosiy o‘rganishni maqsad qiladi. Bu yondashuv badiiy matnda diniy konseptlarning shakllanish mexanizmini ochib berish [11: 49], ota obrazining ma’naviy-ideologik funksiyasini aniqlashtirish hamda qiyosiy adabiyotshunoslikda diskursiv metodologiyaning amaliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Natija va muhokama. Mazkur tadqiqot doirasida Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” hamda Tohir Malikning “Shaytanat” romanlarida ota diskursining diniy qarashlari qiyosiy-diskursiv metod asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida ota obrazining nutq strategiyasi, xatti-harakat modeli, qadriyatlar tizimi, farzandlar bilan kommunikativ munosabati, shuningdek, gunoh, tavba, taqdir va adolat konseptlariga munosabati asosiy mezon sifatida belgilandi. Diskursiv tahlil badiiy matndagi semantik maydon, ideologik pozitsiya va diniy konseptlarning legitimlashuv mexanizmini aniqlashga qaratildi. Bunda:

1. Ota diskursining diniy asoslari: “Cho‘qintirgan ota” romanida ota diskursi nasroniylikdagi gunohkorlik (sinfulness) konsepsiyasi, tavba (repentance) va ilohiy adolat (divine justice) g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Corleone timsolida ota obrazi ko‘proq ma’naviy tanazzul va axloqiy beqarorlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, asardagi “ruhiy otalik” konsepti (Michael Corleone obrazida) nasroniylikdagi mehr-shafqat, kechirim va poklanish g‘oyalarini ifodalaydi. Natijada ota diskursi ikki qutbli xarakter kasb etadi: bir tomonda axloqiy inqiroz, ikkinchi tomonda ruhiy najot va e’tiqodiy mukammallik. Mazkur diskursda diniy haqiqat qat’iy dogmatik shaklda emas, balki savol, shubha va ichki iztirob orqali anglanadi. Ota nutqi va uning atrofidagi

muloqotlar polemik xarakterga ega bo‘lib, e’tiqod va inkor, ishonch va skeptitsizm o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Demak, bu yerda ota diskursi ekzistensial-falsafiy qiyofa kasb etadi. “Shaytanat” romanida esa ota diskursi islomiy qadriyatlar – halol va harom mezoni, taqdir (qadar), sabr, mas’uliyat, javobgarlik hamda ilohiy jazoga ishonch asosida quriladi. Ota obrazi ko‘proq ma’naviy tayanch, axloqiy mezon va oilaviy-intizomiy markaz sifatida tasvirlanadi. Uning nutqida diniy qadriyatlar aniq me’yor, buyruq yoki ogohlantirish shaklida ifodalanadi. Bu diskursda diniy haqiqat shubha ostiga olinmaydi [2: 110], aksincha, u ijtimoiy tartibni ta’minlovchi barqaror axloqiy mezon sifatida taqdim etiladi. Natijada ota obrazi diniy normalarning legitimlashtiruvchi va tartibga soluvchi subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Mario Pyuzo asarida ota diskursi ekzistensial izlanish va ichki konflikt maydonida shakllansa, Tohir Malik romanida u normativ-axloqiy tizimning barqaror ifodachisi sifatida gavdalanadi.

Ota va farzand munosabatlarida diniy qarashlar. Har ikki romanda ota va farzand o‘rtasidagi munosabat diniy dunyoqarash bilan bevosita bog‘liq. “Cho‘qintirgan ota”da farzandlarning (Tom Hagen, Kay Adams, Fredo Corleone) e’tiqod va axloq masalasidagi pozitsiyasi ota diskursiga nisbatan turlicha shakllanadi. Sony Corleone obrazida shubha va intellektual inkor ustuvor bo‘lsa, Fredo Corleone obrazida e’tiqodiy sobitlik va ruhiy poklik namoyon bo‘ladi. Shu tariqa ota diskursi avlodlar o‘rtasida metafizik va falsafiy konfliktni yuzaga keltiradi. Bu konflikt individual tanlov va erkin iroda masalasi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. “Shaytanat”da esa ota va farzand o‘rtasidagi ziddiyat ko‘proq ijtimoiy-ma’naviy muhit bilan bog‘liq. Diniy qadriyatlardan og‘ish jinoyat, ma’naviy tanazzul yoki fojiaga olib keluvchi sabab sifatida ko‘rsatiladi [8: 105]. Ota diskursi bu jarayonda ogohlantiruvchi, me’yor belgilovchi va tartibga soluvchi kuch vazifasini bajaradi. Demak, birinchi asarda konflikt ichki-ruhiy va metafizik xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchi asarda u ijtimoiy-axloqiy tus oladi.

Gunoh va jazo konsepti. Nasroniylik tafakkurida gunoh insonning ichki ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lib, tavba va ruhiy poklanish orqali najot topish imkonini beradi. “Cho‘qintirgan ota”da gunoh tushunchasi vijdon azobi, ichki iztirob va ilohiy adolat oldidagi mas’uliyat orqali ochiladi. Jazolanish ko‘proq ma’naviy-ruhiy jarayon sifatida talqin etiladi; inson o‘z gunohi bilan ichki kurash olib boradi. “Shaytanat” romanida esa gunoh ijtimoiy va diniy qonunbuzarlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda amal va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik aniq va muqarrar tarzda tasvirlanadi. Jazo nafaqat ilohiy, balki dunyoviy-huquqiy shaklda ham amalga oshadi. Shu tariqa ota diskursi orqali diniy adolat konkret va real hodisa sifatida gavdalanadi.

Diskursiv-strategik xususiyatlar. Diskursiv jihatdan tahlil qilinganda, Mario Pyuzo romanida ota bilan bog‘liq nutq shakllari polifonik xarakterga ega. M. Baxtin ta’kidlaganidek, polifoniya turli ovoz va pozitsiyalarning o‘zaro dialogik munosabatini anglatadi. Asarda ota diskursi yagona haqiqatni emas, balki qarama-qarshi g‘oyalar to‘qnashuvini yuzaga chiqaradi. Ichki monolog, falsafiy dialog va polemik nutq shakllari ustuvor. “Shaytanat”da esa ota diskursi ko‘proq monologik va didaktik xarakterga ega [12: 33-40]. Pand-nasihat, qat’iy hukm va axloqiy xulosa shakllari ustuvorlik qiladi. Bu diskurs milliy mentalitet va diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi hamda ijtimoiy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan qiyosiy-diskursiv tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalar aniqlandi:

Har ikki romanda ota diskursi diniy qarashlarning asosiy tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi, biroq uning semantik va funksional modeli madaniy-kontekstual omillar bilan belgilanadi.

“Cho‘qintirgan ota”da ota diskursi nasroniylikdagi ekzistensial izlanish, shubha va tavba konsepti bilan bog‘liq bo‘lib, ichki-ruhiy konflikt asosida shakllanadi.

“Shaytanat”da esa ota diskursi islomiy axloqiy-me’yoriy tizimga tayangan holda barqaror e’tiqod va ijtimoiy javobgarlik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi asarda diniy konflikt metafizik va individual xarakter kasb etsa, ikkinchi asarda u ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan boyitiladi.

Ota obrazi har ikki madaniy makonda ham ma’naviy hokimiyat timsoli bo‘lib, diniy qadriyatlarni legitimlashtiruvchi diskurs markazi vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ota diskursining diniy qarashlari madaniy va konfessional tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Mazkur izlanish badiiy matnda e’tiqod va axloq kategoriyalarining shakllanish mexanizmini aniqlashga, shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslikda diskursiv metodologiyaning amaliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” hamda Tohir Malikning “Shaytanat” romanlarida ota diskursining diniy qarashlari qiyosiy-diskursiv metodologiya asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ota obrazining nutq strategiyasi, qadriyatlar tizimi, farzandlar bilan munosabati hamda gunoh, tavba, taqdir va adolat kabi diniy konseptlarga munosabati asosiy mezon sifatida belgilandi. O‘rganish natijasida ota obrazi har ikki asarda ham oddiy ijtimoiy rol emas, balki ma’naviy hokimiyat, axloqiy me’yor va diniy qadriyatlarning markaziy tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ota diskursi badiiy matnda diniy konseptlarni legitimlashtiruvchi va g‘oyaviy yo‘nalishni belgilovchi semantik markaz vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Mario Pyuzo romanida ota diskursi nasroniylikdagi gunoh, tavba, ilohiy adolat, erkin iroda va shaxsiy e’tiqod izlanishi bilan bog‘liq ekzistensial-falsafiy xarakter kasb etadi. Unda diniy haqiqat ichki ruhiy kurash, shubha va iztirob orqali anglanadi. Ota obrazi qat’iy aqidaparast subyekt emas, balki murakkab ruhiy ziddiyatlar girdobidagi shaxs sifatida tasvirlanadi. Natijada diniy masalalar individual tafakkur va metafizik tanlov maydoniga ko‘chadi. Tohir Malikning “Shaytanat” romanida esa ota diskursi islomiy axloqiy-me’yoriy tizimga tayangan holda barqaror va qat’iy e’tiqod shaklida namoyon bo‘ladi. Bu asarda ota diniy qadriyatlarning himoyachisi, oilaviy-intizomiy markaz va ijtimoiy tartibni saqlovchi kuch sifatida gavdalanadi. Gunoh va jazo konsepti aniq sabab-oqibat munosabatida tasvirlanib, diniy me’yorlardan chekinishning fojeaviy oqibatlari badiiy asosda ochib beriladi. Shunday qilib, ota diskursi bu asarda normativ-axloqiy tizimni mustahkamlovchi vosita sifatida ishlaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi umumlashmalar aniqlandi:

Har ikki romanda ota diskursi diniy qarashlarni shakllantiruvchi va legitimlashtiruvchi markaziy g‘oyaviy qatlamdir.

Ota obrazining diniy talqini muayyan madaniy va konfessional kontekst bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi.

Nasroniylik kontekstida ota diskursi ko‘proq ruhiy-psixologik izlanish, shubha va ichki konflikt bilan tavsiflansa, islomiy kontekstda u axloqiy barqarorlik, normativlik va ijtimoiy javobgarlik asosida quriladi.

Ota va farzand o‘rtasidagi konflikt diniy qadriyatlarning avlodlararo uzatilishi, transformatsiyasi yoki inkori bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Ota diskursi badiiy matnda e’tiqod, axloq va hokimiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi konseptual maydonni hosil qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ota diskursining diniy qarashlarini qiyosiy o‘rganish badiiy matnning g‘oyaviy-estetik qatlamini chuqurroq anglashga, turli madaniy-diniy tizimlarda shakllangan axloqiy me’yorlarning adabiy ifodasini tahlil qilishga hamda qiyosiy adabiyotshunoslikda diskursiv metodologiyaning samaradorligini namoyon etishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodologik asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abjalova, M., Gulomova, N.Author’s Corpus of Alisher Navoi and Its Semantic Database // IEEE UBMK–2022 : Proceedings of the 7th International Conference on Computer Science and Engineering, 24–26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey, 2022. – P. 182–187. – DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.

2. Ablakulova, G.“Shaytanat” – yoshlar uchun ogohlantiruvchi asar // Akademicheskiye issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2025. – № 4 (71). – P. 110–113.

3. Ozotov, A., G‘ulomova, N.Ingliz va o‘zbek tillari ota diskursida nutqiy etiketlarning lingvokulturologik xususiyatlari // Taraqqiyot spektri. – 2025. – T. 1. – № 11. – B. 1–9.

4. Sirojiddinov, Sh., Abjalova, M., Normamatov, S., Gulomova, N.The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus // Proceedings of the 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 26–28 October 2024. – Antalya, Turkey, 2024. – P. 48–53.
5. Fairclough, N.Critical Discourse Analysis. – London : Longman, 1995. – P. 1–20.
6. Foucault, M.The Archaeology of Knowledge. – London : Routledge, 1972. – P. 55–60.
7. Freud, S.The Ego and the Id. – London : Hogarth Press, 1927. – P. 30–45.
8. Frye, N.Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton, NJ : Princeton University Press, 1957. – P. 14.
9. Giddens, A.Modernity and Self-Identity. – Stanford : Stanford University Press, 1991. – P. 1–15.
10. Jung, C. G.The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton : Princeton University Press, 1969. – P. 87–95.
11. Lacan, J.Écrits: A Selection. – New York : W. W. Norton, 1977. – P. 67–75.
12. Бахтин, М. М.Проблемы поэтики Достоевского. – Москва : Искусство, 1979. – С. 33–40.

Astanakulov Kamalitdin Maxkamovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’limi metodikasi
kafedrasi mudiri (PhD), professor

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI (XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning mazmuni, ahamiyati hamda uni samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimida ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganilib, ularning milliy ta’lim tizimiga joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda sinergetik yondashuvning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni va uning amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalari maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *sinergetik yondashuv, maktabgacha ta’lim, ota-ona va muassasa hamkorligi, xorijiy tajriba, ta’lim sifati, tarbiya, innovatsion yondashuv, pedagogik hamkorlik, bola rivojlanishi, ijtimoiy sheriklik.*

СОТРУДНИЧЕСТВО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ И РОДИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПОДХОДА (АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА)

Аннотация. *В статье анализируется содержание, значение и механизмы эффективной организации сотрудничества дошкольного образовательного учреждения и родителей на основе синергетического подхода. Также изучен передовой опыт налаживания сотрудничества с родителями в системе дошкольного образования зарубежных стран и рассмотрены возможности его внедрения в национальную систему образования. В исследовании обоснована роль синергетического подхода в повышении качества образования и его практическая значимость. Результаты статьи могут быть использованы для совершенствования деятельности дошкольных образовательных учреждений и развития эффективного сотрудничества с родителями.*

Ключевые слова: *синергетический подход, дошкольное образование, сотрудничество родителей и учреждения, зарубежный опыт, качество образования, воспитание, инновационный подход, педагогическое сотрудничество, развитие ребенка, социальное партнерство.*

COOPERATION BETWEEN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND PARENTS BASED ON A SYNERGETIC APPROACH (ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE)

Abstract. *The article analyzes the content, significance and mechanisms of effective organization of cooperation between preschool educational institutions and parents based on a synergetic approach. The best practices of establishing cooperation with parents in the preschool education system of foreign countries were also studied and the possibilities of its implementation in the national education system were considered. The study substantiates the role of the synergetic approach in improving the quality of education and its practical significance. The results of the article can be used to improve the activities of preschool educational institutions and to develop effective cooperation with parents.*

Key words: *synergistic approach, preschool education, parent-institution cooperation, foreign experience, quality of education, upbringing, innovative approach, pedagogical cooperation, child development, social partnership.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi, samarali mexanizmlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tizimi - bu bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadigan, uning kelgusidagi ta’lim jarayonlariga tayyorlovchi muhim bosqichdir. Ushbu davrda bola nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyati nafaqat bolani tarbiyalash, balki oila bilan uzviy aloqada bo‘lishni ham o‘z ichiga oladi.

Oila - bolani birinchi tarbiyalovchi ijtimoiy muhitdir. Bolaning dastlabki fazilatlari, dunyoqarashi, qadriyatlari va odatlari aynan oilada shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti esa bu jarayonni davom ettirib, bolaning ijtimoiylashuvi, intellektual, estetik va ma’naviy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bola tarbiyasida oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik uzviy bo‘lishi zarur. Ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy maqsadi - bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyani muvofiqlashtirishdir. Bugungi globallashuv davrida, ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga, ularni farzand tarbiyasiga faol jalb etishga imkon yaratmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlash turli shakllarda amalga oshiriladi: ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq eshiklar kuni, pedagogik seminar va treninglar, oilaviy kechalar, individual suhbatlar va masofaviy muloqotlar. Bularning barchasi bolalarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish, bolalar tarbiyasining yaxlitligini ta’minlash hamda “bog‘cha–oila–jamiyat” uchligi asosida uzluksiz rivojlanish modelini yaratishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda pedagogika va ta’lim boshqaruvida sinergetik yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tizim ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va hamkorlik natijasida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik ham aynan shunday tizim sifatida qaralib, uning samaradorligi barcha ishtirokchilarning faol va muvofiqlashtirilgan harakatlariga bog‘liqdir.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, bolaning har tomonlama rivojlanishi faqat ta’lim muassasasi yoki faqat oila ta’sirida emas, balki ularning uzviy hamkorligi orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ham sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish, uni yangi mazmun bilan boyitish zarur.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi bu borada muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Yevropa davlatlari, AQSH va Yaponiya, Singapur, Fransiya hamda Italiyada maktabgacha ta’lim tizimida ota-onalar ishtirokini ta’minlashning turli samarali shakllari joriy etilgan. Ularda ota-onalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi va ularning fikri hamda takliflari ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali milliy tizim uchun mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, modellashtirish va kuzatish usullari qo‘llanildi.

Nazariy tahlil usuli orqali sinergetik yondashuvning mazmuni, uning pedagogika sohasida qo‘llanilishi hamda maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘rni o‘rganildi. Bu jarayonda pedagogika, psixologiya va ta’lim boshqaruviga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Sinergetika nazariyasiga ko‘ra, har qanday tizimda elementlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali yangi sifat bosqichi yuzaga keladi [Haken

H,2004:5]. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligi yagona dinamik tizim sifatida qaraldi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish tajribalari o‘rganildi. Xususan, AQSH, Finlyandiya va Yaponiya ta’lim tizimlarida ota-onalar ishtirokining shakllari, usullari va natijalari tahlil qilindi. Masalan, Finlyandiyada ta’lim jarayonida ota-onalar bilan muntazam muloqot va hamkorlik ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi[OECD Publishing, 2017:11].

Kuzatish usuli orqali maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik jarayonlari tahlil qilindi. Bu usul yordamida amaliyotda mavjud muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlandi.

Shuningdek, modellashtirish usuli asosida sinergetik yondashuvga tayangan holda maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligining samarali modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda barcha ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi, axborot almashinuvi va hamkorlik natijalarining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali amaliy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini tashkil etish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, an’anaviy yondashuvlarda ota-onalar asosan axborot qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, sinergetik yondashuvda ular ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Sinergetik yondashuv zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlardan biri bo‘lib, u turli elementlardan tashkil topgan tizimlarning o‘zaro ta’siri natijasida yangi sifat holatlarining yuzaga kelishini o‘rganadi. “Sinergetika” atamasi yunoncha “hamkorlik”, “birgalikda harakat” ma’nolarini anglatib, ilk bor tabiiy fanlar doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda pedagogika sohasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida sinergetik yondashuv ta’lim jarayoni ishtirokchilari - tarbiyachilar, bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, bolaning rivojlanishi alohida ta’sirlar natijasi emas, balki barcha ijtimoiy subyektlarning o‘zaro uyg‘un hamkorligi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Sinergetik yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri - bu ochiq tizimlar nazariyasiga asoslanishidir. YA’ni, maktabgacha ta’lim muassasasi tashqi muhit (oila, jamiyat) bilan doimiy aloqada bo‘lgan tizim sifatida qaraladi. Bu esa ta’lim jarayonini izolyatsiya qilingan holda emas, balki keng ijtimoiy kontekstda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi[Prigogine I., Stengers I.1984:8].

Shuningdek, sinergetik yondashuvda o‘z-o‘zini tashkil etish (self-organization) muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limda bu jarayon bolaning mustaqil faoliyati, ijodkorligi va shaxsiy tajribasini shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi va ota-onalar esa ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi va yo‘naltiruvchi subyektlar sifatida ishtirok etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, sinergetik yondashuv ta’lim jarayonini ko‘p komponentli va dinamik tizim sifatida tushunish imkonini beradi. Unda har bir ishtirokchi (pedagog, ota-ona, bola) teng ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri ta’lim samaradorligini belgilaydi. Bu esa an’anaviy bir tomonlama ta’lim modellaridan farq qilib, hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratishni taqozo etadi[Knyazeva E.N., Kurdyumov S.P. 2002:9].

Italiyada maktabgacha ta’lim tizimi bolaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka asoslanadi. Ayniqsa, mamlakatning shimoliy hududlarida shakllangan Reggio Emilia pedagogik yondashuvi bu borada dunyo miqyosida ilg‘or tajriba sifatida e’tirof etilgan.


Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi - ta’lim jarayonini “hamkorlikdagi tizim” sifatida tashkil etishdir. Bunda bola, pedagog va ota-onalar teng huquqli ishtirokchilar sifatida qaraladi. Ota-onalar passiv kuzatuvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol sherigi hisoblanadi[Reggio Emilia:10].

Italiyadagi maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalarning ishtirok etishi quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

1. Ta’lim jarayonida bevosita ishtirok. Reggio Emilia maktablarida ota-onalar bolalar bilan birgalikda loyihalarda qatnashadi, tadqiqot ishlarida ishtirok etadi va bolalarning qiziqishlarini rivojlantirishda yordam beradi. Ular bolalar bilan uyda ham shu loyihalarni davom ettiradi va ma’lumot to‘plashga ko‘maklashadi[Bennett J.2].

2. Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok. Italiyada ota-onalar maktab boshqaruvida ham ishtirok etadi. Ular maxsus kengashlar (comitato di gestione) orqali ta’lim muassasasi faoliyati, moliyalashtirish, dasturlar mazmuni kabi masalalarda fikr bildirish huquqiga ega[Educational materials:7].

3. Doimiy muloqot va axborot almashinuvi. Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida har kuni muloqot olib boriladi (bolani olib kelish va olib ketish jarayonida). Shuningdek, muntazam uchrashuvlar, seminarlar va muhokamalar tashkil etiladi. Bu orqali bolaning rivojlanishi haqida doimiy ma’lumot almashinuvi ta’minlanadi.



4. Ta’lim muhitini birgalikda yaratish. Reggio Emilia yondashuvida “muhit - uchinchi o‘qituvchi” sifatida qaraladi. Ota-onalar ta’lim muhitini tashkil etishda, materiallar tayyorlashda va bolalar uchun rivojlantiruvchi sharoit yaratishda ishtirok etadi.

Italiyada ota-onalar bolaning “birinchi o‘qituvchisi” sifatida tan olinadi. Shu sababli ularning tajribasi va fikrlari ta’lim jarayonini rejalashtirishda hisobga olinadi. Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik bolaning individual xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Italiya tajribasi sinergetik yondashuv tamoyillariga to‘liq mos keladi. Chunki:

ta’lim jarayoni ko‘p subyektli tizim sifatida tashkil etilgan;


barcha ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro ta’sir va hamkorlik mavjud;

natija (bolaning rivojlanishi) ushbu hamkorlikning integral mahsuli hisoblanadi.

Bu holat sinergetikaning asosiy qonuniyati - “birgalikdagi harakat orqali yuqori samaraga erishish” prinsipini amalda namoyon etadi.

Italiya, xususan Reggio Emilia tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda ota-onalar bilan hamkorlikni tizimli va faol tashkil etish bolaning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu modelda ota-onalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Reggio Emilia yondashuvi bolani faol, izlanishga moyil va o‘z rivojlanishining subyekti sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyalaridan biri – ijodiy muhitni tashkil etishdir. Muhit bu yerda shunchaki fon emas, balki bolaning fikrlashini, his qilishini va harakatlarini rag‘batlantiruvchi faol ishtirokchi sifatida qaraladi[Risyukova Y, Pardayeva M 2025. 26:1].



Xorijiy tadqiqotlarda ham sinergetik yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Jumladan, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraladi. Bu esa maktabgacha ta'limda oila va ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Maktabgacha ta'limda sinergetik yondashuv - bu ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va integratsiya orqali bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvdir.

Xorijiy tajribalar tahlili natijalari quyidagi samarali shakllarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi:
ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish (master-klasslar, ochiq darslar);
individual rivojlanish rejalarini birgalikda ishlab chiqish;
raqamli platformalar orqali doimiy muloqotni ta'minlash;
oilaviy ta'lim muhitini qo'llab-quvvatlash dasturlari.

Tadqiqot natijasida sinergetik yondashuvga asoslangan hamkorlik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:
maqsadli komponent (bola rivojlanishiga qaratilgan umumiy maqsadlar);
mazmuniy komponent (ta'lim va tarbiya jarayonlarining uyg'unligi);
tashkiliy komponent (hamkorlik shakl va usullari);
natijaviy komponent (bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari).

Tadqiqot natijalari sinergetik yondashuvni amaliyotga joriy etish ushbu muammolarni bartaraf etish imkonini berishini ko'rsatdi.

Muhokama. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sinergetik yondashuv maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi va ularning o'zaro ta'siri natijasida yuqori samaradorlikka erishiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ham ushbu natijalarni tasdiqlaydi. Jumladan, tadqiqotchi J. Epstein ta'lim muassasasi va oila hamkorligini bola rivojlanishining muhim omili sifatida baholaydi[Epstein J.L.,2011:4]. Shuningdek, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra, bolaning rivojlanishiga uni o'rab turgan barcha ijtimoiy muhitlar ta'sir ko'rsatadi[Bronfenbrenner U, 1979:3]. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligining ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

O'yin usullari Yel universitetining professori psixolog Lourens Shtaynberg 2020-yilda ijodiy o'yinlarning bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot o'tkazgan. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatganki, muntazam ravishda improvizatsiya o'yinlarida qatnashadigan bolalar kognitiv moslashuvchanlikning yuqori darajasini namoyish etadilar, bu ularga o'zgarishlarga tezroq moslashish va qiyin vaziyatlarda noan'anaviy yechimlarni topish imkonini beradi. Tadqiqot davomida olimlar turli turdagi o'yinlar taklif qilingan bolalar guruhlarini kuzatganlar: ba'zi

bolalar belgilangan qoidalarga ega an’anaviy stol o‘yinlarini o‘ynasalar, boshqalari improvizatsiyani talab qiladigan o‘yinlarda ishtirok etishgan, masalan, oldindan tayyorlangan ssenariysiz rolli teatr tomoshalari va hikoya qilish. Ma’lum bo‘lishicha, ikkinchi guruh bolalari nafaqat vazifalarni tezroq bajarishgan, balki yaxshi xotira va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ssenariylarni bashorat qilish qobiliyatini ham namoyish etgan.



“Loose Parts” o‘yinlari

Bolalar turli xil chiqindi materiallar – tugmalar, mato bo‘laklari, plastmassa qopqoqlar, yog‘och parchalari, karton qutilar va boshqa shunga o‘xshash buyumlar bilan erkin o‘ynashadi. Bu o‘yinlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.



Art-terapiya

Art-terapiya - bu chizish, modellashtirish, musiqa, fotografiya, filmlar, kitoblar, aktyorlik, hikoyalar va boshqalar kabi davolash va psixokorreksiya uchun badiiy texnika va ijodkorlikdan foydalanadigan psixoterapiya usuli.

Xulosa. Xorijiy mamlakatlardagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish bolaning akademik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, AQShda ota-onalar ishtirokida tashkil etilgan dasturlar bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi[Haken H,2004:5].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari milliy ta’lim tizimida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish zarurligini ko‘rsatdi:

ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish;
innovatsion hamkorlik shakllarini joriy etish;
raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish;
hamkorlikni tizimli va uzluksiz tashkil etish.

Umuman olganda, sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini takomillashtirish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Risyukova, Y., Pardayeva, M. va boshq.Reggio pedagogikasi: kreativlikni rivojlantirishning samarali yo'li : pedagoglar uchun tavsiyalar. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, 2025. – 26 b. – O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil may oyidagi yig'ilish qarori bilan ma'qullangan.
2. Bennett, J.Parents and Community in Reggio Emilia // Early Childhood Research and Practice (ECRP).
3. Bronfenbrenner, U.The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1979.
4. Epstein, J. L.School, Family, and Community Partnerships. – Boulder : Westview Press, 2011.
5. Haken, H.Synergetics: Introduction and Advanced Topics. – Berlin : Springer, 2004.
6. Sheridan, S., Kim, E. M.Foundations of Family-School Partnerships in Early Childhood Education. – New York : Routledge, 2015.
7. Italy Early Childhood Education System.Parental participation forms : educational materials.
8. Prigogine, I., Stengers, I.Order Out of Chaos. – New York : Bantam Books, 1984.
9. Knyazeva, E. N., Kurdyumov, S. P.Synergetics: Nonlinear Thinking. – Moscow, 2002.
10. Reggio Emilia Approach.Parent involvement principles : educational materials / Goodwin University.
11. OECD.Starting Strong: Early Childhood Education and Care. – Paris : OECD Publishing, 2017.

Khodiyeva Yulduz Yunusovna
Pedagogical skills center of navoi region
senior teacher of the department of language teaching methodology
doctoral student of Navoi state university
E-mail:hodiyeva14@gmail.com

CREATIVE APPROACHES AND THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: THE CASE OF SCAMPER TECHNOLOGY

Abstract. *In the context of rapid globalization and digital transformation, foreign language education is undergoing significant methodological changes aimed at enhancing learners' communicative competence and cognitive flexibility. This study explores the role of creative approaches and information and communication technologies (ICT) in foreign language teaching, with a particular focus on the SCAMPER technique as a tool for fostering creativity and critical thinking. The research analyzes theoretical foundations of creative pedagogy, examines the structure and pedagogical potential of SCAMPER, and investigates its application in language classrooms supported by ICT tools.*

The study employs a qualitative analytical approach, drawing on existing pedagogical theories and methodological frameworks. It argues that SCAMPER-based activities, when integrated with digital technologies, significantly improve learner engagement, promote higher-order thinking skills, and facilitate meaningful language use in authentic contexts. Furthermore, the article discusses how ICT enhances interactivity, supports differentiated instruction, and enables learner autonomy.

The findings suggest that the synergy between creative methodologies and digital tools leads to improved language acquisition outcomes and prepares learners for real-world communication. The paper concludes by emphasizing the need for systematic integration of such approaches into curricula and teacher training programs.

Key words: *creative pedagogy, SCAMPER, ICT, foreign language teaching, communicative competence, innovative methods, learner autonomy.*

КРЕАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКОМ: КЕЙС ТЕХНОЛОГИИ SCAMPER

Аннотация. *В условиях стремительной глобализации и цифровой трансформации обучение иностранным языкам претерпевает значительные методические изменения, направленные на повышение коммуникативной компетентности и когнитивной гибкости обучающихся. В данном исследовании рассматривается роль креативных подходов и информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении иностранным языкам, с особым акцентом на технику SCAMPER как инструмент развития креативности и критического мышления. В исследовании анализируются теоретические основы креативной педагогики, рассматриваются структура и педагогический потенциал SCAMPER, а также его применение в лингвистических аудиториях, поддерживаемых средствами ИКТ.*

В исследовании используется качественно-аналитический подход, опирающийся на существующие педагогические теории и методологические основы. В ней утверждается, что мероприятия, основанные на SCAMPER, при интеграции с цифровыми технологиями значительно улучшают вовлеченность учащихся, способствуют развитию навыков мышления более высокого порядка и способствуют осмысленному использованию языка в аутентичных контекстах. Кроме того, в статье обсуждается, как ИКТ повышают интерактивность, поддерживают дифференцированное обучение и обеспечивают автономию обучающихся.

Результаты показывают, что синергия между творческими методологиями и цифровыми инструментами приводит к улучшению результатов овладения языком и готовит учащихся к общению в реальном мире. В заключение работы подчеркивается необходимость систематической интеграции таких подходов в учебные программы и программы подготовки учителей.

Ключевые слова: *креативная педагогика, SCAMPER, ИКТ, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетентность, инновационные методы, автономия обучающегося.*

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA IJODIY YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: SCAMPER TEXNOLOGIYASI MISOLI

Annotatsiya. *Shiddatli globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida chet tili ta’limi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi va kognitiv moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan sezilarli uslubiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqot chet tilini o‘qitishda ijodiy yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rnini o‘rganadi, bunda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida SCAMPER texnikasiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda kreativ pedagogikaning nazariy asoslari tahlil qilingan, SCAMPERning tuzilishi va pedagogik imkoniyatlari o‘rganilib, uning AKT vositalari yordamida til sinflarida qo‘llanilishi tadqiq etilgan.*

Tadqiqotda mavjud pedagogik nazariyalar va metodologik asoslarga tayangan holda sifatli tahliliy yondashuv qo‘llanilgan. Unda ta’kidlanishicha, SCAMPERga asoslangan mashg‘ulotlar raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilganda o‘quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi, yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va haqiqiy kontekstlarda tildan mazmunli foydalanishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, maqolada AKT interaktivlikni qanday oshirishi, tabaqalashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashi va o‘quvchilarning mustaqilligini ta’minlashi haqida so‘z boradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy metodikalar va raqamli vositalar o‘rtasidagi hamkorlik til o‘rganish natijalarining yaxshilanishiga olib keladi va o‘quvchilarni haqiqiy muloqotga tayyorlaydi. Maqola yakunida bunday yondashuvlarni o‘quv dasturlari va o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga tizimli ravishda joriy etish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *kreativ pedagogika, SCAMPER, AKT, chet tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, ta’lim oluvchi avtonomiyasi.*

1. Introduction. The increasing interconnectedness of the modern world has significantly elevated the importance of foreign language proficiency. As global communication, international mobility, and digital interaction continue to expand, the ability to effectively use a foreign language has become a fundamental skill in both academic and professional domains. Consequently, educational systems worldwide are re-evaluating traditional teaching methodologies and adopting more innovative and learner-centered approaches.

Historically, foreign language teaching has relied heavily on grammar-translation methods, which prioritize the memorization of linguistic structures over communicative use. While such approaches may contribute to grammatical accuracy, they often fail to develop learners’ ability to use language effectively in real-life situations (Harmer, 2007). In contrast, contemporary pedagogical paradigms emphasize communicative competence, creativity, and active learner engagement.

Creative approaches in education aim to cultivate learners’ ability to think independently, generate original ideas, and apply knowledge in novel contexts. These approaches are particularly relevant in language learning, where flexibility, adaptability, and contextual understanding are essential. Among various creative techniques, the SCAMPER method has gained attention for its structured yet flexible framework that promotes creative thinking (Eberle, 1971).

At the same time, the rapid development of information and communication technologies (ICT) has transformed the educational landscape. Digital platforms, mobile applications, and multimedia tools have created new opportunities for interactive, personalized, and collaborative learning. ICT not only enhances access to authentic language materials but also supports innovative teaching strategies that align with modern educational goals (Richards & Rodgers, 2014).

This article aims to provide a comprehensive analysis of the integration of creative approaches and ICT in foreign language teaching, focusing specifically on the SCAMPER technique. It seeks to demonstrate how this integration can improve learning outcomes, foster creativity, and prepare students for real-world communication.

2. Literature review

2.1. Creative Pedagogy in Language Education

Creative pedagogy is grounded in constructivist theories of learning, which emphasize the active role of learners in constructing knowledge through experience and interaction. According to Scrivener (2011), effective language teaching involves creating opportunities for meaningful communication, problem-solving, and collaboration.

Research indicates that creativity in language learning enhances motivation, engagement, and retention. Learners exposed to creative tasks are more likely to develop higher-order thinking skills, including analysis, synthesis, and evaluation. Moreover, creative activities encourage risk-taking and reduce anxiety, which are crucial factors in language acquisition.

2.2. SCAMPER as a creative thinking tool

The SCAMPER technique, developed by Eberle (1971), is based on Osborn's (1953) brainstorming principles. It provides a systematic approach to idea generation through seven cognitive operations:

-Substitute
-Combine
-Adapt
-Modify
-Put to another use
-Eliminate
-Rearrange

Each component encourages learners to explore different perspectives and transform existing ideas. In language education, SCAMPER can be used to design tasks that promote vocabulary expansion, grammatical flexibility, and creative expression.

2.3. ICT in foreign language teaching

ICT integration in education has been widely recognized as a key factor in improving teaching effectiveness. Digital technologies facilitate access to diverse learning resources, enable real-time communication, and support collaborative learning environments.

According to Richards and Rodgers (2014), ICT-enhanced language learning promotes learner autonomy and provides opportunities for authentic language use. Tools such as online platforms, mobile applications, and multimedia content allow learners to practice language skills in interactive and engaging ways.

3. Methodology. This study adopts a qualitative research design based on theoretical analysis and synthesis of existing literature. It examines the pedagogical potential of SCAMPER and ICT integration in foreign language teaching by analyzing academic sources, methodological frameworks, and practical applications.

The research focuses on:

-identifying key principles of creative pedagogy
-analyzing the structure and application of SCAMPER
-evaluating the role of ICT in supporting creative learning
-exploring the combined impact of SCAMPER and ICT on language acquisition

3.1. Participants

The study involved 60 high school students (ages 18-19) divided into:

Control group (n = 30): Traditional teaching methods

Experimental group (n = 30): SCAMPER activities combined with ICT

3.2. Procedure

Pre-test: Assessed baseline vocabulary, writing creativity, and communicative competence.

Intervention: Over 8 weeks, the experimental group used SCAMPER + ICT tasks while the control group followed standard curriculum.

Post-test: Evaluated improvement in language skills and creativity.

Data Analysis: Used paired-sample t-tests and independent t-tests to assess significance.

4. Results and discussion

4.1. Application of SCAMPER in language classrooms

The SCAMPER technique can be effectively integrated into various aspects of language teaching:

Substitute: Enhancing vocabulary through synonym replacement
Combine: Developing complex sentence structures
Adapt: Applying language in real-life contexts
Modify: Encouraging creative writing and storytelling
Put to another use: Expanding contextual language use
Eliminate: Improving clarity and conciseness
Rearrange: Strengthening syntactic awareness
These activities promote active participation and deeper cognitive engagement.
Pre-test vs. Post-test scores

Table 1.

Average Scores Before and After Intervention (Maximum Score = 100)

Group	Pre-test Vocabulary	Post-test Vocabulary	Pre-test Creativity	Post-test Creativity	Pre-test Communication	Post-test Communication
Control (n= 30)	56.4	63.2	52.1	58.5	55.3	61.0
Experimental (n= 30)	57.0	81.4	53.0	85.2	54.8	83.7

Observation: The experimental group showed a significantly higher improvement compared to the control group ($p < 0.01$).

4.2. ICT-Supported SCAMPER activities

The integration of ICT enables more dynamic implementation of SCAMPER. For example:
-digital storytelling tools for “Modify” tasks
-online collaboration platforms for “Combine” activities
-interactive quizzes for “Substitute” exercises

Such tools enhance learner motivation and provide immediate feedback, which is essential for effective learning.

Interpretation: SCAMPER + ICT significantly boosts all assessed domains compared to traditional methods.

4.3. Pedagogical benefits

The combined use of SCAMPER and ICT offers several advantages:
-development of creative and critical thinking
-increased learner autonomy
-improved communicative competence
-enhanced engagement and motivation
-facilitation of personalized learning

These benefits contribute to more effective and meaningful language learning experiences.
Learner feedback

A questionnaire using a 5-point Likert scale (1 = strongly disagree, 5 = strongly agree) showed:

Table 2.

Student perception of learning method

Statement	Control Mean	Experimental Mean
Lessons are engaging	3.1	4.7
I feel motivated to participate	3.3	4.8
I can use the language creatively	3.0	4.6
ICT helps me understand concepts better	3.2	4.9

5. Discussion. The results indicate that SCAMPER combined with ICT significantly enhances vocabulary acquisition, creativity, and communicative competence. The structured approach of SCAMPER encourages learners to explore multiple solutions and apply language in innovative ways. ICT tools further facilitate engagement through interactive activities, immediate feedback, and collaborative tasks.

The experimental group demonstrated greater gains than the control group in all measured domains. Learners reported higher motivation, interest, and confidence in using English creatively. These findings align with existing literature highlighting the benefits of integrating creative methodologies and digital tools in language education (Richards & Rodgers, 2014; Scrivener, 2011).

Integration of SCAMPER and ICT

Combining SCAMPER with ICT creates a dynamic learning environment that fosters creativity and engagement. Digital tools can be used to implement SCAMPER activities through quizzes, collaborative tasks, and multimedia projects.

This integration results in:

-enhanced creative thinking

-improved problem-solving skills

-increased participation

-more effective language acquisition

Implications for teaching practice

The findings suggest that educators should:

-incorporate creative tasks into lesson planning

-use ICT tools to support interactive learning

-adopt learner-centered teaching approaches

-continuously develop their digital and methodological competencies

Teacher training programs should also emphasize the integration of creative methodologies and digital technologies.

6. Conclusion. In conclusion, the integration of creative approaches and ICT represents a transformative direction in foreign language education. The SCAMPER technique provides a practical and effective framework for fostering creativity, enhancing communicative competence, and promoting active learning.

When combined with digital technologies, SCAMPER enables the creation of engaging and interactive learning environments that support diverse learner needs. This synergy not only improves educational outcomes but also prepares learners for the demands of the modern world.

Future research should focus on empirical studies to measure the effectiveness of SCAMPER-based ICT integration and explore its application in different educational contexts.

References.

1. Eberle B. SCAMPER: Games for Imagination Development. D.O.K. Publishers, 1971. 120 p.
2. Harmer J. How to Teach English. London: Longman, 2007. 448 p.
3. Jalolov J. Methods of Teaching Foreign Languages. Tashkent, 2012. 312 p.
4. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.
5. Scrivener J. Learning Teaching. 3rd ed. Oxford: Macmillan, 2011. 432 p.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.
7. Begmatov E. Pedagogical Technologies. Tashkent, 2015. 256 p.
8. Osborn A. F. *Applied Imagination*. New York: Charles Scribner’s Sons, 1953. 315 p

O‘tapov Ziyo Bakirovich
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

KIBERBULLING VA DEVIANT XULQ-ATVOR: PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA VA KORREKSIYA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kiberbulling va deviant xulq-atvor fenomeni, ularning shakllanish omillari, yoshlar psixologiyasiga ta’siri, shuningdek, oldini olish va korreksiya qilish usullari tahlil qilinadi. Kiberbullingning ijtimoiy, psixologik va pedagogik aspektlari, shuningdek, oilaning va maktabning tarbiyaviy roli, ijtimoiy me’yorlar va nazorat institutlari orqali profilaktik choralar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kiberbulling, deviant xulq-atvor, ijtimoiy me’yorlar, psixologik profilaktika, ijtimoiy nazorat, yoshlar, psixologik korreksiya, jamiyat.*

CYBERBULLING AND DEVIANT BEHAVIOR: PSYCHOLOGICAL PREVENTION AND CORRECTION

Abstract. *This article analyzes the phenomenon of cyberbullying and deviant behavior, their formation factors, impact on youth psychology, as well as methods of prevention and correction. The social, psychological and pedagogical aspects of cyberbullying, as well as the educational role of the family and school, social norms and preventive measures through control institutions are covered.*

Key words: *cyberbullying, deviant behavior, social norms, psychological prevention, social control, youth, psychological correction, society.*

КИБЕРБУЛЛИНГ И ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ: ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА И КОРРЕКЦИЯ

Аннотация. *В статье анализируется феномен кибербуллинга и девиантного поведения, факторы их формирования, влияние на психологию молодежи, а также методы профилактики и коррекции. Рассматриваются социально-психологические и педагогические аспекты кибербуллинга, а также воспитательная роль семьи и школы, социальные нормы и профилактические меры через контрольные институты.*

Ключевые слова: *кибербуллинг, девиантное поведение, социальные нормы, психологическая профилактика, социальный контроль, молодежь, психологическая коррекция, общество.*

Kiberbulling bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan deviant xulq-atvor shakli bo‘lib, u shaxslarni tahqirlash, kamsitish, yolg‘on ma’lumot tarqatish, psixologik bosim o‘tkazish orqali yuzaga keladi. Bu hodisaning oqibatlari psixologik, ijtimoiy va huquqiy sohada sezilarli bo‘lib, depressiya, o‘zini past baholash, ruhiy travmalar va deviant xulq-atvorning boshqa shakllari – ichkilikbozlik, giyohvandlik, jinoyatchilik va fohishabozlikni rag‘batlantiradi. Deviant xulq-atvor nazariyasi tarixiy rivojlanishi davomida ijtimoiy me’yorlar va ulardan og‘ishish hodisalarini tahlil qiladi. Dyurkgeymning “anomiya” g‘oyasi jamiyatda me’yorlarning tan olinmasligi yoki ularga rioya qilinmasligini tushuntiradi. R.Merton esa deviant xulq-atvorni jamiyat qadriyatlari va mavjud imkoniyatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik sifatida tavsiflaydi. Bu nazariyalar kiberbullingni chuqurroq tushunish va unga qarshi strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kiberbullingning deviant xulq-atvor bilan bog‘liqligi:

Kiberbulling quyidagi salbiy xulq-atvor turlarini rag‘batlantiradi:

- Ichkilikbozlik va giyohvandlik – yoshlar orasida psixologik stressni kamaytirish uchun salbiy odatlarning yuzaga kelishi.

-Fohishabozlik va jinoyatchilik – ijtimoiy me’yorlardan og‘ishish va jamiyat qoidalarini buzish.

-O‘z joniga qasd qilish va ruhiy travmalar – onlayn tahqirlash natijasida ruhiy bosim.

Deviant xulq-atvor shaxs va guruhning salbiy faoliyatini ham ifodalaydi. Kiberbulling esa zamonaviy kontekstda yoshlarning bu turdagi xulq-atvorini kuchaytiradi va jamiyatga ijtimoiy, psixologik va huquqiy xavf soladi. Deviant axloqni ko‘rib chiqayotib, biz yaqqol salbiy assotsiatsiyani uyg‘otuvchi so‘zni qo‘llashga majburmiz: deviant, addikt, noijtimoiy va ijtimoiy xulqqa qarshi va h.k. Shu bilan birgalikda, aniq shaxs bilan ishlashda biz ongli ravishda kamsituvchi ohangli atamalardan foydalanishdan, shuningdek, tamg‘a osishdan tiyilmog‘imiz kerak. Shuni esda tutish lozimki, birinchidan, axloqiy muammolar o‘ta keng tarqalgan. Ikkinchidan, og‘ishgan xulq chegaralarini aniqlash ko‘pincha murakkab. Jamiyatdagi o‘zgarishlar me’yorlarning, albatta, axloqiy deviatsiya turlarining o‘zgarishiga olib keladi. Biroq, me’yorlarning o‘zi va ulardan og‘ishish har qanday ijtimoiy tizimning ajralmas qismidir. Binobarin, ijtimoiy darajada og‘ishgan xulq – bu faqat jamiyat va shaxs orasidagi o‘zaro munosabatning mumkin bo‘lgan shakllaridan biri. Og‘ishgan xulqni ijtimoiy ko‘rinish sifatida “tugatish” ehtimoli dargumon. Individual darajada deviant axloq anchagina muammoli ko‘rinadi, chunki shaxsning o‘zi va atrofdagi odamlar hayoti uchun real zarar, deviant shaxsning ijtimoiy muhit bilan nizosi, uning ijtimoiy moslashmaganligi kabi salbiy fenomenlar bilan bog‘liqdir.

Yoshlar orasida kiberbullingning paydo bo‘lishiga shaxsiy xususiyatlar, psixologik holat, o‘z-o‘zini anglash darajasi, empatiya qobiliyati, oilaviy ziddiyatlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, shuningdek, nazoratsiz va qarovsiz qolgan bolalar ta’sir qiladi. Masalan, 2022 yilda xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida kiberbullingga uchraganlarning 37% o‘zini yolg‘iz his qilgan, 24% esa depressiv holatni boshdan kechirgan. Shu bilan birga, kiberbullingda qizlar ko‘proq psixologik bosimga, o‘g‘il bolalar esa tahdid va haqoratga duch kelgan. Kiberbullingning ijtimoiy va psixologik oqibatlari o‘smirlar orasida depressiya, o‘zini past baholash, ruhiy travmalar, stress va ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi. Bunday holatlar shaxsning ijtimoiy integratsiyasini susaytiradi va jamiyatdagi me’yorlarga rioya qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, kiberbullingni kamaytirish va deviant xulq-atvorni oldini olishda oilaviy tarbiya, maktab va pedagogik tadbirlar, psixologik profilaktika va ijtimoiy nazorat institutlarining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiya kiberbulling va deviant xulq-atvorning oldini olishda asosiy rol o‘ynaydi. Sog‘lom oila muhitida tarbiyalangan farzandlar ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishga moyil bo‘ladi, psixologik barqarorlik va empatiya qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onalar farzandlarining onlayn faoliyatini nazorat qilishi, ularni internet xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishi va doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlashi zarur. Shu bilan birga, maktab va pedagoglar yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, onlayn xavfsizlik va konfliktni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali kiberbullingni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Kiberbullingning salbiy oqibatlari ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, jinoyatchilik va o‘z joniga qasd qilish kabi xulq-atvor turlarini rag‘batlantiradi. Masalan, 2023 yilda O‘zbekiston sharoitida o‘tkazilgan so‘rovda kiberbullingga uchragan o‘smirlarning 15% o‘zini-o‘zi zarar yetkazishga uringan va 8% doimiy depressiv holatni boshdan kechirgan. Shu ko‘rsatkichlar yoshlar orasida kiberbulling xavfini ochiq ko‘rsatadi va profilaktik choralarni kuchaytirish zaruratini ta’kidlaydi.

Kiberbullingni oldini olish va deviant xulq-atvorni kamaytirish uchun psixologik profilaktika, pedagogik tadbirlar, oilaviy tarbiya va ijtimoiy nazorat samarali vositalar hisoblanadi. Psixologik profilaktika yoshlarning stress va konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, axborot savodxonligini oshirish va onlayn xavfsizlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish kiberbullingning oldini olishda muhimdir. Shu bilan birga, psixologik maslahatlar, guruh mashg‘ulotlari va individual konsultatsiyalar yoshlarni onlayn xavf-xatarlardan himoya qilishda samarali bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy nazorat institutlari kiberbullingga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla, do‘stlar va huquqni muhofaza qilish organlari onlayn muhitdagi xavfsizlikni nazorat qiladi, kiberbullingga qarshi ijtimoiy kampaniyalar o‘tkazadi va muammoni jamoaviy ravishda bartaraf etishga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, yoshlarni ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishga o‘rgatish va ularning ijtimoiy intizomini mustahkamlash orqali jamiyatda xavfsiz va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratiladi. Deviant xulq-atvor va kiberbulling zamonaviy jamiyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, ular yoshlar orasida salbiy odatlar va ruhiy travmalarni kuchaytiradi. Shu sababli, psixologik va pedagogik profilaktika, ijtimoiy nazorat institutlarining faol ishtiroki, oilaning

tarbiyaviy roli va jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash kiberbulling va deviant xulq-atvorni kamaytirishning asosiy vositalaridir. Shaxslar ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganib, jamiyatda xavfsiz va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishda faol ishtirok etadilar.

Kiberbullingga qarshi strategiyalar doirasida, avvalo, yoshlarning psixologik barqarorligini oshirish muhimdir. Bu yerda empatiya va hissiy intellektni rivojlantirish, konfliktni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish, internetdagi salbiy vaziyatlarni baholash qobiliyatini shakllantirish eng asosiy usullar sifatida tavsiya qilinadi. Shu bilan birga, onlayn platformalarda xavfsizlikni oshirish, shikoyat mexanizmlarini joriy etish va yoshlar orasida axborot savodxonligini rivojlantirish ham samarali hisoblanadi. Kiberbulling jabrlanuvchilari, ayniqsa, o'smirlar haqida gap ketganida, ular ko'pincha yakkalanib qolishadi, o'zlariga nisbatan ishonchlari pasayadi, o'zlarini namoyon qilish bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi, tashvishlanish va xavotirlanish kabi depressiv holatlar darajasi ortib ketadi va o'z joniga qasd qilish fikrlari/urinishlari paydo bo'ladi. Shaxs doimiy stressda, faqat salbiy his-tuyg'ularni boshidan kechiradi va ba'zida jabrlanuvchi roliga juda odatlanib qoladi. Somatik buzilish. Salbiy his-tuyg'ular va qo'rquv iskanjasida surunkali uyqusizlik, bosh og'rig'i, ishtaha yo'qolishi kabi psixosomatik kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida kiberbulling keng tarqalgan bo'lib, uning kuchayishi bugungi jamiyatda xavotir uyg'otmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu muammo butun dunyoda keng tarqalgan bo'lib, bolalar va o'quvchilarning Internetdan foydalanish xavfsizligiga tahdid soladi va bu bizning tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Shu sababli, kiberbulling urinishlarini muvaffaqiyatli erta aniqlash o'quvchilarning ruhiy salomatligi va farovonligining kalitidir. Biz kiberbulling urinishlarini muvaffaqiyatli erta aniqlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz: Ota-onalar farzandlari bilan hissiy qabul qilish, ishonch, qo'llab-quvvatlash va hokazo munosabatlarni o'rnatishga yordam berishlari kerak. Har bir ota-ona o'z farzandlarining internetdagi faoliyatini kuzatishi va ularga kiberbullingdan ehtiyot choralarini ko'rishga o'rgatishi kerak. Agar siz onlayn zo'ravonlikning birinchi belgilarini sezsangiz, kiruvchi tarkibni olib tashlash so'rovi bilan darhol jamiyat yoki veb-sayt ma'muriga murojaat qilishingiz kerak. Bundan tashqari, ota-onalar farzandlarini ushbu salbiy hodisaning oqibatlari haqida xabardor qilishlari kerak. Psixologik treninglar va mashg'ulotlar, onlayn madaniyatni shakllantirish, dastlabki psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. O'smirlarda kiberbullingga qarshi immunitetni shakllantirish – bu murakkab, ammo zarur jarayon bo'lib, ta'lim muassasalari, ota-onalar va psixologlar hamkorlikda ishlashlari kerakligini talab qiladi, Bunad maxsus treninglar va seminarlar samarali natija beradi.

O'smirlarda kiberbullyingga qarshi immunitet hosil qilishning psixologik mexanizmi. Kiberbulling - bu onlayn makon orqali amalga oshiriladigan ruhiy va ijtimoiy zo'ravonlik shakli bo'lib, o'smirlarning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo ba'zi o'smirlar bu turdagi tajovuzlarga nisbatan yuqori darajada chidamli bo'lib, bu ularning psixologik immuniteti bilan bog'liqdir. Ushbu immunitetning shakllanishida quyidagi psixologik mexanizmlar muhim rol o'ynaydi:

1. O'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonch (Self-efficacy)

O'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonch kiberbullyingga qarshi kurashishda asosiy omil hisoblanadi. O'ziga bo'lgan ishonch yuqori bo'lgan o'smirlar, onlayn tajovuzlarga nisbatan kamroq ta'sirlanadi va ularni samarali ravishda boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonch kiberbullyingga qarshi kurashishda asosiy omil hisoblanadi.

2. Psixologik chidamlilik (Psychological resilience)

Psixologik chidamlilik kiberbullyingga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Chidamli o'smirlar, onlayn tajovuzlarga nisbatan kamroq ta'sirlanadi va ularni samarali ravishda boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, psixologik chidamlilik kiberbullyingga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (Social support)

Oila, do'stlar va o'qituvchilardan olingan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'smirlarning psixologik salomatligini yaxshilaydi va ularni kiberbullyingga qarshi immunitetini kuchaytiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kiberbullyingga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

4. O'zini boshqarish qobiliyati (Self-regulation)

O‘zini boshqarish qobiliyati kiberbullyingga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zini boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘smirlar, onlayn tajovuzlarga nisbatan kamroq ta’sirlanadi va ularni samarali ravishda boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

5. Ma’lumotlarni saralash va inkor etish (Information filtering and denial)

O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishida ma’lumotlarni saralash va inkor etish funksiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu funksiyalar o‘smirlarning destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetini kuchaytiradi.

6. Ijtimoiy-psixologik omillar (Social-psychological factors)

O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanishida jins, hudud kesimida ijtimoiy-psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar o‘smirlarning destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlar uchun ota-onalar, do‘stlar va o‘qituvchilardan iborat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi kiberbullingning salbiy ta’sirlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlar o‘z muammolarini ota-onalari va do‘stlariga aytib berish orqali stressni kamaytirishlari mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar ham muhim qo‘llab-quvvatlovchi manba bo‘lib, ular o‘quvchilarga yordam berishlari mumkin.

1. Emotsional xavfsizlikni ta’minlash

O‘smirlarning psixologik xavfsizligi, ularning o‘zini qanday his qilishlariga va kiberbullingga qanday munosabatda bo‘lishlariga ta’sir qiladi. Psixologik xavfsizlikni ta’minlash, o‘smirlarni kiberbullingga qarshi immunitetini kuchaytiradi.

3. Emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish

O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali kiberbullingga qarshi immunitet hosil qilishlari mumkin. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘smirlarning o‘zini hurmat qilishini oshiradi va stressni kamaytiradi.

4. Ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash

Ijobiy ijtimoiy munosabatlar, o‘smirlarning o‘zini qadrlashini oshiradi va kiberbullingga qarshi immunitetini kuchaytiradi. Do‘stlar va o‘qituvchilar bilan yaxshi munosabatlar, o‘smirlarning psixologik salomatligini yaxshilaydi

5. Kiberbullingga qarshi ta’lim va ongli yondashuv

O‘smirlarni kiberbullingning xavflari va unga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida ta’lim berish, ularning kiberbullingga qarshi immunitetini kuchaytiradi. O‘smirlar, kiberbullingga duch kelgan taqdirda, qanday harakat qilishlarini bilishlari kerak.

6. Kognitiv va emotsional barqarorlikni rivojlantirish

O‘smirlarning kognitiv va emotsional barqarorligini rivojlantirish, ularning kiberbullingga qarshi immunitetini kuchaytiradi. Bunday barqarorlik, o‘smirlarning stressga chidamliligini oshiradi va ularni ijtimoiy muammolarga qarshi himoya qiladi.

7. Psixologik xavfsizlikni ta’minlash

O‘smirlarning psixologik xavfsizligini ta’minlash, ularning o‘zini qanday his qilishlariga va kiberbullingga qanday munosabatda bo‘lishlariga ta’sir qiladi. Psixologik xavfsizlikni ta’minlash, o‘smirlarni kiberbullingga qarshi immunitetini kuchaytiradi.

Ushbu mexanizmni amalga oshirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni ko‘rish mumkin:

-maktablarda psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish.

-o‘smirlar uchun emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

-ota-onalar va o‘qituvchilar uchun kiberbullingga qarshi ta’lim dasturlarini tashkil etish.

-ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy va xavfsiz muhitni yaratish.

Xavfsiz maktab muhitini yaratish o’quvchilarga o’z tengdoshlari va kattalar tomonidan qadrlanishi va qabul qilinishini his qilishlariga yordam beradi. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda odamlar o’rtasidagi o’zaro hurmat va hamkorlik qadriyatini shakllantirishga katta ahamiyat berish kerak. O‘quvchi shaxsini muvaffaqiyatli rivojlantirish, uning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishi o’quvchilarning ota-onalari va o’qituvchilari o’rtasidagi yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

O‘smirlarda kiberbullyingga qarshi immunitet shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash, psixologik chidamlilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini boshqarish

qobiliyati, ma'lumotlarni saralash va inkor etish kabi mexanizmlar bilan bog'liqdir. Ushbu mexanizmlarni rivojlantirish orqali o'smirlarning kiberbullyingga qarshi immunitetini kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Kiberbulling yoshlar orasida deviant xulq-atvorning zamonaviy shakli sifatida jamiyatda ijtimoiy me'yorlardan og'ishish oqibatlarini ko'rsatadi. Ushbu muammoni kamaytirish va oldini olishda oilaviy tarbiya, maktab va pedagogik tadbirlar, psixologik profilaktika va ijtimoiy nazorat institutlari muhim ahamiyatga ega. Shaxslar ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganib, jamiyatda xavfsiz va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishda faol ishtirok etadi.

Kiberbullyingni oldini olish jarayonida ota-onalar, o'qituvchilar va maktab psixologining hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar farzandining internetdan foydalanishini nazorat qilib, unga to'g'ri yo'l ko'rsatishi zarur. O'qituvchilar esa sinfda sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchilar o'rtasida hurmat va do'stlikni rivojlantirish orqali bu muammoning oldini olishga yordam beradi. Maktab psixologi esa o'quvchilarning psixologik holatini o'rganib, ularga zarur psixologik yordam ko'rsatadi hamda turli trening va suhbatlar orqali o'quvchilarda emotsional barqarorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarga internetdan xavfsiz foydalanish qoidalarini o'rgatish, ularda mustaqil fikrlash, o'zini himoya qilish va muammolarni to'g'ri hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarda kiberbullyingga qarshi psixologik immunitet hosil bo'ladi. Natijada o'quvchilar o'zlarini himoya qila oladigan, ruhiy jihatdan barqaror va ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Al Hosani H., Yousef M., Al Shouq S., Iqbal F., Mouheb D. A comparative analysis of cyberbullying and cyberstalking laws in the UAE, US, UK and Canada // *Proceedings of the IEEE/ACS 16th International Conference on Computer Systems and Applications (AICCSA)*. IEEE, 2019. P. 1–7.

2. Хломов К. Д., Давыдов Д. Г., Бочавер А. А. Кибербуллинг в опыте российских школьников // *Психология и право*. 2019. Т. 9, № 2. С. 276–295.

3. Patchin J. W., Hinduja S. *Yozilgan narsa qoladi: Qanday qilib internet aloqasini xavfsiz va qulay qilish kerak*. Moskva: Mann, Ivanov va Ferber, 2020. 256 b.

4. *Энциклопедия глубинной психологии* / под ред. А. М. Боковикова. Москва, 2001.800с.

5. Эйдемиллер Э. Г., Юстицкис В. *Психология и психотерапия семьи*. Санкт-Петербург, 1999. 672 с.

6. Komilova N. G'. *Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi: uslubiy qo'llanma*. Toshkent, 2008. 184 b.

Surayyo Mansurova
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’limi metodikasi kafedrasi dotsenti p.f.f.d (PhD)
E-mail.mansurovasurayo49@gmail.com

COOPERATION BETWEEN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND PARENTS IN REGGIO PEDAGOGY: ANALYSIS OF APPROACHES

Abstract. *This scientific article analyzes the theoretical and practical foundations of cooperation between preschool educational institutions and parents within the framework of Reggio pedagogy. The article highlights the main principles of the Reggio approach, including the central role of the child, the importance of the environment as the "third teacher," and the significance of active parental involvement in the educational process. Additionally, the study examines ways to develop effective models of cooperation in preschool institutions and their impact on child development. The research findings make it possible to develop practical recommendations for enhancing parent collaboration based on Reggio pedagogy.*

Key words: *Reggio pedagogy, preschool education, parent collaboration, educational environment, child-centered approach, social partnership, innovative pedagogy, educational process.*

СОТРУДНИЧЕСТВО ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И РОДИТЕЛЕЙ В ПЕДАГОГИКЕ РЕДЖИО: АНАЛИЗ ПОДХОДОВ

Аннотация. *В данной научной статье анализируются теоретические и практические основы сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и родителями в рамках педагогики Реджио. В статье освещаются основные принципы подхода Реджио, включая центральную роль ребенка, значение образовательной среды как «третьего учителя», а также важность активного участия родителей в образовательном процессе. Кроме того, рассматриваются пути формирования эффективных моделей сотрудничества в дошкольных учреждениях и их влияние на развитие ребенка. Результаты исследования позволяют разработать практические рекомендации по развитию взаимодействия с родителями на основе педагогики Реджио.*

Ключевые слова: *педагогика Реджио, дошкольное образование, сотрудничество с родителями, образовательная среда, ребенок-центрированный подход, социальное партнерство, инновационная педагогика, образовательный процесс.*

REGGIO PEDAGOGIKASIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI:YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada Reggio pedagogikasi doirasida maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada Reggio yondashuvining asosiy tamoyillari, jumladan, bolaning markaziy o‘rni, muhitning "uchinchi o‘qituvchi" sifatidagi roli hamda ota-onalarning ta’lim jarayonida faol ishtirokining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali hamkorlik modellarini shakllantirish yo‘llari va ularning bola rivojiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Reggio pedagogikasi asosida ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Reggio pedagogikasi, maktabgacha ta’lim, ota-onalar bilan hamkorlik, ta’lim muhiti, bola markazli yondashuv, ijtimoiy sheriklik, innovatsion pedagogika, ta’lim jarayoni.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim bosqichi bola shaxsini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, globallashuv sharoitida ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim jarayoniga barcha manfaatdor

tomonlarni jalb etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Reggio pedagogikasi maktabgacha ta’lim sohasida samarali va ilg‘or yondashuv sifatida e’tiborni tortmoqda.

Reggio pedagogikasi Italiyaning Reggio Emilia shahrida shakllangan bo‘lib, u bolani faol subyekt sifatida ko‘radi va uning rivojida ota-onalar, pedagoglar hamda muhit o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka alohida urg‘u beradi. Ushbu yondashuvda ota-onalar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi va ularning ishtirokisiz to‘liq ta’lim jarayonini tasavvur etish mumkin emas.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikr lashga, muammolarni ijodiy yechishga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qodir faol fuqaroni tarbiyalashni talab etmoqda. Bu maqsadga erishish uchun an’anaviy yon dashuvlar yetarli bo‘lmay qolayotgan bir paytda, pedagogik nazariya va amaliyot da yangi, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Shunday ilg‘or yon dashuvlardan biri - Reggio Emilia pedagogikasi bo‘lib, u Italiyada XX asrning o‘rtalarida shakllangan va bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tizimida samaradorlikka erishish ko‘p jihatdan ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik bolaning individual xususiyatlarini to‘liq namoyon etish, uning qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etish nafaqat pedagogik zarurat, balki ijtimoiy ehtiyoj sifatida ham qaralmoqda.


Reggio pedagogikasida aynan mana shu hamkorlik konsepsiyasi chuqur asoslangan bo‘lib, unda “hamkorlikda o‘rganish” va “dialogik ta’lim” tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va ochiq muloqotga asoslangan muhit yaratilishi ushbu yondashuvning muhim jihatlaridan biridir. Bu esa o‘z navbatida bolaning ijtimoiylashuvi, emotsional farovonligi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Reggio yondashuvida ta’lim muhiti nafaqat jismoniy makon, balki pedagogik vosita sifatida ham qaraladi. Muhitning puxta tashkil etilishi, uning estetik va funksional jihatdan boyitilishi bolalarni izlanishga, tadqiqot olib borishga va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Bunday sharoitda ota-onalar ham faol kuzatuvchi va ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga qo‘shilib, bolalarning rivojlanish jarayonini birgalikda qo‘llab-quvvatlaydilar.

Natijada, Reggio pedagogikasi doirasida maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik modeli nafaqat bolaning individual rivojlanishini ta’minlaydi, balki ta’lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Reggio pedagogikasi nima? Reggio pedagogika - bu har bir bola o‘ziga xos g‘oyalar, fikrlar va qobiliyatlarga ega bo‘lgan shaxs degan g‘oyaga asoslangan ta’lim yondashuvidir. Reggio pedagogikasi erta bolalik ta’limiga innovatsion yondashuv bo‘lib, ikkinchi jahon urushidan keyin Italiyaning kichik Reggio Emilia shahrida paydo bo‘lgan. Bu usul bolaning shaxsiyati, uning ijodiy salohiyati va tadqiqotchilik ruhini rivojlan tirishga qaratilgan o‘ziga xos falsafa tufayli butun dunyoda mashhurlikka erishdi. Bu yondashuvda o‘qituvchi– bolaning o‘rganish jarayonidagi yo‘lboshchisi, hamkori va kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi muhim. Bu pedagogik modelda o‘qituvchi rahbar yoki nazoratchi emas, balki bolaning bi lim olish jarayonidagi hamkori va yo‘l ko‘rsatuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv muhitining o‘zi esa “Uchinchi o‘qituvchi” sifatida e’tirof etiladi - bu degani, maktab yoki bog‘cha muhitining har bir detali bolani qiziqtiradigan, u bilan muloqotga kirishadigan darajada sharoit va jihozlar bilan ta’minlanishi muhim hisoblanadi. Reggio pedagogikasining yana bir muhim jihati - bu ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikka alohida e’tibor qaratilishidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolaning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq amaliyotda bunday hamkorlikni tashkil etishda muayyan muammolar mavjud. Shu bois mazkur maqolada Reggio pedagogikasi doirasida ota-onalar bilan hamkorlikning mazmuni, shakllari va uni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Metodologiya. Reggio Emilia yondashuvida muhit – uchinchi o‘qituvchi deb hisoblanadi (birinchi – ota-ona, ikkinchi – pedagog).



Reggio pedagogikasida o‘qituvchi faqat dars beruvchi emas, balki bolaning bilim olish jarayonidagi yo‘l boshlovchi, kuzatuvchi va u bilan birga o‘rganadigan o‘rga nuvchi hisoblanadi. O‘qituvchi bolalarning qiziqishlarini kuzatadi, ularga kerakli resurslarni taqdim etadi va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalar esa doimiy ravishda ta’lim jarayonida ishtirok etib, bolalarining rivoji ga faol hissa qo‘shadi. Ota-onalar bolalar bilan ishlashda quyidagi-larga e’tibor qaratishi muhim.

Faol ishtirok etish. Farzandi bilan ta’lim jarayonida faol ishtirok etiladi, o‘qituvchilar bilan muntazam muloqotda bo‘linadi.

Uyda qo‘llab-quvvatlash. Maktabda egallangan bilim va ko‘nikmalarni uyda mustahkamlash uchun sharoit yaratib beriladi.

Ijobiy munosabat. Bolaning qiziqishlari va ehtiyojlariga hurmat bilan yondashish, ularni rag‘batlantirish zarur. Bola rivojlanishida muloqot eng muhim omillardan biridir. Nafaqat pedagog bilan balki ota-onalar o‘z farzandlari bilan muloqot ham juda muhim. Reggio pedago gikasida peda-gog bolalarga uyda ota ona bilan birgalikda qilinadigan topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlar turli xil bo‘lishi mumkin. Uyda o‘tirib ota-ona bilan chizi sh, yasash yoki ota-ona bilan uydan tashqarida kuzatish, tadqiqot qilish, izlanish, tadbirlarda qatnashishlar bo‘lishi mumkin. Bunday topshiriqlar ota-onalarni far zandlari bilan vaqt o‘tkazishlari, ko‘proq muloqot qilishlari uchundir. Tadqiqot ja-rayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, taqqoslash, kuzatuv hamda so‘rovnoma usullaridan foyda-lanildi. Reggio pedagogikasi asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-ona-lar bilan hamkorlik jarayonlari o‘rganildi. “Bolam bilan birga bog‘ yarataylik” loyihasini amalga oshirish. Maqsad bola va ota-onaning birgalikdagi ijodiy fao liyatini rag‘batlantirish, tajribada qo‘llash. Zaruriy vositalar: Barg, shoxcha, tosh, qum, suv, urug‘, po‘stloq, gullar va h.k. Bolalar ota-onasi bilan birga tabiat elementlaridan foydalanib bog‘ yaratadi. O‘z natijasini boshqalarga ko‘rsatadi va quyidagilarga javob beradi: Nima yaratdik? Bu g‘oya qayerdan keldi? Qanday his-tuyg‘ular paydo bo‘ldi?

Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarni ijodiy qobiliyatini riaojlantirish maqsa-dida predmetlarni tovushlarini chiqarib, nimani tasavvur etganini rasm qilib tushiradi. Va yakunida ota-onalarga chizgan rasmlarini tahlilini birga qiladi.

Natijalar.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Reggio pedagogikasiga asoslangan maktabga-cha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarning ishtiroki an’anaviy ta’lim modellariga nisbatan ancha yuqori darajada tashkil etilgan.

Jumladan:

ota-onalar ta’lim jarayonida faol ishtirok etadi;
bolalarning ijodiy ishlari va faoliyati doimiy ravishda ota-onalarga taqdim etiladi;
pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida ochiq muloqot muhiti shakllangan;
ta’lim muhiti ota-onalar bilan hamkorlikda boyitib boriladi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda ota-onalarning vaqt yetishmasligi yoki pedagogik bilimlarining yetarli emasligi hamkorlik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Ota onalar faol ishtirokini ta’minlash maqsadida

Barcha ota-onalar bir xil vaqtda muassasaga kela olmaydi. Shuning uchun onlayn muloqot (Telegram guruhlar, video hisobotlar), qisqa uchrashuvlar yoki “ochiq kunlar”ni turli vaqtlarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ko‘p hollarda ota-onalar bola rivojiga qanday yordam berishni bilmaydi. Shu bois: qisqa treninglar, master-klasslar, amaliy tavsiyalar (masalan, uyda bola bilan o‘yinlar) tashkil etish hamkorlik samaradorligini oshiradi.

3. “Kichik qadamlar” tamoyilini qo‘llash. Har bir ota-onadan katta faollik kutmasdan, ularni oddiy vazifalarga jalb qilish kerak:
bolaning ishiga fikr bildirish,
kichik tadbirlarda qatnashish,
uyda kichik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash. Bu asta-sekin faollikni oshiradi.

Bolalar faoliyatini doimiy namoyish etib boorish. Reggio yondashuviga xos ravishda: foto va video hisobotlar,, ijodiy ishlar ko‘rgazmalari,“hafta tarixi” kabi formatlar, ota-onalarda qiziqish va ishtirok hissini kuchaytiradi.

Ishonch va ochiq muloqot muhitini shakllantirish. Pedagoglar ota-onalarni tanqid qilmasdan, balki hamkor sifatida qabul qilishi kerak. Ochiq va samimiy muloqot: muammolarni erkin muhokama qilishga, takliflar berishga, imkon yaratadi. Ushbu tavsiyalar Reggio pedagogikasining asosiy tamoyillariga mos ravishda ota-onalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Reggio pedagogikasida o‘quv muhitiga alohida e’ tibor qaratiladi. Sinf xonasi yoki bog‘cha faqat bi nodan iborat emas; u bolaning fikrlashi, o‘rganishi va o‘zini ifoda etishiga ilhom beruvchi makon bo‘ lishi kerak. Yorug‘lik, ranglar, tabiiy materiallar, ochiq maydonlar – bularning barchasi “Uchinchi o‘qituvchi” sifatida xizmat qiladi. Muhit doimo o‘zgaruvchan va bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda moslashtiri ladi. Shu bilan birga ushbu yondashuvda bolalar, ularning oilalari va mahalliy hamja miyatining madaniyati va kontekstini aks ettiradi. Asosiy e’tibor yoqimli estetika, mehmondo‘st va iliq muhit hamda bolalarning san’at asarlari va loyihalari namoyishi etadigan burchaklar tashkil etilishiga qaratilgan. Har bir bola barcha o‘quv mate riallariga oson kirish imkoniyatiga ega. Olingan natijalar Reggio pedagogikasining asosiy g‘oyalari amaliyotda o‘z tasdig‘ini topayotganini ko‘rsatadi. Xususan, bola markazli yondashuv va hamkorlikka asoslangan ta’lim modeli bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etish nafaqat bolalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Reggio pedagogikasining ota-onalar bilan ta’lim jarayonidagi bolalar bilan birgalikdagi olib boriladigan yondashuvini tashkil etishda guruhlardagi bolalar sonini hamda tarbiyachi pedagoglarini ta’minlanishini ham alohida e’tiborga olish lozim. Tarbiyachi ta’limiy faoliyatini tashkil etishda “Otalar kuni”, “Onalar kuni” hamda “Bobo va buvilar kuni” tashkil etish hamda ularni ishtiroki asosida bolalar bilan ishlash mehanizmini ham barcha omillarga asoslangan holda tashkil etish zarur.

Asosiy tushunchalar	Reggio pedagogika	An'anaviy pedagogika
Pedagoglar	Ta'lim jarayonining markazida bola bo'ladi	Ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi bo'ladi
Ta'lim oluvchilar	Reggio Emilia yondashuvida bolalar o'zlarining o'rganish va qiziqish sohalarini belgilashga qodir	O'qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishlari kerak
Sinf xonasi	"Uchinchi o'qituvchi" sifatida ko'proq ma'no kasb etadi	O'quvchilar va o'qituvchilar dars o'tish va o'rganish uchun egallagan joydir
Mazmun	Bolalarni qiziqtiradigan va hayajonlantiradigan mavzularni o'rganishadi	Qat'iy tartiblarga amal qiladi
Baholash	Bolalar bajargan ishlari orqali, kuzatishlari va xulosalar yig'iladi	Bolalar test, yozma, og'zaki va amaliy ishlar orqali baholanadi
Tillar	100 ta til harakat, rang, tovush	Bir nechta tillarni qo'llab-quvvatlaydi

Xulosa qilib aytganda, Reggio pedagogikasi maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy fikrlashi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Reggio pedagogikasi asosida tashkil etilgan hamkorlik bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati ancha yuqori darajada shakllanadi. Natijada, ularning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ham uyg'un tarzda ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish;

pedagoglar uchun Reggio pedagogikasi bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

ta'lim muhitini ota-onalar bilan hamkorlikda boyitish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda muloqotni kuchaytirish.

Mazkur yondashuvni amaliyotga keng joriy etish maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. –T., 2016 yil, 29-dekabr

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. 22.12.2020 йилдаги 802-сонли Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида Қарори https://lex.uz/docs/5179335

3. Абдуллаева, Ш. (2021). Мактабгача таълимда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент.

4. Каримова, Н. (2020). Ота-оналар билан ҳамкорлик педагогикаси. Тошкент.

5. Тўраева, Г. (2022). Мактабгача таълимда замонавий ёндашувлар. СамарқандLoris

6. Malaguzzi. (1998). History, ideas, and basic philosophy of the Reggio Emilia approach. Reggio Children.

Soliyeva Nafosat Abdiqahorovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi,
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish, shu orqali talim sifatini oshirish hamda samaradorlikka erishish imkoniyatlari ochib berilgan. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda uzviylik va kompetensiyaviy yondashuv prinspilariga asoslangan holda ilmiy – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash, baholash malakalarini mustahkamlash va shaxsiy pedagogik mahoratini rivojlantirish yo’llari haqida fikr yuritilgan*

Kalit so‘zlar: *xalqaro baholash dasturlari, OECD, PISA, TALIS, IEA, PIRLS, TIMSS, kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash;*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНИВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

Аннотация. *В данной статье раскрываются возможности использования международных оценочных программ в развитии профессиональных компетенций будущих учителей физики, повышения качества образования и достижения эффективности. В подготовке будущих учителей физики, основываясь на принципах преемственности и компетентностного подхода, рассматриваются пути связи научно-теоретических знаний с практикой, укрепления оценочных навыков и развития личностного педагогического мастерства.*

Ключевые слова: *международные программы оценки, OECD, PISA, TALIS, IEA, PIRLS, TIMSS, креативность, коммуникативность, коллаборация, критическое мышление;*

THE USE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PHYSICS TEACHERS

Annotation. *This article reveals the possibilities of using international assessment programs in developing the professional competencies of future physics teachers, thereby improving the quality of education and achieving efficiency. Based on the principles of continuity and a competency-based approach in the training of future physics teachers, opinions are expressed on ways to connect scientific and theoretical knowledge with practice, strengthen assessment skills, and develop personal pedagogical skills.*

Key words: *international assessment programs, OECD, PISA, TALIS, IEA, PIRLS, TIMSS, creativity, communication, collaboration, critical thinking;*

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini xalqaro talablarga mos tarzda shakllantirishdir. Fizika fanining murakkabligi, nazariy va eksperimental tafakkurni uyg’unlashtirish zaruriyati o‘qituvchidan nafaqat fizika faniga oid bilimlar, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, baholash tizimlari va o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish ko‘nikmalarini talab qiladi. Buni hisobga olgan holda PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlarini bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish vazifasi turadi. Bu vazifalarni bajarishda bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari xalqaro baholash dasturlaridan olingan tahliliy natijalari asosida o‘quv rejalarini, fan dasturlarini va sillabuslarini yangilab borishlari hamda yangi avlod darsliklarini yaratishlari zarur. Bu orqali ta’lim samaradorligi, uzviylik va kompetensiyaviy yondashuv prinspilariga asoslangan holda ilmiy – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash, baholash malakalarini mustahkamlash va shaxsiy pedagogik mahoratini rivojlantirish imkoniyati

paydo bo‘ladi. Bularni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga [1] muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy – axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030 – yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg’or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg’u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan [4; – B. 5 - 6.].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora – tadbirlari to‘g’risi” dagi 997-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida respublikamizda xalqaro tadqiqotlarni o‘tkazish bo‘yicha loyiha ishlab chiqildi va u asosida tadqiqotlar o‘tkazish muddatlari belgilab olindi.

Mamlakatimiz ilk marotaba 2021-yilda PIRLS tadqiqotda ishtirok etdi.

PIRLS – pandemiya davrida ommaviy tarzda o‘tkazilgan tadqiqot hisoblanadi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) – ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsasiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu tadqiqot 4 – sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi. o‘qish savodxonligi bu – matnni ifodali o‘qish va uni tushunish darajasidir. Biz bilamizki, o‘quvchilar fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘qish savodxonligi yaxshi shakllangan bo‘lishi lozim. Bu tadqiqot dastlab 2001 yilda ilk marotaba o‘tkazilgan, har 5 yilda 1 marta o‘tkaziladi. Ustuvor yo‘nalish 1 ta – o‘qish savodxonligi. Natijalar 2 yilda e’lon qilinadi. PIRLS xalqaro baholash dasturi natijalari bo‘yicha yig‘ilishi lozim bo‘lgan ballar 300 dan 700 gacha egallanishi ko‘zda tutilgan. Mamlakatimiz o‘quvchilari 437 ballni qayd etdi. Bu tadqiqotda mamlakatning egallagan o‘rni muhim emas. Chunki PIRLS reyting emas tadqiqot. Unda natijalarni, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha natijalari va ta’lim olish muhitini solishtirish nazarda tutilgan. PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali o‘quvchilarning matnli axborotni tahlil qilish va tushunish qobiliyati baholanar ekan, bu bo‘lajak o‘qituvchining fizika darslarida fanlararo integratsiya, o‘quvchilar bilan muloqot, o‘qish va tushunishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqdi.

PISA – OECD tashkiloti tomonidan muvofiqlashtiriladigan xalqaro tadqiqot bo‘lib, 15 yoshli o‘quvchilarni funksional savodxonligini baholash uchun o‘tkaziladi. Bu tadqiqotning 3 ta ustuvor yo‘nalishi mavjud.

1 – tabiiy fanlar savodxonligi;

2 – matematik savodxonlik,

3 – o‘qish savodxonligi.

15 yoshli o‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligi, matematik savodxonlik va o‘qish savodxonligi bo‘yicha o‘zlashtirgan kompetensiyalarini baholaydi. Tadqiqotda nafaqat 15 yoshli o‘quvchilarning 3 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha egallagan kompetensiyalari sinovdan topshiriqlar asosida, balki ularning ota – onalari, o‘zlari va ta’lim tashkiloti koordinatorlaridan so‘rovnomalar olish orqali ham aniqlanadi. Topshiriq natijalari va so‘rovnomalar birgalikda maksimal 1000 ballik sistemada baholanadi. Bu tadqiqot har 3 yilda 1 marta o‘tkaziladi. Tadqiqot natijalari esa 1 yil davomida tahlil qilinadi va anonim tarzda taqdim etiladi. Bu tadqiqotga O‘zbekiston ilk marotaba 2022 – yilda ishtirok etdi. Tadqiqotda jami 81 ta davlat ishtirok etgan bo‘lib, O‘zbekiston matematik savodxonlik bo‘yicha 72 – o‘rinda, tabiiy fanlar savodxonligi va o‘qish savodxonligi bo‘yicha 80 o‘rinni egalladi. Bu tadqiqotda o‘quvchilarning bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish ko‘nikmalari tekshiriladi hamda tahlil qilinadi.

PISA tadqiqoti natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning fizikaviy savodxonligi, ya’ni ilmiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish qobiliyatlari aniqlanadi. Bu holat, o‘z navbatida, bo‘lajak fizika o‘qituvchisining amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rejalashtira olishi, o‘quvchilarni amaliy fikrlashga o‘rgatish kompetensiyasini shakllantirishi shu bilan birga kompetensiyaviy yondashuv asosida dars jarayonlarini tashkil qilishi kabi zarur kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.[5].

TIMSS tadqiqoti ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsatsiyasi (Xalqaro Energetika Agentligi – XEA) tashkiloti tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu tadqiqot 4 – va 8 – sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar savodxonligi va matematik savodxonlik bo‘yicha egallagan kompetensiyalarini baholaydi. Bu tadqiqotda o‘quvchlarning bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish ko‘nikmalari 1000 ballik sistemada tekshiriladi. Bu tadqiqot so‘rovnoma va topshiriqlar asosida 4 yilda bir marta o‘tkaziladi. Natijalar 1 yildan keyin e’lon qilinadi. Mamlakatimiz bu tadqiqotga 2023 – yilda ilk marta ishtirok etdi. Natijalari esa 2024 – yil 5 – dekabr kuni e’lon qilindi.

2023 – yildagi TIMSS tadqiqot natijalariga ko‘ra mamlakatimiz o‘quvchilarining ilmiy savodxonligi ko‘plab davlatlardan orqada ekanligi, bu esa fizika fani o‘qituvchilarining fan metodik tayyorgarligini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bu natijalarni inobatga olgan holda bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining o‘quv dasturlari, o‘qitish uslublari va baholash mezonlari qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo‘ladi [6].

Shuningdek, mazkur tizimda ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy–tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab – quvvatlash hamda rag’batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq [2] rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha xalqaro baholash dasturlarini TALIS (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kirishildi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida, xususan, pedagogika OTMlarida fizika o‘qituvchilarini tayyorlash strategiyasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari nafaqat o‘z fanining mazmunini chuqur egallashi, balki zamonaviy baholash metodikasi, muammoli o‘qitish, funksional savodxonlik, ilmiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi uslublarni egallashi lozim.

TALIS – o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, dars berishdagi metodik usullari va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora – tadbirlari to‘g’risida”gi 997 – sonli qaroriga binoan [2] mamlakatimiz ilk bor TALIS 2024 tadqiqotida ishtirok etdi. TALIS xalqaro o‘qituvchilar tadqiqoti natijalari esa o‘qituvchining kasbiy o‘sishi, metodik faoliyatga munosabati va maktab muhitiga ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Bu natijalar asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim:

o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish;

ta’limda differensial va individual yondashuvlarni qo‘llash;

zamonaviy baholash tizimlari bilan ishlash (diagnostik, formativ, summativ);

xalqaro test turlarini tahlil qilish va ularni fan darslarida qo‘llash [7].

Ushbu yo‘nalish “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” bilan ham uzviy bog’langan bo‘lib, unda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning malakasini oshirishda xalqaro yondashuvlar asosida ish yuritish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan [3].

Shu bois, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bakalavr va magistratura dasturlarini yangilashda xalqaro baholash dasturlari natijalaridan foydalanish:

o‘quv jarayonini zamonaviy kompetensiyalar asosida qayta loyihalashga;

ta’lim sifatini aniqlashda ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga;

talabalar orasida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu dasturlar asosida bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy loyihalarni yo‘naltirish pedagogik oliy ta’lim muassasalari faoliyatida amaliy samara beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy refleksiya, innovatsion metodlardan foydalanish, hayotiy faoliyatga moslashgan laboratoriya ishlari bilan ishlash kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim [8; – B. 8 – 9.].

Xalqaro baholash dasturi tadqiqotlari 1995 – yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan bo‘lib, 30 yillik davr mobaynida aksariyat tadqiqotlarda dastlab bir necha marotaba AQSh, so‘ngra Finlandiya va so‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda esa Singapur davlatlari yetakchilik qilib kelmoqda. Bu tadqiqotlarda yetakchilik qilayotgan davlatlarning ta’lim dasturlari va o‘qitish metodikalari xalqaro miqyosida ommalashtirilishi rejalashtirilgan.

Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda mamlakatimiz ta’lim tizimi hamda Davlat ta’lim standartlarida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” konsepsiyasi va xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish yo‘li sifatida belgilab berilgan. Avvalo, bu tajribalar pedagogika oliy ta’lim mauassasalari ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini kuchaytirish, xalqaro baholash mezonlariga mos kompetensiyalarni shakllantirish va ta’lim jarayonini global standartlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Natijada mamlakatimiz o‘quvchilari ham xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalar ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 29.04.2019. – 06/19/5712/3034-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 10.12.2018. – 09/18/997/2289-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF–5847-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 09.11.2021. – 06/21/3/1037-son; 18.03.2022. – 06/22/89/0227-son; 04.07.2023. – 06/23/107/0441-son.

4. Tashkenbayev U. N., Ismailov A. A., Tog‘ayeva G. va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019. – 112 b.

5. Soliyeva N. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari // Ta’limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy, 2025. – B. 144–146.

6. Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Hooper M. TIMSS 2019 International Results in Science. – Boston: IEA, 2020. – 520 p.

7. OECD. PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 354 p.

8. Abdullayeva Sh. A., Ergasheva M. T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 168 b.

Boltayeva Zilola Bobojonovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

TARBIYAVIY JARAYONDA GENDER XUSUSIYATLARINI ANIQLASH MEZONLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada tarbiyaviy jarayonda gender xususiyatlarini aniqlashning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik ahamiyati hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari keng tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lib, bunda o‘quvchilarning individual xususiyatlari, jumladan gender farqlari muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida gender tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy va psixologik jihatlari, tarbiyaviy jarayonga ta’siri o‘rganildi.Maqolada gender xususiyatlarini aniqlash mezonlari sifatida psixologik, kognitiv, ijtimoiy, xulq-atvor va motivatsion omillar asoslab berilgan. Shuningdek, gender stereotiplari va ularning o‘quvchilar rivojiga salbiy ta’siri ochib berildi. Tadqiqot natijalari asosida genderga sezgir pedagogik yondashuvni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Ushbu maqola pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar va ta’lim tizimi mutaxassislari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *gender, tarbiya, pedagogika, gender tengligi, shaxs rivoji, differensial yondashuv.*

КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В данной научной статье подробно анализируются теоретико-методологические основы, педагогическая значимость и возможности практического применения выявления гендерных особенностей в воспитательном процессе. В современной системе образования приоритетным является личностно-ориентированный подход, в котором важную роль играют индивидуальные особенности учащихся, включая гендерные различия. В ходе исследования были изучены сущность гендерного понятия, его социально-психологические аспекты и влияние на воспитательный процесс. В статье в качестве критериев определения гендерных особенностей обоснованы психологические, когнитивные, социальные, поведенческие и мотивационные факторы. Также были раскрыты гендерные стереотипы и их негативное влияние на развитие учащихся. По результатам исследования были разработаны практические рекомендации по внедрению гендерно-чувствительного педагогического подхода. Результаты показывают, что образовательный процесс, организованный на основе гендерного подхода, повышает активность учащихся, укрепляет их уверенность в себе и улучшает их социальную адаптацию. Данная статья имеет важное научно-практическое значение для педагогов, научных исследователей и специалистов системы образования.*

Ключевые слова: *гендер, воспитание, педагогика, гендерное равенство, развитие личности, дифференцированный подход.*

CRITERIA FOR DETERMINING GENDER CHARACTERISTICS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations, pedagogical significance, and practical application possibilities for identifying gender characteristics in the educational process. In the modern education system, a student-centered approach is a priority, where individual characteristics, including gender differences, play a crucial role. During the study, the essence of the concept of gender, its social and psychological aspects, and its impact on the educational process were studied.The article substantiates psycholog-*

ical, cognitive, social, behavioral, and motivational factors as criteria for determining gender characteristics. Gender stereotypes and their negative impact on student development were also highlighted. Based on the research results, practical recommendations were developed for implementing a gender-sensitive pedagogical approach. The results show that the educational process organized on the basis of a gender approach increases the activity of students, strengthens their self-confidence and improves their social adaptation. This article is of great scientific and practical importance for educators, researchers, and specialists in the education system.

Key words: *gender, upbringing, pedagogy, gender equality, personal development, differentiated approach.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar shaxsni har tomonlama rivojlantirishni talab etmoqda. Bu jarayonda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa gender farqlarini aniqlash va ularga mos yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Gender yondashuv pedagogik faoliyatda teng imkoniyatlar yaratish, stereotiplarni bartaraf etish va o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu sababli, tarbiyaviy jarayonda gender xususiyatlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb muammo hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar shaxsini shakllantirish, ularda ijtimoiy faollik, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, tenglik va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy faoliyatini gender yondashuv asosida tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi: Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender masalasi pedagogika va psixologiyada keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Gender identifikatsiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi va bu jarayonda oila, maktab hamda jamiyat muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar gender stereotiplari o‘quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, an’anaviy qarashlar o‘quvchilarning qobiliyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin. O‘zbekistonlik olimlardan, gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari G.M.Qurbonova, ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari bo‘yicha N. Egamberdieva, B. Xonturayev, Sh. Abdiraimova, ta’lim tizimida Sharq mintaliteti asosida gender tenglikning ta’minlanish masalalari bo‘yicha O.M.Musurmanova, ilm-fan sohasida ayollarning rolini oshirish hamda gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risida X.M.Tojiboyeva, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko‘nikmalar bilan birga gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim ekanligi bo‘yicha S.Ch. Xaydarova hamda A.T.Turg‘unovaning ilmiy tadqiqot ishida кeksa avlod ta’limi vositasida oilalarda gender tenglikni ta’minlash tomonidan o‘rganilib, ilmiy xulosalar berilgan.

Metodologiya:Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

-kuzatish

-so‘rovnoma

-suhbat

-pedagogik eksperiment

Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi:

Diagnostik bosqich – gender xususiyatlarini aniqlash

Tajriba bosqichi – gender yondashuvni qo‘llash

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablari o‘quvchilari tanlandi.

Diagnostik bosqich – gender xususiyatlarini aniqlash: Diagnostik bosqich tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda o‘quvchilarning genderga xos psixologik, kognitiv, ijtimoiy va xulq-atvor xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning individual rivojlanishidagi gender farqlarini ilmiy asosda baholash va keyingi pedagogik ta’sir choralarini belgilashdan iborat.

Diagnostik bosqich tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy vazifasi o‘quvchilarning gender identifikatsiya darajasini aniqlash, gender stereotiplarga munosabatini

o‘rganish, shuningdek, ularning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini baholashdan iboratdir. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘rganish uslublaridagi individual farqlarni aniqlash ham ushbu bosqichning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Diagnostik jarayonda turli mezon va ko‘rsatkichlar asosida kompleks yondashuv qo‘llaniladi.

Psixologik diagnostika doirasida o‘quvchilarning emotsional holati, o‘ziga baho berish darajasi va motivatsiyasi o‘rganiladi. Bu jarayonda emotsional barqarorlik, tashvish darajasi, o‘ziga ishonch hamda ichki va tashqi motivatsiya asosiy ko‘rsatkichlar sifatida olinadi. Mazkur ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun psixologik testlar, o‘z-o‘zini baholash anketalari va kuzatish usullaridan foydalaniladi. Kognitiv diagnostika esa o‘quvchilarning bilish jarayonlari va tafakkur uslublarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va o‘rganish tezligi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalishda test topshiriqlari, muammoli vaziyatlar tahlili va individual suhbatlar samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ijtimoiy diagnostika o‘quvchilarning jamoadagi o‘rni va ijtimoiy rollarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, jamoaga moslashuv darajasi, liderlik xususiyatlari, kommunikativ ko‘nikmalar va konfliktga munosabat kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Ushbu maqsadda sotsiometriya, guruhiy kuzatish va rolli o‘yinlar tahlili keng qo‘llaniladi. Xulq-atvor diagnostikasi esa o‘quvchilarning kundalik faoliyati va xatti-harakatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Faollik darajasi, intizomlilik, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi ko‘rsatkichlar pedagogik kuzatish, kundalik faoliyatni tahlil qilish hamda o‘qituvchi bahosi orqali aniqlanadi.

Alohida e’tibor o‘quvchilarning gender stereotiplariga bo‘lgan munosabatini aniqlashga qaratiladi. Bu yo‘nalishda “Qaysi kasblar erkaklarga mos?”, “Qizlar rahbar bo‘lishi mumkinmi?”, “O‘g‘il bolalar his-tuyg‘ularini yashirishi kerakmi?” kabi savollar orqali ularning fikrlash darajasi tahlil qilinadi. Natijalar stereotipli fikrlash darajasiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past darajalarda baholanadi.

Diagnostik bosqichni amalga oshirish aniq tartib asosida olib boriladi: avvalo tadqiqot rejasi ishlab chiqiladi, so‘ng diagnostik vositalar tanlanadi, ma’lumotlar yig‘iladi, qayta ishlanadi va yakunda tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Olingan natijalar o‘quvchilarga individual yondashuvni belgilash, pedagogik strategiyalarni tanlash hamda genderga sezgir ta’limni tashkil etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning keyingi bosqichi - tajriba-sinov bosqichi bo‘lib, unda diagnostika natijalari asosida gender yondashuvni amaliyotga joriy etish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlashdan iborat. Tajriba jarayonida o‘quvchilar ikki guruhga - tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, birinchisida genderga sezgir yondashuv qo‘llanilgan holda ta’lim beriladi, ikkinchisida esa an’anaviy metodlar saqlanib qoladi. Har ikki guruh natijalari boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarda o‘zaro taqqoslanadi.

Tajriba davomida differensial yondashuv, interaktiv metodlar, hamkorlikda o‘qitish va refleksiya usullari qo‘llaniladi. Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos topshiriqlar berishni nazarda tutsa, interaktiv metodlar - guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlar va keys-stadi - ijtimoiy faollikni oshiradi. Hamkorlikda o‘qitish o‘zaro hurmat va tenglik muhitini shakllantiradi, refleksiya esa o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.

Tajriba jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi: boshlang‘ich baholash, pedagogik ta’sir, oraliq monitoring va yakuniy baholash. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba yakunida o‘quvchilarning faolligi, hamkorlik darajasi, motivatsiyasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi sezilarli darajada oshgan. Xususan, faollik 62 foizdan 85 foizga, hamkorlik 58 foizdan 82 foizga, motivatsiya 64 foizdan 88 foizga, o‘ziga ishonch esa 60 foizdan 86 foizga ko‘tarilgan. Umuman olganda, tajriba samaradorligi 20–30 foizga oshgani kuzatilgan.

Mazkur natijalar gender yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi hamda ta’lim jarayonida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, stereotip fikrlashni kamaytirish va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu asosda gender xususiyatlarini aniqlash mezonlari - psixologik, kognitiv, ijtimoiy, xulq-atvor va motivatsion yo‘nalishlarda kompleks tarzda baholanadi va bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni samaraliroq hisoblanadi. Ayniqsa, differensial yondashuv o‘quvchilarning individual

ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Gender stereotiplarini kamaytirish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biridir. Bu esa o‘quvchilarning erkin fikrlashi va o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda tarbiyaviy jarayonda gender xususiyatlarini aniqlash va hisobga olish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Gender yondashuv orqali o‘quvchilarning individual rivojlanishi ta’minlanadi va jamiyatda tenglik tamoyillari shakllanadi. Tajriba-sinov bosqichi natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi va ta’lim jarayonini optimallashtiradi. Diagnostik bosqich tarbiyaviy jarayonning ilmiy asoslangan tashkil etilishida muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarning gender xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri baholash va samarali pedagogik yondashuvni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Qurbonova G.M. Gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie 2015, 12. –B. 59-63

2.Talim tizimida gender tengligini taminlash masalalari [Matn]: Monografiya / N.M. Egamberdieva, B.A. Xonturaev, SH. Abdiraimova – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. – 116 b.

3.Tojiboeva X.M. “Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar” //Ta’lim va iinovatsion tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN2181-1709(R) 2021yil (№1), 180bet.

4.Xaydarova Z.CH.Oliy talimda gender tengligi tushunchasi Zamonaviy il-fan va talim istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy Konferensiya to‘plami. 583-587b

5.Turg‘unova T.A.Oilalarda gender tenglikni ta’minlashda keksa avlod yoshlar uchun ibrat ko’zgusi sifatida. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie 2021, 2 (99).B12.

6.Gazzaniga M.G. The Cognitive Neurosciences / A Bradford Book The Mit Press Cambridge, Massachusetts London, England/ 2009. Massachusetts Institute Of Technology.

7.Salaeva M. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar uzaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol.fan. nom. darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: 2005. – B. 18.

8.Reber A. Bolshoy tolkovыy psixologicheskiy slovar. V 2 t.T. 1. (A - O). Per. sangl. Bolshoy tolkovыy psixologicheskiy slovar / A. Reber. M.: Veche, AST.2000. 592 s.

9.Tojiboeva X.M. Gender yondashuv asosida o’smir yoshdagi o’quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari // Talim, fan va innovatsiya. – Toshkent, 2021. - №5. B. 165-168. (13.00.00 №18)

10.Chorieva D.A.Bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va aniqlashtirishning turli metodlarni ishlab chiqish.Ekonomika va sosium№10(89)2021y-1203.www.iupr.ru.

11.Chetverikova V.N. Grammaticheskaya realizatsiya gendernoy spesifiki (na materiale tekstov Dj. K. Rouling o Garri Pottere): Dissertatsiya na soisk. ... kandidata filologicheskix nauk. – Ivanovo, 2019. – 157 s.

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
“Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i
E-mail: jaloliddin1107@mail.ru

PYTHON DASTURLASH TILIDA ALGORITMIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loyihaviy ta’limning mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni va dasturlashni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy ta’lim o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish va global kompetentsiyalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Dasturlash tillari va pseudokoddan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi, innovatsion texnologiyalar esa mustaqil ta’lim olish va ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Loyihaviy ta’lim, dasturlash asoslari, innovatsion texnologiyalar, algoritmik fikrlash, pseudokod, python, kompetentsiya, mustaqil ta’lim, AKT vositalari, global kompetentsiyalar*

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ЯЗЫКЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ PYTHON

Аннотация. *В данной статье раскрыта сущность проектного обучения, его роль в педагогическом процессе и значение инновационных подходов при обучении программированию. Результаты исследования показывают, что проектное обучение является эффективным инструментом для превращения теоретических знаний учащихся в практические навыки, решения проблемных ситуаций, развития алгоритмического мышления и формирования глобальных компетенций. Использование языков программирования и псевдокода усиливает логическое мышление учащихся, а инновационные технологии способствуют самостоятельному обучению и развитию творческих способностей.*

Ключевые слова: *проектное обучение, основы программирования, инновационные технологии, алгоритмическое мышление, псевдокод, Python, компетенция, самостоятельное обучение, ИКТ средства, глобальные компетенции.*

METHODS OF FORMING ALGORITHMIC THINKING IN THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE

Annotation. *This article explores the essence of project-based learning, its role in the pedagogical process, and the importance of innovative approaches in teaching programming. The research results show that project-based learning is an effective tool for transforming students’ theoretical knowledge into practical skills, solving problem situations, developing algorithmic thinking, and fostering global competencies. The use of programming languages and pseudocode enhances students’ logical thinking, while innovative technologies promote independent learning and creativity.*

Key words: *project-based learning, programming basics, innovative technologies, algorithmic thinking, pseudocode, Python, competence, independent learning, ICT tools, global competencies.*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga oid zamonaviy o‘quv-nazorat dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga bo‘lgan zaruriyat “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganlik natijasida ta’lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish rivojlantirildi.

Mamlakatimizda informatika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan ta’lim sifatini oshirish jarayonida nazariy va amaliy asoslarini yaratish, innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida noan’anaviy usullardan guruhli va individual usullardan foydalalanishning nazariy asoslariga oid M.Aripov, A.A.Abdukodirov, M.Luttfullayev, N.I.Taylakov, U.Begimqulov, R.Jo‘rayev, N.Azizxo‘jayeva, T.T.Kalekeeva, D.U.Qo‘chqarov, M.X.Allabergenova, F.N.Rahimova, Sh.F.Davronova, I.N.Ruzimurodov, B.B.Mo‘minov, M.B.Xattabovlar kabi olimlarning ishlarini aytish mumkin.

Kirish. Hozirgi kunda dasturlash tillarini o‘rganish nafaqat texnologik bilimlarni egallash, balki algoritmik tafakkurni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Algoritmik tafakkur - bu muammolarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, mantiqiy ketma-ketlikda yechim topish va natijani optimallashtirish qobiliyatidir. Python dasturlash tili o‘zining soddaligi, o‘quvchilarga tez tushunarli sintaksisi va keng imkoniyatlari bilan algoritmik tafakkurni shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida algoritmik tafakkur nafaqat dasturchilar, balki muhandislar, iqtisodchilar, tabiatshunoslar va hatto ijtimoiy soha vakillari uchun ham bazaviy kompetensiyaga aylandi. Algoritmik fikrlash – bu murakkab muammoni tahlil qilish, uni boshqariladigan qismlarga ajratish, mantiqiy ketma-ketlikda yechim topish va natijani optimallashtirish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan, Python dasturlash tili o‘quv jarayonida nafaqat kod yozish vositasi, balki fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi pedagogik platforma sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada Python yordamida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy usullari va ta’limiy strategiyalari yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Loyiha (lot. “projectus” – “ilgari surilgan”) – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyihaviy ta’lim – ta’limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Loyihaga asoslangan o‘qitish – o‘quvchilarni real hayotiy muammolar va loyihalar asosida o‘rgatish metodidir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar kichik jamoalar yoki individual tarzda loyihalar ustida ishlash orqali bilim oladi va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

Tomas Markxem “PBL bilish va bajarishni birlashtiradi, o‘quvchilar o‘rganilayotgan o‘quv dasturidan asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, uning samarasi o‘laroq, hayotiy muammolarni hal qilish va muhim natijalarga erishish uchun bilganlarini amalda qo‘llaydi. PBL ta’limni o‘quv dasturiga emas, talabaga qaratadi, hamkorlikdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun raqamli vositalardan foydalanadi va o‘quvchilarni bugungi jahonda talab qilinayotgan global taraqqiyot, ijodkorlik, hissiy barqarorlik, chidamlilik, hamdardlik kabi nomoddiy boylik bilan mukofotlaydi. Albatta, bularni darsliklardan tashqarida o‘rgatish mumkin emas, lekin tajriba orqali faollashtirish lozim”, deya ta’riflaydi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan “Dasturlash asoslari” darslarini zamonaviy innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish o‘quvchilarning egallagan nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarini amaliyotda foydalana olishiga olib keladi. O‘qitish tizimini sifatli va samarali tashkil qilish uchun yangi innovatsion texnologiyalaridan qo‘llash hozirgi zamonning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Hozirgi zamon talablariga javob beradigan bilmli, ma’naviyatli, yetuk va iqtidorli, mamlakatimiz kelajagi uchun qayg‘uradigan yosh avlodni tarbiyalash zarur.

Ta’lim tizimidagi bugungi ijtimoiy talablar axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Umumta’lim maktablarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish, fanlarni o‘qitishda elektron axborot ta’lim bazasidan foydalanish, o‘quvchilarning AKT va multimediali dasturlar bilan doimiy muloqotini ta’minlash, mustaqil ta’lim olishi va o‘z-o‘zini nazorat qilishi, zaruriy ma’lumotlarni tezkorlik bilan izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda undan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ko‘plab algoritmik tillar mavjud bo‘lib, ularni dasturlash tillari deb ataladi. Algoritmik til - algoritmlarni bir xil, aniq yozish uchun ishlatiladigan belgilashlar va qoidalar tizimi.

Algoritmik til oddiy tilga yaqin bo‘lib, u matematik belgilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qo‘yilgan masalalarni yechishga nisbatan tuzilgan algoritmlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mashinaga berib, yechib bo‘lmaydi. Shu bois yozilgan algoritmni biror bir algoritmik tilga o‘tkazish zarur. Har qanday algoritmik til o‘zining qo‘llanilish sohasiga ega.

Dastur - bu berilgan algoritmga asoslangan biror-bir algoritmik tilda yozilgan ko‘rsatmalar (buyruqlar, operatorlar) to‘plami.

Dasturlash – bu kompyuter dasturlarini yaratish, o‘zgartirish va boshqarish jarayoni bo‘lib, kompyuterlarga vazifalarni bajarishni o‘rgatish uchun kod yozishni o‘z ichiga oladi. Dasturlash orqali inson ehtiyojlarini qondirish uchun turli dasturiy ta’minotlar, veb-saytlar, mobil ilovalar, o‘yinlar va avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqiladi.

Dasturlashning amaliy hayotdagi ahamiyati:

Avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish:

Dasturlash yordamida biznes va ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa vaqt va resurslarni tejaydi.

Masalan, hisob-kitob dasturlari yoki CRM tizimlari kompaniyalar uchun samaradorlikni oshiradi.

Axborotga kirish imkoniyatini kengaytirish:

Veb-saytlar va mobil ilovalar orqali turli xil xizmatlarga oson kirish imkoniyati yaratiladi.

Masalan, ta’lim ilovalari, onlayn-do‘konlar yoki bank dasturlari.

Yangi texnologiyalar va xizmatlarni ishlab chiqishda dasturlash asosiy o‘rinni egallaydi. Sun’iy intellekt, blokcheyn yoki IoT (Narsalar interneti) kabi texnologiyalar dasturlash orqali rivojlanadi.Smartfonlar va boshqa qurilmalarda ishlaydigan dasturlar orqali insonlar o‘z hayotini qulaylashtiradi (yo‘nalish topish, vaqtni boshqarish, xarid qilish). Masalan, Google Maps, Telegram yoki elektron pochta xizmatlari.Dasturlash bilan shug‘ullanish ko‘plab sohalarda yuqori maoshli ish o‘rinlarini ta’minlaydi.Dasturlash orqali ma’lumotlarni himoya qilish tizimlari ishlab chiqiladi. Bu banklar, hukumat tashkilotlari va kompaniyalarning maxfiy ma’lumotlarini himoyalash uchun juda muhim.

O‘quv dasturlari, simulyatsiyalar va tahlil vositalari ishlab chiqiladi, bu ta’lim va ilm-fan sohasida katta foyda keltiradi. Masalan, Python yoki MATLAB dasturlash tillari ilmiy hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi.

Algoritmni oddiy va tushunarli ifodalash uchun pseudokoddan foydalanish.

Misol: Oddiy jarayonni (masalan, choy tayyorlash) algoritm ko'rinishida yozish yoki sonni juft yoki toqligini aniqlash algoritmi.

```
Boshlash
Sonni kiritish
Agar son 2 ga bo'linganda qoldiq 0 ga teng bo'lsa
  "Juft son" deb chop etish
Aks holda
  "Toq son" deb chop etish
Tugatish
```

Pseudokodga misol:

Oddiy misol sifatida foydalanuvchi kiritgan ikkita sonning yig‘indisini hisoblash algoritmini ko‘rib chiqamiz:

Pseudokod:

1. Foydalanuvchidan birinchi sonni kiriting.
2. Foydalanuvchidan ikkinchi sonni kiriting.
3. Ikkita sonni qo‘shing va natijani saqlang.
4. Natijani ekranga chiqaring.

Dasturlash tili kodiga o‘girilgan:

Python tilida yuqoridagi pseudokod shunday ko‘rinishda bo‘ladi:

```
a = int(input("Birinchi sonni kiriting: "))
b = int(input("Ikkinchi sonni kiriting: "))
natija = a + b
print("Natija:", natija)
```

Tadqiqot natijasi va muhokama

Tadqiqot natijasi

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy ta’lim va dasturlash asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishda samarali bo‘ladi. O‘quvchilar kichik guruhlar yoki individual tarzda loyihalar ustida ishlash orqali:

- Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasini egallaydi.
- Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali mustaqil ta’lim olish va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Amaliy dasturlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.
- Pseudokod va dasturlash tillarini qo‘llash orqali algoritmik fikrlashni rivojlantiradi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini amaliyotda qo‘llash darajasini sezilarli oshiradi.

Muhokama

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar muhokama qilindi:

- Loyihaviy ta’limning afzalligi shundaki, u o‘quvchilarni faqat darslikdagi bilimlar bilan cheklab qo‘ymaydi, balki real hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi.
- Dasturlashni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar (multimedia, elektron ta’lim bazalari, AKT vositalari) o‘quvchilarning mustaqil ishlashini va ijodkorligini kuchaytiradi.
- Tomas Markxemning PBL ta’rifi tadqiqot natijalarini qo‘llab-quvvatlaydi: o‘quvchilar bilimni amaliyotda qo‘llash orqali yuqori sifatli mahsulot yaratadi va global kompetentsiyalarni egallaydi.
- Amaliy misollar (Python dasturlash tili, pseudokod) o‘quvchilarga nazariy bilimni tezda amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkonini beradi.
- Ijtimoiy talablar ta’lim tizimida axborotlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda, bu esa o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash malakasini shakllantirishni zarur qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy ta’lim va dasturlash asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantirishda samarali vosita hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar, elektron ta’lim bazalari va AKT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlashini, ijodkorligini va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Dasturlashni o‘qitish jarayonida pseudokod va algoritmik tillardan foydalanish o‘quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantiradi, Python kabi dasturlash tillari esa nazariy bilimlarni tezda amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, loyihaviy ta’lim va dasturlashni innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish bugungi ta’lim tizimining ijtimoiy talablariga javob beradi. Bu yondashuv bilimli, ma’naviyatli, yetuk va iqtidorli yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Tavsiyalar:

Loyihaviy ta’limni keng joriy etish. O‘quv jarayonida loyihaviy yondashuvni muntazam qo‘llash, o‘quvchilarning real hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Elektron ta’lim bazalari, multimedia vositalari va AKT texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil ishlashini va ijodkorligini kuchaytirish.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirish. Pseudokod va algoritmik tillardan foydalanishni kengaytirish, o‘quvchilarda mantiqiy va tizimli fikrlashni shakllantirish.

Amaliy dasturlash ko‘nikmalarini mustahkamlash. Python, Java, C++ kabi dasturlash tillarida amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish.

Hamkorlik va jamoaviy ishlashni rivojlantirish. O‘quvchilarni kichik guruhlarda loyihalar ustida ishlashga jalb qilish, bu orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

O‘quv dasturlarini yangilash. Ta’lim dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, global kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish.

O‘qituvchilar malakasini oshirish. Innovatsion metodlar va dasturlash tillarini o‘qitishda pedagoglarning malakasini muntazam oshirish uchun seminar va treninglar tashkil etish.

Amaliyotga yo‘naltirilgan baholash tizimi. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini faqat nazariy emas, balki amaliy natijalar asosida baholash.

Global texnologiyalarni integratsiya qilish. Sun’iy intellekt, IoT, blokcheyn kabi yangi texnologiyalarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich tatbiq etish.

O‘quvchilarda motivatsiyani oshirish. Dasturlashning hayotiy ahamiyatini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Karimov, A. R. Python dasturlash asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2022. – 312 b.
3. Toshmatov, B. S., Rahimov, D. K. Algoritmik tafakkur va dasturlash metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 184 b.
4. Nazarova, M. A. Informatika ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti nashriyoti, 2023. – 268 b.
5. Xolmatov, J. P. Maktab informatikasi darslarida algoritmik yondashuvni shakllantirish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 156 b.
6. G‘ulomova, M. Ta’limda vizual va interaktiv materiallardan foydalanish. – Toshkent: TDPU, 2020.
7. Azizxo‘jaeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 51–54.
8. Islomov, A. Sun’iy intellekt va ta’limning kelajagi. – Toshkent: Ta’lim, 2022. – 120 b.
9. Jo‘rabekov, S. Dasturlash asoslari va o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 98 b.

Xaliqova Gulnora Tuxtamurodovna
Navoiy viloyat PMM Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yetakchi mutaxassisi

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA METODIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy axborot ta’lim muhitida informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari o‘rganib chiqilgan. Pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ularning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Informatika va axborot texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, pedagogik dasturiy vositalar, raqamli didaktika, axborot texnologiyalari, metodik tizim, uzluksiz ta’lim, virtual laboratoriya.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И МЕТОДИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетенции учителей информатики и информационных технологий в условиях современной информационной образовательной среды. Подробно освещены дидактические возможности педагогических программных средств, их роль в деятельности преподавателя и значение в повышении эффективности уроков.*

Ключевые слова: *Информатика и информационные технологии, профессиональная компетенция, педагогические программные средства, цифровая дидактика, информационные технологии, методическая система, непрерывное образование, виртуальная лаборатория.*

THE DIDACTIC POSSIBILITIES AND METHODOLOGICAL EFFECTIVENESS OF USING MODERN PEDAGOGICAL SOFTWARE TOOLS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY

Abstract. *This article examines the issues of developing the professional competence of "Informatics and Information Technologies" teachers within the modern information-educational environment. The didactic potential of pedagogical software tools, their role in teaching activities, and their significance in enhancing lesson effectiveness are discussed in detail.*

Key words: *Informatics and information technologies, professional competence, pedagogical software tools, digital didactics, information technologies, methodical system, lifelong learning, virtual laboratory.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi XXI asr yuqori texnologik transformatsiyalar davri sifatida ta'lim tizimi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, "Informatika va axborot texnologiyalari" fan ushbu jarayonlarning metodologik va amaliy asosiga aylanib bormoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasida pedagog endi axborotni yetkazib beruvchi oddiy subyekt sifatida emas, balki murakkab raqamli o'quv resurslari dizayneri hamda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishi zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Resbublikamizda ta’limni raqamlashtirish uchun o‘qituvchilarning texnologiyalarni bilimlarni oshirish davlat darajasidagi eng muhim vazifa etib belgilandi."Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonida ta'lim

jarayonlariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va pedagog kadrlarining raqamli savodxonligini tizimli ravishda oshirish asosiy vazifalar qatorida ko'rsatilgan. Bunda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari zimmasiga yuqori darajadagi kasbiy mas'uliyat yuklaydi.

Ko'plab pedagogik kuzatishlar va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari zamonaviy innovatsion vositalardan - xususan, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, virtual simulyatorlar kabi ilg'or texnologiyalardan ko'pincha faqat texnik qurol sifatida foydalanish bilan cheklanmoqdalar.. Mazkur texnologiyalarning metodik-didaktik salohiyati va ta'lim samaradorligini oshirishdagi keng imkoniyatlari esa hali yetarli darajada o'zlashtirilmagan .Shu nuqtai nazardan, pedagogik dasturiy vositalar muhitida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga doir konseptual-metodik asoslarni ishlab chiqish masalasi bugungi kunda hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Pedagogik adabiyotlarda “kasbiy kompetensiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, kasbiy kompetensiya - bu pedagogning o‘z sohasiga oid bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llay olish, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va doimiy ravishda o‘z ustida ishlash qobiliyatidir. Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi uchun esa bu tushuncha yanada kengroq mazmun kasb etadi.


Biz informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratishni taklif qilamiz:

1.Informatik-nazariy kompetensiya. Bu komponent fanning fundamental asoslarini - algoritmlar, ma’lumotlar tuzilmasi, kompyuter arxitekturasi, dasturlash nazariyasi kabi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bilimlarsiz o‘qituvchi mavzuni chuqur tushuntira olmaydi.

2.Instrumental-texnologik kompetensiya. Bu - dasturiy va apparat vositalarini boshqarish mahorati. O‘qituvchi nafaqat kompyuterdan foydalana olishi, balki turli xil dasturlash muhitlari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar bilan ishlay bilishi kerak.

3. Metodik-didaktik kompetensiya. Eng muhim komponentlardan biri hisoblanad. Murakkab mavzularni pedagogik dasturiy vositalar yordamida oson va tushunarli shaklda yetkazib berish mahorati deyishimiz mumkin. Bunda o‘qituvchining darsni loyihalash qobiliyati, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi va texnologiyalarni didaktik maqsadda qo‘llashi nazarda tutiladi.

4. Kreativ-loyiha kompetensiyasi. Zamonaviy o‘qituvchi faqat tayyor resurslardan foydalanuvchi emas, balki o‘zining raqamli o‘quv resurslarini yarata olishi kerak. Bu interfaol testlar, o‘quv videolari, onlayn kurslar yoki hatto kichik dasturiy mahsulotlar bo‘lishi mumkin.



1-rasm. Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasini modeli

Ushbu to‘rt komponent bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning birlashmasi informatika va axborot texnologiyalarifani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini tashkil etadi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) va ularning turlari:

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o‘qitish metodikasida pedagogik dasturiy vositalar (PDV) bajaradigan funksiyalariga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘linadi. Pedagogik dasturiy vositalar ta’lim berish jarayonini raqamlashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish hamda individual ta’lim olish jarayonlarini texnologik jihatdan ta’minlovchi tizimli ishlanmalar tushuniladi.

1.O‘rgatuvchi dasturlar. Muayyan fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ixtisoslashgan vositalardir. Bunga misol sifatida tillarni o‘zlashtirishda Duolingo, matematik hisob-kitoblarda GeoGebra hamda Mathway, dasturlash asoslarini o‘rganishda esa W3Schools kabi platformalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

2.Bilimni onlayn baholash. O‘quvchilarning bilimini turli o‘yinli testlar va topshiriqlar orqali aniqlaydigan tizimlardir. Bu yo‘nalishda Kahoot!, Quizizz, Google Forms hamda Plickers kabi servislar natijalarni onlayn monitoring qilish imkonini beradi.

3.O‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS). Ta’lim muhitini to‘liq nazorat qilish, elektron resurslarni tizimlashtirish va o‘zlashtirish tahlilini yuritish uchun mo‘ljallangan platformalar. Hozirda keng ommalashgan Moodle, Google Classroom, Canvas va Blackboard Learn kabi tizimlar shular jumlasidandir. Ma'lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda bu kabi tizimlarning soni mingdan ortib ketgan.

4.Ommaviy ochiq onlayn ta’lim modullari (MOOC). Bu turdagi PDVlar foydalanuvchiga dunyoning nufuzli universitetlari va ekspertlaridan masofaviy ta’lim olish imkonini beradi. Coursera, edX, Khan Academy, Udacity va LinkedIn Learning kabi global platformalar ommaviy onlayn kurslarning eng mashhur vakillari hisoblanadi.



2-rasm. Pedagogik dasturiy vositalarni turlari

3. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini yuksaltirishning metodik bosqichlari

O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayoni uch bosqichli modelga asoslanadi. Mazkur bosqichlar chiziqli (birin-ketin) xarakterga ega bo‘lmay, balki bu bosqichlar uzluksiz takrorlanuvchi zanjir kabi bir-biriga bog'lanib ketgan. Jumladan kasbiy kompetensiyani takomillashtirish uzluksiz davom etadigan professional jarayon hisoblanadi.

I-bosqich: Motivatsion-diagnostik.-har qanday o‘zgarish motivatsiyadan boshlanadi. Ko‘p yillik kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bir qancha informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarida yangi dasturiy vositalarni o‘zlashtirishda “psixologik to‘siq”ni boshdan kechiradilar. “Bu

dasturni o‘rganishga vaqtim yo‘q”, “eski usul bilan ishlayotganim yaxshi”, “dastur murakkab, o‘quvchilar tushunmaydi” kabi fikrlar tez-tez uchraydi.

Shu bois, birinchi bosqichda o‘qituvchining hozirgi bilim darajasi va PDVlarga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. So‘ngra, PDVning afzalliklarini amaliy misollar orqali ko‘rsatish orqali ichki motivatsiya uyg‘otiladi. Masalan, bir soatlik darsga tayyorgarlik qancha vaqt olishi, PDV yordamida bu vaqtni qisqartirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

II-bosqich: Kognitiv-texnologik (o‘rganish bosqichi)-bu bosqichda o‘qituvchilar muayyan dasturiy vositalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Ammo bunda muhim jihati shundaki, ular faqat dasturni boshqarishni emas, balki aynan shu dasturni darsda qanday metodik maqsadda qo‘llashni ham o‘zlashtiradilar.

Masalan, Python tilini o‘qitishda vizualizatsiya vositalaridan (Pythontutor.com) foydalanish metodikasi. Oddiy kodni qadamma-qadam bajarilishini vizual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarga algoritmni tushunishda katta yordam beradi. Yoki mantiqiy elementlarni o‘rgatishda PhET simulyatorlaridan foydalanishlarni keltirishimiz mumkin.

III-bosqich: Konstruktiv-loyihaviy (yaratish bosqichi)-eng muhim bosqich hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi endi tayyor dasturdan foydalanuvchi emas, balki uning asosida o‘z dars rejasini yaratuvchi muallif sifatidai shtirok etadi.. U mustaqil ravishda interfaol test, o‘quv videosi, virtual laboratoriya ishi yoki hatto kichik bir onlayn kurs tayyorlaydi



3-rasm. O‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik bosqichlari

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining raqamli savodxonligi uning kasbiy mahorati bilan integratsiyalashgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Natijalar va tahlillar. Pedagogik dasturiy vositalarni ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish o‘qituvchi faoliyatini sezilarli darajada optimallashtirishga xizmat qiladi. Xususan, bilimni nazorat qilish va baholash jarayonlarining avtomatlashtirilishi (onlayn platformalar, raqamli jurnallar) pedagogning texnik vazifalarga sarflaydigan vaqtini tejaydi.Shunda pedagog bo‘sh vaqtida metodik izlanishlarga hamda har bir ta'lim oluvchi bilan individual ishlashga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

1. Ta’lim sifati va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Interfaol raqamli muhit o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirib, murakkab mavzularni vizuallashtirish orqali materialni oson qabul qilishga yordam beradi. Virtual laboratoriya va modellashtirish texnologiyalari nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘lab, darsning qiziqarliligini oshiradi.

2. Psixologik moslashuv

Raqamli vositalarning tizimli qo‘llanilishi pedagoglardagi texnologik innovatsiyalarga nisbatan mavjud psixologik to‘siqlarni bartaraf etadi. Natijada o‘qituvchi tayyor materiallarning oddiy iste’molchisidan shaxsiy raqamli kontent yaratuvchi (innovator) darajasiga ko‘tariladi. Bu esa o‘z navbatida mutaxassisning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi.

3. Metodik tavsiyalar va muammolar yechimi

Raqamli ta’limga o‘tishdagi to‘siqlarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar maqsadga muvofiq:

Resurs tejamkorligi: past tezlikdagi internetda ham ishlovchi, mobil qurilmalarga moslashgan ochiq kodli dasturlardan foydalanish.

Mentorlik tizimi: o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish uchun raqamli hamjamiyatlarni tashkil etish.

Amaliy yo‘naltirilganlik: metodik seminarlarni faqat nazariya emas, balki aniq bir raqamli asbobni darsda qo‘llash ko‘nikmasini berishga moslash.

Xulosa va tavsiyalar. "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o‘qituvchisining kompetentligini oshirish - bu doimiy harakatdagi dinamik jarayondir. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

"1. PDV - ta’limiy modulyator sifatida: Raqamli vositalar qo‘shimcha imkoniyat emas, balki o‘quv jarayonining shakli va mazmunini tubdan o‘zgartiruvchi strategik resursdir."

2.Faol o‘qitish metodlarining ustuvorligi: O‘qituvchi mahoratini oshirishda "Loyiha asosida o‘qitish" va "Keys-stadi" metodlari eng yuqori natijani ko‘rsatadi.

3. Metodik tayyorgarlikning ustuvorligi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini tayyorlashda faqatgina texnik ko‘nikmalarga (masalan, dasturiy kod yozishga) e’tibor qaratish yetarli emas. Zamonaviy yondashuv pedagogdan pedagogik mazmun bilimiga ega bo‘lishni talab etadi. Bu tushuncha fanni chuqur bilish bilan birga, uni o‘quvchiga yetkazib berish metodikasini ham qamrab oladi. Zero, muayyan dasturiy ta’minotni mukammal bilish - uni auditoriyaga samarali o‘rgata olishni bermaydi. Shuning uchun malaka oshirish jarayonlarida asosiy urg‘u "nima o‘qitish"dan ko‘ra, ko‘proq "qanday o‘qitish" masalasiga qaratilishi lozim.

4.Istiqbolli yo‘nalishlar: Ta'limga Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini jalb etish, ChatGPT kabi instrumentlar yordamida testlar yaratish va o‘quvchilar xatolarini tahlil qiluvchi shaxsiy yordamchi tizimlarni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Махрамова, Д. Informatika fanini o‘qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning samaradorligi // Central Asian Journal of Integrative Innovation. - 2026. - Vol. 1, №1. - 1–6-betlar.
2. Хонбобоев, Х., Зиявиддинова, Г. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini pedagogik dasturiy vositalardan foydalanib o‘qitish // Modern Science and Research. - 2023. - Vol. 2, №4. - 647–650-betlar.
3. Шералиев, Ф. Informatika darslarida pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish // Journal of New Century Innovations. - 2023. - Vol. 22, №2. - 140–142-betlar.
4. Исабеков, Б., Хандамов, Й., Шодмонқулов, М. O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagogik dasturiy vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi // Журнал математики и информатики. - 2020. - Vol. 1, №1. - 1–5-betlar.
5. Алланазарова, А. Pedagogik dasturiy vositalarni ta’limda qo‘llashda muammo va yechimlar // Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. - 2024. - №1. - 45–49-betlar.
6. Хакимова, М. Ta’limda pedagogik dasturiy vositalarning ahamiyati // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. - 2025. - Vol. 40, №1. - 215–217-betlar.
7. UNESCO. Digital learning and education in the 21st century. - Paris : UNESCO Publishing, 2019. - 120 p.
8. Siemens, G. Connectivism: A learning theory for the digital age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. - 2005. - 3(1). - 1–8 p.
9. Khan, S. The One World Schoolhouse: Education Reimagined. - New York : Twelve, 2012. - 256 p.
10. Давлетов, Р. Ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar. - Toshkent : Fan nashriyoti, 2021. - 180 b.

Xalilov Shaxobiddin Fayziyevich
Navoiy innovatsiyalari universiteti o‘qituvchisi, PhD f-m,f.n,
Mirzaqobilova Lola Niyatqobilovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi o’qituvchisi.

CHEKLI ERKINLIK DARAJALARIGA EGA BO‘LGAN MEXANIK SISTEMA SIFATIDAGI SENTRIFUGA TIPIDAGI URCHUQ DINAMIKASI

Annotatsiya. *Ishda to‘qimachilik sanoatida ishlatiladigan urchuqlar massiv asosga mahkamlangan u yoki bu nasadkalarga ega egiluvchan valikdan iborat. Valiklarning aylanish tezligini oshirish, demak, har bir urchuqqa to‘g‘ri keladigan ish unumini oshirish uchun valiklar aylanishi urchuqqa o‘rnatilgan elektr dvigatel hisobiga hosil qilinadigan konstruksiyalar qo‘llaniladi.*

Kalit so‘zlar: *amplituda, tebranish, aylanish tezligi, og‘irlik markazi , to‘la energiya, xususiy tebranish, ishqalanish koeffitsiyenti, amortizatorlarning tebranishga moyillik koeffitsiyenti.*

О ДИНАМИКЕ ВЕРЕТЕН ТИПА ЦЕНТРИФУГИ КАК МЕХАНИЧЕСКИХ СИСТЕМ С КОНЕЧНЫМ ЧИСЛОМ СТЕПЕНЕЙ СВОБОДЫ

Аннотация. *В работе веретена, используемые в текстильной промышленности, представляют собой гибкий валик с определенными насадками, закрепленными на массивном основании. Для увеличения скорости вращения валиков а следовательно, и производительности, приходящейся на каждое веретено, применяют конструкции, при которых вращение валиков достигается за счет электродвигателя, установленного на веретено.*

Ключевые слова: *амплитуда, колебание, скорость вращения, центр тяжести, полная энергия, собственное колебание, коэффициент трения. коэффициент склонности амортизаторов к колебаниям.*

ABOUT THE DYNAMICS OF SPINTS OF THE CENTRIFUGE TYPE AS MECHANICAL SYSTEMS WITH A FINITE NUMBER OF FREE DEGREES

Annotation. *In operation, spindles used in the textile industry are flexible rollers with certain attachments fixed to a massive base. To increase the rotational speed of the rollers, and consequently, the productivity per spindle, designs are used where the rotation of the rollers is achieved through an electric motor installed on the spindle.*

Key words: *amplitude, vibration, rotational speed, center of gravity, total energy, natural vibration, friction coefficient. shock absorbers' vibration tendency coefficient.*

Введение. Применительно к реальной конструкции электропривода ЗЗ-5КА рассматривался колебания веретен типа центрифуги, применяемые для прядения вискозного волокна. В динамической расчётной схеме учтены покачивания корпуса веретена около двух осей и колебания центра масс кружки в горизонтальной плоскости. Использован переход к двум комплексным координатам. В результате получены формулы для вычисления собственных частот и амплитуд вынужденных колебаний за счёт дисбаланса кружки. Указано на возможности эффекта гашения колебаний кружки покачиваниями корпуса.

Постановка задачи. Веретена, применяемые в текстильной промышленности, представляют собой гибкий валик с тем или иным насадкам, укреплённый на массивном основании. Для повышения скоростей вращения валиков, а значит, и повышения производительности труда на каждое веретено, применяются конструкции, в которых вращение валиков создаётся за счёт встроенного в веретено электродвигателя. С применением электроприводов скорости вращения валиков веретен стали порядка 8000–14000 об/мин. и выше, в связи с чем возросли и нагрузки на элементы веретен. Одним из распространённых и производительных типов веретен является веретена типа центрифуги, применяемые для прядения вискозного во-

локна. Не теряя общности, выведем и проанализируем уравнения движения веретена типа центрифуги применительно к конструкции ЭБ-5КА, схематически изображенной на рис.1, где И - кружка, 2 - корпус веретена, 3 - насадок, 4 - втулка, 5 - гибкий валик, 6 - статор, 7 - ротор, 8 - резиновые амортизаторы. Для улучшения центрирования здесь гибкий валик пропущен внутри втулки, на которой располагается обмотка ротора электромотора. Таким путем повышается длина валика, а значит, уменьшается его собственная жёсткости и первая собственная частота. Жёсткости втулки значительно больше жесткости валика, для расчета естественно считать втулку абсолютно жесткой, определяющими являются прогибы валика.

При выводе уравнений движения веретена будем исходит из следующих предположений:

втулку, внутри которой проходит гибкий валик, и корпус веретена можно считать абсолютно жесткими;

кружка жестко скреплена с насадкам валика так, что углы поворота кружки около горизонтальных осей равны углам поворота концевого сечения валика;

при стационарном вращении валик не касается ограничителя;


вертикальными вибрациями можно пренебречь;


массой валика можно пренебречь по сравнению с массой кружки;


действие электрических сил опускаем, предполагая, что мощности электродвигателя достаточно велика.

Отсчет будем вести в абсолютной системе координат , связанной с неподвижным основанием, причем ос З направлена вертикально и совпадает с начальным (неподвижное состояние) положением оси х и у в горизонтальной плоскости. Исходя из конструкции веретена ЭБ-5КА, можно заключит, что величинами, определяющими его движение, являются прогибы валика и поворот корпуса веретена.

Рис.1 Рис.2 Рис.3







гими, жёсткости которых одинакова во всех горизонтальных направлениях. Введем следующие обобщенные координаты: x_1, y_1 – перемещения центра тяжести кружки, $\varphi_{x2}, \varphi_{y2}$ – углы поворота корпуса веретена около осей х и й соответственно[3,4]. Воспользуемся широко распространенным в инженерной практике методом перемещений и принципом Даламбера, введем также для удобства дополнительную относительную систему координат x', y', z', связанную с корпусом веретена и совпадающую с системой x, y, z в состоянии покоя. Пуст x_1', y_1'

– перемещения центра тяжести кружки в относительной системе координат. Нетрудно ведет, что

$$x_1 = x_1^{'} + \varphi_{y_2} l, \quad y_1 = y_1^{'} - \varphi_{x_2} l$$

$$\varphi_{y_2} = \left(P_{x1} l + M_{y2}\right)\bar{C}_{2k}, \quad \varphi_{x_2} = \left(-P_{y1} l + M_{x2}\right)C_{2k} \quad (1)$$

$$x_1^{'} = \bar{C}_1 P_{x1}, \quad y_1^{'} = \bar{C}_1 P_{y1} \quad (2)$$

где $\bar{C}_1$ – коэффициент податливости валика на прогиб, $\bar{C}_{2k}$ – коэффициент податливости амортизаторов на качание, $l = l_b + \Delta l_b$, l_b - длина валика, Δl_b - удаление центра тяжести кружки (с куличом) от насадка валика, P_{x1}, P_{y1} – силы, действующие на центр тяжести кружки, M_{x2}, M_{y2} – моменты, действующие на корпус веретена. Расчетная динамическая схема для шестого случая приведена на рис.2, где 1- некоторая эквивалентная сосредоточенная масса, равная массе кружки и расположенная в центре тяжести, 2- валик, 3- корпус, 4- упругие элементы, имитирующие работу амортизаторов. Демпфирование опускаем.

Вместе с ним

$$\bar{C}_1 = \frac{1}{C_1}, \bar{C}_{2k} = \frac{1}{C_{2k}} \quad (3)$$

$$P_{x1} = -m_1 \ddot{x}_1 \; P_{y1} = -m_1 \ddot{y}_1 \quad (4)$$

$$M_{y2} = -(A_2 \ddot{\varphi}_{y2} - C_p \omega \dot{\varphi}_{x2}), M_{x2} = -(A_2 \ddot{\varphi}_{x2} + C_p \omega \dot{\varphi}_{y2}) \quad (5)$$

где C_1 - коэффициент жесткости валика на прогиб, C_{2k} - коэффициент жесткости амортизаторов на качение, m_1 - масса кружки и насадка (и кулачка, если таковой имеется), ω - угловая скорость вращения электродвигателя, A_2 - момент инверсии качения веретена около горизонтальной оси, проходящей через точку качения корпуса, C_p - полярный момент инверсии ротора электродвигателя [5,6]. Члены $-C_p \omega \dot{\varphi}_{x2}$ и $C_p \omega \dot{\varphi}_{y2}$ в (5) представляют собой гироскопические моменты от ротора электродвигателя. Коэффициент $\bar{C}_{2k}$ следует определят опытным путем. Коэффициент $\bar{C}_1$ может быт найден теоретически, см. рис. 3. Считая участок Δl_f абсолютно жестким, согласно рис. 3, получаем

$$C_1 = \frac{l^3}{3EJ}\left(1 + \frac{3\Delta l_f}{2l}\right) \quad (6)$$

где E - модуль упругости, J - момент инверсии поперечного сечения валика.

Разрешая уравнения (1), (2) относительно старых производных, получен для исследования систему

$$m_1 \ddot{x}_1 + C_1(x_1 - l\varphi_{y2}) = 0$$

$$m_1 \ddot{y}_1 + C_1(y_1 + l\varphi_{x2}) = 0$$

$$A_2 \ddot{\varphi}_{y2} - C_p \omega \dot{\varphi}_{x2} + (C_{2k} + C_1 l^2)\varphi_{y2} - C_1 l x_1 = 0$$

$$A_2 \ddot{\varphi}_{x2} + C_p \omega \dot{\varphi}_{y2} + (C_{2k} + C_1 l^2)\varphi_{x2} + C_1 l y_1 = 0 \quad (7)$$

Умножив второе уравнение (7) на i и складывая его с первым, а трете, умноженное на i, складывая его с тратим, умноженным на $-i$, записываем уравнения движения веретена в комплексной форме:

$$\begin{cases} m_1\ddot{z}_1 + C_1 z_1 + C_1 l\varphi_2 = 0 \\ A_2\ddot{\varphi}_2 - iC_p\omega\dot{\varphi}_2 + (C_{2k} + C_1 l^2)\varphi_2 + C_1 l z_1 = 0 \end{cases} \quad (8)$$

где $z_1 = x_1 + iy_1, \varphi_2 = -\varphi_{y2} + i\varphi_{x2}$.

Разыскивая далее решения системы (8) в виде

$$z_1 = Z_1 e^{i\lambda t}, \varphi_2 = \Phi_2 e^{i\lambda t} \quad (9)$$

получаем характеристическое уравнение для определения собственных частот колебаний

$$m_1 A_2 \lambda^4 - m_1 C_p \omega\lambda^3 - [m_1(C_{2k} + C_1 l^2) + C_1 A_2]\lambda^2 + C_1 C_p \omega\lambda + C_1 C_{2k} = 0 \quad (10)$$

Замена ω на $-\omega$ в (10) равносильна изменению знака перед членом сследовательно, характеристическая кривая имеет ветви, расположенные кососимметрично по отношению к основным ветвям, и достаточно рассмотрит лишь положительные корни, считая, что $-\infty \le \omega \le \infty$.

Критические скорости - это те значения ω, которые равны собственным частотам колебаний вращающегося вала. При одинаковых знаках ω и λ имеет место прямая прецессия, при разных - обратная. Полагая $\omega = \lambda$, получаем из (10) уравнение для определения критических скоростей прецессии

$$m_1(A_2 - C_p)\omega^4 - [m_1(C_{2k} + C_1 l^2) + C_1(A_2 - C_p)]\omega^2 + [C_1(C_{2k} + C_1 l^2) - C_1^2 l^2] = 0 \quad (11)$$

При $\omega = \Omega$ из (10) соответственно будем имеет уравнение для определения обратных скоростей прецессии. В случае, когда $C_p < A_2$, существует две критические скорости прямой и две критические скорости обратной прецессии. Если пренебречь величиной C_p по сравнению с A_2, то, очевидно, в этом случае имеем из (11)

$$\omega_{1,2}^2 = \frac{1}{2m_1 A_2}[m_1(C_{2k} + C_1 l^2) + C_1 A_2] \pm \sqrt{[m_1(C_{2k} + C_1 l^2) + C_1 A_2]^2 - 4m_1 A_2 C_1 C_{2k}} \quad (12)$$

из (12) видно, что выражение для $\omega_{1,2}$ представляет собой фуксию

$$\omega_{1,2} = \sqrt{K_z + Z \pm \sqrt{K^2 Z^2 + mZ + N}} \quad (13)$$

относительно величин

$$Z = C_1, C_{2k}, l^2, \frac{1}{m_1}, \frac{1}{A_2}$$

Исследования (13) на экстремум производится обычным образом.

Обратимся теперь к случаю вынужденных колебаний. Исходя из конструкции употребленных нами роторных амортизаторов, будем предполагать, что качания корпуса веретена происходят около горизонтальной оси, проходящей через середину амортизаторов. Сопротивление трения в направлении той или иной координаты примем пропорциональным скорости. У рассматриваемого веретена ЭВ-5КА могут быт три дисбаланса: несбалансированности кружки, косая посадка кружки (что должно принимается во внимание при учете гироскопического действия кружки), несбалансированности ротора электродвигателя и втулки. Наибольшую величину может имеет дисбаланс кружки, поскольку она обладает большой разнесенной массой и заключает в себе кулич.

Если за x_1, y_1 считать координаты конца условного валика, см. рис. 2, то вместо (4) и (5) будем имеет [7]:

$$\begin{cases} P_{x1} = -m_1\ddot{x}_1 - h_1\dot{x}_1 + m_1 a\omega^2 \cos\omega t \\ P_{y1} = -m_1\ddot{y}_1 - h_1\dot{y}_1 + m_1 a\omega^2 \sin\omega t \end{cases} \quad (14)$$

$$\begin{cases} M_{y2} = -(A_2\ddot{\varphi}_{y2} - C_p\omega\dot{\varphi}_{x2}) - h_{2k}\dot{\varphi}_{x2} \\ M_{x2} = -(A_2\ddot{\varphi}_{x2} + C_p\omega\dot{\varphi}_{y2}) - h_{2k}\dot{\varphi}_{y2} \end{cases} \quad (15)$$

где h_1 и h_2 -- коэффициенты вязкого трения, а - смещение центра тяжести кружки от оси не вращающегося валика. Если же за x_1, y_1 считать, как выше, координаты центра тяжести кружки, то

$$\begin{cases} x_1 = x_1' + \varphi_{y2} l + a\cos\omega t \\ y_1 = y_1' - \varphi_{x2} l + a\sin\omega t \end{cases} \quad (16)$$

в вместо (14) будет

$$\begin{cases} P_{x1} = -m_1\ddot{x}_1 - h_1\dot{x}_1 \\ P_{y1} = -m_1\ddot{y}_1 - h_1\dot{y}_1 \end{cases} \quad (17)$$

При экспериментах удобно проводит наблюдение за движением или центра гибкого валика, поэтому исползаем закономерности (14) и (15). Вставляя (14) и (15) в (1) и (2) разрешения относительно P_{x1}, P_{y1}, M_{xz}, M_{yz} получаем уравнения движения:

$$\begin{cases} m_1\ddot{x}_1 + h_1\dot{x}_1 + C_1 x_1 - C_1 l\varphi_{y2} = am_1\omega^2\cos\omega t \\ m_1\ddot{y}_1 + h_1\dot{y}_1 + C_1 y_1 + C_1 l\varphi_{x2} = am_1\omega^2\sin\omega t \\ A_2\ddot{\varphi}_{y2} - C_p\omega\varphi_{x2} + h_{2k}\dot{\varphi}_{y2} + (C_{2k} + C_1 l^2)\varphi_{y2} - C_1 l x_1 = 0 \\ A_2\ddot{\varphi}_{x2} + C_p\omega\varphi_{y2} + h_{2k}\dot{\varphi}_{x2} + (C_{2k} + C_1 l^2)\varphi_{x2} + C_1 l y_1 = 0 \end{cases} \quad (18)$$

или в комплексной форме:

$$\begin{cases} m_1\ddot{z}_1 + h_1\dot{z}_1 + C_1 z_1 + C_1 l\varphi_2 = am_1\omega^2 e^{i\omega t} \\ A_2\ddot{\varphi}_2 + (-iC_p\omega + h_{2k})\dot{\varphi}_2 + (C_{2k} - C_1 l^2)\varphi_2 + C_1 l z_1 = 0 \end{cases} \quad (19)$$

Раскрывая, как выше, решение однородных уравнений (19) в виде (9), получаем характеристическое уравнение:

$$\begin{aligned} & m_1 A_2\lambda^4 - \left[m_1 C_p\omega + i(h_1 A_2 - m_1 h_{2k})\right]\lambda^3 + \\ & + \left\{\left[C_1 A_2 + m_1(C_{2k} + C_1 l^2) + h_1 h_{2k}\right] - ih_2 C_p\omega\right\}\lambda^2 + \\ & + \left\{[C_1 C_p\omega + i(h_{2k} + h_1(C_{2k} + C_1 l^2))]\right\}\lambda + C_1 C_{2k} = 0 \end{aligned} \quad (20)$$

Уравнение (20) при малых h_1 и h_{2k} удобно решать методом малого параметра [2], принимая на решения корни уравнения (11).

Амплитуды вынужденных колебаний вследствие дисбаланса кружки при установившемся режиме вращения находим, разыскивая частные решения уравнений (19) в виде:

$$z_1 = Z_1 e^{i\omega t},\ \varphi_2 = \Phi_2 e^{i\omega t} \quad (21)$$

вставляя (21) в (19), получаем систему двух алгебраических уравнений относительно амплитуд колебаний, откуда имеем:

$$Z_1 = am_1\omega^2\left(\frac{a_0 C + BD}{C^2 + D^2} + i\frac{BC - a_o D}{C^2 + D^2}\right) \quad (22)$$

$$\Phi_2 = am_1\omega^2\left(-\frac{c_0 C}{C^2+D^2}+i\frac{c_o D}{C^2+D^2}\right) \quad (23)$$

где

$$C = m_1(A_2 - C_p)\omega^4 - \left[m_1(C_{2k}+C_1l^2)+C_1(A_2-C_p)+h_1h_{2k}\right]\omega^2 + C_1C_{2n}.$$

$$D = h_2\omega\left[-(A_2-C_p)\omega^2+(C_{2k}+C_1l^2)\right]+h_{2k}\omega\left(-m\omega^2+C_1\right),$$

$$a_0 = -(A_2-C_p)\omega^2+(C_{2k}+C_1l^2),$$

$$B = h_{2k}\omega,\ C_0 = C_1l$$

Из выражения (22) видно, что при $h_{2k}=0$ и

$$\omega = \sqrt{\frac{C_{2k}+C_1l}{A_2-C_p}} \quad (24)$$

амплитуда колебаний конца валика обращается в нуль: корпус верстана играет роль динамического гасителя, происходит гашение колебаний кружки за счёт качаний корпуса. Условия само центрирования нетрудно выписать, приравнивая нулю действительную и мнимую части выражения для Z_1.

Литература.

1. Диментберг Ф. М. Изгибные колебания вращающихся валов. - М.: Изд-во АН СССР, 1959. - 248 с.
2. Карамышкин В. В. Определение собственных частот систем с вязким трением методом малого параметра // Известия АН РФ. Отделение технических наук. Серия: Механика и машиностроение. - 1961. - № 5. - С. 157–158.
3. Коритысский Я. И. и др. Приборы и установки для исследования текстильных машин / под ред. С. О. Доброгурского. - М.: Машгиз, 1958. - 312 с.
4. Magnucki K., Szyc W. Stability of ellipsoidal heads of cylindrical pressure vessels // Applied Mechanics and Engineering. - 2000. - Vol. 5, No. 2. - P. 389–404.
5. Zhang C., Zhu C., Lin Z. Suppression strategy for parametrically excited lateral vibration of mass-loaded string // Journal of Southeast University. - 2004. - Vol. 20, No. 2. - P. 165–169.
6. Li S.-R. Vibration analysis of mechanical systems // Journal of Gansu University of Technology. - 2000. - Vol. 26, No. 2. - P. 98–102.
7. Kaplunov J. D., Wilde M. V. Edge and interfacial vibrations in elastic shells of revolution // ZAMP: Zeitschrift für angewandte Mathematik und Physik. - 2000. - Vol. 51. - P. 29–48.

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:bunyoddilfuz@gmail.com

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM LOYIHAVIY FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA HAMKORLIK VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM yondashuviga asoslangan loyihaviy faoliyatning mohiyati va uning bolalarda hamkorlik hamda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. STEAM texnologiyalari bolalarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi, ijodkorlik bilan yechim topishi va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Maqolada samarali loyihaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, loyihaviy faoliyat, ijodkorlik, hamkorlik, innovatsion ta’lim, maktabgacha yosh, muammoli vaziyat, kompetensiya.*

РАЗВИТИЕ У ДЕТЕЙ СОТРУДНИЧЕСТВА И КРЕАТИВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье раскрывается сущность проектной деятельности, основанной на STEAM-подходе в процессе дошкольного образования, а также её роль в развитии у детей навыков сотрудничества и творческого мышления. STEAM-технологии способствуют формированию у дошкольников самостоятельного мышления, умения работать в команде, находить творческие решения и справляться с проблемными ситуациями. В статье также приведены методические рекомендации по организации эффективной проектной деятельности.*

Ключевые слова: *STEAM, проектная деятельность, творчество, сотрудничество, инновационное образование, дошкольный возраст, проблемная ситуация, компетенция.*

DEVELOPMENT OF COLLABORATION AND CREATIVITY IN CHILDREN THROUGH STEAM PROJECT-BASED ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. This article examines the essence of project-based activities built on the *STEAM approach in preschool education and highlights its role in developing children’s collaboration and creativity skills. STEAM technologies help preschoolers develop independent thinking, teamwork abilities, creative problem-solving, and competencies for addressing challenging situations. The article also provides methodological recommendations for organizing effective STEAM-based project activities.*

Key words: *STEAM, project-based activity, creativity, collaboration, innovative education, preschool age, problem situation, competence.*

Mamlakatimizda yosh avlodning o‘qimishli, bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishda ta’lmi tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Shu bilan birga ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta’lim mazmunini takomillashtirish, uning sifatini ilmiy asosida boshqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM texnologiyalari vositasida tarbiyalanuvchilarni ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish 2014 yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan “STEAM formard” halqaro konferensiyasi bayonotida “Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarini bolalar bog‘chalariga kiritish kerakligi bo‘yicha qaror qabul qilingan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi quyidagicha:

amaliy, nazariy bilimlar kabi muhimdir:

bolalar mashg‘ulotlar jarayonida faqat o‘z aqlini, balki qo‘llarini ham ishlatishga majbur bo‘ladilar;

mashg‘ulotlar honasida ta’lim faoliyati jarayoni, jadal rivojlanayotgan ta’lim olamdagi o‘zgarishlarida ortda qolmoqda;

bolalar beshta sohasi kompetensiyalari bo‘yicha ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkoniyatlar yaratiladi;

bolalar bilimlarini mustaqil egallashga shart-sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning o‘ziga xos zamonaviy «STEAM - ta’lim» (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Engineering - texnik ijodkorlik, Art - san’at va ijod, Mathematics - matematika) yondashuvi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, STEAM ta’lim texnologiyasi bugungi kunda «STEAM - ta’lim» yondashuvi sifatida tatbiq etilib, ta’lim-tarbiya jarayonidagi samaradorlikni yuqori darajaga chiqishini ko’rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimiga STEAM ta’lim texnologiyasini joriy etish bugungi kun talabi ekan, texnologiya tushunchasi bilan birgalikda integratsiya terminining mazmun-mohiyatiga ham alohida to‘xtalib o‘tish juda muhimdir. Bolalar bu jarayonni o‘yin faoliyati orqali amalga oshiradilar. Bolalar o‘yinlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi asosan bilvosita usullardan foydalanadi, o‘yinni kuzatish davomida faol va lider bolalar o‘z o‘rtoqlarini tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashlari, tortinchoq bolalarni ham o‘yinga qiziqtirish, jalb qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Bolalar bir-birlari bilan aloqa munosabatlari yaxshilanadi, tengdoshlarining harakatlariga o‘z munosabatlarini bildiradilar, o‘z fikr va qarashlarini himoya qiladilar. Tarbiyachi rejissyor sifatida o‘yinga mavzu bo‘yicha oldindan kelishib olishga, rollarni taqsimlashga undaydi. Bu orqali bolalarda jamoada ishlash hamkorlik ko’nikmalari shakllanadi. STEAM faoliyati bolalarni kichik guruhlarda ishlashga undaydi. Guruh bo‘lib ishlash jarayonida bolalarda:

bir-birini tinglash,

fikriga hurmat bilan qarash,

rollarni bo‘lishish,

umumiy maqsadga erishish,

kelishuvga erishish,

jamoa mas’uliyatini his qilish

kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Hamkorlikka asoslangan loyiha bolalarni jamiyatda faol subyekt sifatida kamol topishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi - bolalarning tabiiy qiziqishi, tajribaga tayangan o‘rganishi hamda ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydigan integrativ pedagogik texnologiya hisoblanadi. STEAM loyihaviy faoliyati bolalarda nafaqat ilmiy-texnik tushunchalarni shakllantiradi, balki jamoaviy ishlash, o‘z fikrini asoslash, muloqotga kirishish va kreativ yechim topish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyatda bolalar turli vazifalarni guruh bo‘lib bajaradilar, bu jarayonda har bir bola o‘z rolini anglaydi, mas’uliyatni his qiladi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Tajriba o‘tkazish, qurilish modellarini yasash, texnik ijodkorlik elementlari, sodda muammolarni birgalikda hal qilish kabi mashg‘ulotlar ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

STEAM loyihalari ijodkorlikni rivojlantiruvchi eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Chunki loyiha davomida bola:

turli materiallardan erkin foydalanadi;

noodatiy yechimlar topadi;

yangi shakl va konstruksiyalar yaratadi;

tasavvurini amaliy harakatga aylantiradi;

muammoni yaratgan holda uni o‘zi hal qiladi

STEAM faoliyati jarayonida pedagog rahbar emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Bu esa bolalarning mustaqil izlanishiga, savollar berishiga, taxminlar ilgari surishiga va o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rishiga sharoit yaratadi. Loyihalar davomida bola “nima?”, “nega?”,

"qanday?" kabi savollar orqali refleksiv tafakkurini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari, STEAM loyihalari bolalarda predmetlararo aloqalarni anglashni kuchaytiradi: matematika – o'lchash va hisoblash, texnologiya – qurish va yasash, muhandislik – muammo yechish, san'at – dizayn, estetika, ijodiy ifoda, tabiiy fanlar esa kuzatish va tajribalar asosida bilim hosil qilish imkonini beradi. Natijada bolalarda nafaqat ijodkorlik va hamkorlik, balki mantiqiy fikrlash, tashabbuskorlik, axborotni tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga mos qaror qabul qilish ko'nikmalari ham shakllanadi. STEAM ta'lim dasturi L.S.Vygotskiyning "To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi" ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan dasturdir.

STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat- muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. "STEAM fikrlash" bolalikdan boshlanadi. STEAM ta'lim texnalogiyasi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar va rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining rivojlanish jarayoni barcha yosh guruhlardagi tarbiyachilarning topshiriqlarga va ularni amalga oshirishga emotsional munosabati bilan xarakterlanadi. Bunda tarbiyachi rahbarligining umumiy ijodiy yo'nalishi, uning bolalar izlanishlariga xayrixohlik munosabati katta ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim jarayoniga STEAM yondashuvini integratsiya qilish bolalarning tabiiy bilishga chanqoqligini qo'llab-quvvatlaydigan, ularni izlanishga undaydigan va ijodkorlikni rivojlantiradigan samarali pedagogik texnologiya ekanligini ko'rsatadi. Loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan STEAM mashg'ulotlari bolalarning birgalikda ishlash, o'zaro fikr almashish, rollarni taqsimlash va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv bolalarda ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik, muammoni yechish, konstruktorlik g'oyalarini ilgari surish va ularni amalda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, o'yin va tajribaga asoslangan STEAM loyihalari orqali bola matematika, texnologiya, tabiiy fanlar va san'at o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglaydi, bu esa predmetlararo integratsiya jarayonini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Meliev X. A. STEAM texnologiyalari vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish texnologiyalari // *Ilmiy-ommabop maqolalar*. - 2023. - 13-yanvar.

2. Egamnazarov A. A. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari // *International scientific and practical conference "Strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience"*. - 2025. - 16–17-aprel. - B. 315–320.

3. Boltayeva M. B. Maktabgacha ta'lim sohasida STEAM texnologiyalarini keng qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlari // *Ilm-fan xabarnomasi (ilmiy elektron jurnal)*. - S. 116–120.

4. Avliyoqulova X. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Hasanboeva O., Xasanov R. *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.

6. Abdullaeva Q. *Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik asoslari*. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

Dilfuza Karimova Abdukayumovna
Navoiy davlat universiteti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiyaning milliy ma’naviy negizlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya va uning asosiy tarkibiy qismi, tarbiya metodlari, tarbiya qoidasi, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘quvchilar ongi va qalbiga singdirish aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ta’lim, tarbiya, axloq, odob, xulq, qadriyat, meros, ajdodlar, jamiyat, o‘quvchi, millat, xalq, yoshlar.*

МЕТОДОЛОГИЯ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБЩЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются национальные духовные основы образования в средних школах, духовно-нравственное воспитание и его основные составляющие, методы обучения, правила воспитания, а также привитие богатого духовного наследия наших предков в умы и сердца учащихся.*

Ключевые слова: *духовность, образование, воспитание, мораль, этикет, поведение, ценности, наследие, предки, общество, студент, нация, народ, молодежь.*

METHODOLOGY OF IMPLEMENTING EDUCATIONAL WORK IN PUBLIC SCHOOLS

Abstract. *This article examines the national spiritual foundations of education in secondary schools, spiritual and moral education and its main components, teaching methods, rules of education, as well as instilling the rich spiritual heritage of our ancestors in the minds and hearts of students.*

Key words: *spirituality, education, upbringing, morality, etiquette, behavior, values, heritage, ancestors, society, student, nation, people, youth.*

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. [1]

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin – asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta – sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e’tiborga olishi zarur.

Tarbiyaning samarali bo‘lishi nimalarga bog‘liq?

Ma’naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o‘rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota – onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yoshlar barcha sohada yetakchi bo‘lishlari uchun eng avvalo, go‘zal odob-axloqli bo‘lishlari lozim. Chunki, islomiy ta’limotga ko‘ra, odob oxirat ne’matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan biridir. Qur’oni Karimda ham, Rasulullоh (alayhissalom) hadislarida ham odob-axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Farzand tarbiyasi haqida ilgari ham juda ko‘p yozilgan.

Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg’ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo’lini izchil davom ettirish - eng dolzarb vazifamizdir.

Bu millat kishilik taraqqiyotiga o‘zining o‘chmas ulushini qo‘shgan, mamlakatimiz shuhratini olamga taratgan, tarix sahifalariga abadul-abad muhrlangan. Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o‘z zamonasidan o‘zib ketgan daholar yurti bo‘lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad al Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Dorimiy nomlarining o‘zi bir kitob bo‘ladi. [2]

Jumladan, Amir Temur axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma’naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. “O‘g‘illarim! Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”. [3]

Ismoil Al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham zarari yo‘qdir”, – deb yozadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular o‘quvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unib chiqishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishga yordam qiladi, ma’naviy kuch-quvvat beradi. Ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida tarbiyaviy soatlar, ertalabgi saflanish, ma’naviyat kunlari kabi tadbirlarda Buxoriy avlodlari, Marg‘inoniy izdoshlari, Moturidiy va Naqshband davomchilari, Islom sivilizatsiyasi bilimdoni shiori ostida ochiq darslarni o‘tishdan eng asosiy maqsad ham maktab o‘quvchilarining vatanparvarlik e’tiqodini shakllantirishdir. Vatanni sevmoq uchun, dastavval, uning ma’nosini, tarixini, taqdiri va istiqbolini chuqur anglab yetmoq kerak. [4]

Tadqiqot metodologiyasi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda:

• xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish;

• milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur.

Barkamol avlodni shakllantirishning muhim shartlari:

birinchidan, yosh avlodga o‘zligimiz, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarini, jamiyat oldida turgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya – milliy mafkuraga sadoqat o‘yin yakuni sifatida odamlar nega taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

uchinchidan, yoshlarni O‘zbekistonga munosib voris bo‘la oladigan baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash;

to‘rtinchidan, yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, Davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek:
birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga;
ikkinchidan, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishiga;
uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga;
to‘rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to‘la ro‘yobga chiqarishga;
beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Tarbiya metodlari - o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Tarbiya metodlari - bu o‘qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarini, ma’naviy his-tuyg‘u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullari demakdir. Tarbiya metodlari o‘quvchi(tarbiyalanuvchilar)ning o‘z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois ta’lim tizimida tarbiya metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan, birgalikdagi faoliyati usuli sifatida qarab chiqiladi.

Tarbiya qoidasi - pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf - donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo‘lib, tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.[5]

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo‘lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o‘rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo‘lsa, shu jamiyat va muhitda o‘sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo‘lib yetishadi. Bunday sermas’uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya’ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo‘lib yetishishlari uchun o‘z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo‘lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o‘smir va o‘spirinlar ko‘pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o‘rnak oladilar, ya’ni ular «domlaning qilganini qilishadi». Bu o‘rinda ularning quyidagi haqli e’tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o‘zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o‘zlari yolg‘on so‘zlaydilar?». Agar o‘qituvchi va boshqalar ana shunday so‘zda to‘g‘ri-yu, amalda noto‘g‘ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o‘rnak qilib oladilar? Shu ma’noda tarbiyachi har vaqt o‘z so‘ziga amal qilishi va so‘zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonnning mashhur mutafakkirlari Aflotun va Arastuning nomi bilan bog‘liq pandnomalaridan keng o‘rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o‘zi tarbiya ko‘rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo‘lishi darkor.

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta’lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnoma» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, O‘bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o‘rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta’limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o‘rganildi va boyitildi.Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o‘rni beqiyosdir. Bu o‘z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a’zolarini tayyorlashni kafolatlaydi. [6]

Tahlil va natijalar. Farzandlarimizning kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishi avvalo, uning yoshligida olgan odob-axloqi hamda ilm-ma’rifatiga bog‘liqdir. Shuning uchun bir hadisi sharifda shunday deyiladi: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”. To‘g‘ri, bola yoshlik qilib ta’lim-tarbiya olishning ahamiyatini to‘liq anglamasligi, tushunmasligi mumkin. Shuning uchun barcha ota-onalar farzandlarini yoshlik chog‘laridan boshlab odob-axloqli qilib tarbiyalash bilan birga, ilm-u-fanning barcha qirralarini egallashga qiziqtirib borishlari lozim. Ta’lim muassasasida berilayotgan darslarni o‘quvchilar puxta o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratish har bir ota-ona va ustozlarning mas’uliyatli burchidir. Mustaqilligimizni asrab-avaylash, uning qadriga yetadigan, o‘z bilimi va mehnati bilan uni mustahkamlab, Uchinchi renessans poydevorini yaratadigan barkamol avlod tarbiyasi haqida qayg‘urar ekanmiz, diqqat markazimizda hamisha ana shunday sog‘lom dunyoqarashga ega yoshlarimiz kamol topadigan ma’naviy muhitni barpo etish muhim vazifa bo‘lib qolaveradi.Shaxsni o‘quvchilar jamoasida tarbiyalash va kamol toptirish – barkamol shaxs tarbiyasining asosiy qoidasidir. Bola shaxsi faqat jamoadagina, uning ta’siridagina haqiqiy shaxs sifatida shakllanadi. Hozirgi sharoitda jamiyatning har bir a’zosi biror bir pedagogik jamoaning faol a’zosi bo‘lishi zarur. [7]

Xulosa va takliflar. Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo‘ladi va muvaffaqiyati ta’minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog‘lom jamoada o‘quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘ladi va tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning tayanchiga aylanadi. O‘quvchilarining ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, tarbiyachilar, bolalar yetakchisi, psixolog, ota-onalar, shuningdek ta’lim muassasasi rahbariyati mahalla, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralari, maktabning jamoatchilik komissiyasi, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimining to‘xtovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo‘nalishda umumbashariy tamoyillarga murojaat qilishimiz, milliy va zamonaviy bilimlarga asoslangan fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish metodikasi o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samaradorligi tarbiya maqsadining aniq belgilanishi, zamonaviy pedagogik metodlardan oqilona foydalanish hamda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog‘liq.Tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish, sinf rahbarining mas’uliyati va ota-onalar bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv yondashuvlar va innovatsion usullarni qo‘llash tarbiyaviy jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.Xulosa qilib aytganda, to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiyaviy ishlar metodikasi orqali maktab o‘quvchilarini jamiyat talablariga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh. M. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi: anjumandagi nutq // *O‘zbekiston*. - Toshkent, 2017. - 15-iyun.
2. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
3. Amir Temur. *Temur tuzuklari*. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018.
4. Imom Buxoriy. *Hadislar to‘plami*. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2010.
5. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. *Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar*. - Toshkent: Nihol, 2013.
6. Quronov M. *Milliy tarbiya*. - Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
7. Alqarov I. Sh., Mamatqulova R., Norqulov H. D. *Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

Mardanov Uktamjon Rustamovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, katta o‘qituvchi

OYDIN HOJIYEVA SHE’RIYATIDA BOTANIKAGA OID TERMINLARINING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqimizning sevimli shoirasi Oydin Hojiyeva she’rlarida mahorat bilan qo‘llangan botanikaga oid terminlarning lingvopoetik tahlili keltiriladi. Tahlil jarayonida terminning ilmiy ma’nosi poetik matnda o‘zgarishi va emotsional ta’sir vositasiga aylanishi yoritiladi. Tahlilga tortilgan she’rlarda botanikaga oid terminlarning uslubiy xoslanish imkoniyatlari misollar asosida yoritib beriladi. Misralardagi terminlar faqat leksik ma’no anglatibgina qolmay, balki pragmatik vazifa bajarish uchun ham xizmat qilganligi dalillanadi.*

Kalit so‘zlar: *sohaviy terminlar, lingvopoetika, leksik ma’no, pragmatik vosita, badiiylik, antroposentrik paradigma, lisoniy tafakkur, til vositalari, mazmuniy birlik, kompozitsion markaz.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ПОЭЗИИ ОЙДИН ХОДЖИЕВОЙ

Аннотация. *В данной статье представлен лингвопоэтический анализ ботанических терминов, мастерски использованных в стихах любимой поэтессы нашего народа Ойдин Ходжиевой. В процессе анализа освещается, каким образом научное значение терминов трансформируется в поэтическом тексте и превращается в средство эмоционального воздействия. На основе рассмотренных стихотворений раскрываются стилистические возможности специализации ботанических терминов. Доказывается, что используемые в строках термины выполняют не только лексическую функцию, но и служат средством реализации прагматической задачи.*

Ключевые слова: *специализированные термины, лингвопоэтика, лексическое значение, прагматические средства, художественность, антропоцентрическая парадигма, языковое мышление, языковые средства, предметное единство, композиционный центр.*

STYLISTIC POTENTIAL OF THE SPECIALIZATION OF BOTANICAL TERMS IN THE POETRY OF OYDIN KHOJIYEVA

Abstract. *This article presents a linguopoetic analysis of botanical terms skillfully used in the poems of the beloved poetess of our people, Oydin Khojiyeva. The study highlights how the scientific meaning of these terms is transformed within poetic texts and becomes a means of emotional expression. Based on the analyzed poems, the stylistic potential of the specialization of botanical terms is revealed. It is demonstrated that the terms used in poetic lines serve not only a lexical function but also fulfill a pragmatic role.*

Key words: *specialized terms, linguopoetics, lexical meaning, pragmatic means, artistry, anthropocentric paradigm, linguistic thinking, language means, substantive unity, compositional center.*

Kirish. Oydin Hojiyeva she’riyatida qo‘llanilgan botanika terminlari (gul, binafsha, yalpiz, olma, bog‘, daraxt, isiriq va boshqalar) oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki chuqur lingvopoetik salmoqqa ega badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik yetakchi konsept sifatida ruhiy holatni, estetik munosabatni va milliy mentalitetni ifodalovchi poetik obrazga aylanadi.

Botanika [yun. botanikos – o‘simlikka taalluqli < o‘t, giyoh, o‘simlik] O‘simliklar haqidagi fan, nabotot. Botanika fani. Botanika darsligi. Botanika olimi. – Muzeyda geologiya, geografiya va botanika bo‘limlari mavjud. Gazetadan.

Botanikaga oid terminologiya o‘simliklarning tuzilishi, turlari va xususiyatlarini ifodalovchi terminlar hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: lingvopoetik tahlil, kontekstual tahlil, semantik tahlil, komparativ, statistik va komponent tahlil metodlari.

Natijalar. Ilmiy va badiiy uslublar o‘rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, badiiy matnda turli terminlarning qo‘llanishi va bunda ularning badiiy-estetik qimmat kasb etishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shunga ko‘ra tilshunoslar “ilmiy til unsurlarining, terminlarning poetik so‘z san’atiga olib kirilishi mutlaqo tabiiyligiga, badiiy nutq o‘z mohiyatiga muvofiq polistilistiklikligiga, unda benihoya xilma-xil lisoniy vositalar sinezlana olishi mumkin”ligiga e’tiborni qaratadilar.

Z.Sh.Ashurova Lingvopoetika soha haqida shunday yozadi: “Bu soha badiiy matnni til sathlari negizida tadqiq qilishni masalaning bir qirrasini qamrab olishi tabiiy. Negaki, tilning benihoya keng imkoniyatlarini ishga solib, undagi leksik birliklar bo‘ladimi, grammatik birliklar bo‘ladimi barchasini qamrab olish nazarda tutiladi. Lingvopoetik tahlil usuli shundan iboratki, badiiy matndagi ijodkorning individual uslubiga xos qirralarini kashf etish bilan birgalikda so‘z va gap ma’nolarining o‘zaro yaxlitligi, birikuvini tadqiq qilishni nazarda tutadi”.

Mehringiz zarrasi agar yolg‘ondir,
Ko’zimda tug‘yondir, rangim somondir. (35)

Lingvopoetik jihatdan esa somon biologik termini ruhiy so‘nish ramziga aylanadi. Natijada termin estetik-emotsional obraz darajasiga ko‘tarilgan.

Surxoningda anor guli kahrabodur,
Yoboningda bodomlaring talx g‘izodur,
Ipak eding, arqoningni bo’z bildilo,
Gavhar eding, narxing qaro tuz bo’ldilo, (Dardlashuv)

Oydin Hojiyevaning “Dardlashuv” she’rida qo‘llangan botanikaga oid anor guli anor daraxtining yorqin qizil rangli, chiroyli va hayotbaxsh guli bo‘lib, biologik jihatdan serhosillik ma’nosini anglatadi. Poetik kontekstda anor gulining qizil, tovlanib turuvchi rangi kahrabo (qimmatbaho, jozibali) ga qiyoslanadi. “Bodom” terminining botanik (lug‘aviy) ma’nosi mevali daraxt bo‘lib, uning mevasi ko‘pincha achchiq (talx) yoki shirin bo‘ladi. Mazkur botanik terminlar lingvopoetik jihatdan obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Issiqdan egilib kungaboqarlar
Boshini qo‘yniga yashirmoq istar.
Makkajo‘xorining sochida zarlar
Ukpar taqqan kabi barkamol qizlar. (Qaynoq pallalar. 50)

Kungaboqar – quyosh tomonga yuzlanib o‘sadigan, yorug‘likka intiluvchi o‘simlik. She’rda umid va orzuga yuzlangan inson, nur va haqiqatni izlayotgan qalb, og‘ir davrlarda ham yorug‘likdan yuz o‘girmaydigan, sinovli zamonlarda ham bardoshli irodani ifodalovchi ramziy obrazga aylanadi.

Makkajo‘xori – serhosil, poyasi baland, doni zich joylashgan madaniy o‘simlik. U mehnat talab qiladigan, baraka va to‘kinlik Manbai hisoblanadi. Oddiy tabiat manzarasi – makkajo‘xorining sochi orqali ukpar taqqan kabi barkamol qizlarning holatini ifodalaydi.

UKPAR 1 Ukki pati (odatda bolalar kiyimlari, asosan, bosh kiyimini bezatish uchun chatib qo‘yiladi). Aksar xotinlarning oldi-orqasi to‘la katta-kichik, yasangan-tusangan, ukpar taqqan bolalar. Oybek, Tanlangan asarlar.

Saratonning dami kesilar,
Tiniq tortar daryo irmog‘i
Tolzorlarda sahar uzilar
“Shakarangur”, “Kelin barmog‘i”.
Anjirlarning xushbo‘y bargida
Dildiraydi durdona shabnam.
Tog‘liklarda, vodiy girdida
Aylanadi salqin shamol ham. (Avgust kunlari, 40)

Shakarangur – xalq orasida mashhur bo‘lgan, shirador, mayin ta’mli uzum navi.

Kelin barmog‘i – uzunchoq, nafis shaklli, ko‘pincha oqlangan ko‘rinishga ega uzum turi.

Poetik kontekstdagi ma’nosi “Tolzorlarda sahar uzilar” iborasi bilan birga kelib, bu uzum navlari avgustning to‘kin va saxiy pallasini, tabiatning mehnatga javob bo‘lgan ne’matini, xalq hayo-

tidagi mo‘l-ko‘lchilik va barakani ifodalovchi milliy-badiiy obrazga aylanadi. Ayniqsa “Kelin barmog‘i” nomining o‘zi nafislik, go‘zallik, noziklik kabi insoniy fazilatlarni ham eslatadi. Uzum navlarining xalqona nomlari she’rga tabiiylik bag‘ishlash kabi lingvopoetik vazifa bajaradi.

Keyingi misralardagi anjir botanik termini yirik bargli, xushbo‘y, mevasi shirin va to‘yimli bo‘lgan subtropik o‘simligining lingvopoetik xususiyati serquyosh muhit, yetuklik, to‘kislik belgilarini ifodalaydi.

“Avgust kunlari” she’rida botanik terminlar oddiy nomlash vositasi emas, balki milliylik, mavsumiylik va estetik zavqni ifodalovchi lingvopoetik birliklardir. Shakarangur, Kelin barmog‘i, anjir yozning yetuk pallasi, tabiat va inson uyg‘unligi, hayotning to‘kin va osoyishta lahzalarini chuqur badiiy ifoda bilan ochib beradi.

Sim arqon bog‘ladilar,
Tortdilar buldozerda.
So‘ngra butoqladilar
Olmani payhon yerda. (Olmazorda, 47)

“Olma” – botanik termin sifatida mevali daraxt nomi. Lekin she’rda u tabiat timsoli, ona zamin ramzi, barakot va hayot manbai, beg‘uborlik va poklik ifodasi sifatida ko‘chma ma’no kasb etadi. “Buldozer” – zo‘ravon kuch, vayronkorlik timsoli. Shu kontrast orqali shoir ekologik fojeani, insonning tabiatga tajovuzini ifodalaydi.

Tovshing turnalarning “qur-qur”lashidan
Qirga boychechaklar ekib o‘tadi.
Billur buloqlarning shildirashiday
Maysalarga shudring taqib ketadi.

BOYCHECHAK 1 Piyozguldoshlar (piyozgullilar oilasi) ga mansub, ilk bahorda ochiladigan ko‘p yillik o‘simlik.

MAYSA Yangi ungan o‘t-o‘lan.

A.I.Qosimov va M.M.Nabiyevlar tomonidan yaratilgan “Botanikadan qisqacha izohli lug‘at”ida asosan o‘simlik nomlari keltirilgan. Misol uchun, boychechakni oladigan bo‘lsak, ushbu lug‘atda u quyidagicha tavsiflangan: 1. Botanik jihatdan: boychechak – loladoshlar oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik o‘simlik. Bo‘yi past bo‘lib 10-15 sm dan oshmaydi, piyozchasi bor, serbarg, guli sariq, och sariq rangda, erta bahorda ochiladi, yozda ustki qismi qurib qoladi. Mevasi uch chanoqli ko‘sakchadan iborat, dunyoning deyarli hamma yerida 75 dan ortiq turi o‘sadi, ba’zi turlarida zaharli alkaloid bo‘lganligi sababli tibbiyotda ishlatiladi. 2. Lingvistik jihatdan: boychechak – o‘zbekcha boy va chechak so‘zining birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z, uning bunday atalishiga yer yuzasidan qor ketishi bilan nish urib chiqishi va ko‘p o‘tmay gullashi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak, chunki bu bilan yer qishdan chiqib ekin ekishga tayyorligidan darak beradi, binobarin, u to‘kin-sochinlik, tinchlik simvolidir. Ba’zi adabiyotlarda u sovrinjon deb beriladi. Ruscha nomi – bezvremennik (безвременник), lotincha – colchicum [kɒltʃikəm].

Yuqorida keltirilgan boychechak o‘simligining botanik tavsifida uning qaysi oilaga kirishi, qancha turi mavjudligi, bo‘yi va gullash vaqti, o‘sish hududlari, dorivorlik xususiyati va tibbiyotda qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar ketma-ketlikda ifodalangan.

Lingvistik jihatdan ta’rifida esa so‘zning yasalishi, ramziy belgisi, ruschadagi tarjimasi va lotincha nomlanishi berilgan. Ushbu lug‘atda bunday ma’lumotlarning berilishi, albatta uning izohli va botanikaning faqat o‘simlik sistematikasidagi nomlar haqidagi lug‘at ekanligining yaqqol belgisidir.

Shamollarning nog‘orasiga
O‘ynamagan lolaqizg‘aldoq.
Dala-dashtda tosh orasiga
Sochilmagan boychechak–bodroq.

Berilgan parchada Oydin Hojiyeva poetikasiga xos ravishda binafsha, lolaqizg‘aldoq, boychechak (matnda boychechak–bodroq shaklida) kabi botanik terminlar lingvopoetik jihatdan kuchli obrazlilik kasb etgan.

Ozodlik!
Ko‘ngil qirlarida ungan boychechak,
Seni suyunchilab boladay shoshdim.

Ming yillik toshqinlar solib guldurak,
Ayqirib ming bitta o‘zandan toshdim. (Ozodlik)

Boychechak – bahorning ilk elchisi bo‘lgan nozik gul. Bu o‘rinda boychechak umid, sabot, hayotning g‘alabasi mustaqillik ramzi sifatida tasvirlangan. Hayotning qiyinchiliklar orasida ham unib-o‘sishni ifodalagan. She’rning nomidan ham anglashiladiki, istoqlol xalqimizning azaliy orzusi edi. Ozodlik tuyg‘usi qanchadan qancha insonlarning ko‘glida armonga aylangan edi. Buni ijodkor boychechak timsolida go‘zal tarzda tasvirlab beradi.

Bog‘larni jannatning islari bosib,
Hayot ne’matidan bahramand inson.
Larzon olmalarga isiriq osib,
Shoxlariga tirgak qo‘yadi dehqon. (Dehqon)

BOG‘ 1 [f. – mevazor, chamanzor, bo‘ston] 1. Mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni; mevazor. Olmazor.

ISIRIQ Isiriqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik [Tarkibida alkaloidlar bo‘lib, xalq tabobatida shifobaxsh vosita sifatida turli yo‘llar bilan (jumladan, tutatib) foydalanib kelinadi]. Isiriqni ming dardga davo, deb bekorga aytishmaydi. Gazetadan. Isiriq grippga qarshi yaxshi narsa. Kim uni eskilik desa, xato qiladi. Mirmuhsin. Umid. Iririq solmoq (yoki tutatmoq) 1) turli mikrob (kasallik)larga qarshi, dezinfeksiya maqsadida isiriqning qurug‘ini tutatmoq. Xonalarni tez-tez shamollatib tutish, kuniga ikki marta isiriq tutatish ham maqsadga muvofiqdir. Gazetadan. 2) etn. Ins-jinsni qochirish, “yomon ko‘zdan saqlash” va sh.k. maqsadda isiriq tutatib, kishi boshi (atrofi) dan xona ichida aylantirmoq.

LARZON [f. – titrovchi, qaltirovchi; hayajonli] Og‘irligidan osilib, loppillab, tebranib tebranib turgan holatli. Qalin qorning vazminligidan olma, o‘rik, jiyda shoxlari larzon. A.Muhiddin va H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz.

Berilgan misralarda qishloq hayoti, mehnat va baraka obrazlari tabiiy detallar, botanikaga oid terminlar orqali badiiylashtirilgan. “Bog‘larni jannatning islari bosib” misrasida bog‘ jannat bilan qiyoslanadi.

Isiriq xalqona urf-odat va e’tiqodni ifodalaydi. She’rda himoya ramzi, barakani asrash, milliy kolorit yaratish vositasidir Ushbu botanik termilari matnda shunchaki tabiat tasviri emas. Shoir dehqon mehnatini tabiat obrazlari orqali ulug‘laydi. Tabiat va inson o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanadi. Botanik terminlar esa realistik asosni poetik ramzlar bilan boyitadi.

Binafshaning mayin patlarin
O‘pgim kelar mushtoq ko‘z bilan.
Yalpizlarning yashil xatlarin
O‘qisam ishq bergan so‘z bilan. (Bahor ilinjida)

BINAFSHA, gunafsha [f. – bir nav, xushbo‘y giyoh] 1 bot. binafshadoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik va uning bahorda ochiladigan to‘q safsarrang xushbo‘y guli. She’rda binafsha noziklik va latofatni kuchaytiradi.

YALPIZ Tibbiyot, attorlik va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan, serbarg xushbo‘y ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Yalpizlarning yashil xatlari – kuchli metafora. U nozik muhabbat, yashirin sog‘inch, iffat va poklik, ramzi sifatida talqin qilinadi. She’rda biologik terminlar tabiat tasviri yaratish vositasi, muhabbatning estetik ifodasi, bahor va qalb uyg‘onishining belgisi sifatida xizmat qiladi. Shoira tabiatni shunchaki kuzatmaydi, balki uni sevadi, his qiladi va o‘qiydi. Natijada biologik birliklar poetik timsollarga aylanadi.

Shohsupa girdiga rayhon sepayin,
Kelar yo’lingizga suvlar sepayin,
Ko’klam yomg‘riday so’zlari mayin,
Sadarayxon Sizni eslatur.

SADA bot. emanlar oilasiga mansub sershox, sersoya daraxt.

SADARAYHON shox-shabba qismi shar shaklida to‘p bo‘lib o‘sadigan rayhon.

Rayhon – xushbo‘y, dorivor o‘simlik. Sharq madaniyatida muqaddaslik, poklik va latofat timsoli. She’rda “rayhon”hurmat va izzat ramzi, mehmon kutish odobi, qalb pokligi, ayol latofati

ma’nolarini anglatadi. “Shohsupa girdiga rayhon sepayin” – bu oddiy o‘simlik sepish emas, balki mehmonni e’zozlash, qalbdan hurmat ko‘rsatish kabi konnotativ ma’nolarni anglatadi.

“Sadarayhon” esa kuchli sog‘inch hissi uyg‘otadi, hid orqali xotirani jonlantiradi, ruhiy yaqinlikni ifodalaydi.

O‘riklar shoxida yondi ming chiroq,
Pushti kapalaklar qo‘ndi bodomga.
Oftob bir qizdirsa, ko‘zlari qora
Lolaqizg‘aldoqqiz chiqvolar tomga. (“Navro‘z”)

O‘rik – mevali daraxt va uning shirali mevasi. Bahor faslining ilk gullovchi daraxtlaridan biri kabi denotativ ma’nolarni anglatadi. Oydin Hojiyeva she’rlarida o‘rik ko‘pincha bahoriy uyg‘onish, poklik va beg‘uborlik, yoshlik latofati, ona yurt manzarasi ramzi sifatida qo‘llanadi. O‘rik guli timsolida noziklik va qisqa umr tasviri chiziladi. Lirik qahramon ruhiy holati bilan tabiat uyg‘unlashtiriladi. Bu o‘rinda o‘rik obrazi tashqi tabiat unsuri bo‘lishdan tashqari, ichki kechinmalarni ifodalovchi poetik obrazga aylanadi.

Bodom esa bahorda erta gullaydigan, pushti yoki oq rangli gullarga ega daraxt denotativ ma’nosini anglatadi. Ahoiraning “Navro‘z” she’rida bodom erta uyg‘onish, umid va intiqlik, sevgi va nafislik, nozik sog‘inch kabi konnotativ ma’nolarini anglatadi. Bodom gullari ko‘pincha lirik qahramonning nozik ruhiy kechinmalariga qiyoslanadi. Bodom obrazida vaqtning o‘tkinchiligi va tuyg‘ularning nozikligi mujassam. Lolaqizg‘aldoq – bahorda ochiladigan qizil rangli yovvoyi gul. Oydin Hojiyeva she’riyatida lolaqizg‘aldoq olovli tuyg‘ular, ishq va ehtiros, Vatan timsoli, umr go‘zalligi ramzi sifatida talqin qilinadi. Lolaqizg‘aldoq ko‘pincha metaforik tasvirda qo‘llanib, lirik qahramon qalbidagi alangali hissiyotlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Oydin Hojiyeva she’riyatida botanik terminlar oddiy nominativ vosita emas, balki lirik semantik markaz vazifasini bajaradi. Shoira tabiat obrazlari orqali inson qalbidagi eng nozik va teran kechinmalarni ifodalaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Shoiraning botanika terminlaridan foydalanishi tasodifiy emas, balki konseptual xarakterga ega. O‘simlik nomlari lirik matnda tabiat tasvirini yaratish bilan birga, inson ruhiyati, ayniqsa, ayol qalbining nozik kechinmalarini ifodalovchi semantik maydonni shakllantiradi. Masalan, nozik gullar nazokat va poklikni, mevali daraxtlar esa baraka va hayot davomiyligini, dorivor o‘simliklar esa himoya va poklanish ramzini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 328 b.
2. Mahmudov N. Ilmiy matnda termin tanosibi va takomili // O‘zbek tili va adabiyoti. - 2006. - № 2. - B. 8.
3. Ashurova Z. Sh., Ivanova K. I. Mustaqillik davri turkman bolalar adabiyoti lingvopoetikasi // Economy and Innovation. - 2023. - Vol. 34. - P. 499–503. - URL: https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/1314/1222 (murojaat sanasi: 26.04.2026).
4. Qosimov A. I., Nabiyev M. M. Botanikadan qisqacha izohli lug‘at: o‘quvchilar uchun qo‘llanma. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - 18 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna
Navoiy viloyati PMM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail:ravshanovaorzigul35@gmail.com

PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Ushbu ishda pedagogik mahoratni rivojlantirishning asosiy yo‘llari va usullari tahlil qilinadi. Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim uslublarini to‘g‘ri tanlash va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati sifatida tushuniladi. Annotatsiyada o‘qituvchilar malakasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, metodik seminarlar va tajriba almashish orqali pedagogik mahoratni mukammallashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘z: *pedagogik mahorat, o‘qituvchi malakasi, professional rivojlanish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, metodik seminarlar, refleksiv faoliyat.*

СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Аннотация. *В данной работе анализируются основные пути и методы развития педагогических навыков. Под педагогическими навыками понимается способность учителя эффективно организовывать учебный процесс, правильно подбирать методы обучения и учитывать индивидуальные особенности учащихся. В аннотации рассматриваются пути совершенствования педагогических навыков посредством повышения квалификации учителей, внедрения инновационных педагогических технологий, методических семинаров и обмена опытом.*

Ключевые слова: *педагогические навыки, навыки учителя, профессиональное развитие, инновационные образовательные технологии, методические семинары, рефлексивная деятельность.*

WAYS TO DEVELOP PEDAGOGICAL SKILLS

Abstract. *This work analyzes the main ways and methods of developing pedagogical skills. Pedagogical skills are understood as the ability of a teacher to effectively organize the educational process, correctly select teaching methods and take into account the individual characteristics of students. The abstract considers ways to improve pedagogical skills through teacher training, the introduction of innovative pedagogical technologies, methodological seminars and exchange of experience.*

Key words: *pedagogical skills, teacher skills, professional development, innovative educational technologies, methodological seminars, reflexive activity.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida ta’lim tizimi oldiga katta vazifalar qo‘yilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va mustaqil fikrlash qobiliyatiga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bevosita ta’sir qiladi. Pedagogik mahorat - bu o‘qituvchining kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari va shaxsiy sifatlarining uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik mahorat va uni rivojlantirish masalasi ko‘plab ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotida markaziy o‘rin tutadi. Adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatadi:

Pedagogika klassiklari (K.D. Ushinskiy, J. Dewey, A.S. Makarenko) o‘qituvchining kasbiy bilimlari va tarbiyaviy ta’sirini ta’lim jarayonining asosiy omili sifatida ta’kidlaydi. Ushbu manbalarda pedagogik mahorat o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni shakllantirish vositasi sifatida ko‘riladi.

Psixologik yondashuvlar (L.S. Vygotskiy, J. Piaget, J. Bruner) pedagogik mahoratning psixologik asoslarini yoritadi. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, motivatsiyasi va individual ehtiyojlarini hisobga olish o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha adabiyotlar (Siemens, Prensky, Jonassen) innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol yondashuvlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Bu manbalarda o‘qituvchining ijodkorligi va yangilikka intilishi pedagogik mahoratning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qayd etiladi.

Mahalliy va xalqaro tajribalar (O‘zbekiston Respublikasi ta’lim islohotlari bo‘yicha hujjatlar, UNESCO va OECD hisobotlari) pedagogik mahoratni rivojlantirishda uzluksiz ta’lim, malaka oshirish kurslari, tajriba almashish va refleksiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, psixologik yondashuv va innovatsion texnologiyalar uyg‘unligida shakllanadi. O‘qituvchining doimiy o‘z ustida ishlashi, refleksiya va tajriba almashishi pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng samarali yo‘llari sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik mahoratni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada pedagogik mahoratning mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda uni rivojlantirishning asosiy yo‘llari tahlil qilinadi.

Pedagogik mahorat - bu o‘qituvchining o‘z kasbini mukammal darajada egallashi, dars jarayonini samarali tashkil eta olishi, o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatishi va ularni rivojlantira olish qobiliyatidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Kasbiy bilimlar (fan va pedagogika asoslari)

Pedagogik qobiliyatlar (tushuntirish, motivatsiya berish, boshqarish)

Muloqot madaniyati

Pedagogik texnika (nutq, mimika, jestlar)

Innovatsion yondashuvlarni qo‘llay olish

Pedagogik mahorat o‘qituvchining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ham kengaytiradi. Yuqori pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi o‘quvchilarda bilimga qiziqish uyg‘ota oladi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng muhim va asosiy yo‘llaridan biri bu o‘qituvchining doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi va bilimini oshirib borishidir. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotganligi sababli, o‘qituvchi ham bu jarayondan ortda qolmasligi lozim. U nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlarni ham o‘zlashtirib borishi zarur.

Doimiy o‘z ustida ishlash avvalo ilmiy va metodik adabiyotlarni o‘rganishdan boshlanadi. O‘qituvchi pedagogika, psixologiya va o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chop etilayotgan yangi kitoblar, maqolalar va tadqiqotlar bilan tanishib borishi kerak. Bu esa uning nazariy bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, amaliy faoliyatida ham yangi g‘oyalarni qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, turli seminarlar, treninglar, konferensiyalar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish ham pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bunday tadbirlarda o‘qituvchi nafaqat yangi bilimlarga ega bo‘ladi, balki boshqa pedagoglarning tajribasi bilan ham tanishadi. Tajriba almashish esa o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o‘qituvchiga mustaqil ravishda bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn kurslar, vebinarlar, ta’lim platformalari orqali o‘qituvchi istalgan vaqtda o‘z bilimini oshirishi mumkin. Bu esa uzluksiz ta’limni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Doimiy o‘z ustida ishlaydigan o‘qituvchi yangiliklarga ochiq bo‘ladi, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashadi va kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi. Natijada uning pedagogik mahorati muntazam ravishda oshib boradi. Bunday pedagog dars jarayonini samarali tashkil etadi, o‘quvchilarda bilimga qiziqish uyg‘ota oladi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda an’anaviy dars o‘tish usullari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, masofaviy ta’lim tizimlari va innovatsion yondashuvlar tushuniladi. Masalan, “aqliy hujum”, “klaster”, “insert”, “debat”, “rol o‘ynash” kabi interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini oshiradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida bilim olishadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Kompyuter, projektor, interaktiv doska, taqdimotlar, videodarslar va onlayn platformalar yordamida darslarni yanada qiziqarli va tushunarli tashkil etish mumkin. Ayniqsa, vizual materiallar o‘quvchilarning mavzuni tezroq anglashiga yordam beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari ham hozirgi davrda keng qo‘llanilmoqda. Onlayn darslar, vebinarlar va elektron ta’lim platformalari orqali o‘quvchilar istalgan joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchidan ijodkorlik, yangilikka intilish va doimiy o‘rganishni talab qiladi. Har bir pedagog o‘z darslariga mos texnologiyalarni tanlay olishi va ularni samarali qo‘llashi zarur. Shundagina ta’lim jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tariladi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda muhim yo‘nalishlardan biri bu pedagogik refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilishdir. Refleksiya - bu o‘qituvchining o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashishi, o‘tkazilgan darslarni chuqur tahlil qilishi va o‘z ustida ishlashga intilish jarayonidir. Bu jarayon pedagogga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda faoliyatini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Har bir o‘qituvchi dars o‘tgandan so‘ng uning samaradorligini baholab borishi zarur. Dars jarayonida qo‘llangan metodlar, o‘quvchilarning faolligi, mavzuning o‘zlashtirilish darajasi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Agar darsda kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish yo‘llari izlanadi va keyingi darslarda takomillashtiriladi. Shu tariqa refleksiya pedagogik faoliyatni uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi nafaqat o‘z ishini baholaydi, balki o‘quvchilarning fikr-mulohazalariga ham e’tibor qaratadi. O‘quvchilarning dars haqidagi fikrlari, qiyinchiliklari va takliflari o‘qituvchi uchun muhim manba hisoblanadi. Bu orqali pedagog o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq anglaydi va dars jarayonini shunga mos ravishda tashkil etadi. Shuningdek, refleksiya yozma yoki og‘zaki shaklda olib borilishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi darsdan so‘ng qisqa xulosa yozishi, o‘z faoliyatini baholovchi kundalik yuritishi yoki hamkasblari bilan muhokama qilishi mumkin. Bu usullar o‘z ustida ishlashni tizimli ravishda tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik refleksiya o‘qituvchida tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘z faoliyatiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Natijada u o‘z kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib boradi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bu muloqot madaniyatini oshirishdir. Ta’lim jarayonining asosiy komponenti - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotdir. Sinfda samarali, ochiq va hurmatga asoslangan muloqot shakllantirish pedagogning kasbiy mahoratini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Muloqot madaniyati bir necha jihatlarni o‘z ichiga oladi: nutq madaniyati, tinglash va tushunish ko‘nikmalari, o‘quvchilarning fikrini hurmat qilish, ularni rag‘batlantirish va motivatsiya qilish. O‘qituvchi dars jarayonida o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash, murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, u o‘quvchilarni tinglab, ularning fikrlarini qadrlashi va darsni o‘quvchilarning qiziqishlariga moslashtirishi zarur.

Muloqotning samarali bo‘lishi o‘quvchilar bilan ishonchli munosabat o‘rnatishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, savol berishga va faol ishtirok etishga undaladi. Bu esa dars jarayonini interfaol qiladi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek,

o‘qituvchi muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali sinfdagi konfliktlarni oldini olish va ijobiy psixologik muhit yaratish imkoniga ega bo‘ladi. Samarali muloqot o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan ham rivojlantiradi, ularni bir-biri bilan hurmatli va konstruktiv munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri bu tajriba almashish va hamkasblar bilan hamkorlik qilishdir. Har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatini takomillashtirish, yangi metod va yondashuvlarni o‘zlashtirish uchun boshqa pedagoglarning tajribasidan foydalanishi lozim. Bu jarayon nafaqat bilim va ko‘nikmalarni oshirishga, balki o‘z pedagogik uslubini boyitishga ham yordam beradi.

Tajriba almashishning turli shakllari mavjud. Misol uchun, tajribali o‘qituvchilarning darslarini kuzatish, metodik birlashmalar va seminar-treninglarda ishtirok etish orqali yangi g‘oyalar o‘zlashtiriladi. Shu bilan birga, hamkasblar bilan muntazam muloqot va fikr almashish o‘qituvchining kasbiy fikrlashini rivojlantiradi va kreativ yondashuvlarni shakllantiradi.

Hamkorlikda ishlash pedagogga nafaqat yangi metodlarni sinash imkonini beradi, balki pedagogik muammolarni birgalikda hal qilishga ham yordam beradi. Masalan, murakkab mavzularni o‘qitish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars rejasini tuzish, yangi interfaol metodlarni joriy etish kabi masalalarda hamkorlik katta samaradorlikni beradi. Shuningdek, tajriba almashish o‘qituvchining motivatsiyasini oshiradi. U o‘z faoliyatining samaradorligini boshqalar bilan solishtiradi, yangi yondashuvlarni o‘zlashtiradi va doimiy rivojlanishga intiladi. Bu jarayon pedagogik mahoratni uzluksiz oshirishning samarali vositasidir.

Pedagogik mahoratni oshirishning muhim yo‘llaridan biri bu psixologik bilimlarni rivojlantirishdir. O‘qituvchi nafaqat fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi, balki o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, ularning yoshiga, qobiliyatiga va individual ehtiyojlariga mos yondashuvni bilishi zarur. Psixologik bilimlar o‘qituvchiga sinfdagi har bir o‘quvchiga individual yondashish, ularning qiziqish va motivatsiyasini aniqlash va dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

O‘qituvchi psixologik bilimlar yordamida o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini aniqlay oladi va darsni shunga moslashtiradi. Masalan, vizual, audial yoki kinestetik o‘rganish uslubiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘qituvchi turli usullarni qo‘llashi mumkin. Shu bilan birga, psixologik bilimlar o‘quvchilarda stress, charchoq yoki qo‘rqinchni kamaytirish, ularni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Psixologik bilimlar pedagogga sinfdagi konfliktlarni hal etishda ham yordam beradi. Turli qarama-qarshi fikrlar yoki nizoli vaziyatlar paytida o‘qituvchi vaziyatni to‘g‘ri baholab, ijobiy muloqot va konstruktiv yechim topa oladi. Bu esa sinfdagi ijobiy psixologik muhitni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, psixologik bilimlarni rivojlantirish o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham yordam beradi. O‘qituvchi ularni o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga, bir-biri bilan hurmatli munosabatda bo‘lishga va jamoaviy ishlashga o‘rgatadi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi va kasbiy motivatsiyasidir. Zamonaviy ta’lim tizimida muvaffaqiyatga erishish nafaqat bilim va ko‘nikmalarga, balki o‘qituvchining ichki motivatsiyasiga ham bog‘liq. Ichki motivatsiya pedagogga doimiy izlanish, yangi yondashuvlarni o‘rganish va o‘z ustida ishlash imkonini beradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘z kasbiy maqsadlarini aniqlab, ularni amalga oshirishga intilishi zarur. Masalan, yangi pedagogik metodlarni o‘rganish, darslarni interfaol usullar bilan o‘tkazish, ilmiy maqolalar yozish yoki malaka oshirish kurslarida ishtirok etish. Shu tarzda pedagog o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab boradi.

Motivatsiya ham pedagogik mahoratning rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ichki motivatsiya pedagogni ijodiy faoliyatga, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga va darslarni samarali tashkil etishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, pedagog o‘z muvaffaqiyatlarini qadrlab, o‘zini rag‘batlantira olishi, maqsad va natijalarga erishish orqali kasbiy ishonchni mustahkamlashi muhimdir.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va motivatsiya pedagogni doimiy izlanish va yangiliklarga ochiq bo‘lishga undaydi. Bu esa nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini ham samarali qiladi.Начало формы

Pedagogik mahorat - bu o‘qituvchining kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari va pedagogik yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan tizim bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini

belgilovchi asosiy omildir. Yuqorida keltirilgan yo‘llar pedagogik mahoratni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega:

Shu bilan birga, pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, amaliy ko‘nikmalarni doimiy ravishda oshirish va yangilashni talab qiladi. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator va innovator sifatida o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qodir bo‘ladi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratish zamonaviy ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida tayyorlashning asosiy garovidir.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari - kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, pedagogik texnika va innovatsion yondashuvlar - o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, doimiy o‘z ustida ishlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, refleksiya va tajriba almashish o‘qituvchining mahoratini muntazam oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, psixologik bilimlarni rivojlantirish va kasbiy motivatsiyani mustahkamlash pedagogik faoliyatning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Pedagogik mahorat o‘qituvchining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni shakllantirish qobiliyatini ham belgilaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni bilim olish jarayoniga faol jalb etadi. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish pedagogga o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, kamchiliklarni bartaraf etish va dars sifatini oshirish imkonini beradi. Tajriba almashish va hamkorlik esa pedagogik yondashuvlarni boyitadi, yangi metodlarni sinash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Umuman olganda, pedagogik mahoratning rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, u o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki motivator, tarbiyachi va innovator sifatida shakllantiradi. Shu bois, pedagogik mahoratni rivojlantirish zamonaviy ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tayyorlashning muhim garovi hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari va muhokamalar asosida shuni aytish mumkinki, pedagogik mahorat zamonaviy ta’lim tizimining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. U o‘qituvchining kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari, muloqot madaniyati, innovatsion yondashuvlari va shaxsiy sifatlarining uyg‘unlashuvi orqali shakllanadi. Doimiy o‘z ustida ishlash, refleksiya, tajriba almashish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va psixologik bilimlarni rivojlantirish pedagogik mahoratni muntazam oshirishga xizmat qiladi.

Yuqori pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator va innovator sifatida o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va ijtimoiy faollikka tayyorlashning asosiy garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Akhmedov Sh. Pedagogik mahorat va uning rivojlanish yo‘llari. - Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2015. - 248 b.
2. Karimov T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining mahorati. - Toshkent: Fan va ta’lim, 2018. - 312 b.
3. Nazarov B. O‘qituvchilik kasbining nazariy va amaliy jihatlari. - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016. - 196 b.
4. Zokirov R. Pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirishning samarali usullari. - Toshkent: Ilm, 2019. - 224 b.
5. Sattarov A. Pedagogik mahoratni oshirish metodlari. - Toshkent: Ta’lim, 2020. - 180 b.
6. Kozhakhmetov N. Innovatsion pedagogika va o‘qituvchi professionalizmi. - Toshkent: Ma’rifat, 2017. - 268 b.

Suvanova Mavjuda Xamrakulovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, PhD)

NAVOIY VILOYATI TAQVIMIY ETNOGRAFIZMLARINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq shevalarida uchraydigan taqvimiy etnografizmlar, ularning hududiy tarqalishi va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalqning qadimiy vaqt hisoblash tizimi, tabiat hodisalariga asoslangan nomlash an’analari hamda ular bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar lingvomadaniy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Shuningdek, Navro‘z bayrami va unga oid marosimlar misolida taqvimiy birliklarning funksional xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *taqvimiy etnografizm, sheva, Navro‘z, sumalak, lingvomadaniyat, areal, xalq taqvimi.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КАЛЕНДАРНЫХ ЭТНОГРАФИЗМОВ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируются календарные этнографизмы, встречающиеся в узбекских народных говорах, их территориальное распространение и семантические особенности. Исследуются древняя система исчисления времени у народа, традиции наименования, основанные на природных явлениях, а также связанные с ними обряды и обычаи с лингвокультурологической точки зрения. Кроме того, на примере праздника Навруз и связанных с ним обрядов раскрываются функциональные особенности календарных единиц.*

Ключевые слова: *календарный этнографизм, говор, Навруз, сумалак, лингвокультура, ареал, народный календарь.*

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF CALENDAR ETHNOGRAPHISMS OF THE NAVOI REGION

Abstract. *This article analyzes calendrical ethnographisms found in Uzbek dialects, their territorial distribution, and semantic features. The study examines the traditional system of time reckoning, naming practices based on natural phenomena, as well as related customs and rituals from a linguocultural perspective. In addition, the functional characteristics of calendrical units are revealed through the example of the Navruz festival and its associated rituals.*

Key words: *calendrical ethnographism, dialect, Navruz, sumalak, linguoculture, areal, folk calendar.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida xalq shevalarini o‘rganish jarayonida etnografik leksikaning alohida qatlamini tashkil etuvchi taqvimiy birliklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu birliklar xalqning tabiat bilan bevosita bog‘liq hayot tarzini, mavsumiy o‘zgarishlarga moslashuvini va qadimiy dunyoqarashini aks ettiradi.

Taqvimiy etnografizmlar bu yil fasllari, ob-havo o‘zgarishlari, dehqonchilik va chorvachilik ishlari bilan bog‘liq holda shakllangan va xalq ongida mustahkamlangan leksik birliklardir. Ular nafaqat til hodisasi, balki madaniy va ijtimoiy tajribaning mahsuli sifatida ham qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida etnografik leksikaning hududiy o‘ziga xosligi lingvistik jihatdan keng tadqiq qilingan. Jumladan, A.Jo‘raboyevning “O‘zbek tilidagi to‘y marosimlari bilan bog‘liq atamalar (Andijon shevalari materiallari asosida)”, N.Mirzayevning “O‘zbek tilining etnografik leksikasi (Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalari materiallari asosida)”, Z.Husainovaning “O‘zbek tilida to‘y marosimlari atamalarining onomasiologik tadqiqi (Buxoro shevalari materiallari asosida)”, Y.Bobojonovning “Janubiy Xorazm etnografik leksikasi”, X.Berdiyevning “O‘zbek tilining o‘tovsozlik leksikasi”, B.Rahmonovning “Surxondaryo chorvachilik

leksikasida etnografizmlar", R.N.Amonturdiyevning "Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari", Samarqand viloyati tojik lahjalarida qo'llaniluvchi to'y va motam marosimlariga oid etnografik leksika bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan A.Xonxo'jayevaning "Tojik tilining to'y va motam marosimlariga oid etnografik leksikasi (Samarqand lahjasi asosida)", N.Kurbanazarovaning "Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi", X.Fayziyevaning "O'zbek tili Boysun-Sho'rchi o'zbek shevalarining lug'at xususiyatlari" kabi tadqiqotlarda o'zbek xalqining tarixi, milliy-ma'naviy qadriyatlari, urf-odat va marosimlarini ifodalovchi etnografik leksikasi tadqiq qilingan [1,3,4,5,6,7,8,9].

Navoiy viloyati taqvimiy etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili tilshunoslikning bir necha yo'nalishlari kesishgan nuqtada joylashgani sababli, unga oid adabiyotlar tahlili ham kompleks va ko'p qirrali ilmiy manbalarni qamrab oladi. Avvalo, ushbu mavzuning nazariy asoslari lingvokulturologiya, etnolingvistika, dialektologiya hamda frazeologiya doirasida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarga borib taqaladi. Bu yo'nalishlarda olib borilgan izlanishlar til birliklarining faqat struktur-semantik xususiyatlarini emas, balki ularning ortida yotgan madaniy, tarixiy va ijtimoiy mazmunni ham ochib berishga xizmat qiladi.

Lingvokulturologiya doirasidagi tadqiqotlar orasida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yorituvchi fundamental ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda yaratilgan ilmiy qarashlarga ko'ra, til xalqning madaniy xotirasini saqlovchi va uzatuvchi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Shundan kelib chiqib, taqvimiy etnografizmlar ham xalqning vaqtni idrok etish, tabiat hodisalarini kuzatish va ularni nomlash jarayonidagi tajribasini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar sifatida baholanadi. Bu borada o'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy ishlar, xususan, milliy-madaniy leksika, etnografizmlar va lingvokulturologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Etnolingvistika yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar esa til va etnos o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq ochib beradi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarda xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari va e'tiqodlari til birliklarida qanday aks etishi keng tahlil qilingan. Ayniqsa, taqvimiy etnografizmlar bilan bog'liq tadqiqotlarda xalqning an'anaviy vaqt hisoblash tizimi, yil fasllarini ajratish mezonlari va tabiat bilan bog'liq qarashlari muhim o'rin tutadi. O'zbek xalqining qadimiy taqvim tizimi, xalqona oy nomlari, mavsumiy marosimlar bilan bog'liq atamalar haqidagi ilmiy izlanishlar mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy va empirik manba vazifasini bajaradi.

Dialektologik adabiyotlar ham ushbu mavzuni yoritishda alohida ahamiyatga ega. Chunki taqvimiy etnografizmlar ko'pincha hududiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularning shakli va mazmuni turli dialekt va shevalarda farqlanadi. O'zbek tilining dialektologik tadqiqotlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar, xususan, hududiy leksika va etnografik terminologiyani o'rganishga qaratilgan izlanishlar Navoiy viloyatiga xos birliklarni aniqlash va ularni boshqa hududlar bilan qiyoslash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilining dialektologik atlaslari, hududiy lug'atlar va sheva materiallariga asoslangan tadqiqotlar muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, frazeologiya va leksikologiya sohasidagi tadqiqotlar ham mazkur mavzuga bevosita aloqador hisoblanadi. Taqvimiy etnografizmlar ko'pincha barqaror birikmalar, iboralar yoki metaforik ifodalar shaklida namoyon bo'lgani sababli, ularning struktur-semantik xususiyatlarini o'rganishda frazeologik tahlil metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o'zbek va jahon tilshunosligida yaratilgan frazeologik tadqiqotlar, xususan, iboralarning ma'no ko'chishi, obrazlilik darajasi va ekspressivlik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlilida tarixiy-etimologik tadqiqotlar ham alohida o'rin tutadi. Ayrim taqvimiy etnografizmlarning kelib chiqishi qadimgi turkiy davrga borib taqalishi, ularning shakllanishida turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ishtirok etgani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Bu borada qadimgi yozma manbalar, tarixiy lug'atlar va etnografik tadqiqotlar muhim manba sifatida qaraladi. Ayniqsa, xalqning an'anaviy bilimlari va qarashlarini aks ettiruvchi manbalar orqali etnografizmlarning dastlabki shakllari va ularning rivojlanish bosqichlarini aniqlash mumkin.

So'nggi yillarda lingvokulturologik va etnolingvistik tadqiqotlarda yangi yondashuvlar – diskursiv tahlil, kognitiv lingvistika va madaniy semantika metodlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali til birliklarining inson tafakkuri, konseptual tizimi va madaniy kodlar bilan

bog‘liqligi chuqurroq o‘rganilmoqda. Taqvimiy etnografizmlar ham aynan shu nuqtai nazardan tahlil qilinib, ular orqali vaqt konsepti, tabiat tasavvuri va ijtimoiy tajriba qanday konseptuallashgani aniqlanadi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida etnografizmlar, ayniqsa, taqvimiy etnografizmlar bo‘yicha alohida, kompleks tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ko‘plab ilmiy ishlar umumiy etnolingvistik yoki dialektologik masalalarni qamrab olgan bo‘lib, muayyan hudud, xususan, Navoiy viloyati misolida chuqur lingvomadaniy tahlil kam uchraydi. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, taqvimiy etnografizmlar tilshunoslikning turli yo‘nalishlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab va ko‘p qatlamli hodisa hisoblanadi. Mavjud ilmiy manbalar ushbu birliklarning nazariy asoslarini yaratgan bo‘lsa-da, ularni muayyan hudud kesimida, lingvomadaniy yondashuv asosida kompleks o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlar bilan uzviy bog‘liqlikda yangi ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida lingvokulturologiya, etnolingvistika, dialektologiya hamda semasiologiya yo‘nalishlari integratsiyasi tanlanadi. Ushbu yondashuv orqali taqvimiy etnografizmlarning nafaqat til tizimidagi o‘rni, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, marosimlari va madaniy qarashlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanadi.

Tadqiqotda dastlab empirik material to‘plash muhim bosqich sifatida qaraladi. Shu maqsadda Navoiy viloyati hududida yashovchi turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillari nutqidan dala tadqiqotlari asosida materiallar yig‘iladi. Intervyu, suhbat va kuzatish metodlari yordamida xalq og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan taqvimiy etnografizmlar qayd etiladi. Shuningdek, folklor namunalari, marosim matnlari, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ham foydalaniladi. Bu bosqichda autentiklikni saqlash va til birliklarining real qo‘llanishini aniqlash asosiy tamoyil sifatida belgilanadi.

Yig‘ilgan materiallar keyingi bosqichda tasniflash va tizimlashtirish metodlari asosida guruhlarga ajratiladi. Taqvimiy etnografizmlar yil fasllari, oy nomlari, xalqona vaqt hisoblash birliklari, bayram va marosimlarga oid nomlar kabi semantik maydonlarga ajratilib, ularning ichki tuzilishi va o‘zaro aloqadorligi aniqlanadi. Shu jarayonda komponent tahlil (komponent-semantik tahlil) metodi qo‘llanilib, har bir birlikning ma’no tarkibi, asosiy va qo‘shimcha semalari ochib beriladi.

Lingvokulturologik tahlil metodologiyaning markaziy qismi hisoblanadi. Bu usul orqali har bir etnografizm ortida turgan madaniy kodlar, ramziy ma’nolar va xalqning dunyoqarashi o‘rganiladi. Taqvimiy birliklarning tabiat hodisalari, dehqonchilik an’analari, diniy e’tiqodlar va ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Shu bilan birga, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning mentalitet va qadriyatlar tizimidagi o‘rni izohlanadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod ham muhim o‘rin tutadi. Navoiy viloyatiga xos etnografizmlar boshqa hududlar bilan solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu orqali hududiy xususiyatlar va dialektal tafovutlar yuzaga chiqariladi. Zarur hollarda tarixiy-etimologik tahlil metodi qo‘llanib, ayrim birliklarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari o‘rganiladi.

Disursiv va pragmatik tahlil metodlari yordamida etnografizmlarning nutq jarayonidagi qo‘llanishi, kommunikativ vazifasi va kontekstual ma’nolari tahlil qilinadi. Bu orqali ularning faqat lug‘aviy emas, balki funksional xususiyatlari ham ochib beriladi. Shu bilan birga, statistik metodlardan foydalanib, to‘plangan birliklarning qo‘llanish chastotasi va faol-passiv qatlamga mansubligi aniqlanadi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash maqsadida triangulyatsiya usuli qo‘llanadi, ya’ni turli manbalar (dala materiallari, yozma manbalar, folklor namunalar) o‘zaro solishtiriladi. Natijalar izchillik, mantiqiylik va ilmiy asoslanganlik mezonlari asosida umumlashtiriladi. Shu tariqa, metodologiya nafaqat til birliklarini tavsiflash, balki ularning ortidagi lingvomadaniy mazmunni chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasi va muhokama. Tadqiqot natijasida Navoiy viloyati shevalarida kuzatiladigan taqvimiy etnografizmlarni quyidagi guruhlarga ajratdik:

Mavsumiy-etnografik birliklar. Bu guruhga yil fasllari va ularning ichki davrlarini ifodalovchi birliklar kiradi:

chilla – qishning eng sovuq davri;

ayamajuz – bahorga o‘tishdagi o‘zgaruvchan davr;

to‘qson – qishning umumiy sovuq muddati.

Hududlar kesimida bu birliklar turlicha nomlanadi. Masalan, ayrim joylarda “ayamajuz” o‘rniga “kampir kunlari” ishlatiladi.

Tabiiy belgilar asosidagi birliklar. Bu guruhga tabiat hodisalari orqali vaqtni belgilovchi ifodalar kiradi:

“bodom gulladi” – bahorning boshlanishi;

“turna qaytdi” – iliqlik kirib kelishi;

“shamol o‘zgardi” – fasl almashinuvi belgisi.

Marosimiy taqvim birliklari. Navro‘z bilan bog‘liq etnografizmlar alohida qatlamni tashkil etadi:

qozonto‘ldi – yangi yil arafasidagi oilaviy marosim;

sumalak sayli – jamoaviy marosim;

ekish sayli, qo‘sh chiqarish – dehqonchilik boshlanishi bilan bog‘liq udumlar.

Abu Muslim junbushidan keyin turonliklar Navro‘zni qayta o‘z shodiyonalariga aylantirdilar. Shayxlarning e’tiroziga Muhammad alayhissalom “Arpa uni tansiq taomdir, tanangizda quvvat kamaygan chog‘da uni ko‘proq tanavvul qilinglar”, – degan hadisi bilan javob beradi. Boisi, arpa uni yoki ko‘katlardan tayyorlangan taomlar allomalar va so‘fiylarning eng xush ko‘rgan taomidir” [2].

Hududiy variantlilik. Navro‘z atamasining turli shakllari aniqlandi: Navro‘z, Noruz, Novruz, Nauriz va boshqalar. Bu holat uning keng arealda tarqalganini ko‘rsatadi.

Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobida qimmatli ma’lumotlar berib, unda kichik bayram farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganini ta’kidlagan. Demak, farvordin oyining oltinchi kuni “Katta Navro‘z”ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog‘laydi va bu haqda shunday yozadi: “...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘zi olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan” [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, taqvimiy etnografizmlar xalqning ko‘p asrlik tajribasi asosida shakllangan va ular bevosita tabiiy muhit bilan bog‘liq. Ushbu birliklar nafaqat vaqtni belgilash vositasi, balki ijtimoiy xotira va madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi.

Navro‘z bilan bog‘liq etnografizmlar esa o‘zbek xalqining kollektiv ongini, birlik va hamjihatlik tamoyillarini aks ettiradi. Ayniqsa, sumalak tayyorlash jarayoni, undagi qo‘shiqlar va o‘yinlar ayollar jamoasining ijtimoiy-madaniy rolini yoritadi.

Hududiy variantlarning mavjudligi esa o‘zbek tilining boy dialektal tizimga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu birliklar globalizatsiya sharoitida asta-sekin passivlashib borayotganini ham kuzatish mumkin. Shu bois ularni yig‘ish, tasniflash va ilmiy muomalaga kiritish dolzarb masala hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu birliklar til tizimida oddiy nominativ vositalar sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yil fasllari, oy nomlari, ob-havo hodisalari va dehqonchilik jarayonlariga oid etnografizmlar tarkibida tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, ekologik kuzatuvchanlik hamda amaliy tajribaga asoslangan bilimlar mujassamlashgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalardan biri shundaki, Navoiy viloyatiga xos taqvimiy etnografizmlar semantik jihatdan ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, ularning ma’nosi ko‘pincha bevosita lug‘aviy mazmundan tashqari ramziy va konnotativ qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, ayrim birliklar muayyan vaqtni ifodalash bilan birga, shu davrga xos ijtimoiy faoliyat, marosim yoki e’tiqodiy qarashlarni ham bildiradi. Bu holat etnografizmlarning polisemantik va polifunksional xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tahlil natijalari ayrim birliklarning semantik tarkibida qadimiy mifologik tasavvurlar, diniy e’tiqodlar hamda xalqona kosmologik qarashlar izlari saqlanib qolganini ko‘rsatdi.

Lingvokulturologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, taqvimiy etnografizmlar milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Xususan, vaqtni idrok etish, fasllarni nomlash va ularni baholash jarayonida xalqning qadriyatlar tizimi, mehnat madaniyati va turmush tarzi o‘z ifodasini topgan. Masalan, bahor fasliga oid etnografizmlar ko‘pincha yangilanish, baraka va umid timsoli sifatida talqin qilinsa, kuz va qish bilan bog‘liq birliklarda esa ehtiyotkorlik, tejamlilik va sinov motivlari ustunlik qiladi. Bu esa til birliklari orqali xalqning dunyoni baholash mezonlari va aksiologik qarashlarini aniqlash imkonini beradi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida hududiy o‘ziga xoslik masalasi yuzaga chiqdi. Navoiy viloyatiga xos etnografizmlar boshqa hududlarga nisbatan ayrim fonetik, leksik va semantik tafovutlarga ega bo‘lib, bu holat hududning tabiiy-geografik sharoiti, iqlimi va tarixiy rivojlanish yo‘li bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayrim birliklarning faqat ma’lum hududda faol qo‘llanishi ularning dialektal xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, globalizatsiya va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining ta’siri natijasida ayrim etnografizmlarning iste’moldan chiqib borayotgani yoki ularning o‘rnini standart adabiy birliklar egallayotgani ham kuzatildi. Bu jarayon tilning dinamik tabiatini va madaniy o‘zgarishlar bilan uzviy aloqadorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuningdek, taqvimiy etnografizmlarning nutqdagi funksional xususiyatlarini ham ochib berdi. Ular nafaqat vaqtni belgilash vositasi, balki kommunikativ-pragmatik jihatdan muhim bo‘lgan ekspressivlik, obrazlilik va milliy koloritni ta’minlovchi birliklar sifatida faol qo‘llaniladi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda va folklor matnlarida bu birliklar orqali nutqning ta’sirchanligi oshiriladi, tinglovchida muayyan assotsiativ tasavvurlar hosil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, etnografizmlar tilning estetik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ham baholandi.

Muhokama davomida etnografizmlarning tarixiy-etimologik jihatlari ham tahlil qilinib, ayrim birliklarning kelib chiqishi qadimgi turkiy davrga borib taqalishi, ba’zilarining esa keyingi davrlarda shakllanganligi aniqlandi. Bu esa til qatlamlarining tarixiy davomiyligi va madaniy merosning uzluksizligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim etnografizmlar boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalar natijasida shakllangan bo‘lib, bu holat lingvokulturologik o‘zaro ta’sir jarayonlarini aks ettiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari taqvimiy etnografizmlarning til tizimidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ular nafaqat leksik birliklar, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasini saqlovchi va uzatuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklarning lingvomadaniy tahlili orqali milliy o‘ziga xoslik, madaniy identitet va tarixiy xotira masalalarini yoritish imkoniyati kengayadi. Natijalar kelgusida etnolingvistika, lingvokulturologiya va dialektologiya sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Navoiy viloyati shevalaridagi taqvimiy etnografizmlar xalqning tarixiy tafakkuri, turmush tarzi va tabiat bilan uyg‘un hayot kechirganining yorqin ifodasidir. Ular tilning muhim qatlamini tashkil etib, lingvomadaniy tadqiqotlar uchun boy material beradi. Mazkur birliklarning areal xususiyatlarini o‘rganish nafaqat dialektologiya, balki etnolingvistika va lingvokulturologiya uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili.

1. Amonturdiyev N. R. Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Guliston, 2020.

2. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. - Toshkent, 1968. - B. 106–107.

3. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. - Toshkent, 1997. - 187 b.

4. Fayziyeva X. Ch. O‘zbek tili Boysun–Sho‘rchi shevalarining lug‘at xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Termiz, 2022. - 201 b.

5. Husainova Z. O‘zbek tilida to‘y marosimlari atamalarining onomasiologik tadqiqi (Buxoro shevalari materiallari asosida): filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1984.

6. Juraboyev A. O‘zbek tilidagi to‘y marosimlari bilan bog‘liq atamalar (Andijon shevalari materiallari asosida): filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1971.

7. Kurbanazarova N. Sh. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Termiz, 2021. - B. 15.

8. Mirzayev N. Etnografik dialektizmlarni o‘rganishga doir (Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari materiallari asosida) // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1971. - № 2. - B. 68–71.

9. Omonturdiyev A. J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. - Toshkent, 2009.

10. Rahmonov B. Surxondaryo chorvachilik leksikasida etnografizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. - 2018. - № 4. - B. 108–112.

11. Xonxo‘jayeva A. Tojik tilining to‘y va motam marosimlariga oid etnografik leksikasi (Samarqand lahjasi asosida): filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Samarqand, 2020. - B. 57.

Tuxtayev Quvonch Hamraqulovich,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi
E-mail:quvonchtuxtayev157@gmail.com

“DIFFERENSIAL TENGLAMALARDAN” MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oddiy “Differensial tenglamalardan” ma’ruza mashg‘ulotlarni axborot texnologiyalari vositalari va Case-Study texnologiyasidan foydalanish usuli, ularning samaradorlik darajasini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlarini tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Differensial tenglama, axborot texnologiya vositalari, Case-Study texnologiyasi, teorema, ta'rif, matematik amaliy paket..*

USOVYERSHYENSTVOVANIYE LYEKSIONNIX ZANYATIY PO TYEMYE “DIFFYERYENSIALNIYE URAVNYENIYA”

Аннотация. *в статье представлен анализ экспериментальных работ по использованию средств информационных технологий и технологии кейс-стади в лекциях по теме обыкновенный“Дифференциальные уравнения” для определения уровня их эффективности.*

Ключевые слова: *дифференциальные уравнения, инструменты информационных технологий, технология кейс-стади, теорема, определение, пакет математических приложений.*

ENHANCING THE ORGANIZATION OF LECTURES ON THE "DIFFERENTIAL EQUATIONS" MODULE

Abstract. *this article presents an analysis of experimental work on the use of information technology tools and Case--Study technology, to determine their level of effectiveness of lectures on "Ordinary Differential Equations” Module.*

Key words: *differential equations, information technology tools, Case-Study technology, theorem, definition, mathematical application package.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida matematika ta’limining sifat va samaradorligini oshirish uchun o‘qitishning yangicha yondashuvlarini tadbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1, 2]. Shu bois, tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalarida “Differensial tenglamalarni” o‘qitish jarayoniga tizimli yondashuv amalga oshirildi. Ma’lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni professor-o‘qituvchi va talabalarning hamkorligi mazkur jarayondan ko‘zda tutilgan didaktik maqsadlarga erishishi uchun bosh omil sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Differensial tenglamalarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning differensial tenglamalarga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmi, differensial tenglamalarni amaliy tadbiqini talabalarga o‘rgatish nazariyasi va amaliyoti, differensial tenglamalarni o‘qitishda matematik amaliy paketlardan foydalanish metodikasiga oid mamlakatimiz va mustaqil davlatlar hamdo‘stligida, jumladan D.Maxmudova, E.O.Sharipov, P.M.Aslanov, Yu.N.Bibikov, A.S.Bezruchko, I.S.Novikova, N.V.Sicheva, L.P.Kuzmina, T.V.Kapustina, R.M.Aslanova, X.A. Gerbekova, B.A.Naymanova, A.V.Sinchukova kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarni tadqiqotlarida “Differensial tenglamalarni” o‘qitish samaradorligini oshirishning ayrim yondashuvlari ilgari surilgan bo‘lsa-da, ammo oliy ta’lim muassasalarida “Differensial tenglamalarni” o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalari va interfaol ta’lim texnologiyalaridan, xususan Case-Study texnologiyasidan foydalanishga oid izlanishlar olib borilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot bugungi kunda ta’limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasalarida matematika turkumiga kiruvchi fanlardan ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli ma’ruza mashg‘uloti hisoblanadi. Jumladan

professor-o‘qituvchilar mazkur o‘qitish shaklini innovasion pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi.


Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida oddiy “Differensial tenglamalardan” “O‘zgaruvchilari ajraladigan va unga keltiriladigan differensial tenglamalar” mavzusidan ma’ruza mashg‘ulotlarining o‘qitish samaradorligini oshirish uchun elektron ta’lim resurslarini, kompyuterning matematik amaliy paketlarini va Case-Study texnologiyasini integrasiyalash asosida dars o‘tish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Ma’ruzani boshlashdan avval.

Professor-o‘qituvchi talabalardan $y' = f(x)g(y)$ ko‘rinishda ifodalanadigan 3 tadan misol yozishlarini so‘raydi.

Talabalar topshiriqni yakunlagach professor-o‘qituvchi doska yoki taqdimotli dasturlardan foydalangan holda quyidagi differensial tenglamalarni talabalarga taqdim etadi:

1. $y' = cos(x - y - 2)$
2. $(xy + y^4)dx + (x^2 - xy^3)dy = 0$



(2-расм)

Ushbu differensial tenglamalarni $y' = f(x)g(y)$ ko‘rinishga keltirishni so‘raydi. Talabalar ushbu misollarga oid ta’rifni bilmasligi tufayli birontasini bir o‘zgaruvchili funksiyalar ko‘paytmasiga keltirish bo‘yicha qiyinchiliklarga duch kelishi tufayli, ular o‘rtasida muammoli vaziyat hosil bo‘ladi.

Bundan so‘ng professor-o‘qituvchi o‘zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar ta’rifini keltiradi.

Ta'rif:


$y' = f(x, y) = f(x)g(y)$ (1)

ko‘rinishdagi tenglama o‘zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama deyiladi. Bu erdagi $f(x)$ va $g(y)$ funksiyalar mos ravishda $a < x < b$ va $c < y < d$ oraliqda aniqlangan uzluksiz. Bundan ko‘rinadiki (1) differensial tenglamaning o‘ng tomoni quyidagi:

$$D = (a, b) \times (c, d) = \{(x, y) \in R^2 : a < x < b\,, c < y < d\,\}$$

sohada aniqlangan va uzluksizdir. (1) Ko‘inishdagi tenglamaning yechimini topish uchun professor-o‘qituvchi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama integralini topishda quyidagi klasterni taqdim etadi.(1-rasm)

(1-rasm)



$g(\bar{y}) = \bar{y}(3\bar{y} - 5) = 0$ desak, u holda $\bar{y} = 0, \bar{y} = \frac{5}{3}$ yechimlarga egamiz. Ravshanki bu o‘zgarmas funksiyalar differensial tenglamaning yechimi bo‘la oladi. Umumiy yechimini topish uchun tenglamaning o‘zgaruvchilarini ajratib, uni integrallanadi: $\int \frac{dy}{y(3y-5)} = \int xdx + C$

$$-\frac{3}{5}\left(\frac{1}{3y} - \frac{1}{3y-5}\right)dy = \int xdx + C, \quad -\frac{3}{5}ln\left|\frac{3y}{3y-5}\right| = \frac{x^2}{2} + C,$$

$\left|\frac{3y}{3y-5}\right| = C_1 e^{-\frac{5}{6}x^2}, C_1 > 0$ oxirgi tenglikdan $C_1 = 0$ bo‘lganda $y = 0$ yechimga ega bo‘ladi. Tenglamaning umumiy yechimi esa quyidagicha:

$$y = \frac{-5Ce^{-\frac{5}{6}x^2}}{3 - 3Ce^{-\frac{5}{6}x^2}}, \quad C \in R$$

Bundan so‘ng, professor-o‘qituvchi o‘zgaruvchisi ajraladigan differensial tenglamaga keltiriladigan ba’zi bir differensial tenglamalar uchun case lar bankini taqdimot dasturlari yordamida taqdim etadi. (1-jadval) ga qarang.

Jadval- 1.

O‘zgaruvchisi ajraladigan differensial tenglamalarga keltiriladigan tenglamalar bo‘yicha case-lar banki

Case Lar-banki	Differensial tenglamalar	Almashtirishlar	O‘zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar
Case-1	$y' = f(ax + by + c)$ $a, b, c = const, y = y(x)$		
Case-2	$xy' = x^{-n} f(x^n y)$ $n = const, y = y(x)$		
Case-3	$y' = -\frac{n}{x} + f(x)g(x^n e^y)$ $n = const, y = y(x)$		
Case-4	$y' = e^{mx-ny} f(ae^{mx} + be^{ny})$ $a, b, m, n = const, y = y(x)$		
Case-5	$y' = y\left[\frac{\varphi'}{\varphi} - f(x)g\left(\frac{\varphi}{y}\right)\right]$ $\varphi = \varphi(x), y = y(x)$		
Case-6	$M(xy)dx + N(xy)(xdy + ydx) = 0$		
Case-7	$x^{2n}d(x^n e^{ay}) + e^{4ay}\left((d(x^n)e^{ay} - d(e^{ay})x^n\right) = 0$		

Talabalarda ma'ruza boshida berilgan savolga javobni shu case larni echish orqali topish mumkinligini tushunadi va professor-o‘qituvchiga case dagi tenglamalarni qanday qilib o‘zgaruvchisi ajraladigan differensial tenglamaga keltirish mumkin kabi savollar bilan murojaat qiladi.

Professor o‘qituvchi yuzaga kelgan vaziyat bo‘yicha ketma-ket javob beradi:

Case lar echimi (2- jadval) ga qarang.

Jadval-2

O‘zgaruvchisi ajraladigan differensial tenglamalarga keltirish bo‘yicha case-lar yechimi va izohli bosqichlar

Case Lar banki	Differensial tenglamalar	Almashtirishlar	O‘zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar
Case-1	$y' = f(ax + by + c)$ $a, b, c = const, y = y(x)$	$ax + by + c = z(x)$	$\frac{dz}{dx} = bf(z) + a$
Case-2	$xy' = x^{-n} f(x^n y)$ $n = const, y = y(x)$	$x^n y = u(x)$	$\frac{du}{dx} = \frac{n}{x}(u + f(u))$
Case-3	$y' = -\frac{n}{x} + f(x)g(x^n e^y)$ $n = const, y = y(x)$	$x^n e^y = \omega(x)$	$\frac{d\omega}{dx} = \omega g(\omega) f(x)$

Case-4	$y' = e^{mx-ny} f(ae^{mx} + be^{ny})$ $a, b, m, n = const, y = y(x)$	$ae^{mx} + be^{ny} = \sigma(x)$	$\frac{d\sigma}{dx} = e^{mx}[ma + bnf(\sigma)]$
Case-5	$y' = y\left[\frac{\varphi'}{\varphi} - f(x)g\left(\frac{\varphi}{y}\right)\right]$ $\varphi = \varphi(x), y = y(x)$	$\frac{\varphi}{y} = \vartheta(x)$	$\frac{dv}{dx} = f(x)vg(v)$
Case-6	$M(xy)dx + N(xy)(xdy + ydx) = 0,$	$xy = t$	$\frac{dt}{dx} = -\frac{M(t)}{N(t)} = K(t)$
Case-7	$x^{2n}d(x^n e^{ay}) + e^{4ay}\left((d(x^n)e^{ay} - d(e^{ay})x^n\right) = 0$	$x^n e^{ay} = u(x)$ $\frac{x^n}{e^{ay}} = v(x)$	$\frac{du}{dv} = -\frac{u^2}{v^4}$

Professor-o‘qituvchi yuqorida keltirilgan ta’riflar, misollar va case lar yordamida mavzuni tushuntirgandan so‘ng, talabalarga mini case topshirig‘ini beradi.

Mini case: ma’ruza boshida berilgan differensial tenglamar uchun

1. O‘zgaruvchilari ajraladigan ko‘rinishga keltiring.
2. Ularning yechimini toping.
3.Maple paketi yordamida topilgan yechimlarning to‘g‘riligini tekshiring.

Case ni yechish yakunlangandan so‘ng har bir guruh hisoboti tinglanadi. Talabalar taklif qilgan yechimlarni professor-o‘qituvchi baholaydi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasalarida “Differensial tenglamalarni” o‘qitish samaradorligini oshirish muammosini tadqiq etishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish orqali namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasalarida matematika mutaxassislarini va bo‘lajak matematika o‘qituvchilariga o‘qitiladigan kasbiy fanlar, xussan “Differensial tenglamalar” bo‘limiga oid ma'ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari vositalari hamda CASE-STUDY texnologiyasidan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan metodikani samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari 2019-2021 yillarda Buxoro davlat universitetining “Fizika-matematika” fakultetini “Matematika” ta’lim yo‘nalishini 106 nafar talabasi, Navoiy davlat pedagogika institutining “Fizika-matematika” fakultetini “Matematika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishini 120 nafar talabasi, Chirchiq davlat pedagogika institutining “Fizika-matematika” fakultetini “Matematika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishini 103 nafar talabasi jalb etildi. Shundan 150 nafar talaba tajriba guruhiga, 179 nafari esa nazorat guruhiga ajratildi. Bunda nazorat guruhiga ananaviy tartibda ma’ruza mashg‘ulotlari olib borilgan bo‘lsa, tajriba gruhiga esa ma'ruza mashg‘ulotlari axborot texnologiyalari vositalari va CASE-STUDU texnologiyasi asosida tashkil etildi. Tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning differensial tenglamalarga oid bilim darajasi og‘zaki va yozma savollar hamda testlardan foydalanib baholandi. Ularning olgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari tahlil etilib, umumlashtirildi. Tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Jadval-3

Tajriba va nazorat guruhlarida o‘quv natijalarining (baholar bo‘yicha) qiyosiy tahlili

Guruhlar	Talabalar soni	Tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarning olgan baholari			
		5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
Tajriba guruhi	150	28	90	29	3
Nazorat guruhi	179	23	93	53	10

Keltirilgan natijalarining ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Tahlil natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining ko‘rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 7,76 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning fikrlari hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, ma’ruza mao‘g‘ulotlarida differensial tenglamalarga oid ta’riflarni, teoremalarni va Bernulli tenglamalarning keltirib chiqarishni o‘rgatish, to‘la differensial tenglamalarga oid ta’riflarni tushuntirish, n - darajali birinchi tartibli differensial tenglamalarni masalalarga tadbiqi, Lagranj, Klero, Rikkati, Eyler tenglamalarining mohiyati, yuqori tartibli diferensiya tenglamalarning Koshi va fizik masalalariga tadbiqini o‘rgatishda axborot texnologiyalari vositalari va CASE-STUDU texnologiyasidan foydalashish samarali hisoblanadi. Buning natijasida talabalar misol va masalalarning yechishda, muammoli vaziyatlarga duch kelish orqali ijodiy yondashishga undash ularni motivasion, kognitiv rivojlantirish, tarbiyalash, boshqarish, illyustrativ, tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishga, fanlararo va umumiy ta’lim qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Кузнецова И. В. Развитие методической компетентности будущего учителя математики в процессе обучения математическим структурам в сетевых сообществах: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Архангельск, 2015. - 211 с.
2. Жук Л. В. Активизация мыслительной деятельности будущих учителей математики в области геометрии средствами компьютерного моделирования: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Елец, 2007. - 234 с.
3. Плясунова У. В. Использование компьютерных математических систем в обучении математике студентов специальности «Информатика» педагогических вузов: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Ярославль, 2004. - 24 с.
4. Безручко А. С. Методика обучения решению дифференциальных уравнений будущих учителей математики, основанная на использовании информационных технологий: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Москва, 2014. - 231 с.
5. Капустина Т. В. Теория и практика создания и использования в педагогическом вузе новых информационных технологий на основе компьютерной системы Mathematica (физико-математический факультет): диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. - Москва, 2001. - 254 с.
6. Mirzayev N. Etnografik dialektizmlarni o‘rganishga doir (Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari materiallari asosida) // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1971. - № 2. - B. 68–71.
7. Rahmonov B. Surxondaryo chorvachilik leksikasida etnografizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. - 2018. - № 4. - B. 108–112.
8. Morris Tenenbaum, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. - Germany: Birkhäuser, 2010.
9. Robinson J. C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. - Cambridge: Cambridge University Press, 2013.

Xamrayev Ilyos Radjabboyevich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i,
Buxoro xalqaro universiteti 2-kurs magistranti

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH VA SHAMOL ENERGIYASIDAN IQTISODIY SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida quyosh va shamol energiyasidan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Unda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy afzalliklari, investitsion jozibadorligi hamda energiya tejamkorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va milliy iqtisodiyotda yashil texnologiyalar ulushini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, investitsiya jozibadorligi, energiya tejamkor texnologiyalar, uglerod chiqindilarini kamaytirish.*

ORGANIZATION OF ECONOMICALLY EFFECTIVE USE OF SOLAR AND WIND ENERGY IN THE CONTEXT OF A GREEN ECONOMY

Abstract. *This article highlights the issues of organizing the economically efficient use of solar and wind energy in the context of a green economy. It analyzes the economic advantages, investment attractiveness, and role of renewable energy sources in increasing energy efficiency. The possibilities of reducing the negative impact on the environment and achieving sustainable economic growth through the development of solar and wind energy were also considered. The research results offer practical recommendations for the implementation of effective management mechanisms in this area and increasing the share of green technologies in the national economy.*

Key words: *green economy, renewable energy sources, solar energy, wind energy, energy efficiency, sustainable development, environmental safety, investment attractiveness*

ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЛНЕЧНОЙ И ВЕТРОЭНЕРГИИ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы организации экономически эффективного использования солнечной и ветровой энергии в условиях зеленой экономики. В ней проанализированы экономические преимущества, инвестиционная привлекательность и роль возобновляемых источников энергии в повышении энергоэффективности. Также были рассмотрены возможности снижения негативного воздействия на окружающую среду и достижения устойчивого экономического роста за счет развития солнечной и ветровой энергетики. Результаты исследования предлагают практические рекомендации по внедрению эффективных механизмов управления в этой области и увеличению доли зеленых технологий в национальной экономике.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, солнечная энергия, энергия ветра, энергоэффективность, устойчивое развитие, экологическая безопасность, инвестиционная привлекательность*

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning degradatsiyasi kabi muammolar insoniyat oldida dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy yoqilg'i-energetika resurslariga haddan tashqari tayanish ekologik muvozanatning buzilishi, issiqxona gazlari chiqindilarining ortishi va iqtisodiy barqarorlikka tahdid

soluvchi omillarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan yashil iqtisodiyot modeliga o‘tish bugungi davrning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu energiya manbalari ekologik tozaligi, cheksizligi hamda uzoq muddatda iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi. Quyosh va shamol energiyasi texnologiyalarining rivojlanishi energiya ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga, import qilinadigan yoqilg‘iga bo‘lgan qaramlikning qisqarishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Bunda nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki investitsiya muhiti, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, energiya bozorining institutsional asoslari ham muhim rol o‘ynaydi. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini joylashtirishda hududiy tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish, ishlab chiqarilgan energiyani tarmoqqa integratsiya qilish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash masalalari alohida e’tibor talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot sharoitida quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy ustunliklari, ularni joriy etish jarayonidagi muammolar va samarali foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi hamda ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha taklif va xulosalar bayon etiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida quyosh va shamol energiyasidan iqtisodiy samarali foydalanishni tashkil etishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar, xalqaro tajribalar va statistik ma’lumotlar tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish nazariyasi, innovatsion rivojlanish konsepsiyasi hamda ekologik iqtisodiyot modeli tashkil etdi.

Nazariy-tahliliy yondashuv. Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, BMT, Jahon banki, IRENA (International Renewable Energy Agency) va UNEP (United Nations Environment Programme) kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o‘rganildi. Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh va shamol energiyasi masalalariga doir ilmiy manbalar tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil metodi. Tadqiqot davomida Germaniya, Xitoy, Skandinaviya mamlakatlari hamda Janubiy Koreyaning yashil energetikani rivojlantirishdagi yondashuvlari o‘rganildi. Ushbu tajribalar O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslanib, milliy sharoitga mos modellar ishlab chiqish uchun asos sifatida qo‘llanildi.

Empirik ma’lumotlarni tahlil qilish. O‘zbekiston Respublikasining Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan ochiq ma’lumotlar bazalari o‘rganildi. 2020–2024-yillar oralig‘idagi yashil energetika loyihalarining natijalari, investitsiyalar hajmi va ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmlari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Политизация жанра: В период Великой французской революции (творчество М.-Ж. Шенье) трагедия окончательно превращается в политический манифест. Пьеса «Карл IX» стала символом борьбы с тиранией, где классицистическая форма послужила обрамлением для революционных идей.

К концу XVIII века классицистическая трагедия исчерпала свои возможности. Попытки соединить жесткий канон «единств» с бурным динамизмом новой жизни привели к тому, что форма стала мешать содержанию.

Переход к романтизму: Рационализм классицизма не мог отразить хаос и индивидуализм новой эпохи. На смену «типическим» героям пришли герои «исключительные», а на смену единству места и времени - безграничность романтической драмы.

Наследие: Тем не менее, французская трагедия создала уникальную школу анализа человеческих страстей и риторического мастерства, которая легла в основу всей последующей европейской драматургии.

Эволюция французской трагедии XVII–XVIII веков - это путь от эстетики порядка к эстетике прогресса. Жанр продемонстрировал удивительную пластичность: зародившись как гимн абсолютизму, он закончил свое существование как глашатай революции. Творчество Корнеля, Расина и Вольтера представляет собой три этапа развития европейского самосознания - от утверждения воли через глубины психологии к триумфу просвещенного разума.

Список использованной литературы.

1. Алексеева М. П. *История зарубежной литературы Средних веков и эпохи Возрождения: учебник и практикум для академического бакалавриата. Ч. 1: Средние века*. - Москва: Юрайт, 2017. - 318 с.
2. Апенко Е. М. *История зарубежной литературы XIX века: учебник для академического бакалавриата*. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Юрайт, 2017. - 418 с.
3. Безруков А. Н. *История зарубежной литературы (Античность, Средние века, Возрождение): учебное пособие*. - Бирск: БФ БашГУ, 2016. - 120 с.
4. Гиленсон Б. А. *История зарубежной литературы. Античность: учебник и практикум для вузов*. - Москва: Юрайт, 2025. - 190 с. - ISBN 978-5-534-00369-7.
5. Гиленсон Б. А. *История зарубежной литературы от античности до середины XIX века: учебник для бакалавров*. - Москва: Юрайт, 2014. - 904 с.
6. Акимова А. А. *Вольтер*. - Москва: Молодая гвардия, 1970.
7. Забабурова Н. В. *Французский психологический роман (эпоха Просвещения)*. - Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского университета, 1992.
8. Козлова Н. П. *Классицизм во французской литературе XVIII века*. - Москва: Высшая школа, 2002.
9. Пахсарьян Н. Т. *История зарубежной литературы XVII–XVIII веков*. - Москва: Юрайт, 2024. - ISBN 978-5-534-01344-3.
10. Разумовская М. В. *Становление нового романа во Франции и проблемы Просвещения*. - Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1986.

Усманова Рахима Мамаюсуповна
доцент, заведующая кафедрой методики преподавания языков центра педагогического мастерства Навоийской области.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ РКИ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕРАТИВНОГО ИИ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматривается актуальная проблема интеграции генеративного искусственного интеллекта (ИИ) в методику преподавания русского языка как иностранного (РКИ) в 2026 году. Автор анализирует возможности нейросетей для формирования функциональной грамотности учеников-инофонов и создания персонализированной языковой среды. Особое внимание уделяется практическим приемам использования чат-ботов как инструментов для имитации реальных коммуникативных ситуаций. В работе сделан вывод о необходимости трансформации роли преподавателя в условиях цифровизации лингводидактики.*

Ключевые слова: *РКИ, генеративный искусственный интеллект, функциональная грамотность, цифровая лингводидактика, нейропедагогика, индивидуальная образовательная траектория.*

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH: FUNKSIONAL SAVDOVCHILIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN GENERATIV AI dan FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada 2026-yilda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish (RKI) metodikasiga generativ sun’iy intellektni (SI) integratsiya qilishning dolzarb muammolari ko‘rib chiqiladi. Muallif inofon-o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish va shaxsiylashtirilgan til muhitini yaratishda neyrotu‘rlarning imkoniyatlari bilan tahlil qiladi. Chat-botlardan real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish vositasi sifatida foydalanishning amaliy usullariga alohida e’tibor qaratiladi. Ishda lingvodidaktikani raqamlashtirish sharoitida o‘qituvchi rolini transformatsiya qilish zarurligi haqida xulosa chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *RKI, generativ sun’iy intellekt, funksional savodxonlik, raqamli lingvodidaktika, neyropedagogika, individual ta’lim traektoriyasi.*

DIGITAL TRANSFORMATION IN RFL: LEVERAGING GENERATIVE AI FOR FUNCTIONAL LITERACY

Abstract. *The article examines the topical issue of integrating generative artificial intelligence (AI) into the methodology of teaching Russian as a Foreign Language (RFL) in 2026. The author analyzes the potential of neural networks for developing functional literacy in non-native students and creating a personalized language environment. Particular attention is paid to practical techniques for using chatbots as tools to simulate real-life communicative situations. The paper concludes with the necessity of transforming the teacher's role in the context of the digitalization of linguodidactics.*

Key words: *RFL (Russian as a Foreign Language), generative artificial intelligence, functional literacy, digital linguodidactics, neuropedagogy, personalized learning path, innovative teaching methods.*

Современная методика преподавания РКИ находится на этапе глобальной цифровой трансформации. Если еще несколько лет назад использование ИТ-технологий ограничивалось мультимедийными презентациями, то сегодня на первый план выходит нейропедагогика [7]. Ключевой вызов для преподавателя - научить ученика не просто правилам грамматики, а функциональной грамотности: способности решать жизненные, социальные и профессиональные задачи средствами русского языка в условиях избытка цифровой информации.

Эта трансформация полностью созвучна со стратегическим курсом руководства нашей страны. Как отмечает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Для того чтобы занять достойное место в ряду развитых государств, мы должны обладать глубокими знаниями и современными технологиями. Без этого невозможно достичь прогресса» [1].

В 2026 году преподавание РКИ базируется на стыке когнитивистики и ИИ. Мы рассматриваем адаптивное обучение, где алгоритмы подстраиваются под когнитивные особенности ученика (память, скорость восприятия, превалирующий канал получения информации).

Генеративный ИИ реализует концепцию «зоны ближайшего развития» Л.С. Выготского: он дает ровно ту дозу сложности, которую ученик может преодолеть с небольшой поддержкой (scaffolding).

В контексте филологического образования это означает переход к инновационным моделям обучения, где технологии искусственного интеллекта становятся инструментом интеллектуального роста. Традиционные учебные пособия часто не успевают за динамикой живого языка [4]. В то же время генеративные модели позволяют мгновенно создавать учебные тексты и диалоги, адаптированные под конкретный уровень владения языком (от A1 до C1) и специфические интересы обучающихся - от филологии до IT-технологий. Это практическое воплощение идеи главы нашего государства о том, что: «Школа - это вопрос жизни и смерти, вопрос нашего будущего. Поэтому мы должны мобилизовать все силы и возможности для развития сферы образования» [2].

Интеграция ИИ в преподавание РКИ сегодня является одним из наиболее эффективных путей модернизации системы подготовки специалистов, способных свободно коммуницировать в глобальном цифровом пространстве. Использование ИИ-инструментов помогает преодолеть «языковой барьер» и сделать процесс обучения максимально приближенным к естественной коммуникации, сохраняя при этом высокие стандарты академического образования.

Интеграция ИИ в преподавание РКИ сегодня является одним из наиболее эффективных путей модернизации системы подготовки специалистов, способных свободно коммуницировать в глобальном цифровом пространстве.

Работа с генеративными моделями (такими как ChatGPT, Claude или специализированные лингвотренажеры) позволяет преподавателю отойти от статичных упражнений учебника к динамическому контенту [3].

Таблица 1.

Типология заданий на базе ИИ

Тип компетенции	Описание задания	Роль ИИ
Лексико-грамматическая	«Стилистический фильтр»: Пересказ официального объявления на молодежный сленг.	Генератор синонимических рядов.
Коммуникативная	«Собеседник с характером»: Диалог со «строгим администратором» или «таксистом». «Конфликт в аэропорту»: ИИ играет роль сотрудника авиакомпании, который сообщает об отмене рейса. Ученик должен вежливо, но настойчиво добиться перебронирования билета или получения ваучера на питание, используя официально-деловой стиль.	Имитатор реальной речевой среды.
Критическое мышление	«Охота на галлюцинации»: Поиск фактических ошибок в тексте ИИ об истории или культуре.	Объект анализа и верификации.
Читательская грамотность в цифровой среде	«Анализ эмоционального фона». Ученик просит ИИ написать 10	Работа с «нелинейными» текстами. ИИ

	комментариев к посту о запуске новой железной дороги в Узбекистане (5 позитивных, 5 негативных). Задача - выявить маркеры иронии, сарказма или одобрения.	генерирует имитацию ленты социальных сетей, комментариев на YouTube или новостных агрегаторов.

Пример упражнения:

Кейс: «Интервью с классиком» (Уровень B1-B2)

Задача: Развитие навыков ведения диалога и использования вопросительных конструкций.

Инструкция для ученика: «Представь, что ты журналист. Твой собеседник - Александр Пушкин (или Алишер Навои). Напиши 5 вопросов о его творчестве, используя сослагательное наклонение (Что бы вы изменили в...?). Проанализируй ответы ИИ на предмет соответствия исторической эпохе».

Методический эффект заключается в том, что ученик не просто читает биографию, а активно использует язык для получения информации в интересной ему форме, что коррелирует с принципами деятельностного подхода [6].

В 2026 году обучение РКИ невозможно представить без визуального и аудиального подкрепления, которое ИИ генерирует за считанные секунды. Это решает проблему дефицита актуальных наглядных пособий [9].

Использование инструментов (например, Midjourney или DALL-E) для создания «карточек-стимулов».

Задание: Преподаватель генерирует изображение «Фантастический город будущего в Узбекистане» или «Робот на приеме у врача».

Цель: Ученик должен описать детали, используя предложный падеж и прилагательные. В отличие от стандартных картинок из учебников 90-х годов, такие изображения вызывают живой интерес и эмоциональный отклик у зумеров.

Современные нейросети позволяют за секунды делать транскрипцию живой речи, извлекая фразы, необходимые для понимания реальной коммуникации, что подчеркивает важность использования аутентичных материалов в цифровой среде [7].

Методический прием: Извлечение «живых» разговорных фраз («типа», «короче», «в общем»), которые редко встречаются в академических пособиях, но необходимы для понимания реальной речи.

«Золотые промпты» для преподавателя РКИ

Промпт №1 (Адаптация текста): «Действуй как методист РКИ. Перепиши эту статью о запуске нового спутника так, чтобы её понял ученик с уровнем А2. Используй только базовую лексику, короткие предложения и выдели 5 новых слов для изучения в конце».

Промпт №2 (Ролевая игра): «Ты - вежливый, но очень занятый курьер службы доставки в Ташкенте. Я - иностранец, который плохо говорит по-русски и перепутал адрес. Начни диалог по телефону. Исправляй мои ошибки в скобках после каждой своей реплики».

Промпт №3 (Грамматический конструктор): «Составь упражнение из 10 предложений на тему «Глаголы движения с приставками». Тематика предложений - туризм по городам Шелкового пути. Оставь пропуски для заполнения учеником».

Промпт №4 (Социокультурная адаптация): «Сгенерируй сценарий вежливого отказа на приглашение в гости, учитывая узбекский культурный контекст (менталитет), но на русском языке. Используй этикетные формулы «рад бы, но...», «в другой раз обязательно». Сделай 3 варианта: для друга, для начальника и для пожилого соседа».

Промпт №5 (Визуализация абстракций): «Опиши словами для нейросети DALL-E метафору «душа нараспашку», чтобы иностранец понял её значение через картинку. Затем объясни это значение простыми словами для уровня B1».

В условиях ЦПМ (Центра педагогического мастерства) важно внедрение системы AI-Tutor.

Диагностика: Входное тестирование, которое оценивает не только уровень языка, но и интересы (медицина, бизнес, туризм).

Генерация контента: Для ученика-инженера ИИ создает тексты про Саяно-Шушенскую ГЭС, а для филолога - анализ метафор у современных поэтов. Это повышает мотивацию за счет профессиональной значимости материала.

Использование ИИ требует от педагога новых компетенций. Преподаватель становится «дирижером» или «промпт-менеджером», который задает параметры обучения и корректирует результат. Важно научить ученика этике работы с нейросетями и пониманию того, что ИИ - это помощник, а не абсолютный источник истины.

К 2028 году роль преподавателя РКИ пройдет через глубокую реконцептуализацию. Мы выделяем три ключевых вектора изменений: лингво-инженерия, межкультурное посредничество и гипер-персонализация. Искусственный интеллект в РКИ - это не конкурент, а мощный ассистент, позволяющий педагогу сосредоточиться на творческой и воспитательной составляющей учебного процесса.

Победу в профессиональной среде одержит тот педагог, который сможет гармонично соединить классическую филологическую базу с «цифровой смелостью». Это полностью отвечает призыву Президента Шавката Мирзиёева: «Нам нужны современные знания и инновации. Но прежде всего нам нужны учителя новой формации, которые любят свое дело, обладают глубокими знаниями и широким мировоззрением» [1].

Сегодняшняя интеграция ИИ в преподавание русского языка как иностранного - это вклад в стратегическое будущее системы образования республики. Как подчеркивает глава нашего государства: «Образование и воспитание - это основа нашего будущего, фундамент Третьего Ренессанса» [2].

Таким образом, цифровая трансформация РКИ в Узбекистане к 2026 году переходит от стадии «применения инструментов» к стадии «интеллектуального партнерства» между учителем, учеником и ИИ. Это позволяет реализовать концепцию непрерывного образования (Life-long learning), делая русский язык не просто предметом изучения, а живым инструментом в руках будущего профессионала.

Список использованной литературы.

1. Мирзиёев Ш. М. Стратегия развития Нового Узбекистана. - Ташкент, 2022.
2. Мирзиёев Ш. М. Послание Президента Олий Мажлису. - Ташкент, 2023.
3. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Словарь методических терминов. - Москва: ИКАР, 2020.
4. Бердичевский А. Л. Методика РКИ в условиях цифровизации. - Москва, 2023.
5. Левина Г. М. Лингводидактический потенциал нейросетей // Русский язык за рубежом. - 2025.
6. Усманова Р. М. Инновационные подходы к функциональной грамотности // Вестник ЦПМ. - 2024.
7. Русецкая М. Н. Цифровая лингводидактика // Вестник ИРЯ им. А. С. Пушкина. - 2024.
8. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. - 2023.
9. Kuznetsov A. A. Generative AI Models in Language Acquisition. - 2025.

Axmedova Zamira Shirinovna
Buxoro shahar 2-umumta'lim maktab direktori

MAKTAB O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyat samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan indikatorlar tizimi nazariy va tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchi innovatsion faoliyatining ahamiyati tobora ortib borayotgan bir sharoitda, mazkur faoliyatni ob'ektiv va keng qamrovli baholash metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, samarali baholash tizimi ko‘p o‘lchovli yondashuv asosida qurilib, o‘quvchi natijalari, o‘qituvchi professional rivojlanishi va tashkiliy-boshqaruv ko‘rsatkichlarini bir vaqtda qamrab olishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion faoliyat, baholash indikatorlari, o‘qituvchi samaradorligi, pedagogik innovatsiya, ta'lim sifati, professional kompetentlik.*

ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье в теоретическом и аналитическом аспектах рассматривается система индикаторов, применяемых для оценки эффективности инновационной педагогической деятельности учителей общеобразовательных школ. В условиях неуклонно возрастающей значимости инновационной деятельности учителя в современной системе образования разработка объективной и всесторонней методологии оценки данной деятельности выступает как одна из актуальных научно-практических задач. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективная система оценивания должна строиться на многомерном подходе и одновременно охватывать показатели учебных достижений обучающихся, профессионального развития педагога и организационно-управленческие критерии.*

Ключевые слова: *инновационная деятельность, индикаторы оценивания, эффективность учителя, педагогические инновации, качество образования, профессиональная компетентность.*

INDICATORS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF SCHOOL TEACHERS' INNOVATIVE ACTIVITY

Abstract. *This article examines, from a theoretical and analytical perspective, the system of indicators used to assess the effectiveness of innovative pedagogical activity among schoolteachers. Given the growing significance of teacher innovation within contemporary educational systems, the development of an objective and comprehensive methodology for evaluating such activity has emerged as a pressing scientific and practical challenge. The findings suggest that an effective assessment framework must be constructed on a multidimensional approach, simultaneously encompassing student learning outcomes, teacher professional development, and organisational-managerial indicators.*

Key words: *innovative activity, assessment indicators, teacher effectiveness, pedagogical innovation, quality of education, professional competence.*

Kirish. Jahon ta'lim tizimida kuzatilayotgan tub o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalarini qamrab olishi va bilim iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni o‘qituvchi kasbi mohiyatini tubdan qayta belgilamoqda. Bugungi kunda o‘qituvchidan nafaqat mavjud bilimlarni uzatuvchi, balki yangi pedagogik g‘oyalarni yaratuvchi, sinab ko‘ruvchi va joriy etuvchi - ya'ni to‘liq ma'noda innovatsion faoliyat sub'ekti sifatida ish olib borishi talab etiladi. Shu sababli o‘qituvchi innovatsion faoliyatining samaradorligini baholash masalasi pedagogika fani va ta'lim menejmentining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan [1]. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi

qonunida va "2030-yilgacha bo‘lgan davrda ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da o‘qituvchilar professional faoliyatini doimiy monitoring qilish va sifatini baholash zarurligi alohida ta'kidlangan [2]. Biroq amaliyotda mavjud baholash tizimlari ko‘pincha innovatsion komponentni e'tiborsiz qoldirib, an'anaviy o‘quv yutuqlari ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolmoqda. Bu holat innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va rivojlantirishda jiddiy tizimiy to‘siqni yuzaga keltiradi. Mazkur muammoning ilmiy asosda hal etilishi uchun, avvalambor, "innovatsion faoliyat samaradorligi" tushunchasi aniq konseptual tarkib bilan to‘ldirilishi va uning baholash ko‘rsatkichlari tizimi ilmiy asosda ishlab chiqilishi zarur.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada tahliliy-sintetik va qiyosiy metodologiyadan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchi innovatsion faoliyatining samaradorligini baholash masalasi turli nazariy pozitsiyalardan tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida bu yo‘nalishda eng katta hissa qo‘shgan mualliflardan biri J. Hattie hisoblanadi: uning meta-analitik tadqiqoti 250 millionga yaqin o‘quvchi ma'lumotini qamrab olib, o‘qituvchi o‘quv-o‘qitish sifatining ta'lim natijalariga ta'sirini ko‘rsatdi va "ko‘rinuvchi o‘qitish" (visible learning) kontseptsiyasini asoslab berdi [3]. Hattie yondashuvi bo‘yicha innovatsion o‘qituvchi samaradorligi avvalambor o‘quvchi o‘quv yutuqlarining o‘lchab bo‘ladigan o‘sishi bilan ifodalanishi lozim, biroq bu o‘sish faqat standart test natijalari bilan cheklanmasligi kerak. Rus pedagogika fani vakillari - V.A. Slastyonin va L.S. Podimova - pedagogik innovatsiyani mustaqil nazariy ob'ekt sifatida ko‘rib chiqib, innovatsion faoliyatni motivatsion, kreativ, texnologik va refleksiv komponentlarga ajratuvchi tuzilmaviy model taklif etganlar [4]. Ushbu model o‘qituvchining innovatsion salohiyatini baholashda keng ko‘lamli diagnostik asos sifatida xizmat qila olishi bilan ahamiyatlidir. O‘zbekiston pedagogika fanida esa so‘nggi yillarda ta'lim sifatini baholash va o‘qituvchi kompetentligini monitoring qilish masalalariga oid bir qator ilmiy ishlar paydo bo‘ldi. N. Muslimov va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qituvchining professional kompetentlik tuzilmasi tahlil qilinib, innovatsion komponent alohida ko‘rsatkich sifatida ajratib ko‘rsatildi [5]. Shu bilan birga, baholash indikatorlarini tizimli shaklda taqdim etuvchi keng qamrovli metodologik tadqiqotlar hali ham yetarli darajada rivojlanmagan.

Baholash indikatorlari muammosiga yondashuv jihatidan xorijiy ilmiy adabiyotda ikkita asosiy paradigma ajralib turadi. Birinchi paradigma - chiqish natijalariga asoslangan baholash (output-based evaluation) - o‘quvchi yutuqlari, dars samaradorligi, o‘quv motivatsiyasi kabi o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlarga tayanadi. Ikkinchi paradigma - jarayonga asoslangan baholash (process-based evaluation) - o‘qituvchining kasbiy o‘sishini, uning pedagogik refleksiyasini, hamkorlik va professional o‘qish topshiriqlarini markazga oladi [6]. Zamonaviy tadqiqotlar bu ikki paradigmani sun'iy ravishda qarama-qarshi qo‘yish o‘rniga ularni integratsiyalash zarurligini isbotlamoqda: faqat bitta yondashuv orqali olingan baholash innovatsion faoliyatning to‘liq manzarasini bera olmaydi.

Xususan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan TALIS (Teaching and Learning International Survey) tizimi o‘qituvchi professional faoliyatini ko‘p o‘lchovli qilib tahlil qilish modelini taqdim etadi va bunda innovatsion o‘qitish amaliyotlari, kasbiy hamkorlik hamda doimiy o‘rganishga moyillik alohida bloklarda o‘lchanadi [7]. Bu tizim o‘qituvchining innovatsion faoliyatini baholashda faqat dars natijasiga emas, balki faoliyat mazmuniga va kasbiy kontekstiga e'tibor berilishi lozimligini ko‘rsatib beradi. Mahalliy ta'lim tizimida amaliyotda qo‘llaniladigan baholash mexanizmlari ko‘pincha attestatsiya tartiblari va o‘qituvchining toifasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular innovatsion faoliyatning ko‘plab muhim jihatlarini - jumladan, ta'lim jarayonini tasarlashda ijodiy yondashuvni, o‘quvchi bilan dialogik munosabat o‘rnatish ko‘nikmalarini va raqamli resurslardan pedagogik maqsadlarda foydalanish qobiliyatini - to‘liq qamrab olmaydi [8]. Bu esa innovatsion faoliyatni aniq va keng qamrovli indikatorlar tizimi orqali baholashning zaruratini yanada oshiradi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili asosida amalga oshirilgan ilmiy sintez shuni ko‘rsatdiki, maktab o‘qituvchilari innovatsion faoliyat samaradorligini baholash indikatorlari uchta asosiy guruhga birlashtirilishi mumkin: o‘quvchi natijalariga oid indikatorlar, o‘qituvchi professional rivojlanishiga oid indikatorlar va tashkiliy-innovatsion muhitga oid indikatorlar. Ushbu uch guruhning o‘zaro uyg‘unligi baholash tizimining yaxlitligi va ob'ektivligini ta'minlaydi.

Birinchi guruh indikatorlar o‘quvchi natijalariga qaratilgan bo‘lib, innovatsion pedagogik faoliyatning bevosita "chiqishi"ni ifodalaydi. Bu guruhga o‘quvchilarning kognitiv, ijodiy va kritik

fikrlash ko‘nikmalarining o‘sishi kiradi - bu ko‘nikmalar an'anaviy testlar orqali emas, balki loyiha ishlanmalari, taqdimotlar, muammoli vaziyatlarni hal etish natijalari kabi ko‘p formatli baholash vositalari yordamida o‘lchanadi. Bundan tashqari, o‘quvchining o‘quv motivatsiyasi va maktabga munosabati dinamikasi, hamda o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganishni tashkil etish ko‘nikmalarining rivojlanishi ham ushbu guruhga kiritilishi zarur [3]. Хатти ta'kidlaganidek, samarali innovatsion o‘qituvchi o‘quvchida nafaqat mavzu bo‘yicha bilim hosil qiladi, balki uning "o‘z o‘rganishining eksppertiga aylanishiga" ko‘maklashadi - bu esa an'anaviy baholash tizimlari ko‘pincha e'tibordan chetda qoldiradigan sifatli ko‘rsatkich hisoblanadi [3]. Shuni ta'kidlash joizki, o‘quvchi natijalariga asoslangan baholashda innovatsion usullar samaradorligini to‘g‘ri baholash uchun natijalar bir yoki ikki semestr emas, kamida uch-to‘rt yillik dinamikada ko‘rib chiqilishi lozim. Qisqa muddatli natijalar o‘qituvchining innovatsion faoliyatini baholashda yetarli asos bo‘la olmaydi.

Ikkinchi guruh - o‘qituvchi professional rivojlanishiga oid indikatorlar - innovatsion faoliyat samaradorligini ichki jarayonlar nuqtai nazaridan ifodalaydi. Bu guruh o‘qituvchining yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tezligi va chuqurligini, professional hamjamiyatlarda faol ishtirokini, ilmiy-metodik nashrlar va tadqiqotlardagi faolligini, shuningdek, o‘z amaliyotini doimiy tahlil qilish va qayta loyihalash ko‘nikmalarini - ya'ni pedagogik refleksiyani - o‘z ichiga oladi [4]. Slastyonin va Podimova pedagogik refleksiyani innovatsion faoliyatning markaziy mexanizmi deb atab, uni baholash instrumentlari orasida alohida o‘ringa qo‘yadilar. O‘qituvchi o‘z darsini tahlil qila olishi, muvaffaqiyatsizliklardan xulosa chiqarishi va keyingi harakatlarini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda loyihalashi - bu sifatlar innovatsion faoliyatning sust yoki samarali ekanligini aniqlaydigan hal qiluvchi belgilar hisoblanadi. Raqamli kompetentlik ham ushbu guruhning ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchining raqamli ta'lim vositalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan foydalanishi, masofaviy ta'lim muhitlarini tashkil etish qobiliyati bugungi kunda innovatsion o‘qituvchilik ko‘nikmalarining tarkibiy elementiga aylangan [6]. OECD TALIS ma'lumotlari shuni ko‘rsatadiki, professional hamkorlik (kollegial kuzatuv, birgalikda darsni rejalashtirish, tajriba almashish) innovatsion faoliyat samaradorligi bilan ijobiy bog‘liqlikka ega: bu hamkorlik faoliyatida muntazam qatnashadigan o‘qituvchilar yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishga ko‘proq tayyor bo‘ladilar [7].

Uchinchi guruh - tashkiliy-innovatsion muhitga oid indikatorlar - maktab darajasida yaratilgan sharoitlarni o‘lchaydi. Bu yerda o‘qituvchilarning innovatsion tashabbus va g‘oyalari qanchalik rag‘batlantirilishi, maktab rahbariyatining innovatsiyaga yo‘naltirilgan liderlik uslubi, metodologik yordam va resurslar bilan ta'minlash darajasi, hamda innovatsion tajribani tarqatish mexanizmlari - ochiq darslar, metodik seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlar - alohida baholanishi lozim [5]. Bu guruh ko‘pincha individual o‘qituvchi baholash tizimlarida e'tibordan chetda qoladi, holbuki tizim sifatida ishlayotgan maktabning innovatsion muhiti individual faoliyat samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Musulmovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston maktablarida o‘qituvchi innovatsion faoliyati ko‘pincha tizimli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo‘lgandagina barqaror va samarali bo‘ladi; aksincha, individual tashabbus tizimiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan hollarda tezda so‘nib ketadi [5]. Bu kuzatuv baholash tizimiga maktab muhitini ham kiritish zarurligini asoslab beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan uch guruh indikatorlarning uyg‘un tizimga birlashtirilishi va ularning bir-birini to‘ldirishi baholash tizimining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Faqat o‘quvchi natijalariga tayanish yoki faqat o‘qituvchi faoliyatini kuzatish bilan cheklanish holisona manzara bermaydi: birinchi holda o‘qituvchidan tashqaridagi omillar (oilaviy sharoit, o‘quvchi sog‘lig‘i, ijtimoiy muhit) natijaga ta'sir ko‘rsatadi; ikkinchi holda esa faoliyat jarayoni kuzatiladi-yu, ammo uning oqibatlari inobatga olinmaydi [8]. Kompleks yondashuv esa ikkala xavfdan ham xoli bo‘lib, indikatorlarning o‘zaro tekshiruvi (triangulation) orqali baholash ishonchliligini oshiradi. Shu o‘rinda shuni ham ta'kidlash zarurki, baholash indikatorlari nafaqat nazorat vositasi, balki o‘qituvchining professional o‘sishiga ko‘maklashuvchi diagnostik asbob sifatida ishlatilishi kerak [9]. Agar baholash natijalari o‘qituvchini jazolash yoki reyting tuzish uchun ishlatilsa, bu holat innovatsion faoliyatni susaytiradi, chunki o‘qituvchilar xavfli yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishdan qo‘rqib, faqat "xavfsiz" va standart metodlarga murojaat qiladilar. Aksincha, baholash natijalari professional

rivojlanish uchun qo‘llanma vazifasini o‘tasa va o‘qituvchiga o‘z kuchli hamda zaif tomonlarini anglashga yordam bersa, innovatsion faoliyat uchun motivatsiya kuchayadi [10]. Bu tamoyil baholash tizimini loyihalashda asosiy metodologik prinsip sifatida tan olinishi lozim.

Xulosa. Maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyat samaradorligini baholash muammosi zamonaviy pedagogika fani va ta'lim menejmentining dolzarb ilmiy-amaliy masalasi bo‘lib, uning yechimi bir tomonlama yoki soddalashtirilgan yondashuvlar bilan chegaralanib bo‘lmaydi. Ushbu maqolada amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili va ilmiy sintez asosida quyidagi xulosalar chiqarildi. Birinchidan, innovatsion faoliyat samaradorligini baholash uchun ishlatiluvchi indikatorlar tizimi o‘quvchi natijalari, o‘qituvchi professional rivojlanishi va tashkiliy-innovatsion muhit kabi uchta o‘zaro bog‘liq guruhni qamrab olishi zarur. Bu uch guruhning bir-birini to‘ldiruvchi ko‘rsatkichlari birgalikda innovatsion faoliyatning to‘liq ilmiy manzarasini yaratadi. Ikkinchidan, baholash faqat nazorat mexanizmi emas, balki o‘qituvchi professional o‘sishini rag‘batlantiruvchi diagnostik vosita sifatida yo‘naltirilishi lozim; aks holda baholash tizimining o‘zi innovatsion faoliyatga to‘siq bo‘lib qolishi mumkin. Uchinchidan, o‘zbek ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni baholash metodologiyasini rivojlantirishda xorijiy ilmiy tajriba - xususan, OECD TALIS tizimi va Hattie meta-analitik yondashuvi - mahalliy kontekst va milliy ta'lim an'analari bilan muvofiqlashtirilib qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Keyingi tadqiqotlarda ushbu indikatorlar tizimini O‘zbekiston maktablarining haqiqiy sharoitiga moslashtirib, uning ishonchliligi va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. New York: Teachers College Press, 2016. 352 p.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020. 48 b.
3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London; New York: Routledge, 2009. 392 p.
4. Сластёнин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. Москва: Магистр, 1997. 308 с.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 224 b.
6. Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. Palo Alto: Learning Policy Institute, 2017. 76 p.
7. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019. 304 p. DOI: 10.1787/1d0bc92a-en.
8. Юсупова Г.Р. Мактаб ўқитувчиларини аттестациядан ўтказишнинг замонавий ёндашувлари // Педагогика фанлари. 2021. №3. Б. 45–52.
9. Sergiovanni T.J. Rethinking Leadership: A Collection of Articles. 2nd ed. Thousand Oaks: Corwin Press, 2007. 192 p.
10. Инновации в российском образовании: общее среднее образование / под ред. А.В. Хуторского. Москва: МГУП, 2002. 268 с.

Tursunqulov Sanjar Dilmurod o‘g‘li
Samarqnd davlat chet tillar instituti Ispan va italyan filologiyasi kafedrasi dotsenti,
Xo‘rozova Zarina G‘ayratjon qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german tillari fakulteti talabasi

CHET TILINI O‘RGANISHDA AUDIO, VIDEO VA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim jarayonida chet tillarni o‘rgatishda audio, video va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Ushbu vositalar talabalarning til bilimini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish, muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, audio va video resurslardan muntazam foydalanish tinglab tushunish, talaffuz, leksika va grammatika qoidalarini tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Raqamli platformalar va interaktiv dasturlar mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash va motivatsiyani oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Multisensor yondashuv va multimedia materiallar talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi. Shu asosda, zamonaviy chet tilini o‘qitishda audio, video va raqamli vositalardan integratsiyalashgan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *chet tilini o‘rganish, audio vositalar, video materiallar, raqamli vositalar, multimediya, kommunikativ kompetensiya, til ko‘nikmalari, interaktiv o‘rganish.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУДИО, ВИДЕО И ЦИФРОВЫХ СРЕДСТВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *Эффективность использования аудио, видео и цифровых средств в современном обучении иностранным языкам возрастает. Эти средства способствуют развитию у студентов как теоретических, так и практических языковых навыков, а также формируют коммуникативную компетенцию. Исследования показывают, что регулярное использование аудио- и видеоматериалов улучшает навыки аудирования, произношения, словарный запас и усвоение грамматики. Цифровые платформы и интерактивные приложения стимулируют самостоятельное обучение, самоконтроль и мотивацию. Мультисенсорный подход и мультимедийные материалы готовят студентов к реальным коммуникативным ситуациям. Таким образом, интегрированное использование аудио, видео и цифровых средств значительно повышает педагогическую эффективность современного обучения иностранным языкам.*

Ключевые слова: *четное обучение, аудиосредства, видеоматериалы, цифровые средства, мультимедиа, коммуникативная компетенция, языковые навыки, интерактивное обучение.*

THE EFFECTIVENESS OF USING AUDIO, VIDEO, AND DIGITAL TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Abstract. *The effectiveness of using audio, video, and digital tools in modern foreign language teaching has been increasingly recognized. These tools enhance students’ theoretical and practical language skills and support the development of communication competencies. Research indicates that regular use of audio and video resources improves listening comprehension, pronunciation, vocabulary acquisition, and grammar mastery. Digital platforms and interactive applications promote autonomous learning, self-assessment, and motivation. A multisensory approach and multimedia materials prepare students for real communicative contexts. Therefore, the integrated use of audio, video, and digital tools significantly enhances pedagogical effectiveness in contemporary foreign language instruction.*

Key words: *foreign language learning, audio tools, video materials, digital tools, multimedia, communicative competence, language skills, interactive learning.*

Kirish. Chet tilini o‘rganish zamonaviy ta’lim jarayonida nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki talabalar kommunikativ, madaniy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Til o‘rganish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, bunda nafaqat grammatika va so‘z boyligi, balki talaffuz, nutqiy ko‘nikmalar va madaniy kontekstni tushunish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ona tili bilan chet tilini taqqoslash orqali talaba tilga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qiladi va yangi lingvistik birliklarni tezroq egallaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv texnologiyalar va multimediya vositalari yordamida til o‘rganish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Talabalar audio va video materiallar, raqamli platformalar orqali mavzularni mustaqil ravishda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, kommunikativ va interaktiv metodlar o‘quv jarayonini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi, bu esa talabalarni muloqotga tayyorlaydi va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) kabi xalqaro standartlar chet tillarni o‘qitish jarayonini tartibga soladi va talabaning til kompetensiyasini aniq darajalarga ajratadi. CEFR darajalari tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga imkon beradi va o‘quv jarayonini individual talaba ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy metodik yondashuvlar va texnologiyalar yordamida talabaning til kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyati va interaktiv o‘rganish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, raqamli platformalar va interaktiv dasturlar (Duolingo, Babbel, Quizlet, YouTube) talabalarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, haftasiga kamida 3 soat onlayn mashqlarni bajaradigan talabalarda til bilimini mustahkamlash va yangi leksik birliklarni o‘zlashtirish tezligi 15–20% ga oshadi. Bu o‘rganish jarayoni shuningdek, feedback tizimi orqali xatolarni tezkor tuzatish imkonini beradi, talaba o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Audio, video va raqamli vositalardan foydalanishning yana bir afzalligi – ularning multisensor yondashuvni ta’minlashi. Talaba tinglaydi, ko‘radi, interaktiv mashqlarni bajaradi, shu orqali yangi ma’lumotni bir nechta idrok kanallari orqali o‘zlashtiradi. Bu metodologiya neyropedagogik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan, ya’ni ko‘p sensorli o‘rganish materiallarni uzoq muddatli xotirada saqlashni yaxshilaydi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy chet tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayoni nafaqat grammatika va lug‘at boyligini oshirishga, balki talabaning muloqot qobiliyati va madaniy kontekstni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ahmedova (2021) masofaviy ta’lim va elektron darsliklar orqali chet tilini o‘qitishning samaradorligini tahlil qilgan va interaktiv multimedia vositalarining o‘quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatgan.

Juraboyev (2020) nemis tili o‘qitishda kommunikativ yondashuvning afzalliklarini ta’kidlab, tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash orqali talabalar nutqiy va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkinligini isbotlagan. Shu bilan birga, Samarova (2020) ijodiy yondashuvni metodik jarayonga joriy etish orqali talabalarning muammolarni hal qilish, loyiha asosida ishlash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Maxmudov va hamkorlar (2020) o‘zbek va xorijiy tillarda antonimlarni ta’riflash va tasniflash orqali lug‘at boyligini oshirish metodlarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari til o‘rganish jarayonida leksik birliklarni tizimli o‘rganishning ahamiyatini ochib beradi. Sultonova (2020) elektron darsliklar va masofaviy ta’limning samaradorligini o‘rganib, multimediya va raqamli vositalardan foydalanish talabaning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Torremocha (1999) ispan tili va adabiyotini o‘rganishda tarixiy va madaniy kontekstning muhimligini ta’kidlaydi. Bu tadqiqotlar chet tilini o‘qitish metodikasida nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ komponentlarni birlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar chet tillarni o‘qitishda kommunikativ, interaktiv, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik

texnologiyalar, multimedia va masofaviy ta'lim vositalari talabalarning til kompetensiyasini oshirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, keltirilgan manbalar maqolada tahlil qilingan yondashuvlarni nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu boisdan, darslarda audio, video va raqamli vositalardan samarali foydalanish zamonaviy chet tillarni o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu vositalar nafaqat talabaning lingvistik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni ijodiy fikrlash, mustaqil o'rganish va real muloqotga tayyorlashda ham yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu bo'limda biz audio, video va raqamli vositalardan samarali foydalanishning usullari, tajribalar va statistik natijalarni batafsil tahlil qilamiz.

Zamonaviy til o'qitishda audio, video va raqamli vositalar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim vositalardan biri sifatida qaraladi. An'anaviy metodlar bilan solishtirganda, multimedia resurslari talabalarda tilni tinglab tushunish, talaffuz, kontekstual anglash va nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu vositalar tilni "jonli" va real situatsiyalarda namoyish etadi, bu esa amaliy muloqotga tayyorlanishni osonlashtiradi.

Audio materiallarning roli – bu tilni o'rgatishda eng qadimiy, ammo juda samarali vosita bo'lib, u talabaning tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantiradi. Audio mashqlar dialoglar, podkastlar, eshitish bo'yicha topshiriqlar orqali talabani muloqot kontekstiga tayyorlaydi. Tinglab tushunish (listening comprehension) til o'rgatish jarayonining poydevori bo'lib, ayniqsa tillar fonetik tuzilmalarini o'rganishda juda muhimdir.

Masalan, Karimova va Kenjayeva olib borgan tadqiqotda audio-vizual materiallar chet tilini o'rganuvchilarning tinglab tushunish va so'z boyligini saqlab qolish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan. Ular eksperimental guruhda audio va video materiallar bilan ishlagan talabalar boshqaruv guruhiga nisbatan yuqori natija ko'rsatganini qayd etishgan - audio ekzpozitsiya eshitish ko'nikmalarini va lug'atni mustahkamlashni sezilarli yaxshilaydi.

Agar audio mashqlar to'g'ri tanlansa - masalan, talabalarning darajasiga mos real suhbatlar, qisqa audio hikoyalar yoki podkastlar - ularning tilni tushunish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Audio manbalar noaniq nutq, tez aloqa va xilma-xil talaffuzlar bilan shug'ullanish imkonini beradi. Bu tinglab tushunishning real vaziyatlardagi muloqotni eshitish ko'nikmasini oshiradi, bu ko'nikma esa CEFR standartlari bo'yicha yuqoriroq darajalarda talab qilinadi.

Video materiallar va kommunikativ yondashuv- tinglab tushunish asosiy bo'lishi bilan birga, tilni amaliy qo'llashda video materiallar yanada keng imkoniyat yaratadi. Video nafaqat audio komponentni, balki vizual kontekst, mimika, intonatsiya va madaniy belgilarni ham namoyish etadi. Bu esa talabalar tilni real hayot kontekstida tushunish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maqola tahliliga ko'ra, video materiallar yordamida kommunikativ yondashuvni amalga oshirish muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Video yordamida talabalar nafaqat tilning talaffuzi, balki kontekstual ma'nosi, madaniy komponent va nutqning tabiiy ritmi bilan ham tanishadi. Bu esa tilni amaliy muloqotda ishlatishda ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Amaliy misol sifatida: video darslar do'konda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi suhbatlarni, restoran sahnasini yoki sayohat kontekstidagi dialoglarni ko'rsatadi. Talabalar ustoz nazorati ostida ushbu videolarni ko'rib, nutqning ritmi, yuz ifodalari, tana tili va kontekstni analiz qiladi. Bu jarayon interaktiv va muloqotiy bo'lib, an'anaviy matn bo'yicha mashqlarga qaraganda ko'proq kommunikativ kontekstni beradi.

Natijalar va muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki bugungi kunda audio va video materiallar ko'pincha raqamli platformalar orqali taqdim etiladi. Duolingo, Busuu, Memrise, Quizlet kabi platformalar til o'rgatuvchilar va o'rganuvchilarga interaktiv, gamifikatsiyalangan uslubda ishlash imkonini beradi. Bu platformalar o'quv faoliyatini muntazam saqlash, darajaga mos mashqlar, tezkor fikr-mulohaza va testlar bilan boyitadi. Misol uchun, Duolingo va Busuu foydalanuvchiga interaktiv mashqlar orqali so'z boyligini, tinglab tushunish va nutq ko'nikmalarini amaliy tarzda rag'batlantiradi. Raqamli platformalar elektron reytinglar, ballar va darajalar orqali talabani rag'batlantiradi hamda til o'rganishni monotonlikdan chiqaradi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar sinfxonasidan tashqarida til mashqlarini davom ettirishga imkon beradi. Masalan, talabalar onlayn video konferensiya orqali ona tilida so‘zlashuvchi bilan muloqot qiladi yoki virtual darslarda ishtirok etadi.

Bu shaxslararo kommunikatsiya ko‘nikmalariga mustahkam asos beradi va talabaning tilni real hayotda qo‘llashiga tayyorlaydi. Audio va video materiallarni integratsiyalash orqali yaratilgan multimedia darslar talabalar ko‘nikmalarini ham yanada samarali rivojlantiradi.

Multimedia vositalari bir vaqtning o‘zida eshitish, ko‘rish, nutq, kontekstual tahlil va yozish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning diqqati va motivatsiyasini oshiradi hamda til o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi. Masalan, video kontekstda berilgan matnni audio orqali tushunib, so‘ngra interaktiv dars dasturida faol ishtirok etish - talabani tilda to‘liq “immersiya” jarayoniga jalb qiladi. Bu esa tilni ko‘proq amaliy kontekstda o‘rganishga yo‘l ochadi, talaba ko‘proq real suhbatlar bilan tanishadi va natijada uning nutq ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida xorijiy tillarni o‘qitishning amaliy-uslubiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ispan tilini talabalarga samarali o‘rgatishda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar ustuvor hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodika, darsni tashkil etish shakli va qo‘llaniladigan vositalar o‘quv natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, ispan tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv asosiy metod sifatida qaraladi. Bu yondashuv talabalarning real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Dars jarayonida dialoglar, rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar va interfaol mashg‘ulotlar orqali talabalar faol ishtirok etadi. Natijada ular faqat grammatik qoidalarni o‘rganib qolmay, balki o‘z fikrlarini erkin ifoda etishni ham o‘zlashtiradi.

Ikkinchidan, vazifaga asoslangan o‘qitish (task-based learning) metodining ahamiyati katta. Bu usulda talabalar ma’lum bir vazifani bajarish orqali tilni o‘rganadi. Masalan, prezentatsiya tayyorlash, suhbat tashkil qilish yoki muammoli vaziyatni hal etish kabi topshiriqlar orqali ularning mustaqil fikrlashi va til kompetensiyasi rivojlanadi. Bu metod talabalarni real kommunikatsiyaga tayyorlaydi va ularning faolligini oshiradi.

Uchinchidan, multimediya va axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim amaliy-uslubiy asoslardan biridir. Audio va video materiallar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar orqali darslar yanada qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Masalan, ispan tilidagi filmlar, podkastlar va qo‘shiqlar orqali talabalar talaffuz, tinglab tushunish va so‘z boyligini oshiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi vositalar individual o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, differensial yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Har bir talabaning bilim darajasi, qobiliyati va o‘rganish tezligi turlicha bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi individual yondashuvni qo‘llashi zarur. Bu esa o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi va barcha talabalarning teng rivojlanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, motivatsiyani oshirish ham amaliy-uslubiy asoslarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarni rag‘batlantirish, ularni darsga jalb qilish, qiziqarli topshiriqlar berish orqali o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi. O‘qituvchi darsni jonli, interfaol va mazmunli tashkil etishi orqali talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Amaliy-uslubiy asoslarni yanada chuqurlashtirishda baholash tizimi ham muhim o‘rin egallaydi. An’anaviy baholashdan farqli ravishda, zamonaviy ta’limda formatif (jarayon davomida) va summativ (yakuniy) baholash uyg‘unligi qo‘llaniladi. Ispan tilini o‘qitishda talabalar faqat testlar orqali emas, balki og‘zaki nutqi, yozma ishlari, prezentatsiyalari va ishtiroki orqali ham baholanadi. Bu esa ularning til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullari talabalarni mas’uliyatli va mustaqil o‘rganishga undaydi.

Shu bilan birga, autentik materiallardan foydalanish ham muhim metodik asos hisoblanadi. Autentik materiallar - bu til egalariga xos bo‘lgan real hayotiy manbalar, ya’ni gazeta maqolalari, intervyular, reklama roliklari, bloglar va ijtimoiy tarmoq postlaridir. Bunday materiallar talabalarni haqiqiy til muhiti bilan tanishtiradi, ularning lug‘at boyligini oshiradi va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiradi. Natijada talabalar tilni faqat darslik darajasida emas, balki real kontekstda tushunishni o‘rganadi.

Yana bir muhim jihat - bu integrativ yondashuvdir. Bu yondashuvda til o‘rganish boshqa ko‘nikmalar bilan bog‘lanadi. Masalan, ispan tilini o‘rganish jarayonida talabalar bir vaqtning o‘zida tinglab tushunish (listening), o‘qish (reading), yozish (writing) va gapirish (speaking) ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ko‘nikmalarni integratsiya qilish orqali til o‘rganish jarayoni yanada samarali va tabiiy tus oladi. Bundan tashqari, madaniy komponentni o‘qitish ham katta ahamiyatga ega. Ispan tilini o‘rganish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki ispan tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, urf-odatlari, an’analari va mentalitetini tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantiradi va tilni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy o‘qitishda refleksiya jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qilish, qaysi jihatlarda muvaffaqiyatga erishganini va qaysi tomonlarini yaxshilash kerakligini aniqlash orqali o‘z ustida ishlashni o‘rganadi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, guruhli va hamkorlikda o‘rganish (collaborative learning) metodlari ham samarali hisoblanadi. Talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali bir-biridan o‘rganadi, fikr almashadi va muammolarni birgalikda hal qiladi. Bu esa nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Xulosa. Umuman olganda, talabalarga ispan tilini samarali o‘rgatishning amaliy-uslubiy asoslari ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Ular o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarini - rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni qamrab oladi. Zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar va talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlar uyg‘unligi orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, media vositalardan foydalangan holda til o‘rganish jarayoni an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq bo‘ladi. Masalan, audio-visual materiallar bilan shug‘ullangan talabalar tinglab tushunish va lug‘atni saqlab qolish bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatadi, bu esa til o‘rgatish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, audio va video materiallar yordamida talabalarning madaniy anglash va kommunikativ ko‘nikmalari ham mustahkamlanadi. Video materiallar tilni nafaqat grammatik asosda o‘rgatadi, balki madaniy kontekst, ijtimoiy nutq va real vaziyatlar bilan tanishtiradi. Bu til o‘rganuvchining tilni global muhitda ishlata olishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Yevropa Kengashi. Chet tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash bo‘yicha umumyevropa tavsiyanomalari (CEFR). Qo‘shimcha jild. – Strasburg: Yevropa Kengashi nashriyoti, 2022. – 280 b.

2. Karimova, D. Audio-vizual materiallar yordamida chet tili tinglab tushunish va so‘z boyligini rivojlantirish / D. Karimova, S. Kenjayeva. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2025. – 230 b.

3. González, M. Audio vositalardan foydalanish va chet tili tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Madrid: Universidad Complutense, 2021. – 195 b.

4. Lopez, A. The impact of digital language learning platforms on vocabulary acquisition and language proficiency / A. Lopez, J. Ramirez. – New York: Routledge, 2020. – 312 p.

5. Mayer, R. E. Multisensory Learning: How Multiple Modalities Enhance Memory and Learning. – New York: Cambridge University Press, 2021. – 277 p.

6. Miller, J. Video darslar va kontekstual nutq: amaliy qo‘llanma. – London: Routledge, 2020. – 56 b.

Abdullayeva Aropatxon Rustamovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

YOSHLARDAGI OILAVIY QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARIGA OTA-ONALARNING TURMUSH TARZINI TA’SIRINI IJTIMOIY PSIXOLOGIK TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oila deb atalmish maskanda ota-ona shaxsining oiladagi egallab turgan mavqei va uning rollar tao‘simotidagi adolatliligini farzandlar kamolotiga ta’siri, ularning oila yaratgan muxitning yoshlarning oila haqidagi tasavvurlarini shakllanishiga ta’sirini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillardan ekanligi yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *Oila ,ma’naviyat, biologik, psixologik, tendensiya , jamiyat, fuqoro, muhit, qadriyat, omil.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ОБРАЗА ЖИЗНИ РОДИТЕЛЕЙ НА ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматривается влияние положения родителей в семье и справедливости распределения их ролей на развитие детей, а также психологические факторы, обеспечивающие влияние семейной среды на формирование у молодежи представлений о семье.*

Ключевые слова: *Семья, духовность, биологический, психологический, тенденция, общество, гражданин, среда, ценность, фактор.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE INFLUENCE OF PARENTS' LIFESTYLE ON YOUTH'S IDEAS OF FAMILY VALUES

Abstract. *This article discusses the influence of the position of the parents in the family and the fairness of their role distribution on the development of children, as well as the psychological factors that serve to ensure the influence of the environment created by the family on the formation of young people's ideas about the family.*

Keywords: *Family, spirituality, biological, psychological, tendency, society, citizen, environment, value, factor.*


O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish doirasida e’tibor qaratilib, oilani rivojlantirish masalalari bo‘yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish, oila ajralishlari bilan bog‘liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar ona shaxsining farzandlar kamolotiga ta’siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat’i nazar, barqaror tarbiya muhitini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida oila xususida to‘xtalib, “Turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski uchrab turibdi. Natijada yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajrashishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda”, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, axillik va o‘zaro hurmat muxitini

yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”, buning uchun esa yoshlar o‘rtasida bolalikdan ko‘proq ish olib borilishi shart. Negaki, aksariyat hollarda, yoshlar o‘rtasida ma’rifat va e’tiqodsizlik kuchsizlangan joylarda turli xil ko‘ngilsiz voqea – hodisalar ro‘y beradi, yoshlar ongiga Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur, milliy g‘oya kabi tushunchalarni singdira olmas ekanmiz, ularning shuuridagi erkin tarqqiyot hissini uyg‘ota olishimiz ancha murakkab kechadi. Maqsad esa bugun va ertangi kun ma’naviyatining asl mohiyati kishilarimiz, ayniqsa yoshlarimiz ongida o‘zining ijobiy ifodasini topsin”-deb ta’kidlaydilar.


Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahallalari mustahkam bo‘lgan davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Shu boisdan har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki, har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning xukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta’minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosligi mazkur tadqiqotimizning o‘ta muhimligi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Yoshlarni oila va nikoh haqidagi tasavvurlarida ota va onaning ta’siri qay darajada ekanligini o‘rganish maqsadida respondentlarga berilgan “Ota-onangiz sizga nikoh oila haqida maslahat beradimi?” degan savol natijalariga ko‘ra, 24-26 yoshdagi sinaluvchilarni oilaga ma’naviy tayyorgarlik borasida garchi ular ma’lum kasb-hunar egasi bo‘lsalar-da, kattalarning maslahatlariga ehtiyojlarining boshqa yosh davrdan ko‘ra yuqoriligi aniqlandi.



1-diagramma. «Ota-onangiz sizga nikoh oila haqida maslahat beradimi? » savoli bo‘yicha natijalari (n= 170)

Navbatdagi «Oilaviy munosabatlarda ota-onangizni maslahatlariga ehtiyoj sezasizmi? » savoli turmush tajribasiga ega sinaluvchilarga berildi. Olingan natijalarini tahliliga binoan quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldik.



2-diagramma. «Oilaviy munosabatlarda ota-onangizni maslahatlariga ehtiyoj sezasizmi? » savolining natijalari (n=140)

Demak, 2-diagrammada ko‘rinib turibtiki, inson uchun eng yaqin zarur shaxs uning ota-onasidir. U hayotda egallagan mavqei, erishgan yutuqlarining barchasi kattalarning bergan nasihatlari va ko‘rsatmalari natijasidir. Tajribasi ortib, ota-onaning maslahatlariga ehtiyoj kamayishi ehtimoli bo‘lsa ham, murakkab tizimli vaziyatlarda ularning tajribalari qo‘l kelishi respondentlarimiz javoblaridan aniqlandi.

Natijalarni tahlil qilish orqali haqiqatan ham oila qadriyati – bu, biz yashab turgan jamiyatning eng muhim ma’naviy va ijtimoiy asoslaridan biri bo‘lib, u oila a’zolarimiz o‘rtasidagi munosabatlar, axloqiy meyorlar, urf-odatlar, shuningdek, qadriyatlar majmuasini anglatishini guvohi bo‘ldik. Tajriba ortib borishi qadriyatlar mohiyatini anglab borishga sabab bo‘lishligi har ikkala respondentlar (nikoh ostonasida turgan yoshlar va turmush tajribassiga ega bo‘lgan oilalilar) natijalarida namoyon bo‘ldi. Oila qadriyati an’anaviymi yoki zamonaviymi, uning zamirida ota-onaga, kattalarga hurmat, oila a’zolari o‘rtasidagi muhabbat va g‘amxo‘rlik, bir-biriga ishonish va vafodor bo‘lish, har bir a’zo o‘z vazifasini anglab bajarishi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va birlikda yashash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ota-onalardagi ustivor kognitiv ustanovkalar shaxsning tarbiyasi va kamolotiga asos bo‘lishi va jamiyat barqarorligini ta’minlashi, shuningdek, oilada milliy an’analar va urf-odatlarning saqlanishi yosh avlodni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam berishini natijalar asosida aniqlandi. Oila qadriyatlari insonning ma’naviy dunyosi shakllanishida eng muhim omil ekanligi va mustahkam oila – bu, mustahkam jamiyat ekanligi demakdir.

Nikoh – bu, avvalo, ikki insonning shaxsiy hayoti, shunga binoan juftliklar o‘rtasida o‘zaro hurmat, muhabbat, psixologik moslik eng kerakli omildir. Ma’naviy tayyorgarligi oila ilmini o‘zlashtirganligi oiladagi qadriyatlar asosida ota-ona tomonidan o‘rgatiladi. Juft tanlashda yoshlarning o‘z tanlovi bo‘lishi yaxshi, albatta, ammo ota-onadan mas’uliyatli bo‘lish talab qilinadi. Demak, ota-ona maslahati bilan yoshlarga to‘g‘ri qaror qabul qilishda yordam berishi kerak.

Biz yashayotgan o‘zbek oilalarida mavjud muammolar yechimiga, davlat va jamiyat taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatiga ijobiy ta’sir etishini hisobga olgan holda uning tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari va muammolari yechimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni ko‘rsatib berishimiz mumkin:

Yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlashda biologik, ma’naviy, psixologik, iqtisodiy va huquqiy ijtimoiy munosabatlar birligi muhim mezon ekanligini hisobga olib, oila-nikoh muqaddasligiga, oilaparvarlikka yo‘naltirishda muhim vosita sifatida qarashlarni shakllantirish va rivojlantorish avvalo ota-onaning vazifasi ekanligini anglab yetdik.Shuningdek oilada mehr va muhabbatli bo‘lish, juftiga erkin yashash imkonini berish. Hayotda shunday holatlar bo‘ladiki, er-xotin munosabatlarida e’tibor, g‘amxo‘rlik va xushmuomalalik sevgi, muhabbatga nisbatan ham o‘z ustunligini ko‘proq ko‘rsatadi. Ayrim xolllarda oilalar sevgi-muhabbat emas, balki sovchilik yoki boshqa sabablarga ko‘ra tashkil topgan bo‘lsa, birgalikdagi oilaviy hayot va ayniqsa, er-xotinning bir-biriga ko‘rsatadigan e’tibori oilaviy baxtni chinakam his etishga asos bo‘ladigan vaziyatlarda yoshlar albatta ota-onasining turmush tarzidan o‘rnak olishi tabiy tarzda ro‘y beradi .

Jamiyatimizda yuksak ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, o‘zbek oilasiga xos odob-axloq, milliy mentaletetimizga mutloq yot bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oilaning rolini

kuchaytirish, oilaning ma’naviy-huquqiy muammolari, tibbiy savodxonligi va madaniyati, barqaror turmush tarzi, reproduktiv salomatlikka qaratilgan motivlarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashda xam oila ustuni va vazirining roli katta.

Ma’naviy yetuk, jismoniy sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish, shu maqsadda oila institutining ta’lim hamda tarbiya muassasalari bilan o‘zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ta’lim muassasalarida “Oila psixologiyasi” kursini o‘qitish orqali yoshlarni oilaviy ta’lim faoliyatiga yo‘naltirish, ular yordamida jamiyatimizdagi oila barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi holatlarning oldini olishda albatta qo‘l keladi.

Demak, oilaga nisbatan muxabbat,qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish, shaxslararo munosabatlarda ideallikka erishish va shaxsiy o‘z menini real baholash va oilaparvarligiga qaratilgan sifatlarning negizi ota-onaning turmush tarzi orqali bola xayotida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Abdullayeva, A. R. Yoshlarning oilaga ma’naviy tayyorligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish natijalari / A. R. Abdullayeva // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – Buxoro, 2024. – №1 (13). – B. 149–153.

3. Abdullayeva, A. R. Nikoh yoshi oila mustahkamligini ta’minlashining ijtimoiy psixologik omili sifatida / A. R. Abdullayeva // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – 2025. – №2. – B. 33–36.

4. Абдуллаева, А. Р. Социально-психологические особенности брачного возраста для обеспечения стабильности семейных отношений / А. Р. Абдуллаева // Вестник интегративной психологии: журнал для психологов. – Ярославль, 2024. – Вып. 34, ч. 2. – С. 4–8..

Amirqulova Nargiza Amirqulovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: amirkulova@gmail.com

INGLIZ TILIDA QO'SHMA SO'ZLARNING MOHIYATI VA ULARNING TASNIFI MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning lingvistik mohiyati hamda ularning struktur, semantik va funksional tasnifi tahlil qilinadi. Tadqiqot IMRAD modeli asosida olib borilib, qo'shma so'zlarning morfologik birikish xususiyatlari, ma'no yaxlitligi va urg'u tizimi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida qo'shma so'zlar grafik shakli, tarkibiy modeli va semantik markazlashuvi asosida tasniflanadi. Shuningdek, endosentrik va ekzotsentrik turlarning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.*

Kalit so'zlar: *qo'shma so'z, kompozitsiya, ingliz tili, morfologiya, semantik tasnif, endosentrik, ekzotsentrik, urg'u tizimi.*

ВОПРОС ОСУЩНОСТИ И КЛАССИФИКАЦИИ СЛОЖНЫХ СЛОВ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье рассматривается лингвистическая сущность сложных слов английского языка и их структурная, семантическая и функциональная классификация. Исследование выполнено по модели IMRAD, в рамках которой анализируются морфологические особенности словообразования, семантическая целостность и акцентная система сложных слов. Результаты показали, что сложные слова в английском языке классифицируются по графическим, морфологическим и семантическим признакам. Также уточнены особенности эндоцентрических и экзоцентрических типов.*

Ключевые слова: *сложное слово, композиция, английский язык, морфология, семантическая классификация, эндоцентрический, экзоцентрический, ударение.*

THE ISSUE OF THE NATURE AND CLASSIFICATION OF COMPOUND WORDS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Abstract. *This article examines the linguistic nature of English compound words and analyzes their structural, semantic, and functional classification. The study is conducted according to the IMRAD model, focusing on morphological formation, semantic integrity, and stress patterns of compound words. The findings demonstrate that English compounds can be classified based on graphic form, structural model, and semantic headship. In addition, the specific features of endocentric and exocentric compounds are clarified.*

Keywords: *compound word, composition, English language, morphology, semantic classification, endocentric, exocentric, stress pattern.*

Kirish. Til tizimida so'z yasash jarayoni lug'aviy boylikni kengaytirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida bu jarayonning eng mahsuldor usullaridan biri kompozitsiya, ya'ni ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik birliklarning birlashuvi orqali yangi so'z hosil qilishdir. Qo'shma so'zlar (compound words) mazkur jarayon natijasida shakllanib, tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda yangi tushuncha va hodisalarni ixcham shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ilm-fan, texnologiya, ijtimoiy hayot va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar yangi qo'shma birliklarning paydo bo'lishini jadallashtirmoqda.

Qo'shma so'zlar ingliz tilshunosligida morfologiya va leksikologiya doirasida keng o'rganilgan bo'lib, ularning struktur tuzilishi, ma'no yaxlitligi va fonetik xususiyatlari turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchilar qo'shma so'zlarni aniqlashda ularning grafik shakli, tarkibiy komponentlari o'rtasidagi munosabat, semantik markazlashuv va urg'u tizimi kabi mezonlarga tayanadilar. Biroq amaliy tahlillarda ko'pincha qo'shma so'z bilan erkin so'z birikmasini


farqlash masalasi muammoli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli qo‘shma so‘zlarning mohiyatini kompleks yondashuv asosida o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Ingliz tilida qo‘shma so‘zlar struktur jihatdan turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ular yopiq, ochiq yoki chiziqchali shaklda yozilishi mumkin. Morfologik nuqtayi nazardan esa ot+ot, sifat+ot, fe’l+ot kabi modellar eng keng tarqalgan hisoblanadi. Semantik jihatdan esa endosentrik va ekzotsentrik birliklar ajratiladi. Endosentrik qo‘shma so‘zlarda ma’no komponentlardan biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, ekzotsentrik birliklarda umumiy ma’no tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Bu holat qo‘shma so‘zlarning semantik murakkabligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ingliz tilida urg‘u tizimi qo‘shma so‘zlarni aniqlashda muhim fonetik indikator vazifasini bajaradi. Odatda qo‘shma so‘zlarda asosiy urg‘u birinchi komponentga tushadi, bu esa ularni erkin birikmalardan farqlash imkonini beradi. Demak, qo‘shma so‘zlar nafaqat morfologik, balki fonologik va semantik jihatdan ham o‘ziga xos birliklar hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning mohiyatini aniqlash, ularning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilish hamda tasnif mezonlarini ilmiy asosda umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning struktur va semantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir necha lingvistik metodlardan foydalanildi. Avvalo, deskriptiv metod asosida qo‘shma so‘zlarning grafik shakllari va formal belgilari tavsiflandi. Ushbu yondashuv orqali yopiq, ochiq va chiziqchali shakllarning o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Struktur tahlil metodi yordamida qo‘shma so‘z tarkibidagi komponentlarning morfologik munosabati o‘rganildi hamda eng mahsuldor modellari (ot+ot, sifat+ot, fe’l+ot va boshqalar) belgilab olindi. Semantik tahlil jarayonida esa ma’no yaxlitligi, semantik markaz (head) va komponentlar o‘rtasidagi ma’no bog‘liqligi aniqlanib, endosentrik hamda ekzotsentrik turlar farqlandi.

Shuningdek, qiyosiy metod orqali turli lingvistik manbalarda berilgan tasnif modellarining o‘xshash va farqli jihatlari solishtirildi. Empirik material sifatida zamonaviy ingliz tilida keng qo‘llaniladigan qo‘shma so‘zlar tanlab olinib, ularning morfologik, semantik va fonetik xususiyatlari kompleks tahlil qilindi.



Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning struktur, morfologik va semantik xususiyatlari kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar qo‘shma so‘zlarni bir nechta mezon asosida tasniflash mumkinligini ko‘rsatdi hamda ularning lingvistik tabiati ko‘p qirrali ekanini tasdiqladi.

Avvalo, grafik mezon asosida qo‘shma so‘zlar uch asosiy turga ajratildi: yopiq (closed), ochiq (open) va chiziqchali (hyphenated) shakllar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ingliz tilida yopiq qo‘shma so‘zlar keng tarqalgan bo‘lib, ular bir butun shaklda yoziladi (masalan, *blackboard, classroom*). Ochiq qo‘shma so‘zlar esa ikki alohida so‘z shaklida yoziladi (*high school, washing machine*), biroq semantik jihatdan yagona tushunchani anglatadi. Chiziqchali shakllar (*mother-in-law, well-known*) esa oraliq tip sifatida namoyon bo‘lib, ko‘pincha aniqlik va o‘qish qulayligi uchun qo‘llanadi.

Morfologik tahlil natijalari ot+ot modeli eng mahsuldor konstruksiya ekanini ko‘rsatdi. Bu model orqali hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar predmet va tushunchalarni ifodalashda keng qo‘llanadi. Sifat+ot va fe’l+ot modellar ham faol hisoblanadi, biroq ularning mahsuldorlik darajasi nisbatan pastroq ekani kuzatildi. Shuningdek, fe’l+ravish modelida hosil bo‘lgan birliklar (masalan, *breakdown*) semantik jihatdan abstrakt ma’nolarni ifodalashga moyilligi bilan ajralib turadi.

Semantik mezon asosida qo‘shma so‘zlar endosentrik, ekzotsentrik va koordinativ turlarga ajratildi. Endosentrik birliklar son jihatidan ustunlik qiladi. Ularda ma’no markazi ichki komponentlardan biri bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi (*blackbird* - bu qush turi). Ekzotsentrik qo‘shma so‘zlarda esa umumiy ma’no tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisiga teng emas (*pickpocket*). Bu holat semantik ko‘chish va metaforik kengayish jarayoni bilan izohlanadi. Koordinativ qo‘shma so‘zlarda esa har ikki komponent teng semantik ahamiyatga ega (*bittersweet*).

Tasnif	Tur	Soni	%
Grafik	Closed	45	45%
	Open	30	30%
	Hyphenated	25	25%
Morfologik	N + N	50	50%
	Adj + N	30	30%
	V + N / boshqalar	20	20%
Semantik	Endocentric	60	60%
	Exocentric	25	25%
	Coordinative	15	15%

Fonetik tahlil shuni ko‘rsatdiki, qo‘shma so‘zlarda asosiy urg‘u ko‘pincha birinchi komponentga tushadi. Bu xususiyat ularni erkin so‘z birikmalaridan farqlashda muhim indikator vazifasini bajaradi. Masalan, ˈblackboard shaklida urg‘u birinchi komponentga tushsa, black ˈboard birikmasida urg‘u ikkinchi so‘zga ko‘chadi va bu erkin birikma sifatida talqin qilinadi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida tuzilgan jadval (Table 1) qo‘shma so‘zlarning asosiy tasnif turlari, ularning struktur xususiyatlari hamda namunaviy misollarini umumlashtiradi. Jadvaldan ko‘rinadiki, ingliz tilida qo‘shma so‘zlar ko‘p qatlamli lingvistik hodisa bo‘lib, ularni faqat bitta mezon asosida izohlash yetarli emas. Struktur, semantik va fonetik belgilar o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi va qo‘shma so‘zlarning til tizimidagi o‘rnini belgilaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning lingvistik mohiyatini aniqlash hamda ularni struktur, morfologik va semantik mezonlar asosida tasniflashga qaratildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qo‘shma so‘zlar ingliz tilida eng mahsuldor so‘z yasash usullaridan biri bo‘lib, tilning lug‘aviy boyligini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Kompozitsiya jarayoni orqali shakllangan bunday birliklar yangi tushunchalarni ixcham va aniq ifodalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari qo‘shma so‘zlarni faqat grafik shakliga qarab aniqlash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ularning mohiyati ko‘p qirrali bo‘lib, struktur tuzilish, semantik markazlashuv va fonetik xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Grafik tasnif yopiq, ochiq va chiziqchali shakllarni ajratishga yordam beradi, biroq bu mezon qo‘shma so‘zning ichki semantik munosabatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli morfologik va semantik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologik tahlil natijalariga ko‘ra, ot + ot modeli ingliz tilida eng mahsuldor konstruksiya hisoblanadi. Bu model orqali hosil bo‘lgan birliklar predmet va tushunchalarni nomlashda keng qo‘llanadi. Sifat + ot hamda fe’l + ot modellar ham faol qo‘llanilishiga qaramay, ularning mahsuldorlik darajasi nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi. Bu holat ingliz tilida nomlash jarayonida predmet markazli strukturalarning ustun ekanini ko‘rsatadi.

Semantik jihatdan esa endosentrik qo‘shma so‘zlar son jihatidan ustunlik qilishi aniqlandi. Bunday birliklarda ma’no markazi ichki komponentlardan biri bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ekzotsentrik qo‘shma so‘zlar esa semantik ko‘chish va metaforik kengayish natijasida yuzaga keladi hamda ma’no tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Koordinativ birliklar nisbatan kam uchrasa-da, stilistik va ekspressiv jihatdan ahamiyatlidir.

Fonetik mezon ham qo‘shma so‘zlarni aniqlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Ingliz tilida urg‘uning birinchi komponentga tushishi qo‘shma so‘zning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi va ularni erkin birikmalardan farqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, qo‘shma so‘zlar ingliz tilining struktur yaxlitligi, semantik integratsiyasi va funksional mustaqilligini aks ettiruvchi murakkab morfologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari kelgusida ingliz tilidagi so‘z yasash jarayonlarini yanada chuqurroq o‘rganish, ayniqsa zamonaviy texnologik va ijtimoiy sohalarda paydo bo‘layotgan yangi qo‘shma birliklarni tahlil qilish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bauer, L. English Word-Formation / L. Bauer. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 311 p.
2. Bloomfield, L. Language / L. Bloomfield. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933. – 564 p.
3. Huddleston, R. The Cambridge Grammar of the English Language / R. Huddleston, G. K. Pullum. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 1842 p.
4. Katamba, F. Morphology / F. Katamba. – London: Macmillan Press, 1993. – 354 p.
5. Marchand, H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation / H. Marchand. – München: C. H. Beck, 1969. – 545 p.
6. Plag, I. Word-Formation in English / I. Plag. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 240 p.
7. Quirk, R. A Comprehensive Grammar of the English Language / R. Quirk, S. Greenbaum, G. Leech, J. Svartvik. – London: Longman, 1985. – 1779 p.

Artikova Muslimaxon G‘ayratjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

OILA KONSEPTI TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “oila” konsepti tushunchasi, uning ijtimoiy-madaniy mazmuni hamda tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, oila konseptining til birliklari orqali ifodalanishi, lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar asosida o‘rganilishi keng yoritiladi. Oila tushunchasining milliy ong, qadriyatlar va til o‘rtasidagi bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *oila konsepti, tilshunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, konsept, milliy qadriyatlar, semantika.*

ПОНЯТИЕ СЕМЬИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется понятие «семья», его социокультурное содержание и роль в лингвистике. Также подробно рассматривается выражение понятия семьи через языковые единицы, его изучение на основе лингвокультурологического и когнитивного подходов. Научная основа объяснена связи между понятием семьи, национальным самосознанием, ценностями и языком.*

Ключевые слова: *понятие семьи, лингвистика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, понятие, национальные ценности, семантика.*

THE CONCEPT OF THE FAMILY CONCEPT AND ITS SIGNIFICANCE IN LINGUISTICS

Abstract. *This article analyzes the concept of the concept of "family", its socio-cultural content and role in linguistics. It also extensively covers the expression of the concept of family through language units, its study based on linguoculturological and cognitive approaches. The connection between the concept of family, national consciousness, values and language is explained on a scientific basis.*

Keywords: *family concept, linguistics, linguoculturology, cognitive linguistics, concept, national values, semantics.*

Kirish. Til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi zamonaviy tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Inson borliqni anglash jarayonida uni ma’lum tushunchalar va obrazlar orqali idrok etadi hamda ushbu bilimlarni til vositasida ifodalaydi. Shu jihatdan qaraganda, til nafaqat aloqa vositasi, balki inson ongida shakllangan bilimlar tizimining ifodachisi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan konsept tushunchasi ilmiy muomalaga kirib kelib, u til, tafakkur va madaniyatning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Bugungi kunda konseptologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlar inson ongidagi konseptual tizimni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda asosiy e’tibor milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarga qaratilmoqda. Ana shunday muhim konseptlardan biri “oila” konsepti hisoblanadi[1]. Oila insoniyat tarixida eng qadimiy ijtimoiy institutlardan biri sifatida shakllangan bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin egallab kelgan. Oila nafaqat biologik yoki iqtisodiy birlik, balki insonning ma’naviy, axloqiy va madaniy kamolotini ta’minlovchi muhit sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Konsept – bu inson ongida shakllangan, til orqali ifodalanadigan va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab semantik birlikdir. Har bir xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va turmush tarzi uning tilida aks etadi. Shu nuqtai nazardan, “oila” konsepti ham tilshunoslikda muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Oila insoniyat tarixida eng qadimiy ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, u nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy va madaniy hodisa sifatida ham o‘rganiladi. Til esa ana shu hodisani ifodalovchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir qator omillarga bog‘liq:

1) “oila” universal lingvistik-madaniy kontseptining yuqori ahamiyati;

2) ajratilgan kontseptni tavsiflashda mavjud tadqiqot yondashuvlarining yetishmasligi;

3) alohida konseptosferaning bir qismi bo‘lgan “oila” kontseptini batafsil va har tomonlama o‘rganish zarurati;

4) lingvokulturalarning “oila” tushunchasini mantiqiy talqin qilish zarurati[2].

Oila qon-qarindoshlari bilan bog‘liq bo‘lgan eng qadimgi ijtimoiy guruhdir. Ushbu etnikguruhnomini dunyoning turli tillarida boshqa nomlar bilan atash mumkin. Til va madaniyat turlimentalitet va nazariyalarni shakllantiradi, shuning uchun Sharq va G‘arbda oila tushunchasiningko‘plab xususiyatlari mavjud. Ingliz va o‘zbek oilalarida ushbu tushunchaning xususiyatlarilingvistik sohani o‘rganish uchun qiziqarli mavzudir. Ushbu maqolada mavjud jamiyatda oila tushunchasining ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oila konsepti va uning tilshunoslikdagi talqini masalasi zamonaviy lingvistikaning turli yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan. Xususan, kognitiv tilshunoslik vakillari konseptni inson ongidagi bilimlar tizimining asosiy birligi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvda oila konsepti insonning ijtimoiy tajribasi va individual dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Konseptlar tizimi orqali inson borliqni idrok etadi va uni til orqali ifodalaydi, shu sababli oila konsepti ham milliy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda oila konsepti madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlar oila tushunchasining har bir xalqda o‘ziga xos qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy me’yorlar asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar til birliklari orqali milliy madaniyatning aks etishini asoslab, oila konseptini madaniy kod sifatida talqin qiladilar. Ayniqsa, maqollar, matallar, frazeologizmlar va badiiy matnlar oila haqidagi kollektiv tasavvurlarni ifodalovchi muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy ilmiy ishlarda diskurs tahlili ham muhim o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishda oila konsepti turli kommunikativ vaziyatlarda qanday ifodalanishi, nutq jarayonida qanday ma’no yuklamalariga ega bo‘lishi o‘rganiladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va badiiy adabiyotlarda oila obrazining transformatsiyasi tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Bu esa oila konseptining statik emas, balki dinamik hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, qiyosiy-tipologik tadqiqotlarda turli tillarda oila konseptining ifodalanishi o‘rganilib, umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Bu turdagi tahlillar madaniyatlararo kommunikatsiya muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar oila konseptini ko‘p qirrali, murakkab va dinamik tizim sifatida baholaydi hamda uni turli lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda oila konseptini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish uchun kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida kognitiv, lingvokulturologik va semantik tahlil metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi, bu esa oila konseptining turli jihatlarini chuqur yoritish imkonini berdi. Kognitiv tahlil metodi orqali oila konseptining inson ongidagi tuzilishi, uning freym va ssenariylar asosida shakllanishi o‘rganildi. Bu metod yordamida oila bilan bog‘liq bilimlar tizimi va ularning til birliklarida aks etishi tahlil qilindi. Natijada konseptning mental modeli va uning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi. Lingvokulturologik metod oila konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv doirasida til birliklari orqali o‘zbek xalqining oila haqidagi tasavvurlari, qadriyatlari va an’analari tahlil qilindi. Maqollar, iboralar va marosimlarga oid leksik birliklar asosiy empirik material sifatida tanlab olindi. Semantik tahlil metodi yordamida oila konseptining mazmuniy maydoni aniqlanib, uning asosiy va qo‘shimcha ma’nolari o‘rganildi. Bu jarayonda leksik birliklarning konnotativ va denotativ ma’nolari, shuningdek, ularning nutqdagi funksional xususiyatlari ko‘rib chiqildi. Diskurs tahlili metodi orqali oila konseptining turli nutq kontekstlarida ifodalanishi va uning kommunikativ vazifalari o‘rganildi. Bu metod oila tushunchasining ijtimoiy va pragmatik jihatlarini ochib berishga yordam berdi. Ayniqsa, zamonaviy matnlar asosida oila konseptining transformatsiyasi tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar uyg‘unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, oila konseptining tilshunoslikdagi o‘rnini har tomonlama ochib berishga imkon yaratdi.

Muhokama va natijalar. So‘nggi o‘n yilliklarda til shaxsining “madaniy o‘ziga xosligini” o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi aloqaning tadqiqot obyekti sifatida o‘zaro bog‘liq bo'lgan ikkita ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilingan bo‘lib, madaniy ma’lumotlarning eksplikatsiyasiga, leksik birliklarda mavjud bo‘lgan madaniy bilimlarni og‘zaki ifoda etish mexanizmlariga katta e’tibor beradi.

N.D.Arutyunova, B.C.Barulin, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, G.V.Kolshanskiy, E.S.Kubryakova, D.S.Lixachev, V.A.Maslova, G.G.Slishkin, Y.S.Stepanov kabi bir qator rus tilshunoslari bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Shuningdek, ularning tadqiqot ishlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va boshqa tabiiy-gumanitar fanlarning kontseptual apparatida mavjud bo‘lgan birliklarning universalligi bilan bog‘liq. Ulardan biri “oila” universal konseptidir.

Oila umuminsoniy “universallik” bo‘lib, ijtimoiy hayotning yagona mumkin bo‘lgan shakli bo‘lib, juda o‘zgaruvchan bo‘lsa-da, milliy o‘ziga xoslikka ega. “Oila” jamiyat birligi rolini o‘ynab, xalqlar hayotining ijtimoiy, huquqiy, demografik, madaniy tomonlarini aks ettiruvchi oynadir. Turli xil ijtimoiy qatlamlar va tabaqalarning ko'plab oilalari butun jamiyatni tashkil qiladi va ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkab ko‘rinishini aks ettiradi".

Oila konsepti - bu "oila" tushunchasi atrofida shakllangan, inson ongi va madaniyatida o‘z aksini topgan kompleks fikrlash tarzi, ijtimoiy-madaniy va lingvistik tushunchadir[3]. Bu shunchaki birga yashaydigan odamlar guruhi emas, balki til va madaniyatda muqaddaslik, qarindoshlik, nasl va an'analar kabi ma'nolarni o'z ichiga olgan barqaror tushuncha hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan oila va nikoh xulq-atvori me’yorlari, boshqa institutsional me’yorlar singari, odamlarning turmush tarzi va fikrlash tarzini ma’lum bir yo‘nalishga yo‘naltiradigan shartsiz an’analarga aylanadi. O‘zbek milliy madaniyatida oila jamiyatning ajralmas qismi hisoblanib, milliy qadriyatlar va an’analarning aksariyati shu bo‘g‘inda boshlanib, namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Oila insoniyat jamiyatining eng muhim va asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. Oila konsepti turli madaniyatlar, dinlar va falsafiy qarashlarda turlicha talqin qilinsa-da, uning asosiy maqsadi va ahamiyati deyarli barcha jamiyatlarda bir xil ahamiyat kasb etadi. Oilada insonning ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi – ijtimoiy tushunchalar, bilim, va ko‘nikmalar, baho berish va mafkura, urf-odatlar shakllantiriladi. Har bir tilning leksik boyligini ko‘rsatuvchi manba bu lug‘at fondi hisoblanadi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da “oila” tushunchasiga quyidagicha izohlar berilgan” “Nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orning birligi, o‘zaro yordami ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan”[1] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da esa “oila” leksemasining quyidagi ma’nolari qayd etilgan:

1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. Masalan: Ahil oila. San’atkorlar oilasi. Oila boshlig‘i.

2. (ko‘chma) Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar. Masalan: O‘zbekistonda turli millat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqdalar. Gazetadan

3. O‘simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshash, kelib chiqish jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh. Masalan: Dukkaklilar oilasi. O‘rdaktumshuqlilar oilasi.

4. Qardosh tillar guruhi. Masalan: Oltoy tillar oilasi. Som-hom tillari oilasi.

5 s. t. Rafiqa, xotin. Masalan: Oilam maktabda o‘qituvchi[4].

Oila konseptining nominativ, asosiy ma’nosi – qonga (qarindoshlar) yaqin odamlar guruhidir. Oilani bir-biriga nikoh yoki qarindoshlik, shuningdek, umumiy uy-ro‘zg‘or munosabatlari, o‘zaroyordam va bir-birlari oldidagi o‘zaro mas'uliyat bilan bog‘langan odamlar guruhi deb ta'riflaydi". To‘g‘ridan to‘g‘ri, ya'ni so‘zma-so‘z ma'noda, bu turmush o‘rtog‘i, bolalari, ota-onalari vaboshqalar. Boshqacha qilib aytganda, "Oila" tushunchasi birga yashaydigan odamlarni tegishlichiziq bo‘ylab birlashtiradi. "Oila" umumiy manfaatlar bilan birlashtirilgan, sevgi yoki

do‘stlikhissi bilan birlashtirilgan odamlar guruhi yoki tashkilotidan iborat. Bu maktab/universitet oilasi, do‘stlar oilasi, hamkasblar.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, shuni tushunishimiz mumkinki, oila har doim birlashgan va jips bo‘lgan a’zolardan iborat bo‘ladi. Shu tariqa, oilaning asosiy mohiyati va tamoyili – birlik va birlashuvdir.

“Oila” konsepti inson ongida shakllangan ko‘p qatlamli tushuncha bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

a) ijtimoiy birlik (ota-ona, farzandlar, qarindoshlar)

b) ma’naviy qadriyatlar (mehr, hurmat, sadoqat)

c) madaniy an’analar (urf-odatlar, marosimlar)

d) axloqiy me’yorlar (mas’uliyat, burch)

Oila konsepti nafaqat biologik yoki huquqiy birlikni, balki chuqur ma’naviy mazmunni ham ifodalaydi. Har bir millatda oila tushunchasi o‘ziga xos tarzda shakllanadi va bu farqlar til birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “ota”, “ona”, “aka”, “opa”, “uka”, “singil” kabi qarindoshlik terminlarining keng va aniq tizimi mavjud bo‘lib, bu oila munosabatlarining nozik jihatlarini ifodalaydi.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Oila konsepti ushbu yo‘nalishda eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqida oila muqaddas qadriyat sifatida qaraladi. Bu quyidagi til birliklarida o‘z aksini topadi:

a) maqollar: “Oila – davlat tayanchi”, “Ota rozi – Xudo rozi”

b) iboralar: “oila qurmoq”, “oila boshlig‘i”, “oila sha’ni”

c) marosimlarga oid leksika: “nikoh”, “to‘y”, “kelin salom”[5].

Bu birliklar orqali oila konseptining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati ifodalanadi. Til oila haqidagi qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, oila konsepti nutq ishtirokchilarining kommunikativ niyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inson oila bilan bog‘liq tushunchalarni qo‘llar ekan, u nafaqat axborot uzatadi, balki o‘zining ijtimoiy pozitsiyasi, hissiy munosabati va madaniy identifikatsiyasini ham ifodalaydi. Shu bois oila konsepti nutqning yashirin ma’nolari, implikaturalari va presuppozitsiyalarini ochishda muhim kalit vazifasini bajaradi.

Kognitiv semantika doirasida oila konsepti freym va ssenariylar orqali shakllanadi. Inson ongida oila bilan bog‘liq vaziyatlar muayyan ssenariylar asosida saqlanadi va til orqali faollashadi[6]. Masalan, nikoh jarayoni, farzand tarbiyasi yoki avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar haqida gap ketganda, ushbu ssenariylar avtomatik ravishda ishga tushadi. Bu esa til birliklarining tushunilishini tezlashtiradi va kommunikatsiyani samarali qiladi.

Oila konsepti gender lingvistika nuqtai nazaridan ham muhim tadqiqot obyektidir. Turli tillarda erkak va ayol rollarining til orqali ifodalanishi oila haqidagi stereotiplarni shakllantiradi. Masalan, ayrim tillarda erkak oilaning boshqaruvchisi sifatida, ayol esa tarbiyachi sifatida ko‘proq tasvirlanadi. Bu holat tilning ijtimoiy ongga ta’sirini va oila konseptining ideologik jihatlarini ochib beradi. Shuningdek, oila konsepti diaxronik jihatdan ham o‘zgaruvchan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan uning mazmuni kengayib yoki torayib boradi. An’anaviy jamiyatlarda oila keng qarindoshlik tizimini anglatgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda u ko‘proq yadro shaklida talqin etilmoqda. Bu o‘zgarishlar til tizimida yangi birliklar va ma’nolar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Tilshunoslikda oila konseptini o‘rganish madaniyatlararo kommunikatsiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Turli xalqlarda oila haqidagi tasavvurlar farq qilgani sababli, bu tushunchaning noto‘g‘ri talqin qilinishi kommunikativ to‘siqlarga olib kelishi mumkin. Shu bois konseptual tahlil yordamida oila tushunchasining milliy xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, oila konsepti tilshunoslikda faqatgina so‘z yoki ibora darajasida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Uni chuqur o‘rganish tilning ichki mexanizmlarini, inson ongining ishlash prinsiplari va jamiyatdagi o‘zgarishlarni anglash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oila konsepti murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. Oila inson hayotining ajralmas qismi sifatida til orqali

ifodalanadi va madaniyat bilan uzviy bog‘liqdir. Til birliklari orqali oila haqidagi tasavvurlar, qadriyatlar va an’analar aks ettiriladi. Zamonaviy tilshunoslikda oila konseptini lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar asosida o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat tilni, balki inson tafakkuri va madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Oila konsepti diskursiv jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u turli nutq janrlarida turlicha mazmun kasb etadi. Masalan, badiiy matnlarda oila obrazi ko‘proq emotsional-ekspressiv vositalar orqali ifodalansa, rasmiy-huquqiy matnlarda u aniq me’yoriy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Publitsistik nutqda esa oila konsepti ijtimoiy muammolar, qadriyatlar inqirozi yoki ma’naviy tiklanish bilan bog‘liq holda yoritiladi. Bu esa konseptning til tizimidagi dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hojiyev, A. O‘zbek tilshunosligi terminlari izohli lug‘ati / A. Hojiyev. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 165 b.
2. Mahmudov, N. Til va tafakkur / N. Mahmudov. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2019. – 152 b.
3. Nurmonov, A. O‘zbek tilshunosligi nazariyasi / A. Nurmonov. – Toshkent: Fan, 2012. – 186 b.
4. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili / Sh. Rahmatullayev. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
5. Safarov, Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari / Sh. Safarov. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 160 b.
6. Yo‘ldoshev, B. Lingvokulturologiya asoslari / B. Yo‘ldoshev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 208 b.

Atamurodova Feruza Tashmurotovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
E-mail: feruza_atamurodova77@gmail.com

XX ASR INGLIZ REALIZM ROMANI: JANR DIFFERENSIYASI VA DRAMATIK-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr ingliz realistik romanining janriy xilma-xilligi, uning tipologik xususiyatlari hamda dramatik-estetik tabiati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda realizm va modernizm o‘rtasidagi qarama-qarshilik, shuningdek, shaxs va jamiyat munosabatining badiiy aks etish shakllari yoritiladi. Maqolada fojia va satira uyg‘unligi, dramatik konfliktlarning shakllanishi hamda zamonaviy roman evolyutsiyasi masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *realistik roman, modernizm, janr differensiyasi, dramatizm, fojia, satira, ingliz adabiyoti, shaxs va jamiyat, ijtimoiy roman, personal roman, estetik sintez*

XX ВЕК АНГЛИЙСКОГО РЕАЛИСТИЧЕСКОГО РОМАНА: ЖАНРОВАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ И ДРАМАТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ жанрового разнообразия английского реалистического романа XX века, его типологических особенностей, а также драматико-эстетической природы. Особое внимание уделяется синтезу трагического и сатирического, формированию драматических конфликтов и эволюции современного романа.*

Ключевые слова:*реалистический роман, модернизм, жанровая дифференциация, драматизм, трагедия, сатира, английская литература, личность и общество, социальный роман, персональный роман, эстетический синтез*

THE 20TH CENTURY ENGLISH REALIST NOVEL: GENRE DIFFERENTIATION AND DRAMATIC-AESTHETIC FEATURES

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the genre diversity of the 20th-century English realist novel, its typological features, and its dramatic-aesthetic nature. The study examines the opposition between realism and modernism, as well as the artistic representation of the relationship between the individual and society. Particular attention is given to the synthesis of tragedy and satire, the formation of dramatic conflicts, and the evolution of the modern novel.*

Keywords: *realist novel, modernism, genre differentiation, dramatism, tragedy, satire, English literature, individual and society, social novel, personal novel, aesthetic synthesis.*

Kirish. XX asr ingliz romanida janr xilma-xilligi rivoji, roman tuzilishining epik-dramatik xususiyatlari turlanishi sifatida, muayyan tipologik alomatlarga ega. Adabiyotni tipologik o‘rganish zarurati, adabiy jarayonda umumiylik va xususiylikning o‘zaro munosabati masalalarini tadqiq etish haqida so‘z yuritib, M.B.Xrapchenko shunday qayd etgan: “So‘z san'atkorlarining o‘ziga xosliklari ular o‘rtasida ichki aloqalar mavjud emas, aslo ularning asarlarida umumiy asos va tendentsiyalar namoyon bo‘lmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Bu umumiy asos va tendentsiyalar nafaqat mavjud, balki ular turli shakllarda namoyon bo‘lib, adabiy jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz, masalan, milliy adabiyot, uning rivoji haqida so‘z yuritarkanmiz, ko‘plab yirik va uncha mashhur bo‘lmagan yozuvchilarning ijodini qay tarzda nazarda tutsak, turli-tuman adabiy hodisalarga xos bo‘lgan umumiylikni ham shunday nazarda tutamiz” .[1]

San'atning modernistik kontseptsiyasi o‘zining g‘oyaviy mazmuni, jamiyat va insonga munosabati, hayotiy konfliktlar talqiniga ko‘ra realistik san'at kontseptsiyasidan tubdan farq qiladi. Bu ikki inson kontseptsiyalarining qarama-qarshiligi realistik romanning modernistik romanga

[1] Храпченко М.Б.Творческая индивидуалность писателя и развитие литературы. - М.: 1972. - С. 241- 242.

zidligi, ularning o‘zaro kurashida aks etadi. Realist-yozuvchilar jo‘shqin, keskin burilishlarga doir voqealarni va ijtimoiy siljishlarni ijtimoiy dramalar sifatida ko‘rsatadi. Angliyada dramatik roman asosan realistik san'at yo‘lida rivojlandi . [1]Hatto realist bo‘lmagan dramatik romanlar mualliflari ham, to‘la ma'noda, ushbu badiiy metodga muayyan darajada intiladi. Realistik roman ommaviy adabiyot: shov-shuvli bestsellerlar va jangarilar, atom bilan bog‘liq utopiyalar, g‘ayrikommunistik detektivlar, uy bekalari o‘qiydigan xom, g‘o‘r va freydcha ruhiy tahlil qoralamalari orasidan o‘ziga yo‘l ochadi.

Adabiyotlar sharxi. D.Quronov, «So‘nggi yillarda adabiyot qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida bahslar yuritilmoqdaki, kimdir u ommaviy bo‘lishi kerak deb ta'kidlasa, boshqa olimlar adabiyot elitar bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Ikkinchi tomon tarafdorlari adabiyot ommaviy bo‘lishiga butunlay qarshi, birinchi tomon tarafdorlari esa, agar adabiyot faqat o‘ta aqllilar uchun yaratilsa, u holda adabiyot o‘zining jamiyatdagi ahamiyatini butunlay yo‘qotadi, deb hisoblaydi. Birinchi ko‘rinishda bu bahs hech qachon barham topmaydigandaydek, lekin bizning fikrimizcha muammoning yechimi kelishuvdir» , deb ta'kidlaydi. Albatta, ommaviy adabiyotda juda sayoz va zararli mahsulotlar bilan birga umuminsoniyat uchun juda kerakli masalalar ham mavjud ekanligiga ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Davrning asosiy kolliziyalari - jahon urushlari, inqiloblar, ishchilar sinfining kurashi, kapitalistik jamiyatdagi begonalashuv - realistik romanda shunday dramatik konfliktlarda tasvirlanadiki, ular fojeaviylik va komiklikning murakkab uyg‘unlashuvini namoyon etadi. Ingliz adabiyotida satira va yumor an'anasi ustunlik qiladi, degan umum tomonidan e'tirof etilgan nuqtai nazar ayrim tuzatishlarni taqozo etadi. XX asr ingliz realistik romanida dramatik va tragik strukturaga intilish tobora kuchayib borgani kuzatiladi va bu jihatlar satira unsurlari bilan mos, muvofiq keladi. Fojeaviy roman yaratish niyati har doim ham muvaffaqiyatli chiqmasligi esa boshqa masala.

Metodologiya. Asosan e'tibor XX asr ingliz realistik romaniga qaratilsa, unda o‘ziga xos xususiyat - fojeaviylik va satira uyg‘unligini kuzatish mumkin. Romanda burjua olamidagi ijtimoiy-siyosiy konfliktlar tasviri bilan bog‘liq ravishda tez-tez original badiiy hodisalar - fojeaviylik va fars (qo‘pol, qaltis hazil, hayosizlik) uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Burjuaziya endi fojeali ulug‘vorlikka davo qilolmaydi. Bu esa burjuaziyaning sinf sifatidagi tarixiy mohiyatiga mos holatki, uning mavjudligi allaqachon farsga aylangan edi. Biroq zamonaviy burjua jamiyatida kapitalizmga qarshi isyon ko‘tarayotgan va norozilik bildirayotganlarning taqdiri dramatik holatda kechdi. Shu boisdan ham o‘tgan asr g‘arb romanida fojeaviylik asosi tabiiydir. Biroq agar burjuaziya tartib-qoidalariga qarshi noroziliklar kapitalizm sistemasini butunlay inkor etishdan iborat bo‘lmasa-da, shunga qaramay qahramonning isyoni burjuaziya individualizmidan xoli emas edi. XX asr ingliz realistik romanidagi fojeaviylik aksar hollarda melodramatik tus oladi va karikaturali-fojeaviy, fojeaviy fars hamda fojeaviy mubolag‘aga aylanishi mumkin. Fojea va farsning sintezi ijtimoiy voqelikning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat hayotiy voqealarni badiiy o‘zlashtirish usulini oldindan belgilab beradi. Yangi hodisa - fojeaviy fars - ingliz romanida tobora keng o‘rin egallab, uning estetik o‘ziga xosligini belgilaydi.

Ingliz yozuvchisi, sotsiolog va adabiyotshunos Reymond Uilyams “Realizm va zamonaviy roman” (1959) maqolasida Angliyada zamonaviy realistik roman tipologiyasi, uning janr tasnifi haqida qiziqarli fikrlarni aytgan. U romanda individ (alohida shaxs) va jamiyat munosabati keng tasvirlanishidan kelib chiqib fikr yuritadi. Realistik romanda individga ham, jamiyatga ham birdek e'tibor qaratiladi; shu tariqa shaxs va jamiyat munosabatining yaxlit manzarasi yaratiladi. Biroq o‘tgan asr zamonaviy romanida jamiyatda begonalashishning kuchayishi, shaxs va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning uzilishi chuqurlashgani, individ va jamiyatning bir-biriga qarama-qarshi g‘oyalarga aylanishi oqibatida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxlit realistik manzarasiga putur yetdi. Zamonaviy romandagi janr differentsiyasi, ya'ni farq yoxud tabaqalanishning boisi shunda. Uilyamsning fikricha, XX asr ingliz realistik romani tarixida ikkita yetakchi oqim mavjud: bular ijtimoiy roman va “personal” roman (shaxs haqida roman, psixologik roman). Bu differentsiatsiya individ va jamiyat munosabatida tomonlardan biriga berilgan muayyan urg‘u bilan bog‘liq. Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bunday munosabat roman janrida doimo bo‘ladi va

[1] Аникин В.Г. Современный английский роман. – Свердловск: 1971.

uning mavjudligi ham shu bilan izohlanadi. Biroq bu munosabatning badiiy asarda qayta yaratilishida muayyan xilma-xilliklar kuzatiladi. Ijtimoiy romanda urg‘u jamiyatga qaratilgan, shaxs esa bu yerda faqat jamiyat hayoti aspektida ko‘rsatilgan. “Personal” romanda shaxslar va jamiyat faqat shaxs hayoti aspektida tasvirlanadi. O‘z navbatida, bu ikki tip o‘zining qism-bo‘limlariga ega. Ijtimoiy roman ijtimoiy-tavsifiy (bayonchilik), hujjatli (Charlz Snou asarlari) va ijtimoiy roman-formulaga (Uilyam Golding asarlari) ajraladi. Ijtimoiy-tavsifiy romanda jamiyat hayotining umumiy oqimi, muayyan bir muhit - ishchilar, universitet, savdo muhiti tasvirlanadi. Ijtimoiy roman-formulada jamiyat muayyan bir tuzilish, qurilma, jamiyat haqida g‘oyalar nuqtai nazaridan ko‘rsatiladi. “Personal” roman o‘xshash - personalь-tavsifiy (Edvard Morgan Forster) va maxsus roman-formula qism-bo‘limlarga ega. Birinchi ko‘rinishida odatdagi hayot va individ xarakteri tavsiflanadi, ikkinchisida - odam qandaydir formulalar, problemalar nuqtai nazaridan kuzatiladi. Reymond Uilьyams zamonaviy ingliz romanidagi bu ikki - ijtimoiy va “personal” - oqimlarning jamiyatning o‘zidagi inqirozni bartaraf etish va “yangi realizm”ni yaratish asosida birlashishini yoqlab chiqdi.

O‘tgan asr adabiy kurashlarida realistik pozitsiyani izchil egallab kelayotgan ingliz yozuvchilari ingliz romani taraqqiyotining asosiy yo‘lini shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ob'ektiv tasviri printsiplariga sodiqlikda ko‘radilar. Masalan, Charlz Snou G‘arb adabiyotida modernistik “sindrom”ga qarshi matbuotda qator chiqishlar qildi. “Intellektga da'vat” (1958) maqolasida Snou modernizmning “qadriyatlar” tizimini: “intellektualning begonalashuvi, aksilroman estetikasi, umumlashadigan intellektdan voz kechish, ilmiy-texnika inqilobiga nafrat, so‘z nayranglarini sharaflash, jamiyatdan begonalashish”ni qat'iy rad etdi.[1] Ch.Snou aksilroman estetikasini realistik roman nazariyasiga qarama-qarshi qo‘yadi. Inson xarakterisiz, Snou fikricha, roman yo‘q. Buyuk romanchilar inson qalbining sirli qa'rilariga intilganlar; ular inson zoti hayratlanarli darajada o‘ziga xoslikda bitmas-tuganmasligini bilgan holda yangidan-yangi badiiy kashfiyotlarga qo‘l urdilar. Roman - bu nafaqat ko‘z o‘ngimizdan o‘tadigan hayotni ko‘rsatishga, balki shu hayot haqidagi fikr-mulohazalarni, u haqdagi hukm-xulosalarni yetkazishga ham qodir badiiy shakldir.

Ingliz yozuvchisi va tanqidchisi Malkolm Bredberining “Imkoniyatlar. Romanning ahvoli haqida ocherklar” (1973)[2] kitobi Angliyada realistik roman taqdiriga jiddiy e'tibor qaratilgani bilan ajralib turadi. Unda ingliz romani ahvoli amerika va frantsuz romani bilan bog‘lab, qiyosiy tahlil etilgan. Bredberi chet ellik adabiyotshunoslarning ishlarida xiyla keng yoyilgan tasavvur - XX asr ingliz romani roman sifatida kam qiziqtirishi, AQSh va Frantsiya romanlariga nisbatan “poytaxtdan uzoqdaligi”, ya'ni qoloq, orqada qolganligi haqidagi qarashlarni tanqid qiladi. Burjuaziya tanqidchilari ingliz romanini realistik an'analarni davom ettirayotganiga asoslanib, uning qimmatini shubha ostiga oladi; ular buni eskirgan va zamonaviy o‘quvchiga keraksiz, deb hisoblaydi. Tanqidchilar amerika va frantsuz adabiyotini nisbatan yuqori baholarkan, ular bu adabiyotlarda ijodiy tajribalar amalga oshirilayotgani va uslub sohasida moderncha izlanishlar qilinayotganiga asoslanadilar. Bredberining o‘zi esa, ingliz romanini afzal, deb biladi, chunki u asosan realistik prozadir. Biroq Bredberi realizm himoyasida izchil emas. U zamonaviy ingliz romani o‘zgarib, yangilanib borayotganini, ingliz romani XX asr romani shakllarini ko‘r-ko‘rona takrorlamayotganini to‘g‘ri ta'kidlarkan, ayni paytda tadqiqotchi bu o‘zgarish, yangilanishni realizm va modernizmning qandaydir yangicha sintezida ko‘rayotganiga moyillik bildiradi. Shu tariqa u realistik va modernistik tendentsiyalarning bir-biriga mos kelmagan, aksincha qarama-qarshiligi aks etgan asarlarni mutlaqlashtiradi, o‘zining ingliz romanining salohiyati uning realistik ekanida, degan dastlabki ishonchli tezisidan chekinadi va ayrim ingliz romanchilari amerikacha “qaltis yumor” va frantsuz “yangi romani” darajasiga “ko‘tarilayotgani”ni asoslashga kirishadi.

Natija. Angliyadagi XX asr realistik romani nafaqat Britaniya oroli hayotiga taalluqli dramatizmni, shu bilan birga butun jahonda ro‘y berayotgan siljishlar va o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Shu sababli dramatik va fojeali konfliktlarning ijtimoiy zamini ingliz hayot tarzidan iborat bo‘lib qolmaydi, balki britan imperiyasidagi va butun jahondagi voqealar tasviridan tashkil topadi.

[1] Snow C. P. Challenge to the Intellect. - The Times Literary Supplement, 1958, August 15, Book in a Changing World, p. 3.

[2] Bradbury Malcolm. Possibilities. Essays on the State of the Novel. - Oxf. Univ. Press, 1973.

Angliyaning o‘zi, Yevropa mintaqasi mamlakatlari qatori bunday halokatli lahzalarni kechirmagan bo‘lsa-da, XX asr jahon tarixining bo‘ronli voqealariga tortilgan edi (jahon urushlari, mustamlakachilik urushlaridagi ishtiroki; Britaniya imperiyasining qulashi va h.k.).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asr ingliz realistik romani murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlar fonida shakllangan bo‘lib, unda janr xilma-xilligi va estetik izlanishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr romanida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar markaziy o‘rinni egallab, dramatik hamda fojiali unsurlar bilan boyitilgan. Realizm va modernizm o‘rtasidagi kurash esa roman taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, fojia va satiraning sintezi ingliz romani uchun xos bo‘lgan muhim badiiy hodisa sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Храпченко М. Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: 1972. – С. 280.
2. Аникин В. Г. Современный английский роман. – Свердловск: 1971.
3. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: А. Қодирий халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 250.
4. Williams Raymond Realism and the Contemporary Novel. - In: The Long Revolution. – New York, 1966.
5. Snow C. P. Challenge to the Intellect // The Times Literary Supplement. – 1958. – August 15. – Book in a Changing World. – P. 309.
6. Bradbury Malcolm Possibilities. Essays on the State of the Novel. – Oxford: Oxford University Press, 1973.
7. Атамуродова Ф. Т. Художественный конфликт в английском романе XX века // Электронный научный журнал. – 2020. – № 1. – С. 30–35.
8. Atamurodova F. T. The Origin and Development of English Novel: A Descriptive Literature Review // Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda konseptual tahlil muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – November.

Boltayev Chutkul Boltayevich
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: chutkul@mail.ru

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA CHET TILINI O‘QITISHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Abstract. *Mazkur ilmiy maqolada sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimida, xususan chet tilini o‘qitish jarayonida tutgan o‘rni, uning pedagogik imkoniyatlari hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonining individuallashtirilishi va adaptiv yondashuvlarning keng joriy etilishi AI texnologiyalarini chet tilini o‘qitish metodikasining muhim tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Tadqiqot davomida sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalarining funksional imkoniyatlari, ularning shaxsiylashtirilgan o‘qitish (personalized learning) jarayonidagi o‘rni hamda o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini - tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, AI tizimlarining real vaqt rejimida feedback berish, adaptiv o‘quv materiallarini taqdim etish va o‘quv jarayonini optimallashtirishdagi imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, chet tilini o‘qitish, individual ta’lim, adaptiv tizimlar, raqamli pedagogika.*

ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Abstract. *This scientific article comprehensively analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in the modern education system, in particular in the process of teaching a foreign language, its pedagogical capabilities and problems arising in practice. In the context of digital transformation, the individualization of the educational process and the widespread introduction of adaptive approaches are making AI technologies an important component of foreign language teaching methodology. During the research, the functional capabilities of artificial intelligence-based educational platforms, their role in the process of personalized learning, and their effectiveness in developing students' linguistic competencies - listening comprehension, speaking, reading and writing skills were studied. Also, the capabilities of AI systems to provide real-time feedback, provide adaptive educational materials, and optimize the learning process were scientifically analyzed.*

Keywords: *artificial intelligence, foreign language teaching, individual education, adaptive systems, digital pedagogy.*

PROSPECTS AND CHALLENGES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Аннотация. *В данной научной статье всесторонне анализируется роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современной системе образования, в частности в процессе обучения иностранному языку, их педагогические возможности и проблемы, возникающие на практике. В контексте цифровой трансформации индивидуализация образовательного процесса и широкое внедрение адаптивных подходов делают технологии ИИ важной составляющей методики преподавания иностранных языков. В ходе исследования были изучены функциональные возможности образовательных платформ на основе искусственного интеллекта, их роль в процессе персонализированного обучения и эффективность в развитии языковых компетенций учащихся – навыков аудирования, говорения, чтения и письма. Также был проведен научный анализ возможностей систем ИИ по предоставлению обратной связи в реальном времени, созданию адаптивных учебных материалов и оптимизации учебного процесса.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, индивидуальное образование, адаптивные системы, цифровая педагогика.*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Globalizatsiya sharoitida chet tillarini bilish zarurati ortib borayotganligi sababli, til o‘qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish muhim masalaga aylangan.

An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuvni taklif etadi, bu esa individual ehtiyojlarni to‘liq qondirmaydi. Shu nuqtai nazardan, AI asosidagi ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va o‘rganish tezligiga moslashgan holda ta’lim berish imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi - sun’iy intellekt texnologiyalarining chet tilini o‘qitishdagi istiqbollari va muammolarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.


Metod. Tadqiqotda sifat va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar, zamonaviy AI platformalar va ularning pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, an’anaviy va AI asosidagi o‘qitish usullari o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

Ma’lumotlar quyidagi manbalar asosida yig‘ildi:

- ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari
- AI asosidagi ta’lim platformalari (til o‘rganish ilovalari)
- amaliy kuzatuvlar va tajribalar

Tahlil jarayonida AI texnologiyalarining samaradorligi, o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasiga ta’siri baholandi.

Asosiy qism. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining chet tilini o‘qitishda quyidagi asosiy imkoniyatlarini ko‘rsatdi:



Shaxslashtirilgan ta`lim. Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlarining eng muhim afzalliklaridan biri shaxsiylashtirilgan o‘qitish imkoniyatini ta’minlashidir. Mazkur tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati, xatolar dinamikasi hamda o‘rganish strategiyalarini tahlil qilish orqali individual o‘quv trayektoriyasini shakllantiradi. Natijada har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan o‘quv materiali, topshiriqlar va metodik yondashuvlar taklif etiladi. Bunday adaptiv yondashuv o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki u o‘quvchining individual ehtiyojlariga maksimal darajada mos keladi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi [1, 15].

Interaktivlik va real vaqtli feedback. AI texnologiyalarining yana bir muhim jihati interaktivlik va tezkor (real vaqtli) fikr-mulohaza (feedback) mexanizmlarining mavjudligidir. Sun’iy intellekt asosidagi ilovalar o‘quvchilarning bajarilgan topshiriqlarini avtomatik tahlil qilib, darhol xatolarni aniqlaydi va ularni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Ayniqsa, talaffuzni rivojlantirishda nutqni aniqlash (speech recognition) texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, grammatik xatolarni aniqlash va ularni izohlash imkoniyati o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tezkor feedback o‘quv jarayonini dinamik va samarali qiladi.

Til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish. Sun’iy intellekt texnologiyalari chet tilini o‘rganishda to‘rtta asosiy ko‘nikma - tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o‘qish (reading) va yozish (writing) - ni integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi. Multimodal ta’lim muhiti orqali o‘quvchilar audio, video, matn va interaktiv topshiriqlar bilan ishlaydi. Bu esa tilni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy kommunikativ kontekstda ham egallashga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar muvozanatli ravishda barcha ko‘nikmalarni rivojlantiradi va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashga tayyor bo‘ladi [3, 380].

Motivatsiyaning oshishi. AI asosidagi ta’lim muhitlarida gamifikatsiya elementlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ballar, reytinglar, mukofotlar va bosqichma-bosqich rivojlanish tizimi o‘quvchilarda raqobat va qiziqish uyg‘otadi. Interaktiv interfeys va moslashtirilgan topshiriqlar esa o‘quv jarayonini yanada jozibador qiladi. Natijada o‘quvchilar mustaqil ravishda ko‘proq vaqt o‘rganishga sarflaydi va o‘z natijalarini yaxshilashga intiladi [1,18].

Mavjud muammolar va cheklovlar. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda bir qator muammolar ham kuzatiladi. Avvalo, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ayrim hududlarda AI tizimlaridan samarali foydalanishni cheklaydi. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyasi yetarli emasligi metodik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish zarurati ortib bormoqda. Nihoyat, insoniy muloqotning qisqarishi va o‘qituvchi-tinglovchi o‘rtasidagi bevosita interaksiyaning kamayishi pedagogik jarayonning ijtimoiy-psixologik jihatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3, 382].

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalari katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lsada, ularni samarali qo‘llash kompleks yondashuv va muvozanatli integratsiyani talab etadi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari chet tilini o‘qitishda katta istiqbollarga ega. Ular ta’limni yanada moslashuvchan, samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Ayniqsa, individual yondashuvni ta’minlash orqali har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ta’lim berish mumkin.

Biroq, AI texnologiyalarini to‘liq joriy etish uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Eng avvalo, texnik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va etik me’yorlarni ishlab chiqish muhimdir. Shuningdek, AI inson o‘qituvchisini to‘liq almashtira olmaydi, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Kelajakda AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan til o‘qitish jarayoni yanada avtomatlashtirilgan va samarali bo‘lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, inson omilini saqlab qolgan holda texnologiyalarni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

SUN’IY intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, chet tilini o‘qitish jarayonida sun’iy intellektga asoslangan platformalar, mobil ilovalar, virtual yordamchilar va adaptiv ta’lim tizimlarining qo‘llanilishi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni mukammal egallashga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning til o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq etish bir qator metodik, psixologik va axloqiy muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos topshiriqlarni tavsiya etish imkoniyatiga ega. An’anaviy dars jarayonida barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuv qo‘llanilgan bo‘lsa, sun’iy intellekt individual ta’lim modelini shakllantirib, har bir foydalanuvchining o‘zlashtirish sur’ati, xatolari va qiziqishlarini tahlil qiladi. Natijada o‘quvchi o‘z bilim darajasiga mos material bilan ishlaydi, bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tinglab tushunish, talaffuz va so‘z boyligini rivojlantirishda sun’iy intellektning imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Nutqni avtomatik aniqlash texnologiyalari orqali o‘quvchilarning talaffuzidagi kamchiliklar

aniqlanib, ularni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Virtual suhbatdoshlar esa real kommunikativ muhitni yaratib, tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim afzalligi o‘quv jarayonining interaktivligini oshirish bilan bog‘liqdir. Zamonaviy raqamli platformalar matn, audio, video, animatsiya va virtual simulyatsiyalarni birlashtirgan holda multimodal ta’lim muhitini yaratadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab turish, ularning qiziqishini oshirish hamda ma’lumotni samaraliroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. O‘yin shaklidagi mashqlar, avtomatik baholash va tezkor fikr-mulohaza berish tizimi til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt o‘qituvchilar faoliyatini ham sezilarli darajada yengillashtiradi. Uy vazifalarini tekshirish, test natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarning faolligini monitoring qilish kabi ko‘plab texnik jarayonlar avtomatlashtiriladi. Bu esa pedagoglarga ko‘proq metodik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi o‘quv materiallarini qisqa vaqt ichida tayyorlash, tarjima qilish va moslashtirish mumkin bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan va samarali tus oladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining chet tilini o‘qitishdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda ayrim muammolari ham mavjud. Avvalo, texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish inson omilining ahamiyatini kamaytirishi mumkin. Til o‘rganish jarayoni nafaqat grammatik bilimlarni egallash, balki madaniy, hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan ham bog‘liqdir. Sun’iy intellekt esa insoniy hissiyot, empatiya va jonli muloqotning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. O‘quvchilar virtual tizimlar bilan ko‘proq ishlagan sari real kommunikativ muhitdagi nutqiy faollik pasayishi ehtimoli mavjud.

Bundan tashqari, texnologik tengsizlik muammosi ham dolzarb hisoblanadi. Barcha hududlarda zamonaviy internet tarmog‘i, raqamli qurilmalar va sifatli elektron resurslarning mavjud emasligi ayrim o‘quvchilarning sun’iy intellekt asosidagi ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishini cheklaydi. Ayniqsa, qishloq hududlarida yoki iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan oilalarda bu muammo yanada yaqqol seziladi. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda ijtimoiy tenglik masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Axloqiy va xavfsizlik bilan bog‘liq masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt tizimlari foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ishi va qayta ishlashi sababli axborot xavfsizligi muammolari yuzaga kelishi mumkin. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ularning raqamli xavfsizligini таъминlash va texnologiyalardan oqilona foydalanishni nazorat qilish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek, ayrim hollarda sun’iy intellekt tomonidan berilgan tarjima yoki grammatik tavsiyalar xatoli bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning noto‘g‘ri bilim shakllantirishiga olib keladi. Shu sababli o‘qituvchining nazorati va metodik rahbarligi har doim muhim bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalari chet tilini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur texnologiyalar individual yondashuvni kuchaytirish, interaktiv muhit yaratish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ularni ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish uchun pedagogik nazoratni saqlab qolish, axborot xavfsizligini ta’minlash, texnologik tenglikni rivojlantirish va inson omilining ahamiyatini unutmaslik zarur. Faqat ana shunday muvozanatli yondashuv orqaligina sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish va chet tilini o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari chet tilini o‘qitishda innovatsion imkoniyatlarni yaratadi. Ular ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, texnik va metodik muammolarni bartaraf etish, shuningdek, AI va an’anaviy ta’limni uyg‘unlashtirish orqali maksimal natijalarga erishish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari

chet tilini o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish hamda motivatsiyani kuchaytirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda raqamli ta’lim muhitini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Dulliyev, E. N. Sun’iy intellekt va chet tillarini o‘qitish: AI texnologiyalari ta’lim jarayonida qanday yordam bera oladi? / E. N. Dulliyev // Свет науки. – 2025. – № 7 (42). – Kirish rejimi: https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/80956

2. Mamatova, D. Chet tilini o‘rganishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari / D. Mamatova // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2, № 9. – B. 145–151. – DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss9-pp145-151

3. Shirinova, F. A. Sun’iy intellektning chet tilini o‘qitishdagi yutuqlari va kamchiliklari / F. A. Shirinova // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2026. – T. 6, № 2. – B. 379–384.

4. Ivakhnenko, E. N. ChatGPT in higher education and science: threat or valuable resource? / E. N. Ivakhnenko, V. S. Nikolsky // Higher Education in Russia. – 2023. – № 4. – P. 9–22.

Alimova Umida Raxmatillayevna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

AYOLLARDA PTSD (POSTTRAVMATIK STRESS BUZULISHI) RIVOJLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ayollarda posttravmatik stress buzilishi (PTSD) rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va biologik omillar tahlil qilinadi. Travmatik hodisalar, jumladan, oilaviy zo‘ravonlik, jinsiy tajovuz, urush, tabiiy ofatlar hamda kuchli ruhiy zarbalar ayollarning psixik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda ayollar erkaklarga nisbatan PTSDga ko‘proq moyilligi qayd etilgan bo‘lib, bunga hissiy sezgirlik, gormonal xususiyatlar va ijtimoiy bosim omillari sabab bo‘lishi mumkin. Maqolada PTSDning asosiy simptomlari - qo‘rquv, xavotir, uyqu buzilishi, depressiv holatlar va travmatik voqealarni qayta boshdan kechirish kabi belgilar yoritilgan. Shuningdek, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muhit va psixologik yordamning kasallik rivojlanishidagi o‘rni ham tahlil qilinadi. PTSDni erta aniqlash va kompleks psixologik yordam ko‘rsatish ayollarning ruhiy salomatligini tiklashda muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *posttravmatik stress buzilishi, PTSD, ayollar psixologiyasi, travma, ruhiy salomatlik, zo‘ravonlik, depressiya, xavotir, psixologik yordam.*

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПТСР (ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО СТРЕССОВОГО РАССТРОЙСТВА) У ЖЕНЩИН

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические, социальные и биологические факторы развития посттравматического стрессового расстройства (ПТСР) у женщин. Травматические события, включая семейное насилие, сексуальное насилие, военные конфликты, природные катастрофы и тяжелые эмоциональные потрясения, оказывают негативное влияние на психическое здоровье женщин. Исследования показывают, что женщины более подвержены развитию ПТСР по сравнению с мужчинами, что может быть связано с эмоциональной чувствительностью, гормональными особенностями и социальным давлением. В статье анализируются основные симптомы ПТСР, такие как страх, тревожность, нарушения сна, депрессивные состояния и повторное переживание травматических событий. Особое внимание уделяется роли семейной поддержки, социальной среды и психологической помощи в профилактике и преодолении данного расстройства. Подчеркивается, что ранняя диагностика и комплексная психологическая поддержка являются важными условиями восстановления психического здоровья женщин.*

Ключевые слова: *посттравматическое стрессовое расстройство, ПТСР, психология женщин, травма, психическое здоровье, насилие, депрессия, тревожность, психологическая помощь.*

FACTORS CONTRIBUTING TO THE DEVELOPMENT OF PTSD (POST-TRAUMATIC STRESS DISORDER) IN WOMEN

Abstract. *This article examines the psychological, social, and biological factors contributing to the development of Post-Traumatic Stress Disorder (PTSD) in women. Traumatic experiences such as domestic violence, sexual abuse, war conflicts, natural disasters, and severe emotional shocks have a significant negative impact on women’s mental health. Research indicates that women are more vulnerable to PTSD than men, which may be associated with emotional sensitivity, hormonal characteristics, and social pressures. The article discusses the major symptoms of PTSD, including fear, anxiety, sleep disorders, depressive conditions, and the re-experiencing of traumatic events. Particular attention is paid to the role of family support, social environment, and psychological assistance in preventing and overcoming the disorder. The study emphasizes that early diagnosis and*

comprehensive psychological support are essential factors in restoring women's mental health and improving their quality of life.

Keywords: *Post-Traumatic Stress Disorder, PTSD, women's psychology, trauma, mental health, violence, depression, anxiety, psychological support.*

Kirish. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda mahalliy zo‘ravonlik holatlari sodir bo‘lmoqda, shuningdek, o‘lim holatlari yuqoriligi va turli xil favqulodda hodisalar ko‘p uchramoqda. Odamlar tomonidan bunday turdagi ta’sirlarni boshdan kechirish ko‘pincha posttravmatik stress buzilishining (PTSD) rivojlanishiga olib keladi va bu 50–80% holatlarda kuzatiladi (4). Ko‘plab ilmiy ishlar o‘tkir ruhiy travmalarning ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular jangovar travma boshdan kechirgan shaxslar (3) va zo‘ravonlik qurbonlari (7)ni qamrab oladi. Shuningdek, ijtimoiy stressning ta’siri ham tavsiflangan (1). Biroq, psixosotsial xususiyatga ega bo‘lgan surunkali travmalarning ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan, holbuki ko‘plab odamlar doimiy psixoemotsional zo‘riqish sharoitida yashamoqda. [1:87]

Psttravmatik stress buzulishi (PTSD)-bu insoning og‘ir bu inson og‘ir psixologik travmadan keyin boshdan kechiradigan ruhiy holat bo‘lib, ko‘pincha zo‘ravonlik, falokat yoki kuchli qo‘rquv bilan bog‘liq vaziyatlardan keyin yuzaga keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar erkaklarga nisbatan PTSDga ko‘proq moyil bo‘ladi. Bu esa biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi.

PTSD rivojlanishining eng asosiy sababi travmatik hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa ayollarda bu omillar chuqur va uzoq davom etuvchi psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Travma - bu shaxsning ruhiy barqarorligiga jiddiy zarba beradigan, kuchli qo‘rquv, ojizlik yoki dahshat hissi bilan kechadigan hodisadir. Bunday vaziyatlar nafaqat voqea sodir bo‘lgan paytda, balki undan keyin ham uzoq muddat davomida inson psixikasida iz qoldiradi. Jismoniy yoki psixologik zo‘ravonlik PTSD rivojlanishida eng keng tarqalgan omillardan biri hisoblanadi. Jismoniy zo‘ravonlik tanaga bevosita zarar yetkazsa, psixologik zo‘ravonlik - haqorat, tahdid, kamsitish va nazorat qilish kabi holatlar orqali shaxsning ichki dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, psixologik bosim uzoq davom etganda, ayolda doimiy qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik va xavotir hissi shakllanadi. Bu esa keyinchalik travmatik xotiralarning qayta-qayta namoyon bo‘lishiga olib keladi. Oilaviy zo‘ravonlik esa o‘ziga xos murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki u ayol uchun eng yaqin va xavfsiz bo‘lishi kerak bo‘lgan muhit - oila doirasida sodir bo‘ladi. Turmush o‘rtog‘i yoki oila a’zolari tomonidan amalga oshiriladigan zo‘ravonlik ayolda ishonchning buzilishiga, doimiy stress va himoyasizlik hissining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bunday sharoitda yashash surunkali (kronik) travma sifatida shakllanib, PTSD rivojlanish ehtimolini bir necha barobarga oshiradi.[2:101]

Jinsiy zo‘ravonlik esa eng og‘ir psixologik travmalardan biri sifatida qaraladi. Bu holatda ayol nafaqat jismoniy, balki chuqur emotsional jarohat ham oladi. Jinsiy zo‘ravonlikdan keyin ayollarda uyat, qo‘rquv, o‘zini ayblash, jamiyatdan chetlashish kabi holatlar kuchayadi. Ko‘pincha bunday tajribalar haqida gapirish qiyin bo‘lgani sababli, ichki kechinmalar bostiriladi va bu PTSD simptomlarining kuchayishiga olib keladi. Bolalikdagi travmalar ham kattalik davrida PTSD rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bola yoshida boshdan kechirilgan zo‘ravonlik, e’tiborsizlik yoki hissiy sovuqlik shaxsning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa kelajakda stressga nisbatan sezgirlikni oshiradi, xavfsizlik hissining shakllanmasligiga olib keladi va travmatik vaziyatlarga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi. Travmatik omillar ayollarda PTSD rivojlanishining asosiy manbalari hisoblanadi. Ular nafaqat alohida-alohida, balki ko‘pincha o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatib, psixologik buzilishlarning yanada chuqurlashishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, travmatik tajribalarni erta aniqlash va ularga o‘z vaqtida psixologik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ayollarda posttravmatik stress buzilishi (PTSD) rivojlanishiga turli biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. PTSD ko‘pincha og‘ir ruhiy yoki jismoniy travmatik hodisadan keyin yuzaga keladi va uning shakllanishi individual xususiyatlar hamda tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liqdir.

Birinchi navbatda, travmatik hodisaning turi va kuchi muhim omil hisoblanadi. Zo‘ravonlik, jinsiy tajovuz, oilaviy zo‘ravonlik, urush, yo‘l-transport hodisalari yoki yaqin insonni yo‘qotish kabi

og‘ir voqealar ayollarda PTSD rivojlanish ehtimolini keskin oshiradi. Ayniqsa, uzoq davom etgan va takroriy travmalar (masalan, oilaviy zo‘ravonlik) psixikaga yanada kuchli zarar yetkazadi.

Ikkinchi muhim omil - psixologik zaiflik va individual xususiyatlar. Oldindan mavjud bo‘lgan tashvishlilik, past o‘z-o‘zini baholash, hissiy beqarorlik va stressga chidamlilikning pastligi PTSD rivojlanishiga moyillikni kuchaytiradi. Shuningdek, avvalgi ruhiy kasalliklar (depressiya, xavotir buzilishlari) ham xavf omili hisoblanadi.[3:56]

Uchinchi omil sifatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi qayd etiladi. Oila, do‘stlar yoki jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik ayollarda yolg‘izlik hissini kuchaytiradi va travmatik tajribani yengib o‘tishni qiyinlashtiradi. Aksincha, kuchli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash PTSD rivojlanishini kamaytirishi mumkin.

To‘rtinchi omil - biologik va neyropsixologik o‘zgarishlar. Stress gormoni bo‘lgan kortizol va asab tizimining reaksiyasi PTSD shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Miyada, ayniqsa amigdala va gippokamp faoliyatidagi o‘zgarishlar qo‘rquv va xotira jarayonlarining buzilishiga olib keladi.

Beshinchi omil sifatida madaniy va gender stereotiplari ham ahamiyatlidir. Ayrim jamiyatlarda ayollarning zo‘ravonlik haqida ochiq gapira olmasligi yoki uni yashirishga majbur bo‘lishi travmani chuqurlashtiradi. Bu esa ichki stressning to‘planishiga va PTSD simptomlarining kuchayishiga olib keladi.

Ayollarda PTSD rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u travmatik tajriba, psixologik holat, biologik mexanizmlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ayollarda posttravmatik stress buzilishi (PTSD)ning rivojlanish omillarini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv qo‘llanilib, psixologik, ijtimoiy va biologik omillar tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy psixologiya fanidagi travma nazariyalari, stress va moslashuv konsepsiyalari hamda shaxs psixologiyasiga oid ilmiy qarashlar xizmat qildi. Tadqiqotda nazariy va empirik usullar uyg‘unligidan foydalanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinib, PTSDning mohiyati, kelib chiqish sabablari va uning ayollar psixikasiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, turli ilmiy yondashuvlar solishtirilib, muammoning dolzarbligi va ilmiy asoslari aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, so‘rovnoma va psixodiagnostik metodlardan foydalanish rejalashtirildi. Jumladan, respondentlarning psixo-emotsional holatini baholash, stress darajasini aniqlash va travmatik tajriba oqibatlarini o‘rganish maqsadida standartlashtirilgan metodikalar qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida turli yoshdagi, zo‘ravonlikka uchragan yoki travmatik holatni boshdan kechirgan ayollar guruhi tanlab olindi. Tanlanma maqsadga muvofiq ravishda shakllantirilib, unda ijtimoiy holati, yoshi va hayotiy tajribasi turlicha bo‘lgan ishtirokchilar qamrab olindi.

Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanadi. Statistik tahlil orqali PTSD rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi baholanadi. Shu bilan birga, individual psixologik xususiyatlarning stressga ta’siri ham tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga alohida e’tibor qaratiladi. Ishtirokchilarning roziligi olinadi, ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi ta’minlanadi hamda psixologik zarar yetkazmaslik prinsipi asosida ish olib boriladi.

Ushbu metodologik yondashuv orqali ayollarda PTSD rivojlanishining ko‘p qirrali omillari chuqur tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Natijalar. Tadqiqotda jami 60 nafar ayol respondent ishtirok etdi. Ularning yoshi 20–45 yosh oralig‘ida bo‘lib, har biri turli travmatik tajribalarni boshdan kechirgan. O‘tkazilgan so‘rovnoma va psixodiagnostik metodlar natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi. Respondentlarning **41 nafari (68%)** da posttravmatik stress buzilishi (PTSD)ning turli darajadagi belgilari kuzatildi. Shulardan 19 nafari (32%)da yuqori darajadagi PTSD simptomlari, 22 nafari (36%)da o‘rtacha darajadagi simptomlar, qolgan 19 nafari (32%)da esa yengil darajadagi stress holatlari qayd etildi.[4:55]

Travmatik omillar tahlili natijasida quyidagi taqsimot aniqlandi:

- 27 nafar respondent (45%) oilaviy zo‘ravonlikni asosiy travmatik omil sifatida ko‘rsatdi;
- 18 nafar respondent (30%) psixologik zo‘ravonlikni boshdan kechirganini bildirdi;

• 9 nafar respondent (15%) jinsiy zo‘ravonlik holatlarini qayd etdi;

• 6 nafar respondent (10%) bolalik davridagi travmatik tajribalarni asosiy sabab sifatida ko‘rsatdi.

Psixologik holatlarni tahlil qilish jarayonida shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi xavotirlikka ega bo‘lgan 38 nafar ayol (63%)da PTSD simptomlari kuchliroq namoyon bo‘lgan. O‘zini baholash darajasi past bo‘lgan 35 nafar respondent (58%)da esa depressiv holatlar va emotsional beqarorlik kuzatildi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omili ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, oila tomonidan yetarli qo‘llab-quvvatlash olmagan 33 nafar ayol (55%)da PTSD belgilari yuqori darajada aniqlangan. Aksincha, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lgan guruhda (27 nafar, 45%) stress darajasi nisbatan past bo‘lgan.

Yosh bo‘yicha tahlilda esa 20–30 yosh oralig‘idagi 28 nafar respondent (47%)da emotsional reaktivlik yuqori ekani, 35–45 yoshdagi 32 nafar respondent (53%)da esa stressga moslashuv darajasi nisbatan barqarorroq ekani aniqlangan. Olingan empirik natijalar PTSD rivojlanishida travmatik tajriba turi, psixologik holat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi hal qiluvchi omillar ekanligini tasdiqladi.[5:12]

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida ayollarda posttravmatik stress buzilishi (PTSD)ning rivojlanish omillari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, PTSDning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u travmatik hodisalar, psixologik xususiyatlar va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Eng asosiy sabab sifatida oilaviy zo‘ravonlik, psixologik bosim, jinsiy zo‘ravonlik va bolalik davridagi travmatik tajribalar alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu omillar ayollarda kuchli emotsional zo‘riqish, doimiy xavotir, qo‘rquv va ishonchsizlik holatlarining shakllanishiga olib keladi. Psixologik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, past o‘zini baholash, yuqori darajadagi xavotirlik va emotsional barqarorlikning yetishmasligi PTSD simptomlarining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi esa ushbu holatni yanada og‘irlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Empirik natijalar asosida PTSD belgilari ko‘pchilik respondentlarda turli darajada kuzatilgani aniqlandi, bu esa muammoning dolzarbligini va uning keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, travmatik tajriba qanchalik uzoq va og‘ir bo‘lsa, psixologik buzilish darajasi shunchalik yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Umuman olganda, ayollarda PTSD rivojlanishining oldini olish va uni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda travmatik holatlarga erta aralashuv muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish ushbu muammoning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Александров, Е. О. Взорванный мозг. Посттравматическое стрессовое расстройство. Клиника и лечение / Е. О. Александров. – Новосибирск: Сибвузиздат, 2001. – 160 с.

2. Александровский, Ю. А. Психогении в экстремальных условиях / Ю. А. Александровский, О. С. Лобастов, Л. И. Спивак [и др.]. – Москва: Медицина, 1991. – 97 с.

3. Александровский, Ю. А. Психические расстройства во время и после стихийных бедствий и катастроф / Ю. А. Александровский, Б. П. Щукин // Журнал невропатологии и психиатрии им. С. С. Корсакова. – 1991. – Вып. 5. – С. 39–43.

4. Александровский, Ю. А. Чрезвычайные ситуации и психогенные расстройства / Ю. А. Александровский // Современная психиатрия. – 1998. – № 1. – С. 5–8.

5. Ахмедова, Х. Б. Изменения личности при посттравматическом стрессовом расстройстве (По данным обследования мирного населения, пережившего военные действия): дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.01 / Ахмедова Хадижат Бадриддиновна. – Москва, 2004. – 304 с.

Azamov Abubakir Ne‘matjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi,
Xurramova Nodira Choriyor qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

KOGNITIV JARAYONDA DIQQAT BILAN XOTIRA INTEGRATSIYASINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson psixikasining muhim kognitiv jarayonlari bo‘lgan xotira va diqqatning nazariy asoslari hamda ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi tahlil qilinadi. Diqqatning axborotni tanlab qabul qilishdagi roli, xotiraning esa ma’lumotni saqlash va qayta tiklashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ushbu jarayonlarning ta’lim faoliyati samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *xotira, diqqat, kognitiv jarayonlar, eslab qolish, psixik faoliyat, idrok, o‘rganish.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНТЕГРАЦИИ ВНИМАНИЯ И ПАМЯТИ В КОГНИТИВНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы памяти и внимания как важнейших когнитивных процессов психики человека, а также анализируется их функциональная взаимосвязь. Раскрывается роль внимания в избирательном восприятии и обработке информации, а памяти - в сохранении и последующем воспроизведении полученных знаний. Особое внимание уделяется значению взаимодействия памяти и внимания в процессе обучения и познавательной деятельности. Сделан вывод о том, что эффективность усвоения информации напрямую зависит от уровня концентрации внимания и особенностей функционирования памяти.*

Ключевые слова: *память, внимание, когнитивные процессы, запоминание, психическая деятельность, обучение.*

THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS OF ATTENTION AND MEMORY INTEGRATION IN THE COGNITIVE PROCESS

Abstract. *This article examines the theoretical foundations of memory and attention as essential cognitive processes of human psychology and analyzes their functional interrelationship. The role of attention in selective perception and information processing, as well as the role of memory in storing and retrieving acquired knowledge, are discussed. Particular emphasis is placed on the importance of the interaction between memory and attention in learning and cognitive activity. The study concludes that the effectiveness of information acquisition largely depends on the level of attention concentration and the functioning characteristics of memory.*

Key words: *memory, attention, cognitive processes, memorization, mental activity, learning.*

Insonning kognitiv jarayonida bir nechta o‘zaro bog‘langan psixik faoliyatlar orqali amalga oshadi. Ular orasida diqqat va xotira alohida ahamiyatga ega. Har qanday bilimni o‘zlashtirish, tajribani jamlash hamda faoliyatni samarali tashkil etish aynan diqqat va xotiraning uyg‘un ishlashi natijasida yuz beradi.

Diqqat tashqi yoki ichki axborot oqimidan muhim bo‘lganini ajratib olishga xizmat qilsa, xotira ushbu axborotni mustahkamlab, keyinchalik undan foydalanish imkonini yaratadi. Shu sababli psixologiyada bu ikki jarayon bir-birini to‘ldiruvchi yagona kognitiv tizim sifatida qaraladi.

Quyida ko’rib chiqadigan tadqiqotimizda xotira va diqqatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish maqsadida nazariy hamda empirik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida psixologiya fanida keng qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar asos qilib olindi.

Kognitiv jarayonda diqqat va xotira integratsiyasini o‘rganishda nazariy tahlil metodi asosiy yondashuvlardan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida mahalliy va xorijiy psixolog

olimlarning xotira hamda diqqat muammolariga oid ilmiy qarashlari o‘rganildi, taqqoslandi va umumlashtirildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili jarayonida mazkur kognitiv jarayonlarning psixologik mexanizmlari, ularning funksional xususiyatlari hamda o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Shu bilan birga, kuzatish metodi orqali o‘quv faoliyati jarayonida diqqatning jamlanish darajasi va uning eslab qolish samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, xotira jarayonining samaradorligi diqqat barqarorligi va yo‘naltirilganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida psixologik testlar va diagnostik metodlardan ham foydalanilib, ishtirokchilarning diqqat barqarorligi, diqqat hajmi hamda qisqa muddatli xotira ko‘rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar o‘zaro taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi va ular diqqatning rivojlanish darajasi xotira samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Shuningdek, xotirani aniqlashga qaratilgan metodikalar, jumladan xotira turlarini aniqlash, mantiqiy va mexanik xotirani o‘rganish, diqqat xususiyatlarini va uning aqliy ish qobiliyati hamda toliqish bilan bog‘liqligini aniqlashga yo‘naltirilgan usullar samarali qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida olingan nazariy va amaliy ma’lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Bu esa xotira va diqqat o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Xotira inson tomonidan qabul qilingan ma’lumot va tajribaning ongda aks etishi, saqlanishi hamda zarur paytda qayta tiklanishi jarayoni sifatida talqin qilinadi. U shaxsning individual rivojlanishi, bilimlarni o‘zlashtirishi va tajriba orttirishida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik jihatdan xotira uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: axborotni kodlash, uni saqlash va zarur paytda qayta tiklash. Axborotning chuqur va mazmunli qayta ishlanishi xotiraning mustahkamligini ta’minlaydi, bu jarayonda esa diqqatning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Diqqat esa ongning muayyan obyektga yo‘naltirilishi va psixik faoliyatning jamlanish darajasini ifodalovchi muhim kognitiv jarayondir. U inson faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm sifatida tanlovchanlik, barqarorlik, taqsimlanish va ko‘chuvchanlik kabi asosiy xususiyatlarga ega. Diqqatning yetarli darajada jamlanmasligi axborotning to‘liq idrok etilmasligiga olib keladi, bu esa xotirada mustahkam iz hosil bo‘lishini susaytiradi. Shu sababli diqqat xotira jarayonining boshlang‘ich va hal qiluvchi bosqichi sifatida qaraladi.

Xotira va diqqat o‘zaro chambarchas bog‘langan psixik jarayonlar bo‘lib, diqqat axborotni saralash va uni ongga yo‘naltirish orqali xotira faoliyatini faollashtiradi. Ilmiy kuzatuvlarga ko‘ra, diqqat darajasi yuqori bo‘lsa, eslab qolish samaradorligi ham ortadi, ongli diqqat asosida o‘rganilgan material esa uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi. Aksincha, chalg‘ituvchi omillar xotira hajmini kamaytiradi va axborotni qayta tiklash jarayonini qiyinlashtiradi. Kognitiv yondashuvda diqqat axborotni filtrlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi, ya’ni faqat diqqat markazidan o‘tgan ma’lumotlargina chuqur qayta ishlanib, xotirada saqlanadi.

Ta’lim jarayonida xotira va diqqatning o‘zaro bog‘liqligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish samaradorligini bevosita belgilaydi. Dars jarayonida faol diqqat materialni tushunishni osonlashtiradi, eslab qolish tezligini oshiradi hamda bilimlarning uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, vizual materiallar, muammoli vaziyatlar va faol o‘qitish metodlari diqqatni faollashtirib, xotira samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu tariqa, diqqat va xotira integratsiyasi kognitiv jarayonlarning asosiy psixologik mexanizmlaridan biri sifatida ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Xotira psixofizologiyasi psixologiyada eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Xotira psixofizologiyasida miyaning diqqat qismiga javob beruvchi miyaning retikulyar qismi javobgar hisoblanadi va bu qism diqqat va hushyorlikni tartibga solidi, bu esa xotira faoliyatiga bilvosita ta`sir ko`rsatadi. Shu sababli xotira psixofizologiyasini o`rganishda diqqat va xotira metodikalaridan samarali foydalandim.

Tadqiqot jarayonimda jami 65 nafar talaba ishtirok etdi va ularning asosiy qismini 18 yosh va 21 yosh oralig`i tashkil etdi. Ularmimg salmoqli qismini esa ayollar tashkil etdi. O‘g‘il bolalar foiz ko‘rsatkichi 36,7 foizni, qizlarniki esa 63,3 foizni tashkil qildi. Har bir metodikadan so‘ng 5 daqiqa dam olish berildi va jami 4 ta metodika olindi. Va metodika natijalari hisoblanib spss dasturida hisoblandi. Natijalar xulosasiga ko‘ra haqiqiy deb topildi va mezonlar yordamida tekshirildi.

1-jadval.

Xotira va diqqatni o‘rganishga qaratilgan metodikalar natijasi

Xotira turi	Pearson r	N
Mantiqiy xotira	−0.175	60
Mexanik xotira	0.096	60
Eshitish xotirasi	0.032	60
Ko‘rish xotirasi	0.027	60
Motor-eshituv xotirasi	0.031	60
Ko‘ruv-motor xotirasi	−0.034	60
Audial xotira turi	0.096	60

*Eslatma: $p \leq 0.05$.

Jins o‘rtasidagi tafovutni tekshirganimda erkaklarda ko‘rish va harakat xotirasi yuqoriroq ekan. Aksincha ayollarda esa motorik va eshituv xotirasi yaxshi va tez ishlar ekan.

Korrelatsiya qism uchun esa diqqat ko‘lamini aniqlashga qaratilgan “Kreplin” metodikasidan foydalandim. Diqqat va xotira jarayonini o‘zaro korrelatsiya qildim.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili shuni ko‘rsatdiki,tadqiqot jarayonida xotira turlari va diqqat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korrelatsion tahlil amalga oshirildi. Statistik hisoblashlar SPSS dasturi yordamida Person korrelatsiya koeffitsienti asosida bajarildi. Tadqiqotda jami 65 nafar talaba ishtirok etdi.

Olingan natijalar xotira ko‘rsatkichlari bilan Krepelin metodikasi orqali aniqlangan diqqat darajasi o‘rtasida turli darajadagi bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, mexanik xotira va diqqat ko‘rsatkichlari o‘rtasida ijobiy, ammo kuchsiz korrelatsiya ($r = 0.096$, $p \leq 0.05$) aniqlangan. Bu natija diqqatning ortishi bilan mexanik eslab qolish samaradorligi ham ma‘lum darajada oshishini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash holat eshitish xotirasi ($r = 0.032$) hamda ko‘rish xotirasi ($r = 0.027$) ko‘rsatkichlarida ham kuzatildi. Ushbu bog‘liqliklar kuchsiz bo‘lishiga qaramay, diqqatning xotira jarayonlarida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, motor-eshituv xotirasi bilan diqqat o‘rtasida ham ijobiy korrelatsiya ($r = 0.031$) qayd etildi. Bu natija faol harakat va eshitish orqali qabul qilingan ma‘lumotlar diqqat faol bo‘lgan sharoitda samaraliroq o‘zlashtirilishini anglatadi.

Biroq mantiqiy xotira ko‘rsatkichi bilan diqqat o‘rtasida kuchsiz manfiy bog‘liqlik ($r = −0.175$) kuzatildi. Ushbu natija statistik jihatdan sezilarli emas bo‘lib, mantiqiy qayta ishlash jarayonlari faqat diqqat darajasigagina emas, balki tafakkur operatsiyalari va oldingi bilimlar tizimiga ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xuddi shuningdek, ko‘ruv-motor xotirasi bo‘yicha ham juda kuchsiz manfiy korrelatsiya ($r = −0.034$) aniqlandi. Bu ko‘rsatkich diqqat bilan bevosita kuchli bog‘liqlik mavjud emasligini bildiradi.

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatdiki, diqqat va xotira jarayonlari o‘rtasida asosan ijobiy yo‘nalishdagi bog‘liqlik mavjud bo‘lib, diqqat ko‘lami ortgani sari aksariyat xotira turlarining samaradorligi ham ortishga moyillik bildiradi. Biroq korrelatsiya koeffitsientlarining past darajada bo‘lishi xotira faoliyati ko‘p omilli psixologik jarayon ekanligini, ya‘ni unga motivatsiya, qiziqish, individual tajriba va kognitiv strategiyalar ham ta‘sir qilishini ko‘rsatadi.

Natijalar kognitiv psixologiya nazariyalarini tasdiqlaydi: diqqat axborotni saralovchi mexanizm sifatida ishlaydi va aynan diqqat orqali qayta ishlangan ma’lumotlargina xotirada mustahkam iz qoldiradi.

Natijalar xulosasiga ko‘ra diqqat va xotira o‘zaro bog‘liq holda ishlar ekan. Diqqat ko‘lami qanchalik samaradorli bo‘lsa xotira ham shunchalik samarador bo‘lar ekan.

Xotira samarali ishlashi uchun diqqat jarayonini ishlashi zaruriy shart hisoblanadi. Ma‘lumotlar faqat e‘tibor qaratilganida xotiraga kodlanadi. Diqqat bu yerda filtr rolini o‘ynaydi, ya‘ni ahamiyatli

ma‘lumotni ajratib, uni xotira tizimiga uzatadi. Agar ma‘lumot diqqat bilan qabul qilinmasa, u tezda unutiladi yoki umuman xotiraga o‘tmaydi.

Masalan, talaba darsda chalg‘igan holatda bo‘lsa, eshitgan bilimlarini elab qola olmaydi va imtihonda ularni esga tushirishda qiynaladi. Bunday holat diqqatning xotira uchun kirish vazifasini bajarishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ishchi xotira va diqqat birga ishlaydi: bir vaqtning o‘zida ma’lumotni eslab qolish va unga e‘tibor berish zarur bo‘lgan vazifalar (masalan, raqamni eslab, uni qayta yozish) bu bog‘liqlikni yaqqol namoyon qiladi.

Xotira - bu inson psixikasining eng chuqur funktsiyasidan biri bo‘lib, uning psixofiziologik asoslari chuqur nevrologik tizimlarga tayanadi. Xotiraning samarali ishlashi bevosita diqqat jarayoniga bog‘liq. Diqqat kuchli bo‘lsa, ma‘lumotlar xotirada yaxshi joylanadi va esga tushiriladi. Shuning uchun ham ta‘lim, reabilitatsiya yoki kognitiv terapiyada xotira va diqqat birgalikda o‘rganiladi. Bu ikki jarayonni chuqur anglash inson ongini yanada to‘liq tushunishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, xotira va diqqat insonning kognitiv faoliyatida bir-biri bilan uzviy bog‘langan hamda o‘zaro ta’sir etuvchi psixik jarayonlar hisoblanadi. Diqqat axborotni tanlab qabul qilish, uni ongda qayta ishlash va muhim ma‘lumotlarni ajratib olish vazifasini bajarsa, xotira ushbu ma‘lumotlarni elab qolish, saqlash va zarur vaziyatlarda qayta tiklashni ta‘minlaydi. Shu jihatdan diqqat xotira jarayonining boshlang‘ich bosqichi, xotira esa diqqat faoliyatining natijaviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida olingan empirik natijalar diqqat ko‘lami va xotira samaradorligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ya‘ni diqqatning barqarorligi va hajmi qanchalik yuqori bo‘lsa, eslab qolish va qayta tiklash jarayonlari ham shunchalik samarali amalga oshadi. Statistik tahlillar natijalari diqqat va xotira ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli korrelatsion munosabat mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat xotiraning samarali faoliyati uchun diqqat zaruriy psixologik shart ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Jinsiy farqlarni tahlil qilish natijasida erkaklarda ko‘rish va harakat xotirasi ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq ekani, ayollarda esa eshituv va motor xotira tezroq va samaraliroq ishlashi kuzatildi. Bu natijalar xotira jarayonlarining individual-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xotira psixofiziologik jihatdan miya faoliyati, xususan hushyorlik va diqqatni boshqaruvchi retikulyar tizim faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekani aniqlandi. Demak, diqqatning faolligi nerv tizimining uyg‘oqlik darajasini ta’minlab, xotira jarayonlarining samaradorligini bilvosita oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xotira va diqqatning o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashini, ularning birgalikdagi faoliyati o‘quv faoliyatini samaradorligi, bilimlarni mustahkamlash hamda intellektual rivojlanishning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli ta’lim jarayonida diqqatni rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalardan foydalanish xotirani mustahkamlashning samarali yo‘li sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аткинсон, P. Human Memory Model / P. Аткинсон, P. Шиффрин. – New York: Academic Press, 1968. – 520 p.
2. Баддели, A. Working Memory, Thought and Action / A. Баддели. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 448 p.
3. G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya / E. G‘. G‘oziyev. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 544 b.
4. Немов, Р. С. Психология: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / Р. С. Немов. – Москва: Владос, 2003. – 688 с.
5. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.

Djurakulova Dilfuza Farxodovna
Oriental universiteti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KOGNITIV-XULQIY TERAPIYADA AYBDORLIK HISSINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kognitiv-xulqiy terapiya doirasida aybdorlik hissining shakllanishi va namoyon bo‘lish mexanizmlari tahlil qilinadi. Aybdorlik hissining kognitiv buzilishlar, salbiy avtomatik fikrlar va irratsional e’tiqodlar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, ushbu hissiy holatni kamaytirishga qaratilgan kognitiv va xulqiy texnikalar samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari psixologik amaliyotda aybdorlik hissini boshqarish va shaxsning emotsional barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv-xulqiy terapiya, aybdorlik hissi, kognitiv buzilishlar, avtomatik fikrlar, irratsional e’tiqodlar, psixokorreksiya.*

АНАЛИЗ ЧУВСТВА ВИНЫ В РАМКАХ КОГНИТИВНО-ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ТЕРАПИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические механизмы формирования и проявления чувства вины в контексте когнитивно-поведенческой терапии. Раскрывается связь чувства вины с когнитивными искажениями, негативными автоматическими мыслями и иррациональными убеждениями. Также анализируется эффективность когнитивных и поведенческих техник, направленных на снижение данного эмоционального состояния. Результаты исследования имеют важное значение для психологической практики и повышения эмоциональной устойчивости личности.*

Ключевые слова: *когнитивно-поведенческая терапия, чувство вины, когнитивные искажения, автоматические мысли, иррациональные убеждения, психокоррекция.*

ANALYSIS OF GUILT IN COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY

Abstract. *This article examines the psychological mechanisms underlying the formation and manifestation of guilt within the framework of cognitive-behavioral therapy. It highlights the relationship between guilt and cognitive distortions, negative automatic thoughts, and irrational beliefs. The effectiveness of cognitive and behavioral techniques aimed at reducing guilt is also analyzed. The findings are significant for psychological practice and for enhancing individuals’ emotional resilience.*

Keywords: *cognitive-behavioral therapy, guilt, cognitive distortions, automatic thoughts, irrational beliefs, psychological correction*

Aybdorlik hissi insonning axloqiy-emotsional hayotining muhim qismini tashkil etib, u shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy moslashish va ruhiy salomatlik bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologiya fanida aybdorlik hissiga nisbatan qiziqish uzoq tarixga ega bo'lib, dastlab psixoanalitik yo'nalish namoyondalari Zigmund Freyd va Melani Klayn tomonidan chuqur o'rganilgan. Biroq so'nggi o'n yilliklarda kognitiv-xulqiy terapiya doirasida bu hissiyotga yangicha va klinik jihatdan samarali yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Kognitiv-xulqiy terapiyaning asoschilaridan biri Aaron Beck tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv model aybdorlik hissining kelib chiqishida avtomatik salbiy fikrlar va disfunksional sxemalarning markaziy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv shaxsning o'z xatti-harakatlari haqidagi kognitiv baholashini o'zgartirib, emotsional holatni yaxshilashga qaratilgan. Bixevioristik va kognitiv komponentlarni uyg'unlashtirgan zamonaviy kognitiv-xulqiy terapiya amaliyotida aybdorlik hissi bilan ishlash uchun bir qancha samarali texnikalar qo'llanilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda shaxsning psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlash masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotida tez-tez uchraydigan salbiy emotsional kechinmalardan biri bo‘lgan aybdorlik hissi shaxsning ichki ruhiy holatiga, o‘z-o‘zini baholashiga

hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ortiqcha yoki noadekvat aybdorlik hissi depressiya, xavotir, stress va ijtimoiy chekinish kabi muammolarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur hissiyotning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda psixologiyada kognitiv-xulqiy terapiya yondashuvi keng qo‘llanilayotgan bo‘lib, u insonning fikrlari, hissiyotlari va xulq-atvori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda tushuntiradi. Mazkur yondashuv aybdorlik hissining kelib chiqishida kognitiv buzilishlar, salbiy avtomatik fikrlar va irratsional e’tiqodlar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shuning uchun aybdorlik hissini aynan kognitiv-xulqiy terapiya nuqtai nazaridan tahlil qilish, u ning shakllanish omillarini aniqlash va uni kamaytirish usullarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, globallashuv va axborot oqimining ortib borishi sharoitida insonlar turli ijtimoiy va psixologik bosimlarga duch kelmoqda. Bu esa aybdorlik hissining kuchayishiga, shaxsning emotsional barqarorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish va samarali psixokorreksion usullarni ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Biz yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kognitiv-xulqiy terapiya doirasida aybdorlik hissining psixologik mexanizmlarini tahlil qilish, uning funksional va disfunksional shakllarini farqlash hamda terapevtik yondashuvlarning samaradorligini nazariy va empirik jihatdan asoslashni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Aybdorlik hissi va uni psixologik jihatdan tahlil qilish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur muammo ayniqsa kognitiv-xulqiy terapiya doirasida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, bu yo‘nalish shaxsning emotsional holatini tushuntirishda samarali ilmiy asos sifatida e’tirof etiladi. Kognitiv terapiyaning asoschisi Aaron Beck o‘z tadqiqotlarida depressiya va salbiy emotsional holatlarning shakllanishida kognitiv buzilishlar, xususan, salbiy avtomatik fikrlar muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonning o‘ziga, atrof-muhitga va kelajakka nisbatan salbiy qarashlari aybdorlik hissining kuchayishiga olib keladi. Beck tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv modelda aynan noto‘g‘ri fikrlash stereotiplarini aniqlash va ularni o‘zgartirish orqali emotsional holatni yaxshilash mumkinligi asoslab berilgan.

Ratsional-emotiv xulqiy terapiya asoschisi Albert Ellis esa aybdorlik hissini irratsional e’tiqodlar bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, shaxsning “men mukammal bo‘lishim kerak” yoki “men xato qilmasligim kerak” kabi qat’iy va asossiz talablar qo‘yishi aybdorlik hissining ortishiga sabab bo‘ladi. Ellis ushbu irratsional fikrlarni aniqlash va ularni mantiqiy e’tiqodlar bilan almashtirish orqali salbiy emotsiyalarni kamaytirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, kognitiv-xulqiy terapiya rivojiga hissa qo‘shgan olimlardan biri David Burns bo‘lib, u o‘z tadqiqotlarida aybdorlik hissini kognitiv buzilishlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Burns “Yaxshi hissiyotlar” asarida aybdorlik hissi ko‘pincha shaxsiylashtirish va haddan tashqari umumlashtirish kabi kognitiv xatoliklar natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Aybdorlik hissi va unga yaqin bo‘lgan emotsional holatlar, jumladan, uyat hissi masalasi J.P.Tangney tomonidan keng o‘rganilgan. Uning tadqiqotlarida aybdorlik hissi ko‘proq xatti-harakatga yo‘naltirilgan bo‘lib, uni tuzatishga undashi, uyat esa shaxsning o‘ziga salbiy baho berishiga olib kelishi ta’kidlanadi. Bu farqlash aybdorlik hissining adaptiv va noadaptiv shakllarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlarda aybdorlik hissining stress, depressiya va xavotir bilan o‘zaro bog‘liqligi ham keng o‘rganilmoqda. Ko‘plab ilmiy manbalarda ortiqcha aybdorlik hissi psixologik muammolarni kuchaytiruvchi omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, kognitiv-xulqiy terapiya usullarining ushbu hissiy holatni kamaytirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Mahalliy psixologik adabiyotlarda ham shaxsning emotsional holatlari, xususan, aybdorlik hissi va uning shakllanish omillari o‘rganilgan bo‘lib, unda tarbiya, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlarning ta’siri alohida ta’kidlanadi. Biroq, ushbu muammoni aynan kognitiv-xulqiy terapiya nuqtai nazaridan chuqur o‘rganish hali ham dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy psixologiyada aybdorlik hissi - shaxsning o'z xatti-harakati, fikri yoki niyatining axloqiy me'yorlar, shaxsiy qadriyatlar yoki ijtimoiy kutimlar bilan ziddiyatga kirishi natijasida paydo bo'ladigan salbiy affektiv holat sifatida ta'riflanadi (Tangney & Dearing, 2002). Aybdorlikni uyat hissidan farqlash muhim ahamiyat kasb etadi: agar uyat hissi butun shaxsiyatni qamrab olsa, masalan,

“Men yomon odamman”, aybdorlik ma'lum bir xatti-harakat yoki vaziyatga yo'naltirilgan bo'ladi, masalan, “Men yomon ish qildim”.

Tangney va Dearing tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aybdorlik hissi ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisi funksional aybdorlik bo’lib u axloqiy buzilishni tan olish, javobgarlikni qabul qilish va kelgusida xatolarni tuzatishga undash funksiyasini bajarsa, ikkinchisi disfunksional aybdorlik esa surunkali, haddan tashqari va vaziyatga mutanosib bo'lmagan holda kechib, depressiya, tashvish buzilishlari va post-travmatik stress buzilishlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

1-jadval.

Funksional va disfunksional aybdorlik hissining taqqosli tavsifi

Mezon	Funksional aybdorlik	Disfunksional aybdorlik
Yo'nalish	Ma'lum xatti-harakat	Butun shaxsiyat
Davomiyligi	Qisqa muddatli	Surunkali, doimiy
Funksiyasi	Xulqni tuzatish, o'sish	Ruhiy iztirobni kuchaytirish
Kognitiv baholash	Muvozanatli, realistik	Mutlaqlashtirish, katastrofalashtirish
Klinik ahamiyati	Adaptiv, me'yoriy	Depressiya, tashvish riski

Beckning kognitiv modeli asosida aybdorlik hissi uchta daraja orqali tahlil etiladi: avtomatik salbiy fikrlar, oraliq e'tiqodlar va chuqur sxemalar. Aybdorlik hissini keltirib chiqaruvchi avtomatik fikrlarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: 'Men bu vaziyatni to'liq nazorat qila olishim kerak edi', 'Mening aybim bilan u azob chekdi', 'Men hech qachon kechirilmayman'. Ellis tomonidan ishlab chiqilgan Ratsional-Emotiv Xulqiy Terapiya modeli ham aybdorlik hissining shakllanishida mutlaqlashtiruvchi va katastrofalashtiruvchi kognitiv buzilishlarning rolini alohida ta'kidlaydi. Ratsional-Emotiv Xulqiy Terapiya nazariyasiga ko'ra, 'kerak', 'zarur', 'majbur' kabi talabchan iboralar aybdorlikni kuchaytiruvchi irrasional e'tiqodlar yadrosini tashkil etadi. Seligman tomonidan taklif etilgan o'rganilgan ojizlik nazariyasi ham aybdorlik hissi bilan bog'liq. Internallashtiruvchi attributiv uslubga ega shaxslar salbiy voqealarni o'z ichki sabablariga bog'laydilar, natijada aybdorlik hissini boshqalarga qaraganda kuchliroq boshdan kechiradilar. Ushbu sxema surunkali aybdorlikka va depressiv buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Bizga ma’lumki, aybdorlik hissi shaxsning emotsional hayotida muhim o‘rin tutuvchi murakkab psixologik hodisa bo‘lib, u asosan insonning o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me’yorlar bilan solishtirishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu hissiyotning shakllanishi ijtimoiylashuv jarayoni, tarbiya, shaxsning qadriyatlari va ichki nazorat tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Kognitiv-xulqiy terapiya nuqtai nazaridan aybdorlik hissi ko‘proq shaxsning vaziyatni qanday talqin qilishi va unga bergan sub’ektiv bahosi bilan belgilanadi. Ya’ni, voqeaning o‘zi emas, balki unga nisbatan shakllangan fikrlar emotsional reaksiyani yuzaga keltiradi.

Kognitiv modelga ko‘ra, aybdorlik hissining paydo bo‘lishida avtomatik fikrlar muhim rol o‘ynaydi. Bu fikrlar tez, ong ostida yuzaga keladigan va ko‘pincha tanqidiy tahlil qilinmaydigan xulosalardan iborat bo‘ladi. Masalan, “men buni noto‘g‘ri qildim, demak men yomon odamman” yoki “agar kimdir xafa bo‘lsa, bu mening aybim” kabi fikrlar shaxsda ortiqcha aybdorlik hissini shakllantiradi. Ushbu fikrlar ko‘pincha irratsional bo‘lib, real vaziyatni to‘liq aks ettirmaydi, biroq shaxsning hissiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Aybdorlik hissining kuchayishida kognitiv buzilishlar muhim omil hisoblanadi. Bunday buzilishlarga haddan tashqari umumlashtirish, shaxsiylashtirish, katastrofik fikrlash va dichotomik baholash kiradi. Masalan, bitta muvaffaqiyatsizlikni umumiy qobiliyatsizlik sifatida qabul qilish yoki boshqa insonlarning salbiy holatini ham o‘z zimmasiga olish shaxsda noadekvat aybdorlik hissini yuzaga keltiradi. Natijada, inson o‘zini ortiqcha tanqid qiladi, o‘z imkoniyatlarini past baholaydi va ijtimoiy faoliyatdan chekinishi mumkin. Kognitiv-xulqiy terapiyada aybdorlik hissini tahlil qilish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo, shaxsning aybdorlik hissini keltirib chiqaruvchi vaziyatlar aniqlanadi. Keyin ushbu vaziyatlarga nisbatan shakllangan avtomatik fikrlar

va e'tiqodlar tahlil qilinadi. Bu bosqichda psixolog shaxsga o'z fikrlarini kuzatish, ularni yozib borish va tanqidiy baholashni o'rgatadi. Shundan so'ng, irratsional fikrlar aniqlanib, ularning o'rniga muvozanatli va realistik fikrlar shakllantiriladi.

Amaliy jihatdan kognitiv qayta tuzish usuli eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu usul orqali shaxs o'zining salbiy fikrlarini qayta ko'rib chiqadi va ularni mantiqiy dalillar asosida baholaydi. Masalan, "hamma narsa mening aybim" degan fikr o'rniga "bu vaziyatda mening ham, boshqa omillarning ham hissasi bor" kabi muvozanatli fikr shakllantiriladi. Bu esa aybdorlik hissining kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, xulqiy eksperimentlar ham keng qo'llaniladi,ya'ni ushbu usul orqali shaxs o'zining e'tiqodlarini real hayotda sinab ko'radi va ularning to'g'ri yoki noto'g'riligiga amin bo'ladi. Masalan, agar shaxs "agar men xato qilsam, boshqalar meni rad etadi" deb o'ylasa, u kichik xatoga yo'l qo'yib, atrofdagilarning reaksiyasini kuzatadi. Ko'pincha bu tajriba uning noto'g'ri e'tiqodlarini inkor etadi va aybdorlik hissini kamaytiradi.

Aybdorlik hissini kamaytirishda o'z-o'zini qabul qilishni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs o'z kamchiliklarini tabiiy holat sifatida qabul qilishni o'rganishi zarur. Bu esa o'z-o'zini ortiqcha tanqid qilishning oldini oladi va emotsional barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, relaksatsiya va stressni boshqarish texnikalari ham aybdorlik hissi bilan bog'liq ichki zo'riqishni kamaytirishga yordam beradi.

Biz "**Kognitiv-xulqiy terapiyada aybdorlik hissini tahlil qilish"** mavzusi yuzasidan tadqiqot ishlarini ham amalga oshirdik. Mazkur tadqiqot oriental universiteti Samarqand kampusi talabalari o'rtasida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kognitiv-xulqiy terapiya asosida aybdorlik hissining darajasi va uning kognitiv buzilishlar bilan bog'liqligini aniqlash hamda psixokorreksion ishlar natijasida yuz beradigan o'zgarishlarni baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotga jami aybdorlik hissi o'rtachadan yuqori bo'lgan 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash asosida ikki guruhga ajratildi: eksperimental guruh (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar). Tadqiqotning dastlabki bosqichida ishtirokchilarda aybdorlik hissi darajasi hamda kognitiv buzilishlar diagnostika qilindi. Diagnostika uchun psixologik so'rovnomalar, avtomatik fikrlarni aniqlash testlari va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Dastlabki natijalar har ikkala guruhda ham aybdorlik hissi o'rtacha darajadan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng eksperimental guruh bilan 6 hafta davomida kognitiv-xulqiy terapiya elementlariga asoslangan psixokorreksion mashg'ulotlar olib borildi. Ushbu mashg'ulotlarda avtomatik fikrlarni aniqlash, irratsional e'tiqodlarni tahlil qilish, kognitiv qayta tuzish va xulqiy eksperimentlar qo'llanildi. Nazorat guruhi bilan esa maxsus psixologik ta'sir o'tkazilmadi.

Tadqiqot yakunida qayta diagnostika o'tkazilib, quyidagi natijalar olindi:

2-jadval.

Eksperimental guruhda olib borilgan kognitiv-xulqiy terapiya elementlariga asoslangan psixokorreksion mashg'ulot natijalari(n=30)

Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh (oldin)	Eksperimental guruh (keyin)	Nazorat guruhi (oldin)	Nazorat guruhi (keyin)
Aybdorlik hissi darajasi (ball)	68	45	66	63
Kognitiv buzilishlar (ball)	70	48	69	67
o'z-o'zini baholash (ball)	52	71	54	56

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruhda aybdorlik hissi sezilarli darajada kamaygan, ya'ni 68 balldan 45 ballgacha tushganini, kognitiv buzilishlar ham 70 balldan 48 ballga pasayganini, o'z-o'zini baholash esa 52 balldan 71 ballga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat guruhida esa deyarli sezilarli o'zgarish kuzatilmadi.

Olingan natijalar kognitiv-xulqiy terapiya usullarining samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, avtomatik fikrlar va irratsional e'tiqodlarni o'zgartirish orqali aybdorlik hissini kamaytirish mumkinligi amaliy jihatdan isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aybdorlik hissi ko'p

jihatdan shaxsning noto‘g‘ri fikrlash stereotiplari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tuzatish orqali emotsional holatni yaxshilash mumkin. Umuman olganda, oriental universiteti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan mazkur tadqiqot kognitiv-xulqiy terapiyaning aybdorlik hissini kamaytirishdagi yuqori samaradorligini ko‘rsatdi va uni psixologik amaliyotda keng qo‘llash zarurligini asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aybdorlik hissi shaxsning emotsional holatida muhim o‘rin tutuvchi murakkab psixologik hodisa bo‘lib, uning shakllanishi ko‘p jihatdan kognitiv jarayonlar, xususan, avtomatik fikrlar va irratsional e’tiqodlar bilan bevosita bog‘liqdir. Aybdorlik hissining ortiqcha darajada namoyon bo‘lishi shaxsda psixologik noqulaylik, past o‘z-o‘zini baholash, xavotir va depressiv holatlarning kuchayishiga olib kelishi aniqlandi. Amaliy tadqiqot davomida kognitiv-xulqiy terapiya asosida olib borilgan psixokorreksion ishlar natijasida eksperimental guruhda aybdorlik hissi darajasining sezilarli darajada kamaygani, kognitiv buzilishlarning qisqargani hamda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining oshgani kuzatildi. Statistik tahlil ushbu o‘zgarishlarning ishonchliligini tasdiqladi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi. Mazkur natijalar kognitiv-xulqiy terapiyaning aybdorlik hissini kamaytirishda samarali psixologik yondashuv ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, kognitiv qayta tuzish, avtomatik fikrlarni aniqlash va xulqiy eksperimentlar kabi metodlar shaxsning salbiy fikrlash stereotiplarini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, aybdorlik hissini boshqarishda kognitiv-xulqiy terapiya yondashuvini qo‘llash shaxsning emotsional barqarorligini oshirish, psixologik muammolarni kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yondashuvni psixologik amaliyotda keng qo‘llash hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Djurakulova, D. F. Aybdorlik va uyat psixologik fenomen sifatida: monografiya / D. F. Djurakulova. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 132 b.
2. Ильин, Е. П. Эмоции и чувства: учебное пособие / Е. П. Ильин. – Санкт-Петербург: Питер, 2019. – 784 с.
3. Льюис, М. Самосознательные эмоции: смущение, гордость, стыд и вина / М. Льюис // Справочник эмоций. – Нью-Йорк – Лондон: The Guilford Press, 1993. – С. 563–573.
4. Матюшин, Г. Г. Стыд и совесть как формы моральной самооценки / Г. Г. Матюшин. – Москва: Изд-во МГОПУ : НОУ, 1998. – 233 с.
5. Муздыбаев, К. Переживание вины и стыда / К. Муздыбаев. – Санкт-Петербург: С-Петерб. фил. Ин-та социологии, 1995. – 39 с.
6. Clark, D. A. Cognitive therapy of anxiety disorders: Science and practice / D. A. Clark, A. T. Beck. – New York: Guilford Press, 2010. – 634 p.

Eshpo‘latova Marvarid Dilshod qizi
Qarshi davlat universiteti magistri

OLIY TA’LIMDA INNOVATSION FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida innovatsion fikrlashni shakllantirishda motivatsiyaning psixologik omillari tahlil qilinadi. Innovatsion fikrlash zamonaviy ta’lim jarayonining muhim komponenti bo‘lib, u talabalarni yangicha yondashuvlar asosida fikrlashga, muammolarga kreativ yechim topishga va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Tadqiqotda ichki va tashqi motivatsiya, qiziqish, ehtiyoj, qadriyatlar tizimi hamda shaxsiy maqsadlarning innovatsion fikrlash rivojiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida rag‘batlantirish, refleksiya, interaktiv metodlar va individual yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kuchli ichki motivatsiya va qulay psixologik muhit talabalar innovatsion fikrlash qobiliyatining samarali rivojlanishini ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion fikrlash, motivatsiya, ichki motivatsiya, kreativlik, oliy ta’lim, psixologik omillar, o‘quv motivi, refleksiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ МОТИВАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические факторы мотивации в формировании инновационного мышления в системе высшего образования. Инновационное мышление выступает важным компонентом современного образовательного процесса, способствующим развитию креативности, самостоятельности и способности к принятию решений. В работе анализируется влияние внутренней и внешней мотивации, интереса, потребностей и ценностных ориентаций на развитие инновационного мышления студентов. Особое внимание уделяется роли стимулирования, рефлексии, интерактивных методов обучения и индивидуального подхода. Результаты исследования показывают, что высокий уровень внутренней мотивации и благоприятная психологическая среда являются ключевыми условиями формирования инновационного мышления.*

Ключевые слова: *инновационное мышление, мотивация, внутренняя мотивация, креативность, высшее образование, психологические факторы, учебная мотивация, рефлексия.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION IN THE FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article explores the psychological factors of motivation in the formation of innovative thinking in higher education. Innovative thinking is a crucial component of modern education, enabling students to develop creativity, independence, and problem-solving skills. The study examines the role of intrinsic and extrinsic motivation, interests, needs, and value orientations in shaping students’ innovative thinking. It also highlights the importance of encouragement, reflection, interactive teaching methods, and individualized approaches in the learning process. The findings suggest that strong intrinsic motivation and a supportive psychological environment significantly enhance the development of innovative thinking among students.*

Keywords: *innovative thinking, motivation, intrinsic motivation, creativity, higher education, psychological factors, learning motivation, reflection.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bir sharoitda oliy ta’lim tizimi oldiga yangi, murakkab vazifalar qo‘yilmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari nafaqat tayyor bilimlarni yetkazib beruvchi institut, balki talabalarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va mavjud muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai

nazardan qaralganda, innovatsion fikrlashni rivojlantirish masalasi ta'lim jarayonining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Biroq innovatsion fikrlashning samarali shakllanishi ko'p jihatdan shaxsning ichki psixologik resurslari, xususan, uning motivatsion sohasi bilan bevosita bog'liqdir.

Motivatsiya shaxs faoliyatini harakatga keltiruvchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ichki va tashqi omillar majmui sifatida talabaning o'quv faoliyatidagi faolligini belgilaydi. Aynan motivatsiya darajasi va uning turi (ichki yoki tashqi) talabaning bilim olishga bo'lgan munosabatini, mustaqil izlanishga tayyorligini hamda ijodiy yondashuvini shakllantiradi. Kuchli ichki motivatsiyaga ega bo'lgan talabalar odatda o'rganish jarayonida faolroq bo'lib, murakkab muammolarni hal etishga intiladi, yangilikka ochiq bo'ladi va o'z intellektual salohiyatini to'liq namoyon etadi. Aksincha, motivatsiyaning past darajasi yoki faqat tashqi rag'batlarga asoslangan o'quv faoliyati talabaning fikrlash jarayonini cheklab, innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu bilan birga, oliy ta'lim jarayonida innovatsion fikrlashni shakllantirish faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ta'lim muhiti, o'qitish metodlari va pedagogik yondashuvlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Interaktiv metodlar, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim va tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyat talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va kreativ yondashuvni rag'batlantiradi. Bunday yondashuvlar natijasida talaba passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylanadi, bu esa innovatsion fikrlashning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, motivatsiyaning psixologik omillari tarkibiga shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari, maqsadlari va o'z-o'zini anglash darajasi kiradi. Ushbu omillarning uyg'unligi talabaning o'quv faoliyatiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatini shakllantiradi va uning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, refleksiya, o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish kabi psixologik mexanizmlar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimida motivatsion muhitni to'g'ri tashkil etish, talabalarni rag'batlantirish va ularning ichki salohiyatini ochib berish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, oliy ta'limda innovatsion fikrlashni shakllantirishda motivatsiyaning psixologik omillarini chuqur o'rganish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu bois ushbu tadqiqot motivatsiya va innovatsion fikrlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, ularning psixologik mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Oliy ta'limda innovatsion fikrlashni shakllantirish va bunda motivatsiyaning psixologik omillarini o'rganish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida keng tadqiq etilayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ushbu muammo kognitiv rivojlanish, ijtimoiy ta'sir, shaxs motivatsiyasi hamda ijodkorlik mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi asosida yoritiladi. Shu bois, innovatsion fikrlashni tushunishda bir nechta nazariy yondashuvlarni kompleks tarzda tahlil qilish zarur bo'ladi.

Avvalo, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi innovatsion fikrlashning psixologik asoslarini tushunishda muhim o'rin tutadi. Piagetga ko'ra, inson tafakkuri faol konstruktiv jarayon bo'lib, u muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanadi. Talaba yangi bilimlarni faqat qabul qiluvchi emas, balki ularni qayta quruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa innovatsion fikrlashning asosini tashkil etuvchi moslashuvchanlik va mustaqil tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi motivatsiya va innovatsion fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushuntiradi. Vygotskiy fikricha, kognitiv rivojlanish ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanadi. "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o'qituvchi va tengdoshlar bilan hamkorlik talabaning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi. Bu esa motivatsiyani kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ochib beradi.

Innovatsion fikrlashni tushunishda Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Gardner intellektni bir butun tizim emas, balki turli xil qobiliyatlar majmui sifatida

talqin qiladi. Ushbu yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning kuchli tomonlarini rivojlantirish orqali ichki motivatsiyani oshirish imkonini beradi. Natijada, talaba o‘z salohiyatini namoyon etishga intiladi va innovatsion fikrlash faoliyati kuchayadi.

Bundan tashqari, Robert Sternbergning triarxik intellekt nazariyasi innovatsion fikrlashning strukturasini yanada aniqroq yoritadi. Sternberg intellektni analitik, ijodiy va amaliy komponentlarga ajratadi. Aynan ijodiy komponent innovatsion fikrlashning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. Uning fikricha, kreativ faoliyatning rivojlanishi faqat ichki motivatsiya va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilish orqali amalga oshadi.

Motivatsiya jarayonini chuqurroq tushuntirishda Albert Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi alohida o‘rin egallaydi. Bandura “o‘z-o‘ziga ishonch” (self-efficacy) tushunchasini ilgari surib, shaxsning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi uning motivatsiya darajasini belgilashini ta’kidlaydi. Yuqori self-efficacy darajasiga ega talabalar murakkab vazifalarni bajarishga tayyor bo‘lib, innovatsion yechimlar topishga ko‘proq intiladi.

Shuningdek, Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) motivatsiyaning ichki va tashqi turlarini farqlash orqali innovatsion fikrlashni tushuntirishga muhim hissa qo‘shadi. Ularning fikricha, avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlari qondirilgan sharoitda ichki motivatsiya kuchayadi va bu ijodiy faoliyatning rivojlanishiga olib keladi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda innovatsion fikrlashni shakllantirish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u kognitiv rivojlanish, ijtimoiy ta’sir, shaxsning motivatsion sohasi va o‘z-o‘zini anglash mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi. Turli nazariy yondashuvlarning uyg‘unligi esa ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularning innovatsion fikrlashini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Muhokama.

Oliy ta’lim tizimida innovatsion fikrlashni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik va psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda bilimning tez eskirishi, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish jarayoni bevosita shaxsning motivatsion sohasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aynan motivatsiya talabaning o‘quv faoliyatidagi faolligini belgilovchi asosiy psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion fikrlashning shakllanishi faqat kognitiv jarayonlar bilan emas, balki shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan talabalar o‘quv jarayoniga chuqurroq kirishadi, muammolarni tahlil qilishga intiladi va yangi yechimlar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Aksincha, faqat tashqi rag‘batlarga asoslangan motivatsiya talabaning ijodiy faolligini cheklashi va standart yondashuvlar bilan cheklanib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, oliy ta’limda ichki motivatsiyani shakllantirish innovatsion fikrlashni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonining tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy, ko‘proq reproduktiv faoliyatga asoslangan o‘qitish usullari talabaning mustaqil fikrlashini to‘liq rivojlantirishga yetarli darajada imkon bermaydi. Aksincha, muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar hamda interaktiv metodlar talabalarda kognitiv faollikni oshiradi va ularni ijodiy izlanishga undaydi. Bunday yondashuvlar motivatsiyani kuchaytirib, talabaning o‘z bilimiga nisbatan mas’uliyatini oshiradi.

Shuningdek, ijtimoiy-psixologik muhit innovatsion fikrlashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Qulay, qo‘llab-quvvatlovchi va erkin fikr almashishga asoslangan ta’lim muhiti talabalarda o‘z fikrini ifoda etishdan qo‘rqmaslik, xatolardan saboq olish va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Bunday muhitda talabalar o‘zini erkin his qiladi, bu esa ijodiy fikrlash jarayonining faollashishiga xizmat qiladi. Aksincha, bosim va tanqidga asoslangan muhit motivatsiyani pasaytirib, innovatsion faoliyatni susaytirishi mumkin.

Oliy ta'limda innovatsion fikrlashni shakllantirish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u motivatsion, kognitiv va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadi. Mazkur jarayonda ichki motivatsiyani rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda qulay psixologik muhit yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu tarzda tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa talabalarni nafaqat bilimli, balki ijodkor, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Oliy ta'limda innovatsion fikrlashni shakllantirish jarayonida motivatsiyaning psixologik omillari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki innovatsion fikrlash nafaqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi, balki shaxsning ichki faolligi, ijodiy yondashuvi va yangilik yaratishga bo'lgan intilishi bilan bevosita bog'liq murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Shu bois motivatsiya ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi asosiy ichki kuch sifatida namoyon bo'lib, talabaning o'quv va ijodiy faoliyatidagi barqarorligini ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya - ya'ni bilimga qiziqish, o'zini rivojlantirishga intilish va shaxsiy maqsadlarga yo'naltirilgan ehtiyojlar - innovatsion fikrlashning eng muhim psixologik asosi hisoblanadi. Bunday motivatsiyaga ega talabalar muammolarni chuqur tahlil qiladi, noan'anaviy yechimlar topishga intiladi va mustaqil qaror qabul qilishda faolroq bo'ladi. Aksincha, faqat tashqi rag'batlarga asoslangan motivatsiya talabaning ijodiy salohiyatini cheklab qo'yishi va uning fikrlash jarayonini standart yondashuvlar bilan chegaralashi mumkin.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, oliy ta'limda innovatsion fikrlashni shakllantirish motivatsiya, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadigan murakkab tizimli jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish esa nafaqat bilimli, balki ijodiy, tashabbuskor va innovatsion fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi hamda jamiyatning intellektual va innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura, A. Self-efficacy: The exercise of control / A. Bandura. – New York: Freeman, 1997. – 604 p.
2. Brophy, J. Motivating Students to Learn / J. Brophy. – New York: Routledge, 2010. – 408 p.
3. Davletshin, M. G. Psixologiya va pedagogika / M. G. Davletshin. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 320 b.
4. Deci, E. L. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior / E. L. Deci, R. M. Ryan. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
5. Dörnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom / Z. Dörnyei. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 179 p.
6. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences / H. Gardner. – New York: Basic Books, 2011. – 440 p.
7. G'oziyev, E. G'. Umumiy psixologiya / E. G'. G'oziyev. – Toshkent: Universitet, 2010. – 356 b.
8. Maslow, A. H. Motivation and Personality / A. H. Maslow. – New York: Harper & Row, 1954. – 411 p.
9. Pekrun, R. Academic emotions in students' learning and achievement / R. Pekrun, T. Goetz, W. Titz, R. P. Perry // Educational Psychologist. – 2002. – Vol. 37(2). – P. 91–105.
10. Piaget, J. The Psychology of Intelligence / J. Piaget. – Totowa: Littlefield, Adams & Co, 1976. – 182 p.

Gulomova Komila Maxmatjanovna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
E-mail: g.komila05@gmail.com

PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri umumiy tarzda tahlil qilingan. Pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy faoliyatini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilib, uning didaktik, kommunikativ va refleksiv jihatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik mahoratni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, ta’lim jarayoni, kasbiy faoliyat, didaktika, kommunikatsiya, refleksiya, innovatsion yondashuv.*

СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье в обобщённом виде проанализированы структурные компоненты педагогического мастерства и их влияние на образовательный процесс. Педагогическое мастерство рассматривается как важный фактор, определяющий профессиональную деятельность учителя, при этом освещаются его дидактические, коммуникативные и рефлексивные аспекты. Также отмечается значение инновационных подходов и цифровых технологий в развитии педагогического мастерства в современных условиях образования.*

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, образовательный процесс, профессиональная деятельность, дидактика, коммуникация, рефлексия, инновационный подход.*

STRUCTURAL COMPONENTS OF PEDAGOGICAL SKILL AND THEIR IMPACT ON THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION

Abstract. *This article provides a general analysis of the structural components of pedagogical mastery and their impact on the educational process. Pedagogical mastery is considered an important factor determining the teacher’s professional activity, with emphasis on its didactic, communicative, and reflective aspects. The significance of innovative approaches and digital technologies in the development of pedagogical mastery in modern educational conditions is also highlighted.*

Keywords: *pedagogical mastery, educational process, professional activity, didactics, communication, reflection, innovative approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga, xususan, uning pedagogik mahorati darajasiga bevosita bog‘liqdir. Pedagogik mahorat nafaqat bilim berish jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, motivatsiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahorat murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u o‘z ichiga o‘qituvchining didaktik, kommunikativ, psixologik, metodik va refleksiv jihatlarini qamrab olgan tarkibiy qismlar tizimini mujassam etadi. Ushbu tarkibiy qismlarning uyg‘un rivojlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi hamda o‘qituvchi faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Shu bois pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘qituvchi shaxsiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng muhim omil – bu zamonaviy bilim va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalashdir”[1].*Ushbu fikr pedagogik faoliyatning sifatini oshirish, o‘qituvchining kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirib borish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari o‘qituvchi nufuzini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish masalalarini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab bergan. Bu esa pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini chuqur o‘rganish, ularni takomillashtirish va amaliyotga samarali joriy etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik mahorat masalasi pedagogika fanining muhim va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘plab olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilmasi hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri borasida o‘zbek va rus olimlari tomonidan muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

O‘zbek pedagog olimlaridan N. Azizxo‘jayeva pedagogik mahoratni o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning uyg‘un tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, pedagogik mahorat o‘qituvchining nafaqat o‘quv materialini yetkazish qobiliyati, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va individual yondashuvni amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Bu yondashuv pedagogik mahoratni faqat didaktik jarayon bilan cheklab qo‘ymasdan, balki shaxslararo munosabatlar tizimi sifatida ham ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shuningdek, B. Xodjayev pedagogik mahoratni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. U pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini aniqlashda innovatsion yondashuvlarni ilgari surib, o‘qituvchining kreativligi, refleksiv faoliyati va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini asosiy omillar qatoriga kiritadi. Olimning qarashlariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining o‘z ustida muntazam ishlashini talab etadi [3].

Rus pedagogika maktabi vakillari ham pedagogik mahorat muammosiga katta e’tibor qaratgan. Jumladan, A. S. Makarenko pedagogik mahoratni tarbiya jarayonini samarali tashkil etish san’ati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, o‘qituvchining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning jamoani boshqarish, intizomni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish qobiliyatiga bog‘liq [4]. Makarenko pedagogik mahoratda shaxsiy namuna va pedagogik ta’sir kuchiga alohida urg‘u beradi.

Yana bir mashhur olim V. A. Sukhomlinskiy pedagogik mahoratni o‘qituvchining insonparvarlikka asoslangan faoliyati sifatida baholaydi. U o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy munosabat, mehr va e’tibor pedagogik jarayonning asosiy omillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Sukhomlinskiy fikricha, haqiqiy pedagogik mahorat o‘qituvchining qalbidan boshlanadi va u o‘quvchining ichki dunyosiga ta’sir eta olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [5].

Bundan tashqari, N. V. Kuzmina pedagogik mahoratni o‘qituvchining kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi tizimli xususiyat sifatida o‘rganadi. U pedagogik faoliyatni tahlil qilish orqali o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini bir necha yo‘nalishlarga ajratadi va pedagogik mahoratni aynan ushbu yo‘nalishlarning integratsiyasi sifatida ko‘rsatadi [6]. Bu yondashuv pedagogik mahoratni tizimli va kompleks hodisa sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat turli olimlar tomonidan turlicha izohlangan bo‘lsa-da, ularning barchasida umumiy jihat sifatida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy sifatlari, muloqot madaniyati va innovatsion faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Demak, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga samarali joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, didaktik yondashuvlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kommunikativ madaniyati va psixologik sezgirligi bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu holat ta’lim jarayonida faqat metodik tayyorgarlikning o‘zi yetarli emasligini, balki o‘qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Demak, pedagogik mahoratni rivojlantirishda alohida tarkibiy qismlarni mustaqil

takomillashtirish emas, balki ularning integratsiyalashgan holda shakllanishiga e'tibor qaratish lozim.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, refleksiv faoliyat pedagogik mahoratning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholashi, xatolarini anglab yetishi va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishi ta'lim sifatining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Refleksiya mavjud bo'lmagan holatlarda esa pedagogik faoliyatda takroriy kamchiliklar yuzaga kelishi va innovatsion yondashuvlarning sust joriy etilishi kuzatiladi. Shu bois refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik mahoratni oshirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi [7].

Natijalar yana shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratning samarali namoyon bo'lishi o'qituvchining individual uslubi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir pedagog o'zining kasbiy tajribasi, shaxsiy fazilatlari va pedagogik qarashlariga asoslanib o'ziga xos faoliyat modelini shakllantiradi. Bu model ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi va faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, pedagogik mahoratni standartlashtirish emas, balki individuallashtirish va ijodiy rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi pedagogik mahoratga yangi talablarni qo'ymoqda. O'qituvchining axborot-kommunikatsion vositalardan samarali foydalanish qobiliyati uning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini interaktiv va moslashuvchan shaklga keltiradi. Biroq texnologik vositalardan foydalanishning o'zi yetarli emas, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va qo'llash muhim ahamiyatga ega [8]. Aks holda, texnologiya ta'lim samaradorligini oshirish o'rniga, uning mazmunini yuzaki shaklga keltirib qo'yishi mumkin. Olib borilgan tahlillar pedagogik mahoratning ta'lim samaradorligiga ta'siri bevosita emas, balki ko'p omilli va murakkab xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik mahoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalar kompleks va tizimli bo'lishi, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojini bir butun jarayon sifatida qamrab olishi lozim.

Tahlillar va natijalar. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa oddiy yig'indi emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi elementlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Har bir tarkibiy jihat o'z funksiyasiga ega bo'lsa-da, ular o'rtasidagi uyg'unlik ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik mahoratni alohida qismlar orqali emas, balki yaxlit tizim sifatida anglash ilmiy jihatdan muhimdir.

Didaktik jihatlar tahlili o'quv materialining mazmunan puxta, mantiqan izchil va o'quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi ta'lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Mazkur jihat o'quvchilar tomonidan bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi va ularning mustaqil fikrlash faoliyatini rag'batlantiradi [6]. Shu bilan birga, didaktik yondashuvning samaradorligi o'qituvchining boshqa kasbiy sifatlari bilan uyg'unlashgandagina to'liq namoyon bo'ladi.

Kommunikativ jihatlar tahlili esa ta'lim jarayonida o'zaro muloqotning sifati va mazmuni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot muhitida bilim almashinuvi faol va ochiq shaklda kechadi. Natijada o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga, savol berishga va muhokamalarda ishtirok etishga intiladilar. Bu esa ta'lim jarayonining interaktivligini oshiradi va o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Psixologik jihatlarning tahlili pedagogik faoliyatda individual yondashuvning zarurligini asoslaydi. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lganligi sababli, ularning ehtiyojlarini hisobga olish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchining psixologik sezgirligi o'quvchilarda ishonch, qiziqish va o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, refleksiv jihatlar pedagogik mahoratning ichki rivojlanish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi [8]. O'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishga moyilligi, o'z ustida ishlashga intilishi va yangi pedagogik yondashuvlarni izlashga tayyorligi uning kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Bu esa ta'lim jarayonining doimiy ravishda yangilanib borishiga zamin yaratadi.

Natijaviy jihatdan qaralganda, pedagogik mahoratning yuqori darajada shakllanishi ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchilarning bilim darajasi, faolligi,

mustaqil fikrlash qobiliyati va o‘quv motivatsiyasi muhim mezon sifatida qaraladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi pedagogik mahoratning samarali shakllanganligini ifodalaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari tizimli yondashuv asosida yoritilib, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat alohida ko‘nikma yoki sifatlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan, dinamik rivojlanib boruvchi murakkab kasbiy tizimdir. Ushbu tizimning barqaror va samarali ishlashi o‘qituvchining didaktik, kommunikativ, psixologik hamda refleksiv jihatlarining muvozanatli rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Pedagogik mahoratning yuqori darajada shakllanishi ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarida - o‘quvchilarning bilimni anglab o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi, o‘quv faolligi va ichki motivatsiyasining ortishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, pedagogik mahorat ta’lim jarayonini faqat samarali tashkil etish vositasi emas, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning muhim omili sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz va maqsadli jarayon sifatida tashkil etilishi zarur. Bu jarayon o‘qituvchining kasbiy bilimlarini yangilash, innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, pedagogik mahoratni rivojlantirishda integrativ yondashuv - ya’ni turli kasbiy jihatlarning o‘zaro uyg‘un holda shakllanishi - ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy ta’minotni kuchaytirish, o‘qituvchilarning amaliy tajribasini boyitish hamda ularning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, pedagogik mahorati yuksak bo‘lgan o‘qituvchi - sifatli ta’lim va barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik mahorat asoslari: o‘quv qo‘llanma / N. Azizxo‘jayeva. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013. – 192 b.
3. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma / B. Xodjayev. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.
4. Ochilov M. Pedagogik mahorat va o‘qituvchi madaniyati: darslik / M. Ochilov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 220 b.
5. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастерство педагога: монография / Н. В. Кузьмина. – Москва: Высшая школа, 1990. – 192 с.
6. Макаренко А.С. Педагогическая поэма: художественно-педагогическое произведение / А. С. Макаренко. – Москва: Просвещение, 1988. – 384 с.
7. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: словарь / С. И. Ожегов. – Москва: Азбуковник, 2000. – 944 с.
8. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям: педагогическое произведение / В. А. Сухомлинский. – Киев: Радянская школа, 1977. – 382 с.

Soatmurodova Aziza O‘rolovna
Sho‘rchi tuman 41-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi davlat muassasasi
Ingliz tili fani o‘qituvchisi,
E-mail: azizasoatmurodovaacadem@gmail.com

THE CONCEPT OF COLLOCATION IN ENGLISH LINGUISTICS

Abstract. *This article examines and evaluates the theoretical underpinnings of the English linguistics notion of collocation. Systematic relationships within the language are shown in collocation, which is a regular and predictable combination of lexical elements. The study looks at a number of academic methods, such as lexical, semantic, and structural viewpoints, together with corpus linguistics findings. Important factors for collocation identification are covered, including grammatical consistency and co-occurrence frequency. The findings demonstrate the stability, statistical significance, and strong relationship between collocations and both grammar and lexis. Language instruction, corpus analysis, and the study of specific registers are all influenced by an understanding of collocation, which improves knowledge of the English lexical system.*

Key words: *collocation, lexical co-occurrence, collocational patterns, lexis–grammar interface, semantic relations, corpus linguistics.*

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA KOLLOKATSIYA TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilshunosligidagi birikma tushunchasining nazariy asoslari ko'rib chiqiladi va baholanadi. Til ichidagi tizimli munosabatlar leksik elementlarning muntazam va bashorat qilinadigan birikmasi bo'lgan birikmada ko'rsatiladi. Tadqiqot leksik, semantik va strukturaviy nuqtai nazar kabi bir qator akademik usullarni, shuningdek, korpus lingvistikasi natijalarini ko'rib chiqadi. Kollokatsiyani aniqlash uchun muhim omillar, jumladan, grammatik izchillik va birgalikda yuzaga kelish chastotasi. Topilmalar qo'shma gaplar va grammatika va leksika o'rtasidagi barqarorlik, statistik ahamiyatga ega va kuchli aloqani ko'rsatadi. Tilni o'rgatish, korpus tahlili va maxsus registrlarni o'rganish ingliz tilining leksik tizimi haqidagi bilimlarni yaxshilaydigan joylashuvni tushunishga ta'sir qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kollokatsiya, leksik birga qo‘llanish, kollokatsion namunalar, leksika–grammatika o‘zaro aloqasi, semantik munosabatlar, korpus lingvistikasi.*

ПОНЯТИЕ КОЛЛОКАЦИИ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются и оцениваются теоретические основы понятия коллокации в английской лингвистике. Систематические связи внутри языка показаны на примере коллокации, представляющей собой регулярное и предсказуемое сочетание лексических элементов. В исследовании рассматривается ряд академических методов, таких как лексический, семантический и структурный подходы, а также результаты корпусной лингвистики. Рассматриваются важные факторы для идентификации коллокаций, включая грамматическую согласованность и частоту совместного употребления. Результаты демонстрируют стабильность, статистическую значимость и сильную взаимосвязь между коллокациями и грамматикой, а также лексикой. Понимание коллокации оказывает влияние на преподавание языка, корпусный анализ и изучение конкретных регистров, что улучшает знание английской лексической системы.*

Ключевые слова: *коллокация, лексическая сочетаемость, коллокационные модели, интерфейс лексики и грамматики, семантические отношения, корпусная лингвистика.*

Introduction. Collocation is a crucial component of the English language and is essential to the lexical system. Words frequently come together in predictable and consistent ways in actual language rather than appearing on their own or mixing randomly. The fundamental structure of language

is highlighted by these common pairings, which also demonstrate the systematic links between lexical units. Collocation is therefore important in linguistic research.

The interplay of two opposing tendencies-the ability to express oneself in countless ways and the propensity for fixed and traditional forms-can be used to understand the nature of language. John Sinclair's theoretical framework, which distinguishes between the idiom principle and the open-choice principle, reflects this dichotomy. The consistency found in authentic writings is not captured by the open-choice principle, which sees language as a collection of discrete choices that are mostly constrained by grammatical constraints. The idiom principle, on the other hand, emphasizes how language users rely on a large number of semi-preconstructed word combinations that function as single entities and restrict lexical choices.

According to this concept, collocation is defined as the regular coexistence of lexical units that are impacted by their usage frequency and semantic compatibility. Collocations differ from free word combinations because of their consistency and recurrence in discourse. They also differ from fixed idiomatic expressions in that their meanings are typically obvious and may be deduced from the meanings of their constituent parts. The analysis of collocation highlights the structured character of the English vocabulary system and reveals the intimate connections between lexical units. The fundamental ideas that underpin lexical interactions can be revealed by examining the frequency, distribution, and combinability of words. Collocation is still a complicated and multidimensional phenomenon given the range of interpretations and methods in linguistic theory. Thus, the purpose of this article is to clarify the linguistic character of collocation, examine and organize the major theoretical approaches to the idea, and ascertain its position within the English language system.

Literature Review. Numerous interpretations and paradigms have emerged from the extensive discussion of the topic of collocation in linguistic studies. J. R. Firth is credited with making one of the fundamental contributions to this discipline when he said that a word's meaning can be deduced from its frequent co-occurrence with other terms. This concept lays the groundwork for the study of collocation and emphasizes the contextual aspect of lexical meaning (Firth, 1957).

John Sinclair made a significant contribution to the field of collocation studies by using corpus linguistics to study the phenomena. According to Sinclair, collocation is the propensity of words to co-occur more frequently than would be predicted by chance. His contrast between the idiom principle and the open-choice principle shows that language is produced by semi-preconstructed lexical patterns in addition to grammatical rules (Sinclair, 1991).

Michael Halliday emphasizes the function of collocation in establishing textual coherence and views it as a component of the larger lexical system. Collocations help create meaning by building connections between lexical items in speech, according to systemic functional linguistics (Halliday, 1966).

A. P. Cowie expands on the idea by categorizing collocations according to how fixed they are. He places collocation within a continuum of multi-word units by differentiating between idiomatic phrases, restricted collocations, and free combinations (Cowie, 1981). The distinctions between collocations and other lexical phenomena are made clearer by this classification.

Igor Mel’čuk presents a more structured method, analyzing collocation in the context of Meaning–Text Theory. In order to explain systematic relationships between words, he puts forth the idea of lexical functions, which provide an organized way to find and examine collocations (Mel’čuk, 1998).

Corpus-based research, which emphasizes frequency, statistical connection, and contextual patterns, has greatly advanced our understanding of collocation in addition to theoretical studies. These methods show that collocations may be objectively recognized through recurring usage patterns in huge linguistic datasets, proving that they are not arbitrary. The majority of academics concur that collocation is defined by stability, recurrence, and lexical co-occurrence notwithstanding the variety of viewpoints. There are still distinctions between it and similar phenomena like idioms and free combinations, though. This variety of interpretations emphasizes the intricacy of collocation and the necessity of additional systematization, which serves as the foundation for the current investigation.

Research Methodology. A theoretical analysis was conducted of both contemporary and classical research works on collocation in English. The focus of the study was English collocation.

Analysis and results. English collocation has been examined from a variety of theoretical angles, each emphasizing a distinct facet of lexical co-occurrence.

The lexical method highlights how a word's meaning is influenced by the terms it co-occurs with. The fundamental definition of collocation was first given by J. R. Firth in 1957, who said, "You shall know a word by the company it keeps." According to Firth, collocation is a fundamental component of lexical meaning that is unaffected by grammatical structure. This method was extended by later researchers, such as M. K. Halliday (1966), who introduced the concept of lexical sets-groups of lexemes that exhibit similar collocational tendencies-and distinguished between lexical and grammatical issues. Later, Lyons (1977) emphasized the "encapsulation" of meaning, in which a lexeme might absorb parts of its meaning when it frequently co-occurs with limited syntagmatic partners. After originally supporting the pure lexical viewpoint, John Sinclair eventually combined lexical and grammatical factors to show that collocation should be largely examined at the lexical level while acknowledging interactions with grammar (Sinclair, 1996). The semantic method looks at collocation from a meaning-based standpoint. Collocations, according to their proponents, do not occur at random but rather result from the semantic attraction of some words to others (Martynska, 2004). According to Sinclair (1996), meaning is derived from both individual words and their co-occurrences. Therefore, the semantic approach emphasizes that lexical links have a role in the communicative function of collocations and that it is impossible to properly comprehend the lexicon without taking these recurring patterns into account.

The structural approach sees collocations as patterns that incorporate both lexical and grammatical limitations, concentrating on the interaction between lexis and grammar. Researchers like R. Carter (1998), G. Kjellmer (1990), and M. Lewis (2000) examine collocations on a spectrum from fully fixed phrases to unrestricted combinations. Lexical collocations are just combinations of content words, whereas grammatical collocations include syntactic features (such as prepositions or infinitives). The co-occurrence of particular terms conveys predicted semantic information, according to Hunston's (2002) demonstration of correlations between grammatical patterns and lexical meaning. Structuralists contend that a thorough grasp of collocation requires both grammatical and lexical factors.

Collocation research has greatly improved with the development of corpus linguistics. Instead than depending only on intuition, linguists can experimentally find statistically significant co-occurrences by analyzing big datasets (Robichaud, 2011; Laybutt, 2009). Researchers can find patterns of lexical co-occurrence across registers and specialized fields using corpus-based techniques like key word-in-context (KWIC) analysis. This shows that language use is probabilistic rather than strictly rule-governed. The functional relevance of collocations in particular contexts is highlighted by specialized corpora, such as those for academic or sports language. For example, in sports discourse, sport-specific nouns (e.g., do gymnastics, play tennis, go swimming) are combined with verbs like do, play, and go to create conventionalized formulations (McCarthy & O'Dell, 2005). Similar to this, sequences like setting a world record, facing competition, or setting a personal best show recurring, predictable co-occurrences in the sports world. Collocations are essential to both general and specialized English, as these examples demonstrate.

Overall, the analysis demonstrates that collocation is an important and complex phenomenon in English. Stability, repetition, and predictable co-occurrence of lexical elements are constant characteristics of collocations across lexical, semantic, and structural methods. Further evidence that collocations are not random but rather statistically significant and contextually conditioned is provided by corpus-based research, underscoring their influence on meaning, coherence, and register-specific usage. These results lend credence to the idea that collocation is a sophisticated linguistic construct that illustrates how vocabulary, semantics, and usage patterns interact within the English language system.

Conclusion. The theoretical underpinnings of the English idea of collocation have been investigated in this work, which has also organized current methods for analyzing it. According to the research, collocation is a recurrent and stable collection of lexical units that exhibits predictable co-occurrence patterns that represent grammatical relationships as well as semantic compatibility.

Collocations are essential parts of the English lexical system rather than independent phenomena, as shown by analysis of lexical, semantic, and structural viewpoints. While the semantic approach stresses how lexical linkages shape communicative function, the lexical approach emphasizes how co-occurring words contribute to meaning. By demonstrating that collocations frequently result from the interaction between lexical and syntactic constraints, the structural approach further emphasizes the interconnectedness of lexis and grammar.

These theoretical ideas are empirically supported by corpus-based investigations, which verify the statistical significance and contextual conditioning of collocations. The analysis of specialized corpora, like sports conversation, highlights the importance of collocations in maintaining effective communication and demonstrates their practical usefulness in domain-specific language.

In general, collocation should be viewed as a complex linguistic phenomena that links semantics, syntax, and vocabulary. Understanding collocations' systematic character improves our comprehension of the English language, aids in the creation of instructional and learning techniques, and offers a strong basis for additional linguistic study. The results of this study support the importance of collocation in both theoretical and applied linguistics and help to conceptualize it in a clearer and more organized manner.

References.

1. Firth, J. R. Papers in Linguistics 1934–1951. – London : Oxford University Press, 1957. – 233 p.
2. Halliday, M. A. K. Explorations in the Functions of Language. – London : Edward Arnold, 1973. – 143 p.
3. Lyons, J. Semantics. – Cambridge : Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
4. Sinclair, J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford : Oxford University Press, 1991. – 179 p.
5. Sinclair, J. Trust the Text: Language, Corpus and Discourse. – London : Routledge, 2004. – 225 p.
6. Carter, R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. – London : Routledge, 1998. – 320 p.
7. Lewis, M. The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. – Hove : Language Teaching Publications, 1993. – 200 p.
8. Hunston, S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge : Cambridge University Press, 2002. – 245 p.
9. McCarthy, M. English Collocations in Use / M. McCarthy, F. O'Dell. – Cambridge : Cambridge University Press, 2005. – 190 p.
10. Mel'čuk, I. Collocations and Lexical Functions // Phraseology: Theory, Analysis and Applications. – Oxford : Clarendon Press, 1998. – Pp. 23–53.
11. Cowie, A. P. Phraseology: Theory, Analysis and Applications. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – 258 p.
12. Nesselhauf, N. Collocations in a Learner Corpus. – Amsterdam : John Benjamins Publishing Company, 2005. – 331 p.
13. O'Keeffe, A. From Corpus to Classroom: Language Use and Language Teaching / A. O'Keeffe, M. McCarthy, R. Carter. – Cambridge : Cambridge University Press, 2007. – 315 p.

Ismoilova Nilufar No‘monjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: nilufarismoilova203@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA MATN MASALASINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matn tushunchasi, uning mohiyati hamda lingvistik jihatdan o‘rganilish masalalari batafsil yoritilgan. Matnning tilshunoslikdagi o‘rni, uning tuzilishi, tarkibiy qismlari va asosiy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada matn lingvistikasi rivojiga hissa qo‘shgan olimlarning ilmiy qarashlari ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Matn, tekst, murakkab sintaktik butunlik, superfrazali sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕКСТА В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В данной статье подробно освещаются понятие текста, его сущность, а также вопросы его изучения с лингвистической точки зрения. Рассматривается роль текста в языкознании, его структура, составные части и основные характеристики на научной основе. Также в статье представлены научные взгляды ученых, внесших вклад в развитие лингвистики текста.*

Ключевые слова: *текст, текст, сложное синтаксическое целое, сверхфразовое синтаксическое единство, сверхсинтаксическое единство.*

THE STUDY OF THE TEXT PROBLEM IN LINGUISTICS

Abstract. *This article provides a detailed discussion of the concept of text, its essence, and issues related to its study from a linguistic perspective. The role of text in linguistics, its structure, components, and main characteristics are analyzed on a scientific basis. The article also presents the scholarly views of researchers who have contributed to the development of text linguistics.*

Keywords: *text, text, complex syntactic whole, supraphrasal syntactic unit, supersyntactic unit.*

Kirish. Tilshunoslikda matn nutqning eng yirik birligi hisoblanadi. U alohida gaplar yig‘indisidan iborat oddiy tuzilma bo‘libgina qolmay, balki ma’lum bir kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi, mazmuniy va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Matn orqali inson o‘z fikrini izchil, mantiqiy va tushunarli tarzda ifodalaydi, shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy tajriba va bilimlarni uzatadi.

Zamonaviy tilshunoslikda matnni o‘rganish nafaqat uning ichki tuzilishi, balki uning yaratilish jarayoni, qabul qilinishi hamda kommunikativ vazifalari bilan chambarchas bog‘liq holda tadqiq etiladi. Shu jihatdan matn lingvistik tahlilning muhim obyekti bo‘lib, u tilning amaliy qo‘llanishini aks ettiruvchi asosiy birlik sifatida qaraladi. Ayniqsa, hozirgi davrda vizual elementlarning keng qo‘llanilishi natijasida matn tushunchasi yanada kengayib, an’anaviy yozma shakl bilan bir qatorda vizual matnlar ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Asosiy qism. Matn lotincha “textus” (to‘qilgan mato, tuzilish[12]) so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab yozma shakldagi yozuv yoki asar ma’nosini bildirgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da matn: (a. - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst) 1.Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi“[10], deb izohlanadi. Zamonaviy lingvistikada matn tushunchasi ancha kengaygan bo‘lib, u faqat yozma shakl bilan cheklanmaydi. Matn og‘zaki nutq namunalarida ham (suhbatlar, nutqlar, intervyular, radio va televideniye efirlarida) qo‘llaniladi. Matnning asosiy belgilari uning ichki mazmuniy va grammatik bog‘lanishi hisoblanadi. Mazmuniy bog‘lanish matnning umumiy ma’nosi va mantiqiy izchilligini ta’minlasa, grammatik bog‘lanish esa turli til vositalari orqali matn elementlarini bir-biriga bog‘laydi. Ushbu ikki xususiyat matnni oddiy jumlalar to‘plamidan farqlab turadi va uni yaxlit, mustaqil til

birligiga aylantiradi. Bundan tashqari, har qanday matn axborot berish, ta'sir qilish yoki buyruq berish kabi muayyan kommunikativ vazifani bajaradi.

A.Mamajonov matnga quyidagicha ta'rif bergan: "Tekst – sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida tekst maxsus leksik-grammatik vositalar va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig'indisidan iborat. Tekst o'ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutqning eng yirik ifodasidir"[5].

Tilshunoslikda matn tushunchasiga nisbatan turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, bu holat atamalar va ta'riflar xilma-xilligida yaqqol namoyon bo'ladi. Turli ilmiy maktablar, yo'nalishlar va tadqiqotchilar matnni o'zlarining metodologik va nazariy asoslariga ko'ra turli atamalar bilan belgilab, uning mohiyatini har xil jihatdan yoritishga harakat qilganlar. Masalan, A.Mamajonov matnga nisbatan "superfrazali sintaktik butunlik", I.Rasulov "murakkab sintaktik butunlik", M.Abdupattoyev "supersintaktik butunlik" atamalarini qo'llagan. Shuningdek, turli adabiyotlarda "tekst", "diskurs" atamalaridan ham foydalaniladi.

Jahon tilshunosligida matn masalasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol rivojlana boshladi. Ayniqsa, rus va yevropa tilshunoslari tomonidan matnning nazariy asoslari, tuzilishi, semantikasi va funksional xususiyatlari chuqur o'rganilgan. I.R.Galperin, Ye.A.Referovskaya, K.Kojevnikova, G.Ya.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon, O.I.Maskalskaya, A.A.Metsler, O.L.Kamenskaya kabi olimlar matnni yaxlit, bog'langan va maqsadga yo'naltirilgan kommunikativ birlik sifatida talqin qilishga katta hissa qo'shganlar.

O. I. Moskalskaya rus tilshunosligida matn lingvistikasi va matnga oid nazariy masalalarni har tomonlama tadqiq etgan bo'lib, nutqning tugallangan fikrni ifodalovchi asosiy birligi gap emas, balki matn ekanligini hamda matn sintaktik sathning oliy birligi ekanligini ilmiy asoslab bergan[7].

O'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib 1980-yilda Toshkentda o'tkazilgan Butunittifoq turkiyshunoslarning anjumanida G'.Abdurahmonov matn nazariyasiga oid ma'ruza qilib, o'z fikrlarini bildirgan.

A. Mamajonovning talabalar uchun mo'ljallangan "Tekst lingvistikasi" o'quv qo'llanmasida matn tushunchasining mohiyati, matnning fuksional tiplari va birliklari, matn komponentlarini bog'lovchi vositalar, sintaktik-stilistik figuralar haqida bayon qilinadi. 2002-yilda M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda "Matn sintaksisi"[6] o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Keyinchalik A.Mamajonov, M.Abdupattoyevlar hamkorligida e'lon qilingan "O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti"[2] nomli monografiyada matnning sintaktik, stilistik va semantik o'ziga xosliklari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, o'zbek badiiy nutqiga xos matnlar zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Matn va uning muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlardan yana biri M. Hakimov hisoblanadi. Uning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari aynan shu masalalarga bag'ishlangan. Uning nomzodlik ishida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari o'rganilgan[3]. M. Hakimovning doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag'ishlangan bo'lib, matn lingvistik pragmatika asosida tadqiq etilgan[4].

O'zbek olimlaridan M.Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi"[9] nomli doktorlik dissertatsiyasida matn tilshunosligi tadqiqini tadrijiy o'rgangan.

2010 yilda himoya qilingan S. Boymirzayevaning doktorlik dissertatsiyasi matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini monografik tadqiq etishga bag'ishlangan[1].

Ushbu ishda matn hodisasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari chuqur o'rganilgan bo'lib, matn mazmunini shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydigan modallik va temporallik kategoriyalarining matn mohiyati bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bundan tashqari, matn mazmunining shakllanishi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilgan hamda uning muallif va retsipientning faol ishtirokida kechadigan lisoniy-kognitiv faoliyatning natijasi ekanligi ochib berilgan.

O'zbek tilshunosligida matn tushunchasi A.Mamajonov, M.Hakimov, N.Turniyozov, E.Qilichev, S.Boymirzayeva, M.Yo'ldashev, M.To'xsonov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Matn tushunchasi bo'yicha bir qancha nazariy qarashlar mavjud. Jumladan, E.Qilichev "Matnning lingvistik tahlili" (2004)nomli kitobida "Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ-

estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma”[8], – degan ta’rifni beradi. O‘zbek tilshunoslarining ko‘pchiligi matnni gapdan yuqori turuvchi, yaxlit va tugallangan kommunikativ birlik sifatida talqin qiladilar. Bunda matn oddiy gaplar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir fikrni izchil, mantiqan bog‘langan holda ifodalovchi nutqiy butunlikdir. Matn bir so‘zdan (“O‘qidi.”), so‘z birikmasidan yoki bitta gapdan iborat bo‘lishi mumkin. Biroq uning haqiqiy matn sifatida qaralishi uchun asosiy shart – tarkibidagi birliklar o‘rtasidagi mazmuniy va grammatik bog‘liqlikning mavjudligidir, ya’ni matnda fikrlar bir-birini to‘ldiradi, izohlaydi yoki rivojlantiradi.

Matnning muhim belgilaridan yana biri – yaxlitlik va tugallanganlikdir. Matn ma’lum bir kommunikativ maqsadni ifodalaydi va o‘quvchi yoki tinglovchi uchun tushunarli, yakunlangan fikrni beradi. Shu sababli matn nafaqat til birligi, balki nutq faoliyatining asosiy mahsuli sifatida ham qaraladi.

Zamonaviy davrda matnli ma’lumotlar faqat an’anaviy manbalar – matbuot, ilmiy yoki badiiy asarlardagina emas, balki raqamli muhitda ham jadal tarqalmoqda. Ayniqsa, Telegram, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali har kuni ulkan hajmdagi matnli axborot yaratilmoqda. Bu jarayon natijasida matnli ma’lumotlar hajmi geometrik progressiya asosida keskin oshib bormoqda.

Bunday axborot oqimi inson tomonidan oddiy usullar bilan qabul qilish va tahlil qilishni murakkablashtiradi. Shu sababli matnli ma’lumotlarni tizimlashtirish, saralash va mazmuniy jihatdan chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi matnlar ichidan muhim ma’lumotlarni tez va aniq ajratib olish zarurati ortib bormoqda.

Matnli axborotni vizual shaklda ifodalash, diagrammalar, grafiklar, xaritalar yoki infografikalar orqali taqdim etish, uni yanada tushunarli va samarali qabul qilish imkonini beradi. Vizualizatsiya nafaqat ma’lumotni soddalashtiradi, balki undagi yashirin bog‘lanishlar va tendensiyalarni aniqlashga ham yordam beradi.

Shu bois bugungi kunda matnli ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish masalalari nafaqat tilshunoslikda, balki axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Vizual matnlar – bu matn va tasvirni birlashtirgan holda taqdim etiladigan axborot shakli. Ular odatda grafikalar, diagrammalar, infografikalar ko‘rinishida bo‘ladi. Vizual matnlar axborotni qabul qilish va tushunishni osonlashtiradi.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari deyarli barcha sohalarga kirib bormoqda va bu, albatta, adabiyot va san’atga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. So‘nggi yillarda yaratilayotgan vizual poetik matnlarda ham texnologiyaning ta’siri yaqqol sezilmoqda. E. Minayeva va T. Ponomaryovalar vizual poetik matnlar haqida quyidagicha fikr bildiradilar: “Vizual she’r (vizual poetik matn) bitta takrorlanadigan so‘z yoki iboradan, bir yoki bir necha jumladan, bir necha morfema yoki yordamchi so‘zdan, tovush va harf birikmalaridan tashkil topishi mumkin. Matnga geometrik figuralar, matematik elementlar, verbal va musiqiy belgilar sintezi va boshqalarni kiritish imkoniyati mavjud. Turli xil shakllar, turlicha shriftlar, yorug‘lik va soya kabilar qo‘llanadi; asarga xilma-xil ranglar kiritiladi. Va masalan, XIX asr va XX asr boshlarida yozilgan she’rlar faqatgina figurali bo‘lgan bo‘lsa (ya’ni she’riy satrlar biror-bir predmet yoki figura ko‘rinishida aks etgan bo‘lsa), hozirgi zamon shoirlari verbal va noverbal texnika va usullarning imkon qadar barcha turlaridan foydalanadilar”[14]. Masalan, Faxriyorning “Geometrik bahor” she’rida yurak so‘zining o‘rnida qo‘llangan belgi she’rning ta’sirchanligini yanada oshirgan.

❤(yurak) ning hayajon tekkan joylari
Soyaday qop-qora
ko‘mirga aylanar - ❤
Yurak - hayajon qo‘zg‘agan
bahor proeksiyasi.

Kompyuterda yaratilgan vizual matnlar zamonaviy axborot almashinuvi jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular ma'lumotlarni tez va samarali ravishda yetkazish imkonini beradi. Kelajakda sun’iy

intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalar yordamida vizual matnlarni yaratish va tahlil qilish jarayonlari yanada takomillashishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim, marketing va boshqa sohalarda yangi imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa. Tilshunoslikda matn masalasi bugungi kunda eng muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Matn nafaqat til birliklarining oddiy yig‘indisi, balki mazmun va shakl jihatdan o‘zaro bog‘langan murakkab tizim ekanligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matnning tuzilishi, uning tarkibiy qismlari hamda semantik va sintaktik yaxlitligi uni tilshunoslikning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishni talab qiladi.

Shuningdek, matn lingvistikasi rivojida turli ilmiy maktablar va olimlarning qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ularning ilmiy yondashuvlari matnni chuqurroq anglash, uning kommunikativ va funksional xususiyatlarini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, matnni har tomonlama o‘rganish tilshunoslikning keyingi rivoji uchun mustahkam nazariy asos yaratadi hamda amaliy jihatdan nutq madaniyati, tarjimashunoslik va boshqa sohalarning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Boymirzayeva, S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar : filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2010. – 262 b.
2. Mamajonov, A. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti : monografiya / A. Mamajonov, M. Abdupattoyev. – Farg‘ona : Farg‘ona davlat universiteti, 2021. – 205 b.
3. Ҳакимов, М. Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари : филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 148 б.
4. Ҳакимов, М. Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини : филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – 275 б.
5. Мамажонов, А. Текст лингвистикаси. – Тошкент : Фан, 1989. – 66 б.
6. Мамажонов, А. Матн синтаксиси / А. Мамажонов, М. Абдупаттоев. – Фарғона, 2002. – 106 б.
7. Москальская, О. И. Грамматика текста : Пособие по нем. яз. для ин-тов и фак. иностр. яз. – Москва : Высшая школа, 1981. – 183 с.
8. Қиличев, Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро : Бухоро университети, 2004. – 144 б.
9. Йўлдошев, М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи : филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 280 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати : 5 жилдли. 2-жилд. Е–М / Таҳрир ҳайъати: Э. Бегматов ва б. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
11. Шомақсудов, А. Ўзбек тили стилистикаси / А. Шомақсудов, И. Расулов ва б. – Тошкент : Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
12. Этимологический онлайн-словарь русского языка [Электронный ресурс]. – URL: https://lexicography.online/etymology (мурожаат санаси: 07.05.2026).
13. Минаева, Э. В. Современный поэтический дискурс: коды визуальной поэзии / Э. В. Минаева, Т. А. Пономарева // Современный дискурс-анализ. – 2013. – № 2(9). – С. 37-49.

Javliyev Fayzulla Maxmadustovich
Xalqaro innovatsion universiteti 2 kurs magistri

TALABALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim muhitining psixologik omillari har tomonlama tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kreativ fikrlashni shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu jarayon ko'plab psixologik omillar bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, motivatsiya, emotsional intellekt, refleksiya, kognitiv faollik va ijtimoiy-psixologik muhit talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada innovatsion ta'lim muhiti tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va talaba shaxsiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, kreativ ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning talabalar mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyati hamda yangi g'oyalar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim muhiti talabalarda ichki motivatsiyani kuchaytiradi, ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini oshiradi va ijodiy faolligini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining pedagogik mahorati va psixologik yondashuvi ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, innovatsion ta'lim, psixologik omillar, kreativ fikrlash, motivatsiya, emotsional intellekt, refleksiya, ta'lim muhiti, talabalar faolligi, interfaol metodlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические факторы инновационной образовательной среды, способствующие развитию творческих способностей студентов. В условиях современной системы образования формирование креативного мышления становится одной из приоритетных задач, что обусловливает необходимость изучения психолого-педагогических механизмов данного процесса. Особое внимание уделяется таким факторам, как мотивация, эмоциональный интеллект, рефлексия, когнитивная активность и социально-психологическая среда. В статье раскрывается сущность инновационной образовательной среды, ее структурные компоненты и влияние на личностное развитие студентов. Показано, что использование интерактивных методов обучения и креативных педагогических технологий способствует развитию самостоятельного мышления, способности к решению проблемных ситуаций и генерации новых идей. Результаты исследования свидетельствуют о том, что инновационная образовательная среда усиливает внутреннюю мотивацию студентов, стимулирует их стремление к самосовершенствованию и активизирует творческую деятельность. Кроме того, важную роль играет профессиональная компетентность преподавателя и его психологический подход к обучению. Таким образом, представленная работа раскрывает теоретические и практические аспекты развития креативности студентов в условиях инновационного образования.*

Ключевые слова: *творчество, инновационное образование, психологические факторы, креативное мышление, мотивация, эмоциональный интеллект, рефлексия, образовательная среда, активность студентов, интерактивные методы.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY

Abstract. *This article explores the psychological factors of an innovative educational environment that contribute to the development of students' creativity. In the context of modern higher education, fostering creative thinking has become a key objective, requiring a comprehensive under-*

standing of the psychological and pedagogical mechanisms underlying this process. The study focuses on such factors as motivation, emotional intelligence, reflection, cognitive activity, and the socio-psychological environment. The concept and structural components of an innovative educational environment are analyzed, along with their influence on students' personal and intellectual development. It is emphasized that the use of interactive teaching methods and creative educational technologies enhances students' independent thinking, problem-solving abilities, and capacity to generate new ideas. The findings indicate that an innovative learning environment strengthens intrinsic motivation, promotes self-development, and increases creative engagement among students. Furthermore, the teacher's professional competence and psychological approach play a crucial role in shaping an effective learning environment. Overall, the article highlights both theoretical and practical aspects of fostering creativity in students through innovative educational practices.

Keywords: *creativity, innovative education, psychological factors, creative thinking, motivation, emotional intelligence, reflection, learning environment, student engagement, interactive methods.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - talabalarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda mehnat bozori yuqori darajada moslashuvchan, kreativ fikrlaydigan, yangi g'oyalar yaratishga qodir mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu boisdan, ta'lim jarayonini an'anaviy reproduktiv modeldan innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan modelga o'tkazish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, talabalarning ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim muhitining psixologik jihatlarini chuqur o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik - bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish qobiliyati bo'lib, u murakkab psixologik jarayon sifatida qaraladi. Mazkur jarayonning samarali shakllanishi ko'plab omillarga, jumladan, shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional holati, kognitiv faolligi, reflektiv qobiliyatlari hamda ijtimoiy muhit ta'siriga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta'lim muhiti nafaqat texnologik vositalar majmui, balki talabaning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion ta'lim muhiti o'z ichiga interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, loyiha faoliyati va kollaborativ o'rganish kabi elementlarni qamrab oladi. Bunday muhitda talaba passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etadi, bu esa uning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va ijodiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, psixologik jihatdan qulay, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit talabada o'ziga ishonch hissini kuchaytiradi hamda uning o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, o'qituvchining roli ham tubdan o'zgaradi: u bilim beruvchi emas, balki fasilitator, yo'naltiruvchi va psixologik qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv va psixologik sezgirlikni talab etadi. Demak, talabalar ijodkorligini rivojlantirish jarayonida nafaqat ta'lim texnologiyalari, balki psixologik omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolada talabalar ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim muhitining psixologik omillarini kompleks tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish muammosi psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon murakkab, ko'p omilli hodisa sifatida talqin etib kelinadi. Xorijiy ilmiy maktablarda ijodkorlik, avvalo, yangi va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli g'oyalarni yaratish qobiliyati sifatida izohlanadi; bunda kreativ jarayon faqat individual iste'dod natijasi emas, balki bilim, motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar va muhit o'zaro ta'sirining mahsuli deb qaraladi. Masalan, R. Sternberg va T. Lubartning investitsion nazariyasida kreativlik intellektual jarayonlar, bilim, fikrlash uslubi, shaxsiy sifatlar, motivatsiya hamda muhitning uyg'unlashuvi bilan tushuntiriladi; bu yondashuv ijodkorlikni faqat tug'ma xususiyat emas,

balki rivojlantiriladigan ko‘p komponentli tizim sifatida ko‘rsatadi. T. Amabile esa komponentli nazariyasida kreativ faoliyatning markaziga ichki motivatsiyani qo‘yadi va inson aynan faoliyatning o‘zidan qoniqish olganida, qiziqish va izlanish hissi kuchli bo‘lganida yuqoriroq ijodiy natija ko‘rsatishini asoslaydi. Shu jihatdan innovatsion ta’lim muhiti talabalarning erkin izlanishi, xato qilishdan qo‘rqmasligi, g‘oyalarni sinab ko‘rishi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi bilan kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi psixologik makon sifatida namoyon bo‘ladi. M. Runco va zamonaviy kreativlik nazariyalarida ham ta’limning asosiy vazifasi tayyor bilimni takrorlash emas, balki talabaning divergent fikrlashi, muqobil yechimlar topishi va yangilikka ochiqligini kuchaytirish ekani ta’kidlanadi.

Ijodkorlikning psixologik ildizlarini tushuntirishda L.S. Vygotskiy qarashlari alohida o‘rin tutadi. U ijodiy faoliyatni tasavvur, tajriba va ijtimoiy muhitning o‘zaro bog‘liqligi orqali tushuntirib, insonning yangi obraz va g‘oyalarni yaratishi uning avvalgi tajribasini qayta ishlash va yangicha kombinatsiyalash qobiliyatiga tayanishini ko‘rsatgan. Vygotskiyning bu yondashuvi zamonaviy innovatsion ta’lim muhitining mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, chunki bunda talaba tayyor sxemalarni yodlovchi obyekt emas, balki o‘z tajribasini yangi kontekstlarda qayta quruvchi faol subyektga aylanadi. Vygotskiy bilan bog‘liq zamonaviy sharhlarda ham qulay pedagogik muhitning o‘zi yetarli emasligi, balki o‘quv topshiriqlari talabaning individual xususiyatlari, hissiy kechinmalari va rivojlanish zonasiga mos bo‘lishi lozimligi qayd etiladi. Demak, innovatsion ta’lim muhiti talabalarda ijodkorlikni rivojlantirishi uchun unda nafaqat texnologik yangilik, balki psixologik xavfsizlik, ma’noli muloqot, hamkorlik va refleksiv tajriba ham bo‘lishi kerak. Bu nuqtai nazar kreativlikni shunchaki mahsulot emas, balki shaxsiy o‘sish, emotsional tajriba va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tayangan rivojlanish jarayoni sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Rus psixologik maktabida esa ijodkorlik masalasi tafakkur faoliyati, muammoli vaziyat, intellektual faollik va qobiliyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda tadqiq etilgan. D.B. Bogoyavlenskaya ijodkorlikni “intellektual faollik” tushunchasi orqali izohlab, haqiqiy kreativlik inson berilgan vazifani bajarish bilangina cheklanmay, muammoning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga intilganda namoyon bo‘lishini asoslaydi. Bu yondashuv talabaning ijodkorligi faqat topshiriqni bajarganida emas, balki o‘quv faoliyatida qo‘shimcha savollar qo‘ya olishi, standart chegaradan chiqishi va mustaqil maqsad qo‘yishida ko‘rinishini anglatadi. A.M. Matyushkinning muammoli ta’lim va produktiv fikrlash haqidagi ishlari esa kreativlikning manbai sifatida bilishga qiziqish va muammoli vaziyatni ko‘rsatadi; u kreativ tafakkur aynan kognitiv ziddiyat va izlanish ehtiyoji kuchaygan sharoitda faol rivojlanishini ta’kidlaydi. V.N. Drujinin kognitiv qobiliyatlar tizimida kreativlikni umumiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, uni intellekt bilan oddiy aynanlashtirish mumkin emasligini ko‘rsatadi. M.A. Xolodnaya esa intellektual faoliyatning individual uslublari, kognitiv tajribaning tuzilishi va tafakkur moslashuvchanligi kreativlikning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Ushbu rus olimlari qarashlarini umumlashtirganda, talabalarning ijodkorligi, bir tomondan, bilish motivatsiyasi va muammoli fikrlashga, ikkinchi tomondan esa shaxsning intellektual resurslari va faol pozitsiyasiga tayanuvchi murakkab psixik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillardagi empirik tadqiqotlar ham klassik nazariyalarni tasdiqlab, innovatsion sinf va oliy ta’lim muhiti talaba kreativligini kuchaytirishda katta rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda sinfdagi innovatsion atmosfera ichki motivatsiyani faollashtirishi, darsdagi diqqat va ishtirokni kuchaytirishi, bu esa o‘z navbatida ijodiy fikrlashga ijobiy ta’sir etishi qayd etilgan. Shuningdek, loyihaviy ta’lim, muammoga yo‘naltirilgan yondashuv, SCAMPER kabi kreativ metodlar universitet talabalari ijodkorligini oshirishda sezilarli samara berishi ko‘rsatilgan. Qiziqish va bilishga chanqoqlik bo‘yicha yangi tadqiqotlar esa auditoriyadagi savol berish madaniyati, izlanishga undovchi topshiriqlar va o‘qituvchi-talaba o‘rtasidagi qo‘llab-quvvatlovchi hamkorlik ijodiy faoliyatning muhim psixologik shartlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Shu sababli adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, talabalar ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhitining psixologik omillari qatoriga ichki motivatsiya, bilishga qiziqish, refleksiya, emotsional qulaylik, muammoli vaziyatlar, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlik kiradi. Aynan shu omillarning uyg‘unligi talabaning reproduktiv o‘quv faoliyatidan kreativ va innovatsion faoliyatga o‘tishini

ta'minlaydi; shu bois mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlar bir-birini to'ldirgan holda, innovatsion ta'lim muhitini ijodkor shaxsni shakllantirishning muhim psixologik platformasi sifatida tasdiqlaydi.

Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish muammosi psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon murakkab, ko'p omilli hodisa sifatida talqin etib kelinadi. Xorijiy ilmiy maktablarda ijodkorlik, avvalo, yangi va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli g'oyalarni yaratish qobiliyati sifatida izohlanadi; bunda kreativ jarayon faqat individual iste'dod natijasi emas, balki bilim, motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar va muhit o'zaro ta'sirining mahsuli deb qaraladi. Masalan, R. Sternberg va T. Lubartning investitsion nazariyasida kreativlik intellektual jarayonlar, bilim, fikrlash uslubi, shaxsiy sifatlar, motivatsiya hamda muhitning uyg'unlashuvi bilan tushuntiriladi; bu yondashuv ijodkorlikni faqat tug'ma xususiyat emas, balki rivojlantiriladigan ko'p komponentli tizim sifatida ko'rsatadi. T. Amabile esa komponentli nazariyasida kreativ faoliyatning markaziga ichki motivatsiyani qo'yadi va inson aynan faoliyatning o'zidan qoniqish olganida, qiziqish va izlanish hissi kuchli bo'lganida yuqoriroq ijodiy natija ko'rsatishini asoslaydi. Shu jihatdan innovatsion ta'lim muhiti talabalarning erkin izlanishi, xato qilishdan qo'rqmasligi, g'oyalarni sinab ko'rishi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi bilan kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi psixologik makon sifatida namoyon bo'ladi. M. Runco va zamonaviy kreativlik nazariyalarida ham ta'limning asosiy vazifasi tayyor bilimni takrorlash emas, balki talabaning divergent fikrlashi, muqobil yechimlar topishi va yangilikka ochiqligini kuchaytirish ekani ta'kidlanadi.

Rus psixologik maktabida esa ijodkorlik masalasi tafakkur faoliyati, muammoli vaziyat, intellektual faollik va qobiliyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq etilgan. D.B. Bogoyavlenskaya ijodkorlikni "intellektual faollik" tushunchasi orqali izohlab, haqiqiy kreativlik inson berilgan vazifani bajarish bilangina cheklanmay, muammoning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga intilganda namoyon bo'lishini asoslaydi. Bu yondashuv talabaning ijodkorligi faqat topshiriqni bajarganida emas, balki o'quv faoliyatida qo'shimcha savollar qo'ya olishi, standart chegaradan chiqishi va mustaqil maqsad qo'yishida ko'rinishini anglatadi. A.M. Matyushkinning muammoli ta'lim va produktiv fikrlash haqidagi ishlari esa kreativlikning manbai sifatida bilishga qiziqish va muammoli vaziyatni ko'rsatadi; u kreativ tafakkur aynan kognitiv ziddiyat va izlanish ehtiyoji kuchaygan sharoitda faol rivojlanishini ta'kidlaydi. V.N. Drujinin kognitiv qobiliyatlar tizimida kreativlikni umumiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uni intellekt bilan oddiy aynanlashtirish mumkin emasligini ko'rsatadi. M.A. Xolodnaya esa intellektual faoliyatning individual uslublari, kognitiv tajribaning tuzilishi va tafakkur moslashuvchanligi kreativlikning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Ushbu rus olimlari qarashlarini umumlashtirganda, talabalarning ijodkorligi, bir tomondan, bilish motivatsiyasi va muammoli fikrlashga, ikkinchi tomondan esa shaxsning intellektual resurslari va faol pozitsiyasiga tayanuvchi murakkab psixik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama.

Mazkur tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish innovatsion ta'lim muhitining nafaqat tashkiliy yoki texnologik jihatlariga, balki uning chuqur psixologik komponentlariga ham bevosita bog'liqdir. Muhokama jarayonida aniqlangan asosiy jihat shundan iboratki, kreativlikning rivojlanishi talabaning ichki psixologik holati bilan tashqi ta'lim muhitining o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Agar ta'lim muhiti talabaning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsa, unda ijodiy fikrlash tabiiy ravishda faollashadi; aks holda, hatto eng zamonaviy texnologiyalar ham kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim muhiti talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ichki motivatsiya mavjud bo'lgan sharoitda talaba o'rganish jarayonini majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Bu esa o'z navbatida mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish va yangi g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, xatolardan qo'rqmaslikni shakllantiradi va tajriba qilishga undaydi. Demak, kreativlikni rivojlantirishda psixologik xavfsizlik muhim shartlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, muhokama natijalari refleksiya va metakognitiv jarayonlarning ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Talaba o‘z fikrlash jarayonini tahlil qila olganda, o‘z xatolarini anglab, ularni tuzatish strategiyalarini ishlab chiqadi va bu jarayon kreativ tafakkurning chuqurlashuviga olib keladi. Innovatsion ta’lim muhitida refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlari shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijodkorlik faqat natija emas, balki uzluksiz o‘zgarib boruvchi psixologik jarayon sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchining roli ham muhokama doirasida alohida e’tiborga loyiq. Zamonaviy yondashuvlarda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki fasilitator, motivator va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida qaraladi. O‘qituvchining ochiq muloqotga tayyorligi, talabalarni rag‘batlantirish usullari, individual yondashuvi va kreativ topshiriqlarni to‘g‘ri tanlay bilishi ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, interfaol metodlar va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari talabalarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi, bu esa kreativ g‘oyalar almashinuvi uchun qulay sharoit yaratadi.

Quyidagi jadvalda innovatsion ta’lim muhitining asosiy psixologik omillari va ularning talaba ijodkorligiga ta’siri tizimli tarzda ko‘rsatib berilgan:

№	Psixologik omil	Mazmuni	Ijodkorlikka ta’siri
1	Ichki motivatsiya	O‘rganishga bo‘lgan ichki qiziqish va ehtiyoj	Mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalar yaratishni kuchaytiradi
2	Emotsional qo‘llab-quvvatlash	Ijobiy psixologik muhit, qo‘rquvning yo‘qligi	Xatolardan qo‘rqmaslik va tajriba qilishni rag‘batlantiradi
3	Refleksiya	O‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati	Kreativ tafakkurni chuqurlashtiradi
4	Kognitiv faollik	Faol fikrlash, muammoli vaziyatlarga jalb etilish	Muammoga noodatiy yechim topishni rivojlantiradi
5	Ijtimoiy hamkorlik	Guruhda ishlash va fikr almashish	Innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishini tezlashtiradi
6	Pedagogik qo‘llab-quvvatlash	O‘qituvchining yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi roli	Talabaning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradi

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhiti kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda texnologik yangiliklar bilan bir qatorda psixologik omillarni ham chuqur hisobga olish zarur. Faqatgina shunday integratsiyalashgan yondashuv orqali talabalarda barqaror kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos mutaxassis sifatida tayyorlash mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar va tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u innovatsion ta’lim muhitining psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida kreativ va innovatsion fikrlaydigan shaxslarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda va bu jarayonni samarali tashkil etish, avvalo, ta’lim muhitining mazmuni va psixologik yo‘naltirilganligiga bog‘liqdir. Shu bois innovatsion ta’lim muhiti faqat texnologik vositalar majmui emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, uning ichki salohiyatini ochib beruvchi kompleks psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, talabalar ijodkorligini rivojlantirishda ichki motivatsiya, emotsional qulaylik, refleksiya, kognitiv faollik hamda ijtimoiy hamkorlik kabi psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, ichki motivatsiya talabaning o‘quv faoliyatiga ongli va qiziqish asosida yondashishini ta’minlab, uni yangi bilimlarni izlash va ijodiy g‘oyalarni ilgari surishga undaydi. Emotsional jihatdan qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit esa talabaning o‘ziga bo‘lgan

ishonchini mustahkamlab, xatolardan qo‘rqmasdan erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Refleksiya va metakognitiv jarayonlar esa ijodiy tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qilib, talabaning o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchining roli ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi zamonaviy sharoitda bilim beruvchi emas, balki fasilitator, yo‘naltiruvchi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim. Uning pedagogik mahorati, kreativ yondashuvi va talabalarga individual yondashish qobiliyati ijodiy muhitni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar yaratish kabi innovatsion pedagogik texnologiyalar esa talabalarning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal etish qobiliyatini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhitining psixologik omillarini kompleks tarzda hisobga olish, ularni o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llash va pedagogik jarayonga tizimli ravishda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina shunday yondashuv orqali oliy ta’lim tizimida kreativ, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalar yaratishga qodir va zamonaviy jamiyat talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва : Лабиринт, 1999. – 352 с.
2. Выготский, Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва : Просвещение, 1997. – 93 с.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / edited by M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978. – 159 p.
4. Sternberg, R. J. Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity / R. J. Sternberg, T. I. Lubart. – New York : Free Press, 1995. – 336 p.
5. Sternberg, R. J. How to Develop Student Creativity / R. J. Sternberg, W. M. Williams. – Alexandria, VA : ASCD, 1996. – 134 p.
6. Amabile, T. M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. – Boulder : Westview Press, 1996. – 336 p.
7. Amabile, T. M. Growing Up Creative: Nurturing a Lifetime of Creativity. – New York : Creative Education Foundation, 1998. – 256 p.
8. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ : Prentice Hall, 1986. – 617 p.
9. Богоявленская, Д. Б. Психология творческих способностей. – Москва : Академия, 2002. – 320 с.
10. Дружинин, В. Н. Психология общих способностей. – Санкт-Петербург : Питер, 2007. – 368 с.
11. Матюшкин, А. М. Проблемы творческого мышления. – Москва : Педагогика, 1972. – 224 с.
12. Холодная, М. А. Психология интеллекта: Парадоксы исследования. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 272 с.
13. Runco, M. A. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. – San Diego : Academic Press, 2007. – 512 p.
14. Connery, M. C. Vygotsky and Creativity: A Cultural-Historical Approach / M. C. Connery, V. John-Steiner, A. Marjanovic-Shane. – New York : Peter Lang, 2010. – 245 p.
15. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London : Routledge, 2001. – 176 p.

O'rozboeva Gulshanoy Ixtiyor Qizi
Ma'mun universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: gulshanoyurozboeva@gmail.com

IJTIMOIY TARMOQLARNING INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur ishda ijtimoiy tarmoqlarning inson psixikasiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlarning tushunchasi, ularning turlari hamda psixologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, diqqat, xotira, emotsional holat va stress kabi psixik jarayonlarga ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy ta'siri o'rganilgan. Ishda ayniqsa yoshlar orasida kuzatilayotgan qaramlik muammosi va uning oqibatlari tahlil qilingan. Yakuniy qismda esa ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, psixologik profilaktika va salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Ijtimoiy tarmoqlar, psixika, diqqat, xotira, emotsiya, stress, qaramlik, raqamli muhit, psixologik ta'sir, yoshlar psixologiyasi.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ПСИХИКУ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В данной работе научно проанализировано влияние социальных сетей на психику человека. В ходе исследования раскрыты понятие социальных сетей, их виды, а также психологические основы их функционирования. Кроме того, изучено положительное и отрицательное воздействие социальных сетей на такие психические процессы, как внимание, память, эмоциональное состояние и стресс. В работе особое внимание уделено проблеме зависимости среди молодежи и её последствиям. В заключительной части представлены практические рекомендации, направленные на рациональное использование социальных сетей, психологическую профилактику и снижение их негативного воздействия.*

Ключевые слова: *социальные сети, психика, внимание, память, эмоции, стресс, зависимость, цифровая среда, психологическое воздействие, психология молодежи.*

THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON HUMAN PSYCHOLOGY

Annotation. *This study provides a scientific analysis of the impact of social networks on human psychology. The research examines the concept of social networks, their types, and their psychological foundations. In addition, both positive and negative effects of social networks on cognitive and emotional processes such as attention, memory, emotional state, and stress are investigated. Special attention is given to the issue of addiction among young people and its consequences. The final part of the work presents practical recommendations aimed at the rational use of social networks, psychological prevention, and reducing their negative effects.*

Keywords: *social networks, psyche, attention, memory, emotion, stress, addiction, digital environment, psychological impact, youth psychology.*

Bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar inson ongiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositaga aylangan. Ular nafaqat axborot uzatadi, balki insonning his-tuyg'ulari, qaror qabul qilishi va dunyoqarashini ham shakllantiradi. Shu sababli bu jarayonni chuqurroq tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarining rivojlanishi inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar muloqot, axborot almashish va o'zini ifoda etishning eng qulay vositalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda insonlar kundalik hayotining katta qismi internet va ijtimoiy platformalar bilan bevosita bog'liq.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi nafaqat ijobiy imkoniyatlarni, balki psixologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ular insonning diqqat barqarorligi, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ushbu mavzuni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar - bu foydalanuvchilarga virtual muhitda muloqot qilish, ma'lumot almashish va turli kontent yaratish imkonini beruvchi internet platformalardir. Ular orqali insonlar geografik masofadan qat'i nazar bir-biri bilan bog'lanish imkoniga ega bo'ladi.

Bugungi kunda eng ommabop ijtimoiy tarmoqlar sifatida Telegram, Instagram, TikTok, Facebook va YouTube kabi platformalarni ko'rsatish mumkin. Har bir platforma o'z funksiyasi va auditoriyasiga ega.

Bunday tarmoqlar inson psixikasiga turli mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Ulardan biri - miya mukofot tizimining faollashuvi bo'lib, bu holat dopamin gormonining ajralishi bilan bog'liq. Natijada foydalanuvchi doimiy ravishda yangi bildirishnomalar va "layk"larni kutish holatiga tushadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi tezkor va qisqa kontent diqqatning bo'linishiga olib keladi. Inson bir faoliyatga uzoq vaqt e'tibor qaratishda qiynaladi. Shuningdek, ma'lumotlarning tayyor shaklda berilishi xotira jarayonining sustlashishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy hayot uchun zarur vosita bo'lsa-da, ulardan noto'g'ri foydalanish psixologik muammolarni kuchaytiradi. Ayniqsa yoshlar orasida ularga haddan tashqari bog'lanish o'qish samaradorligi, ijtimoiy munosabatlar va emotsional barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular inson ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir har doim ham bir xil emas: ayrim holatlarda foydali bo'lsa, ba'zida salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar insonlarga tez va oson muloqot qilish imkonini beradi. Ular orqali odamlar uzoq masofalarga qaramay yaqinlari bilan aloqada bo'lib turadi, fikr almashadi va yangiliklardan xabardor bo'ladi. Bu esa o'z navbatida insonda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, turli xil foydali sahifalar va kontentlar orqali bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish imkoniyati ham mavjud.

Avvalo, ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Uzoq masofadagi yaqinlar bilan tez va qulay aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa yolg'izlik hissini kamaytirib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar axborot olishning muhim manbaiga aylangan. Turli sohalarga oid bilimlar, yangiliklar va tajribalar bilan tanishish insonning fikrlash doirasini kengaytiradi. Ayniqsa, ta'limiy kontentlar yoshlarning intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning ortiqcha iste'moli psixik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan muammolardan biri - o'zini boshqalar bilan solishtirish odatidir. Bu esa o'z-o'zini baholashning pasayishiga, ishonchsizlik va tushkunlikka olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan kontent inson kayfiyatiga tezda ta'sir qiladi. Masalan, ijobiy postlar motivatsiya berishi mumkin bo'lsa, salbiy yoki tajovuzkor mazmundagi materiallar stress va tushkunlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, doimiy ravishda ideal hayot tarzini ko'rsatuvchi sahifalarni kuzatish insonda o'z hayotidan norozilik hissini shakllantiradi.

Yana bir muhim jihat - qaramlik (addiksiya). Ko'plab foydalanuvchilar vaqtni nazorat qila olmay, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanib qoladi. Bu esa diqqatning susayishi, ish unumdorligining pasayishi va uyqu rejimining buzilishiga sabab bo'ladi.

Kiberbulling ham dolzarb muammolardan biridir. Onlayn muhitda haqorat va bosimga duch kelish inson ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi, hatto depressiya yoki xavotir buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda me'yorni saqlash juda muhim. Vaqtni to'g'ri taqsimlash, foydali kontentni tanlash va real hayotdagi muloqotlarga ustuvor ahamiyat berish orqali salbiy ta'sirlarni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, ota-onalar va ta'lim muassasalari yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishga o'rgatishi lozim. Bu kelajak avlodning sog'lom psixologik rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish inson psixikasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ko'pchilik foydalanuvchilar boshqalarning hayotini kuzatib, o'zini ular bilan taqqoslay boshlaydi. Bu esa o'zidan qoniqmaslik, past o'zini baholash va hatto tushkunlikka olib

kelishi ehtimolini oshiradi. Bundan tashqari, doimiy ravishda telefonni tekshirish odati diqqatning pasayishiga va vaqtni samarasiz sarflashga sabab bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy tarmoqlar uyqu tartibiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, kechasi uzoq vaqt telefon ishlatish miya faoliyatini faollashtirib yuboradi va insonning to‘liq dam olishini qiyinlashtiradi. Natijada esa charchoq, asabiylik va diqqatning sustlashuvi kuzatiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat aloqa vositasi, balki inson psixikasiga bevosita ta’sir qiluvchi muhitga aylangan. Ular orqali olinayotgan axborot, ko‘rilayotgan tasvirlar va muloqot shakli insonning ruhiy holatini asta-sekin o‘zgartirib boradi. Ayniqsa, bu ta’sir turli psixologik muammolar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri - o‘zini boshqalar bilan taqqoslashdir. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar asosan hayotining eng yaxshi, mukammal tomonlarini namoyish qiladi. Natijada esa boshqa foydalanuvchilar o‘z hayotini kamroq qadrlay boshlaydi. Bu holat o‘zini past baholash, ishonchsizlik va ichki norozilikni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar qaramlikni ham yuzaga keltiradi. Doimiy ravishda yangiliklar lentasini ko‘rish, “layk” va izoh kutish odatga aylanadi. Agar inson kutilgan e’tiborni olmasa, unda tushkunlik, bezovtalik va hatto yolg‘izlik hissi kuchayadi. Bu esa asta-sekin ruhiy zo‘riqishga olib keladi.

Yana bir muhim psixologik muammo - xavotir va stressdir. Doimiy ravishda yangiliklarni kuzatish, ayniqsa salbiy axborotlarga duch kelish inson asab tizimiga bosim qiladi. Natijada odam tez charchaydigan, asabiy va diqqatini jamlay olmaydigan bo‘lib qoladi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki inson ongiga ta’sir etuvchi muhim psixologik omilga aylangan. Ular orqali inson o‘z fikrini bildiradi, boshqalar bilan o‘zaro aloqaga kirishadi va o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi. Biroq bu jarayon har doim ham ijobiy kechavermaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda inson o‘zining ideal obrazini yaratishga intiladi. Fotosuratlarni tahrirlash, muvaffaqiyatli lahzalarni ulashish orqali foydalanuvchi o‘zining “eng yaxshi” ko‘rinishini namoyish etadi. Natijada, real hayot va virtual obraz o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Bu esa insonda ichki ziddiyatlarni, qoniqmaslik hissini kuchaytirishi mumkin.

Qiziqarli jihatlardan biri shundaki, ijtimoiy tarmoqlar insonlarni yaqinlashtirishi bilan birga, ularni real hayotdan uzoqlashtirishi ham mumkin. Onlayn muloqot ko‘paygani sari yuzma-yuz suhbatlar kamayadi. Bu esa insonning ijtimoiy ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yolg‘izlik hissini kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun bir nechta oddiy qoidalarga amal qilish foydali:

- kunlik foydalanish vaqtini cheklash;
- foydali va motivatsion kontentni tanlash;
- o‘zini boshqalar bilan solishtirmaslik;
- real hayotdagi faoliyatlarga ko‘proq vaqt ajratish.

Bundan tashqari, raqamli detoks (ma’lum muddat ijtimoiy tarmoqlardan voz kechish) psixologik tiklanishga yordam beradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish real hayotdagi munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar yuzma-yuz muloqotdan ko‘ra virtual muloqotni afzal ko‘ra boshlaydi. Bu esa ijtimoiy ajralish, yolg‘izlik va emotsional sovuqlikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning “ideal hayoti”ni kuzatish insonda o‘z hayotiga nisbatan qoniqmaslik hissini kuchaytirishi mumkin. Bu esa past o‘z-o‘zini baholash, hasad va emotsional beqarorlik holatlariga olib keladi.

Doimiy axborot oqimi va ijtimoiy bosim stress darajasini oshiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarga psixologik bog‘lanish shakllanib, foydalanuvchi ulardan ajralganda bezovtalik his qiladi. Bu holat raqamli qaramlik sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar faqat texnologik vosita emas, balki inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi kuchli omildir. Agar undan me’yorida va ongli foydalanilmasa, u turli psixologik muammolar - past o‘zini baholash, qaramlik, stress va yolg‘izlik kabi holatlarni keltirib chiqarishi

mumkin. Shu sababli inson o‘z ruhiy salomatligini asrash uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muvozanatni saqlashi zarur. Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me’yorida foydalanish juda muhim. Agar inson o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlab, real hayotdagi munosabatlarga ham e’tibor qaratsa, u holda ijtimoiy tarmoqlar foydali vositaga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar inson hayotini yengillashtiruvchi muhim vosita bo‘lish bilan birga, psixologik jihatdan ham sezilarli ta’sirga ega. Ular diqqat, xotira, emotsiya va stress darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois ijtimoiy tarmoqlardan ongli va me’yorida foydalanish, raqamli gigiyena qoidalariga amal qilish hamda real hayotdagi faoliyatni kuchaytirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Allen, D. Ready for Anything: 52 Productivity Principles for Work and Life. – New York : Viking Books, 2003. – 165 p.

2. Богдан, Н. Н. Мотивация и демотивация профессиональной деятельности персонала вуза (на примере вузов Дальневосточного федерального округа) / Н. Н. Богдан, Е. А. Могилёвкин // Университетское управление: практика и анализ. – 2004. – № 3. – С. 89–97.

3. Гаранян, Н. Г. Перфекционизм и враждебность как личностные факторы депрессивных и тревожных расстройств : автореф. дис. ... д-ра психол. наук. – Москва, 2010. – 42 с.

4. Ильин, Е. П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень. – Санкт-Петербург : Питер, 2011. – 253 с.

Khotamova Parvina Ilhomovna
Associate professor (PhD) of Samarkand State Institute of Foreign Languages
E-mail: parvinaxotamova0@gmail.com

DIFFERENT TECHNIQUES FOR IMPROVING CLARITY AND CONCISENESS IN SCIENTIFIC WRITING, INCLUDING THE USE OF PARALLEL STRUCTURE AND ELIMINATING REDUNDANCY

Abstract. *This article analyzes the key linguistic and stylistic techniques for ensuring precision and conciseness in scientific writing. In particular, the impact of using parallel structures and eliminating redundancy on the quality of scientific text is studied on the basis of Discourse Analysis and corpus analysis. The research results indicate that these methods enhance the logical consistency of the text, facilitate reader perception, and serve to express scientific thought clearly and concisely. Alongside theoretical perspectives, the article provides practical examples and develops recommendations for improving scientific writing.*

Key words: *scientific writing, accuracy, conciseness, parallel structure, redundancy, discourse analysis, stylistics, academic text.*

ILMIY YOZUVDA ANIQLIK VA IXCHAMLIKNI OSHIRISHNING TURLI USULLARI, JUMLADAN, PARALLEL TUZILMADAN FOYDALANISH VA ORTIQCHA TAKRORLARNI BARTARAF ETISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ilmiy yozuvda aniqlik va ixchamlikni ta'minlashning asosiy lingvistik va stilistik usullari tahlil qilinadi. Xususan, parallel tuzilmalardan foydalanish va redundansni bartaraf etishning ilmiy matn sifatiga ta's iri Discourse Analysis va korpus tahlili asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur usullar matnning mantiqiy izchilligini kuchaytiradi, o'quvchi tomonidan idrok etilishini yengillashtiradi hamda ilmiy fikrning aniq va lo'nda ifodalanishiga xizmat qiladi. Maqolada nazariy qarashlar bilan bir qatorda amaliy misollar ham keltirilib, ilmiy yozuvni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ilmiy yozuv, aniqlik, ixchamlik, parallel tuzilma, redundans, diskurs tahlili, stilistika, akademik matn.*

РАЗЛИЧНЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЯСНОСТИ И ЛАКОНИЧНОСТИ В НАУЧНОМ ПИСЬМЕ, ВКЛЮЧАЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ И УСТРАНЕНИЕ ИЗБЫТОЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируются основные лингвистические и стилистические приемы обеспечения точности и лаконичности в научном письме. В частности, влияние использования параллельных структур и устранения избыточности на качество научного текста изучается на основе Discourse Analysis и корпусного анализа. Результаты исследования показывают, что данные методы усиливают логическую последовательность текста, облегчают его восприятие читателем и служат для четкого и лаконичного выражения научной мысли. В статье наряду с теоретическими взглядами приведены и практические примеры, а также разработаны рекомендации по совершенствованию научного письма.*

Ключевые слова: *научное письмо, точность, лаконичность, параллельная структура, избыточность, дискурсивный анализ, стилистика, академический текст.*

Introduction.

In the contemporary landscape of academic and scientific communication, clarity and conciseness have become essential criteria for effective writing. As the volume of scientific publications continues to grow rapidly across disciplines, researchers are increasingly required not only to generate new knowledge but also to present it in a manner that is precise, accessible, and logically struc-

tured. Within the field of Scientific Writing, clarity refers to the ease with which readers can understand a text, while conciseness denotes the ability to convey information using the fewest necessary words without sacrificing meaning or accuracy. These qualities are particularly important in ensuring that scientific findings are communicated efficiently to both specialized and broader audiences.

However, achieving clarity and conciseness in scientific writing remains a significant challenge for many authors, especially for non-native speakers of English and novice researchers. Complex sentence structures, excessive use of passive voice, unnecessary repetition, and poorly organized ideas often hinder the readability of academic texts. Such issues not only reduce the overall quality of the writing but may also obscure the intended meaning, leading to misinterpretation or diminished impact of the research. Consequently, there is a growing emphasis on adopting effective writing techniques that enhance precision and coherence.

Among these techniques, the use of parallel structure and the elimination of redundancy play a crucial role in improving textual clarity. Parallel structure ensures grammatical consistency and balance within sentences, making ideas easier to follow and compare. For example, presenting a series of related concepts using the same syntactic pattern helps readers process information more efficiently and reduces cognitive load. Similarly, eliminating redundancy involves removing unnecessary words, phrases, or repeated ideas that do not contribute additional meaning. This practice not only shortens the text but also sharpens its focus, allowing key arguments and findings to stand out more clearly. In addition to these strategies, other techniques such as precise word choice, logical organization, and effective sentence construction contribute to enhancing the overall quality of scientific writing. These elements are closely related to the principles of Discourse Analysis, which examines how language is used in context to convey meaning and achieve communicative goals. By applying insights from discourse analysis, writers can better understand how to structure their texts in a way that aligns with the expectations of the academic community.

Literature analysis.

The problem of ensuring accuracy and conciseness in scientific writing is considered one of the most important research areas within the framework of modern Scientific Writing. Scientific research conducted in recent decades indicates that the communicative effectiveness of a scientific text is closely linked to its semantic novelty, as well as the precision, structural consistency, and stylistic economy of expression. Therefore, clarity and conciseness are considered as the main criteria of scientific discourse, and the linguistic mechanisms that provide them are deeply analyzed.

The category of accuracy has been interpreted from various perspectives by many researchers. In particular, Joseph M. Williams links accuracy to the degree of rapid and correct perception of the text by the reader, arguing that it can be ensured through syntactic simplicity, logical emphasis, and the accuracy of the information center[1]. In his opinion, the readability of the text increases when the main semantic units (subject and predicate) in the sentence are located close to each other and are not distracted by unnecessary words. This approach made an important contribution to the formation of the concept of *"reader-oriented writing"* in scientific writing. This concept was further developed by George D.Gopen and Judith A. Swan and substantiated through the "reader expectation" theory. According to their research, the reader expects certain syntactic and semantic patterns in the process of perceiving the text; when these expectations are violated, understanding the text becomes difficult. Therefore, the use of parallel structures, the preservation of the logical sequence of sentences, and the reduction of redundancy are interpreted not only as stylistic but also as a cognitive necessity.

Parallel structure is one of the primary tools ensuring grammatical symmetry and semantic balance in scientific writing. In scientific manuals developed by Gerald J. Alred, Charles T. Brusaw, and Walter E. Oliu, parallelism is shown as a tool that reinforces the logical consistency of the text and directs the reader's attention to the content. They note that the data provided by parallel constructions is more easily perceived and the comparison process is simplified. Furthermore, Michael Alley emphasizes the need to apply visual and syntactic minimalism to enhance accuracy in scientific and

[1] Williams J. M. Style: Lessons in Clarity and Grace. – New York: Pearson Education, 2010. – 274 p.

technical writing. He argues that excessively complex sentence constructions and unnecessary terminological repetitions hinder the accurate conveyance of scientific thought. In this regard, his approach is of practical importance in ensuring compactness.

The problem of redundancy has been criticized by many scholars as one of the most common stylistic flaws in scientific writing. Helen Sword analyzes the phenomenon of *"wordiness"* in scientific texts and emphasizes that excessive verbosity is not a sign of scholarship, but a factor of communicative inefficiency. He promotes a simple, clear, and concise style of expression and recommends avoiding pleonasms, tautologies, and synonymous repetitions.

At the same time, Steven Pinker explains the complexity of scientific writing cognitively, linking it to the phenomenon of the "curse of knowledge". In his opinion, if the author cannot align their level of knowledge with the reader's level, the text becomes overly complex and clarity is lost. This once again confirms the need for an audience-oriented approach in scientific writing. Issues of teaching and standardizing scientific writing are also extensively covered in methodological guidelines developed by the American Psychological Association, which define clarity, conciseness, and consistency as the primary requirements for scientific writing. The APA manual explicitly recommends reducing redundancy, using an active ratio, and using parallel constructions.

Ken Hyland also analyzes scientific discourse, viewing clarity and conciseness as a socio-pragmatic phenomenon. In his opinion, a scientific text is not only a means of transmitting information but also a form of communication with the scientific community. Therefore, its clarity and conciseness are determined by the communicative norms of the scientific community. Furthermore, the genre theory developed by John Swales reveals the impact of scientific text structure on clarity and conciseness. He emphasizes that the presence of standard structural elements (IMRAD model) in scientific articles makes it easier to understand the text.

In recent years, Ann M. Penrose and Cheryl Geisler have argued for the need to integrate cognitive and social approaches in the study of scientific writing[1]. Their research shows that accuracy and conciseness are determined not only by linguistic means but also by the author's ability to organize knowledge and adapt it to the audience. These issues are also widely studied within the framework of Discourse Analysis, and the functional load of language units in scientific discourse and their impact on communicative efficiency are deeply analyzed. In particular, the use of parallel structures increases the expressiveness of the text, while the reduction of redundancy increases its information density.

Methodology.

In this study, a comprehensive approach was employed to identify methods for enhancing accuracy and conciseness in scientific writing. Within the framework of the research methodology, methods of Discourse Analysis and Corpus Linguistics were used: at the first stage, a corpus of scientific articles and academic texts was selected, and a corpus analysis was carried out to identify cases of parallel structure and redundancy in them; at the second stage, the impact of these units on the clarity of the text and reader perception was studied using discursive analysis; and at the third stage, the differences in effective and ineffective writing samples were determined through comparative analysis, and experimental rewriting was carried out based on stylistic transformation (i.e., reducing redundant units and optimizing parallel structures). Additionally, qualitative and quantitative analysis methods were integrated during the study, ensuring the reliability and scientific validity of the results.

Results and discussion.

The results of this study showed that ensuring accuracy and conciseness in scientific writing is a complex and multi-layered linguistic process, which occurs through the mutual integration of syntactic, semantic, and pragmatic factors. The analysis was conducted on the basis of Discourse Analysis, and it was found that the level of parallel structure and redundancy management in scientific texts directly affects the coherence of the text and the effectiveness of its perception by the reader. In particular, parallel constructions have emerged as a primary tool for the structural organization of

[1] Penrose A. M., Geisler C. Reading and Writing without Authority // College Composition and Communication. – 1994. – Vol. 45, No. 4. – P. 505–520.

scientific thought and the strengthening of logical sequence. This situation is fully consistent with the *"reader expectation"* theory developed by George D.Gopen and Judith A.Swan, which states that the reader expects certain grammatical and semantic patterns from the text and perceives information faster and more accurately based on these patterns.

The importance of parallel structure is particularly evident in the process of scientific argumentation, classification, and generalization. For example, the following sentence is an imperfect variant often found in scientific texts: *"The aim of the study is to identify key variables, the analysis of data, and how conclusions are formed".* There is a grammatical disproportion in this sentence, and the parallelism is violated. Edited version: *"The aim of the study is to identify key variables, analyze data, and form conclusions".* Here, all three components are given in the same infinitive form, and syntactic symmetry is restored. As a result, the semantic core of the sentence is more clearly manifested, and the process of understanding is simplified for the reader. In another example: *"The research includes collecting data, the interpretation of results, and conclusions are drawn". "The research includes collecting data, interpreting results, and drawing conclusions".* This transformation makes the text coherent and concise through parallel gerund constructions.

Furthermore, parallelism allows for the concise and precise expression of complex scientific ideas. For example: *"Effective academic writing requires clarity, it needs precision, and writers should be concise".* This sentence is structurally uneven. Edited version: *"Effective academic writing requires clarity, precision, and conciseness".* Here, three abstract concepts are presented in the form of parallel nouns, and the text is compact and stylistically perfect.

Analyses conducted to eliminate redundancy have shown that redundant units in scientific writing often arise as a result of the author's desire to increase formality. For example: "*It is very important to note that the results clearly demonstrate a significant increase".* In this sentence, the units "*very important", "to note", "clearly"* are semantically redundant. Optimal variant: "*The results demonstrate a significant increase".* This reduction increases the informational density of the sentence and preserves the primary semantic emphasis. These results align with the principles of precision and conciseness put forward by Joseph M. Williams.

Pleonasm and tautology deserve special attention as common forms of redundancy. For example: "*The basic fundamentals of the theory are essential". "The fundamentals of the theory are essential". Future plans will be implemented later. "Plans will be implemented later". "Every student responded". "Every student responded".* These examples show that when extra units are removed, the meaning of the text is preserved, but its accuracy and conciseness increase. This is a practical solution to the problem of *"wordiness"* put forward by Helen Sword.

Also, excessive formal constructions make the scientific text difficult. For example: *"It should be emphasized that the experiment was conducted under controlled conditions". "The experiment was conducted under controlled conditions". "It is worth noting that the findings are significant". "The findings are significant".* As a result of these transformations, the semantic core of the text is strengthened and the reader's attention is focused on the main information.

The research results also showed that there is a significant correlation between parallel structure and redundancy. In cases where parallelism is not sufficiently applied, the author uses excessive comments and repetitions to clarify the idea. For example: *"The study looks at how students learn, the ways in which teachers apply methods, and it also examines what strategies are used".* This sentence is redundant and uneven. Edited version: *"The study examines how students learn, how teachers apply methods, and which strategies are used".* Here, parallel construction naturally reduces redundancy and makes the text more precise.

These results align with the cognitive approach proposed by Steven Pinker, confirming that redundant and complex constructions create an additional cognitive burden on the student's mind. Conversely, parallel and compact sentences allow for the rapid and efficient processing of information[1]. At the same time, as Ken Hyland emphasizes, scientific writing is a socio-pragmatic system,

[1] Pinker S. The Sense of Style: The Thinking Person's Guide to Writing in the 21st Century. – New York: Viking, 2014. – 368 p.

and its accuracy and conciseness are determined by the norms of the scientific community[1]. This requires not only grammatical correctness but also communicative flexibility from the author.

CONCLUSION

The results of this research have demonstrated that ensuring clarity and conciseness in scientific writing is not only a stylistic requirement but also an essential prerequisite for effective scientific communication. Based on the analysis, it was found that the consistent and conscious use of parallel structures ensures the grammatical balance of the text and strengthens its logical consistency, while eliminating redundancy increases information density and reduces excessive semantic loads. As a result, the scientific text is perceived by the reader faster and more accurately, which serves to effectively convey scientific ideas and results. From the perspective of Discourse Analysis, parallelism and conciseness manifest as important linguistic and pragmatic tools that ensure the coherence and coherence of the text. Furthermore, the research results confirmed that the application of these strategies not only improves the quality of scientific writing but also reduces the reader's cognitive load and optimizes the text comprehension process. In this regard, parallel structure and redundancy management can be evaluated as universal and practically effective tools for improving scientific writing. In conclusion, approaches aimed at ensuring accuracy and conciseness in creating scientific texts not only develop individual writing skills but also serve to ensure effective and high-quality communication within the scientific community.

The list of used literatures.

1. Alley, M. The Craft of Scientific Writing. – 4th ed. – New York : Springer, 2013. – 320 p.
2. Alred, G. J. Handbook of Technical Writing / G. J. Alred, C. T. Brusaw, W. E. Oliu. – 10th ed. – Boston : Bedford/St. Martin's, 2012. – 784 p.
3. Publication Manual of the American Psychological Association : The Official Guide to APA Style. – 7th ed. – Washington, DC : American Psychological Association, 2020. – 427 p.
4. Gopen, G. D. The Science of Scientific Writing / G. D. Gopen, J. A. Swan // American Scientist. – 1990. – Vol. 78. – P. 550–558.
5. Hyland, K. Academic Discourse: English in a Global Context. – London : Continuum, 2009. – 256 p.
6. Penrose, A. M. Reading and Writing without Authority / A. M. Penrose, C. Geisler // College Composition and Communication. – 1994. – Vol. 45, No. 4. – P. 505–520.
7. Pinker, S. The Sense of Style: The Thinking Person's Guide to Writing in the 21st Century. – New York : Viking, 2014. – 368 p.
8. Swales, J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge : Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
9. Sword, H. Stylish Academic Writing. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2012. – 230 p.
10. Williams, J. M. Style: Lessons in Clarity and Grace. – New York : Pearson Education, 2010. – 274 p.

[1] Hyland K. Academic Discourse: English in a Global Context. – London: Continuum, 2009. – 256 p.

Mamatqulov Ilhomjon Chorshanbiyevich
Termiz davlat pedagogika institute,
Tasviriy san'at kafedrasi dotsenti

MUSTAQILLIK YILLARIDA TASVIRIY SAN'AT TURLARINING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN RASSOMLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqola mustaqillik yillarida O'zbekiston tasviriy san'ati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan rassomlar ijodini kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda mamlakat mustaqilligi davrida tasviriy san'at sohasida yuz bergan badiiy-estetik o'zgarishlar, milliy va zamonaviy uslublarning o'zaro uyg'unlashuvi hamda turli janr va yo'nalishlarda faoliyat yuritgan rassomlarning ijodiy izlanishlari keng yoritiladi. Xususan, maqolada rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, monumental san'at, amaliy-bezak san'ati kabi tasviriy san'at turlarining rivojlanish jarayonida alohida o'rin tutgan rassomlar faoliyati tahlil qilinadi. Ularning asarlarida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, istiqlol g'oyalari, zamonaviy badiiy tafakkur va estetik qarashlarning aks etishi ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik davri, tasviriy san'at, rassomlar ijodi, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, monumental san'at, amaliy-bezak san'ati, milliy uslub, badiiy tafakkur, ijodiy izlanish, estetik qarash, san'at taraqqiyoti, ko'rgazma faoliyati, madaniy meros, zamonaviy san'at.*

ХУДОЖНИКИ, ВНЕСШИЕ ВКЛАД В РАЗВИТИЕ ВИДОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению творчества художников, внесших значительный вклад в развитие изобразительного искусства Узбекистана в годы независимости, на основе комплексного и системного подхода. В исследовании широко освещаются художественно-эстетические изменения, произошедшие в сфере изобразительного искусства в период независимости страны, взаимодействие национальных и современных художественных тенденций, а также творческие поиски художников, работавших в различных жанрах и направлениях. В частности, в статье анализируется деятельность художников, сыгравших важную роль в развитии таких видов изобразительного искусства, как живопись, графика, скульптура, монументальное искусство и декоративно-прикладное искусство. На научной основе раскрывается отражение в их произведениях национальных ценностей, исторической памяти, идей независимости, современного художественного мышления и эстетических взглядов.*

Ключевые слова: *период независимости, изобразительное искусство, творчество художников, живопись, графика, скульптура, монументальное искусство, декоративно-прикладное искусство, национальный стиль, художественное мышление, творческий поиск, эстетические взгляды, развитие искусства, выставочная деятельность, культурное наследие, современное искусство.*

ARTISTS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART FORMS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. *This article is devoted to the study of the творчество of artists who made a significant contribution to the development of the visual arts in Uzbekistan during the years of independence on the basis of a comprehensive and systematic approach. The research broadly highlights the artistic and aesthetic changes that took place in the field of visual arts during the independence period, the interaction of national and modern artistic trends, and the creative explorations of artists working in various genres and directions. In particular, the article analyzes the activities of artists who played an important role in the development of such forms of visual art as painting, graphics, sculpture, monumental art, and decorative-applied art. The reflection of national values, historical*

memory, ideas of independence, modern artistic thinking, and aesthetic views in their works is scientifically revealed.

Keywords: *independence period, visual arts, artists' creativity, painting, graphics, sculpture, monumental art, decorative-applied art, national style, artistic thinking, creative exploration, aesthetic views, development of art, exhibition activity, cultural heritage, contemporary art.*

Kirish. O‘zbek madaniyati, ayniqsa, san’atining mustaqillikdan keyingi rivojida O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov farmoniga binoan 1997-yili O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi madaniy rivojning yangi bosqichini ochib berdi.

Yangi oliy badiiy dargoh Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, shahar va viloyatlarda ko‘plab san’at m litsey,va maktablari tashkil topdi. Bular esa o‘z navbatida san’at olamiga ko‘plab san’at ixlosmandlari, ijrochilari va iste’molchilarini yuzaga keltirib, badiiy muhit hayotini jonlantirdi. Bu muhit milliy san’at turlarining rivojlanishi uchun keng sharoitlar yaratdi.

Me’morlik mustaqillik yillarida o‘zbek me’morligining hamma turlari - fuqaro me’morligi, ma’muriy-madaniy qurilish, landshaft, bog‘-park san’ati, shaharsozlikda yangilanish sodir bo‘la boshladi. Qurilish va dizayndagi jahonning eng yangi texnologiyalari an’anaviy milliy mumtoz me’moriy san’at tamoyillari bilan uyg‘unlashib, yangi me’moriy g‘oyalar olamga kirib kela boshladi. Mustaqillik yillari shaharsozlikda mavjud bo`lgan va shakllangan loyiha va rejalar qayta ko‘rib chiqildi, ular yangi me’moriy g‘oyalar bilan boyitildi. Respublikaning poytaxti Toshkent, viloyat markaz va maxallalarii loyihalari ko‘rib chiqildi. Bu loyihalarni amalga oshirishda an’anaviy milliy me’morlik san’ati va zamonaviy memorchilik hamda milliy an’analarining jahon me’morlik san’atining so‘nggi yutuqlari bilan uyg‘unligiga e’tibor berildi.

Mustaqillik yillari respublikada katta qurilish ishlari amalga oshirilib faxrlanishga arziydigan inshootlar barpo etildi, jahon andozasiga mos tekis yo‘llar, keng va yorug‘ ravoqli bozorlar, me’morlikning so‘nggi andozalarida bajarilgan mehmonxonalar qad ko‘tardi.

Bu amaliyotda milliy mumtoz san’at an’analari, jahon me’morlik san’atining yutuqlaridan ijodiy foydalanildi. Bu esa shu davr qurilmalarining betakror ko‘rinishini belgiladi. Bu xususiyat ma’muriy va madaniy binolar, ularning badiiy konstruktiv yechimida o‘z ifodasini topdi. Turkiston saroyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimligi, Sheraton mehmonxonasi, Al-Buxoriy, Al-Farg‘oniy, Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi va boshqa me’moriy majmualarda shu yangi jarayonlar o‘zini yaqqol ko‘rsatadi, davr ruhi o‘z ifodasini topdi.

2021 yil 31 avgust kuni istiqlolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘i va Mustaqillik monumentining tantanali ochilish marosimi bo‘ldi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Adabiyotlar tahlili. “Bugun barchamiz, ko‘pmillatli butun xalqimiz jonajon Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz yillik qutlug‘ bayramining quvonchi va shukuhi bilan yashamoqdamiz. Azal-azaldan obod shahar va qishloqlar, bog‘u rog‘lar, betakror madaniy obidalar bunyodkori sifatida shuhrat qozongan mehnatkash va olijanob xalqimiz pandemiya va global iqtisodiy inqiroz ta’siriga qaramasdan, ushbu tarixiy sanani munosib mehnat zafarlari, ulkan yutuq va g‘alabalar bilan kutib olmoqda, - dedi davlatimiz rahbari”.



Park-bog‘ san’ati, landshaft me’morligi ham shu jarayondan chekkada qolmadi. Yangi hayvonot bog‘i, Akva park, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog` shu o'rinda e’tiborga loyiq.

O‘zbek me’morlik san’atida mustaqillik yillarida yaratilgan me’moriy obidalar davr taraqqiyotini, tinchlik, osoyishtalik va xalqning bunyodkorlik ruhini va buyuk kelajak sari intilishini aks ettiruvchi ko‘zgusi - ramzi sifatida idrok etiladi.

Tasviriy san’at. Mustaqillik yillari tasviriy san’atga ham o‘z o’zgartirishlarini kiritdi. Bular san’atda mafkuraviy nazoratni bekor qilinishi natijasida ijod erkinligini qo‘lga kiritgan rassomlarning uslubiy rang-baranglikda ijod qila boshlashlarida ko‘rinadi. Ijod erkinligi san’atda izlanishlar, turli uslub va yo‘nalishlarning rivojlahishiga olib keldi.

Realistik san’at (hayot shakllari asosiga qurilgan san’at) va avangard - modernizm san’atlarining o‘zaro raqobati kuchaydi. San’atning baholash mezoni ham o‘zgarib, ijodkorning shaxs ichki kechirmalari, o‘y va xayollarini, ong ostida yotgan murakkab tuyg‘ularni qanchalik ifodaviy shakl va ramzlarda ko‘rsata olishi bilan belgilana boshladi[1].

Mustaqillik yillari rassomlik san’atining mavzusi kengaydi. Rassomlarning milliy tarixga murojaati natijasida taqiqlangan jabhalari qayta ko‘rib chiqildi. Ular xolisona baholandi. Shu davrdan yangi-yangi mavzular, eng avvalo, milliy tarix bilan bog‘liq voqealar ko‘pchilik rassomlarni o‘ziga jalb etdi. San’atda milliy tarix bilan bog‘liq portret va kompozitsiyalar paydo bo‘ldi.

Tarixiy shaxslar sohibqiron Amir Temur, ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari uchun tanlovlar e’lon qilindi. Tanlovda Amir Temurning etalon portreti sifatida O‘zbekiston xalq rassomi professor Malik Nabiyevning «Amir Temur portreti» asari qabul qilindi.

Malik Nabiyev tarixiy janrda samarali mehnat qilib kelayotgan rangtasvirchilardan. U 1950-yillarda Abu Rayhon Beruniyning ikonagrafik portreti uchun o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lib, uning asari etalon uchun qabul qilingan edi. Deyarli 50 yildan keyin rassomning yana-yangi tanlovda g‘olib bo‘lishi uning shu soha bilimdoni ekanligini ko‘rsatadi. Bu portret ustida rassom uzoq izlanishlar olib borgan va asari uchun tarixchi Ali Yazdiyning Temur haqidagi tavsifi, Temurning vatani Shahrisabzda mahalliy to`plami kuzatish va o‘rganish hamda antropolog olim Sergey Gerasimovning Temurning bosh suyagi asosida yaratgan haykal portreti asos bo‘lgan.

Portretda rassom Temurga xos shijoat, g‘ayrat, doim atrofga sinchkovlik bilan boquvchi zabardast, qo‘llari katta (Ali Yazdiy uni shunday ta’riflagan), yoshi o‘ta boshlaganiga qaramay tetik bo‘lgan shaxs qiyofasini gavdalantirgan. Sohibqironning ustidagi bezakdor kiyimi, qo’lidagi qilichi uning oliy hukmdorligidan darak beradi.

Ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek portreti uchun o‘tkazilgan tanlov g‘olibi Akmal Ikromjonov, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdining To‘ra Kuryazov tomonidan yaratilgan ikonagrafik portretlari ham tarixiy materiallarni chuqur o‘rganish, qiyosiy taqqoslash asosida yuzaga kelgan. Bu portretlarning har biri o‘zining g‘oyaviy plastik yechimiga ega. Lekin ularda mualliflarning tasvirlanuvchi shaxsga bo‘lgan zo‘r e’tibori va faxr tuyg‘ulari yotadi. Bu portretlar keyingi milliy tarixiy-tasviriy asarlar uchun asos qilib olindi.

Tasviriy san’atda rangtasvir avvalgi yillardagidek yetakchi o‘rinni egallab, ayni shu san’atda izlanishlar olib borildi. Tarixiy mavzudagi asarlar asosan realistik talqin etilishi bilan xarakterlanadi.

Mustaqillik yillarida xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, Go‘ro‘g‘li siymolari birinchi bor rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san’atida yaratildi. Temur davri malikalari qiyofasi ochildi.

Bu yillarda milliy mavzuga e’tiborning ortishi tarixiy janr rivojiga katta turtki berdi. Temur va temuriylar davriga atab shu yillarda qator janrli kompozitsiyalar paydo bo‘ldi.

Malik Nabiyev, Chingiz Axmarov, Ne’mat Qo‘ziboyev, Qutlug‘ Basharov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Sa’dulla Abdullayev, Erkaboy Masharipov, Alisher Aliqulov va boshqalar shu mavzuda yirik asarlar yaratishdi.

Har bir zamon o‘z zamondoshlarining qiyofasini ko‘rishni istaydi. Bu tabiiy. Chunki davr kishilarining ruhiy olami, ularning borliqqa, tabiatga bo‘lgan qiziqishlari shu san’atda o‘z ifodasini topadi. Sobir Rahmetov, Muhammad Nuriddinov, Yigitali Tursunnazarov, Chori Bekmirov, O. Bakirov, Bahodir Salomov va boshqa rassomlar ijodida shu san’atning yangi qirralarini ko‘rish mumkin.

[1] N.Abdullayev “O`zbekiston san’at tarixi”. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T-2007y. 202-211 b

Rahim Ahmedov, Ne'mat Qo'ziboyev, Akmal Ikromjonov, Anvar Mirsoatov, Yunusovlarning manzara va natyurmortlari o'zining his-tuyg'ularga boy xislatlari bilan yangi davr ruhini ifodalaydi.

Mustaqillik yillari miniatyura san'atininghaqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Ayniqsa, lokli miniatyura san'ati o'zining kamolotiga erishdi.

Shomahmud Muhammadjonov, G'ayrat Kamolov, Toir Boltaboyev, Xurshid Nazirov, Alisher Yo'ldoshev, Bahodir Yo'ldoshev, Ubaydulla Qosimov kabi miniatyurachilar ijodida shu san'atning ajoyib namunalari yaratildi. Bu san'atda Niyozali Xolmatov akademik unvoniga sazovor bo'ldi.

Mustaqillik yillaridarealistik san'at yo'nalishi bilan bir qatorda avangard san'ati yo'nalishlari o'ziga yo'l ochib bordi.

O'z ijodini akademik san'at yo'nalishida boshlab katta yutuqlarga erishgan Bahodir Jalolov, Vyacheslav Oxunov, Akmal Nuriddinov (Akmal Nur), Jamol Usmonovlar avangard san'atidagi ijodi e'tiborli. Bu san'atkorlar g'arb akademik san'ati an'analarini chuqur o'zlashtirgan va o'z vaqtida shu san'atning nodir namunalarini yaratgan bo'lsalar, 90-yillardan keyin avangard san'atida e'tiborga loyiq asarlar yaratib munozaralarga tomoshabinni chorladilar.

Ularning ishlarida xayoliy tasavvurlarga burkangan, ramziy assotsiativ shakllar majmuasida sharqona ohangli, falsafiy xayollarga olib ketuvchi murakkab kompozitsiyalar gavdalanadi. Ularning keyingi yillarda yaratgan asarlarida erkin, har qanday pand-nasihat, biror-bir g'oyani asoslash yoki targ'ib qilish emas, balki erkin holda shoirona xayollarga berilish, dunyo va tabiat mo'jizalaridan hayratlanish ko'proq namoyon etiladi. Rang, shakl, ramzlar esa shu xayollarni materiallashtiradi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillaridamonumental san'at ham o'zining yangi bosqichini boshladi. Bu davrda barpo etilgan ma'muriy-madaniy binolar san'atkorlar asari bilan bezatildi.

Rassomlar haykaltarosh, o'ymakor va naqqoshlar me'morlar bilan hamkorlikda san'at sintezining ajoyib namunalarini yaratdilar. Landshaft arxitekturasi, vitraj, koshinkorlik, kulolchilik kandakorlik, badiiy shisha bu san'atda o'z o'rnini topdi.

Turkiston saroyi Biznes markaz, Interkontinental, Sheraton va Meridian mehmonxonalar Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimiyati, Oliy majlis binosi, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda qurilgan madaniy binolar yangi davr ruhini o'zida mujassamlashtirdi.

Mustaqillik yillarida respublikaning qator viloyat, shahar, tumanlarida yoshlarga tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha litseylar, maxsus internat maktablar ochilib, iste'dodli yoshlarga tasviriy san'atdan chuqurlashtirilgan bilim va malakalar berish keng yo'lga qo'yildi. Oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, nazariyasi va tarixi bo'yicha magistratura va aspiranturalar ochilmoqda. U yerda xalqimizning iste'dodli yoshlari bilim olib, jahonga mashhur rassom, san'atshunos, pedagog-olimlar bo'lib yetishib chiqib, O'zbekiston tasviriy san'atini jahon san'ati darajasiga olib chiqishdek sharafli va mas'uliyatli vazifani amalga oshirmoqdalar.

Mustaqillik yillari grafika san'ati texnika va texnologiyalar bilan boyidi. Kompyuter texnologiyalari bu san'atga bo'lgan talabni butunlay o'zgartirib yubordi.

Poligrafiya ishlari sifat jihatidan yangilandi. Plakat, amaliy grafikada kompyuter o'zining mustaqil o'rnini egalladi. Bu yillardan grafikaning qalamtasvir va bosma grafikaning gravyura turlari yetakchi o'rmni egalladi. Ularda ham realistik va avangard yo'nalish, ham milliy romantizm xususiyatlari uyg'unligi izlanish maydoniga kirdi.

Mustaqillik yillari haykaltaroshlik san'ati uslubiy rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Dastgoh, monumental, dekorativ va mayda haykaltaroshlikda asarlar yaratildi. Lekin monumental va mayda haykaltaroshlik bu san'atda yetakchi o'ringa chiqdi. Monumental haykaltaroshlikda tarixiy mavzudagi asarlar realistik uslubda bajarildi. Tarixiy shaxslar, sarkardalar, xalq qahramonlari Amir Temur, Zahiriddin Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Farg'oniy, Alpomish haykallari yaratilib, maydonlarga o'rnatildi.

Yozuvchi, shoir, rassom, bastakor va boshqa ziyolilar xotirasi uchun me'moriy-memorial haykallar majmualari yaratildi.

Mustaqillikdan keyingi yillar mahobatli haykaltaroshlik uchun sermahsul bo'ldi, respublika va xorijda ko'plab yodgorliklar o'rnatildi. Agar shulami birma-bir ko'zdan kechiradigan bo'lsak, shu san'atda ham yangi jarayonlar boshlanganligining shohidi bo'lamiz.

Jumladan, mustaqillik yillarining dastlabki yillarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan atalgan Milliy bog'ning baland qismida barpo etilgan me'moriy haykaltaroshlik majmuasi

ajralib turadi. Samarqandlik haykaltaroshlar Eynulla Aliyev boshchiligida bajarilgan bu majmua o‘z atrofiga katta maydonni birlashtirib markazga aylangan. Haykal tepalikda atrofi ustunlar bilan o‘ralgan gumbazli ayvon ichida - ko‘shkda o‘rnatilgan. Alisher Navoiy haykali shu ko`shk bilan yaxlit idrok etilgan holda kishini o‘ziga jalb eta boshlaydi va shu asnoda uning mazmuni ochiladi.

Bronzadan yasalgan bu yodgorlikda tomoshabin tomon shaxdam harakatda odimlab kelayotgan shoir aks ettirilgan. Haykal harakatga boy. Bu harakat shoirning orqaga tashlangan qo`l va old tomonda turgan hassada kuchaytirilgan. Haykalga xos bo‘lgan yana bir fazilat bu asarni uzoq va yaqindan ko‘rishga mo‘ljallanganligida. Unga uzoqdan nazar tashlanganda yaxlit harakatdagi siymo ko‘rinsa, yaqinlashgan sari uning o‘rnida shohona libosdagi kiboriy shaxs gavdalanadi. Uning bejirim soqol- mo‘ylablari, yelkadan oshib orqaga tashlangan hilpirab turgan salla matosining jimjimalari diqqatni torta boshlaydi va uzoqlarga tikilgan ma’nodor ko‘zlari uning ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Haykal o‘rnatilgan ayvonning ship halqasiga o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi Navoiyning do‘stlik va tinchlikni qadrlashga bag fiishlangan to‘rtligi esa mazkur majmua mazmunini yanada boyitadi.

Mustaqillik yillari mahobatli haykaltaroshligining yana bir tomoni shundaki, bu yillardan boshlab uzoq vaqt tilga olinmagan yoki taqiqlangan mavzularda birinchi bor keng ko‘lamda haykallar ishlari amalga oshildi.

O‘tmishning buyuk sarkarda va xalq qahramonlari, qatag‘on qurbonlariga atab yodgorliklar yaratildi. Shunday mavzuda ishlangan dastlabki haykal bu buyuk sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlandir.

1993-yili poytaxt Toshkentda uning markaziy xiyobonida, Amir Temur tavalludining 560 yilligini nishonlash tantanalari kunlari esa sohibqironning ona yurti Shahrisabzda, davlatining poytaxti Samarqandda ochildi. Har uchala haykal bir-biridan o‘zining kompozitsion yechimi va ruhiy holatining qirralari bilan ajralib turadi.

Muhokama. O‘tirgan holatda ishlangan Samarqanddagi yodgorlikda tinib-tinchimas, huzur-halovatni bilmagan, bezovtalik doimiy hamrohi bo‘lgan sarkarda gavdalansa, vatani Shahrisabzda o‘rnatilgan haykalida yurtidan turib uzoqlarga boqqan sarkarda siymosi paydo bo‘ladi. Toshkent yodgorligi biroz oldin ishlangan bo‘lishiga qaramay uchlikka yakun yasagandek tuyuladi. Unda uzoq janglardan g‘olib qaytgan sarkardani olqishlayotgan xalq oldida ot jilovini tortib to‘xtatib, unga baxt-saodat, tinchlik tilagandek qo‘llarini yuqoriga ko‘targan holda ishlangan.

Haykalning tagkursisiga yozilgan “Kuch- adolatdadir” hikmati kompozitsiya mazmunini chuqurlashtirib, go‘yo buyuk sohibqironning jonli ovozi eshitilayotgandek tuyuladi. Bu haykallar an’anaviy realistik san’atning hikoyanavis yo‘nalishida ishlangan bo‘lib, ulardagi har bir chiziq va shakl, hayotiy maishiy buyum va unsurlar asar mazmunini chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu asarlar ham uzoq va yaqin idrokka mo‘ljallangan. Asarning bunday yechimi tomoshabinga tasvirlanuvchi haykalni uzoq vaqt tomosha qilish va asta u bilan muloqot qilish imkoniyatini tug‘diradi.

Biz ta’riflayotgan mazkur haykallar akademik Ilhom Jabborov boshchiligida amalga oshirilgan.

Amaliy san’atrivojiniO‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov farmoniva hukumat qarorlari, ularning amaliy san’at va xalq hunarmandchiligining rivojlantirilishiga qaratilgan tadbirlari belgilandi.

«Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davla tomonidan qo‘llab-qo‘ltiqlash tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, «O‘zbekiston xalq ustasi» unvonining ta’sis etilishi bu jarayonda muhim omil bo‘ldi. Amaliy-bezak san’ati va hunarmandchilik bozor iqtisodiga moslashib bordi.

Uning tur va janrlari bozor iqtisodi bilan bog‘liq holda rivojlandi. Shu sohaga oid shaxsiy ustaxona va korxonalar tashkil etildi va etilmoqda, muzeylar ochilmoqda.

Xulosa. Mustaqillik yillarida kulolchilik san’ati ham o‘zining yangi davrini boshladi. Uning yetuk vakillari Akbar Rahimov, Sharofiddin Yusupov, Xudoyberdi Haqberdiyev, Sharif Azimov shu yillarda akademik unvoniga sazovor bo‘ldilar.

Bu san’atkorlaming har bin o‘z uslubiga ega va bir- biridan asarlarni yaratish uchun ashyo tanlash, ularga shakl va bezak berishda ajralib, kulolchilik san’atining bugungi rang-barangligini belgilaydi.

90-yillardan o‘ymakorlik san’ati, ayniqsa, uning yog‘och o‘ymakorligi turlarining haqiqiy rivojlanish davri bo‘ldi. Uning maishiy va monumental yo‘nalishlarida ko‘plab asarlar yaratildi va yaratilmoqda. 90-yillar oxirlaridan esa uning mahobatli turi keng rivoj topdi. Barpo etilgan me’moriy majmualarda, ayniqsa, tarixiy sanalar bilan bog‘liq turlarida bu san’at o'zining salmoqli o‘rnini egallab davr mazmuni bilan boyidi.

Bu sohada mehnat qilgan xalq ustasi Abdug‘ani Abdullayevga O‘zbekiston xalq qahramoni unvoni berildi. Shu yillardan boshlab barpo etilgan Samarqandda buyuk mutafakkir Al-Buxoriy, Farg‘onada munajjim Ahmad al-Farg‘oniy, Toshkentda Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi maydonlaridagi me’moriy majmualar, ma’muriy, madaniy binolarda shu san’at opining o‘rnini oldi.

Yog‘och o‘ymakorligi san’atning boshqa mahobatli turlari bilan birgalikda shu davrdagi san’at uyg‘unligining ajoyib yodgorligiga aylandi. Badiiy kandakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, gilamdo‘zlik, chinni san’ati ham o‘zining davr ruhi bilan sug‘orilgan asarlarini dunyoga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mamatqulov, I. Ch. Rangning xususiyatlari va ular haqida ta’limotlar // Inter education & global study. – 2024. – № 1. – B. 83–94. – DOI: 10.24412/2992-9024-20.
3. Mamatqulov, I. Ch. O‘rta Osiyoda tasviriy san’atning rivojlanish tarixi // Inter education & global study. – 2024. – № 3. – B. 184–194.
4. Mo‘minov, B. Ta’lim jarayonida foydalanilgan grafik dasturlar, hamda AutoCAD va 3D MAX grafikasi dasturlarining imkoniyatlari / B. Mo‘minov, I. Mamatqulov // Universum: технические науки. – 2021. – № 11-5 (92). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/graphic-programs-used-in-the-learning-process-as-well-as-the-capabilities-of-autocad-and-3d-max-graphics-programs (murojaat sanasi: 17.04.2026).
5. Toshpulatov, F. U. Xalq amaliy san’atining chizmachilik fani bilan bog‘liqligi / F. U. Toshpulatov, R. E. Norqochqorov, X. N. Maxmudova // Academic research in educational sciences. – 2021. – № 2 (2). – B. 138–142. – DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00175.
6. Chorshanbeyevich, M. I. Rezbalarni va biriktirish detallarini chizmalarda tasvirlash / M. I. Chorshanbeyevich, J. R. Suyunovich, B. Jo‘rayevna // Shokh Articles Library. – 2025. – № 1 (1).
7. Маматкулов, И. Ч. Цветовая единица и цвет в пейзаже // Экономика и социум. – 2023. – № 11 (114)-2. – С. 767–771.
8. Toshpulatov, F. U. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies // International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Vol. 6. – P. 3–3.
9. Toshpulatov, F. U. Games that develop children's interest in the profession based on game technology / F. U. Toshpulatov, R. B. Turopova // Science and Education. – 2021. – № 2 (4). – P. 487–491.
10. Toshpulatov, F. U. O‘quvchilarda tipik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini rivojlantirish // Fizika-texnologiya ta’limi. – 2022. – № 4.

Axnazarova Diyora Erkin qizi
Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

TURMUSH QURISH YOSHIDAGI YIGITLARNING O‘ZIGA JUFT TANLASHDAGI STEREOTIPLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlash jarayonida shakllanadigan stereotip qarashlari ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender rollari, ijtimoiy norma va qadriyatlarning ushbu jarayonga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda gender tengligi siyosati va ijtimoiy transformatsiyalar natijasida stereotiplarning o‘zgarish tendensiyalari yoritiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy stereotiplar hanuz mavjud bo‘lsa-da, yoshlar orasida individual moslik va o‘zaro hurmatga asoslangan yondashuv kuchayib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: stereotip, juft tanlash, gender rollari, nikoh, ijtimoiy norma, yoshlar.

ИЗУЧЕНИЕ СТЕРЕОТИПОВ ВЫБОРА ПАРТНЁРА У МОЛОДЫХ МУЖЧИН БРАЧНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье анализируются стереотипные представления, формирующиеся у молодых мужчин брачного возраста в процессе выбора партнёра, с социологической и психологической точек зрения. В исследовании рассматривается влияние гендерных ролей, социальных норм и ценностей на данный процесс. Также освещаются тенденции трансформации стереотипов в условиях современной социальной среды и политики гендерного равенства. Результаты анализа показывают, что, несмотря на сохранение традиционных стереотипов, среди молодёжи усиливается ориентация на индивидуальную совместимость и взаимное уважение.*

Ключевые слова: *стереотип, выбор партнёра, гендерные роли, брак, социальные нормы, молодёжь.*

STUDY OF STEREOTYPES IN MATE SELECTION AMONG MARRIAGE-AGE YOUNG MEN

Abstract. *This article examines stereotypical perceptions formed among young men of marriageable age in the process of mate selection from sociological and psychological perspectives. The study analyzes the influence of gender roles, social norms, and cultural values on this process. It also highlights the transformation of stereotypes in the context of contemporary society and gender equality policies. The findings indicate that, although traditional stereotypes persist, there is a growing tendency among young people to prioritize individual compatibility and mutual respect.*

Keywords: *stereotype, mate selection, gender roles, marriage, social norms, youth.*

Kirish. Nikoh va oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inson hayotida juft tanlash jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanib, u nafaqat shaxsiy istak va ehtiyojlar, balki jamiyatda shakllangan stereotip qarashlar, qadriyatlar va ijtimoiy normalar asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlashdagi qarorlari ko‘pincha an’anaviy gender rollari va ijtimoiy kutishlar ta’sirida shakllanadi.

Sotsiologik yondashuvga ko‘ra, stereotiplar - bu jamiyatda shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan umumlashgan qarashlar bo‘lib, ular shaxsning dunyoqarashi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Juft tanlash jarayonida bu stereotiplar ayolning oiladagi roli, erkakning mas’uliyati, tashqi ko‘rinish, xulq-atvor va ijtimoiy mavqega oid mezonlar orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatida ijtimoiy transformatsiya jarayonlari natijasida ushbu stereotiplar asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Ayollarning ta’lim olish darajasi oshib borayotgani, ularning iqtisodiy

va ijtimoiy hayotdagi faolligi kuchayayotgani natijasida an'anaviy gender rollari qayta ko'rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, erkaklarning ham oilaviy hayotdagi ishtiroki ortib, farzand tarbiyasi va uy-ro'zg'or masalalarida faol qatnashishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son Farmoni "Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" oilaning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini kompleks tarzda belgilab beradi [1]. Ushbu hujjatda yoshlarning nikohga ongli yondashuvi va mustahkam oila qurishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu bevosita juft tanlash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlashdagi stereotiplarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur stereotiplar kelajakdagi oilaviy munosabatlar sifatiga, oila barqarorligiga va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi.

Juft tanlash jarayoni va unga ta'sir etuvchi stereotip qarashlar masalasi sotsiologiya, psixologiya va gender tadqiqotlari doirasida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mazkur muammo XX asr o'rtalaridan boshlab tizimli ravishda tadqiq etila boshlagan.

Xususan, amerikalik sotsiolog T. Parsons tomonidan ishlab chiqilgan struktur-funksional yondashuvda oiladagi gender rollari ijtimoiy tizim barqarorligini ta'minlovchi muhim element sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv doirasida erkak va ayol rollarining an'anaviy taqsimoti juft tanlash mezonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslab berilgan.

Keyinchalik, P. Berger va T. Lukkmann tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiy reallikning konstruksiyasi" nazariyasida stereotiplar jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy konstrukt sifatida izohlanadi. Mazkur nazariya juft tanlash jarayonida shaxs qarorlarining ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy davrda A. Giddens tomonidan ishlab chiqilgan strukturatsiya nazariyasi doirasida individ va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi chuqur tahlil qilinib, an'anaviy stereotiplarning transformatsiyasi jarayoni yoritilgan. R. Inglehart esa o'z tadqiqotlarida modernizatsiya jarayonida qadriyatlarning o'zgarishi, jumladan, gender rollari va oilaviy qarashlarning evolyutsiyasini asoslab bergan.

Psixologiya yo'nalishida esa juft tanlash motivlari va stereotiplar masalasi D. Buss kabi olimlar tomonidan evolyutsion yondashuv asosida o'rganilib, shaxsiy tanlov va biologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan.

O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo ilmiy maktabida mazkur masala mustaqillikdan keyingi davrda faol o'rganila boshlagan. Xususan, o'zbek olimlaridan A. Abduqodirov oila psixologiyasi doirasida oilaviy munosabatlar, nikohga tayyorgarlik va shaxslararo moslik masalalarini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida yoshlarning oilaviy qarorlariga psixologik omillar ta'siri alohida o'rin egallaydi.Shuningdek, O. Musurmonova tomonidan oila ma'naviyati va qadriyatlari doirasida olib borilgan tadqiqotlarda an'anaviy oilaviy qarashlar, axloqiy me'yorlar hamda ularning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri yoritilgan. Ushbu ishlarda juft tanlash jarayonida ma'naviy omillarning ustuvorligi asoslab berilgan. Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar esa B. Yuldashev tomonidan jamiyatdagi transformatsiya jarayonlari, gender rollarining o'zgarishi va yoshlar qarashlaridagi yangilanish tendensiyalari tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar stereotip qarashlarning o'zgaruvchan xarakterini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati doirasida ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida turmush qurish yoshiga yetgan yigitlarning (taxminan 20–30 yosh oralig'idagi) juft tanlashga oid qarashlari olindi. Tadqiqot predmeti esa aynan ushbu yosh toifasidagi yigitlarning juft tanlash jarayonida namoyon bo'ladigan stereotip qarashlari, ularning shakllanish omillari hamda qaror qabul qilish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siridan iboratdir. Tadqiqotda turli ijtimoiy qatlam vakillari - talabalar, ishchi yoshlar va oliy ma'lumotga ega bo'lgan respondentlarning fikrlari umumiy holda ko'rib chiqildi, bu esa masalaga kengroq yondashish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiylik va obyektivlikni ta'minlash maqsadida bir nechta metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali sotsiologiya va psixologiya sohalarida stereotiplar, gender rollari hamda juft tanlashga oid mavjud nazariy yondashuvlar o'rganildi. Ushbu metod tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, taqqoslash metodi yordamida an'anaviy va zamonaviy qarashlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, stereotiplarning o'zgarish tendensiyalari tahlil qilindi. Bu usul orqali jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyalar natijasida yuzaga kelayotgan yangicha yondashuvlar yoritib berildi.

Tadqiqotda kuzatish va umumlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Kuzatish orqali yoshlar orasida keng tarqalgan qarashlar va xulq-atvor namunalari o'rganildi, umumlashtirish orqali esa olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, muayyan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Mazkur maqola asosan nazariy tahlilga asoslangan bo'lib, ochiq manbalardagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda umumiy sotsiologik yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Shu sababli unda keltirilgan ayrim xulosalar umumiy ilmiy qarashlar asosida berilgan bo'lib, aniq empirik statistik tadqiqot natijalari bilan cheklanmagan.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, stereotip qarashlarning mohiyatini ochib berish hamda ularning jamiyatdagi o'rni va ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlash jarayonida stereotipik qarashlar sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Olingan empirik ma'lumotlar tahlili respondentlarning qaror qabul qilish mexanizmida an'anaviy gender rollari hamda zamonaviy individual yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mavjudligini tasdiqlaydi[2]. Mazkur tendensiya ijtimoiylashuv jarayonining to'liq transformatsiyaga uchramaganligini anglatadi. Shaxs bir vaqtning o'zida ham an'anaviy madaniy me'yorlar, ham zamonaviy ijtimoiy qadriyatlar ta'siri ostida qaror qabul qiladi. Bu esa stereotiplarning ong osti darajasida barqaror saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, respondentlarning katta qismi ayolning ijtimoiy rolini asosan uy xo'jaligi yuritish va farzand tarbiyasi bilan bog'laydi, erkak esa oilaning iqtisodiy ta'minotchisi sifatida tasavvur qilinadi. Bu holat jamiyatda tarixan shakllangan patriarxal modelning davomiyligini tasdiqlaydi [3].Mazkur natija gender rollarining ijtimoiy konstruksiya sifatida barqarorligini ko'rsatadi. Ushbu konstruksiya faqat madaniy an'ana emas, balki iqtisodiy mas'uliyatni jinslar o'rtasida taqsimlashga asoslangan ijtimoiy mexanizm sifatida ham amal qiladi. Shu sababli stereotiplar faqat fikr darajasida emas, balki amaliy qarorlar darajasida ham namoyon bo'ladi.Shuningdek, juft tanlash mezonlarida axloqiy sifatlar - kamtarlik, odoblilik va oilaparvarlik ustuvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu natija o'zbek jamiyatida ma'naviy qadriyatlarning hanuzgacha muhim ijtimoiy indikator sifatida saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan yana bir muhim tendensiya shundan iboratki, yoshlar orasida ayollarning ta'lim olishi, kasbiy faoliyat yuritishi va ijtimoiy hayotdagi faolligiga nisbatan ijobiy munosabat kuchayib bormoqda. Bu esa stereotiplarning transformatsiya jarayonida ekanligini ko'rsatadi [4]. Ta'lim darajasining oshishi va axborot almashinuvi kengayishi natijasida yoshlar stereotipik qarashlarni qayta baholashga moyil bo'lmoqda. Bu esa juft tanlash mezonlarida psixologik moslik va o'zaro hurmatning ahamiyati ortayotganini bildiradi.

R. Inglehartning "postmaterialistik qadriyatlar nazariyasi"ga ko'ra, iqtisodiy barqarorlik oshgan sari shaxslar moddiy emas, balki ma'naviy va psixologik sifatlarni ustuvor qo'ya boshlaydi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon endi boshlanayotganini ko'rish mumkin. Biroq tadqiqot natijalari zamonaviy o'zgarishlarni ham ko'rsatdi. Yoshlar orasida ayollarning ta'lim olishi va kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat kuchaymoqda. Bu gender tengligi g'oyalarining kengayib borayotganidan dalolat beradi [4].

Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, juft tanlash jarayoni faqat individual tanlov emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida shakllanadi. Ushbu tizimda stereotiplar hali ham muhim rol o'ynaydi, biroq zamonaviy qadriyatlar ta'sirida ularning transformatsiyasi davom etmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlash jarayonida shakllanadigan stereotip qarashlarning mohiyati, ularning shakllanish omillari hamda zamonaviy ijtimoiy sharoitdagi transformatsiyasini tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, juft tanlash jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, unda individual istaklar bilan bir qatorda ijtimoiy norma, madaniy qadriyatlar va an’anaviy qarashlar muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari stereotip qarashlarning hanuzgacha barqaror saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. Xususan, gender rollarining an’anaviy taqsimoti - erkakning moddiy ta’minotchi, ayolning esa oilaviy muhitni tashkil etuvchi sifatidagi tasavvuri yigitlarning juft tanlash mezonlarida ustuvor bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘zbek jamiyatida tarixan shakllangan ijtimoiy modelning davomiyligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida stereotiplarning asta-sekin transformatsiyalanayotganini ham ko‘rsatdi. Xususan, yoshlar orasida ayollarning ta’lim olishi, kasbiy faoliyat yuritishi va jamiyatdagi faolligiga nisbatan ijobiy munosabat kuchayib bormoqda. Bu esa gender tengligi g‘oyalarining kengayib borayotganini va juft tanlash mezonlarining kengayishini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi bosqichda juft tanlash jarayonida ikki xil yondashuv - an’anaviy va zamonaviy qarashlar parallel ravishda mavjud. Bu esa jamiyatda o‘tish davriga xos “gibrid ijtimoiy ong” shakllanayotganini bildiradi. Mazkur jarayonda stereotiplar to‘liq yo‘qolmayapti, balki yangi ijtimoiy sharoitga moslashgan holda qayta shakllanmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari juft tanlash jarayonida faqat tashqi yoki stereotip mezonlarga emas, balki shaxsiy moslik, o‘zaro hurmat, psixologik uyg‘unlik kabi omillarning ham ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatdi. Bu esa oilaviy munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, turmush qurish yoshidagi yigitlarning juft tanlash jarayoni ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar kesishmasida shakllanadi. Kelgusida ushbu jarayonni chuqurroq o‘rganish, ayniqsa empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlarni ongli va mas’uliyatli nikohga tayyorlashda stereotip qarashlarni kamaytirish, o‘zaro hurmat va tenglikka asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son Farmoni. Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/3805506 (murojaat sanasi: 07.05.2026).
2. Abduqodirov, A. Oila psixologiyasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 2010. – B. 45–47.
3. Musurmonova, O. Oila ma’naviyati va qadriyatlari. – Toshkent, 2012. – B. 63–66.
4. Yuldashev, B. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy transformatsiya masalalari. – Toshkent, 2018. – B. 52–55.
5. Inglehart, R. Modernization and Postmodernization. – Princeton : Princeton University Press, 1997. – P. 80–85.

Shukurullayeva Nigora Ilhom qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tilini o‘qitish va ta’lim texnologiyalari kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,
Fayzullayeva Gulrux Jumaniyozovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALAR IELTS (INTERNATIONAL ENGLISH LANGUAGE TESTING SYSTEM) IMTIHONIGA TAYYORGARLIK JARAYONIDA MOTIVATSIYANING ROLI

Annotatsiya. *Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini, xususan ingliz tilini mukammal egallash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda tan olingan IELTS imtihoni esa talabalar uchun akademik va professional imkoniyatlarni kengaytiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ushbu imtihonga tayyorgarlik jarayoni uzoq muddatli, tizimli va yuqori darajadagi intizomni talab qiladi. Shu bois mazkur jarayonda motivatsiya hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada talabalarda chet tili imtihoniga tayyorgarlik jarayonida motivatsiyaning roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *muvaffaqiyatsizlik, ehtiyoj, qiziqishlar, ustanovka, emotsiya, o‘quv faoliyati, ijtimoiy omillar, samaradorlik, faoliyat, resurs.*

РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ЭКЗАМЕНУ IELTS (INTERNATIONAL ENGLISH LANGUAGE TESTING SYSTEM)

Аннотация. *В условиях современной глобализации овладение иностранными языками, особенно английским языком, приобретает особую значимость. Международно признанный экзамен IELTS является одним из ключевых инструментов, расширяющих академические и профессиональные возможности студентов. Подготовка к данному экзамену требует длительного, системного подхода и высокого уровня дисциплины. В связи с этим мотивация выступает одним из решающих факторов данного процесса. В данной статье рассматривается роль мотивации в процессе подготовки студентов к экзаменам по иностранному языку.*

Ключевые слова: *неудача, потребность, интересы, установка, эмоция, учебная деятельность, социальные факторы, эффективность, деятельность, ресурс.*

THE ROLE OF MOTIVATION IN STUDENTS’ PREPARATION PROCESS FOR THE IELTS (INTERNATIONAL ENGLISH LANGUAGE TESTING SYSTEM) EXAM

Abstract. *In the context of contemporary globalization, the mastery of foreign languages, particularly English, has gained significant importance. The internationally recognized IELTS examination serves as one of the key tools that expands academic and professional opportunities for students. The preparation process for this examination requires a long-term, systematic approach as well as a high level of discipline. Therefore, motivation emerges as one of the decisive factors in this process. This article examines the role of motivation in students’ preparation for foreign language examinations.*

Keywords: *failure, need, interests, attitude, emotion, learning activity, social factors, effectiveness, activity, resource.*

Kirish. Jahon psixologiyasi fanida motivatsiya muammosining keng ko‘lamda o‘rganilishi natijasida ushbu tushuncha mazmun, ma’no va mohiyat jihatidan sezilarli darajada boyidi hamda kengaydi; u yangi, original nazariy yondashuvlar va amaliy empirik materiallar bilan to‘ldirildi. Globallashuv sharoitida shaxs o‘zining cheksiz ehtiyojlarini qondirishga intilar ekan, muayyan maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshiradi va bu faoliyatni harakatga keltiruvchi o‘ziga xos motivlar hamda motivatsion tizimga ega bo‘ladi. Motivatsiya inson faoliyatini rag‘batlantiruvchi murakkab, ko‘p darajali va dinamik tizim sifatida talqin qilinadi. U o‘z tarkibida ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar,

ideallar, intilishlar, ustanovkalar, emotsiyalar, ijtimoiy normalar hamda qadriyatlar kabi psixologik komponentlarni mujassamlashtiradi va ularning o‘zaro integratsiyasi orqali shaxs xulq-atvori va faoliyatining yo‘nalishi hamda intensivligini belgilaydi.

Motivatsiyaning mazmuniy xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi individual motivatsion tuzilma elementlarini ularning o‘zaro bog‘liqligi va funksional integratsiyasi doirasida kompleks o‘rganishni, shuningdek, shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimi kontekstida yo‘nalganlik mazmunini shakllantirishda har bir komponentning o‘rni va ahamiyatini aniqlashni nazarda tutadi. Motivatsiya shaxs tuzilmasida yetakchi o‘rin egallab, xulq-atvor va faoliyatning harakatlantiruvchi mexanizmlarini izohlashda asosiy kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, motivatsion tizimning mazmuni shaxsga xos bo‘lgan faoliyat turlarining yo‘nalishi va xarakterini belgilaydi. Shu bilan birga, motivatsiya tizimi nafaqat real faoliyatni tartibga soladi, balki shaxsning muayyan sohalardagi rivojlanish istiqbollari, potensial imkoniyatlari va kelajakdagi faoliyat yo‘nalishlarini ham aniqlab beradi. Binobarin, motivatsiya muammosi metodologik, nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ilmiy ahamiyat kasb etuvchi, kompleks va ko‘p qirrali tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Motivatsiya tushunchasiga berilgan ilmiy yondashuvlardan biri sifatida I.P. Polyakova uni harakatning maqsadga muvofiqligini, yaxlit faoliyatning tashkil etilishi va barqarorligini ta’minlovchi psixologik mexanizm sifatida izohlaydi hamda muayyan motiv asosida faoliyatga turtki beruvchi omil deb talqin etadi. Yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, aksariyat tadqiqotchilar motivatsiyani organizm faoliyatini faollashtiruvchi, inson xulq-atvori va faoliyatining yo‘nalishini belgilovchi motivlar tizimi, shuningdek, shaxsni rag‘batlantiruvchi ongli va ongsiz psixologik omillar majmui sifatida e’tirof etadilar. Mazkur nuqtai nazardan kelib chiqib, motivatsiyani harakatning maqsadga muvofiqligini ta’minlovchi, aniq maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan yaxlit faoliyatning tashkil etilishi va barqarorligini izohlovchi, xulq-atvor alternativalarini baholash asosida uzluksiz tanlov va qaror qabul qilishni o‘z ichiga olgan dinamik jarayon sifatida talqin etish mumkin.

Ushbu nazariy qarashlarni IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayoni misolida ko‘rib chiqish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Talabalarda motivatsiya darajasi ularning o‘quv faoliyatining izchilligi, samaradorligi va natijaviyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori darajadagi ichki motivatsiya (tilni egallashga qiziqish, shaxsiy rivojlanishga intilish) hamda tashqi motivatsiya (xalqaro ta’lim va ish imkoniyatlari, sertifikatga ega bo‘lish ehtiyoji) uyg‘unligi talabalarning muntazam mashg‘ulot olib borishi, murakkab topshiriqlarni bajarishda qat’iyat ko‘rsatishi va uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyatni davom ettirishini ta’minlaydi. Motivatsiya tayyorgarlik jarayonida strategik qarorlar qabul qilishda ham muhim rol o‘ynaydi, ya’ni talabalar o‘z bilim darajasi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv uslublari, resurslar va vaqt taqsimotini ongli ravishda tanlaydilar. Natijada, motivatsiya nafaqat o‘quv faoliyatini rag‘batlantiruvchi omil, balki IELTS imtihoniga tayyorgarlikning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik determinantlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivatsiya talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki va tashqi rag‘batini ifodalaydi. Ichki motivatsiya – bu shaxsning o‘z qiziqishi, o‘zini rivojlantirish istagi va bilimga chanqoqligi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya mukofot, grant, xorijda o‘qish yoki ish topish kabi omillar orqali shakllanadi. IELTSga tayyorgarlik jarayonida aynan ichki motivatsiya barqarorroq natijalarni ta’minlaydi, chunki u talabaning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashiga undaydi. Motivatsiya o‘quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar muntazam ravishda mashg‘ulotlarga qatnashadi, mustaqil ishlashga ko‘proq vaqt ajratadi va murakkab topshiriqlardan qochmaydi. Aksincha, motivatsiya yetishmasligi sustkashlik, vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash va oxir-oqibat past natijalarga olib kelishi mumkin. Motivatsiya stressni boshqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. IELTS kabi yuqori bosimli imtihonlarda talabalar ko‘pincha ruhiy bosimni his qiladilar, motivatsiya esa ularni ruhlantirib, maqsad sari intilishda davom etishlariga yordam beradi.

X. Xekxauzen asarlarida motivatsiyaning bixevioristik talqini alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Mazkur yondashuv xulq-atvor va faoliyatni izohlashda biologik, ijtimoiy omillarni ham inobatga olgan holda kognitiv tuzilmalar va psixik jarayonlarning hal qiluvchi rolini tan olishi bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiyada inson xulq-atvorining asosiy determinanti sifatida qaror qabul qilishning ichki aqliy mexanizmlari ilgari suriladi. X. Xekxauzen ta’kidiga ko‘ra, motivatsiya uchta asosiy omil shaxsiy, motivli va vaziyatli komponentlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi hamda ular kognitiv xulosalar chiqarish mexanizmi orqali o‘zaro korrelyatsiyalanadi. Bunda motivatsiyaning shaxsiy omili qadriyatlar tizimini o‘z ichiga olgan murakkab psixologik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning fikricha, motivatsiya jarayoni aynan motiv vazifasini bajaruvchi qadriyat mazmunining barqaror shaxsiy dispozitsiyalari asosida yuzaga keladi. Mazkur nazariy qarashlarni IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etadigan bo‘lsak, talabalarning ushbu jarayondagi motivatsiyasi uch omilning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi:

Shaxsiy omil - talabaning qadriyatlari, maqsadlari va ichki intilishlari bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, xalqaro ta’lim olish, kasbiy rivojlanish yoki o‘z-o‘zini namoyon etish istagi orqali ifodalanadi.

Motivli omil - aniq natijaga erishishga yo‘naltirilgan ichki va tashqi rag‘batlar (yuqori ball olish, sertifikat qo‘lga kiritish)ni o‘z ichiga oladi.

Vaziyatli omil - o‘quv muhiti, resurslar, o‘qitish metodikasi va tashqi sharoitlar bilan belgilanadi.

Aynan ushbu omillarning kognitiv qayta ishlanishi jarayonida talabalar o‘z imkoniyatlari, ehtiyojlari va tashqi talablarni baholagan holda muayyan o‘quv strategiyalarini tanlaydilar hamda qarorlar qabul qiladilar. Motivatsiya IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonida nafaqat faoliyatni boshlovchi va qo‘llab-quvvatlovchi omil, balki uning barqarorligi, samaradorligi va yakuniy natijasini belgilovchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivlarni tasniflashga qaratilgan muhim nazariy yondashuvlardan biri sifatida 1950-yillarda David McClelland va John Uilliam Atkinson tomonidan ishlab chiqilgan muvaffaqiyat motivatsiyasi nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy motivlar ikki turga ajratiladi: muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi. Ushbu motivlar vaziyat o‘zgaruvchilari - muvaffaqiyatning sub’ektiv ehtimoli hamda muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning rag‘batlantiruvchi jozibadorligi bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va John Uilliam Atkinson modeli doirasida maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakat hamda faoliyatning asosiy determinantlari sifatida talqin etiladi.

Mazkur omillar insonning faoliyatdagi muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini, shuningdek, uning umumiy xulq-atvor strategiyasini tanlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning natijalari muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi inson motivatsiyasining muhim va nisbatan mustaqil turi ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, shaxsning ijtimoiy mavqei, kasbiy rivoji va hayotiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan ushbu motivatsion omil bilan belgilanadi. Ushbu nazariy qarashlarni IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Talabalarda muvaffaqiyatga erishish motivining ustunligi ularning yuqori natijalarga intilishi, murakkab topshiriqlarni tanlashi, muntazam va tizimli tayyorgarlik olib borishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunday talabalar odatda faol o‘quv strategiyalarini qo‘llaydi, xatolardan o‘rganadi va o‘z natijalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi.

Aksincha, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi ustun bo‘lgan talabalar ko‘proq xavfsiz strategiyalarni tanlaydi, murakkab vazifalardan qochishga moyil bo‘ladi hamda past natijadan qo‘rqish sababli o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, IELTSga tayyorgarlik jarayonida motivatsiyaning ushbu ikki turi talabalarning o‘quv faoliyati strategiyasi, emotsional holati va yakuniy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash IELTS imtihoniga tayyorgarlik samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

David McClelland tomonidan ishlab chiqilgan uch faktorli motivatsion modelga ko‘ra, inson xatti-harakati uch asosiy ehtiyojlar guruhi - yutuq, sheriklik va hukmronlik ehtiyojlari ta’sirida shakllanadi. Yutuqqa bo‘lgan ehtiyoj shaxsning o‘z maqsadlariga avvalgidan ko‘ra samaraliroq va yuqori darajada erishishga intilishida namoyon bo‘ladi. Sheriklik ehtiyoji esa boshqalar bilan ijobiy,

do‘stona va barqaror ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish hamda saqlab qolishga bo‘lgan ichki istak orqali ifodalanadi. Hukmronlik ehtiyoji esa asosan tajriba va o‘rganish jarayonida shakllanib, shaxsning o‘z atrofidagi odamlar, resurslar va jarayonlarga ta’sir o‘tkazish hamda ularni boshqarishga intilishida namoyon bo‘ladi. Ushbu ehtiyoj ikki yo‘nalishda yuzaga chiqadi: birinchisi - shaxsiy hokimiyatga ega bo‘lish, ikkinchisi esa guruh maqsadlarini amalga oshirish uchun ta’sir kuchiga ega bo‘lishdir. David McClelland nazariyasining muhim yutuqlaridan biri motivlarni ikki asosiy yo‘nalishga ajratishdir: yondashish motivlari va qochish motivlari. Ushbu ehtiyojlar qat’iy ierarxik tuzilishga ega emasligi, balki turli darajalarda va vaziyatlarga qarab namoyon bo‘lishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

Mazkur nazariy yondashuvlarni IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayoniga tatbiq etish talabalarning motivatsion xulq-atvorini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Yutuqqa yo‘naltirilgan talabalar IELTSda yuqori ball olish, o‘z bilim darajasini muntazam oshirish va murakkab topshiriqlarni bajarishga intilish orqali namoyon bo‘ladi. Sheriklik ehtiyoji kuchli bo‘lgan talabalar esa guruh bo‘lib o‘qish, hamkorlikda mashq qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali samarali tayyorgarlik ko‘rsatadi. Hukmronlik ehtiyoji ustun bo‘lgan talabalar esa o‘z o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va o‘z o‘quv strategiyalarini nazorat qilishga intiladi. McClelland modeli IELTSga tayyorgarlik jarayonida talabalarning individual motivatsion xususiyatlarini aniqlash va ularni samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

P.M. Yakobson motivatsiyani shaxsning ichki psixologik tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi. Uning yondashuvida his-tuyg‘ular, qiziqishlar, odatlar va shunga o‘xshash psixologik holatlar motivatsion tizimning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. P.M. Yakobson fikricha, motivlar ijtimoiy ahamiyat darajasiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratiladi: ijtimoiy motivlar va tor shaxsiy motivlar. Ijtimoiy motivlar tarkibiga siyosiy va axloqiy ideallar, kelajak haqidagi tasavvurlar, istiqbolga yo‘naltirilgan g‘oyalar hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish kabi omillar kiradi. Bu guruhga insonning mehnatga, ijodiy faoliyatga va oilaviy hayotga bo‘lgan ijobiy munosabati hamda hayotini maqsadli tashkil etish istagi ham kiritiladi. Tor shaxsiy motivlar esa ko‘proq individual ehtiyojlar, kuchli hissiy kechinmalar, barqaror odatlar, taqlid qilish tendensiyasi hamda muayyan taassurot va qiziqishlarni olishga yo‘naltirilgan xulq-atvor bilan ifodalanadi. Ushbu nazariy qarashlar IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonini tahlil qilishda ijtimoiy motivlar ustun bo‘lgan talabalar IELTSni nafaqat individual maqsad, kelajakdagi ta’lim, kasbiy rivojlanish va jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlash vositasi sifatida qabul qiladi. Ular uchun yuqori ball olish, xalqaro ta’lim muassasalariga kirish va global imkoniyatlarga ega bo‘lish kabi istiqbolli maqsadlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Tor shaxsiy motivlar esa talabalarning kundalik o‘quv faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, barqaror o‘rganish odatlari, ma’lum o‘quv usullariga taqlid qilish, qiziqarli materiallarga intilish va hissiy rag‘batlantiruvchi omillar IELTSga tayyorgarlik jarayonining davomiyligi va sifatini belgilaydi.

Natijalar va muhokamalar. Tadqiqotda IELTS imtihoniga tayyorgarlik ko‘rayotgan 120 nafar talaba sinaluvchi sifatida ishtirok etdi. Ulardan Gerbachevskiyning “Intilish darajasi so‘rovnomasi” olindi.

1-jadval.

Gerbachevskiyning “Intilish darajasi” so‘rovnomasining Mann-Uitni mezoni asosida jins tafovutlari tahlili (n=120)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha rang		U	p
	Erkaklar n=60	Ayollar n=60		
Ichki motiv	52.47	54.20	1338.000	.649
Bilish motivi	43.29	63.42	903.000	.001 **
Qochish motivi	50.54	56.79	1246.500	.302
Musobaqalashuv motivi	49.58	57.42	1201.000	.187

Faoliyatni almashtirish motivi	59.29	50.84	1162.500	.119
O‘zini e’zozlash motivi	48.03	60.69	1130.500	.048 *
Natijalar ahamiyatliligi	53.27	56.41	1326.000	.597
Topshiriqlar murakkabligi	55.45	52.89	1342.500	.669
Irodaviy quvvat	45.83	60.46	1025.000	.015 *
Natijalarning erishganlik darajasining bahosi	46.27	60.10	1043.500	.021 *
O‘z imkoniyatlari bahosi	56.70	52.28	1302.000	.495
Quvvatni safarbar etish	46.24	59.80	1056.500	.025 *
Natijalar kutilganlik darajasi	60.59	48.82	1100.500	.049 *
Natijalar qonuniyati	54.09	53.94	1406.500	.982
Tashabbuskorlik	51.66	55.88	1298.500	.479

Izoh: *p≤0,05 (95 %), **p≤0,01(99%)

Bilish motivi bo‘yicha eng yuqori statistik ahamiyatli farq kuzatilgan (U=903.000; p<0.01). Bu natija ayol talabalar IELTS tayyorgarligida bilim olish jarayoniga, tilning mazmunini chuqur tushunishga va kognitiv rivojlanishga kuchliroq yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Ya’ni ular uchun imtihon faqat natija emas, balki o‘rganish jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Bu holat ayollarda o‘quv faoliyatining ichki motivatsiyaga tayanganligini anglatishi mumkin.

O‘zini e’zozlash motivi (U=1130.500; p<0.05) bo‘yicha ham ayollarda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etilgan. Bu natijaga ko‘ra, IELTS natijasi ko‘plab ayol talabalar uchun o‘zini jamiyat oldida tasdiqlash, shaxsiy muvaffaqiyatni mustahkamlash va o‘z qadrini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday motivatsiya odatda natijaga yo‘naltirilgan kuchli ichki ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Irodaviy quvvat ko‘rsatkichi bo‘yicha (U=1025.000; p<0.05) ham sezilarli farq aniqlanib, ayollar ustunlik qilgan. Bu natija IELTS tayyorgarligi jarayonida ayol talabalar qiyinchiliklarga chidamliroq bo‘lib, muntazam tayyorgarlikni davom ettirish, stress va vaqt bosimini yengish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Irodaning kuchliligi imtihon natijasiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Natijalarning erishganlik darajasining bahosi (U=1043.500; p<0.05) bo‘yicha ham farq mavjud bo‘lib, ayollar o‘z yutuqlarini nisbatan yuqoriroq baholashga moyil ekanligi aniqlangan. Bu ularning o‘z-o‘zini baholashda ijobiyroq pozitsiyada ekanligini va o‘quv jarayonida erishilgan natijalarni muhim motivatsion resurs sifatida ko‘ra olishlarini bildiradi. Quvvatni safarbar etish ko‘rsatkichi (U=1056.500; p<0.05) ham ayollarda yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Bu IELTS tayyorgarligida ayol talabalar o‘z ichki energiyasi, diqqat va resurslarini maqsadga yo‘naltirishda faolroq ekanligini anglatadi. Bunday xususiyatlar uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonida muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar kutilganlik darajasi bo‘yicha (U=1100.500; p<0.05) ham statistik ahamiyatli farq aniqlangan. Bu erkaklarga nisbatan ayollarda IELTS natijasiga nisbatan kutish va umid darajasi yuqoriroq ekanligini bildiradi ya’ni ayol talabalar imtihon natijasidan ko‘proq ijobiy natija kutishadi va bu ularda qo‘shimcha motivatsion kuch sifatida ishlashi mumkin.

Olingan natijalar IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonida ayol talabalar motivatsion jihatdan ko‘proq ichki kognitiv motivlar, iroda kuchi va o‘zini baholash bilan bog‘liq omillarga tayanishini ko‘rsatadi. Bu ularning o‘qish jarayonida barqaror motivatsiyaga ega ekanligini va maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvorga ko‘proq moyilligini anglatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, motivatsiya IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga, balki talabaning psixologik barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Talabalar o'z motivatsiyasini shakllantirish va uni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur, faqat shundagina ular yuqori natijalarga erishib, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati.

1. Асеев, В. Г. Мотивация поведения и формирование личности. – Москва : Мысль, 1976. – 158 с.
2. Баранова, О. В. Социально-педагогическая деятельность и её развитие у студентов педагогического колледжа : автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Иркутск, 2002. – 22 с.
3. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва : Политиздат, 1975. – 304 с.
4. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 508 с.
5. Хекхаузен, Х. Психология мотивации достижения / Пер. с нем. – Москва : Педагогика, 1974. – 240 с.
6. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы человеческой мотивации. – Москва : Изд-во Моск. ун-та, 1990. – 285 с.
7. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург : Питер, 2000. – 712 с. – (Серия «Мастера психологии»).
8. Xaydarov, F. Umumiy psixologiya : darslik / F. Xaydarov, N. Xalilova. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. – 380 b.

Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Roman-german filologiyasi yo‘nalishi o‘qituvchisi
E-mail: bonuxusainova@gmail.com

ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDAGI SHARQONA TOPONIMLARNING TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning mashhur asari Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar da keltirilgan topomimlar (geografik joy nomlari) tahlil qilinadi. Asarda Beruniy qadimgi shaharlar, daryolar, tog‘lar, hududlar va mintaqalar nomlarini ilmiy izoh bilan keltirgan. Maqolada topomimlarning tarixiy kelib chiqishi, qadimgi va hozirgi nomlar bilan qiyosiy tahlili hamda ularning geografik ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *topomim, geonim, tarixiy geografiya, Beruniy, qadimgi shaharlar, daryolar, tog‘lar*

ANALYSIS OF ORIENTAL TOPONYMS IN ABU RAYHAN BERUNI’S WORK “OSOR UL-BOQIYA” AND ITS ENGLISH TRANSLATION

Annotation. *This article analyzes toponyms (geographical place names) mentioned in Abu Rayhan Beruni's famous work Monuments of Ancient Peoples. In the work, Beruni cited the names of ancient cities, rivers, mountains, territories and regions with scientific explanations. The article discusses the historical origin of toponyms, their comparative analysis with ancient and modern names, and their geographical significance.*

Keywords: *toponym, geonym, historical geography, Beruni, ancient cities, rivers, mountains.*

АНАЛИЗ ВОСТОЧНЫХ ТОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙ «ОСОР УЛ-БОҚИЯ» И ЕГО ПЕРЕВОДЕ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация. *В данной статье анализируются топонимы (географические названия мест), упомянутые в знаменитом труде Абу Райхана Беруни «Памятники древних народов». В работе Беруни приводит названия древних городов, рек, гор, территорий и регионов с научными пояснениями. В статье рассматривается историческое происхождение топонимов, их сравнительный анализ с древними и современными названиями, а также их географическое значение.*

Ключевые слова: *топоним, геоним, историческая география, Беруни, древние города, реки, горы.*

Kirish.

Abu Rayhon Beruniy o‘rta asr ilm-fanida nafaqat astronomiya, matematika va tarix sohalarida, balki geografik tadqiqotlar va toponimlarni ilmiy tahlil qilishda ham buyuk alloma sifatida tanilgan bo’lib uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari tarixiy voqealar bilan bir qatorda qadimgi xalqlarning geografik joylashuvi va **toponimlar** haqida ham boy ma’lumot beradi.[1] Beruniy topomimlarni keltirish orqali tarixiy va madaniy kontekstni tushuntiradi, ularning geografik o‘rni, transport yo‘llari, siyosiy va iqtisodiy ahamiyati bilan bog‘laydi. Ushbu maqolada Beruniyning topomimlarga bo‘lgan yondashuvi, asarda uchraydigan asosiy joy nomlari va ularni qiyosiy tahlil qilish usuli yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi, xususan uning Al-Āthār al-Bāqiyah ‘an al-Qurūn al-Khāliyah (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asari Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng o‘rganilgan fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar tarixiy xronologiya, etnografiya

[1] Seyyed Hossein Nasr. *Science and Civilization in Islam*. Harvard University Press, 2007.
Beruniy A.R. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Toshkent: Fan, 1980.

va geografiya fanlari kesishgan nuqtada yaratilgan bo‘lib, undagi toponimik materiallar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Mazkur asarning ingliz tiliga tarjimasi Edward Sachau tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u Beruniy matnlarini G‘arb ilm-faniga olib kirishda muhim rol o‘ynagan. Sachau o‘z tadqiqotlarida Beruniyning ilmiy aniqligi va manbalar bilan ishlash uslubini yuqori baholab, uni o‘rta asr Sharq ilm-fanining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etadi.

Beruniyning ilmiy merosi haqida keng qamrovli tahlillar Seyyed Hossein Nasr tomonidan amalga oshirilgan. Uning Science and Civilization in Islam asarida Beruniy ilmiy metodologiyasi, ayniqsa uning empirik kuzatuvlarga asoslangan yondashuvi va turli xalqlar madaniyatini qiyosiy o‘rganish usuli alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, Dimitri Gutas va Fuat Sezgin kabi olimlar ham Beruniyning ilmiy faoliyatini arab-islam ilmiy an’anasi doirasida o‘rganib, uning asarlarini tarixiy manba sifatida yuqori baholaganlar. Xususan, Sezginning Geschichte des arabischen Schrifttums asarida Beruniy asarlarining bibliografik va ilmiy tavsifi keltirilgan.

Toponimika va tarixiy geografiya masalalari esa zamonaviy ilm-fanda alohida yo‘nalish sifatida rivojlangan. Paul Wheatley va Richard N. Frye tadqiqotlarida geografik nomlarning tarixiy evolyutsiyasi, ularning siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liqligi keng yoritilgan. Bu yondashuv Beruniy asaridagi toponimlarni tahlil qilishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, David Pingree tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Beruniyning xronologik va astronomik ma’lumotlari chuqur o‘rganilib, uning ilmiy aniqligi va hisob-kitoblarining ishonchliligi asoslab berilgan. Pingree Beruniyning turli xalqlar kalendar tizimlarini qiyosiy tahlil qilishdagi yondashuvini ilmiy innovatsiya sifatida baholaydi. Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan esa Peter Newmark va Eugene Nida ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tarjima jarayonida semantik aniqlik va madaniy moslik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta’kidlaydilar. Bu tamoyillar tarixiy toponimlarni tarjima qilishda ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Beruniy asaridagi toponimlar nafaqat geografik obyektlarni ifodalovchi birliklar, balki tarixiy, madaniy va ilmiy ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Shu sababli ularni tahlil qilishda tarixiy-geografik, lingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlarini kompleks tarzda qo‘llash zarur

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yozish jarayonida quyidagi metodlar asosida tadqiqot amalga oshirildi. Birinchidan: Matn tahlili-Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari asl arab tilidagi nushasi va uning ingliz tilidagi tarjimasi qiyosiy tahlil qilindi.[1] Ikkinchidan: Toponimlarni kategoriyalash-shaharlar, daryolar, tog‘lar, hududlar va boshqa geografik belgilar bo‘yicha guruhlandi. Uchinchidan: Tarixiy va zamonaviy nomlarni solishtirish-qadimgi nomlar hozirgi geografik joylar bilan taqqoslandi. To’rtinchidan: Geografik va madaniy ahamiyatni aniqlash-har bir topomimning tarixiy, iqtisodiy va madaniy kontekstdagi roli o‘rganilib izohlandi. Tahlil natijalari jadval va diagrammalar yordamida vizual tarzda ham taqdim etildi.

Tahlil va natijalar.

Beruniy asarini tahlil qilish natijasida topomimlar turkumlarga ajratilgan holda o’rganildi. Va yig’ilgan hulosalardan keib chirib quyidagicha guruhlar jadvallari shakllantirildi. Beruniy asarini chuqur tahlil qiladigan bo’lsak unda uchraydigan asosiy topomimlarni quyidagi turkumlarga bo‘lingan holda berish maqsadga muvofiq bo’ladi:

1. Shaharlar va qishloqlar-Samarqand, Buxoro, Naxshabur, Marv, Balkh
2. Daryolar va suv havzalari-Amudaryo, Sirdaryo, Hind daryosi
3. Tog‘lar va tog‘ tizmalari-Zarafshon tog‘lari, Hindik tog‘lari
4. Hududlar va mintaqalar-Xorazm, Khorasan, Sind, Gujarat
5. Geografik belgilar-cho‘l, qishloq, o‘rmon va daryolar bo‘yidagi hududlar

Beruniy har bir topomimni ilmiy izoh bilan tarixiy manbalar bilan keltiradi yani ularning qadimgi kelib chiqishi va zamonaviy nomlari haqida aniq va to’liq ma’lumot beradi.[2] Beruniyning topomimlarni tahlil qilishidagi asosiy yondashuvi - qadimgi nomlarni hozirgi geografik joylar bilan qiyoslash bilan izohlanadi. Quyida bunga bir nechta misollar keltirib o’tamiz.[3]

[1] Edward S. Kennedy. *Al-Biruni’s Chronology of Ancient Nations*. 1879. /
[2] Edward S. Kennedy. *Al-Biruni’s Chronology of Ancient Nations*. 1995.
[3] David Pingree. “Al-Biruni’s Chronology…”, *Journal of Near Eastern Studies*, 1986.

Qadimgi nom	Hozirgi nom	Hudud	Tarixiy ahamiyati
Samarqand	Samarqand	O‘zbekiston	Buyuk ipak yo‘lining markazi, qadimgi shaharlar sivilizatsiyasi
Buxoro	Buxoro	O‘zbekiston	Sharq ilm-fani va savdo markazi
Marv	Mary	Turkmaniston	O‘rta Osiyo tarixidagi muhim siyosiy markaz
Balkh	Balkh	Afg‘oniston	Fors madaniyati va tarixining qadimiy markazi
Khorasan	Shimoliy Eron va Afg‘oniston hududi	Hudud	Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va ilmiy ko‘prik

Bu jadval orqali Beruniyning qadimgi topomimlarni aniq geografik kontekstga joylashtirishdagi ilmiy yondashuvi namoyon bo‘ladi. Shuningdek Beruniy topomimlarni keltirish orqali shaharlar va hududlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ham ochib bera olgan. Masalan-Samarqand va Buxoro viloyatlari savdo va 361imning markazlar hisoblangan bo‘lib, ularning qadimiy nomlari va tarixiy faoliyati Beruniy jadvallarida aniq ko‘rsatilgan; Amudaryo va Sirdaryo viloyatlari suv resurslari va transport yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lib, qadimgi hududlarning iqtisodiy ahamiyati tushuntirilgan; Hindik tog‘lari esa geografik to‘siq sifatida joylashgan bo‘lib, hududiy chegaralarni belgilashda ishlatilgan. Beruniyning topomimlarga bo‘lgan yondashuvi ilmiy jihatdan tarixshunoslik, geografiya va etnografiya fanlari uchun asosiy manba hisoblanadi.

Bundan tashqari daryolarni ham huddi yuqoridagi kabi tahlilgan tortib o’rganish mumkin va bu tushunush olish uchun juda qulaydir.

Qadimgi nom	**Hozirgi nom**	**Hudud**	**Ahamiyat**
Amudaryo	Amudaryo	O‘zbekiston, Turkmaniston	Suv resurslari, transport
Sirdaryo	Sirdaryo	O‘zbekiston	Qishloq xo‘jaligi markazi
Hind daryosi	Hind daryosi	Hindiston, Pokiston	Savdo yo‘li

Shu bilan birga tog‘ tizmalarini ham daryolar kabi tahlilga tortib o’rganish mumkin va buyam tushunib tasavvur qilishga yordam beradi.

Tog‘ tizmasi	**Hudud**	**Ahamiyat**
Zarafshon tog‘lari	O‘zbekiston	Mineral boyliklar
Hindik tog‘lari	Hindiston shimoli	Hududiy chegara
Tojik tog‘lari	Tojikiston	Suv resurslari

Quyida biz asarda keltirilgan toponimlar va ularning geagrafik o’rinlarini jadval ko’rinishida misollar bilan keltirib o’tamiz. Ushbu jadvalda Beruniy ma’lumot berib o’tgan qadimgi hududlarning hozirgi nomi va joylashuvini geagrafik birliklarga ajratilgan holda tahlil qilinganini ko’rishingiz mumkin.

Qadimgi nom	**Hozirgi nom**	**Hudud**	**Tip**	**Izoh**
Xorazm	Xorazm viloyati	O‘zbekiston	Mintaqa	Amudaryo sohillari, qadimgi sivilizatsiya markazi

Qadimgi nom	Hozirgi nom	Hudud	Tip	Izoh
Sind	Sindh	Pokiston	Hudud	Amudaryo va Hind daryosi oralig‘ida, savdo va madaniyat markazi
Gujarat	Gujarat	Hindiston	Hudud	Hind okeaniga yaqin, savdo va siyosiy markaz
Zarafshon tog‘lari	Zarafshon tog‘lari	O‘zbekiston	Tog‘ tizmasi	Mineral boyliklar va strategik yo‘llar
Hind daryosi	Hind daryosi	Hindiston, Pokiston	Daryo	Savdo va transport yo‘llari uchun asos

Bu jadval Beruniyning topomimlarni tarixiy va geografik kontekstda tizimlashtirishdagi ilmiy yondashuvini ko‘rsatadi.

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini **toponimlarni ilmiy, tarixiy, madaniy va iqtisodiy kontekst bilan tahlil qiluvchi yorqin manba sifatida yuksak qiymatga ega hisoblanadi**. Negaki asarda nafaqat shunchaki faktlar balki qadimgi nomlarning kelib chiqishi va etimologiyasi, hudud va shaharlar tarixiy-siyosiy kontekstda qanday o‘zgarib borganligi, toponimlar orqali iqtisodiy, madaniy va ilmiy jarayonlarni kuzatish, hududiy bog‘liqlik va xalqaro aloqalarni aniqlash kabi muhim jihatlar ham keltirib o’tilgan. Ushbu yondashuv topomimlarni nafaqat geografik ma’lumot sifatida, balki **ilmiy izoh beruvchi manba** sifatida ishlatishga imkon beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki Beruniyning topomimlarga bo‘lgan yondashuvi avvalo tarixiy va madaniy kontekst yani topomimlar orqali qadimgi sivilizatsiyalar, savdo yo‘llari va siyosiy markazlar haqida ma’lumotlar berilgani shu bilan birga geografik aniqlik yani qadimgi nomlar hozirgi geografik joylar bilan solishtirilib, ularning joylashuvi va ahamiyati ko‘rsatilgani bundan tashqari interdisiplinar yondashuv yani Beruniyning yondashuvi tarix, geografiya, etnografiya va iqtisodiy kontekstlarni birlashtira olganligi jihatlari bilan ilmiy ahamiyatga egadir. Shuningdek, topomimlarning tadqiq qilinishi orqali O‘rta Osiyo tarixiy hududlari va ularning xalqaro aloqalari ham yaxshiroq tushuniladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari topomimlar tahlilida buyuk ilmiy manba hisoblanadi. Asarda Beruniy qadimgi shaharlar, daryolar, tog‘lar va hududlarni keltiradi va qadimgi nomlarni hozirgi geografik joylar bilan solishtiradi. Shu bilan birga tarixiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini tushuntirib beradi. Barcha toponimlarni ilmiy izoh bilan, tarixiy manbalarni taqqoslab keltirgani sabab bu jihatlar asarni tarix, geografiya va madaniyat tarixini o‘rganish uchun muhim ilmiy manbaga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
2. Abu Rayhon Beruniy. Al-Āthār al-Bāqiyah ‘an al-Qurūn al-Khāliyah (arabcha asl nashr), Kairo, 1967.
3. Abu Rayhon Beruniy. Al-Qanun al-Mas’udi. Kairo, 1968.
4. Karimov I. Beruniy va uning ilmiy merosi. Toshkent, 1999.
5. Ahmedov B. O‘rta Osiyo allomalari tarixi. Toshkent, 2001.
6. Rahmonov A. Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi. Toshkent, 2010.
7. Boltaboyev H. O‘zbek mumtoz ilmiy merosi. Toshkent, 2015.
8. Salimov R. Xronologiya va tarixiy sanalarni aniqlashda Beruniy usuli. Toshkent: Fan, 2012.
9. Nasr S.H. Science and Civilization in Islam, Harvard University Press, 2007.
10. Hitti P.K. History of the Arabs, London, 2002.
11. Pingree D. Al-Biruni’s Chronology and Astronomical Tables, Journal of Near Eastern Studies, Vol. 45, 1986.

Sattorova Mohira Aminqulovna
Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti
Pedagogika kafedrasi dotsenti
E-mail: sattorovamohira1022@gmail.com

BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING INKLYUZIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada Oliy ta'limda bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, mazmuni, muammolari tahlil qilingan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha defektologlarni tayyorlashning zamonaviy amaliyoti muammolarini tushunish va har tomonlama ilmiy baholash va davlat va jamiyatning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishning dolzarbligi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, diagnostika, pedagogik, psixologik, adaptatsiya, integrasiya, jismoniy integrasiya, funksional integrasiya, ijtimoiy integrasiya.maxsus pedagog.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические технологии, содержание и проблемы развития инклюзивной подготовки будущих специальных педагогов в системе высшего образования. Обоснована актуальность понимания и всесторонней научной оценки проблем современной практики подготовки дефектологов для работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья и разработки путей их решения с учетом современных требований государства и общества.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, диагностика, педагогическая, психологическая, адаптация, интеграция, физическая интеграция, функциональная интеграция, социальная интеграция.специальный педагог.*

IMPROVING THE INCLUSIVE COMPETENCE OF FUTURE SPECIAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. *The article analyzes the pedagogical technologies, content, and problems of developing inclusive training of future special educators in higher education. The relevance of understanding and comprehensively scientifically evaluating the problems of modern practice of training defectologists to work with children with developmental disabilities and developing ways to overcome them, taking into account modern requirements of the state and society, is presented.*

Keywords: *inclusive education, diagnostics, pedagogical, psychological, adaptation, integration, physical integration, functional integration, social integration.special pedagogue.*

Pedagog va psixolog o'rtasidagi o'zaro aloqaning mohiyatini belgilashda biz O.I.Kukushkina tomonidan taklif qilingan rivojlanish va o'qitishning dialogda o'zaro bog'liqligini tushunishga asoslandik. Muallifning fikricha, o'qituvchi, o'quv jarayonida bolaning duch keladigan qiyinchiliklarini kuzatgan holda, odatda, bu qiyinchiliklar ortida yashiringan maktab yoshidagi imkoniyati cheklangan bolalarining rivojlanishidagi individual muammolarni anglamaydi. Bu qarama-qarshilik o'qituvchining ta'lim faoliyatini sezilarli darajada rasmiylashtiradi, uni bir tomondan, inklyuzivlikning yoshga xos xususiyatlari haqidagi umumiy tasavvurlarga, ikkinchi tomondan esa, umumiy pedagogik yondashuvlarga yo'naltiradi. Ikkala holatda ham inklyuziv ta'lim xususiyatlari hisobga olinmaydi. Shu sababli, korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik vazifalar bolalarning inklyuziv xususiyatlarini tizimlashtirilgan va asosli ravishda aniqlangan qiyinchiliklari asosida shakllantirilishi kerak.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning sifatli ta’lim olish huquqlarini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli Qarori bu sohadagi islohotlarning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Inklyuziv ta’lim tizimining samaradorligi bevosita ushbu jarayonda ishtirok etuvchi pedagoglarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bo‘lajak maxsus pedagoglar nafaqat defektologik bilimlarga, balki inklyuziv muhitda turli ehtiyojli bolalar bilan ishlay olish kompetentligiga ega bo‘lishlari lozim. Shu sababli, oliy ta’lim jarayonida talabalarning inklyuziv kompetentligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika fanida “inklyuziv kompetentlik” tushunchasi maxsus pedagogning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv kompetentlik - bu o‘qituvchining alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qila olish qobiliyati va shaxsiy sifatlari majmuidir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv kompetentlik tarkibi quyidagi uchta muhim elementni o‘z ichiga oladi:

Motivatsion-irodaviy komponent: Pedagogning barcha bolalarga, ularning jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat’i nazar, teng munosabatda bo‘lishi va ularning muvaffaqiyatiga ishonishi.

Kognitiv komponent: Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik qonuniyatlarini, turli nuqsonli bolalarning rivojlanish xususiyatlarini va xalqaro huquqiy normalarni bilishi.

Amaliy-faoliyatli komponent: O‘quv materiallarini bolaning imkoniyatiga qarab moslashtirish, texnik yordamchi vositalardan foydalanish va jamoada hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari.

O‘qituvchining o‘zi mustaqil ravishda bunday qiyinchiliklar ierarxiyasini aniqlash qiyin, chunki bu ierarxiya bolalarining rivojlanish xususiyatlari haqidagi psixologik bilimlarga asoslanadi. Shunday qilib, bo‘lajak defektolog va psixolog o‘rtasida o‘zaro aloqaning zarurati tug‘iladi, bu o‘zaro aloqa bolaning o‘quv faoliyatini uning maxsus ta’lim ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda individualizatsiya qilishga qaratilgan. Aynan psixolog o‘qituvchiga o‘quv jarayoni va rivojlanish o‘rtasidagi uzilish sababi nimada ekanligini tushunishga yordam beradi, va bu jarayonni muvofiqlashtirish uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi. Shuningdek, u “bolaning rivojlanishidagi qadamlari” ni o‘qitish metodikasi bilan qanday bog‘lash kerakligini ko‘rsatadi.

Bu fikr L.S.Vigotskiyning “maxsus” bolalar rivojlanishni ta’minlaydigan ta’limga muhtoj, degan qarashini tasdiqlaydi. Bu ta’limning asosiy vazifasi bolaning rivojlanishidagi kuzatilayotgan holatlarni tushuntirish, keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini prognoz qilish va bolaga nisbatan qo‘llanilishi kerak bo‘lgan amaliy choralarni ko‘rsatishdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash uchun bo‘lajak defektologlarni tayyorlash sifatining asosiy mezonlaridan biri ularni yangi kasbiy vazifalarga o‘rgatishdir. Bu vazifalar umumiy ko‘rinishda imkoniyati cheklangan bolalarining individual ta’lim yo‘nalishlarini ularning maxsus ta’lim ehtiyojlari ierarxiyasini anglash asosida loyihalashni o‘z ichiga oladi.

T.A.Solovyovaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim tizimida ta’limni individualizatsiya qilish qiyin. Chunki frontal o‘qitish usullari bolalarning psixologik rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga olishga mos emas va umumiy ta’lim muhiti xususiyatlariga yo‘naltirilgan.

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’limni individualizatsiya qilishdagi muhim o‘zgarishlar, frontal o‘qitishning ta’lim imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashish usullari va vositalarini qidirish bilan bog‘liq.

Shu tariqa, boshlang‘ich maktab yoshi bilan bog‘liq rivojlanish muammolarining ierarxiyasini aniqlash, o‘quv jarayonida namoyon bo‘ladigan qiyinchiliklarni hal qilishda psixolog yordami bilan bo‘lajak defektolog tomonidan individuallashtirilgan korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik vazifalarni belgilash uchun zarurdir. Bu vazifalar dars va darsdan tashqari faoliyatda topshiriqlar, shakllar va o‘zaro aloqa usullarini moslashtirish orqali hal qilinadi. Ushbu yondashuv imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug‘ullanuvchi defektologlar uchun DTS talablariga muvofiq, butun o‘quv jarayoni davomida korreksion ishlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bunga psixosotsial rivojlanish

muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita korreksiyasi va yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam berish kiradi. Bu jarayon nafaqat darslar davomida, balki moslashtirilgan asosiy o‘quv dasturi darajasida ham amalga oshiriladi.

DTS talablariga ko‘ra, imkoniyati cheklangan o‘quvchilariga psixologik-pedagogik yordam maxsus pedagog-defektolog, logoped va maxsus psixolog tomonidan ta’minlanadi. Bunda o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqadigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus usullar, vositalar, metodlarni qo‘llagan holda o‘quv fanlari mazmunini tezkorlik bilan moslashtirishlari kerak. Faqat o‘qituvchi va boshqa mutaxassislarning korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik vazifalarni amalga oshirishdagi birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali tatbiq etilishi mumkin.

Biz taklif qilayotgan maxsus psixolog va defektolog o‘rtasidagi hamkorlik texnologiyasining vositasi sifatida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning individual rivojlanishini monitoring qilishni taklif qilamiz. Monitoring, bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, funksional tashxis tushunchasi asosida talqin qilinadi, bu esa imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini individualizatsiya qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu mutaxassislarning quyidagi yo‘nalishda hamkorlikda harakat qilishini nazarda tutadi: psixosotsial rivojlanishdagi individual qiyinchiliklarni aks ettiruvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirishdan boshlab, ularning individual ierarxiyasini belgilash va korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik vazifalarni shakllantirishgacha.

Korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik vazifa o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirishga qaratilgan umumiy pedagogik vazifalarni to‘ldiruvchi mazmunni o‘z ichiga oladi. Biz buni imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini individualizatsiya qilish talablarining kontekstida ko‘rib chiqamiz. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga ta’limning asosiy mazmunini o‘zlashtirishga, ularning mavjud faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishishiga, o‘qishga salbiy munosabatni oldini olishga hamda akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishga ko‘maklashadi.

Quyida keltiriladigan dars algoritmlari dars davomida o‘qituvchining individualizatsiyalashgan yondashuvni tuzish bo‘yicha faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi. Uning yordamida an’anaviy frontal o‘qitish shakllarini moslashtirish va o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish orqali individual rivojlanishdagi farqlarni yumshatish mumkin.Defektolog va psixolog o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yanada mazmunli qilish;

Pedagogik harakatlarning samaradorligini oshirish uchun bolalar bilan ishlashda maxsus yordam metodlarini o‘rganish.

Bu yondashuvning metodik mohiyati o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, dars mazmuni asosida diagnostikaga asoslangan moslashuvchan dars strategiyasini ishlab chiqishdir. Bunday yondashuv o‘qituvchilarni darsda turli xil pedagogik vositalar va usullarni qo‘llashda yordam beradi.

Bu modul bo‘lajak pedagog va psixolog o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga solib, o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kuzatuv kartasi yordamida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni strukturaviy tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Po‘latova, P. M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika) : darslik. – Toshkent : G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 232 b.

2. Xamidova, M. U. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish) : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. – 216 b.

3. Ismailova, Z. K. The role of electronic pedagogical tools in higher education / Z. K. Ismailova, K. Riskulova, M. U. Axmedov, Y. T. Ismoilova, N. R. Pulatova // Journal of Critical Reviews. – 2020. – Vol. 7, Issue 5. – P. 416–420. – ISSN: 2394-5125.

4. Исмоилова, Ю. Формирование организаторских умений средствами педагогической игры // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – Курск, 2016. – № 5 (119). – С. 54–56.

Yodgorova Nigora
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti
E-mail: nigorayodgorova9909@gmail.com

ESKI O‘ZBEK TILI VA HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA SO‘Z YASALISH TIZIMINING QIYOSIY-TIPIOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada eski o‘zbek tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili tizimidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar va yasama so‘zlarning lisoniy tabiati qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixan faol bo‘lgan, biroq bugungi kunda arxaiklashgan yoki semantik transformatsiyaga uchragan affikslar tasniflanadi. Shuningdek, morfologik usul bilan so‘z yasalishidagi fonetik va semantik o‘zgarishlar lisoniy dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *eski o‘zbek tili, derivatsiya, affiksatsiya, yasalma, morfologik usul, tarixiy grammatika, semantik derivatsiya.*

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF THE WORD-FORMATION SYSTEM IN THE OLD UZBEK LANGUAGE AND THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abstract. *This article compares the linguistic nature of word-forming suffixes and derived words in the Old Uzbek language and the current Uzbek literary language. The study classifies affixes that were historically active but have become archaic or semantically transformed today. The phonetic and semantic changes in word formation by the morphological method are also demonstrated based on linguistic evidence.*

Keywords: *Old Uzbek language, derivation, affixation, formation, morphological method, historical grammar, semantic derivation.*

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В СТАРОУЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ языковой природы словообразовательных аффиксов и производных слов в системе староузбекского и современного узбекского литературного языка. В ходе исследования классифицируются аффиксы, которые исторически были активны, но сегодня архаизировались или подверглись семантической трансформации. Фонетические и семантические изменения в словообразовании, происходящие морфологическим методом, также демонстрируются на основе лингвистических доказательств.*

Ключевые слова: *староузбекский язык, словообразование, аффиксация, словообразование, морфологический метод, историческая грамматика, семантическое словообразование.*

Til - jamiyat tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy evrilishlar va madaniy aloqalar ta'sirida tinimsiz o‘zgarib, takomillashib boruvchi dinamik fenomendir. Har qanday tilning lug‘at boyligi (leksikasi) uning eng tez o‘zgaruvchi qatlami hisoblansa, grammatik qurilishi, xususan, so‘z yasalish tizimi (derivatologiya) nisbatan barqaror, ammo vaqt o‘tishi bilan lisoniy qonuniyatlar asosida transformatsiyaga uchraydigan murakkab struktura sanaladi. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari orasida eng uzoq davom etgan va merosi eng boy bo‘lgan davr - bu eski o‘zbek (chig‘atoy) tili davridir. XIV asrdan to XIX asrning oxirigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu til o‘zining benihoya boy derivatsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili esa ana shu buyuk lingvistik merosning vorisi bo‘lishiga qaramay, asrlar davomida yuz bergan til islohotlari, xalq jonli tiliga yaqinlashish va til iqtisodi (tejamkorligi) qonuniyatlari ta'sirida o‘z so‘z yasalish qoliplarini sezilarli darajada yangilagan, soddalashtirgan va ba'zilaridan voz kechgan.

Eski o‘zbek tilining buyuk tadqiqotchisi va amaliyotchisi Alisher Navoiy o‘zining "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarida turkiy tilning so‘z yasalish (morfologik) imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanligini, bitta o‘zakdan turli affikslar qo‘shish orqali o‘nlab yangi semantik nozikliklarga ega bo‘lgan so‘zlar yasash mumkinligini katta g‘urur bilan ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, turkiy tillarning agglyutinativ tabiati unga affiksatsiya usuli orqali cheksiz derivatsion kuch baxsh etadi. Ammo bugungi kunga kelib, Navoiy davrida o‘ta mahsuldor bo‘lgan ko‘plab qo‘shimchalar o‘zining yasovchilik faolligini yo‘qotib, "o‘lik morfemalar" (dead-affixes) qatoriga o‘tib qolgan yoki yasalma so‘z tarkibida leksikalashib (qotib), o‘zak bilan birikib ketgan.

Hozirgi tilshunoslikda so‘z yasalishini diaxronik (tarixiy) nuqtai nazardan o‘rganish o‘ta dolzarb ahamiyatga ega. Chunki:

Birinchidan, eski o‘zbek tili matnlarini, mumtoz adabiyotimiz durdonalarini lug‘atsiz tushunish va ularning asl lingvopoetik jozibasini his qilish uchun o‘sha davrning so‘z yasash mexanizmlarini bilish shart.

Ikkinchidan, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ko‘plab "qorong‘u" o‘zakli, etimologiyasi noma’lumdek tuyulgan so‘zlarning kelib chiqishi aynan eski o‘zbek tilidagi arxaiklashgan yasovchilarga borib taqaladi.

Uchinchidan, tilimizdagi qadimiy turkiy va o‘zlashma (arab, fors) affikslarning asrlar o‘zaro raqobati va sintezi qanday kechganini aniqlash umumiy turkologiya uchun ham muhim ilmiy xulosalar beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilining so‘z yasalish paradigmasidagi farqlarni, xususan, ot, sifat va fe’l yasovchi morfemalardagi semantik torayish, funksional o‘zgarish va arxaiklashuv jarayonlarini aniq matniy misollar asosida ko‘rsatib berishdan iborat. Biz qiyoslash jarayonida nafaqat shakliy o‘zgarishlarga, balki ma’no siljishlariga (semantic shift) ham alohida e’tibor qaratamiz.

Tilning lug‘at boyligi va grammatik qurilishi doimiy harakatdagi dinamik tizimdir. O‘zbek tili taraqqiyotining turli bosqichlarida so‘z yasalish tizimi o‘ziga xos qonuniyatlar asosida shakllangan. Ayniqsa, Alisher Navoiy davri va undan keyingi (XIV–XIX asrlar) eski o‘zbek tili hozirgi zamon o‘zbek tili uchun poydevor vazifasini o‘tagan bo‘lsa-da, ularning yasovchi morfemalar inventarida sezilarli farqlar mavjud.

Hozirgi kunda filologiya fanining dolzarb masalalaridan biri - tildagi lisoniy birliklarning diaxronik taraqqiyotini o‘rganishdir. Eski o‘zbek tilidagi ko‘plab yasovchilar bugungi kunda o‘z mahsuldorligini yo‘qotgan (dead-affixes) yoki mutlaqo boshqa funktsional vazifaga o‘tgan. Ushbu maqolaning maqsadi - ikki davr o‘rtasidagi derivatsion farqlarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tarixiy metod: Eski o‘zbek tili manbalari (Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon asarlari) va hozirgi lug‘atlar solishtirildi.

Komponent tahlil: Yasovchi morfemalarning semantik strukturasi bo‘laklarga ajratilib o‘rganildi.

Statistik tahlil: Muayyan affikslarning mahsuldorlik darajasi aniqlandi.

Mazkur ilmiy maqolani yozishda diaxronik (tarixiy) va sinxronik (zamonamiy) yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga tayalanildi. Asosiy metod sifatida qiyosiy-tarixiy metod tanlab olinib, u orqali lisoniy birliklarning XIV-XV asrlardagi holati bilan XXI asrdagi holati solishtirildi.

Shuningdek, matnlar bilan ishlashda kontekstual-semantik tahlil metodidan foydalanildi. Misollar bevosita mumtoz adabiyotimizning asosiy manbalari - Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abulg‘ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" kabi asarlaridan ajratib olindi. Yasalma so‘zlarning tarkibiy qismlarini o‘rganishda morfem (komponent) tahlil usuli qo‘llanildi. Bu usul hozirgi tilda yaxlit bir so‘z sifatida qabul qilinadigan birliklarning tarixan o‘zak va yasovchidan iborat bo‘lganini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eski o‘zbek tili va hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi derivatsion farqlar asosan quyidagi uchta yirik lisoniy hodisada o‘z aksini topgan:

Morfologik mahsuldorlikning pasayishi: Eski tilda ko‘p sonli yangi so‘zlar yasash qobiliyatiga ega bo‘lgan qo‘shimchalar (masalan, *-g‘u, -uq, -man, -ovul*) hozirgi tilda yangi so‘z yasamaydi.

Sintaktik usulning ustunlik qila boshlashi: Agar eski tilda murakkab ma’nolar bitta affiks yordamida ifodalangan bo‘lsa (masalan, *yov-at* – dushmanlik qilmoq), hozirgi tilda bu analitik yo‘l bilan ifodalanadi (*dushmanlik qilmoq*).

Leksikalashuv va substantivatsiya: Sifatdosh va harakat nomi shakllari eski tilda barqaror ot turkumiga tez o‘tgan bo‘lsa, bugungi kunda ular asosan sof sintaktik-grammatik vazifani bajarmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eski o‘zbek tili va hozirgi til o‘rtasidagi farqlar asosan quyidagi uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Eski o‘zbek tili lug‘at boyligini tahlil qilar ekanmiz, so‘z yasovchi morfemalarning naqadar xilma-xil va turli fonetik variantlarga ega bo‘lganini ko‘ramiz. Unlilar ohangdoshligi (singarmonizm) va undoshlar assimilyatsiyasi qonuniyatlariga ko‘ra, har bir qo‘shimcha kamida ikki-to‘rt variantda (masalan, -g‘u/-gu/-qu/-ku) qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida esa bu variantdorlik standartlashtirish natijasida keskin cheklangan.

O‘zbek tili tarixida fe’l negizidan ism (ot, sifat) yasash o‘ta faol jarayon bo‘lgan. Biroq ularning salmoqli qismi bugungi me’yorlarimizdan chiqib ketgan.

A) -g‘u / -gu / -qu / -ku affiksining tarixiy taqdiri

Ushbu affiks eski o‘zbek tilining eng "universal" va o‘ta mahsuldor derivatsion vositalaridan biri bo‘lgan. U ayni bir paytning o‘zida ham harakat nomini (masdar), ham qurol-asbob otlarini, ham mavhum otlarni, ham sifatlarni yasay olgan.

Misollar (Eski o‘zbek tilidan):

• Asbob-qurol ma’nosida: ichg‘u (ichimlik, qadah), yozg‘u (qalam, yozadigan narsa), kulg‘u (kulgi).

Navoiy matnidan misol: "May ichg‘usi keldi, jom keltiring."

• Makon ma’nosida: yatg‘u (yotadigan joy, yotoq).

• Sifat ma’nosida: qo‘rqg‘u (qo‘rqinchli), o‘lg‘u (o‘limga mahkum, halokatli).

Boburnomadan misol: "Andoq qo‘rqg‘u yer erdi-kim, kishi borishqa botin qilmas."

Hozirgi tildagi holati: Bu qo‘shimcha hozirgi kunda mutlaqo o‘z mahsuldorligini yo‘qotgan. Biz uni mustaqil ravishda yangi so‘z yasash uchun (masalan, "yozgu" yoki "borishgu" deb) ishlata olmaymiz. U faqat tarixiy taraqqiyot davomida o‘zakka birikib, leksikalashib ketgan sanoqli so‘zlarda qolgan: tuyg‘u, sezgi, kulgi, cholg‘u, chizg‘ich (chiz+g‘u+ch shaklining transformatsiyasi). Semantik jihatdan qaraydigan bo‘lsak, eski tildagi keng ko‘lamli ma’no hozirgi tilda torayib, faqat jarayon natijasi (sezgi) yoki asbob (cholg‘u) ma’nosida qotib qolgan.

B) -indi / -ndi affiksi (Mavhum otlardan konkret otlarga o‘tish)

Eski o‘zbek tilida bu affiks ko‘pincha harakatning natijasi bo‘lgan obyektni bildirgan va juda erkin qo‘llangan. Topindi (topilgan narsa), ko‘rindi (ko‘rinish, sharpa). Hozirgi o‘zbek tilida bu qo‘shimcha o‘z imkoniyatlarini ancha qisqartirgan va ko‘proq kamsituvchi, salbiy bo‘yoqdorlikka ega so‘zlarni (peyorativ leksika) yasashga ixtisoslashib qolgan: *chiqindi, yuvindi, o‘pindi, tashlandi.* Eski tilda esa ushbu affixda bunday kuchli salbiy konnotatsiya yo‘q edi.

C) -uq / -uk / -q / -k affiksi

Bu affix qadimgi va eski turkiy tilda fe’ldan ot va sifat yasovchi eng faol vosita bo‘lgan.

Misollar: Teshik, siniq, bo‘zuq, yoriq. Bu so‘zlar hozirgi tilimizda ham xuddi shu shaklda ishlatiladi. Biroq, eski o‘zbek tilida bu qo‘shimcha shu qadar qamrovdor ediki, u hatto harakatning jarayonini ham ifodalagan.

Navoiydan misol: "Ko‘nglum *sinuq*, bag‘rim *yaruq*."

Farqi: Hozirgi tilda bu yasovchi mahsuldor hisoblanmaydi (yangi yasama bermaydi), borlari esa tayyor lug‘aviy birlik (leksikema) sifatida qabul qilinadi. Eski tilda *buyruq* (buyurmoq fe’lidan), *qiliq* (qilmoq fe’lidan), *yozuq* (yozish, gunoh ma’nosida) o‘ta erkin qo‘llangan. Bugun biz gunoh ma’nosida *yozuq* so‘zini ishlatmaymiz (faqat "peshona yozug‘i" degan iborada saqlangan).

A) -lik / -liq / -luq / -lük universal affiksi

Bu qo‘shimcha eski o‘zbek tili derivatsiyasining haqiqiy "yuragi" bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U turkiy tillardagi eng qadimiy affix bo‘lib, ot negizlariga qo‘shilib g‘oyat xilma-xil ma’nolar hosil qilgan.

Eski o‘zbek matnlarida:

1. Joy, makon ma’nosi: toshliq (toshli joy), suvluq (suv ko‘p joy), qamishliq (qamishzor).
2. Mavhum xususiyat: yaxshiliq (yaxshilik), odamliq (odamiylik).
3. Kasb-hunar: beglik (beklik vazifasi), qulluq (qullik).
4. Mulkka daxldorlik: otluq kishi (otliq kishi), aqlluq (aqlli).

Hozirgi o‘zbek tili bilan qiyosiy muhokama: Hozirgi tilda bu affiksning fonetik variantdorligi qisqargan (faqat -lik va qisman -liq). Eng asosiysi, uning makon va joy bildirish funksiyasi to‘liq iste’moldan chiqqan. Biz hozir "qamishliq" yoki "gulluq" demaymiz. Buning o‘rniga fors-tojik tilidan o‘zlashgan -zor affiksi turkiy til derivatsion tizimiga chuqur singib, o‘zining turkiy raqibini siqib chiqardi. Natijada toshzor, qamishzor, gulzor kabi modellar faollashdi. Shuningdek, xususiyat bildirishda -lik o‘rnini ko‘p hollarda o‘zlashma -iy (odamiylik kabi) yoki turkiy -li (aqlli – eski tilda aqlluq) qo‘shimchalari egalladi.

B) -man / -mon affiksi (Kuchaytirish va daraja belgisi)

Eski o‘zbek tilida bu affiks shaxs otlariga yoki sifatlarga qo‘shilib, belgining yoki xususiyatning kuchliligini bildirgan.

Misollar: Qoraman (juda qora, qorachadan kelgan), yig‘laman (ko‘p yig‘laydigan), qopag‘on/qopman (tishlaydigan).

Tahlil: Bugungi kunda -man affiksi faqat o‘zlashma so‘zlar tarkibida saqlangan (yozuvchi emas, qadimgi yozg‘ich o‘rniga forsiydagi qalamkash singari ishlatiluvchi holatlar) va turkiy negizlarga mutlaqo qo‘shilmaydi. Yig‘laman so‘zi o‘rniga hozirgi o‘zbek tili o‘zining yangi lisoniy asboblaridan - -qoq (yig‘loqi/yig‘loq) yoki -chan (kasalmand, yig‘loki) kabi vositalardan foydalanadi. Bu tilning uzluksiz o‘zini-o‘zi yangilab borish xususiyatidan dalolat beradi.

Eski o‘zbek tili va hozirgi til o‘rtasidagi muhim qiyosiy tafovutlardan yana biri - shaxs otlarining yasalish modellaridadir. Eski o‘zbek tilida harakatni bajaruvchi shaxsni (kasb-kor egasini) atash uchun ko‘pincha fe’lning sifatdosh shakllari (ayniqsa, -g‘uvchi / -g‘uchi / -vchi) bevosita ot vazifasida barqaror qo‘llangan.

Mumtoz matnlardagi misollar:

- Bitigüchi - matn yozuvchi, xattot.
- Yaratg‘uchi - Yaratuvchi (Xudo).
- Tinglag‘uchi - tinglovchi, xaloyiq.
- Kelguchi - yo‘lovchi, mehmon.

Navoiy yozadi: "Ey bitigüchi, bu xatni xub bitigil." (Ey xattot, bu xatni chiroyli yozgin).

Bu yerda bitigüchi vaqtinchalik harakatni bajaruvchi shaxs (sifatdosh) emas, balki aniq bir kasb egasi - xattot, kotib ma’nosidagi sof otdir. Hozirgi o‘zbek tilida -vchi qo‘shimchasi asosan sintaktik vazifa bajarib, otlashish xususiyatini faqat ma’lum bir cheklangan so‘zlardagina (masalan, o‘quvchi, yozuvchi, sotuvchi, haydovchi) to‘liq saqlab qolgan. Eski tilda esa istalgan fe’ldan -g‘uchi qo‘shib shaxs oti yasash juda tabiiy jarayon sanalgan.

So‘z yasalish qonuniyatlari ichida fe’l yasalishi doim o‘ta konservativ bo‘lib kelgan. Shunga qaramay, asrlar osha bu tizimda ham katta jismoniy (fonetik) va semantik evrilishlar yuz bergan.

A) -at / -ar / -g‘ar / -qir affikslari (Fe’ldan fe’l yasovchi orttirma nisbat va derivatsiya)

Eski o‘zbek tili lug‘atlarini varaqlasak, shu qadar qisqa va ixcham fe’llarga duch kelamizki, ular hozirgi tilimizdagi murakkab so‘z birikmalariga teng keladi. Bunga asosan at/ir/ar qo‘shimchalari xizmat qilgan.

Misollar:

Yov (dushman) -> yov-at-moq (dushmanlik qilmoq, yovlashmoq).

Suv -> suv-at-moq (sug‘ormoq, suv bermoq). Navoiyda: "Otni suvatdi".

Oq -> oq-ar-moq (oqarmoq, oq rangga kirmak - saqlanib qolgan).

Tir (tirik, jonli) -> tir-guz-mak (tiriltirmoq). "O‘likni tirguzdi".

Hozirgi adabiy til bilan qiyosi: Bugungi kunda -at va -g‘ar qo‘shimchalari butunlay "muzlagan" va faol derivatsiya obyekti emas. Biz hozir "Otni suvatdi" demaymiz, uning o‘rniga o‘zakning boshqa yasalish qolipini (sug‘ordi) yoki analitik shaklini (suv ichirdi) qo‘llaymiz. Bu holat shuni yaqqol isbotlaydiki, o‘zbek tili tarixiy taraqqiyot jarayonida tobora sof morfologik (sintetik - qo‘shimcha orqali) yasash usulidan sintaktik-analitik (so‘zlarni biriktirish orqali: yovlik qilmoq) yasash usuliga

o‘tib bormoqda. Murakkab va ko‘p ma’noli affikslardan voz kechilib, aniq ma’noli so‘z birikmalariga ustunlik berilmoqda.

Eski o‘zbek tilining yorqin o‘ziga xosligi shunda ediki, u fors-tojik va arab tillaridan nafaqat tayyor leksik birliklarni, balki morfologik yasalish qoliplarini ham o‘zlashtirgan. Biroq muhim lisoniy hodisa shundaki, eski o‘zbek tili ijodkorlari bu o‘zlashma affikslarni to‘sof turkiy negizlarga ham hech bir istisnosiz qo‘shib yuborganlar.

-don affiksi: Fors tilidan kelib asbob/idish yasagan. Eski tilda tatar/turkiy negiz bilan suvdon (suv idishi), choqmaqdon (chaqmoqtosh idishi) shakllari bemalol qo‘llangan. Hozirgi kunda bu affiks asosan forscha o‘zaklarga qo‘shiladi (guldastadon, qalamdon).

-bon affiksi: Qopug‘bon (darvozabon – qopug‘: turkcha darvoza, bon: forscha qorovul). "Boburnoma"da ushbu so‘z faol ishlatiladi. Bugun esa biz to‘liq forscha darvozabon yoki to‘liq turkcha qorovul, elikchi so‘zlarini ishlatamiz. Aralash (gibrid) yasash hozirgi me’yorlar nuqtai nazaridan uslubiy g‘alizlik (kalkalanish) hisoblanadi.

-kash affiksi: Eski tilda hatto suvkash, aravakash kabi modellar turkiy o‘zak+fors yasovchi sxemasida paydo bo‘lgan va ular tilimizga qat’iy o‘rnashib qolgan yagona istisnoli holatlar sanaladi. Ammo umuman olganda, hozirgi adabiy til o‘zlashma affikslarni turkiy so‘zlarga qo‘shish borasida eski tilga nisbatan ancha qat’iy morfologik senzuraga (cheklovga) ega.

Ushbu qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘z yasash imkoniyatlari davrlar o‘tishi bilan qisqarmagan, balki sifat jihatidan o‘zgargan. U mavhumlikdan aniqlikka, ko‘p ma’nolilikdan (polifunksionallik) ixtisoslashuvga va sintetik qolipdan analitik qolipga qarab tadrijiy rivojlangan.

Eski o‘zbek tilida ot va sifat yasovchi bir qator affikslar mavjud bo‘lib, ular bugungi kunda faqat leksikalashgan (qotib qolgan) shaklda uchraydi.

-at/-at: (Masalan: yov-at - dushmanlik qilish). Bu qo‘shimcha hozirgi tilda deyarli qo‘llanilmaydi.

-man/-man: (Masalan: yig‘laman - yig‘loqi). Bugungi tilda bu qo‘shimcha o‘rnini -qoq yoki -chan egallagan.

-siq/-suk: (Masalan: yansiq - o‘xshash, kabi). Tarixiy manbalarda sifat yasovchi sifatida faol bo‘lgan.

Eski o‘zbek tilida sifatdosh shakllari (masalan, -g‘uvchi / -g‘uchi) hozirgi tilga qaraganda kengroq derivatsion imkoniyatga ega bo‘lgan. Hozirgi tilda biz -uvchi shaklini ko‘proq sintaktik vazifada ishlatsak, eski tilda u barqaror ot yasovchi hisoblangan.

Eski o‘zbek tili	Hozirgi o‘zbek tili	Farq tabiat
Bitiguchi	Kotib / Yozuvchi	Semantik torayish
Kelguchi	Keluvchi / Musofir	Funktsional o‘zgarish
O‘quguchi	Talaba / O‘quvchi	Institutsional ma’no

Eski o‘zbek tilida fe’ldan ot yasovchi **-g‘u / -gu** affiksi juda mahsuldor bo‘lgan. Ushbu affiks nafaqat harakat nomini, balki asbob-uskuna va makon otlarini ham yasagan.

Misol: Ichg‘u (ichimlik), *Kiyg‘u* (kiyim).

Hozirgi tilda bu affiks o‘zining yasovchilik funksiyasini deyarli yo‘qotgan va faqat *bilgi, sezgi, tuyg‘u* kabi sanoqli so‘zlarda saqlanib qolgan.

Eski o‘zbek tilida fe’l yasalishida **-ar/-er** (oqar-, ko‘kar-) affiksi rang va holat bildirishda juda faol bo‘lgan. Hozirgi tilda ushbu affiks yangi so‘z yasash imkoniyatini yo‘qotib, faqat an’anaviy so‘zlar tarkibida yashamoqda.

Shuningdek, **-g‘ar / -gar** (orttirma nisbat va fe’l yasovchi) affiksi bugungi tilda faqat *chiqar-, qutqar-* kabi cheklangan birliklarda qolgan. Eski tilda esa u deyarli har qanday negizga qo‘shila olgan.

Eski o‘zbek tili va hozirgi til o‘rtasidagi eng katta farqlardan biri - yasovchi elementlarning manbayidir. Eski o‘zbek tilida forscha **-don, -zor, -iston, -bon** kabi qo‘shimchalar nafaqat o‘zlashma so‘zlarga, balki turkiy negizlarga ham erkin qo‘shilgan (Masalan: *o‘t-loq* o‘rniga *o‘t-zor* yoki *gul-loq* o‘rniga *gul-iston* kabi eksperimental shakllar klassik adabiyotda uchraydi). Bugungi tilda esa bu affikslar ma’lum bir leksik qatlam bilan chegaralangan.

Olib borilgan qiyosiy tahlillar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Jumladan, o‘zbek tilining asosiy derivatsion negizi turkiy bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan affikslarning mahsuldorlik darajasi o‘zgargan. Ko‘pgina eski o‘zbek tili yasovchilari hozirgi kunda “o‘lik morfemalar”ga aylangan. Eski tilda keng ma’noli bo‘lgan yasovchilar (masalan, *-g‘u*) hozirgi tilda tor doiradagi terminologik yoki mavhum otlar yasashga ixtisoslashgan. Hozirgi o‘zbek tili taraqqiyotida affiksatsiya (morfologik usul) bilan bir qatorda kompozitsiya (so‘z qo‘shish) usuli ancha faollashgan, bu esa eski o‘zbek tilidagi ayrim murakkab affikslarning iste’moldan chiqishiga sabab bo‘lgan. Eski o‘zbek tili va hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining derivatsion tizimlari bo‘yicha olib borilgan qiyosiy-diaxronik tahlillarimiz asosida quyidagi muhim ilmiy xulosalarga keldik:

Lisoniy inventarning saralanishi (Filtratsiya): XIV-XIX asrlarda turkiy tilda keng qo‘llanilgan o‘nlab ism va fe’l yasovchi morfemalar (-g‘u, -uq, -man, -at) hozirgi tilimizda o‘zining produktiv (yangi so‘z yasash) xususiyatini to‘liq yo‘qotgan. Ular til tarixiga aylanib, faqat tayyor leksikalashgan so‘zlar tarkibidagina omon qolgan.

Semantik qutblanish va torayish: Eski tilda bitta affiksning birdaniga o‘nta turli xil ma’no maydonida (ham ot, ham sifat, ham predikat yasab) ishlashi xususiyati yo‘qolgan. Hozirgi til har bir lisoniy kategoriya uchun alohida, qat’iy ixtisoslashgan yasovchilarni talab qiladi (affikslarning semantik torayishi huddi -g‘ich va -uvchi misolidagidek aniqlashgan).

Tarkibiy transformatsiya va Analitizm: O‘zbek tili rivojlanish jarayonida grammatik qurilishining affiksal (sintetik) yo‘lidan ko‘ra, sintaktik (analitik – so‘z qo‘shish) yasash yo‘liga kengroq o‘rin bera boshlagan. Bunga murakkab holat fe’llari yasovchi qo‘shimchalar iste’moldan chiqib, "so‘z + qildi/bo‘ldi" tarzidagi modellar ortgani misol bo‘ladi.

Morfologik adekvatlik va gibridizatsiyaning cheklanishi: Mumtoz asarlarda uchraydigan o‘zbekcha o‘zakka forscha-arabcha yasalish qoliplarini tiqishtirishdek ("qopug‘bon", "suviston") erkinlik hozirgi adabiy til me’yorlari doirasida ancha qat’iylashtirilib, tilning o‘z ichki qonuniyatlariga (purizmik tamoyillarga) qaytarilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tili tarixiy grammatikasi, etimologik lug‘atlar yaratish va badiiy matnlarni lingvistik tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami : 20 jildlik. – Toshkent : Fan, 1998.
2. Abdurahmonov, G‘. Qadimgi turkiy til / G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov. – Toshkent : O‘qituvchi, 1982. – 160 b.
3. G‘ulomov, A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis / A. G‘ulomov, M. Asqarova. – Toshkent : O‘qituvchi, 1987. – 256 b.
4. G‘aniyev, A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. – Toshkent : Fan, 2010. – 180 b.
5. Ne’matov, H. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent : Universitet, 2005. – 192 b.
6. Ne’matov, H. O‘zbek tili tizimli leksikologiyasi asoslari / H. Ne’matov, R. Rasulov. – Toshkent : O‘qituvchi, 1995. – 128 b.
7. Hojiyev, A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. – Toshkent : O‘qituvchi, 1989. – 112 b.

Maxkamova L.M
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedogogika kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: laylowa0597@gmail.com

INSULT XASTALIGI NATIJASIDA VUJUDGA KELUVCHI NUTQ BUZILISHLARI VA UNING BILISH JARAYONLARIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada insult xastaligiga chalingan bemorlarda kasallikdan keyingi davrda yuzaga keluvchi nutq buzilishlari va uning bilish jarayonlariga ta'siri, xususan tafakkur va xotira jarayonlaridagi buzilishlar bilan birgalikda namoyon bo'lishi yoritib berilgan. Shuningdek reabilitatsiya jarayonida bilish jarayonlari psixokorreksiyasiga yondashuvlarining ahamiyati haqida atroflicha fikr mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq buzilishlari, insult, afaziya, akalkuliya, bosh miya yarimsharlari, reabilitatsiya, psixokorreksiya.*

SPEECH DISORDERS RESULTING FROM STROKE AND THEIR IMPACT ON COGNITIVE PROCESSES

Abctract. *The article examines speech disorders that occur in patients following a stroke and their impact on cognitive processes, particularly thinking and memory. Special attention is given to the combined manifestation of post-stroke speech impairments, including aphasia and acalculia, in relation to cerebral hemisphere damage. The mechanisms underlying the relationship between speech and cognitive dysfunctions are analyzed, as well as their influence on the overall psychological functioning of patients. Furthermore, the significance of psychocorrective approaches in the rehabilitation process is discussed in detail, emphasizing their role in restoring cognitive functions and improving the effectiveness of comprehensive therapy.*

Keywords: *speech disorders, stroke, aphasia, acalculia, cerebral hemispheres, rehabilitation, psychocorrection.*

РЕЧЕВЫЕ НАРУШЕНИЯ, ФОРМИРУЮЩИЕСЯ ВСЛЕДСТВИЕ ИНСУЛЬТА, И ИХ ВЛИЯНИЕ НА КОГНИТИВНЫЕ ПРОЦЕССЫ

Аннотация. *В статье представлен теоретический анализ речевых нарушений, возникающих у пациентов в постинсультном периоде, а также их взаимосвязи с когнитивными процессами, включая мышление и память. Рассматриваются нейропсихологические механизмы формирования афазии и акалькулии при поражении полушарий головного мозга. Особое внимание уделяется системному характеру речевых и когнитивных расстройств и их влиянию на психическую деятельность личности. Обосновывается значимость психокоррекционных воздействий в структуре комплексной реабилитации, направленных на восстановление когнитивных функций и оптимизацию адаптационных возможностей пациентов.*

Ключевые слова: *речевые нарушения, инсульт, афазия, акалькулия, полушария головного мозга, когнитивные процессы, реабилитация, психокоррекция.*

Bugungi kunda insult kasalligi dunyo miqyosida nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarining yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. Insult nafaqat bemorning jismoniy holatiga, balki uning psixik faoliyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bosh miya yarimsharlarining zararlanishi natijasida nutq funksiyasining buzilishi keng tarqalgan klinik holatlardan biri bo'lib, u bemorning ijtimoiy moslashuvi va hayot sifati pasayishiga olib keladi.

Insultdan keyingi davrda kuzatiladigan nutq buzilishlari ko'pincha afaziya, dizartriya, akalkuliya kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi va ular ko'pincha boshqa bilish jarayonlari buzilishlari bilan birgalikda kechadi. Nutq faoliyati inson tafakkuri va xotirasi bilan uzviy bog'liq bo'lganligi

sababli, uning buzilishi bilish jarayonlarining tizimli o‘zgarishlariga olib keladi. Ayniqsa, tafakkurning mantiqiyligi, umumlashtirish qobiliyati, eslab qolish va qayta tiklash jarayonlarida sezilarli pasayish kuzatiladi.

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar insultdan keyingi nutq buzilishlarini alohida simptom sifatida emas, balki oliy psixik funksiyalarning tizimli buzilishi sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois reabilitatsiya jarayonida faqat nutqni tiklashga emas, balki bilish jarayonlarini kompleks psixokorreksion yondashuv asosida qayta shakllantirishga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.


Insultdan keyingi davrda bosh miyaning zararlangan o‘chog‘iga ko‘ra bemorlarda kognitiv jarayonlarda buzilishlar kuzatiladi. Mazkur buzilishlar orasida xotira buzilishlari yetakchi o‘rin tutadi. Bosh miyadagi lokal jaroxatlanishlar hisobiga vujudga keluvchi xotiradagi o‘zgarishlarni A.R.Luriya o‘rgangan bo‘lib, mazkur buzilishlarni ikki guruhga ajratgan holda o‘rganib chiqqan: modal-spetsefik va modal nospetsefik buzilishlar.

Modal - nospetsefik buzilishlarda bemorlarda xotira jarayonlarining barcha bosqich va turlarini qamrab olishi bilan xarakterlanib, bemorlarda xotira izlarini mustahkamlanishi (konsolidatsiya) jarayonidagi buzilishlar bilan xarakterlanishi ham mumkin.

Modal- spetsefik buzilishlar asosan bosh miyaning ikkinchi yoki uchinchi funksional blokidagi o‘zgarishlar hisobiga yuzaga kelib, bosh miyadagi zararlangan o‘choq lokalizatsiyasiga ko‘ra ko‘ruv, eshituv, taktil va h.k.z turdagi buzilishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Barchamizga ma'lumki xotira jarayoni nutq va uni idrok etish bilan chambarchas bog‘liq sanalib, so‘z mantiq xotirasi eng samarali xotira sifatida etirof etiladi. Bosh miya chap yarimsharidagi buzilishlarda asosan sensor afaziyada bemorlarda xotira jarayonlaridagi buzilishlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bemorlarda qisqa muddatli xotiradagi buzilishlar, so‘zlarni tushunishdagi buzilishlar, so‘z mantiq xotiraning namoyon bo‘lmasligi holatlari kuzatiladi.

Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda inson xotirasining rivojlanish jarayoni nutq rivojlanishida asosiy omil ekanligi asoslangan bo‘lib, nutq va unda qo‘llaniluvchi so‘zlar asosida xotira jarayonlari turishi alohida e'tirof etiladi. Biz ushbu tadqiqotimizda bemorlardagi nutqni qayta tiklashga bo‘lgan urinishlarimiz ulardagi xotira jarayoniga qay tarzda ta'sir etishini o‘rganishni rejalashtirdik va 100 nafar bemorda xotira jarayonlarini psixodiagnostik jihatdan baholadik.

Bemorlarimizdagi nutq buzilishlarini turlicha ko‘rinishga ega ekanligini inobatga olgan holda bemorlar uchun tanlab olingan o‘nta so‘zni bemordagi afaziya ko‘rinishidan kelib chiqqan holda yozma va og‘zaki tarzda taqdim etdik. Mazkur xotira borasidagi o‘tkazgan tadqiqotimiz natijalari quyidagi rasmda o‘z ifodasini topdi:



1-rasm. Xotira darajasi diagnostikasining birlamchi natijalari

Afaziyaning o‘rta darajasidan aziyat chekayotgan bemorlarda akalkuliya holati yaqqol namoyon bo‘lgaligini guvohi bo‘ldik. Bemorlarning umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda nutq buzilishlarini korreksiya qilish amaliyotini 9 oy etib belgiladik va to‘qqiz oy davomida bemorlardagi nutq, kognitiv jarayonlar va hissiy emotsional sohadagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib turdik. Nutq jarayonining boshqa kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligini o‘rganish maqsadida nutq buzilishlarini diagnostika qilish bilan birgalikda bemorlarda xotira, eshituv idroki va tafakkur jarayonlarini diagnostikasini korrektsion chora tadbirlarni amalga oshirishdan avval va keyingi davrda amalga oshirishni maqul ko‘rdik.

Ma'lumki nutq va tafakkur jarayoni bir biri bilan bevosita uzviy bog‘liq sanaladi. Tafakkurda amalga oshadigan operatsiyalar, tushunchalar hosil bo‘lishi ularni hukm va xulosa tarzida aks etishi nutq orqali amalga oshadigan jarayonlar sanalib taffakkur yoki nutq jarayonida kuzatiluvchi buzilishlar u yoki bu jarayonga ta'sir etmasdan qolmaydi. Xususan insult xastaligidan keyin namoyon bo‘luvchi afaziyalarning semantik afaziya turi mavjud bo‘lib bunda bemorlarda nafaqat nutq jarayonida balki tafakkur jarayonida ham buzilishlar namoyon bo‘ladi. Afaziyaning mazkur turiga nutqning logika-grammatik jihatdan tushunishdagi xatoliklar xos bo‘lib, bemorlarda hattoki akalkuliya holati ham namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur afaziyaning ko‘rinishi A.R.Luriyaning ta'rifi bo‘yicha eng “omadsiz” afaziya sanalib, bunda nutqning qat'iy semantik tuzilishida o‘zgarishlar vujudga keladi. Uzoq yillar davomida mazkur defekt bosh miya jarahatlaridan keyingi intellekt defekti deya nomlanib kelingan bo‘lib, K.Goldshteyn afaziya mavjud bo‘lgan bemorlarda umumiy intellekt darajasining pasayishi yoki abstrakt ustanovkalarning quyi darajaga tushishi deya e'tirof etgan. Umuman olganda afaziologik muommolarni o‘rgangan olimlar fikricha har qanday afaziya nafaqat nutqiy muammo balki tafakkur jihatdan ham muammo sanaladi va mazkur masalani ko‘rib chiqishda tafakkur va boshqa kognitiv jarayonlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Ushbu tadqiqotimizda bemorlardagi nutq buzilish jarayoni va ulardagi tafakkur jarayonlaridagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganishga harakat qildik va nutq defektiga ega bemorlarimizda korreksiyagacha bo‘lgan davrda va undan keyingi davrda tafakkur jarayonlarini tadqiq etish maqsadida bemorlarda To‘rtinchisi ortiqcha metodikasini o‘tkazdik. Mazkur metodikani bemorlarning kasallikdan keyingi umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda tanlab oldik. Tadqiqotimiz avvalida o‘tkazgan metodikamiz natijalari quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topdi (1-jadval).

1- jadval.

Sinaluvchilarda tafakkur buzilishi darajasi

Darajasi	Soni	Foizi
Yengil	30	30%
O’rta	57	57%
Og’ir	13	13%
Jami	100	100%

Tadqiqotimizda insultdan keyingi davrda nutq buzilishlari kuzatilgan bemorlarda xotira va tafakkur jarayonlarining holati empirik jihatdan o‘rganildi hamda olingan natijalar birlamchi statistik tahlil asosida qayta ishlanildi. Diagnostik ko‘rsatkichlar insult kasalligida bemorlarda bilish jarayonlarining turli darajadagi buzilishlari mavjudligini tasdiqladi.

Tahlil natijalari nutq buzilishlari darajasi bilan xotira va tafakkur ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, nutq faoliyatidagi nuqsonlar kuchaygan sari mantiqiy fikrlash operatsiyalari, umumlashtirish va tahlil qilish qobiliyati hamda eslab qolish va qayta tiklash jarayonlarida pasayish kuzatildi. Bu holat nutq va bilish jarayonlarining funksional jihatdan integrativ tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu asosda reabilitatsiya jarayonini tashkil etishda nutqni tiklash bilan bir qatorda tafakkur va xotira jarayonlarini ham kompleks ravishda rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Bemorlarga kasallikdan keyingi davrda qo’llaniluvchi psixokorreksion chora tadbirlar bilish faoliyatining kompensator mexanizmlarini faollashtirish, saqlanib qolgan funksiyalarni qo‘llab-quvvatlash va shu orqali shaxsning kasallikdan keyingi davrda ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Лурия, А. Р. Основы нейропсихологии : учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования. – Москва : Академия, 2013. – 384 с.
2. Лурия, А. Р. Язык и сознание / под ред. Е. Д. Хомской. – Москва : Изд-во Моск. ун-та, 2018. – 336 с.
3. Нейропсихология : тексты / под ред. Е. Д. Хомской. – Москва : Изд-во Моск. ун-та, 2014. – 334 с.
4. Оппель, В. В. Восстановление речи после инсульта. – Санкт-Петербург : Медицина, 2002. – 236 с.

Maxmudova Fotima Maqsud qizi
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: fmaxmudova98@gmail.com

IJTIMOIY TARMOQLAR DISKURSINING TIPOLOGIYASI VA TASNIFI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar diskursining tipologiyasi va tasnifi masalalari tahlil qilinadi. Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi muloqotning yangi shakli – kompyuter orqali amalga oshiriladigan muloqotni yuzaga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlar diskursi o‘ziga xos lingvistik, ekstralingvistik va pragmatik xususiyatlari bilan an’anaviy nutqiy janrlardan farq qiladi. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni ma’lum bir tizimga solish, ularning janriy tarkibi va funktsional turlarini aniqlashdan iborat. Ishda ijtimoiy tarmoq muloqoti "og‘zaki nutqning yozma shakli" sifatida talqin qilinib, uning turlari kommunikativ maqsad, platforma imkoniyatlari va ishtirokchilar tarkibiga ko‘ra tasniflanadi. Shuningdek, maqolada xabarlar, sharhlar, postlar va xeshteglarning diskursiv tabiati yoritilgan. Tadqiqot natijalari virtual muloqot madaniyatini o‘rganish va ijtimoiy media tilini tizimli tahlil qilishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *raqamli diskurs, ijtimoiy tarmoqlar, multimodallik, diskurs tahlili, tipologiya, pragmatika.*

TYPOLOGY AND CLASSIFICATION OF SOCIAL MEDIA DISCOURSE

Abstract. *В данной статье рассматриваются вопросы типологии и классификации дискурса социальных сетей, являющегося одним из наиболее актуальных направлений в современной лингвистике. Стремительное развитие интернет-технологий привело к возникновению новой формы коммуникации - компьютерно-опосредованного общения. Дискурс социальных сетей отличается от традиционных речевых жанров своими уникальными лингвистическими, экстралингвистическими и прагматическими характеристиками. Цель исследования заключается в систематизации текстов социальных сетей, определении их жанрового состава и функциональных типов. В работе общение в социальных сетях интерпретируется как «письменная форма устной речи», а его виды классифицируются в соответствии с коммуникативными целями, возможностями платформ и составом участников. Также в статье освещается дискурсивная природа сообщений, комментариев, постов и хештегов. Результаты исследования служат важным теоретическим источником для изучения культуры виртуального общения и системного анализа языка социальных медиа. Работа вносит вклад в развитие интернет-лингвистики, предлагая обновленную классификацию цифровых речевых актов в условиях глобальной цифровизации.*

Keywords: *digital discourse, social media, multimodality, discourse analysis, typology, pragmatics.*

ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Аннотация. *В данной статье проводится всесторонний анализ типологии и классификации дискурса в социальных сетях. На основе теории С. Херринга выделены лингвистические, прагматические и когнитивные особенности цифрового дискурса. Исследование классифицирует мультимодальный, интерактивный и гибридный характер дискурса в социальных сетях на основе научных данных.*

Ключевые слова: *цифровой дискурс, социальные сети, мультимодальность, анализ дискурса, типология, прагматика.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida kommunikatsiya shakllari tubdan o‘zgardi. Ijtimoiy tarmoqlar yangi diskurs makonini yaratdi. Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlar diskursining tipologiyasini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdan iborat. Raqamli diskurs tushunchasi

zamonaviy tishunoslikda nisbatan yangi hodisa bo‘lib, u raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan kommunikativ amaliyotlarni ifoda etadi. Diskurs tushunchasi ko‘p qirrali va dinamik fenomen sifatida zamonaviy gumanitar fanlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Uning turli talqinlari va ko‘plab yondashuvlar doirasida o‘rganilishi bu kategoriyaning murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar va internet muloqot shaklining jadal rivojlanishi natijasida, diskurs yangi muhitda transformatsiyalanmoqda va uning o‘ziga xos xususiyatlari shakllanib bormoqda. Raqamli diskurs an’anaviy diskursdan o‘zining medialanganligi, multimodalligi, gibridligi, konvergentligi, tezkorligi va delokallanganligi bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar raqamli diskursni zamonaviy kommunikativ amaliyotlarni o‘rganishda muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi.

Nazariy asoslar. S. Herring (2004) CMDA modeli asosida raqamli diskursni tahlil qiladi. U “kompyuter vositasidagi diskurs” (computer-mediated doscourse) atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Raqamli diskurs tushunchasi esa keng ma’noli tushuncha sifatida barcha elektron muloqot shakllarini qamrab oladi. Keyinchalik, Computer-Mediated Discourse Analysis (CMDA) metodologiyasi doirasida raqamli diskursni sinxronlik/ asinxronlik, bir yo‘nalishli/ko‘p yo‘nalishli, anonim/identifikatsiyalashgan, xususiy/ommaviy va boshqa parametrlarga ko‘ra tasnif etishni taklif qiladi. Tadqiqotchiga ko’ra, hududi jihatidan raqamli diskursni global (xalqaro platformalardagi), mahalliy(muayyan til yoki madaniyat bilan bog‘liq platformalardagi) va institutsional (muassasalar, tashkilotlar va ijtimoiy institutlar doirasidagi) turlarga ajratish mumkin.

Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy va diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi. Telegram, Instagram va TikTok platformalaridan olingan namunalar asosida tahlil amalga oshirildi.

Tahlil. Ijtimoiy tarmoqlar diskursi multimodal tizimdir. Masalan, Instagram postida vizual (rasm), verbal (matn) va paraverbal (emoji) elementlar birlashadi. Telegram diskursi esa dialogik va tezkor xarakterga ega. Foydalanuvchilar diskurs orqali o‘z identifikatsiyasini yaratadi va auditoriya shakllantiradi. Multimodal diskurs- ijtimoiy tarmoqlardagi post va xabarlar, messenjerlar, video-konferensiyalar, videochatlar. Bu raqamli diskurs shakllarida verbal kommunikatsiya bilan birga vizual, audio va boshqa semiotik resurslar ham muhim ahamiyatga ega. Vizual diskurs- Instagram, Pinterest, tikTok kabi platformalarda ustuvor bo‘lgan, asosan vizual kontentga yo‘naltirilgan diskurs. Bu ko‘rinishdagi diskursda vizual elementlar kommunikativ dominantni tashkil etadi, verbal element esa ko‘pincha ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Algoritmik diskurs- sun’iy intellekt va algoritmik tizimlar tomonidan generatsiya qilinadigan diskurs. Bu raqamli diskursning eng zamonaviy ko‘rinishi bo‘lib, mashina o‘rganishi va tabiiy til ishlov berish texnologiyalari asosida ishlab chiqiladi. Gibrid diskurs- turli formatlarni birlashtiradigan, konvergent tabiatga ega bo‘lgan diskurs shakllari. Masalan, interaktiv infografika, gipermediamatn, transmedia, storitelling va boshqalar. Raqamli diskursni tasniflash zaruriyati bir necha omillar bilan bog‘liq: Metodologik dolzarbligi- raqamli muloqot shakllarining xilma-xilligi va murakkablashib borishi tadqiqotchilarni ushbu hodisani tizimlashtirish va kategoriyalarga ajratishga undaydi. C.Thurlou va K.Mroczek ta’kidlaganidek, raqamli diskurs tadqiqotlari uchun aniq metodologik asos bo‘lishi zarur. Lingvistik xilma-xillik- Tagarelli va Interdonatoga ko‘ra, turli raqamli platformalarda tildan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlarni tizimli o‘rganish uchun raqamli diskurs turlarini ajratib olish zarur. Texnologik evolyutsiya- raqamli muhitning tez o‘zgaruvchanligi va yangi platformalarning paydo bo‘lishi B.Bolander va M.Locher tomonidan ta’kidlanganidek, diskurs tasnifini ham muntazam yangilab borish zaruriyati keltirib chiqaradi. Amaliy dolzarbligi- raqamli diskurs haqidagi bilimlar ta’lim, marketing, ijtimoiy media tahlili, kiberxavfsizlik kabi sohalarda qo‘llanilishini S.Lomborg o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatgan. Bu maqsadlar uchun aniq tasnif tizimining mavjudligi muhim ahamiyatga ega.Shunday qilib, raqamli diskursni tasniflash uning tabiatini va xususiyatlarini tushunish, ilmiy- nazariy asoslarini yaratish hamda amaliy qo‘llanilishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli diskurs turli parametrlar bo‘yicha klassifikatsiya qilinishi mumkin. J.Eisenstein raqamli diskursni texnologik platforma va kommunikatsion kanallarga ko‘ra tasnif etishni taklif qiladi. S. Herring esa, Muloqot usuli va paltforma jihatidan, mutaxassislar quyidagi ko‘rinishlarni ajratib ko‘rsatadilar: mediamatnli diskurs- chat-xonalar, forumlar, izohlar, SMS, elektron pochta, bloglar va boshqalar. Bu raqamli diskursning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, uzoq vaqt davomida ustuvor bo‘lib kelgan. Uning Computer-Mediated Discourse Analysis (CMDA) metodologiyasi raqamli diskurs tadqiqotlarida muhim burilish yasadi.

Diskursning tasnifi. Raqamli diskursni texnologik platformalarga ko‘ra tasniflash zamonaviy tilshunoslik va kommunikatsiya nazariyalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tasnif asosida raqamli diskursning bir necha asosiy turlari ajratiladi.

Veb-asosli diskurs internet saytlari, portal va onlayn platformalarda yuzaga keladigan kommunikativ jarayonlarni qamrab oladi. Tadqiqotchilar J. Barlow hamda A. Saydersning fikricha, bunday diskurs bir qator muhim xususiyatlarga ega. Avvalo, gipermatnlilik hodisasi kuzatiladi, ya’ni mediamatnlar o‘zaro bog‘lanib, tarmoq prinsipi asosida shakllanadi. Bundan tashqari, multimediallilik xususiyati turli ko‘rinishdagi kontent - matn, rasm, audio va videolarni yagona kommunikativ makonda birlashtirish imkonini beradi. Veb-asosli diskurs keng auditoriyaga qaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birga, axborotning saqlanishi va arxivlashtirilishi uning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. J. Lazar va J. Cheang tadqiqotlariga ko‘ra, aynan shu omil sababli veb-platformalardagi muloqotda rasmiylik darajasi boshqa raqamli platformalarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Mobil diskurs esa smartfon va planshet kabi mobil qurilmalar vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiyani ifodalaydi. G. Jones va B. Schieffelin mobil muloqotning asosiy belgisi sifatida qisqalik va lakonizmni ko‘rsatadilar. Chunki mobil aloqa tezkorlik va qulaylikka asoslanadi. Shu sababli qisqartmalar, abbreviyaturalar hamda ixcham ifodalar keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, emotsional-ekspressiv vositalarning faol ishlatilishi mobil diskursning muhim xususiyatidir. Punktuatsiya belgilarining noodatiy qo‘llanishi, bosh harflar, emoji va boshqa paraverbal vositalar muloqotning ta’sirchanligini oshiradi. K. Turlou va M. Pof mobil diskurs asosan norasmiy va shaxsiy munosabatlarga xizmat qilishini ta’kidlaydilar.

Ijtimoiy tarmoqlar diskursi esa gipermuloqotlilik xususiyati bilan tavsiflanadi. Ushbu diskurs turida foydalanuvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar va “do‘stlar tarmog‘i” muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, foydalanuvchilarning kontent yaratishi, uni qayta ishlashi va ommalashtirishi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot qisqa, tezkor va dinamik xarakterga ega bo‘lib, doimiy axborot almashinuvi bilan kechadi. R. Peyjning fikriga ko‘ra, bunday diskursda o‘z-o‘zini taqdim etish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Foydalanuvchilar virtual makonda o‘z shaxsiy obrazini yaratishga va uni boshqalarga namoyon etishga intiladilar.

Messenjerlar orqali amalga oshiriladigan diskursda esa shaxslararo va guruh muloqoti ustunlik qiladi. Tadqiqotchi K. Vazirova messenjer diskursining asosiy xususiyati sifatida sinxron va asinxron muloqot imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ya’ni suhbat real vaqt rejimida ham, ma’lum vaqt oralig‘idan keyin ham davom ettirilishi mumkin. Bundan tashqari, messenjerlar ko‘p kanalli aloqa imkoniyatini yaratadi. Foydalanuvchilar matnli xabarlar bilan bir qatorda audio, video, tasvir va turli fayllarni ham almashishlari mumkin. Shu jihatdan messenjer diskursi zamonaviy kommunikatsiyaning eng qulay va ommabop shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ommaviylikdan ko‘ra shaxsiy muloqotga yo‘nalganlik. Muhokamalar yopiq va yo‘naltirilgan auditoriyadagi diskurs. S.Durshed va K.Frikning kuzatishlariga ko‘ra, messenjer-asosli diskursda kommunikantlar o‘rtasidagi chegaralar an’anaviy yozma va og‘zaki nutqdagi kabi aniq emas, diskurs gibrid xususiyatga ega bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlarda diskurs raqamli diskurs texnologik platformalariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi.Raqamli mediadiskurs kontekstida ijtimoiy media haqida batafsil tushuncha berishdan oldin, ijtimoiy media, ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy media platformalari o‘rtasidagi ba’zi asosiy terminologik farqlarni aniqlash zarur. TechTerm -2021 ma’lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy media- bu internetga asoslangan hamjamiyatlarning to‘plamidir, unda foydalanuvchilar bir-biri bilan onlayn tarzda o‘zaro aloqada bo‘lishadi, masalan, veb-forumlar, vikilar va turli xil foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent (UCG) saytlari. Ijtimoiy tarmoqlar atamasi ko‘pincha ijtimoiy media o‘rniga ishlatiladi, ammo aslida bu foydalanuvchilarning ijtimoiy media orqali o‘zaro aloqada bo‘lishini anglatadi., ya’ni bu aloqaning ikki tomonlama bo‘lishi va kamida ikkita ishtirokchini o‘z ichiga olishi kerak. Ijtimoiy media platformalari- bu onlayn aloqaning amalga oshirilishini ta’minlaydigan, haqiqiy veb-saytlar va xizmatlardan tashkil topgan raqamli platformalardir. Boshqacha qilib aytganda, “ijtimoiy media platformasi – bu ijtimoiy media yechimlari va xizmatlarini rivojlantirish, joylashtirish va boshqarish imkonini beradigan veb-asoslangan texnologiyadir. Bu ijtimoiy media veb-saytlari va xizmatlarini to‘liq ijtimoiy media tarmog‘ining funksionalligi bilan yaratish imkoniyatini taqdim etadi”. Masalan, Facebook ijtimoiy tarmoqlashuvni ta’minlaydi va u ijtimoiy media platformasi sifatida misol bo‘la oladi, chunki u onlayn hamjamiyatni tashkil etadi,

lekin u ijtimoiy media platformasi hamdir, chunki to‘liq ishlash muhiti, operatsion tizim va qo‘shimcha yordamchi funksiyalarni taqdim etadi. Twitterni hatto internetdagi qisqa xabarlar xizmati (SMS) deb ta’riflash mumkin. Bunga ko‘ra, veb-sayt- bu dinamik yoki statik sahifalardan tashkil topgan va foydalanuvchilarga ba’zi nazorat imkoniyatlarini taqdim etadigan, birlashtirilgan sahifalar to‘plamidir (masalan, sahifalarni ochish, kontentni yuklab olish va boshqalar). Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy media internetga asoslangan veb-saytlar, mobil ilovalar va ijtimoiy media platformalariga tayanadi, ular foydalanuvchilarga o‘z kontentlarini yaratish va bo‘lishish, shuningdek, ijtimoiy tarmqolashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Muhokama. Ijtimoiy tarmoqlar diskursi an’anaviy diskursdan farqli ravishda interaktiv va dinamikdir. U nafaqat axborot almashish, balki ijtimoiy identifikatsiya vositasi hamdir. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari faqat mavjud auditoriyaga murojaat qilmaydialr yoki unga javob bermaydilar, ular aslida uni qurmoqdalar. Bu shuni anglatadiki, muloqot (diskurs)da qatnashgan odamlar o‘z auditoriyalarini yaratadilar, chunki ular o‘z izohlariga ma’lum bir kontekst berishni xohlaydilar. Masalam, agar kimdir Facebookda biror narsa haqida fikr bildirsa, aytaylik, uning ismi Bekzod, u qandaydir reaksiyani kutadi. Facebookdagi Bekzodning do‘stlaridan (qulaylik uchun “kuzatuvchilar” deb ataladi) ba’zilari Bekzodning postiga izohlar qoldirishni boshlaydi, ya’ni ular o‘z fikrlarini bildiradilar, uni qo‘llab-quvvatlaydilar, qarshi chiqadilar yoki shunchaki postni yoqtiradialr yoki yoqtirmaydilar, bu yana Bekzodning fikriga rozilik yoki norozilikni aks ettiradi. Bekzodning asl postidan keyingi dialog rivojlanishi (asosan lekin faqat yozma diskurs shaklida, ba’zida emojilar va yoqtirish/yoqtirmaslik ishlatiladi), postning atrofidagi auditoriya va kontekstni yaratadi va shakllantiradi. Aynan shu nuqtada Bekzod uni qo‘llab-quvvatlaganlar uchun qahramon bo‘ladi. Keyingi safar Bekzod yangi fikrni joylashtirsa, shu auditoriya ma’lum bir munosabatni kutadi, shu bilan birga Bekzodga ba’zi sifatlarni taqdirlaydi, ya’ni Bekzodning do‘stlari (kuzatuvchilari) ongida u kuchli fikrlarga ega yoki u o‘zining o‘tkir fikri va tili bilan hurmat qilinadigan kishiga aylanadi yoki shunchaki u har kimning hurmatini qozonadigan kishiga aylanadi. Bir so‘z bilan aytganda, shu nuqtada Bekzod o‘zining (istagan) auditoriyasini yaratishga muvaffaq bo‘ladi, ular har doim uning postlariga javob beradi, bu esa unga qiymat hissi beradi va u oflayn muhitda yaratib bo‘lmaydigan ma’lum bir ijtimoiy rolni quradi. Har bir kuzatuvchisi bialn shaxsan uchrashib, o‘z fikrini tushuntirish, kuzatuvchining munosabatiga javob berish, fikrini yana tasdiqlash, keyingi kuzatuvchiga o‘tish, boshqa kuzatuvchilar nima deganini aytish va hokazo, bu juda ko‘p vaqtni olardi. Biroq, Facebookda Bekzod o‘zining ijtimoiy, shaxsiy, ijtimoiy yoki professional rolini kelishib, muhokama qilishi mumkin, shu bilan birga, o‘z identifikatsiyasini maqsadlariga va kutilganlariga mos ravishda qayta yaratadi, kengaytiradi va o‘zgartiradi. Jarayon davomida u o‘z fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydigan va qadrlaydigan hamjamiyatni quradi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar avval o‘yinkulgu sifatida boshlangan bo‘lsa-da, hozirda bu murakkab jarayonga aylangan, unda odamlar diskurs hamjamiyatlarini yaratadilar va quradilar, auditoriyalarni shakllantiradilar, identifikatsiyalarini qayta quradilar va kelishib olishadi, o‘zlarini turli yo‘llar bilan namoyish qiladilar, shaxs sifatida rivojlanadilar, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradilar, o‘zlarini targ‘ib qiladilar, individualliklarini tasdiqlaydilar va hokazo. Albatta, onlayn muhitda ko‘plab salbiy tomonlar mavjud, chunki ba’zi foydalanuvchilar Bekzod kabi qo‘llab-quvvatlashni ololmasligi umkin. Ko‘plab hollarda, Bekzod kabi omadli bo‘lmagan foydalanuvchilar, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘q qilish va baxtsiz identifikatsiya shakllanishiga yordam beradigan nafratli kuzatuvchilarga duch kelishlari mumkin. Biroq, ijtimoiy tarmoqning onlayn muhitida, ya’ni raqamli media diskursida barchasi mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlar diskursi zamonaviy lingvistikaning muhim obyektidir. Taklif etilgan tasniflar uni chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Shubhasiz aytish mumkinki, raqamli ommaviy axborot diskursi yozish, tasvirlar, tovushlar va boshqa semiotik modalliklarni birlashtiradi, shuning uchun bu turdagi diskursni o‘rganadigan tadqiqotlar barcha muloqot modalliklarini o‘z ichiga olishi va ularni ushbu modalliklarni qo‘llab-quvvatlaydigan nuqtayi nazardan tadqiq qilishi kerak. Shunday qilib, raqamli ommaviy axborot diskursini turli tadqiqot turlari bilan bog‘lashni maqsad qilganda, aslida raqamli ommaviy axborot diskursini o‘rganishda foydalanuvchi bilan bog‘liq nuqtayi nazarlarni taqdim etishni istadik, bu nuqtai nazar “shaxslar qanday qilib imkoniyatlarni boshqaradi va ulardan foydalanib tilni onlayn tarzda shakllantiradi”. Bundan tashqari biz raqamli ommaviy axborot diskursiga yangi yondashuvni taklif qilib, bu endi faqat texnologiya yordamida o‘zaro ta’sirda

qanday ishtirok etishlarini o‘rganish bilan cheklanmaydi. Diskurs tahlili an’anaviy tahlil vositalariga tayanishga, ularni raqamli ommaviy axborot diskursiga lingvistik tadqiqotlarda moslashtirishga va agar mumkin bo‘lsa, yangi nazariyalar va metodologiyalarni ishlab chiqishga yo‘l ochishini maqsad qilib olsak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Androutsopoulos, J. From variation to heteroglossia in the study of computer–mediated discourse // Digital Discourse: Language in the New Media / C. Thurlow, K. Mroczek (Eds.). – Oxford : Oxford University Press, 2011. – Pp. 277–298.
2. Herring, S. A Faceted Classification Scheme for Computer–Mediated Discourse // Language@Internet. – 2007. – № 4, article 1. – Pp. 33–38.
3. Herring, S. Computer–Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / S. A. Barab, R. Kling, J. H. Gray (Eds.). – Cambridge : Cambridge University Press, 2004. – Pp. 338–376.
4. Locher, M. A. Linguistic and interactional aspects of reactions in digital communication / M. A. Locher, L. Mondada // Internet Pragmatics. – 2020. – № 3(2). – Pp. 107–132.
5. Lyddy, F. An analysis of language in university students’ text messages / F. Lyddy, F. Farina, J. Hanney et al. // Journal of Computer–Mediated Communication. – 2014. – № 19(3). – Pp. 546–561.
6. Machin, D. Branding and Discourse: The Case of Cosmopolitan / D. Machin, J. Thornborrow // Discourse & Society. – 2003. – № 14(4). – Pp. 453–471.
7. Marcel, E. Digital etiquette: Reinventing manners for the 21st century communication // Journal of New Media Studies. – 2017. – № 9(3). – Pp. 112–128.
8. Morris, M. The Internet as Mass Medium // Journal of Computer–Mediated Communication. – 1996. – № 1(4). – Pp. 211–218.

Mo‘minov Baxtiyor Karamatovich
Termiz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi.
E-mail: muminov.ba@mail.ru

INTERYER VA EKSTERYER DIZAYNIDA KOLORIT ASOSIDA RANG BERISH USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish usullarini kompleks va tizimli yondashuv asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda rang tanlashning nazariy asoslari, ularning me’moriy va dizaynerlik muhitidagi estetik hamda funksional ahamiyati keng yoritiladi. Xususan, maqolada interyer va eksteryer makonlarida qo‘llaniladigan monoxromatik, analog, komplementar, triadik va tetradik rang uyg‘unliklari tahlil qilinib, ularning makonning vizual qabul qilinishi, hajm hissi, yorug‘lik bilan o‘zaro ta’siri va umumiy kompozitsion yaxlitlikni ta’minlashdagi o‘rni izohlanadi.*
Tadqiqot davomida ranglarning inson psixologiyasiga, emotsional holatiga va xulq-atvoriga ta’siri, shuningdek, turli materiallar, fakturalar va tabiiy hamda sun’iy yorug‘lik sharoitlarida rangning namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *interyer dizayni, eksteryer dizayni, kolorit, rang gammasi, rang uyg‘unligi, monoxromatik usul, analog ranglar, komplementar ranglar, triadik ranglar, tetradik ranglar, aktsent ranglar, tabiiy ranglar, yorug‘lik, material, faktura, makon hissi, psixologik ta’sir, kompozitsiya, zamonaviy dizayn texnologiyalari.*

МЕТОДЫ ЦВЕТОВОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОЛОРИТА В ДИЗАЙНЕ ИНТЕРЬЕРА И ЭКСТЕРЬЕРА

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению методов цветового решения на основе колорита в дизайне интерьера и экстерьера на основе комплексного и системного подхода. В исследовании широко освещаются теоретические основы подбора цвета, а также его эстетическое и функциональное значение в архитектурной и дизайнерской среде. В частности, в статье анализируются монохроматические, аналоговые, комплементарные, триадические и тетрадические цветовые сочетания, применяемые в интерьере и экстерьере, а также раскрывается их роль в визуальном восприятии пространства, ощущении объёма, взаимодействии со светом и обеспечении композиционной целостности. В ходе исследования на научной основе рассматривается влияние цвета на психологическое состояние человека, его эмоциональное восприятие и поведенческие реакции, а также особенности проявления цвета в различных материалах, фактурах и в условиях естественного и искусственного освещения. В статье сопоставляются классические и современные дизайнерские подходы, анализируются художественные, технологические и средовые факторы, влияющие на формирование колорита в интерьере и экстерьере.*

Ключевые слова: *дизайн интерьера, дизайн экстерьера, колорит, цветовая гамма, цветовая гармония, монохроматический метод, аналоговые цвета, комплементарные цвета, триадические цвета, тетрадические цвета, акцентные цвета, природные цвета, свет, материал, фактура, ощущение пространства, психологическое воздействие, композиция, современные дизайнерские технологии.*

METHODS OF COLOR APPLICATION BASED ON COLORISTICS IN INTERIOR AND EXTERIOR DESIGN

Abstract. *This article is devoted to the study of methods of color application based on coloristics in interior and exterior design through a comprehensive and systematic approach. The research broadly highlights the theoretical foundations of color selection and its aesthetic as well as functional*

significance in architectural and design environments. In particular, the article analyzes monochromatic, analogous, complementary, triadic, and tetradic color harmonies used in interior and exterior spaces, and explains their role in the visual perception of space, the sense of volume, interaction with light, and the achievement of overall compositional integrity.
During the research, the influence of color on human psychology, emotional state, and behavior is scientifically examined, along with the ways color appears under different material textures and under natural and artificial lighting conditions. The article compares classical and modern design approaches and analyzes the artistic, technological, and environmental factors affecting the formation of coloristic solutions in interior and exterior spaces.

Keywords: *interior design, exterior design, coloristics, color palette, color harmony, monochromatic method, analogous colors, complementary colors, triadic colors, tetradic colors, accent colors, natural colors, light, material, texture, spatial perception, psychological impact, composition, modern design technologies.*

Kirish. Interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish muhim estetik va funksional ahamiyatga ega. Ranglarning to‘g‘ri tanlanishi makonning vizual qabul qilinishiga, inson psixologiyasiga va umumiy muhitga ta’sir qiladi. Rang gammasi tanlashda monoxromatik, analog, komplementar, triadik, tetradik, akkent va tabiiy ranglar kabi usullar qo‘llaniladi. Har bir metod o‘ziga xos estetik xususiyatlarga ega bo‘lib, dizaynning umumiy konsepsiyasiga muvofiq tanlanadi. Yorug‘lik, material va tekstura ranglarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda muhim omillar hisoblanadi. Mazkur tadqiqot interyer va eksteryer dizaynida koloritni qo‘llash tamoyillarini tahlil qiladi va zamonaviy yondashuvlar asosida tavsiyalar beradi.

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur bo‘lib, o‘ziga xos uslublari va nafisligi bilan ajralib turadi. Bobolarimiz yaratgan muhtasham me’moriy obidalar, ulardagi murakkab naqshlar bugungi kungacha o‘z jozibasini yo‘qotmagan. Naqshlar o‘zida milliy madaniyat, an’analar va estetik qarashlarni mujassam etgan bo‘lib, turli me’moriy inshootlar, maishiy buyumlar va kasanachilik san’atida keng qo‘llanilgan.

Naqqoshlik san’ati asrlar davomida shakllanib, me’morchilik va tasviriy san’at bilan uyg‘un holda rivojlanib bordi. Naqsh arabcha “tasvir”, “gul” degan ma’nolarni anglatadi va u qush, hayvon, o‘simlik hamda geometrik shakllarning o‘ziga xos takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Ushbu san’at ganchkorlik, kandakorlik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to‘qish kabi yo‘nalishlarda qo‘llanilib, naqsh solish usullari o‘yib, chizib, chok bilan, zarb yordamida yoki qadab ishlash orqali amalga oshirilgan.

Naqqoshlik san’ati insoniyat madaniyati bilan birga shakllangan bo‘lib, dunyoning turli hududlarida o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Xitoy, Hindiston, Qadimgi Eron kabi davlatlarda naqsh san’atining turli shakllari uchraydi. Shuningdek, O‘zbekiston hududidagi qadimiy Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya madaniyatlarida ham naqsh san’ati keng tarqalgan. Har bir mintaqaning tabiiy-geografik xususiyatlari, iqlimi va o‘simlik dunyosi uning naqqoshlik uslublariga ta’sir ko‘rsatgan.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoda gotika, roman, klassitsizm, barokko kabi san’at uslublari naqqoshlik san’atining rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Masalan, gruzin san’atida uzum va uning barglari naqshlarda ishlatilgan bo‘lsa, shimoliy xalqlarda gullar, qalampir va boshqa tabiiy elementlar naqsh sifatida qo‘llanilgan. O‘rta Osiyo naqshlari o‘zining murakkabligi, mazmuniy boyligi va



nafisligi bilan ajralib turadi va bugungi kunda ham milliy san'atimizning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.1-rasm.



1-rasm. milliy san'at namunalari va milliy memorchilikdagi o'rni

Xalq badiiy bezagidan o'rin olgan aylana, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak naqshlari tabiat omillari ramzi bo'lib, ular vafodorlik, baxt, farovon umr, insoniylik belgilari ramzini anglatgan. O'tmishda har bir xalqda kvadrat shakli- dunyoning to'rt tomoni, osmon saroy, quyosh farzandi, abadiylik, yorug'lik ma'nolarini bildirgan. Firdavsiyning «Shoxnoma» asarida Siyovush qurgan Gang qal'asi - Siyovushgird shahrini kvadrat tarzda tasvirlab, bu shaharni behisht deb ta'riflaydi: Unda unutilgan betoblik so'zi, Bu bo'ston shaharmas, behishtning o'zi. Xorazmda esa qadimda imoratlarning peshtoqiga aylana shaklli naqshlar o'yilgan. Ma'nosi: yovuz niyatli kishilarning bu naqshga ko'zi tushsa yovuz niyatidan qaytishi mumkin ekan. Boshqa xalqlarda esa aylana- vafodorlik, kvadrat-do'stlik, yarim aylana naqsh esa baxt ramzini anglatgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'atida romb shaklini ko'p uchratish mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, romb ilk tosh davridan ayol, ya'ni ona yer belgisi hisoblangan. Ayol-nasl, yer esa hosil beradi. Romb serfarzandlik, serhosillik ramzi sifatida e'zozlangan. Naqsh arabcha so'zdan olingan bo'lib, gul. tasvir degan ma'nolarni bildiradi. O'simliksimon naqshlar, gullar, hayvonlar, qushlar, geometrik shakllarni ma'lum ketma-ketlikda tartibli takrorlanishi natijasida hosil qilinadigan bezakdir. Xonaning shifti va devorlariga o'simliksimon naqsh, gul va lolalar tasviri chizilishi, shu xonadon egalariga baxt, sihatsalomatlik shu bilan birga hamma vaqt bu uyda muhabbat hukm surishi istaklari tarannum etilgan. Islom dini taraqqiy etganida daraxt shoxchalari naqshi saodat daraxti, ma'nosini anglatgan. Unga qadar esa bunday shoxchalar tasviridagi naqshlar manixey dinining ramziy ma'nosi bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, rang tanlovi makonning estetik ko'rinishi bilan bir qatorda uning funksional va psixologik samaradorligini ham belgilab beradi. Tadqiqot davomida ranglarning makon hajmini vizual idrok etishga, foydalanuvchining emotsional holatiga, ob'ektning umumiy kompozitsion yaxlitligiga hamda muhit bilan uyg'unligiga ta'siri o'rganildi. Natijada interyer va eksteryer dizaynida rang qo'llash jarayoni tasodifiy badiiy qaror emas, balki chuqur tahlil, muhitni baholash va estetik-me'moriy mezonlarga tayangan ilmiy-amaliy faoliyat ekani aniqlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, interyer dizaynida och va neytral ranglar makonni vizual jihatdan kengaytirish, yorug'likni ko'paytirish va qulay psixologik muhit yaratishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, oq, bej, och kulrang va pastel tuslar kichik hajmli xonalarda kenglik hissini yuzaga keltiradi. Aksincha, to'q va zich ranglar interyerda jiddiylik, chuqurlik va badiiy urg'u hosil qilsa-da, ularni me'yoridan ortiq qo'llash makonni tor va og'ir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Demak, interyerda rang tanlashda xonaning vazifasi, maydoni, yoritilish darajasi va foydalanish xarakteri asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Eksteryer bo'yicha olib borilgan tahlillar esa tashqi muhitda rang tanlash interyerga nisbatan ancha murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Chunki bino fasadining rangi nafaqat obyektning o'ziga, balki atrofdagi tabiiy landshaft, qo'shni inshootlar, iqlim sharoiti, quyosh nuri intensivligi va qurilish

materialining fakturasiga ham bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Natijalarga ko‘ra, eksteryerda tabiiy ranglar, yer va o‘simlik ranglariga yaqin tuslar, och jigarrang, kulrang, och yashil, qum rang va pastel gamma atrof-muhit bilan uyg‘unlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, aktsent ranglardan cheklangan va maqsadli foydalanish fasadning ayrim me’moriy qismlarini ajratib ko‘rsatishda samarali vosita bo‘lishi kuzatildi.

Rang uyg‘unligi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar monoxromatik, analog, komplementar, triadik va tetradik tizimlarning turli dizayn vaziyatlarida turlicha natija berishini ko‘rsatdi. Xususan, monoxromatik usul interyerda sokinlik, tartib va yaxlitlik hissini kuchaytirishi bilan ajralib turadi. Analog ranglar bir-biriga yaqinligi tufayli yumshoq va tabiiy o‘tishlarni ta’minlab, qulay muhit yaratadi. Komplementar ranglar esa kontrast kuchi bilan vizual faollik va dinamizm hosil qiladi, biroq ularni me’yoridan ortiq ishlatish ko‘zga zo‘riqish berishi mumkin. Triadik va tetradik sxemalar ko‘proq murakkab dizayn yechimlarida qo‘llanib, rang-baranglik va badiiy boylikni ta’minlaydi, ammo ularni muvozanat bilan tashkil etish dizaynerning yuqori mahoratini talab etadi.

Tadqiqot davomida ranglarning psixologik ta’siri bo‘yicha ham muhim natijalar olindi. Issiq ranglar - qizil, sariq, to‘q sariq tuslar - insonda faollik, energiya va jonlilik hissini uyg‘otishi kuzatildi. Sovuq ranglar - ko‘k, yashil, binafsha ranglarning ayrim tuslari - aksincha, xotirjamlik, sokinlik va muvozanat holatini kuchaytiradi. Neytral ranglar esa boshqa ranglar bilan uyg‘unlashish imkoniyati yuqori bo‘lgani uchun interyer va eksteryer kompozitsiyasida asosiy fon vazifasini bajarishi aniqlandi. Bu holat dizayn amaliyotida rang tanlashda psixologik omillarni hisobga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Material va yorug‘lik omili bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bir xil rang turli sirtlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, silliq va yaltiroq materiallarda rang yorqinroq va faolroq ko‘rinsa, g‘adir-budir yoki mat fakturali yuzalarda u nisbatan sokin va chuqur tus oladi. Tabiiy yorug‘likda rangning ko‘rinishi bilan sun’iy yoritish ostidagi ko‘rinishi o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Shu sababli rang yechimini tanlashda faqat katalog yoki elektron namunaga emas, balki real yoritish va material sharoitidagi sinov natijalariga tayangan holda qaror qabul qilish zarur.

Natijalardan yana biri shundaki, zamonaviy raqamli texnologiyalar rang tanlash jarayonini ancha takomillashtirgan. 3D vizualizatsiya, kompyuter modellashtirish va raqamli palitralar yordamida dizayn konsepsiyasini oldindan ko‘rish, turli variantlarni solishtirish va ranglarning fazoviy ta’sirini baholash imkoniyati kengaydi. Bu esa amaliyotda noaniqliklarni kamaytirib, loyiha sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari interyer va eksteryer dizaynida rang tanlash va koloritni shakllantirish jarayoni ko‘p omilli va murakkab badiiy-amaliy tizim ekanini ko‘rsatdi. Rang nafaqat estetik bezak vositasi, balki makonning funksional mazmunini ochib beruvchi, foydalanuvchining ruhiy holatiga ta’sir etuvchi hamda muhitni idrok qilish darajasini belgilovchi muhim kompozitsion unsur hisoblanadi. Shu sababli interyer va eksteryerda rang berish usullarini faqat badiiy did bilan emas, balki ilmiy tahlil, psixologik yondashuv va texnologik imkoniyatlar bilan uyg‘un holda qo‘llash zarur.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, interyer dizaynida ranglarning vazifasi ko‘proq ichki muhitning psixologik qulayligi, kenglik hissi va funksional zonalarning ajratilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, turar joy, ofis, ta’lim muassasalari va jamoat binolari interyerida ranglar makon xarakterini belgilab beradi. Och va pastel tuslar xonani keng, yorug‘ va yengil ko‘rsatishi, to‘q ranglar esa chuqurlik, jiddiylik va badiiy urg‘u hosil qilishi bilan muhimdir. Biroq to‘q ranglarning me’yoridan ortiq ishlatilishi interyerda torlik va bosim hissini kuchaytirishi mumkin. Shu jihatdan rang tanlashda xonaning maydoni, yoritilish darajasi, vazifasi va foydalanuvchi ehtiyoji asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Eksteryer dizaynida esa rang bilan ishlashda tashqi muhit omili ustunlik qiladi. Bino fasadining rang yechimi tabiiy yorug‘lik, fasllar almashinuvi, iqlim sharoiti, landshaft, qo‘shni inshootlar va qurilish materiali bilan chambarchas bog‘liq. Shundan kelib chiqib, eksteryerda rang tanlashda faqat dekorativlik emas, balki obyektning atrof-muhit bilan uyg‘unlashuvi, hududiy koloritga mosligi va uzoq masofadan ko‘rinish sifati ham hisobga olinishi lozim. Tadqiqot natijalari tabiiy va neytral

ranglarning eksteryerda ko‘proq muvozanat va uyg‘unlik berishini, aksent ranglarning esa maqsadli qo‘llanilganda me’moriy elementlarni ajratib ko‘rsatishda samarali vosita bo‘lishini ko‘rsatdi.

Monoxromatik, analog, komplementar, triadik va tetradik rang tizimlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki, har bir rang uyg‘unligi ma’lum dizayn vazifasiga xizmat qiladi. Monoxromatik yondashuv yaxlitlik va osoyishtalikni ta’minlasa, analog ranglar yumshoq o‘tishlar orqali tabiiylik hissini yuzaga keltiradi. Komplementar ranglar kuchli kontrast hosil qilib, kompozitsiyada diqqat markazini yaratadi. Triadik va tetradik rang tizimlari esa murakkab va boy rang kompozitsiyalarini shakllantiradi, ammo ular bilan ishlashda muvozanatni saqlash, dominant va yordamchi ranglar nisbatini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Demak, koloritni shakllantirishda ranglar soni emas, balki ularning o‘zaro nisbatlari va makonga mosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri bilan bog‘liq jihatlar ham muhokama davomida muhim ilmiy natija sifatida ko‘rindi. Issiq ranglar insonda harakat, energiya, yaqinlik va faoliyatga moyillik hissini uyg‘otadi. Sovuq ranglar esa tinchlanish, muvozanat, salqinlik va osoyishtalik kayfiyatini shakllantiradi. Neytral ranglar boshqa tuslar bilan uyg‘unlashib, kompozitsiyada barqaror fon yaratadi. Bu esa interyer va eksteryer dizaynida rang tanlashda insonning psixologik qabul qilish xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bolalar muassasalari, ta’lim binolari, sog‘liqni saqlash maskanlari va dam olish hududlarida rang tanlovi bevosita ruhiy komfort bilan bog‘liqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish usullari makonning estetik ifodasi, funksional qulayligi va psixologik ta’sirchanligini belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Rang tanlash jarayoni tasodifiy badiiy qaror emas, balki yorug‘lik, material, makon hajmi, muhit xarakteri, inson psixologiyasi va kompozitsion uyg‘unlik kabi omillarga tayanuvchi ilmiy-amaliy jarayondir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interyerda ranglar makonning ichki kayfiyati, hajmiy qabul qilinishi va funksional zonalashuviga faol ta’sir ko‘rsatadi. Eksteryerda esa rang yechimi bino va atrof-muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, me’moriy qiyofani ochib berish va tabiiy sharoit bilan moslashishda muhim o‘rin egallaydi. Monoxromatik, analog, komplementar, triadik va tetradik rang uyg‘unliklari turli dizayn vaziyatlarida samarali qo‘llanishi mumkin, biroq ularni tanlashda makon vazifasi va kompozitsion muvozanat doimo hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, ranglarning inson ruhiyati va xulq-atvoriga ta’siri dizayn amaliyotida alohida ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Issiq, sovuq va neytral ranglarning turli muhitlarda turlicha psixologik samara berishi dizayner va me’morlar uchun muhim nazariy-amaliy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Material fakturasi va yoritish sharoiti esa rangning real ko‘rinishini belgilab, yakuniy estetik natijaga bevosita ta’sir etadi.

Demak, interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish usullaridan oqilona foydalanish me’mor va dizaynerlarga uyg‘un, qulay, estetik jihatdan mukammal hamda inson ehtiyojiga mos makon yaratish imkonini beradi. Mazkur yondashuvni ilmiy asosda takomillashtirish dizayn nazariyasi va amaliyoti rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ismoilov, I. O‘zbek xalq amaliy san’ati / I. Ismoilov, N. Komilov. – Toshkent : Fan, 2002. – 156 b.
2. Boltaboev, H. O‘zbek milliy bezak san’ati. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – 180 b.
3. Azizxo‘jayev, A. Amaliy san’at va dizayn. – Toshkent : O‘qituvchi, 2008. – 210 b.
4. Nabiyev, A. Me’moriy bezak san’ati asoslari. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2010. – 144 b.
5. Rasulev, S. Sharq miniatyura san’ati va uning rivojlanishi / S. Rasulev, D. Yuldasheva. – Samarqand : Zarafshon, 2015. – 120 b.
6. Toshpulatov, F. U. Determination of Sections of General Surfaces of the Second Order on Predetermined Circles / F. U. Toshpulatov, B. K. Mominov, I. C. Mamatkulov // The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2020. – Vol. 2, No. 11. – Pp. 21–26.

7. Baxtiyor, M. Graphic programs used in the learning process, as well as the capabilities of AutoCAD and 3D Max graphics programs / M. Baxtiyor, M. Ilxomjon // Universum: технические науки. – 2021. – № 11-5 (92). – С. 92–94.

8. Karamatovich, M. B. The place and significance of fine arts today // Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – 2020. – С. 105–108.

9. Mo‘minov, B. K. Kasb-hunar maktablarida chizmachilik o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari // Inter education & global study. – 2024. – № 1. – B. 95–100.

10. Mo’minov, B. K. Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at fanini o‘qitish metodlari / B. K. Mo’minov, N. O. Ataqulova // [Nashr nomi bo‘lsa kiriting]. – 2023. – B. 45-50.

11. Муминов, Б. К. Rangtasvir mashg’ulotlarida o’quvchilarni natyurmort ishlashga o’rgatish metodikasi / Б. К. Муминов [и др.] // Научная дискуссия: инновации в современном мире. – 2017. – № 7. – С. 137–140.

12. Toshpulatov, F. U. Oliy ta’lim muassasalarida chizmachilik fanini o‘qitishning hozirgi kundagi holati // Fizika-texnologiya ta’limi. – 2022. – T. 4. – B. 56-60.

Gaziyeva Nozima Shoirjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti stajor o‘qituvchi

OLIY TA’LIM MUASSASALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA NIZOLAR PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. *Maqolada pedagogik jarayondagi innovatsion nizolar, Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlantirish, OTMda innovatsion nizolarning mohiyati, ularning bevosita sabablari va ularning tahlili, innovatsion nizolarning tashkiliy va boshqaruv tipidagi ko’rinishlari, innovatsion rivojlanishida nizolarning sub’ektiv muhiti, ularni oldini olish san'atini o'rganishlarni o’z ichiga olgan bo‘lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko‘rsatish maqsadida bajarilgan va bo’lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o‘ylaymiz*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim tizimi, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, innovatsion rivojlanish nizolari, nizolar profilaktikasi.*

ПРОФИЛАКТИКА КОНФЛИКТОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются инновационные конфликты в педагогическом процессе, инновационное развитие высших образовательных учреждений, сущность инновационных конфликтов в вузах, их непосредственные причины и их анализ, организационные и управленческие формы инновационных конфликтов, субъективная среда конфликтов в инновационном развитии, а также изучение искусства их предупреждения. Данное исследование выполнено с целью оказания психологической службы в высшей школе и, по нашему мнению, окажет методическую помощь будущим педагогам.*

Ключевые слова: *система высшего образования, инновации, инновационное развитие, конфликты инновационного развития, профилактика конфликтов.*

CONFLICT PREVENTION IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. *The article examines innovative conflicts in the pedagogical process, the innovative development of higher educational institutions, the nature of innovative conflicts in higher education institutions, their direct causes and analysis, organizational and managerial types of innovative conflicts, the subjective environment of conflicts in innovative development, as well as the study of methods for their prevention. This study is carried out in order to provide psychological services in higher education and, in our opinion, will offer methodological support to future teachers.*

Keywords: *higher education system, innovation, innovative development, innovative development conflicts, conflict prevention.*

Kirish. Jahonda ta’limning nafaqat intellektuallik darajasini namoyon etishi, shu bilan birga shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy madaniyat omili ekanligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonlarini nizolardan xoli tarzda tashkil etish va olib borish, ta’lim oluvchilarning mutaxassislik bo‘yicha tegishli kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda innovatsiyani ta’lim jarayonlarining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlariga integratsiyalash, jumladan, oliy ta’lim muassasalarini innovatsion tendensiyalar asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’lim tizimi, boshqa ta’lim muassasalariga qaraganda, vazifalari jihatidan, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu munosabatlarning murakkabligi va noaniqligi pedagogik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy va hayotning boshqa ko‘plab

sohalarini qamrab olishida ko‘rinadi. Bunday xilma-xillik manfaatlar, munosabatlar, fikrlar, pozitsiyalar va insonning ehtiyojlari to‘qnashuvini yuzaga keltirishi tabiiydir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O.A.Danilevichning fikricha, oliy ta’limning asosiy vazifasi – nostandart muammolarni hal etish, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, yangiliklarni idrok etish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash sifati darajasini oshirishdan iborat bo‘lib, innovatsion universitetda ta’lim tizimi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy iqtisodiyot uchun ochiq bo‘lishi kerak, o‘quv jarayonini texnologik jihozlash ilg‘or fan darajasiga mos kelishi zarur [4; 134-140 b].

O.Yu.Gordashnikova oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishini baholash va tahlil qilishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarida tegishli mezonlarning qiyosiy ko‘rsatkichlarini uzluksizlik, ishonchlilik, ob’ektivlik, optimallik va to‘liqlikni ta’minlovchi tamoyillar asosida tanlash lozimligiga e’tibor qaratadi [2;60-64b].

T.P.Gorelovaning fikriga ko‘ra universitetning innovatsion salohiyati ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: ilmiy-innovatsion faoliyat samaradorligi; o‘qitish holati; universitetning intellektual salohiyati; moddiy va axborot bazasining mavjudligi [3; 38-39 b].

Adabiyotlarda ta’lim innovatsiyalari sifatida o‘qituvchi ishining samaradorligini oshirish, konstruktiv yondashuv, bilimlarni samarali boshqarish, o‘qituvchi ishiga ko‘maklashish, onlayn o‘qitish, noformal uslub, ijtimoiy media, ta’limiy o‘yinlar, pedagogik mahorat, Hemis platformasi, kridet-modul tizimida o’qitish, mobil rejimida o‘qitish kabilar keltiriladi.

Oliy ta’lim muassasalari innovatsion infratuzilmasini tashkil etish bo‘yicha izlanishlar olib borgan A.A.Engovatovaning tadqiqotlarida Forsayd markazi, loyihalash faoliyatini boshqarish, intellektual mulkni boshqarish, marketing, biznes inkubator, uskunalar va prototiplardan jamoaviy foydalanish, texnopark, biznes maktabi, moliyalashtirish fondi yo‘nalishlariga innovatsion rivojlanish elementlari sifatida qaraladi [8; 26-b].

Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlantirishda ichki va tashqi muhitni chuqur o‘rganish qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish, tashkiliy barqarorlikni ta’minlash va innovatsion jarayonlarning zarur dinamikasiga erishish, barcha sub’ektlarining ichki tashkiliy integratsiyasiga asoslanish, innovatsion infratuzilma va axborot tizimlari muhim rol o‘ynaydi [1; 6-17].

Oliy ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishda o‘quv ishlari va ilmiy faoliyatning asosiy vazifasi – yangi bilimlarni olish, tarqatish va qo‘llash jarayonlariga texnologik yondashuvlarni faol joriy etishdan iborat bo‘ladi. Ushbu jarayonda professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va talabalarni yuqori darajada tayyorlash, tegishli malaka va axborot madaniyati hamda tadqiqotchilik faolligini shakllantirish zarurati mavjud. Jumladan, o‘quv mashg‘ulotlariga innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni, talabalarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi mexanizmlarni qo‘llashda professor-o‘qituvchilar, mutaxassislarning asosiy sub’ekt sifatidagi samarali ishtiroki muhim.

Innovatsion rivojlanish yo‘lidagi har qanday oliy ta’lim muassasasi axborot texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlarini amalga oshiradi. Mazkur jarayonlar bevosita umumiy axborotlashgan makonni shakllantirish, o‘quv-boshqaruv muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish, ma’lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilanib borishi hamda faoliyat sohalariga integratsiyasini ta’minlash asosida amalga oshiriladi.

Ta’lim sifati monitoringiga innovatsiyalarni joriy etishda mavjud holatni tezkor baholash va natijalarni puxta tahlil qilish orqali taraqqiyotning kelgusi yo‘nalishlarini asosli ravishda belgilash nazarda tutiladi.

Yuqoridagilar oliy ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirish modeli chuqur integratsiyalashuvni taqozo etishi, ushbu model ta’lim va innovatsion faoliyatni sifatini yaxshilash asosida real raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini amalga oshirishi nazarda tutilganligidan dalolat beradi. Oliy ta’lim muassasalarining innovatsiyaga asoslangan modellari milliy iqtisodiyotlarni rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasasida innovatsion faoliyat o‘quv jarayoni sub’ektlarining o‘zaro pedagogik munosabatlari asosida amalga oshiriladi, har qanday innovatsion yondashuv sub’ektlar munosabatiga ta’sir etadi, aloqador hisoblanadi.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tajriba-sinov jarayonida nizoli vaziyatlar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid holatlarga e'tibor qaratildi. Jumladan, sub'ektlar o'rtasida nizolarning yuzaga kelishi sabablarini o'rganish maqsadida talabalar, professor-o'qituvchilar hamda Universitet boshqaruvi (rektorat) xodimlari o'rtasida maxsus anketa-so'rovnomalari o'tkazildi.

Berilgan anketalarda ma'lum savolga avvaldan belgilangan javoblarni cheklovlarsiz tanlash, shuningdek, bildirilayotgan fikrlarning ob'ektivligi hamda to'liqligini ta'minlash maqsadida qo'shimcha tarzda o'z fikrini izohlash imkoniyati taqdim etildi.

Pedagogik faoliyatga tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida shu ko'rinishdagi anketalarni tashkil etish, aynan, o'quv jarayoni sub'ektlarining muassasani rivojlanishi va hamkorlikdagi sog'lom muhitni shakllantirish, o'zaro munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolarning asl sabablari aniqlash hamda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish natijasida sub'ektiv omillarni ajratish, sintezlash imkonini beradi.

Olimlarning fikricha, "o'qituvchini zamonaviy tayyorlash vazifasining innovatsion yo'naltirilganligi" unga o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining amalda qo'llanilishini ifodalovchi integrativ ta'lim sifatida qaralishini taqozo etadi.

Zamonaviy dunyoda ta'lim olish va o'qitish sohasidagi rivojlanish har qachongidan ham keskin ravishda o'sib borayotgani sababli yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida innovatsiyalarni joriy etishga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Innovatsiyalarni amalga oshirishda, ya'ni yangilik talab qilinganda sub'ektning yangilikka tayyorlik darajasi, ularda yetarli ko'nikma va malakaning shakllanganligi muhim o'rin tutadi. Bunda sub'ektning innovatsion faoliyatda ishtirok etishga bo'lgan motivatsiyasini hisobga olib mazkur faoliyatga tayyorlash ishlarini izchillik bilan amalga oshirish nazarda tutiladi.

Innovatsion rivojlanish nizolariga innovatsion hamda an'anaviy qarashlar va qadriyatlar, ya'ni o'zaro pedagogik munosabatlarda ishtirok etayotgan sub'ektlarning manfaatlari, maqsad va xohishlari, ularning pozitsiyalari ta'sir o'tkazadi, bular hissiy-stressli ta'sir sifatida vaziyatni keskinlashuvida asosiy o'rin tutadi. Masalan, o'z fani bo'yicha yetarli tajribaga, sohada ma'lum obro'-e'tiborga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar har doim ham innovatsion yondashuvni amalga oshirishi uchun yangi malakaga bo'lgan talabni inkor etishi, yosh xodimlarni bu borada faol bo'lishlari, yoki aksincha, tajribali professor-o'qituvchilarning zamon bilan hamnafas bo'lishga intilishi, yoshlarning esa yangilikka nisbatan mas'uliyatsizligi kabi holatlar kuzatiladi.

Bizning nazarimizda, innovatsion rivojlanish sharoitida yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va boshqarish jihatdan o'ta murakkab bo'lib, nizo yuzaga kelgach innovator va ishtirokchi sub'ektlarning o'z pozitsiyalarini yoki shart-sharoitlarini o'zgartirish qiyin kechadi. Garchi ayrim vaziyatlarda nizoning susayishi kuzatilsada, bu holat doimiy ekanligi, asosiy ziddiyat yashirin shaklga o'tmaganligi kafolatlanmaydi, ya'ni har safar ikki tomonning birida ma'lum resurslarning kamayishi yoki nizoni hal etishga bo'lgan motivatsiyaning yo'qolishi yoki innovatsion yondashuv ortidan yuzaga keladigan navbatdagi qiyinchilik yoxud nizo ob'ektiga bo'lgan e'tiborning pasayishi kabi omillar nizoning qayta tiklanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, innovatsion rivojlanish sharoitida nizo omillarining noaniqligi uni hal qilish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bunda nizo ob'ekti yagona, ya'ni amalga oshirilayotgan yangilik bo'lsada, yuqorida sanab o'tilgan muhitning xilma-xilligi asosiy rol o'ynaydi. Mazkur muhitning salbiy ta'siri natijasida sub'ektlar tomonidan innovatsiyalar to'liq rad etilib, jarayon izdan chiqishi va kutilgan samaraga erishilmasligi, sarflangan moddiy va ma'naviy xarajatlar o'zini oqlamasligi, turli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sub'ektlar nazarida innovatsiya va uning natijasiga bo'lgan ishonchning kamayishi o'ta puxta o'ylangan va muhim hisoblangan kelgusi innovatsion harakatlarni muassasada amalga oshirishni qiyin kechishiga sabab bo'ladi.

Sub'ektsiz innovatsiyalarda esa innovatsion jarayonning ma'lum bosqichida bevosita aralashuvlarsiz, olib kirilayotgan yangilik – «nou-xau»ning muhimlilik darajasining pasayishi, moddiy va texnik jihatdan yuzaga kelgan qiyin vaziyat, ijobiy natijaga asoslanmagan prognoz, behuda vaqt

yo‘qotish nizo kelib chiqishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday vaziyat sub’ektlarga ta’sir etibgina qolmay, balki norozilik natijasida qabul qilingan tezkor qarorlar in’ikosida nizolarni yuzaga keltirib chiqaradi. Yuzaga kelgan nizoning (masalan, pedagogik nizo) sabablarini aniqlash, uni kechishining davriyligini bilish uchun, nizoning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni, bunda avvalo, qaysi qonuniyatlarga (tabiiy yoki sun’iy bo‘lishi mumkin) amal qilinishini bilish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, instruksiya (yo‘riqnoma) - biror narsani amalga oshirish yoki uni amalga oshirish tartibi va usulini belgilaydigan qoidalar, ko‘rsatmalar yoki shu jarayonni boshqarishni ichiga olgan hujjat hisoblanadi. Shunga ko‘ra har qanday innovatsiyani amalga oshirish uchun, uni joriy etish ishtirokchisiga aylanish, uning bosqichlari va jarayonlarini boshqarish hamda sifatli faoliyat va samarali natijaga erishish uchun instruksiyalarning to‘g‘ri ishlab chiqilishi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasasini innovatsion rivojlantirishda yuzaga keladigan nizolar aynan instruksiyalarning to‘g‘ri ishlab chiqilmagani yoki uni yetkazadigan yoki tushuntiradigan shaxslarning mazkur jarayon ishtirokchisi sifatida yetarli kompetentlikka ega emasligi natijasida innovatsiyalarni novatsiya maqomida qolib ketishi ehtimoli yuqori sanaladi. Bu esa o‘z-o‘zidan nizolarni keltirib chiqishiga olib keladi. Pedagogik jarayonlarda yuqoridagi holat tushib qolmaslik, nizolarning yuzaga kelishini oldini olish maqsadida birinchi navbatda

- instruksiyani ishlab chiqish jarayonlariga to‘g‘ri va kollegial yondashish;
- instruksiya ishlab chiquvchilarning hujjat yaratishga doir kompetentliligiga alohida ahamiyat berish;
- innovatsiyaning muhimliligi va ishning ko‘lamidan kelib chiqib, instruksiyaga kiritilayotgan bo‘lim, bandlarning bir-biriga mantiqan bog‘liqligi va ketma-ketligi, yakuniy natijaning aniq ko‘rsatilganligi va uning huquqiy asoslarini to‘g‘ri keltirilganligi, jarayonni amalga oshiruvchining vazifalarini aniq ko‘rsatib berilganligi instruksiya (ko‘rsatma)ni tasdiqlaydigan tashkilot rahbari tomonidan qat’iy e’tiborga olinishi lozim.

Oliy ta’lim muassasasiga kiritilayotgan innovatsiyaning nafaqat muhimliligi va natijadorligi, balki uning rivojlanishi uchun to‘g‘ri yo‘nalish bera oladigan “pedagog-instruktor”larning jarayonni aniq va to‘g‘ri tushuntira olish malakasining hamda nazorat qilishi va bevosita uning ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritishda mas’uliyatining yuqoriligi innovatsion rivojlanish bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish bilan belgilanadi. Aksincha holatlarda innovatsion rivojlanish jarayonlarida shu loyihaning buyurtmachilari, ob’ektlar va subektlar o‘rtasida nizo paydo bo‘lishiga olib keladi.

Axborot asri davrida va makonida oliy ta’limda ham ko‘plab professor-o‘qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, multimediyalarni yaratish va tayyor mahsulotlardan foydalanish malakalari yetarli emas. Mazkur holat ham oliy ta’lim muassasasini innovatsion rivojlantirishda o‘ziga xos nizolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Bu esa innovatsiyalarni loyihalash davridan boshlab, to oxiriga qadar har bir bosqichning samarali natijasiga erishishda rejalashtirish va prognozlash ishlarini amalga oshirish vazifasini yuklaydi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Innovatsion rivojlantirish natijalari amalga oshirilgan ishlarning yakuniy majmui hisoblanish bilan bir qatorda jarayon ishtirokchilarining faoliyatiga nisbatan konstruktiv munosabatlarni bildirish xotimasi ham hisoblanadi. Natijalarni e’lon qilishda tabiiyki, ortiqcha bosim qilmaslik, vaziyatga nisbatan real, shu bilan birgalikda ehtiyotkorana ish ko‘rish talab etiladi. Uning o‘ziga xos yopiq, ogohlantiruvchi, sub’eklar faoliyatini davom ettirishga yo‘naltirilgan istiqbolli belgilash ruhidagi usullari mavjud bo‘lib, nizolarni oldini olishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda amaliy natijalarni belgilaydi. Har qanday natija tayyorlangan xulosa va ma’lumotlarga nisbatan innovatsion rivojlantirish jarayoni ishtirokchilari tomonidan rad etilishi, qiyinchilik bilan qabul qilinishi, “qo‘shilmaslik” hamda qabul qilish qabi nuqtai nazardan iborat bo‘ladi. Mazkur holatda oliy ta’lim muassasasi rahbariyati, innovatorlar natijalarga bildiriladigan munosabatlarning nizolarni keltirib chiqadigan omillarni yuzaga keltirib chiqaradigan vaziyatlarga avvaldan tayyor bo‘lishlari lozim.

Bizningcha, oliy ta’limda innovatsion faoliyatning holati va istiqbollari katta darajada kadrlarning innovatsion kompetentligiga hamda innovatsion jarayonda ishtirok etishga tayyorligiga

bog‘liq. Innovatsion rivojlanishning ziddiyatlari innovatsion xulq-atvorning turli modellari, innovatsion tayyorgarlikning turlari, innovatsion jarayonlarda yuzaga keladigan turli to‘qnashuv tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, oliy ta’limda integratsiya jarayoni sifatida innovatsiya jarayonini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida:

1) oliy ta’lim muassasalari sub’ektlarining innovatsiyalar va innovatsion qadriyatlarga munosabati;

2) innovatsiyalarni rejalashtirish, tahlil qilish va nazorat;

3) sub’ektlarning innovatsion faoliyati darajasi;

4) yangiliklarni ishlab chiqish va qabul qilishga tayyorlik;

5) oliy ta’lim muassasasi rahbariyati, innovator va sub’ektlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini ko‘rsatib o‘tamiz.

Bizning fikrimizcha, professor-o‘qituvchilar va mutaxassislarning o‘z kasbiy mahoratini, mutaxassisliklariga oid malakalarini doimiy ravishda kengaytirib borish bilan bir qatorda nizolarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar, muloqot va munozara treninglari, psixologlar hamda konfliktoglar bilan davra suhbatlari tashkil etish, talabalarni innovatsiyalar yaratish hamda innovatsion rivojlanish davrida yuzaga keladigan turli ziddiyat va to‘qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan profilaktikaga tayyorlashda o‘z samarasini beradi.

Innovatsiyalarni jamoaviy qo‘llab-quvvatlashga erishish uchun, avvalo, pedagog xodimlar va talabalarning yangiliklarga bo‘lgan ijobiy munosabatlarini shakllantirish, ularga xissiy ta’sir ko‘rsatish va motivatsiyalarni samarali natijalarga nisbatan yo‘naltirish zaruratini belgilaydi. Bu esa birinchi navbatda innovatsiyalarning ishtirokchilari sanalgan sub’ektlarning oliy ta’lim muassasasini umumiy rivojlantirish maqsadlari doirasida birlashtirish, muassasa rahbariyatining nizolarni boshqarish malakalarini rivojlanishi, ish jarayonida muzokaralar olib borish metodlari, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida professor-o‘qituvchilar va talabalarning yangiliklarga bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olish hamda innovatsiyalarni boshqarishga vakolatli guruhlarga bevosita ko‘mak berish kabi bir qator vazifalarning yechimini topish imkonini beradi [6, 236-b].

Shu tariqa innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshqarishning birinchi bosqichida murakkab pedagogik, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik nizolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan kichik nizolarni oldini olishning kompleks yechimini boshqarishning samarali natijasiga erishish mumkin.

Demak, innovatsion rivojlanish muammolari ko‘p sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi. Sabablarning xarakteri ham turlicha bo‘lishi mumkin va tashkilotchilik madaniyati, tashkilotdagi ichki iqlim hamda boshqaruv uslubi oliy ta’lim muassasasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oliy ta’lim muassasasi rahbari yoki innovatsiya tashabbuskorining yuzaga keladigan to‘siqlarning mumkin bo‘lgan sabablarini ko‘rishi va ular bilan malakali ishlash qobiliyati, qolaversa, nizo profilaktikasiga bir qator muammolarning oldini olishga va innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini tezlashtirishga, pedagogik jamoaning, innovatorning innovatsion g‘oya va maqsadlarini birlashtirishga yordam beradi. Bu esa talabalarni nizo profilaktikasiga tayyorlash va professor-o‘qituvchilar uchun mahorat darslari, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Белокрылова О. С., Погосян Н. М. Инновационное развитие вузов: организационно-экономический подход // JOURNAL OF ECONOMIC REGULATION (Вопросы регулирования экономики). -Ростов-на-Дону. 2015. Том 6, №2. С.6-17.

2. Гордашникова О.Ю. Инновационное развитие вуза как эффективная форма повышения качества образования //Журнал. Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – Саратов, 2017. –с.60-64.

3. Горелова Т.П. Развитие инновационной образовательной деятельности вуза на современном этапе // Университетский комплекс как региональный центр образования, науки и культуры: Сборник по материалам Всероссийская научно-методическая конференция (с международным участием). – Оренбург.: 2020. – с.38-39.

4. Данилевич О. А. Стратегия инновационного развития вуза // Наукові записки. Серія “Економіка”. Киев.:2010. Випуск 14. – с.134-140.

5. Зеленков, М. Ю. Социальная конфликтология (базовый курс) – М.: Юридический институт МИИТа, 2011 – 272 с.

6. Сюй Цзин-Ли Управление инновационными конфликтами в Российский организациях., Автореф. дис. канд. соц. наук. – М.: 2010. стр.19

7. Тарабаева В.Б. Организационные механизмы управления конфликтами инновационного развития в вузах: учебное пособие. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2010. – 249 с.

8. Энговатова А. А. Модели организации инновационной инфраструктуры российских вузов. Автореф. дис. ... кан. экон. наук. – М., 2013. –26с.

9. Eshquvvatov T.E. Konfliktlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand,- 2020. ISBN 978-9943-5943-5-7. 204 b.

10. Eshquvvatov T.E. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni nizolari profilaktikasi tizimini takomilashtirish (Pedagogik hamkorlik asosida).//SamDU axborotnomasi. -Samarqand, 2021, 2-son. B.105-112.

11. Eshquvvatov T.E. Oliy talim muassalarida nizoli vaziyatlar profilaktikasi// Monografiya. UDK 151.9:378.301:330(575.1)-Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 147b.

12. Eshquvvatov T.E. Uzluksiz talim tizimida nizolar profilaktikasining ilmiy metodologik aspektlari.// Uzluksiz talim jurnali -2021, 3-son, B. 17-22.

Normatova Durdonaxon Po‘latjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: abdugaffarova26@gmail.com

“RAVSHAN” DOSTONIDAGI O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Ravshan” dostoni matnida qo‘llangan o‘xshatishlar lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘xshatishlarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning milliy tafakkur, qadriyatlar tizimi hamda mifopoetik tasavvurlar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Doston matnida uchraydigan zoomorfik, kosmogonik, diniy va antropotsentrik obrazlar asosida yaratilgan o‘xshatishlar tahlil qilinib, ular orqali xalqning estetik ideallari, aksiologik qarashlari va lingvomadaniy stereotiplari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek epik matnlarining lingvomadaniy qatlamini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, lingvomadaniyat, doston, obraz, semantika, mifopoetika, aksiologiya.*

ЛИНГВИСТИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СХОДСТВА В ПОСЛАНИИ «РАВШАНА»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются сравнительные конструкции, используемые в тексте эпоса «Равшан», с лингвокультурологической точки зрения. Анализируются их структурно-семантические особенности, а также их связь с национальным мышлением, системой ценностей и мифопоэтическими представлениями. Особое внимание уделяется сравнениям, основанным на зооморфных, космогонических, религиозных и антропоцентрических образах. На основе анализа выявляются эстетические идеалы, аксиологические установки и лингвокультурные стереотипы, отражённые в эпическом тексте. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию лингвокультурного слоя узбекских эпических произведений.*

Ключевые слова: *сравнение, лингвокультура, эпос, образ, семантика, мифопоэтика, аксиологи.*

LINGUISTIC-CULTURAL FEATURES OF SIMILARITIES IN THE EPISTLE OF “RAVSHAN”

Abstract. *This article analyzes similes used in the epic “Ravshan” from a linguocultural perspective. The study focuses on the structural-semantic features of similes and their connection with national worldview, value systems, and mythopoetic representations. Similes based on zoomorphic, cosmogonic, religious, and anthropocentric images are examined in detail. Through this analysis, aesthetic ideals, axiological perspectives, and linguocultural stereotypes embedded in the epic text are revealed. The findings contribute to a deeper understanding of the linguocultural layer of Uzbek epic discourse.*

Keywords*: simile, linguoculture, epic, image, semantics, mythopoetics, axiology.*

Kirish. Til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik insonning borliqni anglash jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson atrof-muhitni idrok etishda o‘xshatish va qiyoslash kabi mantiqiy operatsiyalardan keng foydalanadi. Ushbu jarayon til tizimida o‘z aksini topib, badiiy matnlarda, xususan, epik asarlarda obraz yaratishning muhim vositasiga aylanadi. O‘xshatishlar orqali nafaqat predmet va hodisalarning tashqi o‘xshashligi ifodalanadi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va qadriyatlar tizimi ham til birliklari orqali kodlanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik namunalaridan biri bo‘lgan “Ravshan” dostoni o‘zining boy obrazlar tizimi, poetik ifoda vositalari va lingvomadaniy qatlamlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur doston matnida qo‘llangan o‘xshatishlar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki xalq tafakkuridagi mifologik, diniy va aksiologik tasavvurlarni ham aks ettiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi “Ravshan” dostoni diskursida uchraydigan o‘xshatishlarni lingvomadaniy aspektda tahlil qilish, ularning semantik tuzilishi va milliy-madaniy asoslarini aniqlashdan iboratdir.

Asosiy qism. Insonning borliqni idrok etish jarayonida o’xshatish va qiyoslash amaliyoti nihoyatda muhim o’rin egallaydi. Ikki yoki undan ortiq predmet hamda tushunchalarning o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan taqqoslash tashqi olamni anglashning eng ommalashgan mantiqiy usullaridan biri bo’lib, inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida namoyon bo’ladi. Mazkur muhim mantiqiy kategoriya, tabiiy ravishda, til tizimida ham o’z ifodasini topadi. O’xshatishlarning morfologik tuzilishi, semantik mazmuni hamda stilistik xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotlar tilshunoslikda muayyan ilmiy an’anani shakllantirgan. Xususan, o’zbek tilshunosligida R.Qo’ng’urov[1], M.Mukarramov[2] va D.Xudoyberganovalarning tadqiqotlarida o’xshatishlarning struktur-semantik hamda uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan[3]. N.Mahmudovning o’zbek tilidagi turg’un o’xshatishlarga bag’ishlangan maqolalari esa o’zbek tilshunosligida o’xshatishlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o’rganishga asos solgan dastlabki ilmiy izlanishlar sirasiga kiradi[4]. Shuningdek, N.Mahmudov va D. Xudoyberganova tomonidan tuzilgan “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati” da o’zbek tilida faol qo’llanadigan 500 dan ortiq o’xshatishlarning semantik mazmuni hamda lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan izchil yoritib berilgan. Mazkur maqolada “Ravshan” dostoni diskursida uchraydigan o‘xshatishlarni lingvomadaniy aspektda tahlil qilamiz. Jumadan, doston matnida Avazxon va Hasanxonga nisbatan quyidagi poetik tavsif keltiriladi:

“Ikkisi ham sher haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo‘ldi”[4:19].

Lingvomadaniy jihatdan sher va arslon obrazlari Sharq adabiy an’anasida hokimiyat, jasorat va hukmronlik timsoli sifatida barqaror semantik maydonga ega. Ular, ko‘pincha, podshohlik va sarkardalik fazilatlari bilan bog‘lanadi. Yo‘lbars esa chaqqonlik, tajovuzkorlik va tashqi salobat ramzi bo‘lib, jangovar ruhni ifodalaydi. Qoplon obrazi esa epik tafakkurda tezkorlik va qo‘rqmaslikni anglatuvchi timsollardan biridir.

Go‘ro‘g‘li Ravshanga Zulxumorni so‘rab, sovchi bolib borganda dastlab Avazxon tomonidan otasiga “Makkamsan, Madinam, qiblagohimsan” o‘xshatishlari bilan murojaat qilinadi. Bu yerda ota shaxsi muqaddas makonlar Makka va Madina bilan tenglashtiriladi. Makka konsepti markaz, muqaddaslik va e’tiqod timsoli bo‘lsa, Madina panoh, osoyishtalik va manaviy barqarorlikni anglatadi. Qiblagohimsan birligi esa hayotiy mezon ma’nosini ifodalaydi. Natijada, ota obrazi hayotiy markaz, manaviy panoh, yo‘l ko‘rsatuvchi irodaviy tayanch sifatida konseptuallashtiriladi. Bu o‘xshatishlarda diniy makon konsepti shaxsga ko‘chirilgan bo‘lib, sakrallik, aksiologik yuksak baholash va milliy mentalitetdagi ota muqaddas shaxs modelini namoyon qiladi. Demak, mazkur o‘xshatishlar xalq tafakkuridagi diniy qadriyatlar va oilaviy tuzumning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan lingvomadaniy hodisadir.

Otasining sovchi bo‘lib kelganligini eshitgan Avazxon tomonidan aytilgan “Qarchig‘ay quzg‘unman oshna bo‘lama?” ifodasi zoologik obrazlar orqali berilgan kuchli aksiologik qarama-qarshilikni aks ettiradi. Bu yerda Avazxon o‘zini qarchig‘ay, Hasanxonni esa quzg‘un bilan qiyoslaydi. Bu o‘xshatishlar xalq tafakkuridagi qush obrazlarining madaniy belgisini ochib beradi. Qarchig‘ay (yirtqich qush) o‘zbek xalqi ongida jasorat, tezkorlik, olijanoblik, ovchilik mahorati, hukmronlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Qadimdan qarchig‘ay va lochinlar bilan ov qilish an’anasi mavjud bo‘lib, bu qushlar zodagonlik va bahodirlik timsoli sanalgan. Shu bois, o‘zini qarchig‘ayga tenglashtirish o‘zini kuchli, martabali, tabiatan ustun deb baholashni anglatadi. Quzg‘un esa xalq mentalitetida salbiy konnotatsiyaga ega o‘lim va xarobaga yaqin yuruvchi, murdaxo‘r, past tabaqali, jirkanch, noxush belgi ramzi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, Hasanxonni quzg‘un deyish uni past maqomga tushirish, ijtimoiy jihatdan mensimaslik ma’nolarini beradi. Turkiy madaniyatda yirtqich qushlar (burgut, lochin, qarchig‘ay) kuch va hukmronlik ramzi bo‘lgan. Bu qadimiy mentalitetning lingvistik izidir.

Ravshanning Shirvon yurtiga jo‘nashi arafasida Hasanxonning farzandiga qilgan murojaati nafaqat hissiy-psixologik holatni, balki xalq ongida shakllangan lingvomadaniy stereotiplar, aksiologik qadriyatlar va arxetipik tasavvurlar tizimini ham mujassamlashtiradi.

Hasanxon nutqida qo‘llangan o‘xshatishlarni semantik maydoniga ko‘ra bir necha guruhga ajratish mumkin:

1) Tabiat va kosmogonik obrazlar: “ulug‘ daryolardan chiqqan qunduzim”, “falak peshtoqidan uchgan yulduzim”, “novda o‘sgan chinorim”

2) Hayvonot olami bilan bog‘liq obrazlar: “tolpingan shunqorim”, “bir qo‘zi – qo‘chqorim”, “yovga ajdohorim”

3) Antropotsentrik-psixologik obrazlar: “ko‘zimning oq-u qorasi”, “umrimga bahorim”.

Mazkur guruhlanishdan ko‘rinadiki, Hasanxon farzandini tasvirlashda makrokosmos (falak, daryo), mezokosmos (tabiat unsurlari), mikrokosmos (inson tanasi, ruhiy holat) va zoomorfik arxetiplar qatlamini birlashtiradi. Bu esa doston poetikasining ko‘p qatlamli lingvomadaniy tabiatini namoyon qiladi.

“Falak peshtoqidan uchgan yulduzim” – yulduz konsepti turkiy madaniyatda baxt, nasiba, ilohiy belgi, yuqori maqom ramzi sifatida talqin qilinadi. Demak, Ravshan oddiy farzand emas, balki ilohiy in’om sifatida idrok etiladi. “Ulug‘ daryolardan chiqqan qunduzim” – daryo hayot, davomiylik, qudrat, poklik ramzidir. Qunduz esa suv bilan bog‘liq, chaqqon va qimmatbaho jonivor. Bu o‘xshatishda ikki kod birlashadi:

- hayot manbai (daryo),
- nafislik va qiymat (qunduz).

Demak, Ravshan – kuchli muhitdan chiqqan, ammo nafis va noyob obraz sifatida talqin qilinadi.

“Novda o‘sgan chinorim” – chinor turkiy mentalitetda qudrat, uzoq umr, nasl davomiyligi ramzi. Novda esa avlodni bildiradi. Bu o‘xshatishda geneologik model mujassam: Hasanxon – chinor, Ravshan – undan o‘sgan novda. Bu lingvomadaniy jihatdan “ota – daraxt, farzand – shox” konseptual metaforasiga asoslanadi.

“Tolpingan shunqorim” – shunqor ovchi qush, jasorat va epchillik ramzidir. Bu o‘xshatishda Ravshan – hali parvozga chiqmagan, ammo kuchga to‘la qahramon sifatida gavdalanadi.

“Bir qo‘zi-qo‘chqorim” – bu o‘xshatish ikki qirrali:

“qo‘zi” – mehr, ojizlik, beg‘uborlik;

“qo‘chqor” – kuch, erkaklik, jangovar sifat.

Bu yerda lingvomadaniy dualizm mavjud: farzand ota uchun bir vaqtning o‘zida ham himoyaga muhtoj bola, ham mard yigitdir.

“Yovga ajdohorim” – ajdaho sharq mifologiyasida dahshat va yengilmas kuch ramzi. Bu yerda Ravshan dushman uchun halokatli kuch sifatida tasvirlanadi. Qahramonlik eposining tipik modeli: “o‘ziga mehribon – yovga shafqatsiz”. “Ko‘zimning oq-u qorasi” – bu o‘zbek tilida frazeologik birlik bo‘lib, “eng aziz, jonimdan ortiq” ma’nosini beradi. Ko‘zning oq va qorasi ajralmas butunlikni bildiradi. Bu o‘xshatish farzandni hayotiy zarurat darajasida qadrlashni ko‘rsatadi.

Quyidagi parcha Zulxumor obrazini ideal estetik mezonlar asosida tasvirlashga xizmat qiluvchi ko‘p qatlamli o‘xshatishlar tizimidan iborat:

“Zulxumor jannatning huriday yasangan, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig‘ay, uchadigan qushday”.

Bu yerda o‘xshatish subyekti Zulxumor (aniqrog‘i, uning tashqi qiyofasi), etalonlar esa diniy, tabiiy va maishiy-estetik tasavvurlar bilan bog‘liq obrazlardan tanlangan. Eng avvalo, jannatning huriday o‘xshatishi diniy-mifologik qatlamni faollashtiradi. Hur obrazi islomiy tasavvurlarda mutlaq gozallik timsoli hisoblanadi. Shu bois, bu o‘xshatish Zulxumorni oddiy go‘zal qiz emas, balki ilohiy-estetik ideal darajasiga ko‘taradi. Bu yerda lingvomadaniy kod sifatida diniy konsept ishlatilgan. Tishlari durday dur (marvarid) Sharq poetikasida poklik, oppoqlik va nafislik ramzi. Bu o‘xshatish moddiy boylik va estetik mukammallikni uyg‘unlashtiradi. Ko‘zlari yulduzday va ikki yuzi oyday birliklari esa kosmik obrazlarga tayanadi. Oy va yulduz turkiy hamda Sharq adabiyotida go‘zallikning barqaror poetik etalonlari hisoblanadi. Oy husn va nur, yulduz porloqlik va joziba timsoli. Bu o‘xshatishlar Zulxumor obrazini yuksak darajada ideallashtiradi.

Qoshlari qunduzday o‘xshatishida asos qunduz mo‘ynasining qalinligi va silliqligi. Sharq mumtoz poetikasida qoshning qalin va yoy shaklida bolishi go‘zallik mezoni sanalgan. Lablari qirmizday, lablari qaymoqday birliklari rang va ta’m konseptlari orqali estetik bahoni kuchaytiradi. Qirmizi yorqin qizil rang, hayotiylik va joziba timsoli; qaymoq esa yumshoqlik va noziklikni ifodalaydi. Rang va ta’m sezgi tasvirining uyg‘unlashuvi sinestezik (ko‘p sezgili) poetik effekt hosil qiladi. Og’izlari o‘ymoqday o‘xshatishi shakliy mukammallikni, yani noziklik va ixchamlikni bildiradi. So‘nggi tarlon-qarchig‘ay, uchadigan qushday o‘xshatishi esa dinamiklikni anglatadi. Tarlon va qarchig‘ay chaqqon va uchuvchan qushlar. Bu o‘xshatish Zulxumorning nafaqat tashqi husni, balki epchilligi va harakatidagi yengillikni ifodalaydi.

Umuman, mazkur parcha ideal ayol obrazini yaratishga qaratilgan ko‘p bosqichli poetik modelni namoyon etadi. Etalonlar uch asosiy manbadan tanlangan:

- diniy mifologik konseptlar (hur),
- kosmik obrazlar (oy, yulduz),
- tabiiy va maishiy-estetik timsollar (dur, qunduz, qirmizi, qaymoq, qush).

Ushbu o‘xshatishlar xalqning go‘zallik haqidagi tasavvurlarini, estetik idealini va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Zulxumor obrazi orqali ayollikning mukammal modeli poklik, nafislik, nur, joziba va epchillik konseptlari uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.

Ravshan dostonida qollangan oxshoatishlar tizimli va ko‘p qatlamli poetik model asosida shakllangan bolib, ular nafaqat obraz yaratish vositasi, balki milliy tafakkur, qadriyatlar va mifopoetik tasavvurlarni ifodalovchi muhim lingvomadaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Ravshan” dostoni matnida qo‘llangan o‘xshatishlar tizimli, ko‘p qatlamli va chuqur lingvomadaniy asosga ega. Ular orqali xalqning tabiat, hayvonot olami, kosmos va diniy tasavvurlarga oid qarashlari badiiy shaklda ifodalangan. O‘xshatishlarda zoomorfik, kosmogonik, antropotsentrik va diniy obrazlarning uyg‘unlashuvi epik tafakkurning kompleks xarakterini namoyon etadi.

Doston qahramonlari tasvirida qo‘llangan o‘xshatishlar orqali jasorat, kuch, go‘zallik, muqaddaslik kabi aksiologik kategoriyalar ifodalanadi. Ayniqsa, ota va farzand munosabatlarini ifodalovchi o‘xshatishlar milliy mentalitetda oilaviy qadriyatlarning yuksak o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Zulxumor obrazini tasvirlashda esa estetik idealning ko‘p qatlamli modeli yaratilgan bo‘lib, unda diniy, kosmik va tabiiy konseptlar uyg‘unlashgan.

Umuman olganda, “Ravshan” dostonidagi o‘xshatishlar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki milliy tafakkur, qadriyatlar tizimi va lingvomadaniy stereotiplarni aks ettiruvchi muhim semiotik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot o‘zbek epik matnlarini lingvomadaniy jihatdan o‘rganish yo‘nalishida muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Маҳмудов, Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19–24.
2. Мукаррамов, М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент : Фан, 1976. – 128 б.
3. Қўнғуров, Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент : Фан, 1977. – 158 б.
4. Худайберганова, Д. С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке : дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 142 с.
5. Бердиёров, Ҳ. Ўзбек тилининг фразеологик луғати / Ҳ. Бердиёров, Р. Расулов. – Тошкент : Ўқитувчи, 1984. – 184 б.
6. Йўлдошев, М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи : филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент : ЎзФА Тил ва адабиёт институти, 2009. – 280 б.
7. Исабекова, М. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвокультурологик тадқиқи : филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент : ЎзМУ, 2018. – 156 б.

Normurodova Nargiza Baxtiyor qizi
Jizzax shahar 2-son Bolalar musiqa va san'at maktabi,
fortepiano sinfi o'qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FORTEPIANODA O‘QITISH JARAYONIDA MUSIQIY QOBILIYAT VA MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat ijrochilik ko‘nikmalarini, balki ularning ichki motivatsiyasi, emotsional holati va musiqiy tafakkurini rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Maqolada fortepiano ta’limining psixologik asoslari, xususan, diqqat, xotira, idrok va ijodiy tafakkur kabi psixik jarayonlarning musiqiy faoliyatdagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, pedagogik yondashuvlar hamda motivatsion mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari fortepiano darslarida samarali metodikalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishini faollashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *fortepiano, musiqiy qobiliyat, motivatsiya, psixologik shakllanish, boshlang‘ich ta’lim, musiqiy idrok, ijodiy tafakkur, pedagogik metodika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И МОТИВАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИГРЕ НА ФОРТЕПИАНО У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются вопросы психологического формирования музыкальных способностей и мотивации у учащихся начальных классов в процессе обучения игре на фортепиано. Актуальность исследования обусловлена необходимостью развития не только исполнительских навыков, но и внутренней мотивации, эмоционального состояния и музыкального мышления учащихся в условиях современного образования. В статье раскрываются психологические основы фортепианного обучения, в частности роль таких психических процессов, как внимание, память, восприятие и творческое мышление в музыкальной деятельности. Также анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие музыкальных способностей, педагогические подходы и мотивационные механизмы. Результаты исследования показывают, что применение эффективных методик обучения способствует активизации музыкального развития учащихся.*

Ключевые слова: *фортепиано, музыкальные способности, мотивация, психологическое формирование, начальное образование, музыкальное восприятие, творческое мышление, педагогическая методика.*

PSYCHOLOGICAL FORMATION OF MUSICAL ABILITIES AND MOTIVATION IN THE PROCESS OF PIANO TEACHING AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This scientific article examines the psychological formation of musical abilities and motivation in primary school students during piano instruction. The relevance of the study is explained by the need to develop not only performance skills but also students’ intrinsic motivation, emotional state, and musical thinking in modern educational settings. The paper highlights the psychological foundations of piano education, particularly the role of cognitive processes such as attention, memory, perception, and creative thinking in musical activity. It also analyzes internal and external factors influencing the development of musical abilities, as well as pedagogical approaches and motivational mechanisms. The results of the study demonstrate that the use of effective teaching methods in piano lessons can significantly enhance students’ musical development.*

Key words: *piano, musical ability, motivation, psychological development, primary education, musical perception, creative thinking, pedagogical methodology.*

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning shaxsiy, emotsional va kognitiv rivojlanishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, fortepiano ta’limi orqali musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayonida integrativ yondashuvlar, ya’ni san’at va psixologiya uyg‘unligi asosida shaxsni rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinmoqda.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’lim, xususan, fortepiano mashg‘ulotlari bolalarning diqqat, xotira va ijodiy tafakkur kabi muhim kognitiv jarayonlarini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi . Shuningdek, tizimli tahlillar natijalariga ko‘ra, 3–12 yoshdagi bolalarda musiqiy faoliyat emotsional intellekt, ijtimoiy ko‘nikmalar va o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan . Bu esa fortepiano ta’limining nafaqat estetik, balki psixologik rivojlantiruvchi vosita ekanligini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar fortepiano mashg‘ulotlari bolalarda motivatsiya, o‘ziga ishonch, diqqatni jamlash va hatto ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishini ko‘rsatmoqda . Shu bilan birga, musiqiy ta’lim motivatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi (intrinsic motivation) ularning muvaffaqiyatli o‘rganish jarayonida hal qiluvchi omil ekanligini ta’kidlaydi .

Respublika miqyosida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ijodiy va estetik fanlarga e’tibor ortib bormoqda. Boshlang‘ich ta’limda musiqa fanining mazmunini boyitish, ayniqsa, fortepiano kabi cholg‘u asboblari orqali o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda ko‘pincha musiqiy ta’limning psixologik jihatlari yetarli darajada chuqur o‘rganilmayapti, bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepiano ta’limi jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy rivojini qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligi ortib borayotgan bir sharoitda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash muhim pedagogik va psixologik vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, san’at ta’limi, xususan, fortepiano ijrochiligi orqali bolalarning nafaqat musiqiy qobiliyatlari, balki ularning kognitiv, emotsional va motivatsion sohalari ham samarali rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslanmoqda. Shu sababli fortepianoda o‘qitish jarayonining psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 6–10 yosh oralig‘i bolalar rivojida eng muhim davrlardan biri bo‘lib, bu bosqichda diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi asosiy psixik jarayonlar intensiv shakllanadi. Aynan shu davrda musiqa bilan muntazam shug‘ullanish bolalarning neyropsixologik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, fortepiano chalish jarayoni bir vaqtning o‘zida bir nechta murakkab faoliyatlarni – eshitish, ko‘rish, motorika va tafakkurni uyg‘unlashtiradi. Bu esa miyaning turli sohalari o‘rtasida neyron aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’lim olgan bolalarda diqqatni jamlash darajasi yuqori, xotira hajmi kengroq va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlangan bo‘ladi.

Shuningdek, fortepiano ta’limi o‘quvchilarning emotsional rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadi, bu esa uning emotsional intellekti shakllanishiga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, musiqiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanuvchi bolalarda o‘ziga ishonch darajasi yuqori, ijtimoiy moslashuv jarayoni esa tezroq kechadi. Bu jihatlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim bo‘lib, ular maktab muhitiga moslashish davrida qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Motivatsiya masalasi ham fortepiano ta’limida markaziy o‘rin egallaydi. Zamonaviy psixologiyada o‘quv faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining ichki motivatsiyasiga

bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Fortepiano mashg‘ulotlari jarayonida o‘qituvchining metodik yondashuvi, rag‘batlantirish usullari va individual ishlash strategiyalari o‘quvchining qiziqishini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar dars jarayoni psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, o‘quvchilarda musiqa bilan shug‘ullanishga nisbatan barqaror ichki ehtiyoj shakllanadi.

Respublikamizda ham ta’lim tizimini rivojlantirish doirasida san’at va musiqa ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish va mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, amaliyotda fortepiano ta’limining psixologik asoslarini yetarlicha hisobga olmaslik holatlari ham uchrab turadi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishi pasayishiga yoki ularning individual qobiliyatlari to‘liq ochilmasligiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ushbu jarayonning psixologik mexanizmlarini aniqlash, samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda fortepiano ta’limining sifatini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishi masalasi ko‘plab xorijiy va rus olimlari tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lib, mazkur muammo pedagogika, psixologiya va musiqa ta’limi kesishgan nuqtada joylashgan kompleks tadqiqot sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida musiqa ta’limining bolalar kognitiv rivojiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning ilmiy asoslarini sezilarli darajada boyitdi.

Xorijiy tadqiqotchilardan biri E. Costa-Giomi tomonidan olib borilgan uzoq muddatli eksperimental tadqiqotlar fortepiano mashg‘ulotlarining bolalar kognitiv rivojiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda pianino darslari olgan bolalarda ayniqsa fazoviy tafakkur ko‘rsatkichlari oshgani aniqlangan . Mazkur natijalar musiqa ta’limi nafaqat estetik rivojlanish, balki intellektual jarayonlarning ayrim komponentlarini ham faollashtirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotlarda bu ta’sirlarning umumiy intellekt darajasiga nisbatan chegaralanganligi ham qayd etilgan bo‘lib, bu esa musiqa ta’limining selektiv (ma’lum yo‘nalishlarda kuchli) ta’sirga ega ekanligini anglatadi.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar musiqa ta’limining kognitiv va akademik natijalarga ta’sirini yanada kengroq ko‘lamda o‘rganishga qaratildi. Masalan, G. Sala va F. Gobet tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, musiqa bilan shug‘ullanish bolalarning o‘quv faoliyati va kognitiv ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq bu ta’sir ko‘pincha tadqiqot metodologiyasiga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘ladi . Bu esa fortepiano ta’limini o‘rganishda faqat natijaviy ko‘rsatkichlarni emas, balki uning psixologik mexanizmlarini ham chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Musiqa va til rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik ham ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, R. Price va C. Price tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fortepiano mashg‘ulotlari bolalarda ishchi xotira va so‘zlarni tanib olish qobiliyatini yaxshilashi aniqlangan . Bu holat musiqa ta’limining psixologik jihatdan ko‘p funksiyali rivojlantiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni u bir vaqtning o‘zida bir nechta kognitiv tizimlarni faollashtiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda fortepiano ta’limining neyropsixologik asoslariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, musiqa bilan shug‘ullanish jarayonida diqqat, xotira, idrok va ijodiy tafakkur faol ravishda ishtirok etadi hamda bu jarayonlar o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlanadi . Shu bilan birga, musiqiy faoliyat bolalarda muammolarni hal qilish, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi .

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa fortepiano ta’limining psixologik-pedagogik jihatlari chuqur yoritilgan. Masalan, B. M. Teplov musiqiy qobiliyatlarni individual-psixologik xususiyat sifatida talqin qilib, ularning shakllanishida faoliyat muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, musiqiy eshitish, ritmni his qilish va musiqiy xotira insonning tug‘ma emas, balki rivojlanadigan qobiliyatlari sirasiga kiradi. N. A. Vetlugina esa bolalarning musiqiy rivojlanishini tizimli pedagogik jarayon sifatida ko‘rib, unda emotsional idrok va ijodiy faollikning ahamiyatini

alohida qayd etadi. Shu bilan birga, L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi doirasida musiqa ta'limi bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda fortepiano o'qitish metodikasining motivatsion jihatlari ham alohida e'tibor markazida turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ichki motivatsiya shakllanishi o'qitish uslubi, o'qituvchi bilan o'zaro munosabat va o'quv muhitining psixologik qulayligiga bevosita bog'liq. Noan'anaviy, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar fortepiano ta'limining bolalar psixologik rivojiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ko'proq umumiy musiqiy ta'limning ta'siri o'rganilgan bo'lib, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fortepiano o'qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanish mexanizmlarini kompleks o'rganish yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur mavzu qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladigan dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida fortepianoda o'qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishini empirik jihatdan o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot aralash (miqdoriy va sifatli) dizayn asosida tashkil etilib, unda psixodiagnostik metodlar, pedagogik kuzatuv va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida umumta'lim maktablari va bolalar musiqa va san'at maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yosh) jalb qilindi. Tanlanma hajmi 60 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, ular tajriba (n=30) va nazorat (n=30) guruhlariga ajratildi.

Tadqiqotda O'zbekiston amaliyotida keng qo'llaniladigan va ilmiy asoslangan psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Xususan, musiqiy qobiliyat darajasini aniqlashda B.M. Teplov konsepsiyasiga asoslangan musiqiy eshitish, ritmni his qilish va musiqiy xotirani baholash topshiriqlari tizimi qo'llanildi. Motivatsiyani o'rganishda esa A.A. Rean va V.A. Yakunin tomonidan ishlab chiqilgan "O'quv motivatsiyasini aniqlash" metodikasi moslashtirilgan variantda qo'llandi. Ushbu metodika O'zbekiston ta'lim tizimida psixologlar tomonidan muntazam ravishda qo'llanilib, o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini differensial tahlil qilish imkonini beradi.

Tajriba jarayonida fortepiano darslari maxsus ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik yondashuv asosida olib borildi, ya'ni darslarda individual yondashuv, rag'batlantirish, emotsional qo'llab-quvvatlash va ijodiy topshiriqlarga ustuvor ahamiyat berildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy metodika asosida darslar davom ettirildi. Tadqiqot boshida va yakunida olingan natijalar SPSS statistik dasturi yordamida tahlil qilindi.

Quyida musiqiy qobiliyat ko'rsatkichlarining tajriba va nazorat guruhlarida dastlabki va yakuniy natijalari keltirilgan:

1-jadval.

Musiqiy qobiliyat ko'rsatkichlarining dinamikasi (SPSS tahlili asosida)

Ko'rsatkichlar	Guruh	Dastlabki o'rtacha (M)	Yakuniy o'rtacha (M)	t-qiymat	p-qiymat
Musiqiy eshitish	Tajriba	3.2	4.5	3.87	0.001
	Nazorat	3.3	3.8	1.45	0.078
Ritmni his qilish	Tajriba	3.0	4.3	4.12	0.000
	Nazorat	3.1	3.6	1.32	0.091
Musiqiy xotira	Tajriba	3.4	4.6	3.95	0.001
	Nazorat	3.5	3.9	1.27	0.104

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan ($p<0.01$), bu esa qo'llanilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli emas.

Motivatsiya darajasining o‘zgarishini aniqlash uchun ham SPSS dasturida taqqoslama tahlil o‘tkazildi:

2-jadval.

O‘quv motivatsiyasi darajasining o‘zgarishi (SPSS natijalari)

Motivatsiya turi	Guruh	Dastlabki (M)	Yakuniy (M)	t-qiymat	p-qiymat
Ichki motivatsiya	Tajriba	3.1	4.7	4.56	0.000
	Nazorat	3.2	3.6	1.38	0.082
Tashqi motivatsiya	Tajriba	3.8	3.5	-1.95	0.061
	Nazorat	3.7	3.6	-0.88	0.214

Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida ichki motivatsiya sezilarli darajada oshgan, tashqi motivatsiya esa nisbatan kamaygan, bu esa o‘quvchilarda musiqa bilan shug‘ullanishga nisbatan ichki qiziqish shakllanganini anglatadi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarish kuzatilmagan.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologiya va statistik tahlil natijalari fortepiano ta’limida psixologik yondashuvni kuchaytirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy qobiliyat va motivatsiyani samarali rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishi murakkab, ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, fortepiano darslarini an’anaviy yondashuvdan farqli ravishda psixologik jihatdan asoslangan metodika asosida tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat ijrochilik ko‘nikmalarini, balki ularning kognitiv va emotsional rivojlanishini ham sezilarli darajada faollashtiradi. Ayniqsa, musiqiy eshitish, ritmni his qilish va musiqiy xotira kabi komponentlarning rivojlanish dinamikasi bu jarayonning tizimli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari ilgari o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar bilan hamohang bo‘lib, musiqiy faoliyatning psixik jarayonlarga integrativ ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur ishda aynan fortepiano ta’limi misolida ushbu ta’sirning aniq mexanizmlari ochib berilgani bilan ajralib turadi. Masalan, fortepiano chalish jarayonida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida eshitish, ko‘rish va motor faoliyatini uyg‘unlashtiradi, bu esa miyaning turli funksional tizimlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi. Natijada diqqatning barqarorligi, xotiraning hajmi va tezkorligi hamda tafakkurning moslashuvchanligi ortadi. Bu holat musiqiy ta’limning umumiy rivojlantiruvchi potensialini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Motivatsiya ko‘rsatkichlari tahlili esa alohida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, psixologik jihatdan boyitilgan fortepiano darslari o‘quvchilarda ichki motivatsiyaning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘quv faoliyatining eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Ichki motivatsiyaning ortishi o‘quvchilarning dars jarayoniga faolroq jalb qilinishiga, mustaqil mashq qilishga bo‘lgan ehtiyojining kuchayishiga va umumiy o‘quv natijalarining yaxshilanishiga olib keladi. Shu bilan birga, tashqi motivatsiyaning nisbatan kamayishi o‘quvchilarning faoliyati mukofot yoki bahoga emas, balki jarayonning o‘ziga qiziqish asosida amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa ta’limning zamonaviy psixologik tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar tahlili ham muhim xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. An’anaviy metodika asosida o‘qitilgan o‘quvchilarda ham ma’lum darajada rivojlanish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu o‘sish statistik jihatdan sezilarli emasligi aniqlandi. Bu esa fortepiano ta’limida faqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish yetarli emasligini, balki o‘quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Aksincha, tajriba guruhida qo‘llanilgan individual yondashuv, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijodiy topshiriqlarga asoslangan metodika o‘quvchilarning rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari fortepiano ta’limida o‘qituvchi shaxsining roli nihoyatda muhim ekanligini ham ko‘rsatdi. O‘qituvchining pedagogik mahorati, psixologik sezgirligi va kommunikativ kompetensiyasi o‘quvchilarning motivatsiyasi va musiqiy qobiliyatlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari fortepiano ta’limining psixologik jihatlarini chuqurroq integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning shakllanishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va kuchaytiradi. Shu sababli fortepiano darslarini tashkil etishda nafaqat metodik, balki psixologik omillarni ham hisobga olish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur yondashuvni amaliyotga keng joriy etish esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishi muhim va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, fortepiano ta’limi faqat ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va shaxsiy rivojlanishiga ham kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, musiqiy eshitish, ritmni his qilish va musiqiy xotira kabi qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, o‘quvchilarning diqqat barqarorligi, tafakkur moslashuvchanligi va ijodiy faolligi sezilarli darajada ortishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari fortepiano ta’limida psixologik yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Dars jarayonida individual yondashuv, emotsional qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarning qiziqishlariga mos metodikalarni qo‘llash ularning ichki motivatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ichki motivatsiyaning rivojlanishi esa o‘quvchilarning mustaqil faoliyatga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi va umumiy ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy o‘qitish metodlari bilan cheklanish o‘quvchilarning to‘liq rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Aksincha, psixologik-pedagogik jihatdan boyitilgan, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar fortepiano ta’limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o‘qituvchi faoliyatida nafaqat metodik bilimlar, balki psixologik kompetensiyalarning ham muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, fortepianoda o‘qitish jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonni ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali tashkil etish ta’lim tizimida sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Abduqodirov, A. A. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 2018. – 256 b.
3. Ветлугина, Н. А. Музыкальное развитие ребенка. – Москва : Просвещение, 1988. – 240 с.
4. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва : Педагогика, 1982. – 287 с.
5. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва : Политиздат, 1975. – 304 с.
6. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 720 с.
7. Теплов, Б. М. Психология музыкальных способностей. – Москва : Наука, 2003. – 379 с.
8. Xasanov, R. X. Musiqiy pedagogika asoslari. – Toshkent : Fan, 2015. – 220 b.
9. Реан, А. А. Психология и педагогика / А. А. Реан, В. А. Якунин. – Санкт-Петербург : Питер, 2008. – 432 с.
10. Costa-Giomi, E. The effects of three years of piano instruction on children's cognitive development // Journal of Research in Music Education. – 1999. – Vol. 47(3). – P. 198–212.

Marupova Aziza Akhtamovna
Samarqand State Institute of Foreign Languages
Faculty of English Language Teaching Methodology
E-mail: miss.marupova@gmail.com

ARTISTIC AND IDEOLOGICAL FEATURES OF MARGARET MITCHELL'S WRITING: A STYLISTIC REASSESSMENT

Abstract. *This article presents a stylistic reassessment of the artistic and ideological features of Margaret Mitchell's writing, with particular reference to her novel Gone with the Wind. The study aims to explore how linguistic and stylistic devices contribute not only to the aesthetic construction of the text but also to the expression of ideological meanings embedded within the narrative. Through qualitative stylistic analysis, the research examines lexical choices, figurative language, narrative perspective, and discourse patterns that shape both artistic representation and ideological positioning. The findings indicate that Mitchell's writing is characterized by a complex interplay between descriptive richness and ideological framing, where stylistic elements serve to reinforce themes related to identity, social hierarchy, gender roles, and cultural values. The study demonstrates that stylistic analysis provides a valuable framework for uncovering implicit ideological structures within literary texts, highlighting the interdependence of language, aesthetics, and ideology.*

Keywords: *stylistics, ideology, narrative discourse, artistic language, characterization, cultural values.*

MARGARET MITCHELL IJODINING BADIIY VA MAFKURAVIY XUSUSIYATLARI: STILISTIK QAYTA BAHOLASH

Annotatsiya. *Ushbu maqola Margaret Mitchell ijodining badiiy va mafkuraviy xususiyatlarini stilistik jihatdan qayta baholashni taqdim etadi, ayniqsa uning "Shamol bilan ketganlar" romani misolida. Tadqiqot matnning estetik qurilishiga nafaqat til va uslub vositalari qanday hissa qo'shishini, balki ular orqali matnga singdirilgan mafkuraviy ma'nolar qanday ifodalanishini ham o'rganishga qaratilgan.*

Sifatli stilistik tahlil orqali tadqiqot leksik tanlovlar, obrazli til, hikoya qilish nuqtai nazari hamda diskurs tuzilmalarini ko'rib chiqadi, ular badiiy tasvir va mafkuraviy pozitsiyani shakllantiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Mitchell ijodi tasviriy boylik va mafkuraviy yo'naltirish o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqadorlik bilan tavsiflanadi, bunda stilistik elementlar shaxsiyat, ijtimoiy ierarxiya, gender rollari va madaniy qadriyatlarga oid mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, stilistik tahlil adabiy matnlardagi yashirin mafkuraviy tuzilmalarni ochib berishda muhim yondashuv bo'lib, til, estetika va mafkura o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritadi.

Kalit so'zlar: *stilistika, ideologiya, hikoya qilish (bayon etish), badiiy til, tavsif (xarakteristika), madaniy qadriyatlar.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА МАРГАРЕТ МИТЧЕЛЛ: СТИЛИСТИЧЕСКОЕ ПЕРЕОСМЫСЛЕНИЕ

Аннотация. *Данная статья представляет собой стилистическую переоценку художественных и идеологических особенностей творчества Маргарет Митчелл, с особым акцентом на её роман «Унесённые ветром». Цель исследования - показать, как языковые и стилистические средства способствуют не только эстетическому построению текста, но и выражению идеологических смыслов, заложенных в повествовании. С помощью качественного стилистического анализа рассматриваются лексический выбор, образный язык, повествовательная перспектива и дискурсивные структуры, формирующие как художественное представление, так и идеологическую позицию. Результаты показывают, что творчество Мит-*

челл характеризуется сложным взаимодействием описательной насыщенности и идеологической направленности, где стилистические элементы усиливают темы идентичности, социальной иерархии, гендерных ролей и культурных ценностей. Исследование демонстрирует, что стилистический анализ является важным инструментом для выявления скрытых идеологических структур в литературных текстах, подчеркивая взаимосвязь языка, эстетики и идеологии.

Ключевые слова: *стилистика, идеология, повествование, художественный язык, характеристика, культурные ценности.*

Introduction.

The relationship between artistic expression and ideological meaning has long been a central concern in literary studies, particularly within stylistics, where language is examined as both an aesthetic and a functional system that reflects broader social and cultural realities. In literary texts, artistic features such as imagery, metaphor, and narrative structure are not merely decorative elements but serve as vehicles for conveying ideological perspectives, shaping the reader's interpretation of characters, events, and values. Margaret Mitchell's *Gone with the Wind* represents a particularly significant case in this regard, as it combines elaborate descriptive language with a deeply embedded ideological framework that reflects the historical, cultural, and social tensions of its time.

The importance of this study lies in its attempt to reassess Mitchell's writing from a stylistic perspective that integrates both artistic and ideological dimensions, thereby moving beyond purely thematic or historical interpretations. By focusing on the linguistic realization of ideology, the research aligns with contemporary approaches in cognitive and cultural linguistics, which view language as a medium through which conceptual and value systems are constructed and communicated. The novel's portrayal of social hierarchy, gender roles, and cultural identity is closely tied to its stylistic features, making it an ideal subject for analyzing how artistic language contributes to ideological meaning.

The main objectives of this study are to identify the key stylistic features that define Mitchell's artistic language, to analyze how these features function in expressing ideological content, and to explore the interaction between aesthetic form and ideological substance within the narrative. Through this approach, the study seeks to provide a more comprehensive understanding of the role of stylistics in literary interpretation.

Methods.

This research adopts a qualitative stylistic analysis of selected passages from *Gone with the Wind*, employing methods derived from literary linguistics, discourse analysis, and cognitive stylistics to investigate the interaction between artistic form and ideological meaning. The primary data consists of narrative descriptions, character portrayals, and dialogic exchanges that reflect both stylistic richness and ideological significance, which are analyzed at multiple levels of language.

At the lexical level, the analysis focuses on evaluative vocabulary, emotionally charged expressions, and culturally marked lexical items that contribute to the construction of ideological perspectives, particularly in relation to social class and identity. At the syntactic level, attention is given to sentence structure, complexity, and variation, examining how syntactic patterns influence emphasis, rhythm, and interpretive focus within the text. At the stylistic level, figurative language such as metaphor, simile, and symbolism is analyzed in terms of its role in shaping both aesthetic effect and ideological meaning.

The analytical procedure involves identifying recurring stylistic patterns, categorizing them according to their linguistic features, and interpreting their functions within the broader narrative context. Special consideration is given to narrative perspective and focalization, as these elements play a crucial role in mediating ideological viewpoints and guiding reader interpretation. By integrating insights from cognitive and cultural linguistics, the study also examines how language reflects underlying conceptual structures and value systems, thereby linking stylistic features to ideological content.

Results.

The analysis demonstrates that Margaret Mitchell's writing is characterized by a sophisticated integration of artistic and ideological features, where stylistic devices function simultaneously as tools of aesthetic expression and carriers of ideological meaning. One of the most prominent findings is the extensive use of descriptive language, which not only creates vivid imagery but also reinforces social and cultural hierarchies by attributing specific qualities to characters based on their class, gender, and background. This descriptive richness is often achieved through the use of evaluative adjectives and epithets that encode ideological judgments, subtly influencing the reader's perception of different social groups.

Figurative language, particularly metaphor and symbolism, plays a crucial role in constructing ideological meaning by associating characters and events with broader conceptual domains, such as nature, survival, and conflict. These metaphors serve to naturalize certain ideological assumptions, presenting them as inherent or inevitable aspects of human experience. For example, representations of strength and resilience are frequently linked to individualistic and survival-oriented values, reflecting a particular ideological stance on human nature and social order.

Narrative perspective emerges as another key stylistic feature, as the use of focalization and narrative voice shapes the presentation of events and characters in ways that align with specific ideological viewpoints. The narrative often privileges certain perspectives while marginalizing others, thereby guiding the reader's interpretation and reinforcing dominant cultural narratives. Dialogue further contributes to this process by reflecting social identities and power relations through linguistic variation, including differences in vocabulary, tone, and speech patterns.

In addition, syntactic variation is used to enhance both artistic effect and ideological emphasis, with complex sentence structures often accompanying moments of reflection or justification, while simpler constructions convey immediacy and emotional intensity. This interplay between form and meaning underscores the role of syntax in shaping both aesthetic experience and ideological interpretation.

Discussion.

The findings of this study highlight the inseparability of artistic and ideological dimensions in literary language, demonstrating that stylistic features are not neutral but are deeply embedded in the construction of meaning and value. From a cognitive perspective, the use of metaphor and evaluative language reflects the ways in which individuals conceptualize social reality, organizing complex ideological concepts into accessible and relatable forms. This supports the view that language plays a central role in shaping not only how we describe the world but also how we understand and interpret it.

The cultural dimension of Mitchell's writing is particularly significant, as the novel reflects the historical context in which it was produced, and this context influences both the content and the form of its ideological expression. The portrayal of social hierarchy and gender roles, for example, is closely tied to the linguistic choices used to describe characters and their actions, illustrating how language functions as a medium for reproducing cultural values and norms. At the same time, the stylistic complexity of the text allows for multiple interpretations, suggesting that ideological meaning is not fixed but is open to negotiation and reinterpretation by readers.

The study also emphasizes the importance of narrative perspective in mediating ideology, as the selection and presentation of viewpoints play a crucial role in shaping reader response. By analyzing stylistic features in relation to ideological content, the research demonstrates the value of an integrated approach that combines linguistic, cognitive, and cultural perspectives, providing a more nuanced understanding of literary texts.

Conclusion.

In conclusion, this stylistic reassessment of Margaret Mitchell's writing reveals that artistic and ideological features are closely interconnected, with linguistic and stylistic devices serving as key mechanisms for constructing both aesthetic and ideological meaning. The analysis shows that descriptive language, figurative expression, narrative perspective, and syntactic variation all contribute to the representation of social values, cultural identity, and human experience, highlighting the central role of language in shaping literary discourse. The study contributes to stylistics and literary linguistics by demonstrating how a detailed analysis of language can uncover implicit ideological structures

within a text, offering new insights into the relationship between form and meaning. It also underscores the importance of considering both artistic and ideological dimensions in the interpretation of literary works, suggesting that stylistic analysis can serve as a powerful tool for exploring the complex interplay between language, thought, and culture. Future research may extend this approach to other literary texts and cultural contexts, further enriching our understanding of the role of stylistics in literary studies.

References.

1. Abrams, M. H. A glossary of literary terms / M. H. Abrams, G. G. Harpham. – 11th ed. – Boston : Cengage Learning, 2015. – 448 p.
2. Barry, P. Beginning theory: An introduction to literary and cultural theory. – 4th ed. – Manchester : Manchester University Press, 2017. – 352 p.
3. Eagleton, T. Literary theory: An introduction. – 2nd ed. – Minneapolis : University of Minnesota Press, 2008. – 264 p.
4. Fairclough, N. Critical discourse analysis: The critical study of language. – London : Longman, 1995. – 265 p.
5. Fowler, R. Linguistic criticism. – 2nd ed. – Oxford : Oxford University Press, 1996. – 272 p.
6. Halliday, M. A. K. Halliday's introduction to functional grammar / M. A. K. Halliday, C. Matthiessen. – 4th ed. – London : Routledge, 2014. – 808 p.
7. Jeffries, L. Critical stylistics: The power of English. – London : Palgrave Macmillan, 2010. – 208 p.
8. Lakoff, G. Metaphors we live by / G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago : University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
9. Leech, G. N. Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose / G. N. Leech, M. Short. – 2nd ed. – London : Pearson Longman, 2007. – 404 p.

Farmonov Bahodir Do‘stmurodovich
Qarshi davlat texnika universiteti, "Xorijiy tillar" kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: fdbahodir@88gmail.com,
Jumanazarov Samandar Urinovich
Qarshi davlat texnika universiteti, "Xorijiy tillar" kafedrasi dotsenti
E-mail: jumanazarovsamandar45@gmail.com

TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA AMALDA FOYDALANILAYOTGAN O‘QUV MATERIALLARNING TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan o‘quv materiallarining hozirgi holati va samaradorligi o‘rganiladi. Hozirgi davrimizdagi globallashuv, texnologik taraqqiyot va xalqaro miqyosda malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning ortib borishi sharoitida ingliz tilini bilish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Tadqiqotda mavjud o‘quv materiallarining, jumladan, darsliklar, raqamli resurslar va qo‘shimcha vositalarning kommunikativ va professional kompetensiyalarni rivojlantirishdagi dolzarbligi, mazmuni va pedagogik qiymati tahlil qilinadi. Ushbu materiallarni zamonaviy ta’lim standartlari, sanoat talablari va xorijiy tillarni o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan milliy islohotlarga moslashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Yaqinda yurtimizdagi hukumat qarorlari va strategik rivojlanish dasturlariga asoslanib, maqolada mavjud kamchiliklar aniqlangan va kelajakdagi transport muhandislarining ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun o‘quv materiallarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi, ingliz tilini o‘qitish, o‘quv materiallari, professional kompetensiya, kommunikativ ko‘nikmalar, o‘quv dasturlarini tahlil qilish, raqamli resurslar, ta‘lim islohotlari, O‘zbekiston ta’lim siyosati.*

ANALYSIS OF EDUCATIONAL MATERIALS PRACTICALLY USED IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES FOR STUDENTS OF THE TRANSPORT VEHICLE ENGINEERING EDUCATION PROGRAM

Abstract. *This article examines the current state and effectiveness of educational materials used in English language classes for students of the transport engineering specialty. In the current era of globalization, technological progress and the increasing demand for internationally qualified specialists, knowledge of the English language has become an important component of professional training. The study analyzes the relevance, content and pedagogical value of existing educational materials, including textbooks, digital resources and additional tools, in the development of communicative and professional competencies. Particular attention is paid to adapting these materials to modern educational standards, industry requirements and national reforms aimed at improving foreign language teaching. Based on recent government decisions and strategic development programs in our country, the article identifies existing shortcomings and provides recommendations for optimizing educational materials to better meet the needs of future transport engineers.*

Keywords: *Transport engineering education, English language teaching, teaching materials, professional competence, communicative skills, curriculum analysis, digital resources, educational reforms, educational policy of Uzbekistan.*

АНАЛИЗ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ НА ПРАКТИКЕ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ «ИНЖЕНЕРИЯ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ»

Аннотация. *В данной статье рассматривается современное состояние и эффективность учебных материалов, используемых на уроках английского языка для студентов специ-*

альности «транспортное машиностроение». В современную эпоху глобализации, технологического прогресса и растущего спроса на квалифицированных специалистов международного уровня знание английского языка стало важной составляющей профессиональной подготовки. В исследовании анализируется актуальность, содержание и педагогическая ценность существующих учебных материалов, включая учебники, цифровые ресурсы и дополнительные инструменты, в развитии коммуникативных и профессиональных компетенций. Особое внимание уделяется адаптации этих материалов к современным образовательным стандартам, требованиям отрасли и национальным реформам, направленным на совершенствование преподавания иностранных языков. На основе последних решений правительства и стратегических программ развития страны в статье выявляются существующие недостатки и даются рекомендации по оптимизации учебных материалов для лучшего удовлетворения потребностей будущих инженеров-транспортников.

Ключевые слова: *Транспортное машиностроение, преподавание английского языка, учебные материалы, профессиональная компетенция, коммуникативные навыки, анализ учебных программ, цифровые ресурсы, образовательные реформы, образовательная политика Узбекистана.*

Kirish. So‘nggi yillarda fan, texnologiya va xalqaro hamkorlikning jadal rivojlanishi nafaqat o‘z professional sohalarida, balki xorijiy tillarda, xususan, ingliz tilida ham malakali yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Bu tendentsiya transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ayniqsa dolzarbdir, chunki ularning kelajakdagi professional faoliyati xalqaro logistika tizimlari, global transport infratuzilmasi va transchegaraviy hamkorlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasi va xorijiy tillarni o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi kabi Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va professional yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhimligi ta’kidlangan. Ushbu siyosat hujjatlari ta’lim mazmunini xalqaro standartlar va mehnat bozori talablariga moslashtirish, bitiruvchilarning ham tilshunoslik, ham professional kompetensiyalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi.

Ushbu islohotlarga qaramay, ingliz tilini o‘qitish samaradorligi ko‘p jihatdan sinfda qo‘llaniladigan o‘quv materiallarining sifati va dolzarbligiga bog‘liq. Transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv materiallari nafaqat umumiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishi, balki ixtisoslashgan terminologiya, real hayotdagi professional kontekstlar va o‘z sohasiga tegishli amaliy muloqot vazifalarini ham o‘z ichiga olishi juda muhimdir. Maqolaning mavzusi transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida hozirda qo‘llaniladigan o‘quv materiallarini tahlil qilishdir. Tadqiqot ularning mazmuni, tuzilishi, metodologik yondashuvlari va talabalarning kommunikativ va professional kompetentsiyalarini rivojlantirish qobiliyatiga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadlari - mavjud o‘quv materiallarining dolzarbligi va samaradorligini baholash, zamonaviy ta’lim talablari kontekstida ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularning hozirgi ta’lim islohotlari va normativ hujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish va transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili o‘qitish materiallari sifatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi texnik oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish zaruratida, kelajakdagi mutaxassislarning tobora globallashib borayotgan dunyoda professional muloqotga yaxshi tayyorlanishini ta’minlashda yotadi.

Adabiyotlar sharhi. Texnika sohasidagi talabalar, xususan, transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi sohasida ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish masalasi ham xalqaro, ham o‘zbek ilmiy adabiyotlarida keng muhokama qilingan. Zamonaviy tadqiqotlar professional materialni chet tilini o‘qitishga integratsiya qilishning muhimligini ta’kidlaydi, bu talabalarning nafaqat umumiy

lingvistik kompetentsiyani, balki transport sohasi vakillarining maxsus professional sohalarida samarali muloqot qilish qobiliyatini ham egallashlarini ta'minlaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda material va tilni integratsiyalashgan o'qitish kontseptsiyasi katta e'tiborga sazovor bo'ldi. D. Marsh va Coyle, Hood va Marsh kabi tadqiqotchilar fanga xos materialni tilni o'rganish bilan integratsiya qilish ham kognitiv rivojlanishni, ham professional kompetentsiyani oshiradi, deb ta'kidlaydilar[1]. Ularning natijalariga ko'ra, tilni integratsiyalashgan o'qitish asosidagi materiallar bilan tanishgan talabalar an'anaviy tilni o'qitish usullariga nisbatan yuqori motivatsiya va ixtisoslashgan terminologiyani yaxshiroq eslab qolishlarini namoyish etadilar.

Xuddi shunday, H. D. Brown[2] va J. C. Richards[3] tomonidan muhokama qilinganidek, kommunikativ til o'qitish yondashuvi haqiqiy va kontekstga asoslangan materiallardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Bu olimlar o'quv resurslari, ayniqsa transport va logistika kabi texnik sohalarda, real hayotdagi professional vaziyatlarni aks ettirishi kerakligini ta'kidlaydilar. Asl matnlar, amaliy tadqiqotlar va simulyatsiyalardan foydalanish kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun juda muhim deb hisoblanadi.

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) sohasida T. Dudley-Evans[4] va M. J. St John[5] o'quv materiallari o'quvchilarning professional ehtiyojlariga moslashtirilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari samarali o'quv materiallarini ishlab chiqishda ehtiyojlarni tahlil qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Transport muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun bu logistika, infratuzilma, xavfsizlik standartlari va xalqaro qoidalarga tegishli terminologiyani kiritishni anglatadi.

So'nggi global tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalarning til ta'limida ortib borayotgan rolini ta'kidlaydi. Chapelle va Godwin-Jones ma'lumotlariga ko'ra, raqamli platformalar, onlayn korpuslar va interaktiv vositalar asl materiallarga kirishni ta'minlash va mustaqil o'qishni rag'batlantirish orqali til o'rganish natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu topilmalar, ayniqsa, ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kontekstida dolzarbdir[6].

O'zbekistonda davlat siyosati va islohotlari orqali xorijiy tillar ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Prezidentning PQ-1875-sonli "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni milliy ta'lim tizimida burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu hujjatda ilg'or o'qitish usullari, zamonaviy o'quv materiallari va multimedia resurslarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan[7].

Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risidagi PF-5847-sonli Prezident farmonida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarni integratsiya qilish va talabalar o'rtasida chet tillarini bilish darajasini oshirish kabi strategik ustuvorliklar belgilangan. Farmonda o'quv dasturlari va o'quv materiallarini global talablarga muvofiq yangilash zarurligi alohida ta'kidlangan[8].

2030-yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida ham kompetentsiyaga asoslangan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashning ahamiyati ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, chet tillarini o'qitish, ayniqsa texnik sohalarda, kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

O'zbek olimlari ham bu sohaga o'z hissalarini qo'shdilar. N. X. Xoliqov[9], Sh.S. Sattorov[10] va M. R. Usmonova[11] professional til ta'limi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va filologiyaga ixtisoslashmagan talabalarga ingliz tilini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish bilan bog'liq masalalarni o'rganib chiqdilar. Ularning ishlari mavjud o'quv materiallarining yetarli emasligini, xususan, kasbga yo'naltirilgan materialning yo'qligini va interaktiv usullardan yetarlicha foydalanilmaganligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda foydalanilayotgan ko'plab darsliklar transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalarining ehtiyojlariga to'liq moslashtirilmagan. Ular ko'pincha ixtisoslashgan til ko'nikmalariga emas, balki umumiy ingliz tiliga qaratilgan bo'lib, bu talabalarning professional sharoitlarda samarali ishlash qobiliyatini cheklaydi.

Shunday qilib, xalqaro va milliy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsada, o'quv materiallarining sifati va dolzarbligi bilan bog'liq muhim muammolar saqlanib qolmoqda. Tilni integratsiyalashgan o'qitish

va ESP yondashuvlarining integratsiyasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va milliy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish keyingi rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

Metodologiya. Ushbu ilmiy maqolada transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan o‘quv materiallarini har tomonlama va obyektiv tahlil qilishni ta’minlash uchun sifatli va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalangan tadqiqot dizayni qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvni tanlash tadqiqot muammosining murakkabligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ham statistik baholashni, ham chuqur pedagogik talqinni talab qiladi.

Tadqiqot O‘zbekistondagi transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan bir nechta oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkazildi. Namuna ingliz tili o‘qituvchilari va transport bilan bog‘liq dasturlarda tahsil olayotgan bakalavr talabalarini o‘z ichiga oldi. To‘plangan ma’lumotlarning dolzarbligi va ishonchliligini ta’minlash uchun o‘qitish va o‘rganish jarayonida bevosita ishtirok etadigan ishtirokchilarni tanlash uchun maqsadli namuna olish usuli qo‘llanildi.

Ma’lumotlarni to‘plash bir nechta usullar orqali amalga oshirildi. Birinchidan, mavjud o‘quv materiallarining mazmun tahlili o‘tkazildi. Ushbu materiallar rasman tavsiya etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv dasturlari va hozirda ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan raqamli resurslarni o‘z ichiga oldi. Tahlil professional terminologiyaning mavjudligi, transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi kontekstlariga mos kelishi, kommunikativ yo‘nalish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash, milliy ta‘lim standartlari va so‘nggi islohotlarga muvofiqligi kabi asosiy mezonlarga qaratildi. Ikkinchidan, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘quv materiallarining samaradorligi, mavjudligi va amaliy qiymati haqidagi tasavvurlari haqida miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash uchun so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar yopiq va Likert shkalasida savollarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu javoblarni statistik tahlil qilish imkonini berdi. Bundan tashqari, tanlangan o‘qituvchilar bilan o‘quv materiallarini tanlash va ulardan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklar, shuningdek, ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lish uchun yarim tuzilgan intervyular o‘tkazildi. Uchinchidan, o‘quv materiallarining amalda qanday qo‘llanilishini o‘rganish uchun sinfda kuzatuvlar o‘tkazildi. Ushbu usul materiallarning kommunikativ o‘zaro ta‘sir, talabalarning ishtiroki va professional til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qay darajada yordam berishini baholash imkonini berdi. Kuzatuv protokollari zamonaviy pedagogik mezonlar, jumladan, talabaga yo‘naltirilgan o‘rganish, vazifaga asoslangan o‘qitish va raqamli vositalardan foydalanish asosida ishlab chiqildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni ham miqdoriy, ham sifat jihatidan texnikalarni o‘z ichiga oldi. So‘rovnomalardan olingan miqdoriy ma’lumotlar umumiy tendentsiyalar va naqshlarni aniqlash uchun foizlar va o‘rtacha qiymatlarni o‘z ichiga olgan tavsifiy statistika yordamida tahlil qilindi. Suhbatlar va kuzatishlardan olingan sifatli ma’lumotlar tematik tahlil yordamida tahlil qilindi, bu takrorlanuvchi mavzular, muammolar va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosi xorijiy tillarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlarga, jumladan, kommunikativ til o‘qitish, mazmun va til integratsiyasi asosidagi o‘qitish va kompetensiyaga asoslangan ta‘limga asoslangan. Bundan tashqari, tadqiqotda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va talabalar o‘rtasida xorijiy tillarni bilish darajasini oshirishga qaratilgan so‘nggi milliy siyosat hujjatlari va ta‘lim islohotlari tomonidan belgilangan talablar hisobga olinadi.

Tadqiqotning haqiqiyligi va ishonchliligini ta‘minlash uchun turli manbalar va usullardan olingan natijalarni taqqoslash orqali ma’lumotlar triangulyatsiyasi qo‘llanildi. Shuningdek, ixtiyoriy ishtirok, respondentlarning anonimligi va to‘plangan ma’lumotlarning maxfiyligi kabi axloqiy jihatlar ham hisobga olindi.

Umuman olganda, ushbu metodologiya o‘quv materiallarini tizimli va ko‘p o‘lchovli tahlil qilishni ta‘minlaydi, bu esa asosiy muammolarni aniqlash va transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishi ta‘limida ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida hozirda qo‘llaniladigan o‘quv materiallari zamonaviy ta‘lim talablariga qisman mos keladi, ammo, bir qator muhim bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Darsliklar, o‘quv dasturlari va raqamli resurslarni tahlil qilish, shuningdek, so‘rovnoma

va kuzatish ma'lumotlari asosida ko'pgina materiallar hali ham asosan maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) emas, balki umumiy ingliz tiliga yo'naltirilganligi aniqlandi. Ular asosiy tilshunoslik ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shsada, transport muhandisligi ta'lim yo'nalishi sohasida talab qilinadigan professional kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga unchalik ta'sir qilmaydi.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning katta qismi logistika, transport tizimlari va muhandislik jarayonlari bilan bog'liq ixtisoslashgan terminologiyani tushunish va ulardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilar mavjud o'quv materiallarida amaliy tadqiqotlar, texnik hujjatlar va real hayotdagi muloqot stsenariylari kabi haqiqiy professional kontekstlar yo'qligini ta'kidlaydilar. Sinfdagi kuzatuvlar kasbga yo'naltirilgan vazifalarning cheklangan integratsiyasi talabalarning ishtirokini kamaytiradi va amaliy tildan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi, degan fikrni yana bir bor tasdiqladi.

Global miqyosda, texnik sohalarda ingliz tilini o'qitish so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari ESP va material va tilni integratsiyalashgan o'qitish yondashuvlarini faol ravishda joriy etib, til o'qitishning professional fanlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlamoqda. Yevropa va Osiyodagi universitetlar tobora ko'proq fanlararo o'quv dasturlaridan foydalanmoqdalar, bu yerda ingliz tili ta'minot zanjiri boshqaruvi, aqlli mobillik va barqaror infratuzilma kabi transport bilan bog'liq material orqali o'qitiladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish ta'lim sifatini oshirishda asosiy omilga aylandi. Onlayn platformalar, virtual simulyatsiyalar va AI asosidagi o'quv vositalaridan foydalanish talabalarga haqiqiy materiallar bilan o'zaro aloqada bo'lish va yanada dinamik muhitda professional muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda raqamli ta'limni kengaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va yangi avlod darsliklarini ishlab chiqishga qaratilgan qo'shimcha tashabbuslar va davlat dasturlari amalga oshirildi. Masalan, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar elektron resurslarni, aralash o'quv muhitlarini yaratishni va xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rag'batlantiradi. Ushbu chora-tadbirlar milliy ta'lim va global standartlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan.

Biroq, ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transport muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ixtisoslashtirilgan ingliz tili o'quv materiallarini ishlab chiqish va joriy etish hali ham ushbu strategik maqsadlardan orqada qolmoqda. Ko'pgina mavjud darsliklar eskirgan yoki O'zbekiston sharoiti va sanoat ehtiyojlariga yetarlicha moslashtirilmagan.

Xususan, transport muhandisligi ta'lim yo'nalishidagi zamonaviy tendentsiyalarni aks ettiruvchi materiallar, masalan, intellektual transport tizimlari, yashil logistika va xalqaro xavfsizlik qoidalari yetishmaydi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, asosiy muammolardan biri til o'qitishning professional fanlar bilan integratsiyalashuvining yetarli emasligidadir. Siyosat hujjatlarida kompetensiyaga asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati aniq ta'kidlangan bo'lsada, ularni joriy etish hali to'liq amalga oshirilmagan. Bu o'quv natijalari va talabalar tomonidan olingan haqiqiy kompetensiyalar o'rtasida tafovut yaratadi. Shu bilan birga, ijobiy tendentsiyalarni kuzatish mumkin. Ba'zi oliy ta'lim muassasalari ESP asosidagi kurslarni joriy etishni, mahalliy moslashtirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqishni va loyihaga asoslangan o'qitish, rolli o'yinlar va amaliy tadqiqotlar kabi interaktiv usullardan foydalanishni boshladilar. Ushbu yondashuvlar talabalarning motivatsiyasini oshirish va kommunikativ kompetensiyani yaxshilashda istiqbolli natijalarni ko'rsatdi.

Bir so'z bilan aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global miqyosda ham, o'zbekistonda ham jiddiy islohotlar va davom etayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan o'quv materiallarining sifati va dolzarbligini oshirish zarurati hali ham mavjud. ESP va material va tilni integratsiyalashgan o'qitish yondashuvlarini jadallashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va milliy siyosat va xalqaro standartlarga mos ravishda kontekstga xos o'quv resurslarini ishlab chiqish ushbu maqsadga erishish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Xulosa va tavsiyalar. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan o'quv

materiallarining sifati, dolzarbligi va professional yo‘nalishiga bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekistonda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud o‘quv resurslari hali ham zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Xususan, kasbga yo‘naltirilgan materialning noaniq integratsiyasi, asl materiallardan cheklangan foydalanish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan yetarlicha mos kelmasligi ingliz tilini o‘qitishning umumiy samaradorligini pasaytiradi.

Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitishni yaxshilash uchun transport va logistika sohasidagi ixtisoslashgan terminologiya, haqiqiy texnik matnlar va real muloqot vaziyatlarini o‘z ichiga olgan ko‘proq kasbga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish zarur. Bu talabalarga til o‘rganishni kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan yaxshiroq bog‘lashga yordam beradi.

Shuningdek, talabalar professional materialni ingliz tilida samaraliroq o‘rganishlari uchun fanlararo va material va tilni integratsiyalashgan o‘qitish asosidagi yondashuvlar orqali ingliz tilini asosiy muhandislik fanlari bilan integratsiyalashni kuchaytirish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarning faolligini oshirish va o‘quv natijalarini yaxshilash uchun onlayn platformalar, multimedia resurslari va interaktiv vazifalar kabi zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaytirilishi kerak. o‘qituvchilar zamonaviy, amaliyotga yo‘naltirilgan darslarni samarali o‘tkazishni ta‘minlash uchun, ayniqsa, ESP metodologiyasi va raqamli o‘qitish vositalarida o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirishlari kerak. Shu bilan birga, o‘quv materiallari transport muhandisligi ta’lim yo‘nalishidagi zamonaviy o‘zgarishlar va xalqaro standartlarga muvofiq doimiy ravishda yangilanib turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Coyle, D. Content and Language Integrated Learning / D. Coyle, P. Hood, D. Marsh. – Cambridge : Cambridge University Press, 2010. – 170 p.

2. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching / H. D. Brown. – 5th ed. – New York : Pearson Education, 2007. – 410 p.

3. Richards, J. C. Communicative Language Teaching Today / J. C. Richards. – Cambridge : Cambridge University Press, 2006. – 116 p.

4. Dudley-Evans, T. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach / T. Dudley-Evans, M. J. St John. – Cambridge : Cambridge University Press, 1998. – 301 p.

5. Godwin-Jones, R. Emerging Technologies for Language Learning / R. Godwin-Jones. – Cambridge : Cambridge University Press, 2018. – 198 p.

6. Chapelle, C. A. Teaching Culture in Introductory Foreign Language Textbooks / C. A. Chapelle. – London : Routledge, 2017. – 220 p.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori. Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2012. – № 51. – 512-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 09.10.2019-y., 06/19/5847/3874-son.

9. Xalikov, N. X. Kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish metodikasi / N. X. Xalikov. – Toshkent : Fan, 2018. – 156 b.

10. Sattorov, Sh. S. Oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitishning innovatsion usullari / Sh. S. Sattorov. – Toshkent : O‘qituvchi, 2020. – 142 b.

11. Usmonova, M. R. Noan’anaviy ta’lim texnologiyalari asosida chet tillarni o‘qitish / M. R. Usmonova. – Toshkent : Ilm Ziyo, 2021. – 134 b.

Turg‘unpo‘latova Musharraf
Namangan davlat universiteti doktoranti

O‘SMIRLAR IJTIMOIY XULQ-ATVORINING PSIXOLOGIK DETERMINANT-LARI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlar ijtimoiy xulq-atvorining psixologik determinantlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O‘smirlik davrida shaxsning o‘zlikni anglash jarayoni, motivatsion ehtiyojlari, emotsional va kognitiv rivojlanish xususiyatlari hamda ijtimoiy muhit ta’siri asosiy omillar sifatida yoritiladi. Shuningdek, o‘smirlar xulqining shakllanishida tengdoshlar guruhi va oilaviy muhitning o‘rni ochib beriladi. Tadqiqotda psixolog olimlarning nazariyalari asosida o‘smirlarning ijtimoiy xulqini belgilovchi ichki va tashqi omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, ijtimoiy xulq, psixologik determinantlar, shaxs rivojlanishi, o‘zlikni anglash, motivatsiya, emotsional rivojlanish, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muhit, tengdoshlar ta’siri, oilaviy tarbiya, ijtimoiylashuv.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕТЕРМИНАНТ СОЦИАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические детерминанты социального поведения подростков с научно-теоретической точки зрения. Освещаются такие ключевые факторы, как формирование самосознания в подростковом возрасте, мотивационные потребности, особенности эмоционального и когнитивного развития, а также влияние социальной среды. Особое внимание уделяется роли семьи и группы сверстников в формировании социального поведения подростков. На основе теоретических подходов известных психологов проводится системный анализ внутренних и внешних факторов, определяющих поведение подростков в обществе.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, социальное поведение, психологические детерминанты, развитие личности, самосознание, мотивация, эмоциональное развитие, когнитивное развитие, социальная среда, влияние сверстников, семейное воспитание, социализация.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF THE PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF ADOLESCENTS’ SOCIAL BEHAVIOR

Abstract. *This article discusses examines the psychological determinants of adolescents’ social behavior from a scientific and theoretical perspective. Key factors such as the formation of self-awareness during adolescence, motivational needs, characteristics of emotional and cognitive development, and the influence of the social environment are discussed. Special attention is given to the role of family and peer groups in shaping adolescents’ social behavior. Based on the theoretical approaches of prominent psychologists, the study provides a systematic analysis of internal and external factors that determine adolescents’ behavior in society.*

Keywords: *adolescence, social behavior, psychological determinants, personality development, self-awareness, motivation, emotional development, cognitive development, social environment, peer influence, family upbringing, socialization.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o‘smirlar xulq-atvorining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.Ayniqsa,globallashuv,axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o‘smirlarning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.Shu nuqtai nazardan,o‘smirlar ijtimoiy xulq-atvorining psixologik determinantlari o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.O‘smirlar ijtimoiy o‘z xulqini namoyon etishining psixologik determinantlari murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki psixik rivojlanishi hamda tashqi ijtimoiy muhit ta’siri

asosida shakllanadi. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib,bu davrda individning o‘zini anglash darajasi,ijtimoiy rollarni qabul qilishi va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri faol shakllanadi.O‘smirlik davri inson hayotida o‘tish bosqichi hisoblanib, bu davrda bola asta-sekin kattalar dunyosiga kirib boradi, o‘z “Men”ini anglay boshlaydi va jamiyatdagi o‘rnini izlaydi. Shu sababli aynan ushbu davrda ijtimoiy xulqni belgilovchi psixologik omillar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Avvalo, o‘smir shaxsining markaziy psixologik determinantlaridan biri bu - o‘zlikni anglash va “Men” konsepsiyasining shakllanishidir. O‘smir o‘zini shaxs sifatida baholashga, o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari va ijtimoiy rolini tushunishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini baholash darajasi uning xulq-atvorida bevosita aks etadi: yuqori o‘zini baholash ishonchli va faol ijtimoiy xulqqa olib kelsa, past o‘zini baholash tortinchoqlik, ijtimoiy chekinish yoki aksincha, agressiv reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchi muhim omil - motivatsion sohadir. O‘smirlar uchun tan olinishi, hurmat qozonishi, tengdoshlar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish ehtiyoji juda kuchli bo‘ladi. Ular mustaqillikka intiladi, o‘z fikrini himoya qilishga harakat qiladi. Shu ehtiyojlar ularning ijtimoiy xulqini boshqaradi: masalan, guruh tomonidan qabul qilinish istagi ba’zan o‘smirni o‘z qarashlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarga ham undashi mumkin.

Emotsional rivojlanish ham o‘smir xulqining muhim determinantidir. Bu davrda hissiyotlar kuchli, tez o‘zgaruvchan va ba’zan nazoratsiz bo‘ladi. O‘smirlar ko‘pincha impulsiv qarorlar qabul qiladi, bu esa ijtimoiy vaziyatlarda turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmasi hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ular tanqidni og‘ir qabul qiladi yoki keskin reaksiya bildiradi.

Kognitiv rivojlanish darajasi ham ijtimoiy xulqni belgilaydi. O‘smirlik davrida abstrakt fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va kelajakni tasavvur etish qobiliyatlari rivojlanadi. Shunga qaramay, xavf-xatarni to‘liq baholash va uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olish ko‘nikmalari hali yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Bu esa ayrim hollarda tavakkalchilikka moyillikni kuchaytiradi.

O‘smirlar xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan yana biri - tengdoshlar muhitidir. Do‘stlar va sinfdoshlar fikri o‘smir uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u ko‘pincha ularning bahosiga qarab o‘z xulqini moslashtiradi. Guruhga moslashish istagi (konformizm) kuchli bo‘ladi, bu esa ijobiy muhitda ijobiy xulqni, salbiy muhitda esa deviant xatti-harakatlarni shakllantirishi mumkin.

Oilaviy muhit ham hal qiluvchi determinantlardan biridir. Ota-onaning tarbiya uslubi, oiladagi psixologik iqlim, qo‘llab-quvvatlash darajasi o‘smirning ijtimoiy xulqiga bevosita ta’sir qiladi. Mehr-muhabbat va tushunishga asoslangan oilada voyaga yetgan o‘smirlar odatda ijtimoiy jihatdan faol va moslashuvchan bo‘ladi. Aksincha, ziddiyatli yoki befarq muhit agressivlik, isyonkorlik yoki ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy o‘rganish jarayoni ham muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlar atrofdagilarni kuzatish, ularga taqlid qilish orqali xulq shakllarini o‘zlashtiradi. Mukofot va jazolar esa bu xulqni mustahkamlaydi yoki o‘zgartiradi. Zamonaviy axborot vositalari va internet ham o‘smirlarning ijtimoiy xulqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘smirlar ijtimoiy xulqining psixologik determinantlari masalasi ko‘plab mashhur psixolog olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ushbu muammo shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, motivatsiya va xulq-atvor nazariyalari doirasida keng tahlil qilingan bo‘lib, turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlangan. Avvalo, bu sohada muhim o‘rin tutgan olimlardan biri - Erik Erikson hisoblanadi. U o‘zining psixosotsial rivojlanish nazariyasida o‘smirlik davrini “identifikatsiya va rol chalkashligi” bosqichi sifatida tavsiflaydi. Eriksonning fikricha, aynan o‘smirlik davrida shaxs o‘z “Men”ini anglashga, jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. Agar bu jarayon muvaffaqiyatli kechsa, shaxsda barqaror identifikatsiya shakllanadi, aks holda esa ichki ziddiyatlar va ijtimoiy moslashuv muammolari yuzaga keladi. Bu esa o‘smirning ijtimoiy xulqida beqarorlik, isyonkorlik yoki passivlik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Yana bir muhim olim - Jean Piaget bo‘lib, u kognitiv rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. Piagetga ko‘ra, o‘smirlik davrida shaxs “formal operatsiyalar” bosqichiga o‘tadi, ya’ni abstrakt fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va ehtimoliy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu jarayon o‘smirning ijtimoiy xulqiga ta’sir qilib, u o‘z harakatlarining oqibatlarini anglay boshlaydi, lekin bu qobiliyat hali to‘liq mukammal bo‘lmagani sababli ba’zan noto‘g‘ri qarorlar ham

qabul qilinadi. V.V.Stolin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘rganilgan o‘smirlar guruhida deviant xulq-atvorga moyillik mavjudligi aniqlangan. Bu holatlar asosan tamaki chekish, alkogol iste’moli, psixoaktiv moddalarni qo‘llash kabi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ayrim o‘smirlarda suitsidal xulq-atvorga moyillik va ijtimoiy me’yorlarni buzish holatlari ham kuzatilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘smirlarning o‘zini-o‘zi yemiruvchi xulq-atvorida quyidagi ijtimoiy-psixologik determinantlar ustuvor ahamiyatga ega ekani aniqlangan: ota-onalarning o‘smirga nisbatan keskin salbiy munosabati, moslashuv (adaptatsiya) muammolari, zaif va ziddiyatli o‘z-o‘ziga munosabat, hamda samarasiz muloqot uslublariga yo‘nalganlik.

O‘smirlar xulqini tushuntirishda Lev Vigotsky ning sotsiokultural nazariyasi ham katta ahamiyatga ega. Vigotskiy shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniyatning rolini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘smirlarning ijtimoiy xulqi atrof-muhit, ayniqsa, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Til, muloqot va hamkorlik orqali o‘smir ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi va bu uning xulqida aks etadi. Shuningdek, Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi ham ushbu mavzuda muhim hisoblanadi. Bandura o‘smirlar xulqi kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanishini isbotlab bergan. Uning “model orqali o‘rganish” g‘oyasiga ko‘ra, o‘smirlar ota-onalar, o‘qituvchilar, do‘stlar yoki ommaviy axborot vositalaridagi obrazlarga taqlid qiladi. Agar ma’lum xatti-harakat mukofot bilan mustahkamlanadigan bo‘lsa, u tezroq o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, Zigmund Freydning psixoanalitik yondashuvi ham o‘smir xulqini tushuntirishda qo‘llaniladi. Freyd inson xulqini ongsiz instinktlar, ichki ziddiyatlar va bolalik tajribasi bilan bog‘laydi. O‘smirlik davrida ichki psixik kuchlar (id, ego, superego) o‘rtasidagi muvozanat buzilishi mumkin, bu esa turli emotsional va xulqiy muammolarga olib keladi. Yana bir muhim tadqiqotchi - Lawrence Kohlberg bo‘lib, u axloqiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan. Kohlberg o‘smirlik davrida axloqiy tafakkur yuqori bosqichga o‘tishini ta’kidlaydi. O‘smirlar jamiyat qoidalarini tushunibgina qolmay, ularni tanqidiy baholay boshlaydi. Bu esa ularning ijtimoiy xulqida mustaqillik va prinsipiallikni kuchaytiradi. O‘smirlik davri shaxsning ijtimoiy xulq-atvori shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda individning jamiyat bilan o‘zaro munosabati, qadriyatlari, motivlari va xulq-atvor modeli faol shakllanadi. O‘smirlar ijtimoiy xulq-atvoriga bir qator psixologik determinantlar ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi muhim determinant - shaxsiy o‘zlikni anglash (identiklik)dir. O‘smir o‘z “men” obrazini shakllantirish jarayonida jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bu davrda “identiklik inqirozi” yuz beradi va shaxs o‘zligini topishga intiladi. Bu jarayon ijtimoiy xulq-atvorning asosini belgilaydi.

Ikkinchi determinant - tengdoshlar guruhi (peer group) ta’siri. O‘smirlar ko‘pincha do‘stlari va tengdoshlarining fikriga katta ahamiyat beradilar. Guruh ichidagi me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellari o‘smirning ijtimoiy harakatlarini belgilaydi.

Uchinchi determinant - oila muhiti va tarbiya uslubi hisoblanadi. Oiladagi emotsional iqlim, ota-onaning nazorati va qo‘llab-quvvatlashi o‘smirning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir qiladi. Demokratik tarbiya uslubi ijtimoiy faollikni oshirsa, haddan tashqari nazorat yoki befarqlik salbiy xulq-atvorni kuchaytirishi mumkin.

To‘rtinchi determinant - shaxsning motivatsion tizimi va ehtiyojlaridir. O‘smirlar e’tirof etilish, mustaqillik va o‘zini tasdiqlash ehtiyojiga ega bo‘ladilar. Bu ehtiyojlar ularning ijtimoiy harakatlarini boshqaradi va turli vaziyatlarda qaror qabul qilishiga ta’sir qiladi.

Beshinchi determinant - emosional barqarorlik va temperament xususiyatlaridir. Hissiy beqarorlik, impulsivlik yoki aksincha, barqarorlik o‘smirning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi muhim psixologik omillardir.

Oltinchi determinant - ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlardir. Jamiyatdagi me’yorlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy kutishlar o‘smir xulq-atvorining yo‘nalishini shakllantiradi.

Demak, o‘smirlar ijtimoiy xulq-atvori ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda identiklik, tengdoshlar ta’siri, oila muhiti, motivatsiya, emotsional holat va ijtimoiy qadriyatlar muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarni kompleks o‘rganish o‘smir shaxsining ijobiy ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar ijtimoiy xulq-atvori birgina omil bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixologik determinantlar majmuasi orqali shakllanadi. Eng muhim natijalardan biri - o‘zlikni anglash darajasi o‘smirning jamiyatdagi xulqini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligidir. O‘zini ijobiy baholovchi o‘smirlar ko‘proq ijtimoiy faol, muloqotga ochiq va moslashuvchan bo‘lishi aniqlangan.

Shuningdek, motivatsion ehtiyojlar, ayniqsa, tengdoshlar tomonidan tan olinishi va qabul qilinishi ehtiyoji, o‘smirlarning xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi kuzatiladi. Emotsional beqarorlik esa ularning qaror qabul qilish jarayonida impulsivlikni oshiradi. Kognitiv rivojlanish darajasi oshgani sari o‘smirlar o‘z harakatlarining oqibatlarini anglashga harakat qilsa-da, bu jarayon to‘liq shakllanmaganligi sababli ba’zi xatoli xulq shakllari saqlanib qoladi.

Muhokama. Olingan natijalar psixologik nazariyalar bilan mos keladi va ularni tasdiqlaydi. Xususan, o‘zlikni anglash va identifikatsiya jarayonining muhimligi psixosotsial rivojlanish yondashuvlari bilan uyg‘unlashadi. Bu o‘smirlik davrida shaxsning ichki ziddiyatlari va o‘zini topish jarayoni ijtimoiy xulqqa bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, kognitiv rivojlanish bilan bog‘liq jihatlar o‘smirlarning qaror qabul qilishidagi o‘ziga xosliklarni tushuntiradi. Ular mantiqiy fikrlashga qodir bo‘lsalar-da, tajriba yetishmasligi sababli xavfli yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu holat tarbiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida tengdoshlar ta’sirining kuchliligi alohida e’tiborga loyiqdir. O‘smirlar ko‘pincha o‘z xulqini guruh talablariga moslashtiradi, bu esa ijtimoiylashuv jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi. Biroq bu holat nazorat qilinmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar tomonidan sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish muhim vazifa hisoblanadi. O‘smirlar ijtimoiy xulq-atvorining psixologik determinantlari - bu ichki (xarakter aktsentuatsiyalari, o‘z-o‘zini baholash, qadriyatlar) va tashqi (oila, tengdoshlar, maktab) omillar majmuasi bo‘lib, ular o‘smirlarning xatti-harakatlarini belgilaydi. Asosiy omillar sifatida o‘smirlik inqirozi, identiklikni izlash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar guruhiga yuqori darajada moslashuv (konformlik), emotsional beqarorlik hamda raqamli muhit ta’siri ko‘rsatiladi. Psixologik determinantlarning asosiy guruhlari shaxsiy xususiyatlar (past o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga ishonchsizlik, o‘zini yetarli emas deb his qilish kompleksi), xarakter aktsentuatsiyalari (gipertimlik, qo‘zg‘aluvchanlik, namoyishkorlik, xavotirchanlik) va emotsional soha (senzitivlik, emotsional beqarorlik, yuqori qo‘zg‘aluvchanlik)ni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-psixologik omillarga tengdoshlar ta’siri (konformlik, e’tirof etilish ehtiyoji, submadaniyatlarning ta’siri), oilaviy omillar (nizolar, noqulay muhit, giperopeka yoki nazorat yetishmasligi), maktab muhiti (moslashuv qiyinchiliklari, o‘qituvchilar bilan nizolar) va qadriyatlar tizimi (axloqiy identiklik va ichki qadriyatlar shakllanishi) kiradi. O‘smirlar xulq-atvori prosotsial yo‘nalishda ham namoyon bo‘lib, bu rivojlangan axloqiy identiklik, ijtimoiy ko‘nikmalar va ijobiy qadriyatlar bilan bog‘liqdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarning ijtimoiy xulqi turli psixologik determinantlar - o‘zlikni anglash, motivatsiya, emotsional va kognitiv rivojlanish, tengdoshlar va oilaviy muhit ta’sirining o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllanadi. Ushbu omillarni chuqur tushunish o‘smirlar bilan samarali pedagogik va psixologik ish olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company, 1968.
2. Piaget, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1969.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
4. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
5. Freud, S. The Ego and the Id. London: Hogarth Press, 1923.
6. Kohlberg, L. The Philosophy of Moral Development. San Francisco: Harper & Row, 1981.
7. Berk, L. E. Development Through the Lifespan. Pearson Education, 2018.
8. Santrock, J. W. Adolescence. McGraw-Hill Education, 2021.
9. Feldman, R. S. Development Across the Life Span. Pearson, 2019.
10. Myers, D. G. Psychology. Worth Publishers, 2020.

Qosimov Shavkat Urolovich
Termiz davlat pedagogika instituti professori,
Tabiiy va aniq fanlar fakulteti dekani

AMALIYOT PLATFORMASI ORQALI PEDAGOGIK TAYYORGARLIKNING DIDAKTIK RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar amaliyotlarini integrativ boshqarish platformasi orqali ularni pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari hamda ushbu platformani rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik amaliyot jarayonini raqamli muhitda tashkil etishning nazariy asoslari, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash imkoniyatlari hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, platforma orqali o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va refleksiyani rivojlantirishning didaktik jihatlari ko'rib chiqiladi. Integrativ boshqarish platformasining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, raqamli infratuzilma, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, talabalar motivatsiyasi va metodik ta'minot masalalari ham tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *integrativ boshqarish platformasi, pedagogik amaliyot, didaktik shart-sharoitlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, raqamli ta'lim, monitoring, refleksiya, ta'lim texnologiyalari, pedagogik faoliyat, amaliyot jarayoni, rivojlantirish mexanizmi.*

МЕХАНИЗМЫ ДИДАКТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЧЕРЕЗ ПРАКТИЧЕСКУЮ ПЛАТФОРМУ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические условия подготовки студентов к педагогической деятельности посредством платформы интегративного управления студенческой практикой и механизмы развития этой платформы. В исследовании освещаются теоретические основы организации процесса педагогической практики в цифровой среде, возможности обеспечения интеграции теории и практики, а также её роль в формировании профессиональных компетенций. Рассматриваются также дидактические аспекты планирования, мониторинга, оценки и развития рефлексии на образовательный процесс посредством платформы. Анализируются факторы, влияющие на эффективность платформы интегративного управления, включая цифровую инфраструктуру, профессиональную подготовку преподавателей, мотивацию студентов и методическую поддержку.*

Ключевые слова: *платформа интегративного управления, педагогическая практика, дидактические условия, профессиональная подготовка, педагогическая компетенция, цифровое образование, мониторинг, рефлексия, образовательные технологии, педагогическая деятельность, процесс практики, механизм развития.*

MECHANISMS FOR THE DIDACTIC DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TRAINING THROUGH A PRACTICAL PLATFORM

Abstract. *This article analyzes the didactic conditions for preparing students for pedagogical activity through the platform for integrative management of student practices and the mechanisms for developing this platform. The study highlights the theoretical foundations of organizing the process of pedagogical practice in a digital environment, the possibilities of ensuring the integration of theory and practice, and its role in the formation of professional competencies. It also examines the didactic aspects of planning, monitoring, evaluating, and developing reflection on the educational process through the platform. Factors affecting the effectiveness of the integrative management platform, including digital infrastructure, professional training of teachers, student motivation, and methodological support, are also analyzed.*

Keywords: *integrative management platform, pedagogical practice, didactic conditions, professional training, pedagogical competence, digital education, monitoring, reflection, educational technologies, pedagogical activity, practice process, development mechanism.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta’limning innovatsion shakllarining keng joriy etilishi pedagogik kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, talabalar amaliyotini samarali tashkil etish, uni nazorat qilish va baholash jarayonlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda [1].

Shu nuqtai nazardan, talabalar amaliyotlarini integrativ boshqarish platformalari orqali tashkil etish pedagogik ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday platformalar nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, talabalarni real pedagogik muhitga moslashtirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Maqolada talabalar amaliyotlarini integrativ boshqarish platformasi orqali pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari hamda uni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy-kasbiy sifatlarning uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy komponentlar orqali amalga oshiriladi: motivatsion komponent; kognitiv komponent; amaliy (operatsion) komponent; refleksiv component [3].

Pedagogik tayyorgarlikda ayniqsa amaliyot muhim o‘rin egallaydi. Chunki aynan amaliyot jarayonida talabalar o‘z bilimlarini real sharoitda qo‘llash, pedagogik vaziyatlarni hal qilish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish tajribasiga ega bo‘ladilar. Shu sababli amaliyot jarayonini samarali tashkil etish uchun uni an’anaviy usullardan tashqari, zamonaviy raqamli va integrativ yondashuvlar asosida boshqarish zarur [4].

Integrativ boshqarish platformasi - bu talabalar amaliyotini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini yagona raqamli muhitda birlashtiruvchi tizimdir [5].

Integrativ boshqarish platformasi - bu turli jarayonlar, ma’lumotlar bazalari, ishtirokchilar va funksional modullarni yagona raqamli muhitda birlashtiruvchi, ularni o‘zaro bog‘liq holda boshqarish, nazorat qilish va tahlil etishga xizmat qiluvchi kompleks axborot tizimidir. U alohida-alohida ishlaydigan tizimlarni integratsiya qilib, yagona boshqaruv makonini yaratadi [6].

U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: amaliyot jarayonini tizimli boshqarish; real vaqt rejimida monitoring olib borish; talabalar faoliyatini tahlil qilish; mentor va o‘qituvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatish; elektron portfel (portfolio) yuritish. Bunday platformalar orqali pedagogik amaliyotning sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va individual yondashuvni kuchaytirish mumkin [7].

Integrativ platformalar pedagogik tayyorgarlikda quyidagi vazifalarni bajaradi: Jumladan, nazariya va amaliyotni integratsiyalash.Talabalar o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy vazifalar orqali mustahkamlaydi; kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.Dars rejalashtirish, metod tanlash, baholash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi; refleksiv faoliyatni rivojlantirish.Talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi va xatolar ustida ishlaydi; shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.Har bir talaba uchun individual rivojlanish trayektoriyasi yaratiladi [8].

Didaktik shart-sharoitlar. Talabalarni integrativ platforma orqali pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligi bir qator didaktik shart-sharoitlarga bog‘liq

Maqsadga yo‘naltirilganlik. Amaliyot aniq pedagogik maqsadlar asosida tashkil etilishi kerak. Har bir topshiriq kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi lozim; Tizimlilik va uzluksizlik. Amaliyot jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilib, uzluksiz rivojlanish ta’minlanishi zarur; Integratsiya. Fanlararo bog‘liqlik ta’minlanib, nazariya va amaliyot uyg‘unlashtiriladi; Faollik va mustaqillik. Talabalar mustaqil ishlashga, muammolarni hal qilishga jalb etilishi kerak; Refleksiya. Talabalar o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim; Raqamli muhitning mavjudligi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim shart hisoblanadi.

Metodologiya. Integrativ boshqarish platformasini rivojlantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: Ular quyidagilar; texnologik rivojlantirish; platformani zamonaviy IT yechimlar bilan boyitish (AI, analitika, mobil ilovalar); metodik ta’minot. O‘qituvchilar va mentorlar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish; kadrlar malakasini oshirish. Platformadan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etish; tahlil va takomillashtirish. Foydalanuvchi tajribasini o‘rganish va tizimni doimiy yangilab boorish; integratsiya. Platformani boshqa ta’lim tizimlari bilan bog‘lash.

Natija. Talabalar amaliyotlarini integrativ boshqarish platformasi orqali tashkil etish pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishidir. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Didaktik shart-sharoitlarga rioya qilish va rivojlantirish mexanizmlarini samarali amalga oshirish orqali pedagogik ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkin.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish, birinchi navbatda, kelajakda kasbiy faoliyatingizda rasmiy vazifalaringizni samarali bajarishga imkon beradigan tegishli kompetensiya va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Kompetensiyani shakllantirish doirasida amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida turli operatsiyalarni takroriy bajarish talabalarga ma'lum tajriba to'plash imkonini beradi, bu yesa tushunish va xabardorlikni oshiradi va o'rganilayotgan jarayonning samaraliligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv bilan talabalar tomonidan o'zlashtirilgan harakatlar va operatsiyalarni yanada amalga oshirish o'zlarining rasmiy vazifalarini to'g'ridan-to'g'ri o'z ishlarida bajarishda yanada samarali integratsiyaga yega bo'ladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim qisman shaxsning o'quv va kognitiv faoliyat uchun yuqori motivatsiyasi tufayli samarali bo'ladi, bu talabalarga kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tizimi o'ziga xosligi va innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash qobiliyati, shuningdek, vakolatlarni shakllantirishda vaziyatlarni modellashtirish va loyihalash uchun ish jarayonida yuzaga keladigan ta'limning kasbiy faoliyat bilan yaqinlashuvi va integratsiyasiga hissa qo'shadi.

O'z navbatida, oliy ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv usullariga quyidagilar kiradi:

1) faol usullar-bu talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot shakli bo'lib, ular darslar davomida bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishadi va bu yerda talabalar passiv tinglovchilar yemas, balki kognitiv jarayonning faol ishtirokchilaridir. Shu bilan birga, talaba va o'qituvchi teng bo'ladilar. Faol usulni qo'llash shakllariga mahorat darslari, munozaralar, treninglar, aqliy hujum mashg'ulotlari va kasbiy faoliyatning muayyan muammosi bo'yicha davra suhbati kiradi.

2) interfaol usullar talabalar va o'qituvchining bir-biri bilan o'zaro ta'siri shakli bo'lib, unda talabalarning bir-biri bilan faolligi va aloqasi, bilim jarayonida talabaning ustun mavqei hal qiluvchi ahamiyatga yega. Interfaol usullarni qo'llash shakllariga jamoalardagi vaziyatlar (holatlar) bilan ishlash, didaktik o'yinlar va munozaralar kiradi.

Umuman olganda, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeli o'quv faoliyati va talabani amaliyotga yo'naltirilgan faoliyatga jalb qilish orqali zarur kompetensiyalarni shakllantirishning ketma-ket bosqichlari shaklida ifodalanishi mumkin.

Kompetensiya odatda ijtimoiy va kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va qadriyatlarning dinamik to'plami sifatida tushuniladi, shuningdek bitiruvchilarning shaxsiyatini uyg'un rivojlantirish uchun va bitiruvchilar ta'lim dasturini tugatgandan so'ng o'zlashtirishi va namoyish qilishi kerak baholash faoliyati jarayonidir. Ayni paytda kompetensiya turlari mavjud:

- universal kompetensiyalar;
- umumiy kasbiy kompetensiyalar;
- ta'lim tashkiloti tomonidan mustaqil ravishda tashkil yetilgan kasbiy kompetensiyalar (kompyuter).

Shuni ta'kidlash kerakki,kasbiy kompetensiya professional standartlar talablarini hisobga oladi. Shuning uchun amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash kasbiy standartlarning mazmuni va talablariga asoslanishi kerak. Unda kasbiy faoliyat sohalari, mehnat funksiyalari va mehnat harakatlari, mahorat darajasi va xodimlarning kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar jamlanadi. Mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'limning Davlat ta'lim standartini qo'llash bo'yicha ilgari to'plangan barcha tajribalar, shuningdek, oliy maktab pedagogikasining ilmiy va uslubiy yondashuvlari hisobga olinishi kerak.

Agar biz kompetnsiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil yetishning mavjud modellari haqida gapiradigan bo'lsak va kompetensiyalarni shakllantirishda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv o'rnini aniqlasak, unda to'rtta asosiy modelni ajratish mumkin(1-jadval).

1-jadval

Kompetensiya yondashuvi asosida o‘qitishni tashkil yetish modellari

Model	Xususiyatlari
Asoslangan kompetensiyalar modeli	shaxs parametrlari axloqiy, ma’naviy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat beradi.
Standartni ishlab chiqishga asoslangan model protseduralar va operatsiyalar	Standart texnikalar va operatsiyalar uchun algoritmlarni ishlab chiqishga ye’tiborning kuchayishi vakolatlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan vaqtni qisqartiradi, ammo moslashish qobiliyatlari torayadi.
Yutuqni baholashga asoslangan model	Bu talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi, o‘z kasbiy faoliyati va ta’lim traektoriyasini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi
Tarbiyaviy faoliyatni boshqarish modeli	Tarbiyaviy faoliyatni boshqarish modeli asosida ish beruvchilar taxminlari

Ushbu tizim, bizning fikrimizga ko‘ra, ish beruvchilarning talablari asosida o‘quv faoliyatini boshqarish va talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi.

Talabalar amaliyotini integrativ boshqarish platformasi orqali tashkil etish - bu pedagogik amaliyot jarayonini yagona raqamli muhitda rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish, baholash va tahlil etishni ta’minlovchi zamonaviy boshqaruv yondashuvidir. Ushbu yondashuv talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Talabalar amaliyotini integrativ boshqarish platformasi orqali tashkil etish -bu amaliyotning barcha bosqichlarini (tayyorlov, amalga oshirish, yakuniy baholash) yagona tizimga birlashtirishdir. Platforma orqali talaba, o‘qituvchi va amaliyot rahbari o‘rtasida uzluksiz hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

Talabalar amaliyotini integrativ boshqarish platformasining mazmuni-bu platformaning ichki tuzilmasi, funksional yo‘nalishlari, ma’lumotlar oqimi va pedagogik jarayonlarni yagona tizimda boshqarishga xizmat qiluvchi asosiy komponentlar majmuasini anglatadi. Mazkur platforma talabalar amaliyotini rejalashtirishdan tortib yakuniy baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni integratsiyalashgan holda tashkil etadi.

Xulosa. Talabalar amaliyotini integrativ boshqarish platformasining mazmuni ko‘p komponentli, tizimli va integratsiyalashgan tuzilishga ega bo‘lib, u pedagogik amaliyot jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish va baholashga xizmat qiladi. Ushbu platforma nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlab, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ishmuhamedov, R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar / R. J. Ishmuhamedov. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 220 b.
2. Egamberdiyeva, N. M. Pedagogik kompetentlik asoslari / N. M. Egamberdiyeva. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 176 b.
3. Musurmonova, O. Kasbiy pedagogika / O. Musurmonova. – Toshkent : Noshir, 2020. – 280 b.
4. Slastenin, V. A. Pedagogika / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, E. N. Shiyanov. – Moskva : Akademiya, 2021. – 608 s.
5. Podlasyy, I. P. Pedagogika / I. P. Podlasyy. – Moskva : Yurayt, 2022. – 576 s.
6. Zimnyaya, I. A. Pedagogicheskaya psixologiya / I. A. Zimnyaya. – Moskva : Logos, 2021. – 400 s.

7. Verbitskiy, A. A. Aktivnoye obucheniye v vysshey shkole / A. A. Verbitskiy. – Moskva : Yurayt, 2020. – 320 s.

8. Bondarenko, O. Digital Transformation in Teacher Education / O. Bondarenko // Journal of Education and Information Technologies. – 2023. – Vol. 28. – P. 1123–1140.

9. Kuzu, A. Learning Management Systems in Higher Education: Integration and Challenges / A. Kuzu, M. Kahraman // Educational Technology Research and Development. – 2022. – Vol. 70(5). – P. 2451–2470.

10. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021. – 150 p.

11. OECD. Digital Education Outlook 2023: Pushing the Frontiers with AI. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 320 p.

12. Bates, T. Teaching in a Digital Age / T. Bates. – Vancouver : BCcampus, 2022. – 512 p.

13. Khan, R. Digital Pedagogy and Teacher Training Effectiveness / R. Khan // International Journal of Educational Research. – 2024. – Vol. 120. – P. 1–15.

14. Shi, Y. AI in Teacher Professional Development / Y. Shi, P. Wang // Teaching and Teacher Education. – 2025. – Vol. 135. – P. 103–118.

15. Makhmetova, Zh. Integration of Digital Platforms in Pedagogical Practice / Zh. Makhmetova // Education Sciences. – 2024. – Vol. 14(3). – Article 289.

Razakov Farxod Kuvondikovich
Innovatsion texnologiyalar universitetining
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti Phd

TALABALARDA O‘ZINI BOSHQARISH (SELF-REGULATION) VA PROKRASTINATSIYA O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) qobiliyati va prokrastinatsiya (ishlarni kechiktirish) xulq-atvori o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik tahlil qilinadi. O‘zini boshqarish shaxsning o‘z maqsadlarini belgilash, ularni rejalashtirish, motivatsiyani saqlash va hissiy holatini nazorat qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini boshqarish darajasi past bo‘lgan talabalarda prokrastinatsiya darajasi yuqori bo‘ladi. Aksincha, yuqori self-regulation akademik muvaffaqiyat va vaqtni samarali boshqarish bilan bog‘liqdir. Maqolada prokrastinatsiyaning psixologik sabablari, jumladan motivatsiya yetishmasligi, o‘ziga ishonchsizlik va stress omillari yoritiladi. Shuningdek, ushbu muammoni kamaytirish uchun kognitiv-xulqiy yondashuvlar, vaqtni boshqarish strategiyalari va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish usullari tavsiya etiladi. Natijalar talabalarning o‘quv faoliyatini yaxshilashda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *self-regulation, prokrastinatsiya, talabalar, motivatsiya, vaqtni boshqarish, akademik muvaffaqiyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ САМОРЕГУЛЯЦИЕЙ И ПРОКРАСТИНАЦИЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается психологическая связь между саморегуляцией и прокрастинацией у студентов. Саморегуляция включает в себя процессы постановки целей, планирования, поддержания мотивации и контроля эмоционального состояния. Исследования показывают, что низкий уровень саморегуляции у студентов часто приводит к высокому уровню прокрастинации. В то же время высокий уровень саморегуляции способствует академической успешности и эффективному управлению временем. В статье анализируются психологические причины прокрастинации, такие как недостаток мотивации, неуверенность в себе и стресс. Также предлагаются методы снижения прокрастинации, включая когнитивно-поведенческие подходы, стратегии тайм-менеджмента и методы самоподдержки. Результаты исследования подчеркивают важность развития навыков саморегуляции для повышения учебной эффективности студентов.*

Ключевые слова: *саморегуляция, прокрастинация, студенты, мотивация, тайм-менеджмент, академическая успеваемость.*

THE PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN SELF-REGULATION AND PROCRASTINATION AMONG STUDENTS

Abstract. *This article examines the psychological relationship between self-regulation and procrastination among university students. Self-regulation refers to the ability to set goals, plan actions, maintain motivation, and control emotional states. Research indicates that students with low levels of self-regulation are more likely to exhibit higher levels of procrastination. Conversely, strong self-regulation is associated with better academic performance and effective time management. The article explores psychological causes of procrastination, including lack of motivation, low self-confidence, and stress. It also discusses strategies to reduce procrastination, such as cognitive-behavioral approaches, time management techniques, and self-motivation strategies. The findings highlight the importance of developing self-regulation skills to improve students' academic success and learning efficiency.*

Key words: *self-regulation, procrastination, students, motivation, time management, academic achievement.*

Mavzuning dolzarbligi. Talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik bugungi kunda nafaqat psixologiya, balki ta’lim siyosati va pedagogik amaliyotda ham muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi global va milliy ta’lim tizimlarida o‘quv samaradorligini oshirish, talabalarning akademik muvaffaqiyatini ta’minlash hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati bilan bevosita bog‘liq.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda (jumladan, OECD ta’lim monitoringi va UNESCO hisobotlarida) talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatida o‘zini boshqarish ko‘nikmalari past bo‘lsa, ularning prokrastinatsiya darajasi sezilarli darajada oshishi qayd etilgan. Shuningdek, World Health Organization va universitet psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar prokrastinatsiyani stress, tashvish va motivatsion buzilishlar bilan bog‘liq psixologik xulq sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ushbu muammoni yanada kuchaytirib, talabalarda diqqatni jamlash va vaqtni boshqarish qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Respublika miqyosida ham oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan konseptual hujjatlarda talabalarning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim talabalarda o‘quv topshiriqlarini kechiktirish, motivatsiyaning pasayishi va vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash holatlari hanuzgacha dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli, self-regulation va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning sabab-oqibat mexanizmlarini aniqlash hamda amaliy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun ta’lim psixologiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatini rivojlantirish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish hamda ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirokini ta’minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishi hamda prokrastinatsiya (o‘quv topshiriqlarini kechiktirish) xulqining oldini olish masalasi zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda self-regulation tushunchasi shaxsning o‘z maqsadlarini belgilashi, ularni rejalashtirishi, faoliyatini nazorat qilishi, motivatsiyasini saqlab turishi va hissiy holatini boshqarishi kabi jarayonlar majmuasi sifatida izohlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini boshqarish darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv jarayonida barqarorlikka ega bo‘lib, vaqtni samarali taqsimlaydi va akademik natijalari yuqori bo‘ladi. Aksincha, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan talabalarda prokrastinatsiya tendensiyasi kuchayadi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar, jumladan, World Health Organization hamda Yevropa va Osiyo universitetlari tomonidan olib borilgan psixologik izlanishlarda prokrastinatsiya ko‘pincha stress, xavotir (anksiyete), past motivatsiya va o‘ziga ishonchsizlik bilan bog‘liq xulqiy muammo sifatida talqin etiladi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta’siri va axborot oqimining ortishi ham talabalar diqqatining bo‘linishiga, natijada esa o‘quv topshiriqlarini kechiktirish holatlarining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Respublikamizda ham oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid strategik hujjatlarida talabalarda tanqidiy fikrlash, vaqtni boshqarish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalarda o‘quv topshiriqlarini oxirgi daqiqalarga qoldirish, motivatsiyaning pasayishi va akademik beqarorlik holatlari hanuzgacha uchrab turadi.

Shu sababli, talabalarda self-regulation va prokrastinatsiya o‘rtasidagi o‘zaro psixologik bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish, uning kognitiv, emotsional va xulqiy mexanizmlarini aniqlash hamda samarali psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun ta’lim psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoni chuqur tahlil qilish ta’lim sifatini

oshirish, talabalarning akademik muvaffaqiyatini ta’minlash va ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik masalasi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida keng o‘rganilgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kognitiv, xulqiy va motivatsion psixologiya yondashuvlari asosida shakllangan bo‘lib, turli mamlakat olimlari tomonidan turlicha talqin etilgan.

Xorijiy psixologiyada self-regulation konsepsiyasi dastlab Albert Bandura tomonidan ijtimoiy-kognitiv nazariya doirasida rivojlantirilgan bo‘lib, u shaxsning o‘z xulqini kuzatishi, baholashi va maqsadga yo‘naltirishi jarayonlarini muhim omil sifatida ko‘rsatgan. Keyinchalik Barry J. Zimmerman self-regulated learning modelini ishlab chiqib, o‘quv jarayonida rejalashtirish, monitoring va refleksiya bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan. Uning fikricha, o‘zini boshqarish darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etadi va akademik natijalari barqaror bo‘ladi.

Prokrastinatsiya masalasi esa Joseph R. Ferrari va Piers Steel kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ferrari prokrastinatsiyani shaxsning ixtiyoriy ravishda vazifalarni kechiktirishi sifatida izohlab, bu holatning asosiy psixologik sababi sifatida o‘zini tartibga sola olmaslik va emotsional qochishni ko‘rsatadi. Steel esa “Temporal Motivation Theory” asosida prokrastinatsiyani motivatsiya, kutish qiymati va vaqt omillari o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, vazifa qanchalik uzoq muddatli va noaniq bo‘lsa, prokrastinatsiya ehtimoli shunchalik ortadi.

Rus psixologiyasida ham ushbu muammo bo‘yicha muhim ilmiy qarashlar shakllangan. Лев Выготскийning madaniy-tarixiy nazariyasida shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit va ichki psixik jarayonlar o‘zaro ta’siri orqali amalga oshishi ta’kidlanadi. Bu yondashuv self-regulation shakllanishida ijtimoiy tajriba va o‘qitish jarayonining ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, Алексей Леонтьев faoliyat nazariyasi doirasida inson xulqi maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ko‘rib chiqilib, o‘zini boshqarish mexanizmlari faoliyat tuzilmasi bilan bog‘liq ekani ta’kidlangan. Rus psixologlari prokrastinatsiyani ko‘pincha motivatsion soha va irodaviy jarayonlar zaifligi bilan izohlashadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda, jumladan, World Health Organization hamda universitet psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarda prokrastinatsiya stress, tashvish va akademik charchash bilan chambarchas bog‘liq xulqiy muammo sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi talabalarda diqqatning bo‘linishi va o‘zini boshqarish qobiliyatining pasayishiga olib kelayotgani qayd etilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, self-regulation va prokrastinatsiya o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari yuqori bo‘lgan talabalarda prokrastinatsiya darajasi past bo‘ladi. Aksincha, o‘zini boshqarish sust rivojlangan shaxslarda vazifalarni kechiktirish, motivatsion beqarorlik va akademik muvaffaqiyatsizlik holatlari ko‘proq kuzatiladi. Shu sababli ushbu ikki fenomenni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganish zamonaviy ta’lim psixologiyasida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni aniqlash maqsadida zamonaviy psixodiagnostik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida muntazam qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirildi. Empirik ma’lumotlarni yig‘ishda so‘rovnoma, psixologik testlar va SPSS 26.0 dasturi orqali statistik tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotda ikkita asosiy psixodiagnostik metodika ishlatildi: birinchisi – “Self-Regulated Learning Scale” (SRLS) bo‘lib, u talabalar o‘z faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ikkinchisi esa Tuckman Procrastination Scale bo‘lib, u talabalarning vazifalarni kechiktirish xulqini o‘lchash uchun keng qo‘llaniladigan standartlashtirilgan metodika hisoblanadi. Har ikki metodika O‘zbekiston sharoitida psixologik tadqiqotlarda moslashtirilgan va ishonchlilik darajasi yuqori bo‘lgan vositalar sifatida tan olingan.

Tadqiqotda 120 nafar talaba ishtirok etdi. Olingan ma’lumotlar SPSS dasturida korrelyatsion tahlil va deskriptiv statistik usullar yordamida qayta ishlangan.

1-jadval.

Self-regulation darajasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar (SPSS natijalari)

Ko‘rsatkichlar	N	O‘rtacha qiymat (Mean)	Standart og‘ish (Std. Deviation)	Min	Max
Rejalashtirish (Planning)	120	3.62	0.71	2.1	5.0
Monitoring	120	3.48	0.68	2.0	4.9
O‘zini baholash (Self-eval.)	120	3.55	0.74	1.9	5.0
Umumiy self-regulation	120	3.55	0.69	2.0	4.9

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalarda self-regulation darajasi o‘rtacha va o‘rtadan yuqori darajada shakllangan bo‘lsa-da, monitoring va rejalashtirish komponentlari nisbatan zaifroq rivojlanganligi kuzatiladi. Bu esa o‘quv faoliyatini tizimli boshqarishda ayrim qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi.


2-jadval.

Prokrastinatsiya darajasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar (SPSS natijalari)

Ko‘rsatkichlar	N	O‘rtacha qiymat (Mean)	Standart og‘ish (Std. Deviation)	Min	Max
Vazifani kechiktirish	120	3.71	0.76	2.0	5.0
Motivatsion kechikish	120	3.64	0.73	1.8	5.0
Qaror qabul qilishdagi sustlik	120	3.58	0.70	2.0	4.9
Umumiy prokrastinatsiya darajasi	120	3.64	0.72	2.0	5.0

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda prokrastinatsiya darajasi o‘rtacha yuqori bo‘lib, ayniqsa vazifalarni kechiktirish va motivatsion sustlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Bu holat o‘zini boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalar asosida SPSS dasturida o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil self-regulation va prokrastinatsiya o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni, o‘zini boshqarish darajasi oshgan sari prokrastinatsiya darajasi pasayib boradi. Bu esa tadqiqot gipotezasini tasdiqlaydi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ilmiy asosda isbotlaydi.



Yuqoridagi diagrammada talabalarda self-regulation (o‘zini boshqarish) va prokrastinatsiya (ishlarni kechiktirish) ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan holda tasvirlangan. Grafik SPSS dasturida qayta ishlangan empirik ma’lumotlarga asoslanib tuzilgan bo‘lib, har bir komponent bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar (Mean) solishtirilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, birinchi juftlikda - rejalashtirish va vazifani kechiktirish ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farq mavjud emas, biroq prokrastinatsiya biroz yuqoriroq (3.71) ekanligi kuzatiladi. Bu holat talabalarda rejalashtirish ko‘nikmasi mavjud bo‘lsa-da, uni amaliy faoliyatga to‘liq tatbiq etishda qiyinchiliklar borligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi juftlik - monitoring va motivatsion sustlik tahlilida esa prokrastinatsiya ancha yuqori (3.64) bo‘lib, self-regulation komponentiga nisbatan ustunlikka ega. Bu natija talabalarda o‘z faoliyatini nazorat qilish jarayoni yetarli darajada barqaror emasligini anglatadi.

Uchinchi ko‘rsatkich - o‘zini baholash va qaror qabul qilishdagi sustlik o‘rtasida ham prokrastinatsiya biroz yuqoriroq (3.58) bo‘lib, bu kognitiv qaror qabul qilish jarayonida kechikishlar mavjudligini bildiradi.

Eng muhim natija esa umumiy ko‘rsatkichlarda kuzatiladi: self-regulation (3.55) va prokrastinatsiya (3.64) o‘rtasida teskari, ammo kuchli yaqinlikdagi bog‘liqlik mavjud. Bu esa metodologik jihatdan shuni tasdiqlaydiki, o‘zini boshqarish darajasi pasaygan sari prokrastinatsiya darajasi ortadi.

Grafik tahlil natijalari tadqiqot gipotezasini qo‘llab-quvvatlaydi va self-regulation hamda prokrastinatsiya o‘rtasida teskari psixologik bog‘liqlik mavjudligini empirik jihatdan isbotlaydi. Bu esa talabalarda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali prokrastinatsiyani kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu ikki psixologik fenomen o‘rtasida bevosita va teskari yo‘nalishdagi barqaror aloqadorlik mavjud. Tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar hamda SPSS dasturi orqali amalga oshirilgan statistik tahlillar natijalari talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini boshqarish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, prokrastinatsiya xulqining shunchalik past bo‘lishini tasdiqladi.

O‘zini boshqarish jarayoni psixologiyada shaxsning maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z faoliyatini monitoring qilish, hissiy holatini nazorat etish va natijani baholash kabi murakkab kognitiv va emotsional mexanizmlar yig‘indisi sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aynan ushbu komponentlarning zaifligi talabalarda vazifalarni kechiktirish xulqining shakllanishiga olib keladi. Xususan, monitoring va o‘zini baholash bosqichlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi talabalar tomonidan o‘quv jarayonini tizimli boshqarishda uzilishlarga sabab bo‘lmoqda.

Prokrastinatsiya esa ilmiy adabiyotlarda oddiy dangasalik emas, balki murakkab psixologik xulq sifatida qaraladi. U ko‘pincha motivatsion beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv va emotsional qochish mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlab, talabalarda motivatsion sustlik va qaror qabul qilishdagi kechikishlar prokrastinatsiya darajasini oshiruvchi asosiy omillar ekanligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida raqamli muhitning kuchayishi ham muhim omil sifatida ko‘rinmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va tezkor axborot oqimi talabalarning diqqatini tez-tez chalg‘itib, ularning uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyatini susaytirmoqda. Bu esa o‘z navbatida self-regulation mexanizmlarining zaiflashuviga va prokrastinatsiyaning kuchayishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi doirasida olib borilayotgan islohotlar ham talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim talabalarda o‘quv jarayonini mustaqil boshqarish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat ularning akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘qish jarayonida kechiktirish va beqarorlik holatlarini kuchaytiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan hamohang bo‘lib, Barry J. Zimmerman va Piers Steel tomonidan ilgari surilgan nazariyalar bilan mos keladi. Ya’ni, self-regulation darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar o‘z faoliyatini samarali boshqaradi, prokrastinatsiya esa motivatsion va kognitiv zaiflik natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, talabalarda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshiradi, balki prokrastinatsiya kabi salbiy xulqiy holatlarning oldini olishda ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Bu esa ta’lim jarayonida maxsus psixologik treninglar, vaqtni boshqarish dasturlari va motivatsion intervensiyalarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Xulosa. Talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki hodisa o‘zaro teskari yo‘nalishda rivojlanadigan murakkab psixologik jarayonlar tizimini tashkil etadi. Tadqiqot davomida olingan nazariy va empirik ma’lumotlar tahlili asosida shunday xulosaga kelindiki, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari yuqori darajada shakllangan talabalarda o‘quv faoliyatini rejalashtirish, vaqtni samarali taqsimlash, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish hamda hissiy barqarorlikni saqlash qobiliyati ancha rivojlangan bo‘ladi. Natijada bunday talabalarda prokrastinatsiya holatlari sezilarli darajada kam kuzatiladi.

Aksincha, self-regulation mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan shaxslarda motivatsion sustlik, qaror qabul qilishdagi ikkilanish, o‘z faoliyatini nazorat qila olmaslik va hissiy beqarorlik kabi omillar kuchayib, bu holatlar o‘quv topshiriqlarini kechiktirishga olib keladi. Bu esa prokrastinatsiyaning nafaqat odatiy xulqiy muammo, balki chuqur psixologik ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimining ortishi talabalarning diqqatni jamlash va o‘zini boshqarish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa prokrastinatsiya darajasining oshishiga qo‘shimcha tashqi omil sifatida xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, olingan natijalar xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg‘un bo‘lib, o‘zini boshqarish nazariyalari va motivatsion psixologiya yondashuvlarini tasdiqlaydi. Xususan, self-regulation rivojlangan shaxslar o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqaradi, uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi va akademik muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish prokrastinatsiyani kamaytirishning eng samarali psixologik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida maxsus psixologik treninglar, vaqtni boshqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va motivatsion qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa nafaqat akademik samaradorlikni oshiradi, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Park, S. W. Academic Procrastinators and Their Self-Regulation / S. W. Park, R. A. Sperling // Psychology. – 2012. – Vol. 3, No. 1. – P. 12–23.

2. Wolters, C. A. Understanding procrastination from a self-regulated learning perspective / C. A. Wolters // Journal of Educational Psychology. – 2003. – Vol. 95. – P. 179–187.

3. Senécal, C. Self-regulation and academic procrastination / C. Senécal, R. Koestner, R. J. Vallerand // The Journal of Social Psychology. – 1995. – Vol. 135, No. 5. – P. 607–619.

4. Steel, P. The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure / P. Steel // Psychological Bulletin. – 2007. – Vol. 133(1). – P. 65–94.

5. Valenzuela, R. Young University Students' Academic Self-Regulation Profiles and Their Associated Procrastination / R. Valenzuela [et al.] // Frontiers in Psychology. – 2020. – Vol. 11. – Article 354.

6. Elizondo, K. Self-regulation and procrastination in college students: A tale of motivation, strategy, and perseverance / K. Elizondo [et al.] // Psychology in the Schools. – 2023. – Vol. 61(3). – P. 887–902.

7. García-Ros, R. Effects of self-regulated learning and procrastination on academic stress and achievement / R. García-Ros, F. Pérez-González, J. M. Tomás // Current Psychology. – 2022. – Vol. 42. – P. 26602–26616.

8. Ferrari, J. R. Procrastination: Different time orientations reflect different motives / J. R. Ferrari, J. F. Diaz-Morales, J. O'Callaghan // Journal of Research in Personality. – 2007. – Vol. 41(3). – P. 707–718.

9. Yao, M. Stimuli-Sensitive Hawkes Processes for Personalized Student Procrastination Modeling / M. Yao [et al.] // arXiv preprint arXiv:2102.00089. – 2021.

10. Cheng, D. Systematic Review of Academic Procrastination Interventions in Computing Higher Education / D. Cheng [et al.] // arXiv preprint arXiv:2604.03248. – 2026.

Salimova Marjona Salomovna
Termiz Davlat universiteti Psixologiya mutaxassisligi magistranti
E-mail:marjonasalimova5@gmail.com

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARDAGI REAL VA IDEAL "MEN" O'RTASIDAGI TAFOVUT TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar ruhiyatida "Men" obrazi shakllanishi jarayonlari, erta bolalik yoshida paydo bo'ladigan o'z-o'zini anglash, o'ziga o'zi baho berish jarayonlarining rivojlanish tendensiyasi, imkoniyati cheklangan shaxslardagi "Real (Men)" va "Ideal (Men)" o'rtasidagi farq, sog'ligida muammosi bo'lmagan shaxslar bilan oradagi tafovut va ularning statistik tahlili haqida so'z boradi.*

Kalik so'zlar: *Imkoniyati cheklangan shaxs, o'z-o'zi anglash, baholash, Real men, Ideal men, Dembo-Rubinshteyn, E.Shiranger, o'zlik, shaxs markazlashgan terapiya.*

ANALYSIS OF THE DIFFERENCES BETWEEN THE REAL AND IDEAL "SELF" IN PERSONS WITH DISABILITIES

Abstract. *This article discusses the processes of formation of the image of "I" in the psyche of people with disabilities, the development trend of self-awareness and self-assessment processes that appear in early childhood, the difference between "Real (I)" and "Ideal (I)" in people with disabilities, the difference between them and people without health problems, and their statistical analysis.*

Key words: *Person with disabilities, self-awareness, assessment, Real me, Ideal me, Dembo-Rubinstein, E. Schiranger, identity, person-centered therapy.*

АНАЛИЗ РАЗЛИЧИЙ МЕЖДУ РЕАЛЬНЫМ И ИДЕАЛЬНЫМ «Я» У ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. *В статье рассматриваются процессы формирования образа «Я» в психике людей с ограниченными возможностями, тенденция развития процессов самосознания и самооценки, которые появляются в раннем детстве, разница между «Реальным (Я)» и «Идеальным (Я)» у людей с ограниченными возможностями, разница между ними и людьми без проблем со здоровьем, а также их статистический анализ.*

Ключевые слова: *Человек с ограниченными возможностями, самосознание, оценка, Реальное Я, Идеальное Я, Дембо-Рубинштейн, Э. Ширангер, идентичность, личностно-центрированная терапия.*

Kirish. Turli adabiyotlarda bolada 3 yoshida "Men" tushunchasi shakllana boshlashi aytiladi. Erta bolalik davrida bolada o'z-o'zini anglash, tana hissiyotlari ko'zguda aks etishining vizual tasviri, shuningdek, tajriba orqali o'zini alohida shaxs sifatida kashf etish boshlanadi. Erta bolalik yoshida paydo bo'lgan o'z-o'zini anglash maktabgacha yoshning oxiriga kelib, intensiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish tufayli shakllanadi. Bugungi globallashuv davriga kelib, fan-texnika rivoji bolalar ongu-tafakkuriga ham ta'sir qilmoqda. Bugungi avlod bolalarida o'zlikni anglash, "Men" obrazi kabi tushunchalar ham ilgarilab ketgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kichik maktab yoshida bolada idrok qilish, maktab yoshida diqqat jarayonlari bir muncha shakllanib, intellektual o'sish kuzatilsa, o'smirlikga borib bolada "Men" obrazi, hayotiy pozitsiya shakllana boshlaydi. Albatta bu davr silliq kechmaydi, ammo bolaning keyingi hayotdagi qarashlari aynan shu yoshdagi qarorlariga borib taqaladi. Bu borada bir qator olimlar turli qatashlari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. E.Shiranger "O'spirinlik davri psixologiyasi" degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa, 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o'zgarishlar E.Shiranger bo'yicha:

a) shaxsiy "Men"ni kashf qilish;

b) refleksiyaning o'sishi;

v) o‘zining individualligini anglash;

g) hayotiy ezgu rejalarning paydo bo‘lishi;

d) o‘z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi. [1.10.95b]

Ergash G‘oziev o‘zining “Umumiy psixologiya” darsligida o‘z-o‘zini anglashning bir qator tarkibiy qismlarga ajratadi:

1. O‘tmishdagi “Men” (o‘zlik).
2. Hozirgi “Men” (o‘zlik).
3. Bo‘lg‘usi “Men” (o‘zlik).
4. Ideal “Men” (o‘zlik).
5. Dinamik “Men” (o‘zlik). [2.10.121b]

Ushbu darslikning darslikning keyingi betlarida muallif “Inson o‘z-o‘zini anglash jarayonida ko‘pincha reallikdan boshlaydi. Hozirgi va favquloddagi holatni tahlil qiladi, shaxsiy imkoniyati bilan taqqoslaydi, ma’lum mezon yoki namuna, ibrat muayyan qaror qabul qilishga erishadi, lekin uning ongliligi yoki oqilliligiga shubhalanadi. Uni bir necha marta tahlil qilish, qiyoslash, unga o‘zgartirishlar kiritish, yangilash orqali bo‘lg‘usi “Men”iga aniqlik kiritadi va faollik mexanizmiga aylantiradi.

Dastavval “Men” obrazi, “O‘z-o‘zini anglash tushunchalariga ta’rif berib o‘tsak. Shaxsning “Men”i o‘ziga o‘zi baho berishi asosida yuzaga keladigan tasavvurlar yig‘indisidir. Ushbu tushunchalarni birinchi bo‘lib, amerikalik psixolog Karl Rodjers olib kirdi. Unga ko‘ra “Men” konsepsiyasi (shaxs menidan farqli o‘laroq) da Ijtimoiy fikrlar, ya’ni boshqalarning fikri, boshqalarning shu shaxsga bahosi asosiy omil hisoblanadi.

Karl Rodjers o‘zining “Shaxs markazlashgan terapiyasi”da ham asosiy tushunchalar sifatida “Men”ni qo‘yadi. Unga ko‘ra: “Men” tushunchalari Ideal va Real bo‘ladi.


Real “Men” **–** insonning boshqa odamlar bilan bo‘lgan aloqa tajribasi asosida o‘zi haqida shakllangan tasavvur va shunga asosan yuzaga kelgan vaziyatga mos ravishda xulqining o‘zgarishi tizimi.

Ideal “Men” – o‘zi haqida o‘z ideali sifatidagi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish natijasida qanday odam bo‘lish haqidagi tasavvurlar.

Ideal “Men”ga Real “Men” yaqinlashishga harakat qiladi. Real “Men” va Ideal “Men” o‘rtasidagi farq darajasi shaxs nomutanosiblik darajasi va shaxsiy taraqqiyotini belgilaydi. Agar farq darajasi katta bo‘lmasa, bu shaxsiy taraqqiyotga asos bo‘ladi. Rodjersning fikricha, inson o‘zini boricha qabul qilishi psixologik sog‘lomlikning belgisi hisoblanadi. Farq darajasi katta bo‘lganda, Ideal “Men” kuchli o‘zini sevish (izzattalablik) va nafsning kuchliligi nevrotik buzilishga sabab bo‘lishi mumkin. Inson bir tomondan o‘zining tashqi kechinmalarini o‘z Real “Men”i bilan muvofiq holatga keltirishga harakat qiladi, boshqa tomondan esa, o‘zi haqidagi tasavvurini o‘z Ideal “Men”ini tashkil etuvchi va qanday odam bo‘lishni xohlashiga mos keluvchi o‘zining chuqur kechinmalari bilan yaqinlashtirishga harakat qiladi. Shu tariqa Real “Men” va Ideal “Men” muvofiq holatga kelmasligi mumkin, chunki tashqi olam ta’sirida yo inson o‘zida ma’lum hayot tajribalaridan voz kechishga majbur bo‘ladi, yoki inson o‘ziga o‘z Real “Men”ini Ideal “Men”idan ajratuvchi kechinma, shartli qadriyat yoki ustanovkalarni singdirib oladi.[3.1.71-72]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimizni yoritish davomida o‘tkazgan diagnostik metodikamiz ham aynan shu – imkoniyati cheklangan va sog‘lig‘ida muammosi bo‘lmagan insonlarning Real “Men” va Ideal “Men”lari o‘rtasidagi farqni aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda biz Dembo-Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi (A.M.Prixojan tomonidan modifikatsiya qilingan) dan foydalandik. Ushbu metodika bir qator shaxsiy sifatlarni, ya’ni sog‘liq, xarakter, aql va boshqa shu kabi xususiyatlarini bevosita baholash (shkalalarda ifodalash)ga asoslangan. Respondentlarga ushbu sifatlar qay darajada rivojlanganligini (o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichi) va ushbu sifatlarni qanchalik rivojlangan bo‘lishini istashlari, ularni qoniqtirishi (davogarlik darajasi)ni vertikal chiziqlarda ma’lum bir belgilar bilan ko‘rsatishlari orqali aniqlandi. [4]


Tahlil va natija. Respondentlarning jins va yosh chegarasini quyidagi 1 va 2-rasmlar orqali ko‘rish mumkin.



	Ayol	Ertkak
Umumiy respondentlar	59	41
Nogironligi bor respondentlarlar	31	19
Sog'lom respondentlar	28	22

1-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning jins tafovutlari to‘g‘risida ma’lumot. N=100

Ushbu tadqiqot ishimizda qatnashgan respondentlarimizni ikki guruhga – sog‘ligida muammo bo‘lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlarga bo‘lib jins tafovutini tahlil qiladigan bo‘lsak, (1-rasm.) sog‘lom respondentlarning 28 nafari ayol 22 nafari erkak jinsiga mansub ekanligini ko‘rish mumkin. Imkoniyati cheklangan respondentlarda bu ko‘rsatkich 31 nafar ayol va 19 nafar erkak jinsini ko‘rsatmoqda. Umumiy respondentlarning 59 nafari (59%)ni ayol va 41 nafari (41%)ni erkak jinsiga mansub respondentlar tashkil etdi.



	18-23 yosh	24-28 yosh
Sog'lom respondentlar	42	8
Nogironligi bor respondentlar	27	23
Umumiy yosh	69	31

2-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yosh tafovutlari to‘g‘risida ma’lumot. N=100

Yuqorida keltirib o‘tilganidek ushbu tadqiqot ishimizda 18 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan 100 nafar respondent ishtirok etdi. Yosh chegarasini ikki guruhga 18 yoshdan 23 yoshgacha (o‘spirinlik davri) va 24 yoshdan 28 yoshgacha (yoshlik davri) bo‘lib tahlil qildik. Avval sog‘lig‘ida muammosi bo‘lmagan respondentlarning yoshi haqidagi ma’lumotni ko‘rib chiqsak – 18-23 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 42 nafarni va 24-28 yoshgacha bo‘lgan respondentlar soni 8 nafarni tashkil etdi. Imkoniyati cheklangan respondentlarimizda bu ko‘rsatkich – 18-23 oralig‘i 27 nafar va 24–28 yosh

oralig‘i 23 nafarni tashkil etdi. Umumiy respondentlarni yosh bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak 18-23 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 69 nafar (69%)ni va 24-28 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 31 nafar (31%)ni tashkil etdi. Ko‘rinib turganidek 18-23 yosh 69%>31% 24-28 yosh.

Natijalar tahlilini umumiy respondentlardan olingan ma’lumotlarning o‘rtacha qiymati asosida olib boramiz. Umuman olganda metodika tahlili 6 ta shkala bo‘yicha olib boriladi va sog‘liq shkalasi sinov sifatida taqdim etilib natijalari tahlil qilinmaydi. Ammo bizning respondentlarimizning bir guruhi imkoniyati cheklangan bo‘lganligi va sog‘liq bilan bevosita bog‘liqligi uchun ushbu shkalani ham tahlil qilamamiz. Dastlab metodika bo‘yicha miqdoriy tasnif berib o‘tsak.

1-jadval.

Dembo-Rubinshteyn “o‘z-o‘zini baholash” metodikasi ballar bo‘yicha miqdoriy tavsif

Ko‘rsatkichlar	Miqdoriy tavsif (ballar bo‘yicha)			
	Past	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori
Davogarlik darajasi	60 gacha	60-74	75-89	90-100
O‘z-o‘zini baholash darajasi	45 gacha	45-59	60-74	75-100

Yuqoridagi *1.jadvalda* ko‘rinib turganidek, davogarlik darajasi bo‘yicha 60 ballgacha bo‘lgan ko‘rsatgichlar past, 60-74 ball oralig‘i o‘rtacha, 75-89 ball oralig‘i yuqori va 90 dan 100 ballgacha bo‘lgan ko‘rsatgichlar juda yuqori natija sifatida qayd etilsa, o‘z-o‘zini baholash darajasi bo‘yicha 45 ballgacha bo‘lgan ko‘rsatgichlar past, 45-59 ball oralig‘i o‘rtacha, 60-74 ball oralig‘i yuqori va 75 balldan 100 ballgacha bo‘lgan ko‘rsatgichlar juda yuqori natija sifatida ko‘riladi.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida respondentlardan olingan natijalarni tahlil qilib chiqamiz. Tadqiqot ishimizni yoritish davomida o‘tkazgan keyingi diagnostik metodikamiz ham aynan shu– imkoniyati cheklangan va sog‘lig‘ida muammosi bo‘lmagan insonlarning Real “Men” va Ideal “Men”lari o‘rtasidagi farqni aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda biz Dembo-Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi (A.M.Prixojan tomonidan modifikatsiya qilingan) dan foydalandik. Ushbu metodika bir qator shaxsiy sifatlarni, ya’ni sog‘liq, xarakter, aql va boshqa shu kabi xususiyatlarini bevosita baholash (shkalalarda ifodalash)ga asoslangan.


2-jadval.

Dembo-Rubenshteynning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi bo‘yicha respondentlarning umumiy natijalari tahlili ko‘rsatkichlari (Sog‘ligida muammo bo‘lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlar). N=100

T/R	Shkala	Guruh	O‘z-o‘zini baholash darajasi		Davogarlik darajasi		Farq
1	Sog‘liq	Sog‘lom	75,7	Yuqori	95,5	Juda yuqori	-19,8
2		Imkon\chek	59,6	O‘rta	84,2	Yuqori	-24,6
3	Aql, qobiliyat	Sog‘lom	79,5	Juda yuqori	95,2	Juda yuqori	-15,7
4		Imkon\chek	67,8	Yuqori	81,9	Yuqori	-14,08
5	Xarakter	Sog‘lom	69,1	Yuqori	87,4	Yuqori	-18,2
6		Imkon\chek	67,2	Yuqori	79,8	Yuqori	-12,6
7	Obro‘-e’tibor	Sog‘lom	74,1	Yuqori	89,2	Yuqori	-15,1
8		Imkon\chek	69,8	Yuqori	80,3	Yuqori	-10,5
9	Mohir qo‘llar	Sog‘lom	57,5	O‘rta	85,1	Yuqori	-27,5
10		Imkon\chek	74,5	Yuqori	85,6	Yuqori	-11,1
11	Tashqi qiyofa	Sog‘lom	70,5	Yuqori	89,6	Yuqori	-18,5
12		Imkon\chek	62	Yuqori	82,1	Yuqori	-20,1
13	O‘ziga ishonch	Sog‘lom	74,4	Yuqori	94,6	Juda yuqori	-20,2
14		Imkon\chek	71,1	Yuqori	83,6	Yuqori	-12,5

Yuqoridagi *2.jadvalda* keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, davogarlik darajasi 60 balldan 89 ballgacha bo'lsa, bunda davogarlik darajasini normadaligini, realligini bildiradi. Agarda natija 75 dan 89 ball oralig'ida bo'lsa, sinaluvchilar o'z imkoniyatlari haqida optimal tasavvurga ega ekanligini bildiradi. Optimal yondashish shaxs sifatida rivojlanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. 90 baldan 100 balgacha bo'lgan natija esa ko'pincha respondentlarning o'z imkoniyatlariga boreal, notanqidiy yondashishini bildiradi. Natija 60 balldan past bo'lsa, davogarlik darajasining pastligini bildiradi, bu – shaxsning rivojlanishi salbiy ekanligidan dalolat beradi. O'z-o'zini baholashda ballar 45 balldan 74 ball (o'rtacha va yuqori)gacha bo'lsa, bu real (haqqoniy) baholanishni bildiradi. 75 balldan 100 balgacha ko'rsatkich esa o'z-o'ziga juda yuqori baho berganini berganini bildirib, bunda shaxs shakllanishida ayrim og'ishlar borligini ko'rsatadi. O'z-o'ziga ortiqcha baho berish shaxsning yetuk emasligini, o'z faoliyatini to'g'ri baholashni va o'zini boshqalar bilan solishtirishni bilmasligini ko'rsatadi.

Quyidagi 3 va 4-rasmlar orqali respondentlarimizdan olingan natijalarning o'rtacha qiymatini statistik tahlil qilamiz.




	Sog'liq	Aql, qobiliyat	Xarakter	Tengdoshlar orasida obro'	Mohir qo'llar	Tashqi qiyofa	O'z-o'ziga ishonch
O'z-o'zini baholash	75,7	70,5	69,1	74,1	57,5	70,5	74,4
Davogarlik darajasi	95,5	95,2	87,4	89,2	85,1	89,06	94,6

3-rasm. Dembo-Rubenshteynning "o'z-o'zini baholash" metodikasi bo'yicha sog'lom respondentlar natijalari tahlili. N=50

Sog'ligida muammo bo'lmagan respondentlarimiz natijalarining o'rtacha qiymati quyidagi ko'rsatkichlarni qayt etdi: O'z-o'zini baholash ko'rsatkichi bo'yicha – Sog'liq 75,7 ball, aql, qobiliyat 70,5 ball, xarakter 69,1 ball, tengdoshlar orasida obro' 74,1 ball, mohir qo'llar 57, 5 ball, tashqi qiyofa 70,5 ball, o'z-o'ziga ishonch 74,4 ballni tashkil etdi. Ushbu o'z-o'zini baholash darajasida faqatgina mohir qo'llar shkalasi bo'yicha o'rtacha (45-59 ball oralig'i), va sog'liq shkalasi bo'yicha juda yuqori (75-100 ball oralig'i) natija qayt etildi. Qolgan shkalalar bo'yicha yuqori (60-74 ball) natija qayd etildi

Tajribamizda ishtirok etgan sog'ligida muammo bo'lmagan respondentlarimizning davogarlik darajasi bo'yicha ko'rsatkichlari – Sog'liq 95,5 ball, aql, qobiliyat 95,2 ball, xarakter 87,4 ball, tengdoshlar orasida obro' 89,2 ball, mohir qo'llar 85,1 ball, tashqi qiyofa 89,06 ball, o'z-o'ziga ishonch 94,6 ballni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha sog'liq, aql/qobiliyat va o'z-o'ziga ishonch shkalalari bo'yicha natijalarining o'rtacha qiymati 90 balldan yuqori ko'rsatkichni (juda yuqori) qayt etdi. Qolgan shkalalar bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori deb topildi.



4-rasm. Dembo-Rubenshteynning “o‘z-o‘zini baholash” metodikasi bo’yicha Imkoniyati cheklangan respondentlar natijalari tahlili. N=50

Imkoniyati cheklangan respondentlarimizning natijalari 4-rasmda keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘z-o‘zini baholash darajasi bo‘yicha – Sog‘liq 59,6 ball, aql, qobiliyat 67,8 ball, xarakter 67,2 ball, tengdoshlar orasida obro‘ 69,8 ball, mohir qo‘llar 74,5 ball, tashqi qiyofa 62 ball, o‘z-o‘ziga ishonch 71,1 ballni tashkil etdi. Bunga ko‘ra ushbu o‘z-o‘zini baholash darajasida barcha shkalalar bo‘yicha natijalar yuqori ko‘rsatkichni qayt etdi. Keyingi, ya’ni davogarlik darajasi bo‘yicha imkoniyati cheklangan respondentlarimizdan olingan natijalarning o‘rtacha qiymati – Sog‘liq 84,2 ball, aql, qobiliyat 81,9 ball, xarakter 79,8 ball, tengdoshlar orasida obro‘ 80,3 ball, mohir qo‘llar 85,6 ball, tashqi qiyofa 82,1 ball, o‘z-o‘ziga ishonch 83,6 ballni qayt etdi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham imkoniyati cheklangan respondentlarimizning natijalari o‘rtacha qiymati yuqori (75-89 ball oralig‘ida).

Davogarlik darajasiga o‘z-o‘zini baholash yaqinlashishga harakat qiladi. Real “Men” va Ideal “Men” o‘rtasidagi farq darajasi shaxs nomutanosiblik darajasi va shaxsiy taraqqiyotini belgilaydi. Agar farq darajasi katta bo‘lmasa, bu shaxsiy taraqqiyotga asos bo‘ladi. Rodjersning fikricha, inson o‘zini boricha qabul qilishi psixologik sog‘lomlikning belgisi hisoblanadi. Shunga muvofiq har ikki toifa respondentlarimizdan olingan o‘z-o‘zini baholash darajasi va davogarlik darajasi bo‘yicha har bir shkala ko‘rsatkichlaring bir-biriga nisbatini statistik tahlil qilib o‘tamiz *(2. jadval).*

3-jadval

Respondentlardagi Real “Men” va Ideal “Men” orasidagi tafovut nisbati (N=100)

Shkalalar	Nazorat guruhi	Real va ideal “Men” o‘rtasidagi farq	Tajriba guruhi
Sog‘liq	sog‘lom	**19,8<24,6**	imkoniyati cheklangan
Aql, qobiliyat	sog‘lom	**15,7>14,08**	imkoniyati cheklangan
Xarakter	sog‘lom	**18,2>12,6**	imkoniyati cheklangan
Tengdoshlar orasida obro‘	sog‘lom	**15,1>10,5**	imkoniyati cheklangan
Mohir qo‘llar	sog‘lom	**27,5>11,1**	imkoniyati cheklangan

Tashqi qiyofa	sog‘lom	**18,5<20,1**	imkoniyati cheklangan
O‘z-o‘ziga ishonch	sog‘lom	**20,2>12,5**	imkoniyati cheklangan

Imkoniyati cheklangan respondentlarimizning natijalari 2-rasmda keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘z-o‘zini baholash darajasi bo‘yicha – Sog‘liq 59,6 ball, aql, qobiliyat 67,8 ball, xarakter 67,2 ball, tengdoshlar orasida obro‘ 69,8 ball, mohir qo‘llar 74,5 ball, tashqi qiyofa 62 ball, o‘z-o‘ziga ishonch 71,1 ballni tashkil etdi. Bunga ko‘ra ushbu o‘z-o‘zini baholash darajasida barcha shkalalar bo‘yicha natijalar Bunga ko‘ra imkoniyati cheklangan respondentlarda davogarlik darajasi va o‘z-o‘ziga baho berish darajasi o‘rtasidagi farq faqatgina sog‘liq va tashqi qiyofa shkalalarida sog‘lom respondentlarga qaraganda kattaroq. Qolgan barcha shkalalar bo‘yicha imkoniyati cheklangan respondentlarning Real “Men” va Ideal “Men”lari o‘rtasidagi farq nisbatan yaqin.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalarining tahliliga ko‘ra ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega, ijtimoiylashgan Imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvi, ularning ta’lim olishi, jamiyatga qo‘shilishi, ulardagi muloqotmandlikni oshirishi, uyatchanlik, tortinchoqlik kabi xususiyatlarni kamaytirishi, ularning ijtimoiy tipini meyorlashtirishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot ishimiz davomida olib borgan psixodiagnostik ishimiz natijalari o‘rtacha qiymatiga ko‘ra ham o‘z-o‘zini baholash darajasida barcha shkalalar bo‘yicha natijalar yuqori ko‘rsatkichni qayt etdi. Davogarlik darajasi bo‘yicha ham imkoniyati cheklangan respondentlarimizda barcha shkalalar bo‘yicha yuqori natija qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkichlarning ijobiy bo‘lganligiga sabab sifatida yuqorida aytib o‘tganimizdek imkoniyati cheklangan respondentlarimizning anchayin ijtimoiylashgan (oliy ta’lim muassasalari talabalari va professional paraatletlar) ekanligidadir deb xulosa qilish mumkin. Ko‘rinib turganidek ijtimoiylashuv va jamiyatga integratsiya imkoniyati cheklangan insonlarning shaxs xususiyatlari va o‘z-o‘ziga bo‘lgan adekvat bahosining optimallashuviga olib kelar ekan. Shunday ekan inklyuziv jamiyatni barpo etish va imkoniyati cheklangan kishilarni ilk bolalik davridanoq ijtimoiylashtirishni va ijtimoiy faollikning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishni takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Xaitov, A. X. Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya : o‘quv qo‘llanma / A. X. Xaitov. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti, 2020. – B. 71–72.
2. Karimova, V. Ijtimoiy psixologiya / V. Karimova. – Toshkent:, 2007. – 170 b.
3. Mo‘minova, L. R. Maxsus psixologiya : o‘quv qo‘llanma / L. R. Mo‘minova [va boshq.]. – Toshkent : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – B. 3.
4. Nurmuxamedova, Sh. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari : monografiya / Sh. Nurmuxamedova. – Toshkent:, 2014. – 160 b.
5. Tursunqulov, N. A. Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti : o‘quv-uslubiy qo‘llanma / N. A. Tursunqulov. – Guliston:, 2020. – B. 21–22.
6. Положение детей в мире на 2005 год / ООН ; ЮНИСЕФ. – Нью-Йорк : ЮНИСЕФ, 2005. – 154 с.
7. Рубинштейн, С. Л. Отношение мышления к бытию и логическая структура познания // Человек и мир / С. Л. Рубинштейн. – Москва : Наука, 1983. – С. 64–82.
8. Гончарова, Е. Л. Специальная психология [Электронный ресурс] / Е. Л. Гончарова // Альманах Института коррекционной педагогики РАО. – 2002. – № 5. – URL: https://www.almanah.ikprao.ru/5/st01.htm
9. Проблемы специальной психологии в образовании [Электронный ресурс] : Всероссийский семинар (ноябрь 1998 года). – URL: https://psy.1september.ru/1999/psy45-1.htm
10. G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya : darslik. 1-kitob / E. G‘. G‘oziyev. – Toshkent, 2002. – B. 95, 121–122.

Salomova Guli Shodimurodovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doctori (DSc)
E-mail: salomovaguli8225@gmail.com

TALABALARNING TANQIDIY TAFAKKURI AXBOROTLARNI TAHLIL QILISHDA ASOSIY FAKTOR SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqola, oliy ta’lim muassasasi talabalarining tanqidiy tafakkur darajasini o‘rganishga qaratilgan, aniqrog‘i, talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida, diagnostik natijalar hamda, muallif tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy tafakkur testlari javoblari berilgan.*

Kalit so‘zlar: *argumentatsiya, deduksiya, kognitiv jarayonlar, reflektsiya, tanqidiy tafakkur, induktsiya.*

STUDENTS’ CRITICAL THINKING AS A KEY FACTOR IN INFORMATION ANALYSIS

Annotation. *This article is aimed at studying the level of critical thinking of students in higher educational institutions; more precisely, it presents diagnostic results and the answers to critical thinking tests developed by the author in order to develop students’ cognitive abilities.*

Keywords: *argumentation, deduction, cognitive processes, reflection, critical thinking, induction.*

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР АНАЛИЗА ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *Данная статья направлена на изучение уровня критического мышления студентов высших образовательных учреждений; более конкретно, представлены диагностические результаты, а также ответы на тесты критического мышления, разработанные автором, с целью развития когнитивных способностей студентов.*

Ключевые слова: *аргументация, дедукция, когнитивные процессы, рефлексия, критическое мышление, индукция.*

Kelgusi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalari takomillashishining yuqori tezligini va faoliyatning mutlaqo yangi yo‘nalishlarining paydo bo‘lishini hisobga olgan holda, XXI asrda ta’lim va kasbiy rivojlanishning asosiy vazifasiga aylanishi kerak bo‘lgan tanqidiy tafakkur kabi asosli ko‘nikmalarni izohlash mumkin [2, 2019, 9 bet].

Mavjud ta’riflarga ko‘ra, tanqidiy tafakkur – bu mantiqsiz, asossiz fikrlashning teskarisi ekanligi ma’lum. Uni talqin qilish jarayonida biz quyidagi muammolarga duch, kelamiz: tanqidiy tafakkur, tug‘ma aql va sxolastik qobiliyatlarni mazmun jihatidan qanday bog‘lash mumkin?», «biz tadqiq qilayotgan mavzuga e'tibor qaratish va uning mazmuni haqida mulohaza yuritish jarayonida ma’lum bir ma’lumot haqida tanqidiy tafakkur mavjudmi?».

Tadqiqotlarda sinaluvchilarning munosabatlar dinamikasida paydo bo‘ladigan muammolar bo‘yicha dastlabki fikrlarini shakllantirish ketma-ketligiga ko‘ra, ularning axborotni va ma’lumotni o‘rganish tezligi o‘rganiladi hamda baholanadi.

Talabalarning o‘zlashtirish jarayonini va materialni o‘rganishda qaysi usul eng samaraliligini aniqlash maqsadida, tanqidiy tafakkur testlari va kognitiv moslashuvchanlik mashqlari ishlab chiqilgan. Mazkur testlarni sinovdan o‘tkazish, ularning muammoni yoritishidagi hissasini bilish uchun sinaluvchi hisoblangan talabalar, materialni boshidan oxirigacha o‘zlashtirishi yoki masalaning asl mohiyatini anglagan holda, muammoni bartaraf qilishga urinishi muhim. Mazkur ish jarayonida, tadqiqot ob’ekti – talaba tanlashi kerak bo‘lgan usullardan birini belgilagan holda, tanqidiy tafakkur testlari modeli yaratildi.

Mazkur turdagi tadqiqotlarning asosiy maqsadi, tanqidiy tafakkur ko‘nikmasini shakllantirishga yordamlashish va o‘rganilayotgan ob’ektda ushbu xususiyat ruhini rivojlantirishdan iborat bo‘lganligi sababli, yaratilgan testlar diagnostik va rivojlantiruvchi xarakterga ega.

Tanqidiy tafakkur, barkamol shaxsning asosiy xususiyati sifatida - o‘z raqibini tinglay olishi; u keltirgan barcha dalillarni hisobga olib, faktlarni tahlil qila olishi, so‘ngra muammoning dolzarbligini aniqlash va keyin xulosalar chiqarish qobiliyatidir; - o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha mavjud nazariyalarni aniq baholashi, baholangan va o‘rganilgan masalani hayotga tadbiq qilish qobiliyatidir. Ushbu amaliyotning barcha jihatlari o‘rinli hisoblanib, uning bo‘laklari asosida yaxlit tassavurni qayta yaratish qobiliyati muhimdir.

Shuningdek, muammoning mantiqiy muqobillarini shakllantirish va ishlab chiqish strategiyasi, hatto ushbu muqobillarni, potentsial variant sifatida tanlamasa ham, qabul qilingan aniq xulosani izohlashda va ma’lum bir variantni qo‘llashda tanqidiy tafakkur mezonlari belgilanadi.

Bahs jarayonida qarshi tomon pozitsiyasini anglashda, ushbu tomon nuqtai nazari asosida mulohaza yuritishda mazkur kognitiv sifatning ahamiyati beqiyosdir.

Kognitiv jarayonlarni o‘rganish asnosida quyidagicha savol tug‘iladi: -amaliyotda tanqidiy tafakkur imkoniyatidan foydalanmaslik qanday oqibatlarga olib keladi? Shaxs yoki guruh o‘z qarorning oqibatlari haqida o‘ylamasdan muhim masalalarni hal qilganda nima bo‘lishi mumkin? Noto‘g‘ri chiqarilgan xulosa va uning oqibatlarini tahlil qilayotib, tanqidiy tafakkurning yetarlicha amalga oshmaganligi to‘g‘risida Fesione P. o‘z ilmiy ishlarida batafsilroq tasvirlagan.

Facion o‘zining «Tanqidiy tafakkur – bu nima va u nima uchun hisobga olinadi?» deb nomlangan kitobida, undan foydalanmaslikning zararli oqibatlari qatorida quyidagilarni keltiradi: -foyda topmaslik, -ish yo‘qotish, -darz ketgan munosabatlar, -o‘ziga ishonchsizlik, -noto‘g‘ri qarorlar, -samarasiz moliyaviy yo‘qotishlar, -oilaviy zo‘ravonlik, -o‘z joniga qasd qilishga urinishlar, -ajralish, -akademik muvaffaqiyasizlik [4, 2013, 20].

Tanqidiy tafakkur tadqiqotchilarida, har bir masala yuzasidan boshqalarning fikr-mulohazalarini tinglash ehtimoli ko‘proq, mazkur amaliyot mulohazalarni qimmatli faktlar bilan boyitadi va qaror qabul qilish jarayonini yanada yaxshilaydi.

Tanqidiy tafakkur darajasini aniqlashda muallifning “Tanqidiy tafakkur testlari” usuli tanlandi. Ushbu usulning natijalari quyida beriladi.

1-jadval.

Tanqidiy tafakkur mezonlarining tavsiflovchi statistikasi (N=700)

	Taxminlar	**Dalillar variantlari**	**Deduktsiya**	**Mantiqiy xukm**
O‘rtacha qiymat	8.00	7.60	9.14	1.20
Mediana	8.00	8.00	9.00	1.00
Moda	8.00	8.00	8.00	1.00
Stan. Og‘ish.	1.96	4.93	2.16	1.072
Dispersiya	3.87	24.39	4.62	1.15
Asimmetriya	.928	.316	.628	1.509
Stan og‘ish asim.	.061	.061	.061	.061
Ekstsess	2.197	1.167	1.025	2.785
Stand og‘ish eks.	.122	.122	.122	.122
Prosentillar				
25	7	6	8	1
50	8	8	9	1
75	9	10	10	2

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “Taxminlar” mezonida biz o‘rtacha qiymat, va medianning tengligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tenglik taqsimotning normal ekanligini ko‘rsatadi. Ammo shunga qaramay, statistikani batafsil ko‘rib chiqamiz. Asimmetriya A=0.92 demak, taqsimot normal taqsimotdan sezilarli farq qiladi, ya’ni asimmetriya ahamiyatsiz koyeffitsiyentdan yuqori va o‘ngga qiyshaygan. Ekstsess E = 2.1 bizda sezilarli o‘tkir cho‘qqili taqsimot bor.

“Dalillar” mezonida o‘rtacha, moda va mediana o‘rtasida farqlar kuzatiladi va ular qo‘ng‘iroq shaklidagi namuna modelidan qanchalik jiddiy chetga surilishini batafsil ko‘rib chiqamiz: Asimmetriya a=0.31, o‘ngga qarab o‘rtacha qiyalikni hosil qilgan. Ekstses E=1.16.

“Deduksiya” mezonida, markaziy tendentsiya o‘lchovlari ko‘rsatkichlari bir-biriga teng emas va assimetriya a=0,62 ahamiyatli o‘ng tomonlama qiyshaygan va ekstsess o‘tkir cho‘qqili.


“Mantiqiy xulosalar” mezoni, markaziy tendentsiyaning uchta o‘lchovi deyarli bir xil bo‘lishiga qaramay, taqsimotning normalligi uchun ma’lumotlarni qo‘shimcha tekshirishni talab qiladigan asimmetrik o‘ng tomonda kuchli burilish va ekstsess ko‘rsatkichining yuqori taqsimlanishi mavjud.

Taxminlar, mantiqiy hukm, deduktsiya va argumentatsiya mezonlari talabalar tajribasida turli tomonga tebranish chastotasi, mazkur jihatlar o‘rtasidagi farqni emas, balki fikrlash tizimida dispozitsion birlikning mavjud emasligini bildiradi. Tafakkurning joriy ko‘nikmasi takomillashib borish bosqichlari quyidagicha tasniflanadi:

Boshlang‘ich bosqichi. Ushbu bosqichda sinaluvchi mavjud bilimlarni yangilaydi, berilgan topshiriqlarga va muammolarni muhokama qilishga qiziqish bildiradi. Ushbu bosqichda testlarni bajarish bilan bog‘liq muammoni hal qilish, ilgari olgan bilimlari, real hayotdagi murakkab vaziyatlar, test bajarish jarayonidagi o‘z-o‘ziga berishi kerak bo‘lgan ritorik savollar va noto‘g‘ri mantiqiy zanjirlarning aniqlanishi va o‘zgartirishi bilan amalga oshadi. Idrok etish bosqichi. Jarayondan so‘ng sharhlarni o‘qish, test vazifalari bo‘yicha tadqiqotning boshqa ishtirokchilari bilan fikr almashish, muhokamalar bilimlar doirasini kengaytiradi.

Reflektsiya bosqichi. Axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar nafaqat yangi material haqida o‘ylashadi, balki ma’lumotlarga bo‘lgan munosabatini ham shakllantiradilar. Talabalar yangi faktlarni ularga allaqachon ma’lum bo‘lganlar bilan solishtiradilar. Tajribaning yana bir maqsadi yangi bilimlarni sinaluvchilarning shaxsiy tajribasiga aylantirishdir [1, 2024, 65].


Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi lozim bo‘lganda shakllanishi uchun asosiy ahamiyatga ega ijtimoiy omillarni o‘rganish, ularning ta’siri sharoitida u yoki bu darajada paydo bo‘lgan tanqidiy tafakkur va kognitiv moslashuvchanlikni o‘rganish tadqiqotga, mazkur dissertatsining to‘laqonli modelini yaratishga imkon berdi. Modelda asosiy o‘rganilgan faktorlar, kogntiv jarayonlar va ularga qaror qabul qilish davrida hamrohlik qiluvchi hissiy, strategik elementlar o‘z aksini topgan.



1- Rasm. Kognitiv jarayonlarni rivojlantirish modeli.

Tadqiqot davridan o‘rin olgan barcha o‘rganilgan jarayonlar modelda o‘z aksini topgan. Mazkur jarayon rivojlantirish dasturi orqali boshqarilishi va kognitiv xususiyatlar bu vaziyatda maqsadli rivojlantirilishi bilan birga, madaniyatlar aloqadorligi tajribasi va madaniyatlararo kompetentlik omillilari asosida tabiiy ravishda rivojlantirib boradi. Barcha kognitiv jarayonlarning asosiy maqsadi eng to‘g‘ri va samarali qarorni qabul qilish ko‘nikmasi bilan sub'ektiv ravishda baholanadi. Bunda ijtimoiy omillar bilan birga rivojlantirish dasturini ham asosiy omil qilib olish va uning ahamiyatini ajratib ko‘rsatish joiz.

Butun tajriba davomida aniqlangan fenomenal xodisaga muvofiq, tanqidiy tafakkur ko‘nikmalari darajasi oshgan sayin, ularga hamrohlik qiluvchi elementlar yaxshilanib boradi. Bu vaziyatni quyidagi modelda ko‘rish mumkin.



2- Rasm. Tanqidiy tafakkur darajalarida qaror samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar.

Butun tadqiqot davomida kuzatilgan jihatlarni o‘zida umumlashtirgan modeldan shu narsa aniqki, ishtirokchilarning muammoni yechishdagi hissiy jihatlari, shaxsiy va o‘zga madaniy atributlarga munosabatlarning o‘zgarish dinamikasi, qaror qabul qilish strategiyalari baravar ravishda o‘zgarishlarga yuz tutib, yaxshilanib borgan. Ushbu jihatlar miqdoriy tahlillarda va sifat tahlillarida o‘z aksini topdi. Ijtimoiy omillar asosida boshqarilib boradigan kognitiv jarayonlar ham o‘z navbatida, ishtirokchilarning barcha irodaviy, ratsional, emotiv, strategik va boshqa xususiyatlarini belgilaydi va boshqaradi.

Ushbu tadqiqotda talabalarning tanqidiy tafakkuri to‘rtta asosiy ko‘nikma bo‘yicha baholandi: deduksiya, mantiqiy xulosa chiqarish, taxminlar yaratish va argumentatsiya. Olingan natijalar talabalar deduktiv fikrlash bo‘yicha yetarlicha yuqori darajaga ega ekanini, biroq argumentlarni tizimli taqqoslash va dalillarni asoslash ko‘nikmalarida bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar, ayniqsa argumentatsiya va dalillashga oid topshiriqlarni o‘quv jarayoniga ko‘proq kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Саломова, Г. Ш. Социально психологические факторы развития критического мышления у студентов : монография / Г. Ш. Саломова. – Ташкент : FAN ZIYOSI, 2024. – 152 с.
2. Чатфильд, Т. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение / Т. Чатфильд ; [пер. с англ.]. – Москва : Альпина Паблишер, 2019. – 559 с.
3. Ashcraft, M. H. Cognition / M. H. Ashcraft, G. A. Radvansky. – 5th ed. – Boston : Prentice Hall, 2010. – 552 p.
4. Facione, P. A. Critical Thinking: What It is and Why it Counts [Electronic resource] / P. A. Facione. – 2013. – URL: https://www.researchgate.net/publication/251199343_Critical_Thinking_What_It_Is_and_Why_It_Counts
5. Visser, L. Critical thinking and distance education and traditional education / L. Visser, Y. Visser, C. Schlosser // Quarterly Review of Distance Education. – 2003. – Vol. 4(4). – P. 401–407.
6. Watson, G. Watson-Glaser critical thinking appraisal: Form S manual / G. Watson, E. M. Glaser. – San Antonio, TX : Psychological Corporation, 1994. – 45 p.

Samadova Dilnora Azim qizi
Osiyo xalqaro universiteti
pedagogika yo`nalishi boshlang`ich ta'lim bosqich talabasi

BOSHLANG`ICH TA'LIMDA STRESSIZ BAHOLASH KONSEPSIYASI YAPONIYA TAJRIBASI VA UNI MILLIY TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta'limda stresssiz baholash va buni Yaponiya ta'lim tizimida qo`llashlanilishi masalalarini ko`rib chiqadi.Maqolada Yaponiyadagi ta'lim tizimi , maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan pedagogik mahorat va stressiz baholash tizimining yutuqlari o`zbek ta'limi bilan bog`lab o'rganish masalalarini tahlil qiladi .*

Kalit so`zlar: *pedagogika globallashuv, konsepsiya stress, integrative, mentalitet motivatsiya, model.*

КОНЦЕПЦИЯ БЕЗСТРЕССОВОГО ОЦЕНИВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ОПЫТ ЯПОНИИ И ВОПРОСЫ ЕГО АДАПТАЦИИ К НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы оценивания без стресса в образовании и применение данного подхода в системе образования Японии. В статье анализируется система образования Японии, педагогическое мастерство в школьных и дошкольных образовательных учреждениях, а также достижения системы оценивания без стресса в контексте их внедрения в систему образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *педагогика, глобализация, концепция, стресс, интегратив, менталитет, мотивация, модель.*

THE CONCEPT OF STRESS-FREE ASSESSMENT IN PRIMARY EDUCATION: THE JAPANESE EXPERIENCE AND ISSUES OF ITS ADAPTATION TO THE NATIONAL EDUCATION SYSTEM

Abstract. *This article examines the issues of stress-free assessment in education and the application of this approach within the Japanese education system. The paper analyzes the educational system of Japan, pedagogical skills practiced in schools and preschool institutions, and the achievements of the stress-free assessment system in connection with their integration into the Uzbek education system.*

Keywords: *pedagogy, globalization, concept, stress, integrative, mentality, motivation, model.*

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga ,jumladan ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.Raqamli texnologiyalar ,internet va zamonaviy axborot vositalari yetakchi o`ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimi,ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi.Eskicha o`qitish usullari ma'nan eskirib ,ta'limning ilg`or pedagogik texnologiyalariga asoslangan metodlariga va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.Ta'lim va tarbiya samadorligini oshirish o`quv tarbiya jarayonida innovatsion ta'lim ,xorij tajribalarini o`rganish va ularni faoliyatidan qiyosiy tahlil olish muhimdir

Har kuni ertalab dunyo maktablarining eshigi ochilib,qo'ng'iroq chalinadi.Piyoda ,avtomobil, qayiq va otlarda ,chanada yer yuzi bo`ylab bolalar maktabga shoshadilar . Jahon o`quvchilari armiyasi soni yarim milliarddan ortiqdir.Barcha maktablarda maktablarning tashqi belgilari bir xil :o`quvchilar va o`qituvchilar,sinf xonalari va partalar doskalar va bo'r.Ammo bu faqat tashqi o`xshashlik. Aslida maktab jamiyatning tirik hujayrasi tinimsiz hayot qaynaydigan manzil.Shunday ekan ,turli maktablarda ta'lim tizimini qiyosiy o`rganish orqali eng samarali yondashuvlarni aniqlash zarur.Xususan Yaponiyaning boshlang`ich ta'limda stressiz baholash tizimi ta'lim va jamiyatning jamiki sohalarida o`zining yuksak natijasini ko'rsata oladi.

Yaponiya – rivojlangan davlatlar orasida eng oldi o`rinlarda turadi .Har qanday sohada ham boshqa davlatlarga o`rnak bo'la oladigan ,tajriba ulasha oladigan mamlakatdir.Jumladan ,ta'lim sohasiga e'tibor beradigan bo`lsak,bugungi kunda ko'pchlik davlatlar yapon ta'limidan qiyos olib o`z ta'lim tizimini yaratishmoqda .Yapon ta'limining ustun tarafi shundaki ,Yaponiyada tartib birinchi o`rinda turadi..Buyuk sharq mutaffakiri Abu Nasr Farobiy inson kamolotga ilm va ta'rbiya orqali erishadi, ta'lim komillikka yetaklasa tarbiya uning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi deya ta'kidlagan. Shu boisdan tarbiya bo`lmagan joyda ta'lim ham rivojlanmaydi .Biz ham o'z ta'lim tizimimizda shunga alohida e'tibor berishimiz kerak .Yoshlarning tartib intizomi qanchalik yuqori bo'lsa ,ularning ta'limi ,bilim olish darajasi shuncha yuqori bo`ladi.Jahon miqyosida yuqori natijalari bilan bir qatorda muntazam intizomiy tartibi dunyoda e'tirof etilgan Yaponiyada jamiyatida mas'uliyat , intizom , jamoaviylik, hurmat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.Mazkur qadriyatlar bizning milliy mentalitetimiz va tarbiyaviy an'analarimiz bilan uyg`unlashgan jihatlarga ega

Yaponiya ta'lim tizimining shakllanishi 1867-1868yillarda boshlangan.Ko'p o`tmay 1872 – yili "Ta'lim haqida" qonun qabul qilindi .Bunda yapon ta'limi g`arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan .1893-yilda kasb ta'limi yo'nalishidagi 1-chi kollej paydo bo'lgan .1908-yilda Yaponiya boshlang`ich ta'limi majburiy 6yillik qilib belgilanadi .1946yildagi qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi .Unda barcha bolalar bepul ta'lim olishlari shart ekanligi belgilab qoyilgan .Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha :bog`chalar ,boshlang`ich maktab, kichik o`rta maktab yuqori o`rta maktab , oliy ta`lim tizimlariga kiruvchi oliy o`quv yurtlari.Yaponiyada maktabgacha ta`lim muassasalarining59,9foizi-xususiy, 40, foizi davlatnikidir. Bu mamalakatda bolalar 6yoshdan maktabga borishadi. Boshlang`ich maktabga yapon bolalaring 99foizi qatnaydi .99foiz yapon boshlang`ich maktablari davlat tasarrufida atigi 1foizi xususiy maktablarni tashkil qiladi.Boshlang`ich ta`limdagi bolalar kandji iyegrofilidan 1006tasini yod olishi kerak.Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo`yicha dunyoda 2-chi o'rinda turadi.Rivojlangan davlat lar ichida o'qituvchilarining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo`lgan yagona davlat hisoblanadi.,Bu esa o`qituvchilarga bo'lgan hurmat e'tiborning bir namunasidir. Darhaqiqat,o`qituvchilarga qancha e'tibor berilsa ular ham yoshlarga shu darajada e'tiborli bo`lishadi ,kasbiga mas'uliyat bilan yondashadi.

O`zbekiston ta'lim tizimi ham xorij talablariga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.Ta`lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta`lim to`g'risidagi"qonuni 2020yil 23sentabrda (O'RQ-637-son)qabul qilindi.Mazkur qonun 11bob 75 moddadan iborat.Yangilanayotgan O'zbekistonda ta`lim tizimi yuqori bosqichlarda ko`tarilishiga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan ''Taraqqiyot''strategiyasi yordam bermoqda.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta`lim sifatini oshirishda qilayotgan yuksak farmoyishlari natijasida O`zbekistonlik har bir yosh avlod oliy darajada ilm fanni o`zlashtirishiga zamin bo`la oladi.Bunday imkoniyatlar esa bugungi rivojlangan davlatlar o`quv dasturi bo`yicha tajriba almashib yangicha qiyosiy o`rganish va metodlarni amalda qo`llash imkoniyatini yaratib beradi.

Ta`lim tizimini solishtiradigan bo`lsak ,Yaponiya va O`zbekiston ta'limi o`rtasida o`zgacha amalda qo`llash kerak bo`lgan qiyosiy metodlar mavjud.Yaponiya ta'lim tizimida qo`llanilayotgan stressiz baholash konsepsiyasi yagona integrativ jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.Ushbu model o`quvchilarda ichki motevatsiyani rivojlantirish psixologik bosimni kamaytirish hamda shaxsning har tomonlama kamol topishga zamin yaratadi .Shu bois yaponiya ta'limi tajribasi tahlil qilish jarayonida dars mashg`uloti amaldagi DTM asosida o`quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos eng oson natija beruvchi yo`l bilan tushuntirish metodikasi tashkil etildi .Jarayonda ikki xil o`zlashtirish darajasiga ega o`quvchilar kuzatildi . Faol o`quvchilar va sust o`zlashtiruvchi o `quvchilar. Jarayon davomida faolligi bilan boshqalardan tezkor ravishda yaxshi natija ko'rsatgan o`quvchi pedagog tomonidan baholash tizimining eng yuqori ko`rsatgichi bilan butun sinf jamoasi oldida baholandi.Biroq shu sinfdagi sust o`zlashtiruvchi o`quvchida o`z- o`zidan psixologik reaksiya vujudga keldi .U o`zini a'lo bahoga baholangan bola bilan ichki ravishda taqqoslab o`z o`zini past baholash holatiga o`tdi .Bolalarda bunday psixologik holatning kuzatilishi ularning bevosita yoshi bilan bog`liq.Bunday holatlarni qisqacha misollar orqali tahlil qilib

ketamiz.Shu kabi boshlang`ich sinf yoshidagi bolalarda ochiq ochiqdan ochiq jamoa oldida ball tizimida baholashning ijobiy ta'siridan ko`ra salbiy oqibatlari ko`proq kuzatiladi.Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug`ulishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi .U pedagoglarni o`ziga berilgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan .Aytaylik boshlang`ich sinflarning matematika darsida tezkor ishlash talab qilinganida o`quvchi ichki xavotir orqali fikrlash tezligini namoyon qila olmadi .Texnologiya darsi misolida ko'radigan bo`lsak unga qaraganda ijodkorroq yondashgan bolani pedagog eng zo`ri faqat sen bahoying 5desa 4baho bilan baholangan tengdoshi hattoki o`sha tayyorlangan ijod namunasini buzib tashlashgacha boradi .O`sha fanga bo'lgan qiziqishi mutlaqo yo'qoladi,kerak bo'lsa maktabga bormaslik,o'sha fandan dars tayyorlamaslik eng yomoni o`qituvchi dars o`tib turgan paytda ham diqqati boshqa nuqtada bo`lish jarayonlari ko`p kuzatiladi .Ichki qobilyati yashirinchi qolaveradi passivlik yanada ortib javobni bilgan taqdirda ham indamaslik holatiga duch kelamiz .Mazkur ko`rsatuv shuni ko`rsatadiki ochiq ball tizimida baholash boshlang`ich sinf yoshidagi bolalarda o`zini o'zi baholash darajasaning salbiylashishiga sabab bo`ladi

Shunda Yaponiyada boshlang`ich sinf o`quvchilariga dars beruvchi yapon pedagoglari ommaviy maqtovda ehtiyotkorona tizimda ish qo`llaydi .O`quvchilarni bir- biri bilan solishtirmaydi.Bu yondashuv yaponiya ta'lim tizimida insonparvar baholash modeli sifatida shakllangan .Yapon ta'lim tizimida jarayon natijadan ustun qo`yiladi ,ya'ni o`quvchi yakuniy natijasi uchun emas balki bilim olish jarayonidagi harakati mehnati uchun rag`batlantiriladi.bu esa bolaga xato qilishdan qo`rqmaslikni ,mustaqil fikrlashni va o`z ustida ishlashni o`rgatadi .o`quvchilar bir biri bilan keskin raqobatlashmaydi aksincha hamkorlikda ish olib boradi .Bir o`quvchining ikkinchisidan iqtidorsiz deyilishiga yo`l qo`yilmaydi .Yaponiya ta'lim tizimida har bir o`quvchi teng va betakror sanaladi . Bolalar 4-chi sinfga yetgunga qadar imtihon topshirmaydilar, maktabning dastlabki 3yilligi asosiy maqsadi bolaning bahosi emas balki yaxshi xulq atvorini va xarakterini rivojlantirishdir.Bolalar boshqa odamlarga hayvonlarni ,ta'biatni hurmat qilishni o'rganadilar .Hattoki ular o`quv xonasini o`zlari tozalashadi bu ishlarni ular xansei ya'ni jamoa bo'lib amalga oshiradi. Tizim jarayonida doimiy ota –onalar bilan aloqada bo'lishi muhum ahamiyat kasb etadi.O`qituvchilar ham o'quvchilar ham baho yoki ball uchun emas balki ularning umumiy rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi.bu esa ota –onalarning farzandiga nisbatan bosimi kamayadi, aksincha qobilyatlarini birgalikda rivojlantirishga sabab bo`ladi.Yaponiyalik pedagoglarning stressiz baholash tizimi ichki motivatsiyani shakllantiradi .Ularni bilimni baholashga emas balki rivojlanish uchun tizim yaratadi.Natijada har ikkala tomonda sog`lom psixologik muhit yaratiladi.Buni amaliy misollar bilan ko`rib chiqsak.[5.2023.273-281]

Pedagoglar matematika darsida ikki xil ko`rsatgich ko`rsatgan ya'ni tez va shu kabi tezkor natija ko`rsatmagan o`quvchilarni baholash tizimida solishtirish o`rniga qaranglar bugun Temurbek senga 5baho deyishdan ko`ra sening masala yechish usuling qiziqarli aksi bolganlarida esa yana qanday usullardan foydalansak boladi deyishni afzal ko'rishadi .Bitta bola ajratib ko`rsatilmaydi. Dars jarayonini o`zlashtirishga qiynalayotgan o`quvchi ham o`zini past baholanmaydi e`tibor bahoga emas rivojlanishga qaratiladi.

Eng yuqori ijodkorlikka tayyorlovchi texnologiya darsi misolida ko`radigan bo`lsak aytaylik bir o`quvchining yasagan ishi namunadagidek mukammal chiqmasa buzib tashlamoqchi bo`lsa o`qituvchi bugunchalik 4bahoga qilding ertangi darsimizda albatta 5baho uchun harakat qilasan deyishdan ko`ra yapon pedagoklari qaysi joyi senga yoqmadi qaysi qismi yaxshi chiqdi deb kichik yutu``i ko`rsatiladi bolalarning boshqalar bilan emas balki o`z –o`zini baholash mexanizmi ni rivojlantirishga harakat qiladi.

Yaponiya maktablarida 5-4-3 baho oldim emas balki hansei ma'daniyati mavjud bo'lib o'quvchilar darsdan so'ng har doim:

"Bugun dars jarayonlarida nimani o'rgandim?"

"Fanlarning qaysi qismida o'zlashtirishga qiynaldim?"

"Kelasi darsda qanday bilimlarni o`rganishim kerak?" kabi savollarga yozma tarzda javob yozishadi.Bu o`quvchilar ham o'qituvchilar uchun ham ijobiy natijani ko`rsatadi, ikki tomonlama kamchiliklar ustida ishlanib yashirin qobiliyatlar rivojlantiriladi. Ularda stressiz baholash qo`llab quvvatlanadi.Yaponiyada boshlang`ich sinflarda raqamli baholash o`rniga tavsifiy baholash joriy

qilingan.Jarayonni baholashdan, intilishni baholash ustun qo`yiladi,hamkorlik muhiti raqobatning kamligi,stressiz baholash foydalari qo`llab quvvatlanadi. Yaponiya modelida ichki motivatsiya rivojlantirilib xato qilish o`rganish jarayonining tabbiiy qismi deb qaraladi, o`quvchi o'zini erkin ifoda eta oladi.

Bu maqolani o`qib tajribada qo`llamoqchi bo`lgan har bir mutoalachida shunday savol paydo bo'lishi tabiiy.Yaponiyada stressiz ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan har bir boshlang`ich sinf o'quvchilarni bu tizim ruhiy jihatdan asrasada kuchli raqobat talab qiladigan shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatga qanday darajada tayyorlay oladi,kelajakda tengdoshlari orasida raqobatdosh bola oladimi? degan savollar ong ostida vujudga keladi .

Yaponiyada1-3sinflarda o`quvchilar o`zining natijasi bilan solishtiriladi stressni kamaytirish qobiliyatni rivojlantirish.Keyingi 4-6sinflarda sezilarli ijtimoiy raqobat elementlari qo'shila boshlaydi ,jamoa ichida hamkorlik kichik musoboqa orqali o'quvchilar o`zini boshqalar bilan raqobatlashihiga o`rgatiladi .Shu orqali bosqichma bosqich psixologik raqobatga moslashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi globallashuv va ilm fan jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish balki shaxsnning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslanuvchanligini ham shakllantirish zarur .Yaponiyadagi stressiz baholash tizimi boshlang`ich bosqichda bolalarning psixologik sog`lom rivojlanishi ,erkin fikrlashi ,va o`qishga bo`lgan tabiiy qiziqishni oshirishga xizmat qiladi .Biroq zamonaviy raqobat muhiti o`quvchilardan mustahkam bilim , mas'uliyat va raqobatdoshlikni ham talab etadi .Shunday ekan eng samarali yondashuv stressdan holi ,lekin bosqichma bosqich mas'uliyat va baholash elementlari uyg`unlashtirilingan ta`lim modeli ni yaratishdir.Bu esa bolani ham ruhiy jihatdan asraydi ham kelajakdagi kuchli raqobat sharoitiga tayyorlaydi.Yapon ta'lim tizimi O`zbekiston ta'lim tizimiga to`la qonli joriy qilinmasada qisman ulardan namuna olishimiz va boshlang`ich sinflarda baholashning bunday olib borilayotgan metodik uslublaridan amalda qo`llashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri / Abu Nasr Farobiy. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2016. – B. 24–36.
2. Amonov, M. N. Qiyosiy pedagogika / M. N. Amonov. – Buxoro : Bukhara Hamd Print, 2023. – B. 100–114.
3. Ikramov, A. A. Qiyosiy pedagogika / A. A. Ikramov, G. N. Davronova, A. S. Ikromova. – Buxoro:, 2022. – B. 58–85.
4. Mutalipova, M. J. Qiyosiy pedagogika / M. J. Mutalipova, B. X. Xodjayev. – Toshkent:, 2015. – B. 110–129.
5. Kiyamov, N. S. Pedagogika. Psixologiya : oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv uslubiy majmua / N. S. Kiyamov, F. M. Murodov. – Samarqand:, 2023. – B. 273–281.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 23.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
7. Qodirov, Q. B. Yunogogika / Q. B. Qodirov, D. D. Sattorova. – Termiz:, 2025. – B. 87–93.
8. Qosimov, Sh. U. Qiyosiy pedagogika / Sh. U. Qosimov [va boshq.]. – Termiz:, 2025. – B. 10–47.

Saypnazarova Mirigul Kalknazarovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti
Maktabgacha va boshlangich ta'lim kafedrasi assistent o'qituvchisi

TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATIDA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH VA FAOLLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar tahlil etilgan. Unda motivatsiya, o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulyatsiya), refleksiya, irodaviy sifatlar hamda kognitiv faollik kabi asosiy komponentlarning o‘rni yoritilgan. Talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ko‘rib chiqilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish orqali talabalarning faolligi va mas'uliyatini oshirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘quv faoliyati, talabalar, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, refleksiya, kognitiv faollik, irodaviy sifatlar, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ САМОУПРАВЛЕНИЯ И АКТИВНОСТЬ

Аннотация. *В данной работе рассматриваются психологические механизмы, способствующие формированию самоуправления и активности студентов в учебной деятельности. Особое внимание уделяется таким компонентам, как мотивация, саморегуляция, рефлексия, волевые качества и познавательная активность. Анализируются факторы, влияющие на развитие самостоятельности студентов, а также условия, обеспечивающие эффективность учебного процесса. Подчеркивается важность внедрения современных психолого-педагогических подходов для повышения уровня активности и ответственности обучающихся в образовательной среде.*

Ключевые слова: *самоуправление, учебная деятельность, студенты, психологические механизмы, мотивация, саморегуляция, рефлексия, познавательная активность, волевые качества, образовательный процесс.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING SELF-REGULATION AND ACTIVITY IN STUDENTS‘ LEARNING PROCESS

Annotation. *This paper examines the psychological mechanisms that contribute to the development of self-regulation and activity in students' learning process. Particular attention is paid to components such as motivation, self-regulation, reflection, volitional qualities, and cognitive activity. The study analyzes factors influencing students' independence and identifies conditions that ensure the effectiveness of the educational process. The importance of implementing modern psychological and pedagogical approaches to enhance students' engagement and responsibility in the learning environment is emphasized.*

Key words: *self-regulation, learning activity, students, psychological mechanisms, motivation, reflection, cognitive activity, volitional qualities, educational process, student engagement.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan hamda faol pozitsiyaga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulyatsiya) va faollikni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.Talabaning o‘quv faoliyati samaradorligi nafaqat uning bilim darajasi bilan, balki o‘z

faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash hamda kerakli o‘zgartirishlar kiritish qobiliyati bilan ham belgilanadi. O‘zini-o‘zi boshqarish jarayoni talabaning ichki resurslarini safarbar etish, maqsad qo‘yish, unga erishish strategiyalarini ishlab chiqish va natijalarni refleksiv tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, faollik (aktivlik) esa o‘quv jarayonida tashabbuskorlik, mustaqillik, qiziqish va intellektual harakatchanlik kabi sifatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirishda bir qator psixologik mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, motivatsiya, refleksiya, irodaviy sifatlar, kognitiv jarayonlar, emotsional barqarorlik hamda shaxsiy maqsadga yo‘naltirilganlik kabi omillar talabaning o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Ayniqsa, ichki motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi talabaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni mustaqil ravishda izlanishga undaydi. Refleksiya esa o‘z faoliyatini tahlil qilish va xatolar ustida ishlash imkonini beradi.Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida talabalarning faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi shaxsining roli ham muhim bo‘lib, u talabalarda motivatsiyani uyg‘otuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ko‘plab talabalarda o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, maqsadni aniqlash va unga erishish jarayonida qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish va faolligini shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati ortib bormoqda.Tadqiqotning maqsadi - talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida mazkur jarayonning psixologik omillarini o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berish belgilangan.Shunday qilib, talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy kompetentligining oshishi hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu muammo shaxs rivojlanishi, motivatsiya, o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulyatsiya) hamda o‘quv faoliyatining psixologik asoslari bilan chambarchas bog‘liq holda tadqiq etilgan.Xorijiy psixologiya fanida o‘zini-o‘zi boshqarish nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida bir qator olimlarning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya doirasida shaxsning o‘z faoliyatini boshqarish jarayonida o‘ziga bo‘lgan ishonch (self-efficacy) muhim omil sifatida asoslab berilgan. B. Zimmerman esa o‘zini-o‘zi boshqariladigan o‘quv faoliyati modelini ishlab chiqib, unda rejalashtirish, monitoring va refleksiya bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan. Shuningdek, D. Schunk, P. Pintrich kabi tadqiqotchilar motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarishning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganib, talabaning faol o‘quv subyekti sifatida shakllanishida ushbu omillarning ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar.

Faollik va o‘quv jarayonidagi ishtirok masalalari ham ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, J. Dewey ta’limda faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, talabaning o‘quv jarayonidagi faol ishtiroki uning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qilishini ta’kidlagan. L.S. Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida o‘quv faoliyatining rivojlanishini ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlik bilan bog‘liq holda izohlagan. A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarning faoliyat nazariyasi doirasidagi qarashlari esa shaxsning faoliyati orqali rivojlanishini asoslab beradi.Rossiya va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham ushbu muammo keng o‘rganilgan. N.A. Menchinskaya, V.V. Davydov, D.B. Elkonin kabi tadqiqotchilar o‘quv faoliyatining psixologik tuzilmasi, uning rivojlanish bosqichlari hamda o‘quv motivatsiyasining shakllanishiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning ishlari o‘quv faoliyatini tashkil etishda talabaning faol subyekt sifatida

shakllanishiga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarni aniqlashga yordam beradi.O‘zbek olimlari tomonidan ham talabalarning o‘quv faoliyati, ularning faolligi va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, E. G‘oziyev, B. Qodirov, M. Davletshin, Sh. Sodiqov kabi olimlar shaxs psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi hamda ta’lim psixologiyasi doirasida talabalarning kognitiv jarayonlari, motivatsiyasi va faoliyatini o‘rganib, ularning rivojlanish qonuniyatlarini yoritib berganlar. Ushbu tadqiqotlar talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda o‘zini-o‘zi boshqarish va faollik masalalari alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yagona tizim sifatida, ya’ni talabaning o‘quv faoliyatida o‘zaro integratsiyalashgan psixologik mexanizmlar sifatida kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, zamonaviy raqamli ta’lim muhitida ushbu mexanizmlarning o‘ziga xos jihatlari, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari chuqur tadqiq etishni talab etadi.Demak, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirish muammosi muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning tizimli, kompleks va zamonaviy yondashuvlar asosidagi tadqiqi dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida talabalarning motivatsion, kognitiv, emotsional va irodaviy jihatlari o‘rganilib, ularning o‘quv faoliyatiga ta’sir darajasi aniqlashtirildi.Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish darajasi ularning o‘quv faoliyatidagi faolligi bilan bevosita bog‘liq. Yuqori darajadagi ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etishi, mustaqil ishlashga intilishi hamda murakkab vazifalarni hal etishda yuqori natijalarni ko‘rsatishi kuzatildi. Aksincha, tashqi motivatsiya ustun bo‘lgan talabalar o‘quv faoliyatida passivlikka moyil bo‘lib, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi nisbatan past bo‘lishi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish jarayonida samaraliroq harakat qiladi. Bunday talabalar o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yadi, rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi hamda o‘z faoliyatini muntazam nazorat qilib boradi. Natijada, ularning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlangan bo‘ladi.Shuningdek, irodaviy sifatlar - sabr-toqat, qat’iyatlilik, mas’uliyatlilik kabi omillar ham talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligini belgilovchi muhim psixologik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ldi. Tahlil davomida aniqlanishicha, yuqori irodaviy sifatga ega talabalar murakkab o‘quv vazifalaridan qochmaydi, balki ularni hal etishga intiladi va natijaga erishishda barqarorlikni saqlab qoladi.

1-jadval.

Talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini -o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirish dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar (psixologik omillar)	Past daraja (%)	O‘rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)	O‘rtacha ball
1	**Ichki motivatsiya**	18%	42%	40%	3.4
2	**Tashqi motivatsiya**	25%	50%	25%	3.0
3	**O‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulyatsiya)**	20%	48%	32%	3.2
4	**Refleksiya darajasi**	22%	46%	32%	3.1
5	**Kognitiv faollik**	15%	45%	40%	3.5
6	**Irodaviy sifatlar**	17%	50%	33%	3.3
7	**Emotsional barqarorlik**	19%	47%	34%	3.2
8	**Mustaqil ishlash ko‘nikmasi**	16%	44%	40%	3.4

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, **ichki motivatsiya** ko'rsatkichi nisbatan yuqori (40%) bo'lib, talabalar o'quv faoliyatiga ichki ehtiyoj va qiziqish asosida jalb etilayotganligini bildiradi. Bu esa ularning bilim olishga bo'lgan ongli munosabati shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ichki motivatsiyaning o'rtacha darajadagi ulushi (42%) uning barcha talabalarda yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.**Tashqi motivatsiya** ko'rsatkichlari esa asosan o'rta darajada (50%) to'plangan. Bu talabalar faoliyatida tashqi omillar - baho, rag'bat, nazorat kabi vositalar muhim rol o'ynashini anglatadi. Biroq tashqi motivatsiyaning yuqori darajasi past (25%) bo'lgani, ichki motivatsiya bilan solishtirganda, talabalarda ichki rag'batning ustunlik qilayotganini ko'rsatadi.**O'zini-o'zi boshqarish (self-regulyatsiya)** natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar asosan o'rta darajada (48%) ushbu ko'nikmaga ega. Yuqori darajadagi ko'rsatkich (32%) esa yetarli emas, bu esa talabalarda o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini bildiradi.**Refleksiya darajasi** ham o'rtacha ko'rsatkichda (46%) bo'lib, talabalar o'z faoliyatini tahlil qilishda ma'lum darajada qobiliyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq yuqori darajadagi refleksiya ulushining (32%) kamligi talabalarda chuqur tahliliy fikrlash va o'z ustida ishlash ko'nikmalari yetarlicha shakllanmaganligini anglatadi.**Kognitiv faollik** eng yuqori natijalardan birini ko'rsatdi (40%). Bu talabalar bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilishi yuqori ekanligini bildiradi. Past darajadagi ulushning (15%) kamligi esa ijobiy holat sifatida baholanadi.**Irodaviy sifatlar** bo'yicha natijalar o'rtacha darajada (50%) to'plangan. Bu talabalar ma'lum darajada sabr-toqatli va mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi, biroq yuqori darajadagi ulushning (33%) yetarli emasligi murakkab vazifalarni bajarishda qat'iyatlilikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Emotsional barqarorlik ko'rsatkichlari ham asosan o'rta darajada (47%) bo'lib, talabalar stressli vaziyatlarda o'zini boshqarishda qisman qiyinchiliklarga duch kelishini bildiradi. Yuqori darajadagi ko'rsatkichning (34%) mavjudligi esa ayrim talabalar bu borada yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi.**Mustaqil ishlash ko'nikmasi** natijalari (40% yuqori) talabalar orasida mustaqil o'qish va o'z ustida ishlashga moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga mos keluvchi ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi.(1-jadval)

2-jadval.

Talabalarning o'quv faoliyatida o'zini-o'zi boshqarish va faollikni shakllantirishni o'rganish metodlari

№	Metod nomi	Metod tavsifi	O'lchanadigan ko'rsatkichlar	Tadqiqotdagi ahamiyati
1	So'rovnoma (anketa)	Talabalarning fikr va munosabatlarini aniqlash uchun yozma savollar tizimi	Motivatsiya, faollik darajasi, mustaqillik	Talabalarning umumiy psixologik holatini aniqlash
2	Test metodi	Psixologik testlar orqali individual xususiyatlarni baholash	O'zini-o'zi boshqarish, refleksiya, kognitiv qobiliyat	Aniq va standartlashtirilgan natijalar olish
3	Kuzatish metodi	Talabalarning o'quv jarayonidagi xatti-harakatlarini bevosita kuzatish	Faollik, tashabbuskorlik, ishtirok darajasi	Real xulq-atvorni aniqlash
4	Suhbat (intervyu)	Talabalar bilan og'zaki muloqot orqali ma'lumot yig'ish	Qiziqishlar, ichki motivatsiya, muammolar	Chuqur va individual tahlil qilish
5	Pedagogik tajriba	Maxsus tashkil etilgan sharoitda o'quv jarayonini sinovdan o'tkazish	O'zini-o'zi boshqarish dinamikasi, faollik o'zgarishi	Metodlarning samaradorligini tekshirish

6	Faoliyat mahsulini tahlil qilish	Talabalarning yozma ishlari, topshiriqlari va loyihalarini o‘rganish	Talabalarning yozma ishlari, topshiriqlari va loyihalarini o‘rganish	Natijaviylikni baholash

O‘zini-o‘zi boshqarishni o‘rganish metodlari.

O‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulation) - bu talabaning o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, uni rejalashtirishi va natijalarni tahlil qilish qobiliyatidir.

N.M. Peysaxovning "O‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati" testi: Talabaning vaziyatni tahlil qilish, prognozlash, maqsad qo‘yish va qaror qabul qilish bosqichlarini qanchalik egallaganini aniqlaydi.V.I. Morosanovaning "Xulq-atvorni o‘zini-o‘zi tartibga solish uslublari" so‘rovnomasi: Talaba o‘z o‘quv rejasiga qanchalik amal qilishi va tashqi omillarga nisbatan barqarorligini o‘rganadi.

Xulosa. Talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantirish masalalarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.Birinchidan, talabalik davri shaxsning professional kamoloti va o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun eng muhim bosqich bo‘lib, bu davrda o‘quv faoliyati shunchaki bilim olish emas, balki murakkab subyektiv jarayonga aylanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, talabada o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari - ya’ni o‘quv maqsadlarini aniq belgilash, ularga erishish yo‘llarini rejalashtirish va o‘z natijalarini tanqidiy baholash qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning akademik faolligi ham shunchalik barqaror bo‘ladi.Ikkinchidan, o‘quv faolligini shakllantirishda faqatgina tashqi pedagogik ta’sirlar (baholash, nazorat) yetarli emas. Asosiy e’tibor talabaning ichki motivatsiyasini uyg‘otishga, unda "men mustaqil mutaxassisman" degan pozitsiyani rivojlantirishga qaratilishi lozim. Metodik jihatdan o‘rganish shuni tasdiqladiki, refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) va irodaviy o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmlari talabaning qiyin vaziyatlarda ham o‘quv samaradorligini saqlab qolishini ta’minlaydi.Uchinchidan, talabalarning faolligini oshirish uchun ta’lim jarayoniga zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish zarur. Xususan, muammoli ta’lim usullari, loyihaviy o‘qitish va o‘z-o‘zini diagnostika qilish metodikalari talabalarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.Umuman olganda, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati shakllangan talaba nafaqat universitet davrida muvaffaqiyat qozonadi, balki kelajakda o‘zgaruvchan mehnat bozorida mustaqil qaror qabul qila oladigan, raqobatbardosh mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ta’lim muassasalarida talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish - zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblanishi lozim.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimova, V. M. Psixologiya / V. M. Karimova. – Toshkent : O‘qituvchi, 2018. – 320 b.
2. G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya / E. G‘. G‘oziyev. – Toshkent : Universitet, 2017. – 280 b.
3. To‘xtaxodjayeva, M. X. Pedagogika / M. X. To‘xtaxodjayeva. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2019. – 350 b.
4. Qodirova, X. A. Ta’lim psixologiyasi / X. A. Qodirova. – Toshkent : TDPU nashriyoti, 2020. – 210 b.
5. Выготский, Л. С. Психология развития человека / Л. С. Выготский. – Москва : Смысл, 2005. – 512 с.
6. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность / А. Н. Леонтьев. – Москва : Политиздат, 1977. – 304 с.
7. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 720 с.

Turdiyeva Latofat Almardonovna
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi
E-mail: latofatturdiyeva83@gmail.com

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARDA VIKTIM XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaviy zo'ravonlikka duch kelgan ayollarda viktim xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari, uning ijtimoiy-psixologik omillari hamda shaxsiy rivojlanishga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Oilaviy zo'ravonlik natijasida ayollarda o'zini ayblash, past o'z-o'zini baholash, ijtimoiy qaramlik, psixologik himoyasizlik va passiv moslashuv kabi holatlar kuchayishi asoslab berilgan. Shuningdek, viktimlikka olib keluvchi omillar sifatida oilaviy muhit, gender stereotiplari, iqtisodiy qaramlik, emotsional bosim va uzoq muddatli psixologik zo'ravonlikning roli yoritilgan. Tadqiqot davomida viktim xulq-atvorni kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *oilaviy zo'ravonlik, viktim xulq-atvor, ayollar psixologiyasi, psixologik himoya, emotsional zo'ravonlik, gender stereotiplari, ijtimoiy moslashuv, psixologik barqarorlik, o'z-o'zini baholash, viktimlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВИКТИМНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ЖЕНЩИН, ПОДВЕРГШИХСЯ СЕМЕЙНОМУ НАСИЛИЮ

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы механизмы формирования виктимного поведения у женщин, подвергшихся семейному насилию, его социально-психологические факторы и влияние на личностное развитие. Обосновано, что в результате семейного насилия у женщин усиливаются самообвинение, заниженная самооценка, социальная зависимость, психологическая беззащитность и пассивная адаптация. Также раскрыта роль семейной среды, гендерных стереотипов, экономической зависимости, эмоционального давления и длительного психологического насилия как факторов, приводящих к виктимности. В ходе исследования разработаны психопрофилактические и психокоррекционные рекомендации по снижению виктимного поведения.*

Ключевые слова: *семейное насилие, виктимное поведение, психология женщин, психологическая защита, эмоциональное насилие, гендерные стереотипы, социальная адаптация, психологическая устойчивость, самооценка, виктимность.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF VICTIM BEHAVIOR IN WOMEN SUBJECTED TO DOMESTIC VIOLENCE

Abstract. *This article scientifically analyzes the mechanisms of victim behavior formation in women exposed to domestic violence, its socio-psychological factors, and its impact on personal development. It is substantiated that domestic violence strengthens self-blame, low self-esteem, social dependence, psychological vulnerability, and passive adaptation in women. The role of family environment, gender stereotypes, economic dependence, emotional pressure, and long-term psychological abuse as factors leading to victimization is also highlighted. In addition, psycho-preventive and psycho-corrective recommendations aimed at reducing victim behavior have been developed.*

Keywords: *domestic violence, victim behavior, women's psychology, psychological protection, emotional abuse, gender stereotypes, social adaptation, psychological stability, self-esteem, victimization.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar, ayniqsa, ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonlik holatlari dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Oila inson shaxsining shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ruhiy barqarorligini ta’minlovchi eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Shu sababli yurtimizda oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, muntazam bosim, tahdid, emotsional sovuqlik va zo‘ravonlik holatlariniga qarshi keng qamrovli chora-tadbirlar amaliyotag tadbiq etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, uning muhofazasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oilaviy zo‘ravonlik faqat jismoniy tajovuz bilan cheklanmaydi. U psixologik bosim, iqtisodiy cheklash, ijtimoiy izolyatsiya, emotsional manipulyatsiya, tahqirlash, nazorat va majburlash kabi ko‘plab shakllarda namoyon bo‘ladi. Mazkur zo‘ravonlik turlari ko‘pincha yashirin xarakterga ega bo‘lib, uzoq muddat davom etishi natijasida ayolda ichki qarshilik resurslari pasayadi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati susayadi hamda shaxsda viktim xulq-atvor shakllanishi uchun psixologik zamin yuzaga keladi.

Viktim xulq-atvor psixologiyada shaxsning o‘zini himoya qilish imkoniyatlari zaiflashgan, zo‘ravonlikka nisbatan passiv moslashgan, o‘z manfaatlarini himoya qilishda qiyinchilikka duch keladigan va jabrlanuvchi pozitsiyasini ichki qabul qilgan holati sifatida tavsiflanadi. Bunday xulq-atvor shakllanishida faqat tashqi zo‘ravonlik emas, balki shaxsning oldingi hayotiy tajribasi, bolalikdagi oilaviy tarbiya, gender stereotiplari, iqtisodiy qaramlik, ijtimoiy bosim va psixologik himoya mexanizmlarining zaifligi ham muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy adabiyotlarda viktimlik tushunchasi dastlab kriminologik yo‘nalishda o‘rganilgan bo‘lsada, zamonaviy psixologiyada bu masala shaxs psixologiyasi, oila psixologiyasi, gender psixologiyasi va travma psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda “o‘rganilgan ojizlik” (learned helplessness), past o‘z-o‘zini baholash, depressiv reaksiyalar, xavotirlik, ijtimoiy qaramlik va emotsional frustratsiya kabi holatlar viktim xulqning barqarorlashuviga olib keladi. M. Seligman tomonidan ilgari surilgan “o‘rganilgan ojizlik” nazariyasi bu jarayonni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, shaxs takroriy nazorat qilib bo‘lmaydigan salbiy vaziyatlarga duch kelganida, asta-sekin faol qarshilik ko‘rsatishdan voz kechadi va passiv moslashuvni tanlaydi. L. Walker tomonidan ishlab chiqilgan “zo‘ravonlik sikli” konsepsiyasi ham oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarining psixologik holatini tushuntirishda muhimdir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, zo‘ravonlik ma’lum davriy bosqichlarda takrorlanib boradi: keskinlikning ortishi, zo‘ravonlik akti va soxta yarashuv bosqichi. Ushbu sikl ayolda umid va qo‘rquv o‘rtasidagi ichki ziddiyatni kuchaytirib, uni zo‘ravon munosabatdan chiqib ketish imkoniyatidan uzoqlashtiradi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur muammoning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Milliy mentalitet, “oilani saqlab qolish”ga qaratilgan kuchli ijtimoiy bosim, ajrimga nisbatan salbiy munosabat, iqtisodiy qaramlik hamda ayrim hollarda ayolning sabr va itoatni ijobiy fazilat sifatida qabul qilishi viktim xulq-atvor shakllanishini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois oilaviy zo‘ravonlik masalasini faqat huquqiy yoki ijtimoiy muammo sifatida emas, balki chuqur psixologik va shaxsiy rivojlanish muammosi sifatida ham o‘rganish zarur.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash, ularni erta diagnostika qilish hamda samarali psixoprofilaktik va psixokorreksion yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kun psixologiya fanining muhim vazifalaridan biridir. Chunki ayolning ruhiy salomatligi nafaqat uning individual farovonligiga, balki farzandlar tarbiyasi, oilaviy barqarorlik va jamiyatning sog‘lom rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Oilaviy zo‘ravonlik va uning natijasida shakllanuvchi viktim xulq-atvor masalasi psixologiya, sotsiologiya, viktimologiya, pedagogika hamda huquqshunoslik fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni ilmiy tahlil qilishda, avvalo, “viktimlik” va “viktim xulq-atvor” tushunchalarining mazmunini aniqlash muhimdir. Viktimologiya fanida viktimlik shaxsning ma’lum ijtimoiy, psixologik va individual omillar ta’sirida jabrlanuvchi pozitsiyasiga tushish ehtimolining ortishi bilan izohlanadi. Bu tushuncha faqat jinoyat qurboniga aylanish emas, balki shaxsning zo‘ravonlikka nisbatan passiv moslashuvi, ichki himoya resurslarining zaiflashuvi va o‘zini himoya qilish strategiyalarining susayishi bilan ham tavsiflanadi. Viktimologiya nazariyasining shakllanishida H. fon Hentig, B. Mendelson va S. Schafer

kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. H. fon Hentig jabrlanuvchini faqat passiv obyekt sifatida emas, balki ma’lum ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida viktim vaziyatga tushuvchi subyekt sifatida talqin etgan. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy tajribasi, xarakter xususiyatlari, emotsional zaifligi va muhitga moslashish uslubi viktimlik ehtimolini oshiradi. B. Mendelson esa viktimologiyada “jabrlanuvchi tipologiyasi”ni ishlab chiqib, shaxsning viktimlashuv darajasini turli omillar bilan bog‘lagan. U jabrlanuvchini faqat tashqi tajovuz natijasi emas, balki psixologik va ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida ko‘rsatgan. Oilaviy zo‘ravonlik kontekstida viktim xulq-atvorni tushuntirishda M. Seligmanning “o‘rganilgan ojizlik” (learned helplessness) nazariyasi muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson uzoq muddat davomida nazorat qilib bo‘lmaydigan salbiy vaziyatlarga duch kelganda, faol qarshilik ko‘rsatish motivatsiyasini yo‘qotadi va passiv moslashuv strategiyasini tanlaydi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda aynan shu holat kuzatiladi: ular zo‘ravonlikni to‘xtatish imkoniyati yo‘q deb hisoblab, sukut saqlash, bo‘ysunish va o‘zini ayblashga moyil bo‘lib qoladilar. Natijada psixologik qaramlik va ichki taslim bo‘lish shakllanadi.

L. Walker tomonidan ishlab chiqilgan “zo‘ravonlik sikli” nazariyasi ham oilaviy zo‘ravonlik jarayonini tushuntirishda keng qo‘llaniladi. Unga ko‘ra, zo‘ravonlik odatda uch bosqichda kechadi: birinchi bosqich - keskinlikning ortishi, ikkinchi bosqich - zo‘ravonlik aktining sodir bo‘lishi, uchinchi bosqich esa yarashuv yoki “asal oyi” davri hisoblanadi. Aynan ushbu takrorlanuvchi sikl ayolda umid va qo‘rquv o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni kuchaytiradi. U zo‘ravon sherikning vaqtinchalik ijobiy munosabatini real o‘zgarish sifatida qabul qiladi va munosabatni tark etish qarorini kechiktiradi. Bu esa viktim xulqning mustahkamlanishiga olib keladi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi ham mazkur masalani tushuntirishda muhimdir. Olimning fikricha, inson xulq-atvori kuzatish, taqlid va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. Agar bola oilada zo‘ravonlik, bosim, tahqirlash yoki bo‘ysunishni odatiy munosabat modeli sifatida kuzatib ulg‘aysa, katta yoshda shu modelni normal deb qabul qilishi mumkin. Ayniqsa, qiz bolalarda “chidash”, “sabr qilish”, “oilani saqlash” kabi ijtimoiy stereotiplar ichki me’yor sifatida shakllanib, keyinchalik viktim xulq uchun psixologik asos yaratadi.

Z. Freydning psixoanalitik qarashlari ham ayrim holatlarda viktimlikning ichki mexanizmlarini izohlashga yordam beradi. Freyd insonning ongsiz tajribalari, bolalikdagi travmatik kechinmalar va ichki konfliktlari keyingi shaxsiy munosabatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Agar ayol bolalik davrida zo‘ravonlik, e’tiborsizlik yoki hissiy sovuqlikni boshdan kechirgan bo‘lsa, u kelajakda zararli munosabatlarni “tanish” va psixologik jihatdan odatiy holat sifatida qabul qilishi mumkin. Bu esa zo‘ravon sherik bilan munosabatni tark etishni qiyinlashtiradi.

K. Horney esa nevrotik ehtiyojlar nazariyasida shaxsning haddan tashqari bo‘ysunuvchanligi, tasdiqqa ehtiyoji va rad etilishdan qo‘rqishini ichki xavfsizlik yetishmasligi bilan izohlaydi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda aynan shu psixologik holat tez-tez uchraydi. Ular munosabatni yo‘qotishdan qo‘rqib, zo‘ravonlikka chidashni afzal ko‘radilar.

Mahalliy psixologik tadqiqotlarda oila muhitining shaxs rivojlanishidagi roli, gender stereotiplari va ijtimoiy bosim alohida o‘rganilgan. V.M. Karimova oila psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarida oiladagi psixologik iqlim shaxsning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslagan. Uning fikricha, oiladagi muntazam tanqid, tahqirlash va hissiy sovuqlik ayolda o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni shakllantiradi. E.G‘. G‘oziev esa shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishini tahlil qilib, uzoq davom etuvchi psixologik bosimning shaxs motivatsiyasini susaytirishini ko‘rsatgan. O‘zbekiston sharoitida oilaviy zo‘ravonlik masalasi milliy mentalitet bilan ham chambarchas bog‘liq. Jamiyatda ayolning oilani saqlab qolishdagi mas’uliyati yuqori baholanishi, ajrimga nisbatan salbiy munosabat, iqtisodiy qaramlik va mahalla bosimi ko‘pincha ayolni zo‘ravon munosabatni davom ettirishga majbur qiladi. Ayrim hollarda zo‘ravonlik “oilaviy ichki masala” sifatida qabul qilinib, psixologik yordamga murojaat qilish kechiktiriladi. Bu esa viktimlikning chuqurlashishiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional zo‘ravonlik, gaslighting, manipulyativ nazorat va iqtisodiy cheklash kabi yashirin zo‘ravonlik shakllari ham viktim xulq shakllanishining muhim omillari sifatida ko‘rilmoqda. Ayniqsa, gaslighting holatida ayolning voqelikni adekvat baholash qobiliyati buziladi, o‘z fikriga bo‘lgan ishonch pasayadi va u zo‘ravon sherikning psixologik nazoratiga to‘liq tushib qoladi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishi birgina tashqi bosim natijasi emas, balki biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri mahsulidir. Mazkur muammoni samarali hal etish uchun faqat huquqiy himoya emas, balki chuqur psixologik diagnostika, psixoprofilaktika va shaxsiy resurslarni tiklashga qaratilgan kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishining psixologik mexanizmlari, uning namoyon bo‘lish darajasi hamda ushbu holatga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar kompleks ravishda o‘rganildi. Kuzatishlar va psixodiagnostik natijalar shuni ko‘rsatdiki, zo‘ravonlikning uzoq muddat davom etishi ayol shaxsida nafaqat emotsional beqarorlikni, balki barqaror viktim pozitsiyasini ham shakllantiradi. Bu holat ayolning o‘zini jabrlanuvchi sifatida qabul qilishi, zo‘ravonlikka nisbatan faol qarshilik ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklashi va ijtimoiy qaramlikni kuchaytirishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinaluvchilarning aksariyatida o‘z-o‘zini baholash darajasining pasaygani kuzatildi. Ular o‘z shaxsiy qadr-qimmatini yetarli darajada anglamaslik, qaror qabul qilishda ishonchsizlik va o‘z fikrini himoya qilishdagi qiyinchiliklarni namoyon etdilar. Ayniqsa, uzoq muddatli psixologik zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarda “men bunga loyiqman”, “muammo mendan” kabi ichki ayblov mexanizmlari kuchli shakllangani aniqlandi. Bu esa viktim xulq-atvorning markaziy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Bekning tashvish shkalasi natijalari ayollarda yuqori darajadagi xavotirlik, ichki qo‘rquv va doimiy psixologik zo‘riqish mavjudligini ko‘rsatdi. Ko‘plab ishtirokchilarda kelajakdan qo‘rqish, oilaviy nizolarning takrorlanishidan xavotirlanish va ijtimoiy yordamga ishonchsizlik holatlari kuzatildi. Ushbu psixologik fon ayolning mustaqil harakat qilishiga to‘sqinlik qilib, zo‘ravon munosabatdan chiqib ketish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Bass-Darki metodikasi orqali frustratsiya va ichki agressiya darajasi ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tashqi agressiya ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lsa-da, ichki agressiya, aybdorlik hissi va frustratsion zo‘riqish yuqori darajada namoyon bo‘lgan. Bu holat ayollarning konfliktni tashqi qarshilik orqali emas, balki ichki siqilish va o‘zini ayblash orqali boshdan kechirayotganini ko‘rsatadi. Aynan ichki repressiyalangan agressiya depressiv kayfiyat va passiv moslashuvni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Rosenbergning o‘z-o‘zini baholash metodikasi natijalarida ham past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Sinaluvchilarning katta qismi o‘zini ijtimoiy jihatdan kuchsiz, himoyasiz va yordamga muhtoj deb his qilgan. Ularning aksariyati ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga to‘liq ishonmasligini bildirgan. Bu esa viktimlikning faqat oilaviy munosabat mahsuli emas, balki kengroq ijtimoiy muhit bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy qaramlik omili alohida ahamiyat kasb etdi. Ishlamaydigan yoki moliyaviy mustaqilligi cheklangan ayollarda viktim xulq-atvor ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ular zo‘ravon munosabatni tark etishning asosiy to‘sig‘i sifatida moddiy ta’minot, farzandlar kelajagi va ijtimoiy himoyasizlikni ko‘rsatdilar. Bu holat oilaviy zo‘ravonlikning psixologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari ham kuchli ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, milliy mentalitet va gender stereotiplari ham viktim xulq shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. “Ayol sabrli bo‘lishi kerak”, “oilani saqlash ayolning vazifasi”, “ajrashish uyat” kabi ijtimoiy qarashlar ayollarda ichki psixologik bosimni kuchaytiradi. Natijada ular zo‘ravonlikni shaxsiy fojiadan ko‘ra ijtimoiy majburiyat sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu esa zo‘ravonlikka qarshi faol pozitsiya shakllanishini susaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bolalik davrida oilaviy konfliktlar yoki ota-onalar o‘rtasidagi zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan ayollarda viktim xulq shakllanish ehtimoli yuqoriroq bo‘ladi. Ular zo‘ravonlikni “normal oilaviy model” sifatida ichkilashtirib, zararli munosabatlarni tanish va odatiy deb qabul qiladilar. Bu holat Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va Freydning travmatik tajribalarni takrorlash haqidagi psixoanalitik yondashuvi bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot natijalari asosida viktim xulq-atvorning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar ajratildi: past o‘z-o‘zini baholash, o‘rganilgan ojizlik, emotsional qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, iqtisodiy qaramlik, passiv moslashuv va ichki aybdorlik hissi. Mazkur omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini kuchaytiruvchi tizimli mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishi ko‘p omilli va murakkab psixologik jarayon ekanligini tasdiqladi. Mazkur holatni

bartaraf etish uchun faqat individual psixologik yordam yetarli emas, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash, huquqiy himoya va gender madaniyatini o‘zgartirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligi aniqlandi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishi tasodifiy holat emas, balki uzoq davom etuvchi psixologik bosim, ijtimoiy cheklovlar, iqtisodiy qaramlik hamda shaxsiy himoya resurslarining susayishi natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Oilaviy zo‘ravonlik ayolning nafaqat ruhiy holatiga, balki uning ijtimoiy faolligi, qaror qabul qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini baholashi va kelajakni rejalashtirish imkoniyatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zo‘ravonlikka muntazam duch kelgan ayollarda o‘zini ayblash, ichki qo‘rquv, emotsional beqarorlik, passiv moslashuv, depressiv reaksiyalar va o‘rganilgan ojizlik holatlari kuchli namoyon bo‘ladi. Bunday psixologik holatlar ayolning zo‘ravon munosabatni tark etishiga to‘sqinlik qilib, viktim pozitsiyaning barqarorlashuviga olib keladi. Ayniqsa, iqtisodiy mustaqillikning yetishmasligi, bolalar taqdiri uchun xavotir va ijtimoiy bosim zo‘ravonlikni davom ettiruvchi omillar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Shuningdek, milliy mentalitet, gender stereotiplari va “oilani saqlab qolish”ga qaratilgan ijtimoiy talablar ham viktim xulq-atvorning mustahkamlanishiga xizmat qilishi aniqlandi. Ayrim hollarda ayollar zo‘ravonlikni shaxsiy fojiadan ko‘ra majburiy sabr sifatida qabul qiladilar. Bu esa psixologik yordamga murojaat qilishni kechiktiradi va zo‘ravonlikning yashirin davom etishiga sabab bo‘ladi.

3. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bolalik davrida zo‘ravonlik, hissiy sovuqlik yoki oilaviy konfliktlarga guvoh bo‘lish ham kelajakdagi viktim xulq shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs bolalikda o‘zlashtirgan munosabat modeli keyinchalik oilaviy hayotda takrorlanishi mumkin. Shu sababli viktimlik faqat hozirgi vaziyat mahsuli emas, balki oldingi hayotiy tajriba bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

4. Tadqiqot asosida viktim xulq-atvorning asosiy indikatorlari sifatida past o‘z-o‘zini baholash, emotsional qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, o‘rganilgan ojizlik, ichki aybdorlik hissi, frustratsiyaning yuqoriligi va passiv moslashuv ajratib ko‘rsatildi. Ushbu omillar kompleks tarzda ayolning psixologik himoya mexanizmlarini zaiflashtiradi va zo‘ravonlikka qarshi faol kurashish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlashda faqat huquqiy emas, balki psixologik yondashuv ustuvor bo‘lishi zarur. Psixologik maslahat markazlari, krizis xizmatlari va reabilitatsiya dasturlari tizimli ravishda faoliyat yuritishi kerak.

Ikkinchidan, ayollarda o‘z-o‘zini baholashni tiklash, psixologik mustaqillikni rivojlantirish va assertiv xulq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ayniqsa, emotsional zo‘ravonlik va manipulyativ nazoratga qarshi psixologik immunitetni kuchaytirish muhimdir.

Uchinchidan, iqtisodiy qaramlikni kamaytirish maqsadida ayollarning bandligini oshirish, kasbiy tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar joriy etilishi zarur. Chunki iqtisodiy mustaqillik ko‘pincha psixologik erkinlikning asosiy sharti hisoblanadi.

To‘rtinchidan, mahalla, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan profilaktik targ‘ibot ishlari olib borilishi kerak. “Sabr qilish majburiyati” emas, balki “xavfsiz hayot huquqi” ijtimoiy qadriyat sifatida shakllantirilishi lozim.

Beshinchidan, oilaviy zo‘ravonlikni erta aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadida psixologlar, pedagoglar, mahalla faollari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida integratsiyalashgan hamkorlik tizimini yaratish zarur.

Oltinchidan, oliy ta’lim muassasalari va maktablarda sog‘lom oilaviy munosabatlar, shaxsiy chegaralarni himoya qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va psixologik savodxonlikka oid maxsus dasturlar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Freud, Z. Beyond the Pleasure Principle / Z. Freud. – London : Hogarth Press, 1922. – 90 p.
2. Walker, L. E. The Battered Woman / L. E. Walker. – New York : Harper and Row Publishers, 1979. – 370 p.
3. Seligman, M. E. P. Learned Helplessness: On Depression, Development and Death / M. E. P. Seligman. – San Francisco : Freeman, 1975. – 256 p.
4. Bandura, A. Social Learning Theory / A. Bandura. – New York : General Learning Press, 1977. – 247 p.
5. Rubinshteyn, S. L. Osnovi obshchey psixologii / S. L. Rubinshteyn. – Sankt-Peterburg : Piter, 2002. – 720 b.
6. Leontev, A. N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost / A. N. Leontev. – Moskva : Smysl, 2005. – 352 b.
7. G'oziyev, E. G'. Umumiy psixologiya / E. G'. G'oziyev. – Toshkent : O'qituvchi, 2010. – 312 b.
8. G'oziyev, E. G'. Shaxs psixologiyasi / E. G'. G'oziyev. – Toshkent : Universitet, 2005. – 256 b.
9. Karimova, V. M. Oila psixologiyasi / V. M. Karimova. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2008. – 184 b.
10. Karimova, V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari / V. M. Karimova. – Toshkent : O'qituvchi, 1994. – 230 b.
11. Vohidov, M. Ijtimoiy psixologiya asoslari / M. Vohidov. – Toshkent : O'zbekiston, 2002. – 280 b.

“BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)***
https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**
Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)
METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)
NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)
Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	Muallif va maqola nomi
5	**Gaziyeva F.E.** Alkogolga tobe bemorlarda hayotiy chidamlilik ko'rsatkichi bilan bog'liq omillar
12	**Aminova Gulnoza** The strategic importance of ensuring gender equality in the new uzbekistan
16	**Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna** Umumta'lim maktab bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda pedagogik amaliyotning ijtimoiy-psixologik omillari
21	**Mirhaydarova D.G.** Psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalarda diqqatning psixologik xususiyatlari
26	**Toyirova Laylo Izatovna** Egizaklar shaxsining shakllanishida gen va ijtimoiy Muhitning roli
30	**Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna, Zuxurova Dilrabo Abdulaziz qizi** Shaxsda 'men' tasavvuri va o'z-o'zini baholashning asosiy rivojlanish bosqichlari
35	**Odilova Naira Gulyamovna** Zamonaviy o'smirlar axloqiy o'zini o'zi anglashining tarkibiy-psixologik modeli
43	**Otamuratov Rustam Uskanovich** Theoretical analysis of psychological characteristics of people exposed to the influence of social networks
48	**Raxmatullayev Farxod Baxtiyor o'g'li** Talabalarning universitet muhitiga moslashuvida, Kommunikativ kompetentlikning gender xususiyatlari
53	**Xudayarova Nargizaxon Baxromjon qizi** O'smirlik davridagi muloqotdagi muammolarning o'ziga. Xosligi
57	**Dinobod Xudoyqulova Baxtiyor qizi** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik qobiliyat va kognitiv jarayonlar shakllanish qonuniyatlari
64	**Туракулова Азиза** Теоретические основы оптимизации этнической идентичности в студенческом возрасте
69	**Abdullayev Bobur Asqarjonovich** Davlat xizmatlari tizimida rahbar kadrlarni psixologik saralashning ilmiy-metodik jihatlari
73	**Абдумаджидова Дилдора Рахматуллаевна** Исследование показателей нейропластичности у детей дошкольного возраста
76	**Abduraxmanova Zuxra Erkinovna** Turli millatli oila farzandlarida etnik identiklik shakllanisining etnopsixologik xususiyatlari
83	**Абдурахманова Регина Исамутдиновна** Статистическая оценка развития психологической устойчивости военнослужащих в процессе профессиональной подготовки
88	**Bozorova Dilfuza Saydali qizi** Mas'uliyatlilik: pedagog kasbiy kamolotining ijtimoiy-Psixologik omili
93	**Ismoilova Sevara Ravshanovna** Yosh oilalarda oilaviy munosabatning shakllanishining psixologik xususiyatlari
97	**Кадиркулова Жадыра Ерлан кызы** Интегративная модель академической прокрастинации студентов в цифровой образовательной среде
103	**Markendudi Marina Anatolevna** Интегративная салютогенетическая модель Профилактики аддиктивного поведения у молодёжи

107	**Mirzayev Olim Saforovich** Shaxs psixologik qiyofasini baholashda proyektiv tashxisning roli
111	**Мажидов Наби Махмудович** The place of psychological and pedagogical knowledge in the theoretical and practical training of the future teacher
116	**Nasimdjanova Maxsuma Majidovna** Madaniyat va shaxs munosabatlari kontekstida inkulturatsiya jarayonining nazariy tahlili
123	**Rasulov Abdimumin Ibragimovich** Tayanch harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlarning tipologik xususiyatlari
133	**Кудратуллаева Рухсора Бахтияровна** Новоевропейская философия рефлексии: от локка к канту и гегелю
137	**Soibjonov Jasurbek Botirjon o'g'li** Emotsional intellekt kasbiy o'zini-o'zi anglashning muhim omili sifatida
141	**Турдиева Одинахон Мамировна, Уктамова Жумагуль Акмалжановна** Психическое здоровье как психологический феномен
147	**Xudaynazarov Tursunali Alinazarovich** Talabalarining o'quv va kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini o'rganishning amaliy ahamiyati
151	**Юнусзода Шахноза Жовиджоновна** Инклюзивные установки: сущность, принципы их Формирования
157	**Rakhmatova Mehriniso Musinovna** Концептуальная метафора: «мир» в политической речи
161	**Xakimov Obidjon Orifovich** Talabalarni gender tenglik tamoyillari asosida ijtimoiy faollikka yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlari
168	**Ozotov Akbarjon Odiljon o'g'li, G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna** "Cho'qintirgan ota" hamda "shaytanat" romanlarida ota diskursining diniy va kulturalogik qarashlari qiyosiy tahlili
174	**Astanakulov Kamalitdin Maxkamovich** Sinergetik yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligi (xorijiy tajribalar tahlili)
181	**Khodiyeva Yulduz Yunusovna** Creative approaches and the use of information technologies in foreign language teaching: the case of scamper technology
186	**O'tapov Ziyo Bakirovich** Kiberbulling va deviant xulq-atvor: psixologik profilaktika va korreksiya
191	**Surayyo Mansurova** Cooperation between preschool educational institutions and parents in reggio pedagogy: analysis of approaches
196	**Soliyeva Nafosat Abdiqahorovna** Bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish
200	**Boltayeva Zilola Bobojonovna** Tarbiyaviy jarayonda gender xususiyatlarini aniqlash mezonlari
204	**Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich** Python dasturlash tilida algoritmik tafakkurni shakllantirish usullari
209	**Xaliqova Gulnora Tuxtamurodovna** Informatika va axborot texnologiyalarini fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va metodik samaradorligi
214	**Xalilov Shaxobiddin Fayziyevich,**

	Mirzaqobilova Lola Niyatqobilovna, Chekli erkinlik darajalariga ega bo‘lgan mexanik sistema sifatidagi sentrifuga tipidagi urchuq dinamikasi
220	**Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi** Maktabgacha ta’limda steam loyihaviy faoliyati orqali bolalarda hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantirish
223	**Dilfuza Karimova Abdukayumovna** Umumta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni Amalga oshirish metodikasi
227	**Mardanov Uktamjon Rustamovich** Oydin hojiyeva she’riyatida botanikaga oid terminlarining uslubiy xoslanish imkoniyatlari
232	**Ravshanova Orzigul Sayfullayevna** Pedagogik mahoratni rivojlantirish yo‘llari
237	**Suvanova Mavjuda Xamrakulovna** Navoiy viloyati taqvimiy etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili
243	**Tuxtayev Quvonch Hamraqulovich** “Differensial tenglamalardan” ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etishni takomillashtirish
248	**Xamrayev Ilyos Radjabboyevich** Yashil iqtisodiyot sharoitida quyosh va shamol energiyasidan iqtisodiy samarali foydalanishni tashkil etish
254	**Djurayeva Perdegul Saidovna** Methodology for developing students' creativity oriented in learning research and design in classrooms and out-of-class activities based on steam education
261	**Гузал Тохировна Зарипова** Эволюция французской классицистической трагедии XVIII века: преемственность традиций и принципы просвещения
265	**Усманова Рахима Мамаюсуповна** Цифровая трансформация рки: использование генеративного ии для формирования функциональной грамотности
269	**Axmedova Zamira Shirinovna** Maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyat samaradorligini baholash indikatorlari
273	**Tursunqulov Sanjar Dilmurod o‘g‘li, Xo‘rozova Zarina G‘ayratjon qizi** Chet tilini o‘rganishda audio, video va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi
278	**Abdullayeva Aropatxon Rustamovna** Yoshlardagi oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlariga ota-onalarning turmush tarzini ta’sirini ijtimoiy psixologik tadqiq etish
282	**Amirqulova Nargiza Amirqulovna** Ingliz tilida qo‘shma so‘zlarning mohiyati va ularning tasnifi masalasi
286	**Artikova Muslimaxon G‘ayratjon qizi** Oila konsepti tushunchasi va uning tilshunoslikdagi ahamiyati
291	**Atamurodova Feruza Tashmurotovna** XX asr ingliz realizm romani: janr differensiyasi va dramatik-estetik xususiyatlari
295	**Boltayev Chutkul Boltayevich** Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida chet tilini o‘qitishning istiqbollari va muammolari
300	**Alimova Umida Raxmatillayevna** Ayollarda ptsd (posttravmatik stress buzulishi) rivojlanish omillari
304	**Azamov Abubakir Ne‘matjon o‘g‘li, Xurramova Nodira Choriyor qizi** Kognitiv jarayonda diqqat bilan xotira integratsiyasining nazariy va amaliy tahlili
308	**Djurakulova Dilfuza Farxodovna** Kognitiv-xulqiy terapiyada aybdorlik hissini tahlil qilish
313	**Eshpo‘latova Marvarid Dilshod qizi** Oliy ta’limda innovatsion fikrlashni shakllantirishda Motivatsiyaning psixologik omillari

317	**Gulomova Komila Maxmatjanovna** Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri
321	**Soatmurodova Aziza O'rolovna** The concept of collocation in english linguistics
325	**Ismoilova Nilufar No'monjon** Tilshunoslikda matn masalasining o'rganilishi
328	**Javliyev Fayzulla Maxmadustovich** Talabalar ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim muhitining psixologik omillari
335	**O'rozboeva Gulshanoy Ixtiyor Qizi** Ijtimoiy tarmoqlarning inson psixikasiga ta'siri
339	**Khotamova Parvina Ilhomovna** Different techniques for improving clarity and conciseness in scientific writing, including the use of parallel structure and eliminating redundancy
344	**Mamatqulov Ilhomjon Chorshanbiyevich** Mustaqillik yillarida tasviriy san'at turlarining Rivojlanishiga hissa qo'shgan rassomlar
350	**Axnazarova Diyora Erkin qizi** Turmush qurish yoshidagi yigitlarning o'ziga juft tanlashdagi stereotiplarini o'rganish
354	**Shukurullayeva Nigora Ilhom qizi, Fayzullayeva Gulrux Jumaniyozovna** Talabalar IELTS (international english language testing system) imtihoniga tayyorgarlik ja-rayonida motivatsiyaning roli
360	**Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna** Abu rayhon beruniyning "Osor ul-boqiya" asari va uning ingliz tiliga tarjimasidagi sharqona toponimlarning tahlili
364	**Sattorova Mohira Aminqulovna** Bo'lajak maxsus pedagoglarning inklyuziv kompetentligini takomillashtirish
367	**Yodgorova Nigora** Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalish Tizimining qiyosiy-tipiologik tahlili
373	**Maxkamova L.M** Insult xastaligi natijasida vujudga keluvchi nutq buzilishlari va uning bilish jarayonlariga ta'siri
377	**Maxmudova Fotima Maqsud qizi** Ijtimoiy tarmoqlar diskursining tipologiyasi va tasnifi
382	**Mo'minov Baxtiyor Karamatovich** Interyer va eksteryer dizaynida kolorit asosida rang berish usullari
388	**Gaziyeva Nozima Shoirjon qizi** Oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishda nizolar profilaktikasi
394	**Normatova Durdonaxon Po'latjon qizi** "Ravshan" dostonidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari
398	**Normurodova Nargiza Baxtiyor qizi** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fortepianoda o'qitish Jarayonida musiqiy qobiliyat va motivatsiyaning psixologik shakllanishi
404	**Marupova Aziza Akhtamovna** Artistic and ideological features of margaret mitchell's Writing: a stylistic reassessment
408	**Farmonov Bahodir Do'stmurodovich, Jumanazarov Samandar Urinovich** Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi yalabalarining ingliz tili darslarida amalda foydalanilayotgan o'quv materiallarning tahlili
414	**Turg'unpo'latova Musharraf** O'smirlar ijtimoiy xulq-atvorining psixologik determinantlari ilmiy-nazariy jihatlari
418	**Qosimov Shavkat Urolovich** Amaliyot platformasi orqali pedagogik tayyorgarlikning didaktik rivojlantirish mexanizmlari

423	**Razakov Farxod Kuvondikovich** Talabalarda o‘zini boshqarish (self-regulation) va prokrastinatsiya o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik
430	**Salimova Marjona Salomovna** Imkoniyati cheklangan shaxslardagi real va ideal “men” o‘rtasidagi tafovut tahlili
437	**Salomova Guli Shodimurodovna** Talabalarning tanqidiy tafakkuri axborotlarni tahlil qilishda asosiy faktor sifatida
442	**Samadova Dilnora Azim** Boshlang`ich ta’limda stressiz baholash konsepsiyasi yaponiya tajribasi va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari
446	**Saypnazarova Mirigul Kalknazarovna** Talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini-o‘zi boshqarish va faollikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar
451	**Turdiyeva Latofat Almardonovna** Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda viktim xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 06-son, 2026

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 22-fevral № 064916-sonli guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan 10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан на основании свидетельства № 064916 от 22 февраля 2023 года.

Журнал включён в перечень обязательных научных изданий, в которых должны публиковаться основные результаты диссертационных исследований, решением Президиума ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 29 декабря 2023 года № 347 по следующим научным специальностям: 10.00.00 – филология, 13.00.00 – педагогика, 19.00.00 – психология.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro,
№ 6-son, 1-qism 2026-yil 463 b.